

63,3
F 81/

F. BOYNAZAROV

QADIMGI DUNYO TARIXI



«IQTISOD-MOLIYA»

63. 3/oy
15-81

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

FAYZULLA BOYNAZAROV

QADIMGI DUNYO TARIXI

*Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
Oliy o'quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*



Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2006

Mazkur darslik Oliy o'quv yurtlarining I kurs talabalariga mo'ljallangan bo'lib darslikda antik davr tarixchilari asarlarida keltirilgan Vatanimizning qadimiy tarixiga oid ma'lumotlar chuqur o'r ganilgan va qiyosiy tahlil qilingan. Binobarin, darslik bilan batafsil tanishib chiqqan talabalar xalqimiz ham jahon tarixida azal-azaldan o'ziga xos o'ringa ega ekanligiga yana bir bor amin bo'lishiga ishonchimiz komil. Chunki kitobda keltirilgan tarixiy dalillar, antik davr mualiflarining fikrlari, kuzatish va xulosalari ularning bilimlarini boyitish bilan birga tarixiy tafakkulari shakllanishiga xizmat qiladi.

Takrizzilar: t.f.d, prof. A Axmedshina
t.f.d, prof. M. Is'hoqov,
katta o'qituvchi A. Xudoikulov

Fayzulla Boynazarov

Qadimgi dunyo tarixi: darslik/Fayzulla Boynazarov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'limgazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006 y. 384 bet.

BBK 63.3(0)3 ya7

ISBN 978-9943-13-008-1

© «IQTISOD-MOLIYA», 2006

KIRISH

Insoniyat o'zining ilk go'daklik davriga hamma vaqt hayrat ila qarab kelgan. Bu davrni biz antik dunyo deb ataymiz. Chunonchi, antik dunyoda yashagan bobokalonlarimiz hayotiga qiziqishimiz kuchli. Tabiiyki, ular o'z tili, adabiyoti, san'ati va madaniyatiga ega bo'lishgan.

Atoqli olimlardan X.Kor — O'g'li¹, N.Mallayev², A.Alimuhamedovning³ ta'kidlashicha, madaniyatning asl beshigi sharq mamlakatlari hisoblangan dastlabki adabiy yodgorliklar, avvalo, Misr, Eron, Xitoy, Hindiston, Bobil kabi mamlakatlarda yaratilgan.

Antik davrlarni o'rganishimizda yolg'iz arxeologik qazilmalar kifoya qilmaydi, faqt ularning o'zi bilangina qanoatlanmaymiz. Bu qadim topilmalar g'oyat go'zal va qanchalik noyob bo'lmasin, biz ularning faqt tashqi shakliga qarab fikrlaymiz, taxmin yuritamiz.

Biz antik davrlarda yashagan bobokalonlarimizning timsoliy shaklini emas, jonli hayotini ko'rgimiz, ular bilan dardlashgimiz keladi. Bobokalonlarimiz qanday kishilar bo'lgan, ular ham o'z vatanini sevganmi, bosqinchi dushmanlarga qarshi kurashganmi - mana shularni bilgimiz keladi. Hozirgi daryolar, shaharlar, tog'lar antik davrda ham xuddi shunday bo'lganmi, ularni o'z ko'zimiz bilan ko'rsak deymiz. Buning imkonи bormi? Axir, bu haqda hech bir yozma manbaga ega emasmiz-ku? To'g'ri, antik So'g'diyonadan bizga yozma «guvoh» yetib kelmagan. Qadim ajdodlarimiz haqida «so'zlovchi» shaharlarning qoldiqlari, go'zal san'at obidalari, bebaho arxeologik topilmalar qolgan, xolos.

Biz avlodlar qalbini bir bebaho boylik o'ziga asir etadi. Bu qadim So'g'diyona haqida hikoya qiluvchi grek va Rim adabiyoti namunalaridir. Ularni varaqlasak, Markaziy Osiyo xalqlarining og'zaki ijodiyoti juda qadim zamonlardayoq o'ziga xos ravishda rivojlanganligining guvohi bo'lamiz. Bunday og'zaki ijod namunalari bo'l mish «To'maris» afso-

¹ X. Kor — Og'li. Uzbechkaya literatura. M., «Vissaya shkola», 1976, str. 5—7.

² N. Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, «O'qituvchi», 1976. 27—30 betlar.

³ A. Alimuhamedov. Antik adabiyot tarixi. Toshkent, «O'qituvchi», 1976, 5- bet.

nasi Gerodotning¹ «Tarix» asaridan, «Shiroq» afsonasi esa Polienning «Harbiy hiylalar» kitobidan salmoqli o'rin egallagan. «Greklar o'zlarining go'daklik davrlari bilan, kishilikning mukammal va mumtoz namoyandalari sifatida, butun kishilik jamiyatining go'zallik davrini ifoda qiladilar. Homer dostonlarini o'qirkan, kishilik dunyosi o'zining porloq go'daklik (faqat greklarnikini emas) davrini xotirlaydi»², deb yozgan edi ulug' rus tanqidchisi V.G. Belinskiy. Haqiqatning asl ifodasiga ega bo'lган bu so'zlar insoniyatning go'daklik davrini kuylovchi Homer asarlari naqadar bebaho ekanligini tasdiqlaydi. Hamma xalqlarning go'daklik davri bir-biriga o'xshash va mumtoz holda kechgan. Shuning uchun ham, faqat o'zimizning emas, o'zga xalqlarning antik davrlariga ham qiziqish bilan qaraymiz. Homer dostonlarida tasvirlangan voqealar bizga yaqindan tanishdek, ular go'yo ona tariximiz haqida hikoya qilayotgandek tuyuladi. Jahonda grek adabiyotidan ma'naviy oziq olmagan biron ta adabiyot topilmasa kerak.

Antik dunyoning badiiy go'zalligiga asos solgan Homer ijodigina emas, shu bilan birga, Esxil, Sofokl, Yevripid va Aristofan kabi so'z san'atkorlarining nodir adabiyot durdonalari ham bitmas-tuganmas badiiy estetik zavq manbayidir. Gesiod, Gerodot, Fukidid, Ksenofont kabi tarixiy nasrni go'zal sahifalar bilan boyitgan ulug' iste'dodlarning mo'tabar nomlari ham biz uchun g'oyat qimmatlidir. Bu adiblarning asarlarida antik o'tmishning o'ziga xos qirralarini kuzatamiz.

Antik dunyoning yana bir go'zal badiiy sahifasi bo'lmish Rim adabiyoti ham yunon adabiyotidan oziq olib, uning ta'sirida rivojlandi, taraqqiy etdi. Antik davrning so'nggi bosqichi hisoblangan Rim adabiyoti ham insoniyatga olam-olam ma'naviy boyliklar in'om etdi.

Darhaqiqat, grek va Rim adabiyoti misolida biz o'z o'tmishimizning go'daklik davrini ko'ramiz. Boy va betakror tariximizning antik davri tasvirlangan go'zal sahifalarga duch kelamiz. Hatto, Homer

¹ Gerodotning eramizdan avvalgi V asrda, Polienning eramizdan avval II asrda yashaganligini eslasangiz, O'rta Osiyoda og'zaki ijod qadim davrlardayog rivojlanganligining guvohi bo'lasiz. «To'maris» afsonasidagi Eron shohi Kir (eramizdan avvalgi 559-529- yil), «Shiroq» afsonasidagi Doro I (eramizdan avvalgi 521-489- yil)ning yashab o'tgan davrini nazarda tutib, bu afsonalar shu yillar atrofida yaratilganligini aniqlash mumkin. — *Muallif*.

² V.G. Belinskiy, Tanlangan asarlar, O'zbekiston SSR Davlat nashriyoti, Toshkent, 1955, 173- bet.

davrlardayloq, skiflarning nomi uzoq Afinaga yetib borgandi. Bu o'rinda Homerning skiflar haqidagi fikri beixtiyor e'tiborimizni o'ziga jalb etadi. «Homer o'zining poemasida skiflar haqida kuylagan edi, - deb yozadi Flaviy Arrian «Aleksandrning yurishi» asarida - Skiflar haqiqatgo'y odamlar bo'lgan. Ular Osiyoda yashaydi, biroz kambag'alrog'-u, ammo juda haqiqatgo'y»¹.

Bu satrlarni mutolaa qilib turib, chuqur o'yga tolasan, kishi. Eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarda yashagan yunon shoiri Homerning skiflarga bunday ta'rif berishi tasodifiy hol bo'lmasa kerak. Bundan ayon ko'rindiki, o'sha davrlardayloq Gretsiya bilan Markaziy Osiyo o'rtasida siyosiy-madaniy aloqalar mavjud bo'lgan. Qondimdan jahon kezishni eng yaxshi odat deb bilgan grek va Rim sayyoohlari Markaziy Osiyoga bir necha marotaba tashrif buyurishgan. Gretsiya, O'rta Osiyo, Xitoy, Hindiston mamlakatlari orasida karvon tinimsiz qatnab turgan. Eramizdan ancha ilgariyoq Markaziy Osiyoliklarga Filotun - Aflatun (Platon), Suqrot (Sokrat), Arastu (Aristotel), Buqrot (Gippokrat), Faysog'uras (Pifagor) nomlari yaqindan tanish edi. Bu ulug' olimlarni o'rta osiyoliklar xuddi o'zlarining donishmandlaridek hurmat bilan tilga olganlar. Ular huqida xalqimiz orasida donolik va aql-farosatdan hikoya qiluvchi xilma-xil afsonalar yaratilgan.

Uzoq yunon o'lkasi bilan Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida qadim-qadim zamonaldayloq madaniy aloqa bo'lganligini aniq misollar orqali ham isbot etish mumkin. Jumladan, fessaliyaliklarning qadimiy yodnomasi bo'lgan «Ellada qahramonlari» asarida Amazonkalar haqida hikoya qilinadi². Muarrih adib Yustinning fikricha, Amazonkalar skif avlodlaridan bo'lgan ekan³.

Ulug' yunon fofianavisi Esxilning (eramizdan avvalgi VI asrda yashab o'tgan) fikricha, inson zotiga olov hadya etmoqchi bo'lgan Prometey hukmdor Zevsning qahriga uchrab, skiflar o'lkasidagi qoyaga zanjirband qilinadi⁴.

¹ Arrian Flaviy. Poxod Aleksandra, izd-vo AN SSR, M-L., 1962, str. 33.

² Ellada qahramonlari, Toshkent «Yosh gvardiya», 1976, 134-136- betlar.

³ Yustin. Epitoma Pompeya Troga. Vestnik drevniy istorii, 1954, № 2, str. 211.

⁴ Esxil. Zanjirband Prometey. G.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1978, 11- bet.

Eramizdan avvalgi VI-V asrlardayoq bo'lib o'tgan eron-yunon urushi chog'ida uzoq yunon o'lkasidan Barkalik butun bir elat Baqtriyaga, Milet o'lkasidagi Branxid va Everget qabilalari So'g'diyonaga Eron shohi Kir tomonidan badarg'a qilingan edi¹. Bu haqda Kursiy Ruf o'zining «Aleksandr Makedonskiy tarixi» asarida shunday bir qiziqarli lavha keltiradi. Aleksandr branxidlar yashayotgan shaharga yetib boradi. Branxidlar shohni yaxshi kutib olib, darrov uning amriga bo'ysunadi. Miletliklar ilgaridan branxidlarni sotqinligi uchun yomon ko'rishar edi. Shuning uchun shoh branxidlar taqdirini hal qilishni ularga topshirdi.

Miletliklar bu muammoni hal qila olmagach, shoh uni o'zi hal qilish uchun kirishib, shaharni o'rab oladi-da, bitta ham odam qoldirmay qirib tashlaydi. Hatto shahar devori ham yer bilan tep-tekis qilinib, daraxtlar ham ildizi bilan qo'porib tashlanadi, toki bu yerda biron bir daraxt ko'karmasligi va qayta hayot bino bo'lmasligi uchun shunday qilinadi. Bu shoh tomonidan ijro etilgan vahshiylik bo'lmay, balki sotqinlardan odilona o'ch olish uchun qo'llanilgan usul edi².

Mana shu misollarning o'ziyoq, ayrim grek qabilalarining qadimdan bu yerda yashaganligi, yunonlar bilan o'rtasida osiyoliklar o'rtasida madaniy va iqtisodiy-siyosiy aloqalarning qadimdan mayjud bo'lganligidan, bir-birining urf-odati, madaniyati, tarixi va adabiyotini o'rganishga qiziqish paydo bo'lganligidan dalolat beradi.

Qadimgi Yunon viloyati bilan Markaziy Osiyo (Marg'iyyona, Girkaniya, So'g'diyona, Baqtriya) va hatto Kaspiy bo'yłari, Kavkaz, Parfiya, Hindiston o'rtasidagi turli xil aloqalarning mavjudligini yo'l-yo'lakay bayon etib borishga harakat qilamiz. Qadimdan Eron, Gretsya, Makedoniya, Misr, Parfiya, Midiya, Girkaniya, So'g'diyona, Baqtriya, hatto hind va rimliklar o'rtasida ham mustahkam do'stlik aloqalari mayjud bo'lgan. Urush tufayli, savdosotiqa, madaniy va adabiy aloqalar orqali bo'lsa-da, bu o'lkalarda yashovchi qabilalar, ellar va elatlар vakillari bir dasturxonadan tuz-nasiba yeyishgan, quda-qudag'ay bo'lishgan. Bir sigirning sutini ichishgan, bir qo'yning go'shtini yeyishgan, hatto bir xonadonda yotishgan. Bir-birining tilini o'rganishgan, bir-birining diniga e'tiqod

¹ Arrian. Poxod Aleksandra, izd-vo AN SSR, M-L., 1962, str. 128.

² Kursiya. R. Istorya Aleksandra Makedonskogo, str. 269.

qo'yishgan, bir-birining urf-odatlarini qabul qilishgan. Yoinki bir kuyni tinglab, bir qo'shiqni jon-dili bilan ijro etishgan. Bir-biridan nasl-nasab orttirib, et bilan tirdoq kabi birikib ketishgan. Musofirlik azobini birga totishgan. Taqdir taqozosiga ko'ra ularning jasadi ham bir joyga qo'yilgan. Ko'pgina tarixchilar, mabodo Eron, Gretsiya, Misr, Makedoniya, Rim, Marg'iyona, Girkaniya, Turkiya, Kavkaz, So'g'diyona, Baqtriya, Hind o'lkasining antik dunyosi haqida so'z yuritishganda faqat qirg'inbarot urushni, jaholatni, vahshiylikni, yovuzlikni eslashadi. To'g'ri, bularning hammasiga urush sababchi, ammoye mustahkam do'stlik, quda-andachilik, qo'shnichilik va hamdardchilik, madaniy va adabiy aloqalar ham bo'lgan-ku? Qadimgi dunyo xalqlarining turli xil aloqalari haqida yoki urushlar tarixiga to'xtalganda masalaning mana shu tomoniga ham e'tibor berishimizga to'g'ri keladi. Biz ajdodlarimiz xotirasiga sodiq qolib, xalqlar o'ttasidagi do'stlikni mustahkamlash tarafdoi bo'lishimiz kerak. Qadimgan xalqimiz musofirga joy bergen, suv, tuz-namak ulashgan. Bu bejiz emas. E'tibor bergen bo'lsangiz, ayniqsa, ayrim makedonlar, greklar, italyanlar, forslar, arablar, turkmanlar, o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, afg'onlar, hindlar, mo'g'ullarning tashqi ko'rinishlarida ham, hatto xarakterida ham ko'p jihatdan o'xshashliklari bor. Bu mamlakatlar vakillarining ko'pchiligini bir joyga yig'ib, bir xil kiyim kiyintirsangiz, ularning yuz ko'rinishiga qarab qaysi millatga daxldor ekanligini ajratish qiyin. Chunki turli xil sabablarga ko'ra ajdodlarimizning bir-birlari bilan qonlari qo'shilib ketgan. Masalan, Kursiy Rufning ta'kidlashicha, Aleksandr o'zining urf-odatiga sodiq qolgan jangchilarni mahalliy xalq bilan aralashtirardi¹. Bundan tashqari, Aleksandr Makedonskiy davrida ko'pgina o'rtta osiyoliklar jungechi yoki asir sifatida olis Makedoniya yoki Gretsiyaga borib, o'sha yurtlarda uylanib, bola-chaqali bo'lib qolib ketishgan. Kir, Doro davrlarida ham bobokalonlarimiz Eron va Misr o'lkalariga borib qolgan. Ehtimol, ularning nasllari hozir ham yashab kelayotgandir. Yoki qadimgan Markaziy Osiyoga kelib qolgan greklar, eronliklar, arablar hozir ham biz bilan do'st bo'lib, quda-qudag'ay bo'lib yashashmoqda. Shu jihatdan olib qaraganimizda, uzoq tarixga borib taqalgan xalqlar o'ttasidagi do'stlikni mustahkamlash bugungi avlodlarning ham burchidir.

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 197- bet.

Darhaqiqat, «Iliada» va «Odisseya» dostonlarida eramizdan avvalgi XIII-XII asrlar voqealari tasvirlanadi. Bu davrda greklar bilan troyaliklar o'rtasida bo'lib o'tgan qirg'inbarot urush o'n yildan ko'proq vaqt davom etadi. Homerning «Iliada» dostonida tasvirlanishicha: yunonlar Troya yerlarini zabit etganlarida Qora dengiz sohillariga - Paflagoniya, Sangariy viloyatlariga kelganligi, Hippomolglar¹ bilan uchrashganligi qayd qilinadi. Biroq, shu o'rinda Homer qaysi asrni nazarda tutyapti? O'zi yashagan zamoninimi yoki Yunon-Troya urushi (eramizgacha XIII-XII asr) davrinimi? Masalaning bu jihatni hozircha tarixchilarga ma'lum emas. Osiyoning g'arbida joylashgan, qulay va go'zal geografik sharoitga ega bo'lgan, hozirgi Turkiya davlati hududida barpo etilgan muhtasham va ulkan Troya shahrini greklar o'n yil davomida qamal qilib turadi. Greklarning ayrim to'dalari o'shanda skiflar yurtiga kelgan. Greklarning Olviya o'lkasiga qachon va qanday kelib qolganligi xususida olimlar o'rtasida hamon kuchli munozara, tortishuv ketmoqda. Ba'zi bir tadqiqotchilar greklar Panta viloyatiga, Olviya o'lkasiga eramizgacha XIII asrda bo'lib o'tgan Yunon-Troya urushi paytida kelib qolgan desalar boshqa bir guruh tadqiqotchilar ular eramizdan avvalgi XIII asrda ulkan Gretsiya devori bilan bog'liq davrda kelgan, degan fikrni olg'a suradilar.² Ma'lumki, eramizdan avvalgi VIII asrga kelib Yunon davlati shu qadar kuchayib ketadi, u Kichik Osiyo va Osiyo mamlakatlarining bir qismi bo'ylab to Qora dengiz atroflarigacha «Grek devori» deb atalmish chegarada mustahkamlanadi.

Bu ulkan davlat chegarasining eng chekka o'lkalariga grek qabilalari ko'chib kelib, keyinchalik bu yerlarda o'rtoq bo'lib yashab qolishadi. Olviyadagi grek qabilalari bilan Gretsiya o'rtasida mustahkam madaniy aloqa mavjud edi. Homerning eramizgacha bo'lgan VIII asrda yashaganligini hisobga olsak, olviyalik greklar haqida shoir chuqur ma'lumotga ega bo'lganligini payqaymiz. Olviyalik greklar esa skiflar bilan yonma-yon yashashardi. Grek qabilalari bilan skiflar o'rtasida yaqin qo'shnichilik aloqalari, o'zaro iqtisodiy bog'lanishlar bo'lib turgan. Homer o'shanda olviyalik greklardan skiflar haqida turli xil

¹ Hippomolglar — «Biyasog'uvchilar». Qimiz ichib kun kechiruvchi xalq. Ayrim manbalarda ular skif qabilalari bo'lsa kerak, deya taxmin qilinmoqda.

² Latishev V. V. Izvestiya drevnix pisateley o Skifi i Kavkaze. Vestnik drevney istorii. 1948, № 2 Ribakov B. A. Gerodotova. Skifiya. M., izd-vo «Nauka», 1979.

afsonalar, rivoyatlar eshitganligi, haqiqatdan darak beruvchi hikoyalar tinglaganligi shubhasizdir.

Shu o'rinda skiflarning o'zi kimlar, degan savolning tug'ilishi tabiiy. Skiflar haqida izchil ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan rus olimi V. N. Dyakovning fikricha, «skiflar Markaziy Osiyodan tarqalgan ularning tili shimoliy eron guruhiga yaqin edi. Ularning ona tillari O'rta Osiyoda yashovchi sak va massaget qabilalarinikiga o'xshash bo'lган. Ilgari kimmeriyalar yashagan yerlarni skif qabilalari egallab olgandi».¹

Skiflar haqida yirik tadqiqotlar yaratgan yana bir olim L. V. Ditmarning fikricha, «skiflar, asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan ko'chmanchi qabilalardan bo'lib, asosan cho'l joylarda yashashardi (Rossiyaning janubiy qismida joylashgan).²

Skiflar o'zlarini eng qadimgi qabilalardan deb hisoblashardi. Rim adibi Yustinning fikricha, «skiflar Osiyodan tarqalgan bo'lib, eng qadimgi qabilalardan biri edi. Qadimiylikka daxldorlik haqida skiflar bilan misrliklar o'itasida qattiq bahs bo'lardi».³

Yuqoridaagi fikr va mulohazalar Markaziy Osiyodan tarqalgan skiflarning dovrug'i qadim-qadim zamonaldayoq uzoq Gretsya va Rimgacha yetib borganidan darak berardi. Xo'sh, Yevropa yerlariga skiflar qanday qilib kelib qoldi? Volga, Don, Dnepr va hatto Dunay daryolari bo'yalariga nima uchun skiflar ko'chib kelib, bu yerlarda mustahkam joylashib olishdi? Bu savollarga nisbatan to'g'ri javobni grek adibi Gerodot ijodidan qidirishga harakat qilamiz.

Gerodot asarlarining to'rtinchı kitobi, o'n birinchi bobida berilgan hikoyada skiflarning kimmeriyalar yurtiga qanday qilib kelib qolganligi voqeasi bayon qilinadi. Unda aytishicha, skiflar ko'chmanchi qabilalar bo'lib, aslida Osiyoda yashagan, so'ngra ular Araks⁴ daryosi bo'yida massagetlar bilan bo'lган jangda mag'lubiyatga uchraganlardan so'ng kimmeriyalar yeriga kelib qoladi. Skiflar bu yerlarga juda katta qo'shin bilan bostirib kelishadi. Shunda kimmeriyalar o'zaro kengashib oladilar. Shoh mamlakatni skiflar hujumidan himoya qilish kerak desa, xalq

¹ V. N. Dyakov. Drevnyaya Tovrika do rímskoy okkupasii, uch. Zap. MGPN im. Lenina, tom XXVIII v.1, str.4.

² L. V. Ditmar. Ot skifa do Elefantini, M., 1961, str. 22.

³ Yustin. «Epitoma Pompeya Troga». Vestnik dreyney istorii. 1954, № 2, str. 211.

⁴ Araks-Oks—Amudaryo.

behuda qon to‘kishning befoydaligini aytib, uzoq yurtlarga ketishni taklif etadi. Bir qarorga kela olmagan kimmeriyalar o‘rtasida o‘zaro nizolar kelib chiqadi. Shunday qilib, kimmeriyalar ikkiga bo‘linadilar. Bir qismi o‘z yerlarini tashlab ketmoqchi bo‘lsa, boshqa bir qismi skiflarga qarshi kurashga otlanmoqchi ekanliklarini (shoh tarafдорлari) ma’lum qiladilar. Ikki o‘rtada qattiq jang boshlanadi. Xalq shoh tarafдорларини o‘ldirib, ularни Tir daryosi bo‘yiga dafn etadi, so‘ng yerlarini tashlab, uzoq ellarga ketadilar. Kimsasiz qolgan kimmeriyalar yerlarini skiflar egallab oladi.¹ Shu tariqa, greklar (Olviya) bilan skiflar o‘rtasida yaqin aloqa va o‘zaro qo‘sningchilik munosabatlari boshlanadi.

Shunday qilib, skiflar Don, Dunay, Volga, hatto Dnepr daryolari bo‘ylariga ko‘chib boradilar. Skiflarning bu yerdarga kelib qolish tarixi haqida Gerodot yana bir qancha qiziq-qiziq hikoyalari yozib qoldirgan. Gerodot ijodi to‘qqizta kitobdan iborat. Uchinchi kitobning bir qismi va to‘rtinchi kitob to‘liq holda skiflar hayotiga bag‘ishlangan.

Gerodotni biz tarixchi sifatida yaxshi bilamiz. Ammo uning ijodiga yaqindan yondashsak, eng avvalo, grek adabiyotining ulug‘ namoyandasi bo‘lganligining ham guvohi bo‘lamiz. To‘qqiz kitobning har biri yuz elliq va undan ortiq hikoya, rivoyat va o‘ziga xos tarixiy novellalarini o‘z ichiga oladi.

Gerodot kitoblari orqali biz o’sha davrda Markaziy Osiyoda xalq og‘zaki ijodi ancha rivojlanganligini bilamiz.

Darhaqiqat, ilk xalq og‘zaki ijodi namunalari hisoblangan «To‘maris», «Shiroq» afsonalarini ham Gerodot, Polien ijodida uchratamiz. Hatto bu afsonalarning ham ma’lum darajada tarixiy asosga ega ekanligini grek adabiyotining ulug‘ namoyandasi Ksenofontning epopeyasi orqali bilib olamiz. Ksenofontning «Anabasis», «10000 yurishi» asarlarida qariyb yarim asrdan ko‘proq davom etgan (eramizdan avvalgi 500-449- yillarda) Eron-Yunon urushi tasvirlanadi. Bu urushda Ahmoniyalar davlatning bir qismida yashagan o‘rtalari osiyoliklar ham ishtirok etgan. Eron-Yunon urushi chog‘ida asir tushgan ko‘pgina greklar, hatto O‘rtalari Osiyoga badarg‘a qilingan. Ko‘plab o‘rtalari osiyoliklar esa urush tufayli grek yerlarida qolib ketganlar. Ma’lumki, Markaziy Osiyo o’sha davrlarda (eramizdan avvalgi VI-V asr) ulkan Ahmoniyalar davlati qo‘l ostida edi. Shuning uchun ham, Doro So‘g‘diyona va baqtriyaliklardan juda katta kuch to‘plab, ulardan

¹ Gerodot. Istoriya v devyati knigax. Kniga IV, str. 302—303.

Eron-Yunon urushida foydalanadi. Eronliklar bilan grek-makedonlar o'rtaidagi keyingi urushda (eramizdan avvalgi IV) ham juda ko'p so'g'diyonaliklar qatnashadi. Bu urushda grek-makedoniyaliklar Ahmoniyalar¹ davlatining bir qismi bo'lgan So'g'diyonaga ham bostirib keladi. Bu davrda (eramizdan avvalgi 329-327- yillar) grek-makedonlar Aleksandrning buyrug'iga ko'ra, so'g'diyonaliklarning urf-odatini qabul qiladi. Hatto Aleksandrning o'zi ham safarda so'g'diyonaliklarning kiyimini kiyib yuradi. Buning sababi, so'g'diyonaliklarning kiyimi juda ko'rkam va ixcham bo'lib, ayniqsa, jang paytida kiyib yurish qulay edi. Sharqona kiyim Aleksandrga ham juda yarashardi. Aleksandr grek-makedonlarning kiyimini kiysa yosh bolaga o'xshab, o'z salobatini yo'qtib qo'yardi. Agar sharqlıklarning kiyimini kiysa savlatli va ko'rkam qilib, yaqinlarining nazarida Osiyo shohlaridek ulug'ver qiyofada ko'rindi.

So'g'diyonaliklar o'z vatanini bosqinchi yovlardan mardonavor turib himoya qilishgan. Ular Aleksandr qo'shinlariga har tomonlama hujum qilib, sira tinchlik bermaydi. Hatto Aleksandrning o'zi So'g'diyonada ikki marta og'ir yaralanadi. Natijada, u so'g'diyonaliklar bilan bitim tuzishga majbur bo'ladi. So'g'diyonaliklarga o'zini yaqin olib, go'zal Roksanaga uylanadi.

So'g'diyonalik Spitamen bosqinchi yovlarga qarshi kurashib, vatanparvarlikning yorqin timsoliga aylanadi. So'g'diyonada bo'lib o'tgan antik davrlardagi bunday tarixiy voqealar grek va Rim adabiyotida yaratilgan o'nlab asarlar sahifalarida o'zining yorqin ifodasini topgan. Kvint Kursiy Rufning «Aleksandr Makedonskiyning tarixi», Arrianning «Aleksandrning yurishi», Plutarxning «Aleksandr», Polienning «Harbiy hiylalar», Diodorning «Tarixiy kutubxona», Yustinning «Pompey Trog epitomi» (Pompey Trogning «Fili pp tarixi»), Strabonning «Geografiya» asarlarida So'g'diyonaning antik davrlari tasvirlangan.

Bu asarlar shunchaki tarixiy solnoma sifatidagina emas, balki ular go'zal badiiy tasvir asosiga qurilganligi bilan ham o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etadi. Ular vositasida antik davrlarda yashagan bobokalonlarimiz hayoti bilan yaqindan tanishamiz. Ularda ajdodlarimizning vatanparvar va jangovar ruhda bo'lganligi haqida hikoya qilinadi.

Mazkur asarlarda ona Vatanni mardonavor himoya qilgan Spitamen kabi xalqimizning milliy qahramonlari obrazi yaratilgan. Shuningdek,

¹ Ko'pgina manbalarda «Ahomaniyalar» deyilgan.

xalqimiz qadimdan o'z donishmandlariga ham ega bo'lgan. So'g'diyonada madaniyat gullab yashnagan. Antik ajdodlarimizning ham asl farzandlari bo'lgan. Bunday haqiqatga yaqin voqealardan hikoya qiluvchi sahifalarni o'qib, biz avlodlarning qalbi faxr hissi bilan to'ladi. Bu asarlarda Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon bo'ylarida bo'lib o'tgan tarixiy hodisalar, janglar o'zining haqiqiy badiiy ifodasini topgan. Muhtasham binolar vayron etilib, yonib kul bo'lgan qadim Samarqandning moziyadagi tarixiy qiyofasi ko'z oldimizda aniq gavdalananadi.

Aytish kerakki, Grek va Rim adabiyotining yorqin namunalari bo'lgan bu asarlarda qadim So'g'diyonaning go'zal badiiy tasviri mahorat bilan ifoda etilgan. Bu asarlar nimasi bilandir bizning qalbimizni o'ziga rom etadi. Balki, ular yurtimizning qadim o'tmishidan hikoya qiluvchi yagona jonli guvoh bo'lgani uchundir. Biz ularni qo'ldan tushirmay, berilib, qayta-qayta o'qigimiz keladi. Undagi tanish nomlar, qadrdon joylarga duch kelganimizda yuragimiz «jiz» etadi.

Antik davrlarda O'rta Osiyoda sak, skif, massaget, so'g'd, dax qabilalari yashagan. Biroq bu qabilalar hozirgi shakllangan o'zbek, tojik, qirg'iz, qozoq yoki turkman millatlarining qaysi biriga tegishli ekanliklarini aytish qiyin. Fanda turli xil taxminlar bor, ammo bu qabilalar antik davrlarda bir-biri bilan nihoyatda inoq, qon-qarindosh bo'lib yashaganliklarini payqash mumkin. Chunki ularning qismati, taqdiri bir bo'lgan. Urf-odati bir-biriga juda yaqin edi. Ular ona diyoriga bostirib kirgan bosqinchi yovlarga qarshi bir tan, bir jon bo'lib kúrashganlar. Kir va Doroning¹ bosqinchilik zulmiga qarshi mardonavor kurash olib borganlar. Ular birgalikda Aleksandr Makedonskiyga ko'p martalab talafot keltirgan. Eron va Yunon o'lkalariga son-sanoqsiz o'rta osiyoliklar qul qilib olib ketilgan. Ular turli qabila vakillari bo'lsa ham, o'zga yurtlarda musofirlik azoblarini birga tortib, hamdard yashaganlar.

Qadim zamonlardayoq bosqinchi yovlarga qarshi kurash yuksak insoniy-ijtimoiy tuyg'uga aylangan. Bu muqaddas tuyg'ularning yorqin timsoli Spitamen va uning do'stlari Datafern, Katen faoliyatlaridir. Bugungi kunda biz avlodlar uchun Spitamen siymosi yuksak vatanparvarlik ramziga aylangan. Biroq so'g'diyonaliklarning bunday

¹ Bu o'rinda V asrga tegishli Eron shohi Doro bilan III asrda yashagan Doroni nazarda tutmoqdamiz. Ikki Doroni bir-biriga chalkashtirmslik kerak.

bosqinchi yovga qarshi mardonavor kurashlarini ba'zi tadqiqotchilar noto'g'ri talqin qiladilar. Jumladan, «Ellinizm tarixi» kitobining muallifi, atoqli tarixchi I. G. Drayzen Spitamen harakatini «yovvoyilik» alomati deb noto'g'ri baholaydi.¹

Aleksandr O'rtta Osiyodan orttirgan boyliklarini Makedoniyaning Aleksandriya shahriga ketma-ket jo'natib turgan. Rus olimi M. M. Lyutovning fikricha, Aleksandr Osiyodan shu qadar behisob boyliklarni Makedoniyaga jo'natganki, masalan bir karvon boylikni yuklash uchun 10000 juft qo'tos va 3000 tuya kerak bo'lgan.²

Aleksandr Makedonskiy eramizdan avvalgi 332- yilda Aleksandriya shahrini qurish uchun ko'plab so'g'diyonalik ajoyib me'morlar, naqqoshlar, hunarmandlar, qo'li gul ustalarini qul qilib haydab ketgan. Bu yuksak san'at arboblarining ko'pchiligi taqdir taqozosiga ko'ra olis Gretsiya va Makedoniyada umrbod qolib ketganlar.

Professor V. V. Grigoryevning fikricha, Aleksandr O'rtta Osiyodan shu darajada behisob boyliklarni o'lja qilib oladiki, uning hisobi yo'q edi.³ M. M. Lyutov ham bu fikrni tasdiqlab, biringa Suz ibodatxonasidan qimmatbaho tillalar, mo'ynali buyumlar va boshqa boyliklar bilan birga 50000 talant tilla o'lja olinganligini aytadi.⁴

Mana shu misolning o'ziyoq grek-makedon qo'shinlari O'rtta Osiyoda talon-tarojlik qilib, turli-tuman boyliklarimizni talab ketganligidan dalolat beradi. Aslida, Aleksandr qo'shinlari O'rtta Osijo madaniyatiga vahshiyarcha munosabatda bo'lgan. Yuksak san'at obidalarimizni vayron qilgan.

Grek yozuvchisi Diodor Sitsiliskiyning «Tarixiy kutubxona» asarining yettinchi kitobida ta'kidlanishicha, Aleksandr harbiy yurish davomida 120000 so'g'diyonalikni qurban qilgan.⁵

Ko'rinib turibdiki, bunday voqealar Aleksandr shaxsini ulug'lash va nni ijobiy shaxs sifatida o'rganishimiz asossiz ekanligini isbot qiladi. Biz

¹ I.G.Drayzen. Istoriya ellinizma. Moskva, tipo-litograf.V.F.Rixter, 1891, str.183.

² M. M. Lyutov. Aleksandr Velikiy v Turkestane. Tashkent, tipo-litografiya S. I. Loxtina, 1890, str.8.

³ V. V. Grigoryev. Poxod Aleksandra v Turkestan. Jurn. M.N. P., sentabr, 1881, str. 28.

⁴ M. M. Lyutov. O'sha asar, 8- bet.

⁵ Diodor. Istoricheskaya biblioteka. Chast sedmaya. V Sankt-Peterburg, pri IMP AN., 1774, str. 109.

o'rganayotgan asarlarning ayrim sahifalarida Aleksandr obrazini ijobiy ma'noda tasvirlashga moyillik borligi seziladi.

O'z xalqimiz tarixini mukammal bilmas ekanmiz, o'zga xalqlar tarixini o'rganishimiz uchun ehtiyoj sezilmaydi. Zo'rma-zo'rakilik bilan o'rganilgan tarix sun'iydir.

Ma'lumki, xalqimiz tarixida urushlar solnomasi muhim o'rin tutadi. Ammo mana shu urushlar solnomasini o'rganish jarayonida davr va xalq tarixi bilan bog'liq muhim jumboqlarni yechish mumkin. Shunday ekan, sanalar ro'yxatini sanashdan uzoqlashib, voqealar mohiyatiga ko'proq e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

O'rta Osiyo, jumladan, turkiy xalqlar tarixiga yaqindan yondashar ekanmiz, muhim bosqich sifatida ahmoniyalar davri, Aleksandr Makedonskiy yurishi, arablarning kirib kelishi, Temuriylar sulolasi va hokazo, shu kabi yirik tarixiy voqealarni o'rganish va o'quvchiga yetkazish ahamiyatlidir. Shunday ekan, ushbu darslik faqat institut va universitetlarning fakultetlarida emas, respublikamizning barcha oliv o'quv yurtlarida o'tilsa ma'qul bo'lardi.

Holbuki, hozirgacha maktablar va oliv o'quv dargohlarida O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishga kam e'tibor berib kelinmoqda. Ajratilgan soatlar ehtiyojni mutlaqo qoniqtirmaydi. Hatto xalqimiz tarixidagi har bir muhim davrlarni alohida darslik qilib, ishlab chiqish mavridi yetib keldi.

Ushbu darslikning «Qadimgi dunyo tarixi» deb atalishiga sabab, Oks (Amu) va Yaksart (Sir) daryolari o'rtasida bo'lib o'tgan tarixiy voqealarga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, yana bir qancha masalalar bevosita O'rta Osiyo va qo'shni viloyatlar hududi bilan bog'liqdir. Yana shunisi e'tiborga loyiqliki, qadimgi O'rta Osiyoda hozirgidek shakllangan, chegaralangan respublikalar bo'lmagan. Bu yerda yashovchi xalqlarning taqdiri bir bo'lib, bir xonlik va shohliklarga birlashgan davrlar ko'p bo'lgan. O'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman elatlari bir tug' ostiga birlashib, bir maslak yo'lida erki va ibobili uchun kurashgan zamonlar bo'lgan. Bu narsa, ayniqsa, bosqinchilik urushlariga qarshi kurashda, salib yurishlarida, muhtojlik kunlarida yanada toblangan, zamon sinovlaridan o'tgan. Eng muhimi, milliy urf-odatlarimizning yaqinligidan tashqari, ko'pgina hollarda bir-birining qoni qo'shilib, aralashib ketgan. Endilikda qadimdan qismatlari o'xshash va yaqin bo'lgan xalqlarning do'stligini bobokalonlarimiz kabi yanada mustahkamlash lozim bo'ladi.

Hozir ham O'rta Osiyoning turli viloyatlarida arab, eron, grek kabi ko'plab qabilalar yashamoqda. Ular bu yerlarga bejiz kelib qolishmagan. Uzoq moziyning achchiq zayli ularni taqdir taqozosiga ko'ra bu yerlarga yetaklub kelgan. Hatto ularning ko'pchiligi o'z ona tillarini ham unutib o'rta osiyoliklar tillarida so'zlashadi. Ne-ne zamonalr o'tdi. Endilikda ular O'rta Osiyon haqiqiy vatanim deb bilishadi. Qachonlardir ajdodlari qismatlarini shu yerlarga bog'lashgan. Bu hayratli va adoqsiz tarixning yechilmagan jumboqlari hali juda ko'p. Shu tufayli antik o'tmis haqida gap ketganda alohida millat tarixini emas, iloji boricha O'rta Osiyodagi barcha elatlar, qabilalar tarixini bir mavzu ruhida o'rganishga e'tibor berish zaruriyati tug'iladi.

G'arbiy Yevropa tadqiqotchilar grek va rim tarixiy prozasini o'ziga xos miqtayi nazardan turib baholamoqdalar. Nemis olimi U.Vilken o'zining 1931-yilda nashr qilgan Aleksandr Makedonskiy haqidagi kitobida bu asarlar yuzasidan fikr yuritar ekan, Aleksandrni «Xalq manfaatini ko'zlagan shoh», deydi. Fransuz akademiyasining a'zosi, «Buyuk Aleksandr» nomli to'plamning muharriri Jyul Romen esa Aleksandr shaxsini buyuklashtirishga harakat qiladi. Amerika adibi A.S. Robinson o'zining bir asarida «Aleksandr umuminsoniy fikrlar g'oyasining tantanasini insoniyatga meros qilib qoldirdi», deb yozadi. Angliya tadqiqotchisi M. Tari ham Aleksandr shaxsini ulug'lashga harakat qiladi.

Bundan tashqari, Italiya tarixchisi Antonino Polyero, amerikalik olimlar V.Uiler, Katrlz, Angliya olimlari Berna, Toynbi, Fransiya tadqiqotchisi Jak Model, Jan Benua-Meshenlar ham Aleksandr nomini ulug'laydilar.

Chet ellik tadqiqotchilarning bunday g'oyaviy nuqtayi nazarini falsafa funlari doktori, professor A.S. Shafmon o'zining «Burjua tarixshunosligida Aleksandr Makedonskiy»¹ asarida birmuncha tanqid ostiga olib o'tgan.

Grek va Rim adabiyotida yaratilgan Arrianning «Aleksandrning yurishi», Kursiy Rufning «Aleksandr Makedonskiy tarixi», Polienning «Harbiy hiylalar», Plutarxning «Aleksandr va Sezar», Yustinning «Pompey Trog epitomi», Strabonning «Geografiya» asarlari O'rta Osiyoning antik davrlariga oid siyosiy va iqtisodiy masalalarni o'rganishda, etnografik va ijtimoiy jumboqlarni yechishda, shuningdek, geografiya, tabiatshunoslik va madaniyat tarixini tadqiq etishda muhim ahamiyatga egadir. Bu asarlarni

¹ A. S. Shafmon. Aleksandr Makedonskiy u burjuaznoy istografi. Voprosi istorii filologii i pedagogiki, vi p. 2, Kazan', 1967.

tarixchilar, geograflar, etnograflar, faylasuflar va boshqa bir qancha soha bilimdonlari o‘z sohasining talablari asosida o‘rganib kelmoqdalar. Ular mazkur asarlarni faqat tarixiy solnomalardan iborat, deb talqin etishmoqda. Tarix yaxlit holda ilmiy kuzatilgan deb baho berilmoqda. Holbuki, bu asarlar badiiylikning ham yorqin namunasidir. Unda tarixiy o‘tmish o‘zining badiiy ifodasini topgan.

Taniqli olim S.Ya. Lurye Gerodot hikoyalarining yuksak badiiy xususiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlaydi.¹

Gerodot ijodining badiiy xususiyatlari haqida V.Klinger², A.Dovatur³ kabi olimlar ham yirik tadqiqot ishlarini yaratganlar.

Arrian o‘zining «Aleksandrning yurishi» asarining dastlabki sahifalarida shunday yozadi: «Ham nasrda, ham nazmda Aleksandr haqida hech narsa yozilgani yo‘q. Agar yozilgan bo‘lsa, mayliga, avval o‘shalarni o‘qishsin, so‘ngra menikini, keyin o‘zlarini taajjublanadi»⁴. Mana shu fikrning o‘ziyoq Arrian, eng avvalo, badiiy asar yozishga qo‘l urganligini isbotlaydi.

Diodor haqida yirik tadqiqotlar olib borgan M. Mandes yozuvchining «Tarixiy kutubxona» asarini tahlil qilar ekan, «Diodor tarixiy solnomalar ro‘yxatchisi emas, u eng avvalo, yozuvchidir»⁵, deb ta’kidlagan edi.

Plutarx esa badiiy asar yozayotganligini ta’kidlab, «Men tarix emas, hayotnoma yozyapman, rassomlar surat chizishganda ko‘z va yuz tuzilishiga ko‘proq e’tibor bergenlaridek, biz ham qahramonlarning ma‘naviy dunyosini ko‘rsatib berishga harakat qildik», degan edi⁶.

Biz tekshirayotgan asarlar, eng avvalo, tarixiy-badiiy asarlar ekanligi haqida yana ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Antik davrga yondashish, uni o‘rganish va munosabat bildirish ancha murakkab masala. Birgina tarixiy sujet yoki antik ijodkor mahoratiga baho berganda tarixchilar va faylasuflarning fikriga ham tayanishga to‘g‘ri

¹ S. Ya. Lurye. Xudojestvennaya texnika Gerodota. Gerodot. Izd-vo AN SSSR. M-L, 1947.

² V.Klinger.Skazochniye motivi i istorii Gerodota.Tipografiya IMP Universiteta, Kiyev, 1983.

³ A. Dovatur. Povestvovatelniy i nauchniy stil Gerodota. Izd-vo Leningradskiy universitet, 1957.

⁴ Poxod Aleksandra. Izd-vo AN SSSR, M-L, 1962, str. 14.

⁵ M. Mandes. Opit istoriko-kriticheskogo kommentariya. Grecheskaya istoriya Diodora. Odessa. 1901, str. 11.

⁶ Plutarx. Sravnitelniye jizneopisaniye. V trex tomakh, tom I, izd-vo AN SSSR. M., 1961, str. 465.

kelди. Birgina adabiyotshunoslik ilmining hukmi tahlilda ba'zi chulkashliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun ham, tarix, geografiya, falsafa, etnografiya, arxeologiya kabi fanlarga tayanishimiz lozim bo'ladi. Bu fanlarning hamkorligisiz antik davrlar tasvirlangan asarlarni puxta tahlil qilish qiyin.

Badiiy adabiyot insoniyat tarixini aks ettiradi. Shuning uchun ham, biz ko'pincha Gerodot, Ksenofont, Arrian, Kursiy Ruf, Pompey Trog asarlarni tarixiy asar sifatida qaraymiz. Aslida, bu asarlar tarixiy nasrning yorqin namunasidir. Ularda go'zal badiiy ifodani kuzatamiz. O'z o'rniда tarixchilar ham bu asarlarni o'qib, tarix haqida xulosa chiqaradilar. Hamma davrlarda ham tarix fani bilan adabiyot o'ziga xos ravishda chambarchas bog'lanib kelgan.

Keyingi davrlarda sho'ro adabiyotining yorqin namunasi bo'lgan bir qator tarixiy romanlar vujudga keldi. Masalan: V.Yanning «Olovli qo'ng'on», Mirkarim Osimning «Aleksandr va Spitamen» qissalari, Yavdat Ilyosovning «So'g'diyona», Maqsud Qoriyevning «Spitamen» romanlarida tarixning aksini ko'ramiz. Ularning grek va Rim romanlari ta'sirida tug'ilganligi shubhasizdir. Mualliflardan antik davrlarning kishilik jamiyatini uchun, bugungi insonlar uchun xizmat qiladigan jihatlarini, muhim qismalarini qalamga olishga alohida e'tibor bergenlar.

An'ana va yaratuvchanlik faqat bugungi kundagi adabiyotimizga xos yususiyat emas. Bu masala adabiyotning hamma davrlarida, uning barcha tarixqiyot bosqichlarida, hatto antik adabiyotda ham o'ziga xos ravishda hal qilinib kelingan. Masalan, grek adabiyoti Gerodot va Fukidid ijodi o'sha davrda yaratilgan ko'plab tarixiy asarlarning yuzaga kelishiga katta ta'sir etganligi ma'lum. Plutarx o'z ijodi davomida Gerodot va Fukidid asarlardan oziq olganligi haqida ishonarli ma'lumotlar bor.

Gerodot asarlari Plutarx, Yustin ijodlariga ham katta ta'sir o'tkazgan. Taniqli tadqiqotchi M. Mandesning fikricha, «Yustinning ko'pgina fikrlari Gerodotdan olinganligi¹», Diodorning ko'pgina tasvirlari Fukididga yaqin turganligi qayd etiladi.² Arrian Ksenofont ijodini davom ettirganligini o'chiq oydin aytadi.

¹ M. Mandes. Opit istoriko-kriticheskogo kommentariya. Grecheskaya istoriya Diodora. Otnosheniye Diodora k Gerodotu i Fukididu. Odessa. «Ekon». 1901, str. III.

² O'sha asar, 155- bet.

Ksenofontning «Anabasis», «10000 yurishi», «Kiropediya» asarlari ta'sirida Arrianning «Aleksandrning yurishi» asari yuzaga keladi.

Grek va Rim nasrida So'g'diyonaning tarixiy qiyofasi ifodalananar ekan, bu tasvirlarda va ayrim epizodlarda o'ziga xos, bir-biriga o'xshash tomonlar borligini ko'ramiz. Tarixni hamma vaqt tarixiy taraqqiyotda, rivojlanishda, turli xil o'zgarishlar jarayonida kuzatamiz.

Badiiy adabiyotda an'ana umumiy taraqqiyotlar, ma'naviy yuksalishlar jarayonida tug'iladi. Antik adabiyotning o'rta asrlar, Uyg'onish davri va hatto yangi davr adabiyoti taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatganligini hisobga olsak, adabiyot faqatgina badiiy-estetik zavq manbayi bo'libgina qolmasdan, balki keyingi davr madaniyati va adabiyotiga samarali ta'sir etishi bilan ham xarakterlidir. Muhimi shundaki, mazkur asarlarda bir xil mavzu qalamga olinadi. Bu tarixiy mavzu bo'lib, u yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Kursiy Ruf («Aleksandr Makedonskiy tarixi»), Plutarx («Aleksandr»), Arrian («Aleksandrning yurishi»), Diodor («Tarixiy kutubxona») asarlarida ham tasvirlangan edi. Demak, shu o'rinda grek va Rim adabiyotining antik davrlari namunalari bilan bizning hozirgi adabiyotimiz o'ttasida ham ma'lum bog'lanish bor ekanligi ravshanlashadi. Bu bog'lanish, eng avvalo, an'ana va zamonaviylik masalasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday mushtarak jihatlarni mumtoz adabiyot namunalarida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Aleksandr va Iskandar obrazlari shu darajada bir-biriga qorishib, birikib ketganki, endilikda Aleksandr deganda Iskandar, Iskandar deganda Aleksandr ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Shu tufayli bo'lsa kerak, Ya. Ilyosovning «So'g'diyona», M. Qoriyevning «Spitamen» romanlarida bu qahramon bir epizodda Aleksandr, boshqa bir epizodda Iskandar deb nomlanadi. Bu ikki obrazni bir «qolip»ga joylashtirishimiz mantiqqa uncha to'g'ri kelmasa kerak. Chunki, Aleksandr deganimizda Filipp II ning o'g'li Aleksandr Makedonskiy, ya'ni Kursiy Ruf, Plutarx, Arrian, Diodor asarlaridagi Aleksandr obrazi ko'z o'ngimizga kelsa, Iskandar obrazi ko'proq xalq ijodiyotiga, mumtoz adabiyotga, ya'ni Iskandar haqidagi rivoyatlarga, Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy, Navoiy dostonlaridagi obrazga tegishlidir.

Aleksandr obrazida salbiylikka, Iskandar obrazida esa ko'proq ijobiylilikka moyillik sezamiz.

Yevropa adabiyotida Aleksandr Makedonskiyga qiziqish qanchalik kuchli bo'lsa, osiyoliklar ijodida Iskandar Zulqarnaynga ham shunchalik

e'tibor sezildi. Yevropada Aleksandr Makedonskiy haqida nihoyatda ko'p asarlar yaratilgan. Osiyoda Iskandar Zulqarnayn haqida undan ham ko'proq asarlar yuzaga kelgan.

Bu ikki obraz ikki qit'aning ko'p jihatlarini bir-biriga bog'laydi. Bu bog'lanish, eng avvalo, adabiy jarayonda, bu ikki obrazga munosabatda ko'rindi. Ular bahonasida ikki qit'a adabiyotining umumiy yo'nalishlari va alohida janrlarning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilmoqda.

Aleksandr obrazi bilan Iskandar obrazlari tarozining ikki pallasiga qo'yilgan ijod mezonlariga o'xshaydi. Ba'zi davrlarda goh bir tomonning, boshqa bir davrda ikkinchisining salmog'i ortgan.

Bir-birining sinonimiga aylangan bu ikki obraz jahondagi hamma xalqlar san'atiga kirib borgan, hatto har bir xonadonga tanish bo'lган. Biroq shunday bo'lsa-da, har bir kishi Iskandar Zulqarnayn va Aleksandr Makedonskiy haqida ko'proq bilgisi, bu xususda qiziqarli sarguzashtlar tinglagisi keladi.

Osiyoliklar Aleksandr Makedonskiyni Iskandar Zulqarnayn obrazi orqali yaxshi bilsalar, yevropaliklar Iskandar Zulqarnaynni Aleksandr Makedonskiy orqali taniydlilar. Lekin Iskandar obrazi bilan Aleksandr Makedonskiy tarixiy shaxsi va obrazi shu kungacha aynan bir narsa deb qarab kelindi. Ushbu darslikning muallifi ham ilgari shunday fikrda edi.¹ Bu o'rinda Iskandarni qachondan buyon Aleksandr deb atash boshlandi, degan savol tug'iladi. Masalaga yaqindan yondashsak, «Iskandar - Aleksandr Makedonskiy» termini XIX asr oxirida paydo bo'lgani oydinlashdi. Bu termin ixtirochilari V.V. Grigoryev, M.M. Lyutov, N.P. Ostromovlar edi. Iskandar haqida ilk doston (Firdavsiy) yaratilganiga X asr bo'ldiki, oxirgisi Navoiy (XV asr) o'tdiki, (1885- yilda V.V. Grigoryev aytgan) Iskandar - Aleksandr Makedonskiy degan terminni ilgarigi tarixiy sahifalarda uchratmaymiz.

Iskandar obrazini tasvirlovchi asarlarda belletristika - go'zal badiiy bo'yoqqa keng e'tibor berilgan.

«Aleksandriya», «Aleksandr haqida roman», «Iskandarnoma», «Saddi Iskandariy», «Xiradnomayi Iskandariy», «Oyinayi Iskandariy» kabi asarlarda badiiy ijodiy xayol kuchlidir. Aleksandr haqidagi nasriy namunalarda esa («Aleksandrning yurishi», «Aleksandr Makedonskiy tarixi», «Aleksandr», «Tarixiy kutubxona» va hokazo) tarixiy haqiqatning

¹ Boynazarov F. Antik dunyo, Toshkent, «Mehnat» nashriyoti, 1989, 16- bet.

ko'lamdor talqinini ko'ramiz. Endilikda Aleksandr Makedonskiyning tarixiy shaxsi, Aleksandr va Iskandar obrazlari xususida jahon olimlari o'rtasida qizg'in munozaralar davom etmoqda.

Yevropaliklar Iskandar Zulqarnayn obrazini o'rganishda keng va chuqur imkoniyatlarga ega bo'limganidek, osiyoliklar Aleksandr Makedonskiy tarixiy shaxsi va obrazini o'rganishda hamon qiyinchilik-larga duch kelmoqdalar. Aleksandr Makedonskiyning obrazi va O'rta Osiyoning antik davrlarini tasvirlovchi Arrian, Kursiy Ruf, Diodor asarlari hali o'rta osiyoliklar tiliga tarjima qilingan emas.

Bu holat Aleksandr Makedonskiy va u yashagan davrni o'rganish borasidagi imkoniyatlarimizni cheklab qo'ymoqda. Xuddi, shuningdek, Osyo xalqlarining ijod durdonalari bo'lgan Iskandar haqidagi asarlarning hammasi ham Yevropa xalqlari tillariga tarjima qilinganicha yo'q. Aynan biz o'rta osiyoliklar Aleksandr Makedonskiyni o'rganishda qiynganimizdek ular Iskandar Zulqarnaynni o'rganishda mushkul vaziyatlarga tushib qolmoqda. Biz masalaning mana shu tomoniga, hali ko'pchilikka ma'lum bo'limgan jihatiga e'tiborni jalb qilmoqchimiz. Grek va Rim adiblari Kursiy Ruf, Plutarx, Arrian, Diodor ijodlarida Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyodagi hayoti keng va batafsil tasvirlanadi. Biz uchun muhimi Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyoga kelgan davri xarakterini o'rganishdir. Bundan ko'rindiki, Aleksandrning tarixiy shaxsi va hayotini o'rganish bahonasida antik davrni va undan keyingi davrlarni ham o'rganish imkonи tug'iladi. O'rta Osiyoning antik davrlari haqida gap ketganda, bevosita Aleksandr Makedonskiy va u bilan bog'liq voqealarni eslaymiz. Grek va Rim adabiyotining yorqin sahifasi hisoblangan «Aleksandr Makedonskiy tarixi», «Aleksandrning yurishi», «Tarixiy kutubxona» asarlarini o'qisak, ko'proq O'rta Osiyoning antik davrlari ko'z o'ngimizdan o'tadi. Hatto Aleksandr Makedonskiyni ham bir muddat unutib qo'yib, qadimgi davrlardayoq gullab yashnagan, hozirda ham yashab kelayotgan tarixiy shaharlar «ichiga kirib qolamiz, tanish daryolarda suzamiz, qadrdon tog'larning cho'qqilariga chiqamiz, go'zal va bepoyon vodiylar quchog'ida bo'lamiz. Milliy faxrimiz va g'ururimiz bo'lgan Spitamen bilan uchrashamiz». Qarangki, qadim davrlarda bosqinchi yovlarga qarshi mardonavor kurashib kelgan Spitamendek vatanparvar o'g'onlolarimiz o'tgan, u «yengilmas kuch», «qudratli kuch» deb nom olgan Aleksandrni tahlikaga qo'yib, unga katta talafotlar yetkazgan ekanki, bu haqda o'zimizda hech bir tarixiy yozuv saqlanib qolmaganligi bizni

g'oyat tashvishga soladi. Spitamen jasorati bilan ham grek va Rim adabiyoti namunalari orqali tanishish sharafiga muyassar bo'lamiz. Bundan ko'rindiki, Aleksandrni o'rganish borasida u bilan bog'liq davrni o'rganamiz, undagi ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishamiz, adabiyot va san'at namunalarini bilib olamiz. Aleksandr bahonasida Kvint Kursiy Ruf, Plutarx, Arrian, Diodor, Strabon kabi grek va Rim adiblari va ularning ijodi bizga tanish bo'lib qoldi, hatto boshqa grek va Rim adiblari qaraganda bu ijodkorlarni biz o'zimizga yaqin olamiz. Aleksandr haqida asar yozganliklari uchun emas, O'rta Osiyoning antik davrlarini tasvirlaganliklari uchun ham bu adiblar biz uchun ardoqli va mo'tabardir. Zero, biz o'rta osiyoliklar, bobokalonlarimizning antik davrlari haqida mana shu adiblar ijodi orqaligina yozma manbaga egamiz.

Sharq bilan g'arb o'rtasida qadimdan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar keng yo'lga qo'yilgan. Qadimgilar tili bilan aytganda, quyosh chiqadigan tomon-sharq, quyosh botadigan tomon g'arb hisoblangan. Insoniyatni ko'proq quyosh chiqish va botish tomon qiziqtirib kelgan. G'arbdan sayohatchilar, olimlar, munajjimlar quyosh chiqish tomonni ko'rish orzusida ko'proq sharqqa tomon yo'l olsalar, sharqliklar quyoshning botish tomonini ko'rish uchun g'arba tomon yo'l olganlar. U zamonlarda davlatlar, mamlakatlar o'rtasida chegara bo'lмаган. Sayohatchilar uchun har tomonga yo'l keng ochiq bo'lgan, Sayohchlarni - misofirlarni hamma xalqlar hurmat qilib, o'z xonadonlaridan joy, non-tuz berishgan.

Sharqliklar tasavvurida g'arb-quyoshning botish tarifi qanchalik sirli jumboq bo'lib kelgan bo'lsa, g'arbliklarni esa sharq-quyoshning chiqish tarifi shunchalik qiziqtirib kelgan. Sharqning og'zaki va yozma adabiyotida Gretsya (Yunoniston), Rum haqida anchagini ma'lumotlar berilgan. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, qadimdan g'arbda yozma adabiyot, sharqda esa og'zaki adabiyot keng taraqqiy etgan.

Ehtimol, sharqda ham yozma adabiyot kuchli bo'lgandir. Ammo islonidan ilgarigi yozma adabiyot haqida gap ketganda, olimlar turli xil taxmin va gi potezalarga tayanib xulosa chiqarganlar. Har bir xalq o'z madaniyatining qadimiyligi bilan faxrlanadi. Xalq bor joyda adabiyot bor, san'at taraqqiyoti mavjud. Sharqda yagona yozma yodgorlik namunasi hisoblangan «Avesto» (eramizdan avvalgi IV asr)ni olib ko'raylik. Olimlar «Avesto»ni hatto eramizdan avvalgi X-IX asrlarda yuzaga kelgan deb aytishmoqda. Zardushtiylik dinining bu muqaddas kitobida muhim fal-

safiy ruhdagi hikoyalar o'rin olgan. Bu noyob asardagi bir hikoyatga e'tibor beraylik. Unda hikoya qilinishicha, yaxshilikni yaratuvchi Ahuramazda bilan yomonlik kuchi Ahriman o'rtasida kurash ketadi. Yaxshilik bilan yomonlik o'rtasida kurash hech to'xtamaydi. Goh Ahuramazda g'olib keladi, goh Ahriman. Ammo ularning hech biri o'lmaydi ham, yo'q bo'lib ham ketmaydi. Kurash davom etaveradi. Bu hikoyat ruhini insoniyat tarixiy taraqqiyotining keyingi davrlariga, hatto bugungi kun hayotimizga ham tatbiq etishimiz mumkin.

Ahuramazda bor ekan, Ahriman ham turli xil ko'rinishlarda yashab qolaveradi. Inson bor ekan, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash davom etaveradi. Bu — tabiatning qonuni. Tabiat o'zi mana shunday qarama-qarshi kuchlarni yaratib qo'yibdi. Tabiat ham qarama-qarshiliklardan iborat. Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash barcha xalqlar ijodida ham mavjud. Xalq ijodidagi qahramonlar hamma vaqt yomonlikka qarshi kurashib kelgan. Ammo yomonlik hech qachon yo'q bo'lib ketmagan. Yomonlikning tugashi va faqat yaxshilikning yashab qolishi xalq orzusiga aylanib kelgan.

Sharqning antik tarixida aytilgan bu fikr g'ayritabiyy kuch ta'sirida, tasodifan aytilib qolinmagan. Erondan Baqtriyaga kelib yashab qolgan Spitam Zaradusht tomonidan bu fikrning hikoyatlar ruhiga singdirilishi, eng avvalo, «Avesto» yaratilgan antik zamonlarda sharqda ilm-fanning, adabiyot va san'atning o'ziga xos ravishda taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Ehtimol, sharqning antik davrlarida «Avesto» kabi o'nlab nodir asarlar yaratilgandir. Yozuv taraqqiy etgan. Chunki «Avesto» bizgacha yozma ravishda yetib kelgan. Afsuski, yuzlab hikoyalarni qamrab olgan mana shu yolg'iz nodir asar «Avesto» haligacha sharq xalqlari tiliga tarjima qilingan emas. Shuning uchun ham, sharqning antik tarixi yo'q degan fikrlar asossizdir.

Eramizdan ancha ilgari «Avesto» bilan qariyb bir davrda yaratilgan «Bundaxshin», «Behistun», «Donkrad» kabi asarlar ham antik zamonning bebaho durdonalari bo'lib, u asarlarda ham eng qadimgi zamonlarning ko'plab hikoyatlari o'rin olgan.

Shunday qilib, zardushtiylik dinining o'mini islom dini egalladi. Sharq xalqlarining ilk dini zardushtiylik ham katta siyosiy va ma'rifiy o'rin tutgan. Shuning uchun ham, sharqdagi ko'pgina xalqlar bu dindan haligacha voz kechgani yo'q. «Avesto» o'n ikki ming buzoq terisiga bitilgan.

Ma'lumki, Aleksandrning sharqqa qilgan yurishi davrigacha

Hindistondan Kavkazgacha, Xitoydan Erongacha bo'lgan bepoyon o'lkalarda zardushtiylik dini keng quloch yoygan edi. Mana shu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»ni Aleksandr Makedonskiy Istahr shahri yaqinidagi tog' etagida katta bir gulhanda yoqib yuboradi. Atoqli Avestoshunos olim A.O. Makovelskiyning ta'kidlashicha, zardushtiylik dinini tahqirlagani uchun ham bu dinga e'tiqod qo'ygan osiyoliklar Aleksandr Makedonskiyni Axriman deb atay boshlaydilar. «La'natni badkirdor, zardushtiylik dinini oyoqosti qildi, bu quyosh xudosi emas, Axriman siymosi-ku, deya haqoratlaydilar»¹.

Atoqli sharqshunos olim E.E. Bertels «Avesto»ning asl nusxasini Aleksandr Makedonskiy Eron shohining poytaxti bo'lgan Istarx (Persepol) shahridan topib olib yoqib yuborganini ta'kidlab, shundan so'ng uning yovuz Ahriman deb nom chiqarganini, qoralanganini nytadi².

E.E. Bertels va O.A. Makovelskiy kabi atoqli olimlarning yuqoridagi fikrlari to'g'ri ekanligiga ishonsak, islomgacha bo'lgan davrda sharq xalqlari Aleksandrni xush ko'rishmagan. Hatto uni yovuz kuch-Ahriman bilan teng ko'rganiga e'tibor bersak, sharqliklar Aleksandrni Iskandar deb ataganligi e'tirozli bo'lib chiqadi, Iskandar ulug' nom, u quyoshga tenglashtirilgan.

Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyga yurish qilganida (eramizdan avvalgi 329-327- yillar) bu yerda Maroqand, G'aza, Kiropil va yana yettita shaharning bo'lganligi ma'lum. Shubhasiz, shahar bor joyda yozuv ham bo'lgan. So'g'd yozuvidagi tarixiy kitoblardan ayrimlari bizgacha yetib kelganda edi, o'tmishimizga doir ko'pgina jumboqlar hal bo'lgan bo'lardi.

Sharq adabiyotida Iskandar obrazining kelib chiqishi va uning paydo bo'lishi haqidagi ko'pgina tadqiqotchilarning fikrlari aniq tarixiy va ilmiy fikrlarga asoslanmagan. Sharqda Iskandar obrazining yaratilishi tarixi bir tomonidan islomning muqaddas kitoblariga, jumladan, «Qur'on»ga, ikkinchi tomonidan, xalqning boy og'zaki ijodiga bog'lanishi to'g'ri izohlab berilmoqda. Biroq, ayrim tadqiqotchilar dalillanmagan fikrlariga asoslanib, bu obrazning paydo bo'lishida Aleksandr Makedonskiy tarixiy shaxsi va obrazining ta'siri katta ekanligini taxmin qilmoqdalar.

¹ Makovelskiy A. O. Avesto. Baku, izd. AzANSSSR, 1960, s.97.

² Kastyuxin E. A. Aleksandr Makedonskiy v literaturnoy i folklornoy traditsii. M., izd.-vo «Nauka», 1972, s.71.

Ayrim tadqiqotchilar esa, sharqning antik davrlariga shubha bilan qaraydilar.

E. A. Kostyuxin «sharqda hech qanday antiklik bo‘limgan»¹ («na Vostoke ne bilo nikakoy antichnosti») degan asossiz fikrlarni aytadi. Asrimizning boshlaridayoq O‘rtta Osiyoga kelib katta tarixiy, arxeologik, etnografik ishlar olib borgan rus olimlari S. P. Tolstov, V. A. Shishkin, M. E. Masson, A. Yu. Yakubovskiy, M.N. Diyakov, A.N. Bershtam, G.A. Pugachenkova, L.E. Rempel, L.N. Gumilev, S.G. Kloshtorniy, D.N. Lev kabi atoqli olimlarning asarlarini sinchiklab o‘qib chiqsak, bu rus olimlari sharq madaniyati, jumladan, O‘rtta Osyo madaniyati eng qadimgi madaniyat o‘choqlaridan biri ekanligini ilmiy isbotlab berishgani oydinlashadi.

Haqiqatan ham, faqat E.A. Kostyuxingina emas, boshqa ko‘pgina olimlar ham hozirgacha O‘rtta Osiyoning antik dunyosi bo‘lganligiga shubha bilan qarashardi. Biz ushbu ishda O‘rtta Osiyoning antik olamidagi sirlı va sehrli voqealariga to‘xtalib o‘tamiz.

Qadimgi davrlarda o‘tgan atoqli sarkardalar ichida Aleksandr Makedonskiyning nomi butun dunyoga ma’lum va mashhurdir. Yer kurrasining eng chekka o‘lkalarigacha dong‘i ketgan bu shaxs yashab o‘tgan davr bilan bizning zamonamizni yigirma uch asr ajratib turadi. Bu davr mobaynida u haqda juda ko‘plab asarlar yaratildi. Uning hayoti va faoliyati tasvirlangan, tatbiq etilgan badiiy hamda ilmiy asarlar yuzaga keldiki, hali hech bir tarixiy shaxs haqida bunchalik ko‘p asarlar yuzaga kelmagan bo‘lsa kerak. Biroq, oradan yigirma uch asr o‘tgan bo‘lsa ham, Aleksandr Makedonskiy haqida badiiy va ilmiy asarlar yaratish nihoyasiga yetganicha yo‘q. Bunday yaratuvchilik, ixtirochilik yana davom etaveradi. Yillar o‘tgan sayin bu masalaga e’tibor ortmoqda, qiziqish yana kuchaymoqda. Tadqiqotchilar bu ikki obraz tahlili orqali juda ko‘plab chigal masalalarni hal qilmoqdalar, munozara va bahslar davom etmoqda.

Qadim tariximizga odilona va hushyorlik bilan munosabatda bo‘lmoq lozimdir. Xususan, O‘rtta Osiyoning antik davriga oid juda ko‘plab tarixiy va qimmatli manbalarga egamiz. Ayrim faraz va noaniq manbalardan qochib, iloji boricha dalillar asosida ish ko‘rishga harakat qilamiz. Bugungi o‘quvchi tarixning aynan o‘zini bilgisi, tarixiy dalillarni mushohada qilgisi keladi.

¹ Bertels E. E. Izbr. Trudi. Navoi i Djami, M.; izd-vo «Vostochnaya literatura», 1965, s.315.

Hozirgi kunimizga kelib, davr talablariga ko'ra tarixga munosabat o'zgardi. Shu kungacha qoralanib, salbiy baholanib kelgan ayrim tarixiy shaxslarga nisbatan endilikda ijobiy yondashuvlar paydo bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan Aleksandr Makedonskiyni butunlay salbiy qiyofada ta'riflashimiz ham noto'g'ridir. Aleksandr Makedonskiy orqali biz Osiyoning antik davrini o'rganmoqdamiz. Uning «Efemerida» deb nomlanuvchi «Shoh jurnali»da qadim tariximiz yozib qoldirilgan. Uning safdoshlari Aristobul, Ptolomey, Evman, Diodot, Kallisfen bebaaho manbalarni bitganlar.

«Aleksandrni haqorat qilgan odam uning qilgan xizmatlarini inobatga olib, o'zini u bilan solishtirib ko'rib, so'ngra gapirmog'i kerak. O'ylamaynetmay uni noto'g'ri haqorat qilgan kishi hayotdan o'z o'rnini topolmagan, ayanchli odamdir. Shu sababli bunday odamlar ikki qit'ada nom taratgan shohni qoralab, haqorat qilishadi. Men o'ylaymanki, o'sha paytda Aleksandrning nomi yetib bormagan na bir shahar, na bir odam, na bir xalq bo'lgan. Buni odamlarning ko'rgan tushlaridan, sodir bo'ladigan voqealarning oldindan ta'birini aytib beradiganlarning fikrlari orqali ham bilih mumkin. Ular xotirasida Aleksandr ulug' siymo bo'lib qolgan. Uning ishlarini esa uni hurmat qilganim uchun, haqiqat tarafdoi bo'lganim uchun, odamlarga haqiqatni aytib berish uchun tanqid qildim»¹.

Antik davrlarda yashagan Aleksandr Makedonskiyni bugungi kunimiz uchun, bizning zamondoshlarimizga, axborot asrida yashayotgan kishilarga ideal qilib ko'rsatish, «Aleksandrday» bo'lishga undash hamadolatdan emas. O'z davri uchun ulug' bo'lgan Aleksandr o'tgan zamonalarda ham ulug'ligicha qolgan. Bugungi kunda bizning zamondoshimiz Aleksandrdek bo'lishni orzu qilmaydi, balki unga bag'ishlangan asarlarni taajjub va hayrat bilan o'qiydi ... Bu tarixiy memuar asarlardan tegishli xulosalar chiqaradi, ularidan tarixiy va ma'rifiy saboq oladi.

¹ Arrian. O'sha asar, 236- bet.

I bob. QADIMGI YODNOMALAR

GERODOT

Ulug' yunon olimi va tarixchisi Gerodot eramizdan avvalgi 484- yilda Kichik Osiyoning Galikarnas¹ shahrida tug'ilgan. Galikarnas shahri Kichik Osiyo va grek shaharlarini bir-biriga bog'laydigan qulay port shahar bo'lib, u yerda savdo-sotiq ishlari keng rivojlangan edi. Eramizdan avvalgi XI asrda qurilgan bu shaharga turli mamlakatlardan sayyohlar, yo'lovchilar, donishmandlar, shoirlar va muarrihlar tez-tez tashrif buyurib turishgan. Uning otasi Galikarnas shahrining obro'li va savodxon kishilaridan biri bo'lgan. U o'g'li Gerodotning yoshligida bilim olishiga alohida e'tibor bilan qaray boshlaydi. Gerodot bolalik chog'laridayoq atoqli grek so'z san'atkorlari va ulug' muarrihlarining asarlarini qunt bilan mutolaa qiladi. Ayniqsa, Homer, Gesiod, Aristey, Arxilox, Sapfo, Alkey, Anekreont, Pindor va Esxil asarlarini qiziqish bilan o'qiydi.

Gerodot grek adabiyotini juda sevadi. Ayniqsa, tarixiy nasr namunalari Gerodot e'tiborini beixtiyor o'ziga tortadi. Osiyo va Yevropadagi bir necha mamlakatlar tarixiga ham qiziqish bilan qaraydi, bu mamlakatlarning geografiyasi, tarixi va adabiyotini o'rganadi. Mashhur geograflardan miletlik Kad'm, lampsaklik Xaron kabi o'z davrining atoqli olimlari ijodini diqqat bilan kuzatadi. Ayniqsa, miletlik olim Gekateyaning «Yerni aylanib o'tish» asari Gerodotda katta taassurot qoldiradi.

Gerodot dunyoqarashining yuksalishida tog'asi Paniasid katta rol o'ynaydi. Paniasid o'z davrining taniqli shoirlaridan biri edi. U xalq og'zaki ijodiga juda katta qiziqish bilan qarardi. Uning xalq qahramoni Gerakl haqida to'plagan hikoyat va rivoyatlari antik davrlardayoq xalq og'zaki ijodining rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Gerodot yoshligidan sayohat qilishni yaxshi ko'radi. Galikarnas port shahri, savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi savdogarlar, yo'lovchilar shahri bo'lGANI uchunmi, o'spirinlik yillaridayoq u yaqin atrofdagi mamlakatlarga borib keladi. Dengiz shunqorlari va sayyohlar tilidan g'aroyib sarguzashtlarni tinglashni juda-juda yoqtiradi. «Eron tarixi» kitobi Gerodot e'tiborini, ayniqsa, o'ziga tortadi, Bu kitob lampsaklik Xaron qalamiga

¹ Ayrim manbalarda Furiyada tug'ilgan deyiladi. Masalan, S. Lurye. Gerodot. AN SSSR. M. —L.. 1947, str. 10.

mansub bo'lib unda Kir va Kambiz hukmronligiga qaram Hind, Baqtriya, So'g'd va Kavkaz mamlakatlari haqida hikoya qilinardi. Umuman Ahmoniyalar davlati, eramizdan avvalgi V asrda Eron-Yunon urushida eronliklar mag'lubiyatga uchragandan so'ng, yunon muarixlari Ahmoniyalar davlati tarixiga qiziqish bilan qaray boshlaydi. Xaronning «Eron tarixi» kitobida Ahmoniyalar davlatiga qaram bo'lgan Osiyodagi ko'pgina mamlakatlar haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Kitobda, ayniqsa, Buqtriya va So'g'diyonada yashovchi elatlar, ularning jangovarligi va qahramonligi haqida hikoya qiluvchi ko'plab tarixiy sujetlar keng o'rinnegallagan.

Gerodotning ona yurti Kariya va unga qo'shni Ionin va Eoliya ziyorolar shahri bo'lib, u qariyb 70 yilga yaqin Kir va Kambiz tomonidan barpo etilgan ulkan Ahmoniyalar davlati ta'sirida bo'ladi. Ionin - Homer vatanidir. Bu o'lkadan Anakreont, Appelesa, Parassiya, Fales, Anaksimandr kabi o'z davrining donishmand faylasuflari yetishib chiqqan. O'zining tubuy go'zalligi bilan mashhur bo'lgan Ioniyaga unga qo'shni-onha shahri Galikarnasdan Gerodot tez-tez tashrif buyurib turadi. Ioniyaliklar ham Osiyo va Yevropa mamlakatlari bo'ylab dengiz sayohatlariga chiqar edilar. Hatto ular Turkiya, Jugoslaviya yerlari (avval Frakiya deb atalgan) kabi uzoq o'ikalarga, Pireney yarimorollari (o'shanda Terreniya deb atulgan go'zal vohalar)ga ham kelib ketar edilar. Ioniyadan Qizil dengiz va Qora dengiz tomonlarga dengiz sayyoohlari tinimsiz qatnab turardi.

Bu sayohatchilardan va uzoq yillar davom etgan Eron-Yunon urushi qatnashchilaridan Gerodot Osiyo mamlakatlari haqida qiziq hikoyalar eshitadi.

Eramizdan avvalgi 490- yilda bo'lib o'tgan Marafon jangida greklarning eronliklar ustidan g'alaba qozonishi, eronliklarning katta jangga otlanishi, eramizdan avvalgi 480- yilda Salamin orolida bo'lib o'tgan qirg'in jangda yana greklarning g'alaba qilishi, nihoyat eramizdan avvalgi 479- yilda bo'lib o'tgan Samos jangi, eramizdan avvalgi 468- yilda bo'lib o'tgan Evrimedont daryosi (Gerodot u paytda 15 yoshda edi) yonidagi greklar bilan eroniylar o'rtasidagi to'qnashuvlar Gerodot tug'ilgan yillarning nihoyatda og'ir, ijtimoiy, qarama-qarshiliklarga boy bir davr bo'lganligini anglatadi. Qirg'in urushlar, jang-u jadallarni boshidan kechirgan Gerodot tug'ilgan o'lka tarixiy sarguzashtlarga boy edi. Bunday tarixiy voqealarni ko'p eshitgan Gerodot keyinchalik haqli ravishda tarixiy hikoyalar ijodkori bo'lib qoladi.

Eronliklar ustidan g'alaba qozonilgandan so'ng, grek hokimlklari o'rtasida o'zaro kelishmovchiliklar avjiga chiqadi. Gerodotning ona shahri Galikarnas hokimi Ligdamidga qarshi ko'tarilgan isyonda Paniasid bilan Gerodot ham ishtirok etgan edi. Ligdamid isyonni kuch bilan bostiradi. Paniasid o'limnga mahkum etiladi. Gerodot esa mamlakatdan quve'in qilinadi. Shundan so'ng, bo'lajak tarixchi Osiyo mamlakatlari bo'ylab safarga chiqishga qaror qiladi.

Go'zal Ioniya shahriga kelib dengizchilar bilan do'stlashadi. Gerodot dastlab Kichik Osiyoga yaqin o'lkalarga sayohat qiladi. So'ngra Frakiya

bo'ylab Yevropa safarini davom ettirib, Bolqon orollarida bo'ladi. Istr (Dunay) daryosi qirg'oqlariga keladi. Keyin Vizantiya o'lkasiga boradi. Bu yerlarni Doro eramizdan avvalgi 512- yilda skiflar yeriga yurish qilishdan avval bosib olgan edi. Doro hozirgi Istanbul shahriga yaqin joyda Bospor daryosining quyi oqimida skiflar yeriga o'tish uchun ko'priq qurgandi. Gerodot bu ko'priqdan o'tib Tear daryosi qirg'oqlari bo'ylab o'z sayohatini davom ettiradi. (Bobo eski daryosi Turkiya tomonda joylashgan, bu daryo Gerodotni o'ziga maftun etadi. Daryo bo'yida yashovchi xalqlar Tearning shifobaxshligini, undan odamlar va otlarni davolashda foydalanishlarini aytadi.)



1- rasm. Gerodot busti.
Neapoldagi milliy muzeyda
saqlangan.

o'zlariga qaram qilib olgan edilar. Olviya shahri atrofidagi o'lkalar ham Qora dengiz atrofida joylashgan edi. Qora dengiz bo'ylariga joylashgan Ochakova shahridan shimol tomonga to hozirgi Parutino, Ilinsk qishloqlarigacha cho'zilgan 25 kilometrlik masofa o'sha paytlarda Gretsiya qo'l ostida edi.¹

Yunon-Troya urushidan keyin greklar Qora dengiz bo'ylarida ayrim elatlarni

¹ Latishev V. V. Issledovaniye ob istorii i gosudarsvennoy ustroystve. G. Olvii, SPB, 1887, str. 128.

Oliya shahri skiflarga juda yaqin masofada joylashgan edi. Hatto bu shaharda ayrim skif vakillarini ham uchratish mumkin edi. Gerodot Qora dengiz qirg'oqlari bo'ylab safardaligida Oliya shahri va ularga yaqin joylashgan skiflar haqida qiziqarli ma'lumotlarni eshitadi. Undan ilgari ham skiflar haqida talaygina kitoblarni o'qib, ularning hayot kechirish tarziga qiziqib qolgan edi. Grek tarixchisi Gekatay asarlaridan skiflar haqida birmuncha ma'lumotlar olgan edi. Qadim zamonlarda Aristey degan shoir o'zining «Arimasplar» poemasida skiflar hayotini kuylagan. Ulug'so'z san'atkori Homer o'zining «Odisseya» poemasida skiflar yurtiga qisqacha ta'rif berib, «bu ellar hamma vaqt tuman bilan qoplangan, osmonida qalin bulutlar suzardi» (XI qo'shiq, 14-15- misralar), deb aytgan edi.

Mana shu dalillarning o'ziyoq yunonlarning eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarda skiflar hayotiga qiziqish bilan qaraganligi, hatto skiflar yurtiga kelib ketganligidan, Yevropa va Osiyo mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy-siyosiy aloqa mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, yunonlar bilan troyaliklar o'rtasidagi qariyb o'n yildan ziyod davom etgan qirg'inbarot urush, eramizdan avvalgi XII asrda bo'lib o'tgan edi. Grek lashkarlari hozirgi Turkiya yerlariga bostirib keladi. Hatto Qora dengiz bo'yalaridagi ayrim elatlarni ham o'zlariga qaram qilib oladi.

Eramizdan avvalgi VIII asrda yashab o'tgan yunon shoiri Homerning ijodida Yunon-Troya urushi voqealari o'zining ko'lamdor badiiy ifodasini topgan. Troyaliklar bilan skiflar o'rtasida ham ma'lum aloqalar mavjud edi. Homer poemalarida skiflarning bepoyon o'lkalarga joylashganligi va ularning juda katta elat ekanliklari ehtiros bilan ta'riflanadi.

Homerdan so'ng skiflar hayotiga qiziqish bilan qaragan ma'rifatli ziylolillardan biri Gerodot edi. Gerodotning skiflar hayotiga qiziqish bilan qarashida Homer ijodining ta'siri bor. Gerodot dunyoga kelgan Galikarnas shahri Homerning ona shahri Ioniyaga qo'shni hududda edi. Shuning uchun ham, Homer poemalari Ioniya atrofidagi shaharlarda juda ko'p nusxalarda keng tarqalgandi. Galikarnasliklar Homer poemalarini o'qishni o'zları uchun sharaf deb bilganlar. Hatto ular uchun Homer poemalarini yod olish odat tusiga kirgandi.

Gerodot Yunon-Troya urushi tafsilotlarini bayon qiluvchi Homer dostonlarini («Iliada», «Odisseya») berilib o'qiydi, shundan so'ng Gerodotda Troyaga borish va uzoq skiflar yurtiga sayohat qilish istagi tug'iladi.

Gerodot Qora dengiz bo'ylaridagi Ponta yarimorolidan o'tib, Tavrakaga - hozirgi Qrim orollariga keladi. Undan so'ng Meodita - Azov dengizi tomon yuradi. Birmuncha vaqt bu yerlarda bo'lib, Istr daryosi vohasi bo'ylab sayohatini davom ettiradi. Tanais - Don daryosi bo'ylarida skif qabilalari hayoti bilan tanishadi.

Qora dengiz bo'ylariga yaqin joylashgan Istriya bo'ylarida Tir va Olviyada yashayotgan greklar bilan suhbatlashadi. Chunki bu yerlar qadim-qadimdan yunonlarga qaram edi. Bu o'lkalarda asosan grek-yunon qabilalari yashardi. Ular skiflar bilan o'zaro iqtisodiy aloqa qilib turardi.

Gerodot Borisfen - Dnepr daryosi bo'ylariga keladi. Shundan so'ng bepoyon kengliklar boshlanadi. Bu yerlarda o'rmon yo'q edi, faqat turlituman o't-o'lanlar o'sardi. Borisfenning quyi oqimigina o'rmon bilan qoplangan edi. Bu yerda u skiflar hokimi Ariapaytning ishongan kishisi Timidan ayrim qiziqarli ma'lumotlarni oladi. Gerodotning ta'kidlashicha, Borisfen daryosi Istrdan keyingi eng yirik daryolardan bo'lib, «foydali narsalarga juda boy edi» (Gerodot, IV, str. 13).

Gerodot Gerr - Samara va Girkis - Donetsk daryosi bo'ylarida yashovchi skif qabilalari hayoti bilan ancha yaqindan tanishadi. Gerodotning bu daryolar bo'yida yashovchi skif qabilalari haqida aytgan qiziqarli hikoyalari kishining diqqat-e'tiborini beixtiyor o'ziga jalb etadi. Nahotki, antik davrlarda Volga, Don, Dunay, Dnepr daryolari bo'ylarida skiflar yashagan bo'lsa, degan savol xayolingizga keladi. Axir, skif qabilalari O'rta Osiyoda, qadimiy So'g'diyona yerlarda yashamaganmidi, deb o'yab qolasiz.

Qadimda skif qabilalarining Volga, Don, Dnepr, Dunay daryolari bo'ylarida yashaganliklari barcha olimlarning e'tiborini o'ziga tortadi. Bu haqda juda ko'plab qiziqarli bahs va munozaralar bo'lib o'tadi. Skif qabilalarining bu daryolar bo'ylarida yashaganligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Atoqli olim A.B. Ditmar qadimgi skif qabilalari haqida bir qator yirik tadqiqotlar yaratadi va skiflarning kelib chiqish tarixi haqida o'zining qimmatli fikrlarini bildiradi, «Skiflar O'rta Osiyodan tarqalgan edi, - deb yozadi A.B. Ditmer o'zining «Skifiyadan Elefantingacha» nomli tadqiqotida, - ularning (skiflarning B.F.) tili shimoliy Eron tillari guruhiga kiradi, shuningdek, ular O'rta Osiyoda yashagan Sak va Massaget qabilalari bilan urug'dosh edi. Kimmeriyalar¹ o'zlariga yaqin bo'lgan skif qabilalari •

¹ Kimmeriyalar—Qora dengizning shimoliy qismida joylashgan hozirgi Kerchen vodisi, Qrimning tog'li o'lkasi.

bilan yaqin ittifoq bo'lib yashaganlar. Qrimning tog'li o'lkalarda yashovchi kimmeriyalar skiflarga kirmaydi.

Skiflar¹ dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi qabilalardan bo'lib, asosan cho'l kengliklarida (Rossiyaning janubiy Yevropa qismida), Gi panis daryosining quyi oqimida hamda Borisfen daryosi bo'yalarida istiqomat qilishgan.

Mana shu dalilning o'ziyoq Yevropaning ancha ichkarisigacha cho'zilgan bepoyon o'lkalarda, Volga, Don, Dnepr, Dunay daryolari bo'yalarida yastanib yotgan keng cho'llarda skiflar yashaganligini tasdiqlaydi. Ular turli sabablarga ko'ra qadimda O'rta Osiyodan bu yerlarga kelib qolgan edi.

Bu yerlarda yashovchi skiflar «bug'doy, piyoz, sarimsoq va mosh iste'mol qilganlar. Ular bug'doyni faqat o'zлari uchungina ekib qolmasdan, balki savdo-sotiq uchun ham ekardilar»².

Gerodot keyinchalik shohlik hukmron bo'lgan skiflar³ o'lkasiga keladi. Bu skiflar kuchli davlatga ega edilar. Tanais daryosidan sharqiy tomon ancha uzoqda joylashgan bu skiflarning o'z podshohlari bo'lib, boshqa skif qabilalari ularga qaram edi. Podshohlik skiflar o'zga skiflarni o'zlariga qul deb bilardi. Gerodot skiflarning urf-odatlari bilan yaqindan tanishadi. Ularning asosiy yumushlari chorvachilikdan iborat edi. Skiflarning chorvachilik ishlariga Gerodot katta qiziqish bilan qaraydi. Ko'chmanchilik ioniga tekkan skiflar ko'chganda qulay bo'lsin uchun namatdan g'ildirakli arava - uy yasab olgan edilar. Yuk tashish ishlarida otdan tashqari mollardan foydalanadi. Ularning eshak va cho'chqasi yo'q edi. Bundan tashqari, Gerodot skiflarning harbiy ishlari va qurollari bilan ham tanishadi, o'rganadi.

Gerodot yana Olviyaga qaytib keladi. Ma'lumki, bu elda asosan greklar yashardi. Birmuncha vaqt u Olviyada bo'lgandan so'ng, skiflarga qo'shni boshqa xalqlar hayoti va urf-odatlarini o'rganishga kirishadi. Agafirsovlar - sharqiy Ruminiya yurtiga boradi. Bu yerdagi nevrov qabilalarining hayotini o'rgana boshlaydi. Nevrovlar o'zlarini g'aroyib odamlar deb hisoblardilar. Ular har yili qishda «bo'ri»ga aylanardi. Ya'ni, junli kiyimlarni kiyib, yovvoyi holda yurishga o'rganib qolishgandi. Ularning

¹ Ditmar A. B. Ot skifii do Elefantini. Gos izd-vo Geograficheskoy literaturi. M., 1961, str. 22-23.

² Gerodot. Istorija v devyati knigax. Kn. IV. 17-bob, str. 116.

³ Demak, ayrim o'lkalarda skiflar o'zlarining shohlariga ega bo'lмаган.—B.F.

tili eski slavyan tillariga yaqin edi. Qishda asosan ular o‘zlariga bo‘ri terisidan kiyim tikib olishardi.

Gerodot so‘ng Androfa eliga boradi. Bu elatlar shimol tarafdan skiflarga qo‘shni edi. Ularning yovvoyilarga xos odatlari bo‘lib, hech qanaqa qonunga bo‘ysunmasdi. Ko‘chmanchi holda hayot kechirar, kiyimlari skiflarnikiga o‘xshardi. O‘zlarining maxsus so‘zlashuv tillari bor edi.

Gerodotning aniqlashicha, skiflarning shimol tomonida yana Melianxlenlar qabilasi yashardi. Ular hamma vaqt qora tusda kiyinib yurardi. Urf-odatlari skiflarnikiga yaqin turardi. Bu qabilalar tillari ham Nevrov qabilalari singari eski slavyan tillari gruppasiga kirardi.

Shimol tomonda juda sovuq bo‘lgan keng yalangliklar joylashgan edi. Tanais daryosi bilan Meotida - Azov dengizi o‘rtasida sarmatlar yashardi. Ular shimol tomonga cho‘zilgan o‘n besh kunlik keng o‘lkada yovvoyi va xonaki daraxtlar ichida yashardi. Ular skiflar tilida gaplashardi, biroq ularning tillari qadimdan shakllangan edi. Sarmatlarning urf-odatlari skiflarnikiga sira ham o‘xshamasdi. Sarmatlar (saramatlar) skif qabilalariga urug‘dosh edi.

Sarmatlardan yana shimol tomonga yurilsa, Gerodotning yozishicha, qalin o‘rmonlar bilan o‘ralgan o‘lkaga chiqildi. U yerlarda budinlar yashardi. Bu xalqning sochlari malla, ko‘zları ko‘kish edi. Budinlarning asosiy qismi ko‘chmanchilik bilan hayot kechirardi. Ovqatlariga qarag‘ayning urug‘idan solardi. Ularning qadimdan qurilgan Gelion - Saratov deb atalmish shahri bo‘lgan. Bu shahardagi uylar yog‘ochdan tiklangan edi.

Budinlar orasida telonlar ham yashardi. Ular savdo bilan shug‘ullanuvchi shahardan edilar. Telonlar, dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan ham shug‘ullanardi. Ko‘proq bug‘doydan tayyorlangan ovqatni iste’mol qilishardi.

Budinlardan keyin keng dasht yerlar boshlanardi. Sharqiy Sibir tomonda ovchilik bilan shug‘ullanuvchi xalqlarni tissagetlar va eirklar deb atashadi. Bu qabilalar O‘rol va Komega yaqin joylarda yashagan. Ular bilan skiflarning ma’lum aloqasi bo‘lgan. Biroq, bu yerlar skif yerlaridan o‘zining sovuqligi va notekisligi bilan ajralib turadi. Tissagetlar va zirklarning orqa tomonidagi baland tog‘lar (O‘rol tog‘lari ortidan) orasida argippeylar yashardi. Ularning yuzlari yapaloq, ulug‘ tarixchi yozishicha, soqollari o‘sgan bo‘lardi.

Argippeylar pontik daraxtining hosilini iste'mol qilishgan. Bu daraxtning hosilini yesangiz danagi ajraladi-da, qop-qora ichimlik hosil bo'ladi. Bu ichimlikni asxi deb atashardi. Argippeylar bu ichimlikni sutga aralashtirib non ham tayyorlashgan. Ular skiflarga xos kiyinib yursa-da, tillari ularnikidan farq qiladi.

Argippeylar yurti ancha taniqli edi. Bu yerga skif vakillari va Olviyadan grek avlodlari ham kelib turishadi. Ammo ular o'zaro so'zlashuvda tarjimonlardan foydalanganlar.

Argippeylardan keyin qanaqaxalq yashashini hech kim bilmaydi. U tomonlar baland tog'liliklardan iborat bo'lgan. Argippeylarning fikriga ko'ra, bu tog'da echki tuyoqli odamlar yashar emish. Undan ancha uzoqdagi xalqlar yilda olti oy uplasharmish. Gerodot bu o'rinda tundrani nazarda tutayotgan bo'lsa kerak.

Argippeylardan shimol tomonda bir ko'zli arimasplar bor emish. Gerodot bu afsonaga unchalik ishonmasligini aytadi. Ular bilan yonmaydon tovuq tusli, qushlarga xos burgut qanotli tilla taqinchoqli griflar yasharkan. Bu yurtlar nihoyatda boy bo'lgnamish. Grek va skif savdogarlari bu yurtlarga kelib tilla xarj qilib olar ekan. Bu yurtlarda oltin ko'p bo'lgan. Bu o'lkalarning qayerda joylashganini olimlar aniq aytolmayapti. Yo O'rol tog'i yoki shimoliy Qozog'iston. Bu yerda Stepnyakda oltin koni bo'lgan.

Sovramatlar o'lkasidan to'rtta daryo oqib o'tgan. Tanais (Don), Oar (Volga), Lik (O'rol), Sirgis (noma'lum daryo). Bu daryolarning hammasi Meotid (Azov) dengiziga quyiladi. Bu daryolar sohillarida asosan skiflar yashashadi. Keyingi vaqtlarda bu yurtlarning hokimlari ayol kishilar bo'lgan.

Meotid dengizidan janub tomonga, Panta bo'ylarigacha cho'zilgan sovramatlar yeri 30 kunlik yo'l. Panta sohillaridan Kolxidaga - Kavkaz tog'lariga o'tish osonroq. Bu yo'llar so'ngsiz, biroq xavf-xatar yo'q hisobi. Bu yerliklar oltin tumshuqli «Argo»da dengiz bo'ylab suzib yurishni yoqtirishadi. Gerodot «Argo» bilan Pantadan suzib o'tib, kolxidalar yurtiga borishga qaror qiladi.

«Argo» uch kun, ikki kecha deganda milletlar yurtining qishloqlaridan biri Sikopga yetib keladi. Sikopning tabiatni maftunkor va g'aroyib edi. Gerodot bu yerdan boshqa kemaga o'tiradi. Bu kema vino, mevasabzavotlar, asal, kema yasaydigan yog'och va yonilg'i olib kelish uchun ketayotgan edi. Kema Panta sohillarida joylashgan bir qancha shaharlarda

to'xtab, Galis (Qizil irmoq) daryosiga yetib keladi. Bu daryo orqali Fermodont (Rion daryosi yaqinidagi bir irmoq) daryosiga keladi. Shundan so'ng Fasis - Rion daryosiga o'tadi. Oxiri kolxidlar o'lkasiga yetib keladi.

Kolxidlarni arablarga, forslarga yaqin xalq bo'lgan degan taxminlar bor. Ular tanlarining qora rangligi, sochlarining jingalaksimonligi bilan boshqa qabilalardan ajralib turadi.

Gerodot Samos orolida birmuncha vaqt bo'lib, Osiyo bo'ylab safarga jo'naydi. Kichik Osiyo va Eron mamlakatlari tomon yo'lga tushadi. Eramizgacha bo'lgan VI asrda Kir, Kserks va Kambiz tomonidan tuzilgan Ahmoniyalar davlati nihoyatda kuchayib ketgan edi. Ahmoniyalar davlatiga hozirgi Eron, Iroq, Afg'oniston, Turkiya, Livan, Suriya, Iordaniya, Isroil, arab mamlakatlarining bir qismi, O'rta Osiyo, Kavkazorti qarardi. Bu o'lklalar hududiy jihatdan 24 hokimlikka bo'linib, har bir hokimlik eramizgacha V asrda ulkan Ahmoniyalar davlatiga qaram bo'lgan.

Gerodot dastlab Ahmoniyalar davlatining markazi bo'lgan Suz shahriga keladi. Efes va Sard shaharlarida bo'ladi. Kichik Osiyodagi Galis, Mesopotamiyadagi Evfrat va Tigr daryolaridan o'tadi. Frakiya o'lklarini kezadi. Bu yerda u o'ng qo'liga qilich, chap qo'liga nayza tutgan Ulkan odamlar bilan uchrashadi.

Gerodot o'z asarlarida Kavkaz tog'larini batatsil ta'riflaydi. Ayniqsa, Kaspiy dengizi va uning sohillarini, bu sohilda yashovchi elatlar hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Araks daryosi Kaspiy dengiziga kelib qo'shiladi, deydi tarixchi. Esxil o'zining «Zanjirband Prometey» tragediyasida Kavkaz tog'lari va Kaspiy dengizi haqida so'z yuritadi, bu yerlarni «gekatey milet» deb ataydi.

Gerodotning fikricha, Kaspiy bo'ylarida ko'chmanchi massagetlar yashaydi. Massagetlar baliq go'shti, parranda va sutli taomlarni iste'mol qilishadi. Bu yerning xalqlari juda jangari bo'lgan. Aytishlaricha, Eron shohi Kir ham ularni o'ziga bo'ysundira olmagani.

Gerodot Mesopotamiya va Bobil o'lklarining tabiatiga ham keng to'xtaladi. Bu joylar Orol dengiziga yaqin bo'lib, ayrim tadqiqotchilar bu o'lkalarga Gerodot kelmagan deyishsa, boshqalar kelgan deyishadi.

Gerodot O'rta Osiyo haqida tarixiy jihatdan juda muhim ma'lumotlar keltiradi. Bu yerda bir necha hokimliklar mavjudligini, ularning hammasi ulkan Eron davlatiga qaram ekanligini ta'kidlaydi. Bu hokimliklarni aniq nomi bilan ataydi. Jumladan, Baqtriya, Girkaniya, Kaspiy, so'g'dlar, saklar, xorasmiyalar va ariylar. Bu o'rinda izoh talab nomlardan ariylar

Afg'onistonning g'arbiy qismiga joylashgan elatlardir. Baqtriyaning poytaxti o'sha vaqtida Balx shahri bo'lgan Kaspiy hokimligiga Turkmanistonning janubi-g'arbiy qismida joylashgan qabilalar kirgan. Xorasmiylar-xorazmliklar, so'g'dlar-Politimet (Zarafshon) bo'ylarida, saklar I yanshan tog'ining g'arbiy etaklarida joylashgan edilar.

Bu xalqlar sharqdan to Kaspiy dengizigacha bo'lgan hududga tarqalgan.

Girkaniya bilan Xorasm o'lkasi o'tasidan Ares daryosi o'tadi. Bu daryodan uzun-uzun kanallar qazilib, sug'orish shoxobchalaridan dehqonchilikda unumli foydalananadilar.

Shundan so'ng Gerodot Hindiston o'lkasida sayohatini davom ettiradi. Panjobga boradi. Bu yerga bostirib kelgan Doro haqida qimmatli ma'lumotlar to'playdi.

Gerodot asarida Hindistonning go'zal tabiatи o'zining ajoyib tasvirini topgan. Gerodot keyingi asarlarida Liviya, Misr o'lkalarini ham keng tasvirlaydi. Ayniqsa, Nil daryosi bo'yida yashovchi elatlar, Kush, Efiopiya mamlakatining tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi.

Shundan so'ng ulkan Ellin davlatiga qaram bo'lgan yana bir qancha katta-katta o'lkalarda bo'ladi. Xios, Teos, Fokey, Klasomen, Rodos, Knid, Milet, Faselid, Galikarnas kabi go'zal shaharlar va u yerdagi tarixiy voqealarni tasvirlaydi.

Gerodot to'qqiz kun kemada dengizlar osha suzib Nil daryosi qurq'oqlariga joylashgan Fiva shahriga yetib keladi. Misrliklar bu shaharni Apc deb atashgan.

Homer o'zining «Iliada» dostonida Fiva shahrining ta'rifini keltirar ekan, bu shaharning yetti darvozasi bor ekanligini, uning nihoyatda muhitasham va go'zalligini qayd etadi. Nil daryosining O'rta oqimiga joylashgan bu shahar qadimda Misrning poytaxti bo'lgan. Osiyoliklar bu shaharni Misrdagi yuz darvozali shahar deb atashadi.

Fiva shahri qulay geografik sharoitda joylashgan. Qadimdan savdosotiq va harbiy yurishlar shahri bo'lgan. Qizil dengizga chiqish va bu dengiz bo'ylab turli tomonlarga safar qilish mumkin edi. Qadimgi davrlarda xalq og'zaki ijodida, hatto eramizdan avvalgi XIII-XII asrlarda Fiva shahri haqida juda ko'plab «Sikl dostonlar» yaratilgan. Bu dostonlarning ayrim nusxalari hozirgacha saqlangan. Mazkur an'analarni so'z san'atkori Homer ham ijodiy davom ettiradi.

Gerodotning adabiy merosi juda boy. Bu adabiy merosni kichik novellalar yoki hikoyalar to'plami deb ham atashimiz mumkin. Biz

Gerodotni tarixchi sifatida taniymiz, xolos. Ammo uning ijodiga yaqindan yondashsak, go'zal badiiy tasvirlarni ham kuzatamiz.

SKIFLAR

Gerodot tarixning shunchaki xabarchisi emas, balki tarixni jonlantirib ko'rsatuvchi yetuk ijodkordir. Uning skiflar haqidagi asarlari nihoyatda bebafo va qadrli. Ayniqsa, skiflarning hayoti haqidagi hikoyalari, ularning ursf-odatlari va udumlari haqidagi badiiy lavhalar shunday jonli va hayotiy tarzda ifodalanganki, ularni o'qigan o'quvchi bevosita hayajonga tushadi.

Gerodotning «Skiflar» asari jahon adabiyoti xazinasidan munosib o'rin egallagan. Bu asar juda ko'plab tillarga tarjima qilingan. Skiflarni birinchi bo'lib jahonga tanitgan ham Gerodotdir. XVII-XVIII asrlardayoq rus imperatorlari Gerodotning «Skiflar» asarini juda katta qiziqish bilan o'qiganligi va juda ko'p nusxalarda tarjima qilishga buyruq berganligining guvohimiz. Natijada asar bir necha marta tarjima qilinib, qayta-qayta nashr etiladi¹. Skiflar haqida Gerodotdan ilgari yunon adiblari Homer, Esxil ham yozganlar. Lekin skiflarning haqiqiy va birinchi targ'ibotchisi Gerodot edi.

Gerodotning «Skiflar» asarining badiiy uslubi, undagi hikoyalarning xarakterli xususiyatlari haqida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari yuzaga keldi. Bu ilmiy-tadqiqotlar ichida, ayniqsa, I.Ya. Timoshenkonning «Gerodot va uning asari»², Vitold Klingerning «Hikoyachilik motivlari»³ asarlari, shuningdek, «Sharq xalqlarining tarixiy hikoyalari»⁴ kabi juda katta ahamiyatga ega bo'lgan ijod durdonalari yuzaga keldiki, bu asarlar bilan chuqur tanishsak, Gerodotning badiiy so'z san'atkori ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Eng xarakterli tomoni shundaki, Gerodot o'z ko'zi bilan ko'rgan va eshitgan voqealarini qalamga oladi, yolg'on-yashiq, soxta ma'lumotlar bilan ish ko'rmaydi. Tarixiy haqiqatni aniq va real tasvirlashga harakat

¹ Gerodot. Skifiya. S. Peterburg 1883; Gerodotova Skifiya. Odessa, 1842, Slovar Gerodotu Skifiya, Kiyev, 1876; Gerodot, Vostochniye narodi. M., 1887.

² I. Ya. Tomoshenko. Gerodot i yego sochineniye. Poltova, 1899.

³ V. Klinger. Skazochniye motivi Gerodota, Kiyev, 1903.

⁴ Gerodot i istoricheskiye rasskazi vostochnix narodov. M., 1887.

qiladi. Shuningdek, Gerodot ijodida mifologik xarakteridagi hikoyalar ham berilgan.

Gerodot juda katta bilim va chuqur iroda hamda matonat egasi bo'lgan. U juda ko'plab ellar-elatlarni, bir talay mamlakatlarni piyoda kezgan. O'zi ko'rgan-bilgan voqealarni qalamga olgan. Hamma vaqt odamlar orasida bo'lgan, qayerda bo'lmasin, insonlarning qalbiga yo'l topgan. Ellar va elatlarning hayotiga kirib borgan. Ular bilan yaqindan tanishgan. Uzoq-uzoq qabilalar bilan ham do'stlashgan. Begona odamlarni ham o'zining samimiyligi va dilkashligi bilan rom etgan. O'zining ziyrakligi bilan bir qabilaning urf-odatlarini, o'ziga xos yashash sharoitini ikkinchi qabilanikidan farqlay olgan. Erinmasdan olam kezgan. Jahongashta adib butun umrini ijodga bahshida etgan. Ko'p qarama-qarshiliklarga, qiyinchiliklarga, azoblarga duch kelgan. Biroq, qo'lidan qalamini tushirmagan. Tahlikaga va umidsizliklarga berilmagan. U insoniyat uchun xayri ish qilayotganini chuqur his etadi.

Gerodot katta ishga qo'l uradi. Faqat skiflarning emas, Yevropa va Osiyodagi hatto Afrikadagi ko'pgina qabilalarning hayotiga oid ma'lumotlarni badiiy aks ettiradi. Gerodotni biz, eng avvalo, tarixchi sifatida emas, badiiy ijodkor sifatida taniymiz. Ammo uning ijodidagi go'zal badiiy tasvir vositalari hali yetarlicha tatbiq qilinganicha yo'q. Gerodot ensiklopedist olim ham edi. Uning ijodi tarix, etnografiya, geografiya, jumiyatshunoslik va falsafa fanlari uchun ham zarur manba bo'lib xizmat qiladi.

Gerodot hikoyalarida skiflarning kelib chiqishi haqida turli xil rivoyatlar bitilgan. Jumladan, to'rtinchi kitob to'laligicha skiflar hayotiga bog'ishlangan. Bu kitobning beshinchi hikoyatida aytishchicha, skiflar bilan go'yo yunon ma'bud va ma'budalari o'rtasida yaqin qarindoshlik aloqalari bo'lganligi, greklar muqaddas bilgan ma'budlar ma'budi Zevs go'yoki skiflar uchun ham ma'bud bo'lgan emish. Go'yo skiflar ham Zevsni o'z ma'budi sifatida qabul etgan. Bu fikr shuni ko'rsatadiki, antik davrlarda ko'pgina xalqlarning qismati bir-biriga juda o'xshash va uyg'un bo'lgan. Faqat xalqlar qismatigina emas, balki ularning orzu-o'ylari, kurash va intilishlari ham bir-biriga juda yaqinlashgan.

Skiflar o'zlarining kelib chiqishlari haqida shunday hikoya qildilar. Aytishlaricha, hammayoq dastlab yap-yalang'och cho'l bo'lgan. Bu cho'lida Targ'itoy degan bir odam paydo bo'lgan. Targ'itoy Zove bilan daryo qizi Borisfenesadan tug'iladi.



2- rasm. Turli xil sabablarga ko'ra Suriyaga borib qolgan ajodolarimiz vakili Skif qiyofasi tasvirlangan misdan yasalgan haykal hozirgi kunda Kembrij muzeyida saqlanmoqda.

olib, uyiga ravona bo'ladi. Shundan so'ng katta o'g'il Lipoksay kichik ukasi Qoloqsayga shohlikni in'om etadi¹.

Hikoya qilishlaricha, Lipoksaydan tarqalgan skiflarni «Avxatovlar» deb atashgan. O'rtancha o'g'il Arpaqsaydan tarqalgan skiflarni «Katiaram» va «Traspiyamlar» deyishgan. Kichik o'g'il, shoh Qoloqsaydan tarqalgan skiflarni «Paralatamlar» deb nomlaganlar. Skiflar shohi ularni Skolotlar deb atashgan. Skiflar esa ularni ellinlar deb atashgan. «Bu voqeа Doroning skiflar yeriga hujumidan ming yillar ilgari bo'lib o'tgan edi»².

Panta viloyatida yashagan greklar ham skiflar haqida turli xil hikoyatlar bitganlar. Greklar o'zlarini skiflar bilan qon-qarindosh deb biladi. Chunki Panta viloyatidagi Olviya o'lkasiga skif vakillari kelib turishadi.

Gerodotning Panta yurtidagi ellinlar tilidan eshitgan hikoyalari o'quvchining e'tiborini beixtiyor o'ziga tortadi. Hikoya qilinishicha, Gerakl Gelion buqalarini haydab, o'sha zamonlarda kimsasiz yurt bo'lgan, keyinchalik skiflar egallagan joylarga kelib qoladi. Gerakl sovuqdan o'zini saqlash uchun yo'lbars terisini yopinib olgan edi. Kunlardan bir kuni u qattiq uyquga ketganida, oti g'oyibona yo'qolib qoladi.

Targ'itoydan uch o'g'il paydo bo'ladi: Lipoksay, Arpaqsay va eng kichigi Qoloqsay. Bu o'g'illar hayatligida, kunlardan bir kun osmondan oltin narsalar yog'iladi. Bular quyidilar: omoch, arqon, bolta va tovoq. Bu oltin narsalarga katta o'g'il yaqinlashganda, ular o'zlaridan shunday nur taratib yarqiraydiki, orqaga chekinishga majbur bo'ladi. O'rtancha o'g'il yaqinlashganda ham shunday hodisa yuz beradi. Eng kichik o'g'il yaqinlashganda bu oltin buyumlar o'zidan yarqiroq nur taratishdan to'xtaydi. Natijada, u bu oltinlarni

¹ Gerodot. Istoriya v devyati knigax. Kniga chetvertax. V 2-x tomax, tom I, M., 1985, str. 299. Bundan keyingi manbalar ham shu kitobdan olinadi.

² Gerodot. Istoriya v devyati knigax. Kniga chetvertaya, str. 299.

Gerakl (yunonlarning afsonaviy pahlavoni) otini qidirib ko'p ellarga boradi. So'ngra Galeey degan joyga keladi. Bu yerda u odamsifat Ilon qizga yo'liqadi. Ilon qizning yuqori qismi ayol zotiga o'xshasa, quyi qismi ilonga o'xshaydi. Taajjubga tushgan Gerakl undan «Begona otga ko'zing tushmadimi?» deb so'raydi. Ilon qiz Gerakl agar o'zi bilan qovushsa, otini berajagini aytadi.

Chorasiz qolgan Gerakl Ilon qizning bu taklifiga rozi bo'ladi.

Biroq Ilon qiz otni tezda qaytarib bermaydi. U Gerakl bilan yana tan mahramlikni davom ettirishni xohlaydi. Gerakl undan otni qaytarib olib, tezroq o'z yurtiga ketish uchun, qizning hamma shartlarini bajarishga rozi bo'ladi.

Nihoyat, qiz Geraklga otni qaytarib berar ekan, shunday deydi: «Sening oting biz tomonga kelganda, men uni ehtiyot qilib yashirib qo'ygandim. Evaziga sen meni mukofotlading. Endi men sendan uch o'g'il tug'aman. Ayt-chi, ular ulg'aygandan so'ng nima qilishi kerak? Ilon qizning savoliga Gerakl shunday javob beradi: «Sen o'g'illaringga shunday shart qo'ysan, ulardan qaysi birisi bu yoyni men kabi kuch bilan torta olsa, unga mening qayishim bilan o'z yeringni berasan. Qolgan ikkisini bu yerlardan haydab yuborasan». Shunday qilib, Gerakl o'zining yoyi bilan oltin tovoqsimon to'qali qayishini Ilon qizga qoldiradi.

Kunlardan bir kuni Ilon qiz uchta o'g'il tug'adi. Ulardan biriga Agafirs deb nom qo'yadi, ikkinchisini Gelon deb ataydi. Uchinchisi, eng keyin tug'ilganini Skif deydi. Uch o'g'ildan ikkitasi, ya'ni Agofirs va Gelon otasi Gerakl qo'ygan shartni bajara olmagani uchun, Ilon qiz ularni mamlakatdan quvib yuboradi. Eng keyin tug'ilgan kichik o'g'il Skif otasi Gerakl shartlarini bajargani uchun, Ilon qiz unga tovoqsimon oltin to'qali qayish bilan bepoyon yerbolarni beradi. Shundan buyon skiflar bu ellarda paydo bo'ladir¹.

Bu hikoyalarning mazmuniga diqqat bilan e'tibor bersak, Gerodot skillarga bir qadar xayrixohlik bilan qaraganligining guvohi bo'lamiz. Bu, o'z navbatida, olviyalik greklar bilan skif qabilalari o'rtasidagi munosabatning ijobiy bo'lganligidan ham dalolat beradi. Albatta, bu afsonalardagi voqealarga fantastik bo'yoqlar bilan jilo berilgan. Shunday bo'lsa-da, bu afsonalarning g'oyaviy ruhi xalqlar dilidagi tilak va orzunga hamohangdir.

¹ Gerodot. Istoriya v devyati knigax. Kniga chetvertaya, str. 301-302.

Gerodotning shoir Aristey haqidagi hikoyalari ham g'oyat qiziqarlidir. Hikoya qilinishicha, yoshlik yillari Prokonesda o'tgan Aristey nihoyatda talantli shoir bo'lib, u skiflar haqida ajoyib poema yozgan. Kanstrobiya o'g'li Aristey xohishiga binoan Issedonlar yurtiga kelib qoladi. Aristey Issedonlar yurtida birmuncha vaqt bo'lib, Arimasplar bilan tanishadi. Bir ko'zli odamlar va oltin qo'riqlovchi odamsifat qushlar haqida hikoya qiladi. Dengiz bo'yida yashovchi Gi perbarivlar haqida to'xtaladi. Skiflarga o'z yerlarini tashlab ketgan kimmeriyalar haqida ham Aristey poemasida qiziq epizodlar bor edi.

Aristeyning bu o'lkalardagi skiflar haqidagi hikoyalari Gerodotni hayajonga soladi.

Aristey haqida prokonesliklar va qiziqliklar Gerodotga qiziqarli voqealarni hikoya qilib beradi. Bu hikoyalardan birida aytılıshicha, Aristey Prokones shahrining mo'tabar kishilaridan biri bo'lган. Kunlardan bir kuni u tegirmonga boradi-da, o'sha yerda o'lib qoladi. Bu fojiadan xabar topgan tegirmonchi tegirmonni yopadi-da, marhumning qarindosh-urug'lariiga xabar berish uchun ketadi. Butun shahar ahli motam tutib, Aristey nomiga duolar o'qib, xudoga iltijo qiladi. Bu voqeа ustiga qandaydir bir shahardan yo'lovchi kelib qoladi-da, Aristeyning tirik ekanligini, yo'lda u bilan hamroh bo'lганligini aytadi. Shunda butun Prokones shahrining ahli va marosimga hozirlik ko'rayotgan qarindosh urug'lari tegirmon tomon chopadilar. Bu yerdan Aristeyning na tirik, na o'lik jasadi topiladi. Shundan so'ng, Aristeyni ko'p yillar qidirib, hech qayerdan topisholmaydi. Oradan yetti yil o'tgandan so'ng, Aristey paydo bo'lib, Prokonesda ijodini davom ettiradi.

Bu yerda u «Arimaspnom» poemasini yozib qoldiradi-da, ikkinchi marta g'oyib bo'ladi.

Gerodot ijodida shoir Aristeyning keyingi hayoti haqida g'aroyib sarguzashtlar beriladi. Unda hikoya qilinishicha, Aristey ikkinchi marta pinhona g'oyib bo'lгandan so'ng, oradan ikki yuz qirq yil o'tgach, u Italiyaning Metapont degan joyida paydo bo'ladi. Aristey metapontliklarga bashorat qilib, Apollon sharafiga ibodatxonada qurib, qurbanliklar qilishini aytadi va bu ibodatxonaga prokonnellik Aristey nomini yozib qo'yishni buyuradi. Shunday qilib, metapontliklar Aristeyni o'z shoirimiz deb faxrlanadilar. Shunday ajoyib kunlarning birida, Aristey qarg'a bo'lib osmonga uchib ketadi. Taajubga tushgan metapontliklar bu voqeanning sirini bilish uchun o'z vakillarini Delfa ibodatxonasiga yuboradilar.

Ibodatxona kohini Pifini metapont xalqining vakillariga, bu voqeа xudoning izmi bilan bo‘lganligini bashorat qiladi¹.

Gerodot hikoyasida qayd etilishicha, «Aristey sharafiga qurilgan Apollon ibodatxonasi bor. Uning atrofiga eng go‘zal va xushbo‘y Dafna daraxti o‘tqazilgan. Yunonlar bu daraxtni g‘oyat qadrlagan. Dafnalar daraxti, g‘alaba yoki shuhrat toji degan ramziy ma’noga ega. Dafna yaprog‘i va novdalaridan qadimgi yunonlar gulchambarlar yasab, bo‘yniga osib yurishgan. Quvonchli kunlarda, katta g‘alaba, yutuqlarga erishgan kunlari shunday qilishgan. Bu yerda odamlar mudom gavjum bo‘ladi. Ular Aristeydan minnatdordirlar»².

Bu hikoyalarning ko‘pchiligidagi greklar bilan skiflarning e’tiqodlari bir xil ekanligi ifodalananad. Qadim-qadim zamonalarda, ko‘pgina xalqlar deyarli bir xil narsaga sig‘inganlar, uni muqaddas bilganlar. Masalan, quyosh, olov, osmon va hokazo. Bundan tashqari, tabiat go‘zalliklarining munziy ma‘budalari ham mavjud bo‘lgan. Masalan, Olov ma‘budi Gefest, Quyosh ma‘budi Gelios, go‘zallik ma‘budi Afrodita va hokazo. Gerodotning hikoyalarida bundan tashqari Gerakl, Apollon, Hera kabi pahlavonlar, ma‘bud va ma‘budalar nomi ham bo‘lganki, ular skiflarning ham ma‘budalariga aylangan.

Greklar ma‘bud va ma‘budalarni faqat o‘zlarinigina emas, yer yuzidagi burcha mavjudotlar-insonlar uchun ham muqaddas bilgan.

Gerodot hikoyalarining ayrimlari o‘ziga xos ilmiy xarakter kasb etadi. To‘rtinchchi kitobning 36-37- hikoyatlari shunday fikrlarni o‘qiyimiz. Gerodotning ta’kidlashicha, Yer xuddi sirkul bilan chizib qo‘ygandek aylana shaklida. Unda Osiyo o‘zining kengligi jihatidan Yevropaga teng turadi.

Yerning aylana shaklda ekanligini izohlagan Gerodot o‘z davrining donishmandi bo‘lganligidan dalolat beradi. O‘scha davrlarda insonlar Yer tep-tegis shaklda bo‘lsa kerak, deb tasavvur qilganlar. Hatto yunonlar quyosh chiqadigan tomon - Osiyo tarafda bir sir bor, deb o‘ylaganlar. Yunonlar Xitoygacha borgan, ammo yerning «oxirgi nuqtasi»ga yetolmagan. Quyosh esa tobora uzoqlashib ketavergan. So‘ngra bu sir xudoning karomati bo‘lsa kerak, deb o‘ylaganlar. Osiyoliklar ham, o‘z navbatida, Quyosh botish tomonda bir mo‘jiza bo‘lsa kerak, deb taxmin qilganlar.

¹ Gerodot. Istoriya v devyati knigax. Kniga chetvertaya, str. 303.

² Gerodot. Istoriya v devyati knigax. Kniga chetvertaya, str. 313.

Yigirma to'qqizinchı hikoyatda yozilishicha, issiq o'lkalarda mollarning shohi tez o'sadi. Sovuq o'lkalarda esa juda sekin yoki umuman shoh o'sib chiqmasligi mumkin.

Shunday qilib, Gerodotning ijodiy merosi to'qqiz kitobdan iborat bo'lib, har bir kitob yuz ellik va undan ziyod hikoyatlarni o'z ichiga mujassam etgan. Tadqiqotchilar va tarjimonlar bu hikoyatlarni boblarga bo'lishgan. Gerodotning ta'kidlashicha, ularning har qaysisi o'ziga xos alohida hikoyatlardir.

Gerodot skiflar taomiga ham qiziqish bilan qaraydi. Oltmis biringchi hikoyatda bu haqda shunday deyiladi: «Jonliqning go'shtini suyagidan ajratadi-da, qozonga soladi. Suyagini o'choqqa qalab yoqadi va shu bilan qozonni qaynatib, go'shtni pishiradi.

Mabodo qozon topolmasa, go'shtni jonliqning qorniga soladi-da, suv quyadi. Tagiga suyak qalab yoqadi. Suyak juda yaxshi yonadi. Suyakdan tozalangan go'sht tez pishadi. Taom tayyor bo'lgach qassob bir bo'lak go'shtni va pishirilgan qorinni xudo yo'liga bag'ishlaydi. Uy hayvonlarining hammasini ham qurbanlik qilaverish mumkin, ayniqsa, otni qurbanlik qilish alohida buyurilgan.

Xudoga ishonuvchi skiflarning hammasida ham shunday qurbanlik qilish odati bor. Ayniqsa, Arey sharafiga qurbanlik qilish alohida odatga aylangan. Har bir skif shohligi Arey sharafiga alohida chiroq yoqadi. Uzunligi 3 stadiy keladigan uzun xodalarni qalab, uncha baland bo'lмаган qo'rg'on yasaydi. Bu qo'rg'onning tepasini to'rt burchakli maydon qiladi. Qo'rg'onning uch tomoni to'g'ri tushgan bo'lib, to'rtinchchi tomoni yassi holda yasaladi. Qo'rg'on nobop ob-havoda buzilib ketmasligi uchun yassi holda yasaladi. Qo'rg'on ob-havodan buzilib ketmasligi uchun har yili yuz ellik arava xoda keltirilib, uni qaytadan mustahkamlaydi. Qo'rg'onning tepasiga buyuk Arey siymosi va uning temirdan yasalgan qilichini qo'yadi. Bu qilichga skiflar har yili sig'inib, shohdor mollar va otlarni qurban qiladilar. Bundan tashqari, asir olingan qullarni qator qilib qo'yib sanaydilar, ularning yuzinchisini mol kabi so'yib, ularning qonini Arey siymosiga qo'yilgan temir qilich ustidan qo'yadilar. So'ngra qurban qilingan odamning o'ng yelkasini qo'li bilan birga kesib olib, osmonga otadilar. Qo'l qayerga borib tushsa, o'sha yerda qoladi. Qurban qilingan odamning jasadi alohida yotadi ...»¹.

¹ Gerodot. Istoriya v devyati knigax. Kn chetvertaya, str. 224.

Gerodotning keyingi hikoyalarda ham qiziq voqealar bayoniga duch kelamiz. Bir hikoyada shunday rivoyat qilinadi. Boshliq har yili vino tayyorlaydi. Dushmanni o'ldirgan skiflar bu vinodan bir kosadan ichadi, skiflardan ayrimlari jasorat ko'rsatmagan bo'lsa, davradan chetroqda o'tiradi. Ular uchun bunday munosabat og'ir jazo edi. Agar davradagi skiflar orasida juda ko'p dushman o'ldirganlari bo'lsa, bundaylar ikki kosa vinoni bordan ichadilar.

Gerodot antik dunyodagi boshqa ijodkorlardan shu bilan farq qiladiki, u fidoyi adib edi. O'z hayotini tahlikaga qo'yib bo'lsa-da, ijod dardida uzoq yurtlarni kezdi. Jahongashta adib bu safarlarda ne-ne xavf-xatarlarga duch kelmadni. U avval o'z ko'zi bilan ko'rib, qulog'i bilan eshitgach, keyin ijod qilardi. Har qanday faraz va taxminlar uning uchun begona edi. U minglab qabila va elatlarda bo'ladi. Yuzlab daryolarni kechib o'tadi. Baland tog'lardan oshadi. O'sha paytda hech bir ijodkorning qadami yetmagan uzoq o'lkalarni kezadi. Hali qo'l urilmagan mavzularni birinchi bo'lib yoritadi. Shuning uchun ham, Gerodot nomi tariximizda alohida ahamiyat kasb etadi. Juhon adabiyotida mo'tabar o'rinni olgan Gerodot nomini biz o'rta osiyoliklar ham juda qadrlaymiz. Negaki, bu ulug' zot tarixchilardan birinchi bo'lib bizni bobokalonlarimiz hayoti bilan tanishtiradi.

Gerodot bir qancha Osiyo mamlakatlarida bo'lib, so'ngra muqim istiqomat qilish niyatida Afina davlatining qo'l ostidagi Furiya shahriga keladi. Italiyaning janubiga joylashgan Furiya shahri o'z go'zalligi jihatidan dunyoda tengsiz edi. Gerodot birmuncha muddat Furiya shahrida yashab, eramizdan avvalgi 430- yilda o'sha yerda vafot etadi.

KVINT KURSIY RUF

Kvint Kursiy Ruf eramizning oltinchi yilida Rim imperatorligiga qarashli Tira shahrida tug‘ildi. Uncha katta bo‘lman bu shaharning tabiatini nihoyatda go‘zal edi. Kursiy Ruflar xonadoni uncha badavlat bo‘lmasa ham, o‘ziga yarasha to‘q edi. Bo‘lg‘usi yozuvchining yoshligidan bilimga chanqoqligini sezgan xonadon egalari uni lotin maktabiga o‘qishga berishadi. Savodi chiqqandan so‘ng u lotin tilida yozilgan asarlarni ixlos bilan o‘qiy boshlaydi. Biroq bu vaqtida lotin tilida yozilgan badiiy asarlar barchaga birdek yetishmasdi. Ko‘pgina yunon adabiyoti namunalarini lotin tilida o‘qib qoniqmagandan keyin u grek tilini o‘rganishga zo‘r berib intiladi. 22-23 yoshida Afina safariga jo‘naydi. Afinaning qadimiy adabiyot, madaniyat yodgorliklariga qiziqish bilan qaraydi. Afina safari sayohat shinavandasining dunyoqarashiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi.

Kursiy Ruf Afinadan to‘g‘ri Gretsiyaga qo‘shti bo‘lgan sharq mamlakatlariga yo‘l oladi.

U qayerda bo‘lmasin, xalq og‘zaki ijodi durdonalarini yig‘ib yuradi. U Aleksandr Makedonskiy haqida qiziq-qiziq hikoyat va rivoyatlar eshitadi. Shundan so‘ng u Aleksandr Makedonskiyning tarixiga juda qiziqib qoladi. Afinaga qaytib kelib Aleksandr Makedonskiyning hayotiga oid manbalarni to‘play boshlaydi. Ayniqsa, Aleksandriya shahri Kursiy Rufda katta taassurot qoldiradi. Aleksandrning Osiyo mamlakatlari bo‘ylab yurishi yozib borilgan maxsus «Shoh jurnali» yoki «Efemerida» bilan tanishadi. Aleksandr bilan harbiy yurishga otlangan, shohning eng yaqin kishilarini bo‘lgan Ptolomey va Aristobulning «kundalik»larini sinchiklab o‘qiydi.

Bundan tashqari, Kursiy Ruf Aleksandr haqida yozilgan tarixiy asarlar bilan ham diqqat bilan tanishib chiqadi. Ayniqsa, Klitarx va Magasfen romanlarini qayta-qayta mutolaa qiladi. Chunki bu adiblar Aleksandrning zamondoshlari edi. Klitarx va Magasfen bayon qilgan sharq mamlakatlariga oid voqealarning tafsilotlari bilan yaqindan tanishadi.

Kursiy Ruf eramizning 30-yillari oxirlarida Rimga qaytib keladi. Rimdagि adabiy guruhlar bilan aloqa bog‘laydi. Notiqlik san’atiga oid asarlar yoza boshlaydi. Uning bu asarlari o‘sha davrdagi adabiy jamoatchilikning e’tiborini o‘ziga tortgan edi. Biroq Kursiy Rufning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi butunlay boshqa narsa edi. U «Aleksandr Makedonskiyning tarixi» nomli romanini nihoyasiga yetkazish uchun tinimsiz ijod bilan mashg‘ul bo‘ladi.

Buning uchun u uzoq yillar zarur manbalar yig'ishga kirishadi. O'rta Osiyoning tarixiga oid ma'lumotlarni o'rganish Kursiy Ruf uchun birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Uzoq va begona o'lkalarning tarixini yozish yozuvchini ancha yillar o'yantirib yuradi. O'rta Osiyo va Hindiston tafsilotlari yozuvchini tashvishga soladi. Muhimi shundaki, Kursiy Ruf kelajak avlod oldida javobgar bo'lib qolishidan cho'chiydi. Shuning uchun ham, tarixiy dalillarga juda xushyorlik bilan munosabatda bo'ladi. Tarixiy voqealar bayonining aniq bo'lishiga intiladi.

Hatto Aleksandr bilan yonma-yon yurib, janglarda bevosita qatnashgan, voqealarning jonli guvohi bo'lgan Ptolomeyning «Kundalik»lariga ham bir qadar shubha bilan qaraydi. U bu haqda to'xtolib, «Ptolomey o'z «kundaligi»da Aleksandrni haddan ziyod maqtab yuborgan» degan fikrni aytadi. Kursiy Rufning tarixiy manbalarga bunday sinchkovlik bilan qaraganligining sababi, yozuvchi tarixiy asar yozishning o'ta mas'uliyatli bir ish ekanligini chuqur his etganligidan dalolat beradi. Tarixiy asar yozishning naqadar murakkab ekanligini Kursiy Ruf tushunib yetgan. Ayniqsa, Aleksandr Makedonskiy haqida asar yozish yozuvchidan tinimsiz izlanish va og'ir mehnatni talab etadi. Yozuvchi faqatgina tarixiy dalillarga, tarixiy asarlarga yoki «Kundalik»larga tayanibgina qolmasdan, O'rta Osiyo va Hindiston safarida bo'lgan ko'pgina sayyohlar bilan ham suhbatlashadi. Aleksandr Makedonskiyning Osiyo mamlakatlariga qilgan harbiy yurishidan avval ham, keyin ham O'rta Osiyoga juda ko'plab Gretsiya va Rim sayyohlari kelardi.

Ikkinci tomondan, rimliklar Aleksandr Makedonskiyning hayotiga juda qiziqish bilan qarashardi. Har bir rimlik sarkarda o'zini Aleksandr Makedonskiyga qiyos qilardi, hatto uning tarixiga havas bilan qarardi.

Milodiy, I asrning 40- yillarda Rimda imperatorlik qilgan Klavdiy Aleksandr Makedonskiyga nihoyatda hurmat bilan munosabatda bo'ladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Kursiy Ruf o'z asarining bir sahifasida imperator Klavdiyni maqtab o'tadi.

Kaligulning imperatorlik davri ancha notinch edi. Bu davrda Rim adabiy muhitida notinchlik paydo bo'ladi, adabiy va siyosiy guruh a'zolariga e'tiborsizlik bilan qarala boshlanadi. Biroq, 41- yilda Klavdiy imperatorlik taxtiga o'tirgandan so'ng, Rim adabiy muhitida ancha ijobiy jonlanishlar sezildi. Klavdiy savodxon bo'lgani uchun ham Rimda ilm-fanning rivojiga astoydil e'tibor bilan qaraydi. Hatto o'zi ham ilm-fan va badiiy ijod bilan

mashg‘ul bo‘ladi. Imperator, ayniqsa, badiiy adabiyotni sevar, zamondoshlari va o‘tmishdoshlari asarlarini o‘qishga qiziqardi.

Imperator Klavdiy yunon adabiyoti namunalarini ham berilib o‘qiydi. Shuningdek, Homer poemalari, Esxil, Safokl, Yevripid tragediyalari uning sevgan asarlaridan edi. Hatto Klavdiyning o‘zi ham tragediyalar yozishga kirishadi. Uning tragediyalari Rim teatrlarida to‘xtovsiz namoyish etilar edi.

Kursiy Ruf mana shunday adabiyot va san‘atga e’tibor ortgan Klavdiy imperatorligi davrida qizg‘in ijod og‘ushiga cho‘miladi. Biroq Kursiy Rufning bu asari o‘z davrida mashhur bo‘lmadi. Yozuvchining o‘zi bunga e’tibor bermagan bo‘lsa kerak. Kursiy Ruf nihoyatda ehtiyyotkor yozuvchi edi. O‘zi uchun nihoyatda bebaho bo‘lgan bu asarning o‘zgalar nazariga tushgandan so‘ng qanday bahoga sazovor bo‘lishi yozuvchini o‘ylantirardi. Klavdiy imperatorligi tugatilib 68-69- yillarda Rim taxtiga Vespasian o‘tirgandan so‘ng, yana adabiy muhitga e’tiborsizlik boshlanadi. Kursiy Rufning hayoti biroz murakkablashadi. U o‘zining «Aleksandr Makedonskiy tarixi» asarini yakunlab, 78-yilda Rimda vafot etadi.

Kursiy Ruf oldiga qo‘yan ezgu-maqсадга, niyatiga erishadi. U Aleksandr Makedonskiyning tarixiga bag‘ishlangan o‘nta kitob yozadi. O‘nta kitobni o‘z ichiga oлган бу асарнинг keyingi taqdiri g‘oyat achinarlidir. Asarning birinchi va ikkinchi kitoblari yo‘qolib ketgan. Beshinchi kitobning oxiri va oltinchi kitoblarning boshlanishi saqlanmagan. Shuningdek, asarning o‘ninchи kitobidagi ayrim sahifalar ham yirtilib ketgan. Asarning O‘rta Osiyoga bag‘ishlangan kitobidagi sahifalardan ayrim satrlar o‘chganligini hisobga olmaganda, asar bizgacha to‘liq yetib kelgan.

ALEKSANDR MAKEDONSKIY TARIXI

O‘rta Osiyo, jumladan, So‘g‘diyonaning antik davrlari tasvirlangan asarlar ichida Kvint Kursiy Rufning «Aleksandr Makedonskiy tarixi» asari alohida o‘rin tutadi. Unda O‘rta Osiyoning eramizdan avvalgi IV-II asrlariga oid voqealar tasvirga kengroq olingan. Kursiy Rufning bu asarining O‘rta Osiyo haqidagi boshqa asarlardan farqli tomoni shundaki, unda ikki daryo Oks (Amu) va Yaksart (Sir) oralig‘idagi tarixiy voqealar keng ifodalangan.

Kursiy Rufning ushbu asari Diodor, Yustin, hatto jahon adabiyotida muhim o‘ringa ega bo‘lgan Plutarxning «Aleksandr» romanidan ham

ustun ekanligini ko'ramiz. U «Aleksandrning yurishi» asaridan ham bir qadar ustun darajadadir. Asarda tasvirlangan voqealarning bayoni fikrimizning isboti bo'la oladi.

Asarning VII kitobida va VIII kitobning bir qismida O'rta Osiyo voqealari tasvirlanadi.

Asarda ifodalishicha, Aleksandr So'g'diyona yerlariga qo'shni bo'lgan Girkaniyaga katta qo'shin bilan bostirib kiradi. «Atrof qumlik, sahro, quyosh qizdiradi. Suv tanqis edi. Qumlik xuddi olov purkayotgandek»¹.

Asardan keltirilgan bu parchada yozuvchi Amudaryoning narigi tomonidagi joylashgan cho'llarini tasvirlayapti. Makedoniyaliklarning O'rta Osiyoning olov purkab turgan issig'iga moslashishlari juda qiyin bo'ladi. «Bu yerlarda kechasi yurish ancha qulay. Ayniqsa, tong pallasidagi muzdakkina sahro shabadasi, quyosh chiqishi bilan harorat ko'tariladi. So'ngra butun a'zoyi badaningiz yona boshlaydi. Jangchilar avval ruhan tushkunlikka tushadi, so'ngra issiqqa bardosh berolmay, holdan toya boshlashadi»².

Kursiy Ruf xuddi O'rta Osiyo cho'llarida o'zi bo'lгandek, bu yerlarning tabiat manzaralarini o'z ko'zi bilan ko'rgandek tasvirlaydi. Yozuvchi o'z asarida sahro manzarasiga ancha keng o'rн bergan. Oy yoki kunini aniq ko'rsatmasa ham, makedoniyaliklarning bu yerlardan saraton oylarida o'tganligini aniqlash qiyin emas.

Yana bir o'rinda yozuvchi jangchilar issiqqa bardosh berolmay oxirgi vinolarigacha, hatto moylarigacha ichib qo'yanligini aytadi. Ularga suyuqlik bo'lsa bas edi, qarab o'tirmasdan ichaverardi. Ayrimlarining qorni shunday shishib ketgan ediki, hatto qurol ko'tarishga ham darmoni yetmasdi, deb hikoya qiladi yozuvchi. Haqiqatan ham, Kursiy Ruf asari O'rta Osiyoga bag'ishlangan boshqa ko'pgina grek va Rim adabiyotidagi asarlardan shu bilan farq qiladiki, unda tabiat tasviriga alohida e'tibor berilgan.

Asarni o'qir ekansiz, sizga yaqindan tanish bo'lgan tabiat manzaralari, geografik muhit tasvirlari birma-bir ko'z o'ngingizdan o'taveradi. Odam o'tsa oyog'i, qush uchsa qanoti kuyadigan, bu borsa kelmas sahrolarda

¹ Kvint Kursiy Ruf. Istorija Aleksandra Makedonskogo. Soxranivshyesa knigi. Izdvo Moskovskogo universiteta. 1963. Str. 26. Bundan keyingi manbalar ham shu kitobdan olnadi.

² Kursiy Ruf. O'sha asar, 265- bet.

ham skif qabilalarining yashayotganligini ko'rib, yozuvchi hayratga tushgandek bo'ladi. Hatto asarni o'qigan kitobxon ham bunday voqealarga qiziqib qaraydi. Zim-ziyo, poyonsiz sahroyi kabirda odamlar yashamoqda. Skif qadim-qadimdan mana shunday matonatli, mehnatkash va kuchli iroda egasi bo'lgan.

«Aleksandr jangchilari meshga suv to'ldirib kelayotgan bir cholni tutib keltiradilar. Aleksandr u kishidan svuni qayerga olib borayotganini so'raydi. Shunda u sahroda chanqab yotgan o'g'illariga olib borayotganini aytadi. Aleksandr meshni qaytarib berib, «Bu suvning hammasini men icholmayman, askarlarimga bo'lib beray desam yetmaydi, undan ko'ra sen o'g'illaringa olib boraqol, deb suv to'ldirilgan meshni cholga qaytarib beradi»¹.

Asarni o'qir ekansiz, mana shu sahro ham Vatanning bir bo'lagi ekanligini, uning ham o'z egalari borligini his qilasiz.

Aleksandrning atrofidagi obro'li maslahatchilar hatto bu sahroni tark etish, orqaga qaytish lozimligini ulug' sarkardadan yalinib so'rashadi².

Biroq, Aleksandr o'z yo'lidan qaytmaydi.



3- rasm. Aleksandr Makedonskiyning skifcha kiyim kiyib jangga kirgan haqiqiy rasmi.

laridek qarshi oladilar. Yozuvchining o'z asarida tasvirlanayotgan voqealardan ilgarigi davrga, uzoq va yaqin o'tmishga murojaat etishi tarixiy nasr talabiga xosdir. Bunday retrospektiv epizodlar tarixiy nasrda

Shundan so'ng, Aleksandr Oks daryosidan o'tib, uncha katta bo'limgan Branxidlar shaharchasiga yetib keladi. Yozuvchi bu shahar aholisining tarixiga alohida to'xtaladi. Eron shohi Kserks greklar bilan bo'lgan jangda, ularning bir qismini asir olib, So'g'diyona cho'llariga olib kelib tashlagan edi. Bugun bu branxidlar Aleksandr-ni o'zlarining yaqin qavm-

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 165- bet.

² O'sha asar, 267- bet.

ko'p uchraydi. Bu o'rinda yozuvchi branxidlar tarixiga murojaat etib, katta bir voqeani esga olishga muvosiq bo'lgan. Bunday qishloq va shaharlar O'rta Osiyo hududining bir nechta joylarida bor.

To'rtinchi kuni Aleksandr Maroqand shahriga yetib keladi. «Maroqandning devorlari baland va mustahkam edi. Uning ichiga joyalashgan qal'a ikkinchi devor bilan o'ralgan. Aleksandr u yerda katta qo'shinni qoldirib, o'zi yaqin oradagi qishloqlarni yoqib, talay boshlaydi¹.

Mana shu epizoddan ham ko'rinish turibdiki, Aleksandr O'rta Osiyoda o'ta shafqatsizlik va talon-tarojni avjiga chiqargan. Butun bir qishloqlarni kultepaga aylantirgan. Shaharlarni o'zining toshotar mashinasi² bilan buzib, vayron qilgan.

Kursiy Rufning bu asari Aleksandrning sharq mamlakatlariga, jumladan, O'rta Osiyoga yurishini tasvirlabgina qolmasdan, balki O'rta Osiyoning uzoq tarixiga oid ham ko'pgina ma'lumotlarni beradi. Masalan, asarni o'qir ekanmiz, biz uchun afsonaviy Eron shohi sanalgan Kirning tarixiy shaxs ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Kursiy Rufning ta'kidlashicha, Eron shohi Kir eramizdan avvalgi 559-529- yillarda yashab o'tib, Yaksart (Sir) daryosi yoqasidagi G'aza shahrini egallab oladi. Hatto Kir bu daryo yaqinida shahar³ qurbanligini asar muallifi ta'kidlab o'tadi. Bu shaharda katta kuchga ega bo'lgan Memaken qabilalari yashar edi.

Memakenlar Aleksandrning 50 ta otliq askarini ochiq chehra bilan qarshi olib, quyuq dasturxon yozadi. Kun bo'yи yo'l yurib charchagan, shirim taomlarni yeb orom olgan makedoniyalik jangchilar yarim tunda qattiq uyquda yotganlarida ular memakenlar tomonidan qirib tashlanadi. Bu xabarni eshitib, Aleksandr juda darg'azab bo'ladi. G'aza shahrini yakson qilib tashlamoqchi bo'ladi. Biroq, birinchi hujumdayoq bu shaharni olish qiyin kechadi. Memakenlar shaharni mardonavor himoya qiladilar.

Asarda ifodalangan bunday vatanparvarlikka oid epizodlar Yaksart daryosi yoqasidagi xalqlarning qadimda nihoyatda jasur bo'lganligini, bosqinchi yovga qarshi shafqatsiz kurash olib borganligini ko'rsatadi.

Kursiy Ruf asarida tasvirlangan Yaksart daryosi atrofidagi voqealar o'quvchini hayajonga soladi. Muhibi shundaki, Kursiy Rufning bu asari bundan qariyb 20 asr ilgari yaratilgani holda, unda tasvirlangan voqealar

¹ O'sha asar, 273- bet.

² Osiyoliklar tilida to'lg'ama ham deyilgan.

³ Arxeologlar bu shaharni o'rtepa yaqinida qurilgan, deb aniqlik kiritadilar.

XXII asr avval bo‘lib o‘tgan bo‘lsa ham, hamon bugungi o‘quvchi uchun zamonaviydir. Chunki biz asarni o‘qir ekanmiz, bugungi kunimiz cho‘qqisidan turib, o‘z tariximizning uzoq o‘tmishiga nazar tashlaymiz. Uzoq tarixiy o‘tmishimizdagи bo‘lib o‘tgan voqealarni bugungi kunimizga qiyoslaymiz. Bosqinchilik urushlari odamlar boshiga ne-ne qирг‘инлар keltirganini Kursiy Ruf asarini o‘qib yana bir bor guvoh bo‘lamiz. Qanchadan-qancha odamlar qul haydab ketilgan, ming-minglab kishilar ayovsiz qirib tashlangan. Son-sanoqsiz ayollar yaqin kishisidan ajralib, dod-faryod chekkan. Yosh go‘daklar qolgan. Hatto tirik bolalar itlarning oldiga tashlangan.

Necha martalab bosqinchilar yurtimizga bostirib kelgan, boyliklarimizni talab ketgan. Muhtasham shaharlarimizni vayron qilgan, qishloqlarimizga o‘t qo‘ygan.

Eron shohlari Kir, so‘ngra Doro bu yerlarda qonli iz qoldirdi. Biroq so‘g‘diyonaliklar bosqinchi yovga qarshi hamisha mardonavor kurashib kelganlar. Hech qachon o‘z qabilasini, elatini dushman oyog‘и ostiga tashlab qo‘ymagan. O‘lsa ham kurashib o‘lgan. Aleksandr Makedonskiy So‘g‘diyonani osongina qo‘lga kiritaman, deb o‘ylagan edi. Skiflar o‘z yerlarini urushsiz, qarshiliksiz menga topshiradi, deb xayol surgan edi. Aleksandrning o‘ylari oqibatda xomxayol bo‘lib chiqdi. So‘g‘diyonaliklar Aleksandrga har tomonlama hujum qilib, tinchlik bermaydi.

Ayniqsa, Kiropil shahrini olayotganda Aleksandr juda qiynaladi. Katta tosh qirrasi bo‘yniga zarb bilan kelib urilib, yarananadi. «Aleksandrning ko‘z o‘ngini qop-qora tuman qoplaydi. U holsizlanib, otdan yiqilib tushadi. Aleksandrni bu holatda ko‘rgan makedoniyalik jangchilar tahlikaga tushib, yig‘lashadi. Ular o‘z shohlarini o‘lib qoldi, deb o‘ylaydilar»¹.

Kursiy Rufning asari juda o‘qishli. Unda ko‘plab qiziqarli voqealarning tafsiloti bayon qilingan, ularni qo‘ldan qo‘ymay, berilib o‘qiging keladi. Ayniqsa, so‘g‘d xalqining milliy qahramoni Spitamen haqida ancha keng ma‘lumotga ega bo‘lamiz. Asarda Spitamen jismonan baquvvat, tadbirdor, jasur va mard inson sifatida badiiy ifodalananadi.

Eron shohlari Kir va Doro o‘zini Ahmoniyalar podshohi deb e‘lon qilgandan so‘ng so‘g‘diyonaliklar ham unga qaram bo‘lib qoladi. Oddiy xalqning podshohlik haqidagi tushunchalari o‘sha davrlarda butunlay boshqacha edi. Ya’ni oddiy xalq podshohlari muqaddas, ma‘budvash

¹ O‘sha asar, 276- bet.

deb tushunardilar. Hatto Gretsiya va Rimda podshohlarni ma'bud va ma'budalar bilan teng qo'yishgan.

Eron shohi Doroga xiyonat qilgani uchun xoin Bessni Spitamen Aleksandr qo'liga topshiradi. Biroq o'zi Aleksandrga bo'ysunmaydi. So'g'diyonani Aleksandr qo'liga osonlikcha topshirib qo'ymaydi. Aleksandr Spitamenga katta-katta va'dalar beradi. Hatto So'g'diyona hokimligini in'om etmoqchi bo'ladi. Spitamen esa vatanfurushlik qilgandan ko'ra, o'limni afzal biladi.

Aleksandr Spitamenni ta'qib qilishga kirishadi. Uning Maroqandda ekanligini eshitib, sarkarda Menedem qo'mondonligida uch ming piyoda, 800 otliq qo'shin yuboradi. O'zi esa Tanais daryosi bo'ylab ketadi. Bu daryo bo'yida u shahar quradi. Atoqli olim Bobojon G'afurov Aleksandriya Esxata¹ shahri Tanais daryosi bo'yida emas, Yaksart (Sir) daryosi bo'yida qurilganligini ta'kidlaydi². Unga Aleksandriya deb nom beradi. Shahar juda qisqa vaqt ichida tiklangan. Bor-yo'g'i o'n yetti kunda qurib bitkazilgan. Olimlarning ta'kidlashicha, bu shahar hozirgi Xo'jand shahri o'rnida qurilgandir. Professor M. M. Lyutovning ta'kidlashicha, Aleksandriya shahri hozirgi Xo'jandning aynan o'rnida emas, Sirdaryoning Bekobodga yaqin joyida qurilgan.³

Bu shaharni Aleksandr grek savdogarlariga topshiradi.

Haqiqatan ham, Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyo hududida bir necha shaharlar barpo qildi. Ularning ayrimlarining nomlari hozir ham saqlanib turibdi.

N.P. Ostroumovning izohlashicha, O'rta Osiyoda Iskandarko'l, Iskandarsoy, Iskandar qal'a, Iskandar minora, Iskandar shahar kabi nomlarni tuyli joylarda eshitish mumkin.⁴

Iskandardaryo Yag'nab daryosi bilan qo'shilib, Fon daryosini hosil qiladi. Bu daryo Tojikistonda joylashgan. Hisor tog'lari etagida Iskandarqishloq ham bor.

Aleksandring shaxsiga oid ma'lumotlar ham asarda keng tasvirga olinadi. Uning Kiropil shahrini qo'lga kiritish chog'ida yaralanishi va ancha vaqt

¹ Esxata — eng chekkadagi shahar.

² B. G'afurov. «Tadjiki». Izd-vo «Nauka», M., 1972, str. 96.

³ M. M. Lyutov. Aleksandr Velikiy v Turkestane. Tashkent, tipolitografiya S. I. Lastina, 1890, str. 17.

⁴ Ostroumov N. P. «Iskandar Zulqarnayn», Tashkent, Tipolitografiya torg—domu B. Komenskiye, 1896, s.6.

bu yara dardidan azob chekishi tasvirlanadi. «Aleksandr yaralangandan so'ng bir necha kun isitmalab yotib qoladi. Aleksandr otga minish u yoqda tursin, oyog'ida turolmaydi. Ba'zan u ruhan tushkunlikka ham tushardi. Ko'proq jangchilarini o'yldardi. Paymonam yaqin ko'rindi, agar o'lib qolsam, ularning holi ne kechadi, deb jangchilariga qarab qo'yadi.

Ovozi juda nimjonlashib qolgan zo'rg'a gapirardi, Uning ovozini juda yaqin o'tirgan kishi ham bazo'r eshitardi»¹.

Sarkarda Menedem Spitamenni qo'lga tushirish uchun katta qo'shin bilan ketgan edi. Spitamen makedoniyaliklarning qo'shini kelayotgani haqidagi xabarni eshitib, shahar darvozasini ochib qo'yadi-da, o'zi jangchilar bilan to'qayzorlar orasiga yashirinadi. Yo'lning ikki tomoni qalin daraxtzor bilan qoplangan edi «Beparvo kelayotgan dushmanga to'satdan hujum qilgan Spitamen qo'shirlarni qurshab oladi. Menedem qo'shirlari har qancha qarshilik ko'rsatmasin, Spitamen jangchilari ularni qirib tashlaydi»². Bu Aleksandr uchun katta yo'qotish edi. Aleksandr qo'shirlari ham hech qachon bunday muvaffaqiyatsizlikka duch kelmagandi.

Asarda faqat skif jangchilarininggina emas, makedon jangchilarining ham mardligi va jasurligi yorqin badiiy kartinalarda ifodalanadi. Makedoniyaliklar bilan Spitamen qo'shirlari o'rtasida shiddatli jang boshlanadi. Menedemning nihoyatda mashhur oti bor edi. Bu ot bir necha marta xavf ostida qolgan o'z xo'jayini Menedemni janggohdan olib chiqib, qutqarib qolgan edi. Bu safar buning hech iloji bo'lmadi. Spitamen qo'shirlari yon-atrofni temir halqadek o'rab olgandi. Bu halqadan chiqishning hech iloji yo'q. Menedem yaqin do'sti Gipsidga murojaat etib, uchqur otini minib janggohdan chiqib qochishni aytadi. Gipsid do'sti Menedemni janggohga tashlab, qochib qolishni o'ziga ep ko'rmaydi. Do'sti bilan yonma-yon turib, halok bo'ladi»³.

Muhimi shundaki, bu asarni uzoq rimlik xolis bir yozuvchi ijod etgan. U makedoniyalik ham emas, so'g'diyonalik ham emas. U makedoniyalik bo'lganda Aleksandrga, so'g'diyonalik bo'lganda Spitamenga yon bosishi tabiiy edi. Chunki, har bir yozuvchi bir jamiyatda yashagani holda o'sha jamiyatning manfaatidan chetda turishi mumkin emas. Kursiy Rufning o'z asarida voqelikka xolisona yondashish jarayonini ko'ramiz.

¹ Kursiy Ruf, 279- bet.

² Kursiy Ruf, 280- bet.

³ Kursiy Ruf, 280- bet.

Ikkinci marta yaralangandan so'ng «Aleksandr Tanais daryosi yoqasidagi qal'asida uzoq vaqt yotib qoladi. Nihoyat, u oyoqqa turib o'z jangchilari yoniga keladi. Makedonliklar o'z shohini juda sog'ingan edilar. Aleksandrning oyoqqa turganligini ko'rib, jangchilar sevinganlaridan uni ko'z yoshi bilan qarshi oladilar. Ko'ngillari urushni qo'msab qolganligini izhor qilishadi»¹.

Bu epizodda birinchidan, jangchilarning Aleksandrga sadoqati ifodalangan bo'lsa, ikkinchidan, makedon jangchilarining urushni qo'msab qolganliklariga ishora qilinmoqda. Ajib zamonlar bo'lgan, odamlar qirg'in urushni xohlashgan. Ular urushni qandaydir baxt deb bilganlar. Urush ming-minglab kishilar boshida ajal urug'ini sochishini, insoniyatga ofat bo'lib yog'ilishini xayollariga ham keltirishmagan.

Urushga qarshi chiqqanlar og'ir jazoga tortilgan.

Kursiy Ruf o'z asarida skiflarniadolat va tinchlik tarafdori sifatida tasvirlaydi. Hatto asarda shunday epizodlar berilganki, skif xalqi tinchlik tarafdori ekanligi ravshanlashadi.

Yigirmaga yaqin otliq skiflar o'z milliy odatlariga xos kiyinib, makedon qo'shinlari joylashgan lagerga keladi. Ular shohning oldiga maxsus topshiriq bilan kelganliklarini, o'z niyatlarini shaxsan uning o'ziga aytish niyatida ekanliklarini bildiradi. Skiflar shoh chodiriga kirishib, Aleksandrning qarshisida o'tirishadi. Ular shohning ko'ziga tikilib qarashdi. Aleksandr ularning savoliga javob berishdan ojiz edi. Buni skiflar sezib turishardi².

Bu o'rinda yozuvchi skiflarning nihoyatda sinchkov ekanliklarini ta'kidlamoqda. Asarda bunday psixologik epizodlar juda ko'p uchraydi. Kursiy Ruf asardagi ko'pgina voqealarga hayotiy haqiqat mezonidan kelib chiqib yondashadi. Badiiy ifodalar qa'rida psixologik holatlarning mavjudligini ko'ramiz. Insonning ko'ziga qarab uning ichki tuyg'ularini, ko'nglida yashirinib yotgan holatlarini aniqlash psixologizmning asosiy negizini tashkil etadi. Bu psixologik negizga ega bo'lgan hayotiy va badiiy bog'lanishlarni bir-biridan farqlash lozim. Bu jarayonni chuqur o'rganish ancha murakkab bo'lib, o'ziga xos ilmiy mushohadani taqozo etadi. Insonning ko'ziga qarab, uning ichki dunyosini aniqlash har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. O'tkir psixolog bu ishning uddasidan chiqishi

¹ O'sha joyda.

² Kursiy Ruf, 281- bet.

mumkin. Kursiy Ruf o‘z asarida skif elchilarining mana shunday sinchkov, ziyrak ekanliklarini ifodalaydi.

Mana shu dalilning o‘ziyoq qadimgi davrlarda xalqimiz orasida donishmandlar, fozillar, aqli raso kishilar bo‘lganligini dalillaydi.

Kursiy Rufning ta’kidlashicha, skiflarning boshqa varvar urug‘laridan farqi shunda ediki, ularning fikr ifodalashlari qo‘pol emas, madaniyatni ham durust edi¹.

Bunday fikrlar Kursiy Ruf asarining badiiy, ayni chog‘da, tarixiy qimmatini oshirgan. Skiflarga berilgan bunday yuksak baho, ayni chog‘da, Kursiy Ruf dunyoqarashining kengligini belgilaydi. O‘zga xalqlar, o‘zga millatlar madaniyatiga hurmat bilan qaragan yozuvchining asarigina boshqa xalqlarning ham sevimli asariga, madaniyatining nodir namunasiga aylana oladi. O‘z zamonasida Rimda ijobjiy bahosini topolmagan Kursiy Rufning bu romani oradan qariyb yigirma asr o‘tgan bo‘lsa ham, bugungi kunda bizning madaniyatimizning, butun O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatining bebaivo asariga aylandi. Uzoq o‘tmishimizdan hikoya qiluvchi bu asar, haqiqatan, bugungi kunda skiflar avlodni uchun ham nodir yodgorlikdir. Yana bir o‘rinda muallif «Aytishlaricha, ularning orasida donishmandlari ham bor ekan»² deb ta’kidlaydi.

Albatta, bu dalillarni Kursiy Ruf O‘rta Osiyoga kelgan, skiflar bilan uchrashgan, ularning urf-odatlari, madaniyatini yaxshi bilgan qaysidir tarixiy asardan olgan. Bo‘lmasa, bunchalik aniq ma’lumotlarni skiflar bilan bog‘lanmagan kishi aytga olmasdi. Yozuvchining mahorati shundaki, u tarixiy haqiqatning mohiyatidan kelib chiqib, badiiy haqiqatni hayotiy va jonli ifodalay olgan.

Kursiy Rufning qayd qilishicha, hatto skiflarning nutqi ham jozibador edi³. O‘zining go‘zal nutqiga, madaniyatiga ega bo‘lgan skiflarning o‘scha davrlarda o‘ziga xos adabiyoti ham bo‘lgan. Biroq, afsuski, bu adabiyot namunalarini yig‘ishga qiziqish kam edi. Skiflar haqida «kundalik» yozib qoldirgan, skiflar diyoriga kelgan, Aleksandr bilan yonma-yon yurgan Aristobul xalq aforizmlarini yig‘a boshlagan. Aristobul bu aforizmlardan ayrimlarini Aleksandrga o‘qib berganda shoh uning qo‘lidagi aforizmlar yozilgan daftarni jahl bilan tortib olib, yirtib-yirtib suvgaga uloqtirib

¹ Kursiy Ruf, 281- bet.

² Kursiy Ruf, 282- bet.

³ Kursiy Ruf, 282- bet.

yuboradi¹. I.G. Drayzenning ushbu fikriga tayansak, makedon qo'shinlari orasida skiflar adabiyotiga qiziquvchilar bo'lganligi tabiiyidir. Aleksandrdan ilgari ham, hatto Gerodot davrlarida va undan avval ham O'rta Osiyo og'zaki adabiyoti namunalari yozib olingen. Bu xalq adabiyoti namunalariga greklar qiziqish bilan qaragan. Xalq og'zaki ijodining dastlabki namunalarini bo'lgan «To'maris», «Shiroq» afsonalari va «Avesto»da ham bir qancha hikoyatlar bor. Gerodot asarlarida yana bir qancha hikoyatlar bayon qilinadi. Bu afsonalarni shubhasiz o'rta osiyoliklar ijod qilgan. «To'maris» afsonasida Massaget, «Shiroq» afsonasida shak qabilalarining bosqinchi yovlariga qarshi kurashi aniq badiiy bo'yoqlarda ko'rsatib berilgan. Bu qabilalarning tadbirkorligiga, jasur va mardligiga alohida to'xtalgan. Shuning o'ziyoq har ikkala afsonaning ham O'rta Osiyoda yashovchi xalq donishmandlari tomonidan yaratilganini isbotlaydi.

Bu har ikkala qabila-massagetlar va shaklar qadimda O'rta Osiyoda yashagan. Grek adabiyotida ta'kidlanishicha, ayniqsa, Esxil, Ksenofont, Gerodot, Polien ijodida qayd qilib o'tilishicha, «To'maris» va «Shiroq» afsonalarida tasvirlangan davr, bu afsonalarning tarixiy ildizi eramizdan avvalgi VI-V asrlarga to'g'ri keladi. Bundan ko'rindaniki, VI-V asrlarda «To'maris», «Shiroq» kabi xalq og'zaki ijodi namunalariga ega bo'lgan bu qabilalarning keyinchalik Aleksandrning yurishi va uning O'rta Osiyoga kelishi davrida yanada rivojlangan, o'ziga xos adabiyoti bo'lganligini ko'rsatadi.

Skiflar Aleksandrning chodiriga kirgandan so'ng, shohga turli xil murakkab savollar bera boshlaydi. «Nega bizning yerimizga oyoq bosding? Sen kimsan, qayerdan kelding? Biz senga xizmat qilishni, egilishni xohlasmaymiz. Biz skiflarga ho'kiz, omoch, qilich, yoy va qozon-tovoq bo'lsa bas. Biz bu narsalarni o'rtoqlarimiz bilan o'zaro baham ko'ramiz va birgalikda dushmanga qarshi kurashamiz. Ho'kiz va omoch bilan yer haydab, hosil olamiz. Tovoqda do'stlar bilan vino ichamiz. Yoyda uzoqdagi dushmanni qiramiz ... qilichda esa yaqindagisini. Biz shunday qilib Suriya, keyin esa Eron va Indey shohlarini yengib kelganmiz»².

Asardan keltirilgan ushbu parchadan ham ko'rini turibdiki, Kursiy Ruf skiflarning qadimda tinchliksevar xalq bo'lganligini, bosqinchilik urushlarini boshidan ko'p kechirganligini qayd qilmoqda. Bu xildagi

¹ Drayzen I.G.Istoriya Ellinizma, M., Tipo-litografiya V.F.Rixter, 1891.Str.234.

² Kursiy Ruf, 284- bet.

epizodlar orqali skiflarning yashash sharoitini anglash, ularning maqsadi va turmush kechirishlarini bilib olish mumkin. Asar muallifi juda go'zal obrazli ifoda topgan. Omoch va ho'kiz. Bundan ko'rindiki, skiflar o'sha davrlarda asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan. Muhimi shundaki, Kursiy Ruf skiflar¹ hayotini to'g'ri va aniq ifodalay olgan. Demak, skiflar omoch va ho'kizda yer haydab, dehqonchilik qilishni ham, vino ichib do'stlashishni ham, qo'lida yoy va qilich tutib dushmanqa qarshi kurashishni ham yaxshi bilgan. Muhimi shundaki, skiflarning Aleksandrga bergen savollari o'ziga xos falsafiy xarakterga ega. «Nega bizning o'llkamizga oyoq bosding?» - degan savollari bilan Aleksandrni shoshirib qo'yadi. «Bizning tinchligimizni nega buzdung» - deb Aleksandrday bir qo'lida Yevropani, bir qo'lida Osiyoni ushlab turgan shohga murojaat etishlarining o'zi skiflarning dovyurak, qo'rmas, qat'iy fikrli bo'lganliklaridan dalolat beradi.

Skif donishmandlari bilan Aleksandr o'rtasida munozara davom etadi. «Sen bu yerga qaroqchilarni tutgani kelganman deb maqtanasan, o'zing talonchilik bilan shug'ullanysan-ku? Senga buncha boylikning nima keragi bor? Bizga o'zga yurtlarning hokimliklari kerak emas»². Bu baho ortiqcha maqtov va hushomadlardan holi bo'lib, ikki o'rtada keskin qarama-qarshilik, shiddatli so'z o'yini bo'lganligini ko'rsatadi. Skiflar o'zlarining ma'naviy jihatdan baquvvat va ustun ekanliklarini namoyish etadilar. Kursiy Rufning g'oyaviy pozitsiyasi skiflar tomonida ekanligini ushbu epizod orqali bilib olish qiyin emas.

Masalaga yaqindan yondashsak, bir qarashda yozuvchi bosqinchilik urushlarini qoralagandek tuyuladi. Asarning boshidan oxirigacha harbiy yurish, qirg'in urushlar, jang-u jadallardan iborat sujetga duch kelamiz. Aslida Kursiy Rufning dunyoqarashida urushni yoqlash emas, uni qoralash, bosqinchilik urushlarini to'xtatishdek bir yuksak g'oya borligini payqaymiz. Bu jihatdan skiflarning Aleksandrga bergen savollar tariqasidagi fikrlari yozuvchining ichki olamida tinchlikni yoqlashga moyillik borligini ko'rsatadi. Skiflarning shohga qilgan keyingi murojaatlari hikmatli so'zlarni eslatadi. Skif donishmandlari 27-28 yoshlar chamasidagi Aleksandrga o'zlarining qimmatli maslahatlarini beradi.

¹ Grek va Rim adabiyoti namunalarida skif, dak, sak, massaget qabilalari tilga olinadi, Biz bu asarlarda atamalar qanday berilgan bo'lsa, shunday qo'llayapmiz. - B.F.

² Kursiy Ruf, 285- bet.

Asarda ifodalangan bunday qomusiy fikrlar bevosita kishining diqqatnni o'ziga jalb etadi.

Tinchlikni, do'stlikni himoya qilib kelgan skif elchilari haqiqatni aytib o'z elatlari tomon ketadi. Skiflarning o'tkir va achchiq haqiqatni ifodalovchi fikrlari Aleksandrning yuragiga sanchilgan xanjardek tuyuladi. Haqiqatni, adolatni va do'stlikni jang-u jadallarda, qirg'in urushlarda deb tushungan Aleksandr yangi urushga taraddud ko'radi.

Aleksandr uncha katta bo'limgan qo'shin bilan Kraterni Maroqandga yuboradi. Makedon qo'shnlari yaqinlashib kelayotganidan ogoh bo'lgan Spitamen So'g'diyonaning ichkarisi tomon ketadi. Krater Politimet (Zarafshon) daryosi bo'yidagi Menedem qo'shnlari halokatga uchragan yerga keladi. Spitamen jangchilari o'shanda makedonlarning ikki ming piyoda, uch yuz otliq armiyasini shafqatsiz qirib tashlagan edi. Krater xuddi shu yerga kelgandan so'ng, jangchilarni o'z urf-odatlariga ko'ra dafn etadi. Makedon qo'shnlari urush keltirgan dahshatni o'z ko'zlarini bilan ko'radilar. Aleksandr «Qishloqqa o't qo'yishni, yigitlarni va keksalarni o'ldirishni buyuradi»¹.

Kursiy Ruf asarida ta'kidlanishicha, Aleksandrning shu bilan to'rtinchisi marta qishloqlarga o't qo'yishi edi. Aleksandr So'g'diyonaga yurish qilar ekan, o'z siyosatida bu yerda osoyishtalik o'rnatish, o'g'rilik va talontarojlik ishlariga chek qo'yishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganligini e'lon qilgan edi. Biroq, u ko'pgina qishloqlarga o't qo'yib, urushga yaroqli erkaklarni o'ldirib, bolalar va ayollarni o'lja qilib olishni jangchilariga buyuradi.

Kursiy Ruf o'z kitobida So'g'diyona o'lkasining manzarasiga qayta-qayta murojaat etadi. Kitobda ifodalananishicha, So'g'diyonaning «katta qismi sahrodan iborat. Bu cho'lning kengligi 80 stadiy, uzunasiga kesib o'tmoqchi bo'lsangiz bepoyondir»². Kitob muallifi keyingi sahifalarda bu kengliklarning o'ziga xos xususiyatlari, peyzaj tasviri va badiiy ifodalarini beradi.

Kursiy Rufning Politimet (Zarafshon) daryosi haqidagi xulosalari, bu daryoga bergen ta'riflari kitobxonning e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Daryoga misbatan ishlataligan badiiy bo'yoqlar, o'xshatishlar nimasi bilandir kishi diliga yaqin, qaysidir qirrasi bilan tanishdek tuyuladi. Romanda

¹ Kursiy Ruf, 288- bet.

² Kursiy Ruf, 287- bet.

ta'riflanishicha, «Mahalliy aholi Politimet deb atagan bu daryo qudratli to'lqin bilan oqardi. Uning qirg'oqlari tobora torayib boradi-da, birdan yerning tagiga kirib ketadi. Yerning tagida oqayotgan suvning ovozi eshitilib turadi. Biroq o'z miqdorini yo'qotmaydi»¹.

Xuddi shunga o'xhash tabiat mo'jizasi, haqiqatan ham, Zarafshon daryosi vohasida mavjud. Daryo o'z o'zanini yerning tagiga burib yuboradi. Besh-olti kilometr chamasi yerning tagidan juda katta tezlikda oqib kelgan daryo hozirgi kunda ham Bulung'ur va Panjakent tumanlari chegarasidan chiqadi. Bu yerni bulung'urliklar Ravotxo'ja deyishadi. Antiqa holat shundoqqina Kildon qishlog'ining yonginasida joylashgan bu yerlar Kursiy Rufning tasviriga juda o'xhash. Ushbu satrlar muallifi ham bu mo'jizaning tirik guvohi bo'lgan.

Kursiy Ruf skiflarning jasur, mardonavor ekanliklarini qayta-qayta ta'riflagisi keladi. Ularning hayotiga, turmush tarziga takror-takror murojaat etadi. Romanda tasvirlanishicha, Aleksandr skiflarning katta bir guruhini asir oladi. «Jismoniy jihatdan baquvvat bo'lgan skiflardan 30 kishini o'limga mahkum etganda, ular o'limdan ham qo'rmasdan, xalq qo'shiqlarini baralla aytib, xursand bo'lib borardi»². Aleksandr skiflarning mardligiga qoyil qoladi va skiflarni asirlikdan ozod qiladi.

Mana shu epizoddan ham ko'rinish turibdiki, kishini tetiklikka, romantik ko'tarinkilikka undovchi xalq qo'shiqlari o'sha davrlarda ancha rivojlangan. Demak, skiflarning o'ziga xos adabiyoti ham mavjud edi.

Aleksandr shundan so'ng Oks (Amu) daryosi qirg'oqlari tomon yuradi. To'rt kundan so'ng daryo bo'yiga yetib boradi.

Kursiy Ruf Oks daryosi tasviriga ham alohida e'tibor bilan qaraydi. Kitobda ifodalanishicha, daryo suvi loyqa va bo'tana edi, uning suvini ichib bo'lmassi. «Makedoniyaliklar chuqur qilib qazigan quduqdan ham suv chiqmaydi»³. Kursiy Ruf massagetlarning tadbirkorligi va jangovarligi mavzusiga alohida to'xtalib o'tadi. Massagetlar Aleksandr qo'shinlariga katta talafot keltiradi. Romanda hikoya qilinishicha, «Massagetlar 800 nafar otliq jangchilarini qishloq yaqinidagi o'rmonga yashirib qo'yadi. Bir necha kishi poda haydar o'rmonga qarab bermalol ketaveradi. Tayyor o'ljani qo'ldan chiqarmaslik uchun Attin o'zining 300 otliq jangchisi

¹ Kursiy Ruf, 288- bet.

² Kursiy Ruf, 294- bet.

³ Kursiy Ruf, 295- bet.

bilan hech shubha qilmasdan o'rmonga kirib boradi. Massagetlar Attin qo'shiniga qo'qqisidan hujum qilib, ularning hammasini qirib tashlaydi¹.

Bu mash'um xabar Aleksandrning sarkardasi Kraterga yetib keladi va u yordamga shoshiladi. Massagetlar allaqachon u yerdan jo'nab qolishgandi.

Aleksandr bu talafot haqidagi shum xabarni eshitib, juda darg'azab bo'ladi. Kursiy Ruf o'z romanining keyingi sahifalarida ov epizodlarini ifodalar ekan, «Bazoir deb atalmish u yerlarning o'rmonlarida xilmashil yovvoyi hayvonlar nihoyatda ko'p ekanligini, ov qilishning gashti borligini² qayd etadi.

Aleksandr xushmanzara Bazoir o'rmonlaridan yana Maroqand tomon yo'l oladi. Keksayib qolganligi tufayli Artabaz Maroqand hokimligidan ozod etilib, uning o'rniga Klit tayinlangan edi. Klit Aleksandrning eng yaqin kishisi edi. Buning ikki sababi bor. Birinchidan, Klit bir dahshatlji jangda shohning hayotini saqlab qolgan edi. Granik yaqinidagi jangda u Aleksandrning boshiga qilich solayotgan Rezak qulini chopib tashlaydi. Ikkinci sababi, Klitning opasi Gellanikani shoh o'z onasidek sevardi. Chunki, Gellanika Fili pp saroyida enaga bo'lib xizmat qilar, Aleksandrni go'dakligidan tarbiyalab, unga ko'krak suti bergandi³. Shuning uchun ham, Aleksandr bosib olgan hududining katta qismini - So'g'diyonani va uning markaziy shahri Maroqand hokimligini katta ishonch bilan Klitga topshirib qo'ygandi.

Aleksandr Maroqandga kelganda Klit afsonaviy Dians sharafiga katta ziyofat berib, shohni izzat-ikrom bilan kutib oladi. Ziyofat chog'ida anchagina kayfi oshib qolgan Klit Aleksandrga ta'na toshlari otib, uni kamshitishga harakat qiladi. Aleksandri o'limdan saqlab qolganligini minnat qiladi, uchinchidan, Aleksandrning o'zini obro'sizlantirishga harakat qiladi. Nihoyat, qahr-g'azabi oshgan Aleksandr «qilichini qinidan sug'urib olib, Klitga tashlanmoqchi bo'lganda Ptolomey bilan Perdik shohni ushlab qiladi. Hamma ziyofatni tark etib o'tirishdan chiqib ketadi.

Aleksandr soqchining nayzasini oladi-da, eng keyin chiqib ketayotgan Klitning biqiniga sanchadi. Klit yiqilib, jon beradi⁴.

¹ Kursiy Ruf, 296- bet.

² Kursiy Ruf, 301- bet.

³ Ikkinci tomondan Gellanika Filippning eng yaqin kishisi bo'lgan Dronidning qizi edi. Ayrim manbalarda Lanika deb atalib, u Klitning onasi bo'lgan deyiladi.

⁴ Kursiy Ruf, 307- bet.

Aleksandr haqidagi asarlarning deyarli hammasida Klit voqeasi tasvirlangan. Bu voqealari ko‘pgina asarlarda unchalik o‘zgarishga uchramasdan, asosan shu mazmunda o‘z ifodasini topgan. Shunday qilib, uchinchi marta tashrif buyurgan Aleksandrning «poyqadamiga» Maroqand shahri xush kelmadi. Birinchi marta u Maroqandning baland va mustahkam devorlaridan o‘tolmagan edi. So‘ngra, Zarafshon bo‘ylarida Attin boshchiligidagi katta qo‘shinidan ajraladi. Bugun esa Maroqandda eng yaqin kishisi Klitni o‘z qo‘li bilan o‘ldiradi.

Kitobda ifodalangan ko‘pgina muhim voqealar Maroqand, So‘g‘diyona shaharlari atrofida, Zarafshon vohasi bo‘ylarida bo‘lib o‘tganligining guvohi bo‘lamiz.

Klit fojiasidan so‘ng Aleksandr Maroqandda o‘n kuncha bo‘ladi. So‘ngra Maroqand hokimligini Amintga topshirib, o‘zi So‘g‘diyonaning chekka o‘lkalaridan biri Kseni pppga keladi. «Bu yerdagi jangda Aleksandrning 80 jangchisi o‘ladi, 350 kishi yarador bo‘ladi»¹. Shundan so‘ng Aleksandr So‘g‘diyonadagi yirik shaharlardan biri-Xerionni bosib oladi. Nautakdan² o‘tib, Xerion³ qal‘asiga keladi. Bu qal‘anining hokimi Sisimifr edi. Taqdir taqozosiga ko‘ra, Sisimifr o‘z onasiga uylanib, undan ikki o‘g‘il ko‘rgan edi. Roman muallifi o‘sha davrlarda Xerionda shunday odad bo‘lganligini qayd qiladi.

Bunday g‘aroyib voqealar o‘tmishda sodir bo‘lgan. Masalan, avliyosifat Ardashir o‘zining yetti singlisiga uylanadi. Zardushtiylik diniga tobe bo‘lgan Atossa akalariga turmushga chiqadi. Aytishlaricha, Doroning qizi ham o‘zining bir necha aka-ukalariga turmushga chiqadi⁴.

Sisimifr o‘zining yurtdoshlari bilan shaharni qattiq turib himoya qilardi. Tashqariga olib chiquvchi yerosti yo‘llari ularning o‘zlarigagina ma’lum edi. Aleksandr ulardan shaharni topshirishni talab qiladi. Elchi qilib o‘zining eng yaqin kishisi - so‘g‘diyonalik Oksiartni yuboradi. Sisimifr shaharni topshirishga rozi bo‘ladi. Biroq uning onasi (shuningdek, xotini) «o‘zgalarning oyog‘i ostiga shaharni tashlaguncha o‘lmoq afzaldir, jonining tinchini o‘ylaguncha, vijdoningni o‘ylagin»⁵, deydi.

¹ Kursiy Ruf, 309- bet.

² Nautak - Qarshi shahri yaqinida ekanligi aniqlangan.

³ Xerion - Oks daryosining yuqori oqimi, Baqtriya bilan So‘g‘diyona chegarasida, baland tog‘lar bag‘rida joylashgan.

⁴ Avesto. Izd-vo AN AzSSR, Baku, 1960, str. 80-81.

⁵ Kursiy Ruf, 311- bet.

So'ngra, «Sisimifr Oksiartga o'g'illarini, hamyurtlarini qo'shib onasining huzuriga yuboradi. Oksiartning bergen va'dalariga ishongandan so'ng, shaharni topshirishadi. Aleksandr Sisimifrning ikki o'g'lini o'ziga jangchi qilib oladi, o'zini hokim qilib tayinlab, bundan buyon do'st bo'lib qolishga va'da beradi»¹.

Kitobda Xerion qal'asi atrofida bo'lib o'tgan voqealar tafsiloti ancha ta'sirli bayon etilgan. O'quvchini bunday hayajonga soluvchi voqealar o'ziga xos badiiy ravishda inkishof etilgan. Ayniqsa, So'g'diyona yerlarida bo'lib o'tgan oxirgi mash'um voqealar o'quvchi qalbini beixtiyor larzaga keltiradi. Bu mash'um voqealar nimalardan iborat degan savolga, asarning keyingi sahifalaridan javob topamiz.

Aleksandr Daxlar eliga yurish qiladi. Bu yerda Makedon qo'shinlariga tez tez hujum qilib, xavf tug'dirayotgan dovyurak Spitamen bor edi. Spitamenning vatanparvarligi va matonati haqidagi hikoyalar ham kitobdan keng o'rinni egallagan. Ayniqsa, Spitamenning o'limi haqidagi epizod ancha ta'sirli bayon etilgan.

Spitamen fojiasiga sabab bo'lган xoinlarga, qo'rroq va sotqinlarga, ayniqsa, uning xotiniga nisbatan o'quvchi qalbida kuchli nafrat o'ti alangalanadi.

Horib-charchagan Spitamen shirin taom va vino ta'sirida qattiq uyguda yotardi. «Xotini pinhona kelib, qilichini qinidan sug'urib oladi-da, Spitamenning boshini kesib tashlaydi. Qonga belangan erining kallasini bu jinoyatdan ogoh bo'lган qulga keltirib beradi. So'ngra makedon qo'shinlari joylashgan lagerga kelib, Aleksandrga xabar qilishni, muhim xabar olib kelganligini, shohga shaxsan o'zi yetkazishi lozimligini aytadi. Aleksandr bu mudhish voqeadan ogoh bo'lgach, qattiq g'azablanadi.

Aleksandr Spitamen bilan yakkama-yakka jangda olishish niyatida edi. Jallod xotinni lagerdan tashqariga haydab yuborishni, unga sherik bo'lган qulni yerli xalqning eng og'ir jazosiga mahkum etishni buyuradi². Spitamenning xotini erining boshi evaziga Aleksandrdan katta mukofot olishdan umidvor edi. U xor-zor bo'lib o'ladi. «O'z eriga xiyonat qilgan xotin menga do'st bo'larmidi», deydi Aleksandr. «Oksiart shohning sha'niga katta ziyofat berib, uni izzat-ikrom bilan qarshi oladi. Oksiartning uchta o'g'li bor edi. Aleksandr ularning ikkitasini o'z qo'shinida xizmat

¹ Kursiy Ruf, 311- bet.

² Kursiy Ruf, 311- bet.

Aleksandr haqidagi asarlarning deyarli hammasida Klit voqeasi tasvirlangan. Bu voqeal ko'pgina asarlarda unchalik o'zgarishga uchramasdan, asosan shu mazmunda o'z ifodasini topgan. Shunday qilib, uchinchi marta tashrif buyurgan Aleksandrning «poyqadamiga» Maroqand shahri xush kelmadi. Birinchi marta u Maroqandning baland va mustahkam devorlaridan o'tolmagan edi. So'ngra, Zarafshon bo'ylarida Attin boshchiligidagi katta qo'shinidan ajraladi. Bugun esa Maroqandda eng yaqin kishisi Klitni o'z qo'li bilan o'ldiradi.

Kitobda ifodalangan ko'pgina muhim voqealar Maroqand, So'g'diyona shaharlari atrofida, Zarafshon vohasi bo'ylarida bo'lib o'tganligining guvohi bo'lamic.

Klit fojiasidan so'ng Aleksandr Maroqandda o'n kuncha bo'ladi. So'ngra Maroqand hokimligini Amintga topshirib, o'zi So'g'diyonaning chekka o'lkalaridan biri Kseni ppga keladi. «Bu yerdagi jangda Aleksandrning 80 jangchisi o'ladi, 350 kishi yarador bo'ladi»¹. Shundan so'ng Aleksandr So'g'diyonadagi yirik shaharlardan biri-Xerionni bosib oladi. Nautakdan² o'tib, Xerion³ qal'asiga keladi. Bu qal'aning hokimi Sisimifr edi. Taqdir taqozosiga ko'ra, Sisimifr o'z onasiga uylanib, undan ikki o'g'il ko'rgan edi. Roman muallifi o'sha davrlarda Xerionda shunday odat bo'lganligini qayd qiladi.

Bunday g'aroyib voqealar o'tmishda sodir bo'lgan. Masalan, avliyosifat Ardaviraz o'zining yettita singlisiga uylanadi. Zardushtiylik diniga tobe bo'lgan Atossa akalariga turmushga chiqadi. Aytishlaricha, Doroning qizi ham o'zining bir necha aka-ukalariga turmushga chiqadi⁴.

Sisimifr o'zining yurtdoshlari bilan shaharni qattiq turib himoya qilardi. Tashqariga olib chiquvchi yerosti yo'llari ularning o'zlarigagina ma'lum edi. Aleksandr ulardan shaharni topshirishni talab qiladi. Elchi qilib o'zining eng yaqin kishisi - so'g'diyonalik Oksiartni yuboradi. Sisimifr shaharni topshirishga rozi bo'ladi. Biroq uning onasi (shuningdek, xotini) «o'zgalarning oyog'i ostiga shaharni tashlaguncha o'lmoq afzaldir, jonining tinchini o'ylaguncha, vijdoningni o'ylagin»⁵, deydi.

¹ Kursiy Ruf, 309- bet.

² Nautak - Qarshi shahri yaqinida ekanligi aniqlangan.

³ Xerion - Oks daryosining yuqori oqimi, Baqtriya bilan So'g'diyona chegarasida, baland tog'lar bag'rida joylashgan.

⁴ Avesto. Izd-vo AN AzSSR, Baku, 1960, str. 80-81.

⁵ Kursiy Ruf, 311- bet.

So'ngra, «Sisimifr Oksiartga o'g'illarini, hamyurtlarini qo'shib onasining huzuriga yuboradi. Oksiartning bergen va'dalariga ishongandan so'ng, shaharni topshirishadi. Aleksandr Sisimifrnning ikki o'g'lini o'ziga jangchi qilib oladi, o'zini hokim qilib tayinlab, bundan buyon do'st bo'lib qolishga va'da beradi»¹.

Kitobda Xerion qal'asi atrofida bo'lib o'tgan voqealar tafsiloti ancha ta'sirli bayon etilgan. O'quvchini bunday hayajonga soluvchi voqealar o'ziga xos badiiy ravishda inkishof etilgan. Ayniqsa, So'g'diyona yerlarida bo'lib o'tgan oxirgi mash'um voqealar o'quvchi qalbini beixtiyor larzaga keltiradi. Bu mash'um voqealar nimalardan iborat degan savolga, asarning keyingi sahifalaridan javob topamiz.

Aleksandr Daxlar eliga yurish qiladi. Bu yerda Makedon qo'shinlariga tez-tez hujum qilib, xavf tug'dirayotgan dovyurak Spitamen bor edi. Spitamenning vatanparvarligi va matonati haqidagi hikoyalar ham kitobdan keng o'rinn egallagan. Ayniqsa, Spitamenning o'limi haqidagi epizod ancha ta'sirli bayon etilgan.

Spitamen fojiasiga sabab bo'lgan xoinlarga, qo'rroq va sotqinlarga, ayniqsa, uning xotiniga nisbatan o'quvchi qalbida kuchli nafrat o'ti alangananadi.

Horib-charchagan Spitamen shirin taom va vino ta'sirida qattiq uyquda yotardi. «Xotini pinhona kelib, qilichini qinidan sug'urib oladi-da, Spitamenning boshini kesib tashlaydi. Qonga belangan erining kallasini bu jinoyatdan ogoh bo'lgan qulga keltirib beradi. So'ngra makedon qo'shinlari joylashgan lagerga kelib, Aleksandrga xabar qilishni, muhim xabar olib kelganligini, shohga shaxsan o'zi yetkazishi lozimligini aytadi. Aleksandr bu mudhish voqeadan ogoh bo'lgach, qattiq g'azablanadi.

Aleksandr Spitamen bilan yakkama-yakka jangda olishish niyatida edi. Jallod xotinni lagerdan tashqariga haydab yuborishni, unga sherik bo'lgan qulni yerli xalqning eng og'ir jazosiga mahkum etishni buyuradi². Spitamenning xotini erining boshi evaziga Aleksandrdan katta mukofot olishdan umidvor edi. U xor-zor bo'lib o'ladi. «O'z eriga xiyonat qilgan xotin menga do'st bo'larmidi», deydi Aleksandr. «Oksiart shohning sha'niga katta ziyofat berib, uni izzat-ikrom bilan qarshi oladi. Oksiartning uchta o'g'li bor edi. Aleksandr ularning ikkitasini o'z qo'shinida xizmat

¹ Kursiy Ruf, 311- bet.

² Kursiy Ruf, 311- bet.

qilishni so‘raydi. Oksiart bunga jon-u dilidan rozi bo‘lib, So‘g‘diyonaning o‘ttiza eng go‘zal qizini Aleksandrga in’om etmoqchi bo‘ladi. Ular orasida Oksiartning go‘zal qizi Roksana ham bor edi. Roksana nihoyatda go‘zal edi. Uning husni jamoli butun makedonliklarning e’tiborini o‘ziga tortadi. Ayniqsa, Aleksandr Roksanaga mahliyo bo‘lib qolgandi»¹.

Shoh Roksanaga uylanib, Oksiartni So‘g‘diyonaga hokim qilib tayinlab, o‘zi hind eli tomon yurishini davom ettiradi.

Kitobda Aleksandrning Roksanaga uylanishi bilan So‘g‘diyona tasviriga yakun yasaladi.

PLUTARX

Plutarx eramizning 46- yilida Gretsiyadagi Beotin o‘lkasining shimoli-g‘arbiy qismiga joylashgan uncha katta bo‘Imagan Xeron shahrida tug‘ilgan. Uning otasi Avtobul o‘z zamonasining o‘qimishli kishilaridan biri edi. Shuning uchun ham, u Plutarxning chuqur ilm olishiga alohida e’tibor bilan qaraydi. Uning bobosi Lampriy ham ilm-ma’rifatga rag‘batli kishi edi. Lampriy xonardoniga xeronlik adabiyot ahllari, donishmandlar tez-tez tashrif buyurib, quyuq suhbatlar qilib turardi.

Bobosining bobosi Nikarx ham Xeronda yashab, eramizdan avvalgi 31-yilda Antoniy bilan Oktavian qo‘sishlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Aksium jangining ishtirokchisi bo‘lgan edi. Plutarxning ikkala akasi Lampriy bilan Timon ham o‘qimishli bo‘lib ulg‘ayadi.

Plutarx Timoksena ismli go‘zal ayolga uylanadi. Undan to‘rt og‘il, bir qiz ko‘radi. Ikki o‘g‘li-kattasi va eng kichigi hamda qizi yoshligida o‘lib ketadi. Qizining o‘limi munosabati bilan xotini Timoksenga yo‘llagan g‘oyat hayajonli maktubi hozir ham Plutarxning tanlangan asarlaridan o‘rin olgan.

Geografik sharoiti qulay bo‘lgan bu shaharda qadimda bosqinchilik urushlari ko‘p bo‘lgan. Dastlab, o‘zaro yaqin-atrofdagi o‘lkalarda turli urush xatarlari bo‘lib, kichkina Xeronni talab ketardi. Jang-u jadallarni boshidan ko‘p kechirgan xeronliklar o‘z shahrini jon-jahdlari bilan himoya qilishardi. Bunday qirg‘in urushlar ichida eng dahshatlisi eramizdan avvalgi 338- yilda bo‘lib o‘tgandi. Shoh Filipp II davrida

¹ Kursiy Ruf, 317- bet.

Makedoniya istilochilar Xeronga bostirib keladilar. Xeronliklar katta otryad tuzib, Filipp qo'shimiga qarshi bir necha kun qattiq turib jang qiladilar. Nihoyatda katta kuchga ega bo'lgan Filipp qo'shingizini qaytara olmagan bo'lsa ham, xeronliklarning vatanparvarligi keyinchalik uzoq yillar davomida tillarda doston bo'lib yurdi.

Xeron tarixiy voqealarga boy shahar bo'lgani uchun ham uning odamlari ko'proq o'tmisht haqida qiziq-qiziq hikoyalar so'zlashga odatlanib qolgan edilar. Mana shunday tarixiy voqealarni bolaligida Plutarx ko'p tинглardi. Balki o'tmisht sarguzashtlarining ta'siridadir, Plutarx ulg'ayganda o'z shahrining va umuman grek xalqining tarixiga hayrat bilan qaray boshladi. Xeronni juda sevardi. U qayerda bo'Imasin, bu shahar bilan qalban bog'lanib turardi.

Plutarx sayohat qilishni yaxshi ko'rardи. O'zga xalqlar o'tmishtiga ham qiziqish bilan e'tibor berardi. Keyinchalik u Afinadagi adabiy hayot bilan yaqindan aloqa bog'laydi. Madaniyat markazi bo'lgan bu shaharda grek donishmandlari asarlarini berilib o'qiydi. Qadimiy tarixga ega bo'lgan, ilm-ma'rifat maskani Afina shahri Plutarx dunyoqarashiga katta ta'sir o'tkazadi. Zamonasining ilg'or fikrli faylasufi Ammon Sakkas bilan yaqin aloqada bo'ladi. U bilan birga ko'p o'tmay, Kichik Osiyo, Gretsya, Italiya sayohatiga jo'naydi. Bu sayohat davomida Plutarx ko'pgina sirli voqealarning, g'aroyib sarguzashtlarning guvohi bo'ladi.

Afinada u falsafa ilmini chuqur o'rgatuvchi Ammoniya maktabiga qatnaydi. Bu maktabga u o'zining dastlabki ijod mashqlari bilan ishtirot etadi. Eramizning 60-yilida u zamonasining ma'rifatlari kishisi, tarixchi Neyron bilan Gretsya bo'ylab sayohatga chiqadi.

Sо'ngra Makedoniya safari chog'ida Aleksandriya shahriga boradi. Plutarx bu shaharda bo'lganida Aleksandr Makedonskiy haqida ko'plab rivoyat va hikoyatlar eshitadi. Aleksandr tarixi bilan yaqindan qiziqadi. U haqda usar yozish niyatida fakt va materiallar to'play boshlaydi.

Eramizning 90- yillarigacha Plutarx Italiya yerlarida, xususan, Rimda bo'ladi. Rimdag'i adabiy hayot uni yangi ijod sari undaydi, u lotin tilini o'rganishga kirishadi. Biroq davlat ishlari bilan band bo'lganligi tufayli u uzoq yillar bu tilni o'rgana olmaydi. Faqat keksaygandagina lotin tilida yozilgan asarlarni o'qishga tuyassar bo'ladi.

Rim tarixiga qiziqish bilan qaragan Plutarxni imperator Trayan, keyinchalik Adrian ham qabul qiladi. Plutarxning chuqur bilim egasi ekanligi, yozuvchi dunyoqarashidagi ilg'or fikrlar Rim imperatorlarini

qiziqtirib qolgandi. Shuning uchun ham, Plutarxga Rim imperatorligining yaqin kishisi degan sharaflı nom berdi. Keyinchalik Plutarx Rim imperiyasining elchisi, hatto Gretsianing Axaym viloyati prokurori lavozimiga ham ko'tariladi. Plutarx birinchi o'rinda o'zini Afina farzandi, uning sadoqatli fuqarosi deb tushunadi. Gretsya Rim imperatorligi qo'l ostida bo'lsa ham Plutarx Afinani sevardi. Afina bilan mumkin qadar hamisha yaqin aloqada bo'lishga intilardi. Plutarxga yozuvchilik qalamini tutqazgan ham Afina shahri edi.

Plutarx juda chuqur ilm sohibi edi. Uni qomuschi adib desak ham bo'ladi. Shu bilan birga, u sermahsul yozuvchi, katta talant egasi edi.

Keksalik chog'ida Plutarx yana ona shahri Xeronga qaytib boradi. Mazmunli umr kechirib, eramizning 127- yilida vafot etadi.

Plutarxning adabiy hayot yo'li dramatik voqealarga nihoyatda boy. Uning ko'pgina asarlari bizgacha yetib kelmagan. Plutarxning o'limidan so'ng uning asarlarini o'g'li Lampriyem to'playdi. Uning aytishicha, otasining asarlari 210 tadan ziyod bo'lgan.

Plutarx asarlarini ikki guruhga bo'lib o'rganishimiz mumkin: tarixiy asarlar va falsafiy-adabiy asarlar.

Plutarx asarlari janr jihatidan ham xilma-xildir. Muhimi shundaki, uning asarlarasi falsafiy fikrlarga boyligi bilan antik adabiyotda yaratilgan ko'pgina asarlardan ajralib turadi. Uning «Qo'shaloq hayotnomalar» asari greklar va rimliklar tarixiga asoslangan bo'lib, Plutarx nomini tanitadi. Bu asar zamondoshlari va o'tmishdoshlari tarjimayi holini tasvirlashga qaratilgan bo'lib, to'plamda u o'zining haqiqiy badiiy mahoratini qahramonlariga xarakteristika berish va obrazlar yaratish jarayonida namoyish etadi.

Plutarxning bu asariga prototip bo'lgan qahramonlar ichida sarkardalar, imperatorlar, davlat ishlari bilan band bo'lgan boshqa kishilar, shuningdek, oddiy xalq vakillari, pok qalbli insonlar bor. O'zi Rim imperatorligiga yaqin kishi bo'lgan, imperatorlikda mansabdar shaxs sifatida ishlaganligi tufayli, saltanatning ichki sirlari bilan yaqindan tanish bo'lgan Plutarx imperatorlar va sarkardalar obrazini yaratishga alohida e'tibor beradi.

Plutarx 50 ta «Hayotnoma» yozadi. Shulardan 46 tasi grek va rimliklar hayotidan olib yozilgan biografik xarakterdagisi asarlardir.

Muhim tomoni shundaki, Plutarx rimliklarga yon bosadimi yoki ko'proq greklarga, degan savol tug'ilishhi tabiiy. Plutarx o'zi grek bo'lsa

ham, Gretsiya tuprog‘ida tug‘ilsa ham, o‘zini Rimning faxriy fuqarosi deb hisoblardi. Rim imperatorligida esa martabali kishilardan biri bo‘lgan, shuning uchun ham, u o‘z asarlarida rimliklar hayotiga xuddi greklar hayotiga qaragandek qiziqish bilan qarar, hatto ularning hayotini aslidagidan go‘zal qilib tasvirlashga urinardi. Afina va Rim Plutarx uchun go‘yo tarozining ikki pallasi edi, ularga misoli egizak shahar deb qarardi.

O‘tmish Plutarx uchun bamisolari bir ko‘zgudir. Mana shu ko‘zguga qarab u o‘zining hayotini o‘zgartirishga, kelajagini qayta qurishga harakat qiladi. Uning «Aleksandr», «Emiliy Pavel», «Perikl», «Gay Mariy» asarlarida o‘tmishning go‘zal badiiy ifodasi aks etgan. Yozuvchi o‘zining bu asarlarida qahramonlarning ijobiy tomonlarni tasvirlashga, yomon tomonlarni esa mumkin qadar chetlab o‘tishga harakat qiladi. Plutarx asarlaridagi qahramonlar o‘zlarining ijobiy xislatlari bilan o‘zaro musobaqalashadi. Inson tug‘ilganda sof va pokiza bo‘lib tug‘ilar ekan, u ulg‘ayganda ham shunday bo‘lib qolishi kerak, degan g‘oya Plutarx asarlarida bo‘rtib ko‘rinadi.

Plutarxning barcha biografik xarakterdagi asarlari deyarli bir xil uslubda yozilgan. Qahramonning tug‘ilgan joyi, bolaligi, ulg‘aygandan keyingi ishlari, xarakterdagi ayrim xislatlari tasviri va hokazolar.

Plutarx o‘z qahramonlarining taqdirini o‘scha davr taqdiri bilan bog‘laydi. Qahramonlarining xarakteridan davrning muhim xususiyatlarini axtarishga intildi.

Plutarx asarlaridagi yengil hazil-mutoyiba, o‘quvchining ko‘nglini oluvechi tasvirlar Attika davrining buyuk komediyanavisi Aristofan asarlarni esga soladi. Uning ijodiy uslubi, ifoda vositalari Menandr ijodiga yaqin turadi. Bu holat Plutarxning Aristofan va Menandr an‘analarini davom ettirganligidan dalolat beradi.

QO‘SHALOQ HAYOTNOMALAR

Plutarx ijodida biografik xarakterdagi «Aleksandr» nomli romani alohida o‘rin tutadi. Xarakterli tomoni shundaki, bu asarda yozuvchi Aleksandrning hayotiga oid muhim sanalarni birma-bir sanab o‘tirmaydi, Aleksandrning hayoti bilan bog‘liq voqealarni ko‘proq badiiy yo‘sinda hikoya qilishga e’tibor beradi. Shu jihatdan, «Aleksandr» tarixiy roman bo‘lsa ham, tarixda qayd etilgan sanalarni biz bu asarda deyarli

uchratmaymiz. Asosan Aleksandrning xarakteriga oid xislatlarni teranroq, ochib berish yozuvchining asosiyligi diqqat markazida turganligini sezamiz. Shuning uchun bo'lsa kerak, kitobda O'rta Osiyo, jumladan, hozirgi O'zbekiston tasviriga kamroq e'tibor berilgan. Bu roman O'rta Osiyoning, shuningdek, O'zbekistonning antik davrlarini tasvirlovchi boshqa grek va Rim romanlaridan shu jihat bilan farq qiladi. Kvint Kursiy Rufning «Aleksandr Makedonskiyning tarixi», Arrianning «Aleksandrning yurishi» kitoblarida o'l kamizdagi qadimiy shaharlarning nomlari, daryo va tog'lar tasviri, geografik muhit belgilari keng tasvirga olingan bo'lsa, Plutarxning «Aleksandr» romanida bu masalalarga unchalik katta e'tibor bilan qaralmaydi. Yozuvchi Aleksandrning O'rta Osiyodagi hayotini uning xarakteri bilan bog'lab o'rghanishga harakat qiladi. Masalan, Kursiy Ruf Aleksandr va Klit fojiasi bilan bog'liq voqeanning qayerda bo'lganligi, bu voqeanning tafsiloti nimadan iborat ekanligini atroflichcha bayon qilishga harakat qilsa, Plutarx bu hodisaning qanday kechganligini, Klit fojiasining sababini ochib berishga harakat qiladi. Bu voqeani ifodalashda Arrian uslubi Kursiy Ruf tasviriga yaqin turadi.

Bundan ko'rindaniki, Kursiy Ruf va Arrian asarlarida narsalar va joylarning tafsilotlari bayoni va peyzaj yetakchi o'rinda tursa, Plutarx romanida qahramonlar xarakterini ochish va ularga xarakteristika berish masalasi birmuncha ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Kursiy Ruf va Arrian asarlarida bayon yetakchilik qilsa, Plutarx romani dramatizmning chuqurligi bilan xarakterlanadi. O'z qahramonlaridan mumkin qadar ijobiy xisatlarni axtarish, muhim fazilatlarni qahramonlariga hadya etish Plutarx ijodining bosh xususiyatini tashkil qiladi. Bunday badiiy uslub Plutarx nomini jahonga tanitdi. Plutarxning biografik xarakterdagи asarları bilan yaqindan tanishsak, qator tarixiy shaxslar yozuvchining ijodida o'zining badiiy ifodasini topganligining guvohi bo'lamiz. Bular quyidagilardir: Tesey va Ramul, Likurg va Numa, Solon va Poplikola, Femikstokl va Kamill, Perikl va Fabiy Maksim, Gay Marsiy Koriolan va Alkiviad, Emiliy Pavel va Timoleont, Pelopid va Marsell, Aristid va katta Katon, Filopemen va Tit Kvintiy Filaminin, Pirr va Mariy, Lisandr va Sulla, Kimon va Lukull, Nikiy Krass, Evmen va Sertoriy, Agesilay va Pampey, Aleksandr va Sezar, Fakion va kichik Katon, Agid-Kleoman va Tiberiy Grakx, Gay Grakx, Demosfen va Sitseron, Demetriy Poliokret va Antoniy, Dion va Brut, shuningdek, yana to'rtta biografiya: Artakserks, Arat, Golba, Oton. Bu nomlarga

diqqat bilan e'tibor bersak, ular grek va Rim tarixida yashab o'tgan mashhur tarixiy shaxslardir. Qarangki, yozuvchi ularning deyarli barchasini bir-biriga qiyoslab tasvirlaydi. Shuning uchun bu xildagi asarlar majmuasi umumiy nom ostida «Qo'shaloq hayotnomalar» deb nomlanishi bejiz emas.

«Qo'shaloq hayotnoma» majmuasidan faxrli o'rinni egallagan «Aleksandr» xarakter jihatdan «Sezar» asariga yaqin turadi. Undagi bosh qahramonlar bir-biriga qiyoslanib, solishtiriladi. Har ikkala asar umumiy nom ostida «Aleksandr va Sezar» deb ataladi. Muhimi shundaki, Sezar hayoti Aleksandr hayotiga qiyos qilinadi. Sezar o'z davrining Aleksandri bo'lib gavdalanadi. Yozuvchi o'z qahramonini shunday deb atashga jur'at qiladi. Har ikkala qahramonning xarakterlaridagi muhim fazilatlarni bir-biriga muqoyosa qiladi.

Bunday muqoyosa qilish, qiyoslash usuli Plutarx ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan bo'lib, uning mazkur badiiy uslubiga grek va Rim adabiyotidagi hech bir adib teng kelolmaydi.

Plutarx «Aleksandr» romanida Aleksandr Makedonskiy obrazini yaratishga harakat qilar ekan, Aleksandrning So'g'diyonadagi hayotiga alohida to'xtalib o'tadi. Shu orqali so'g'diyonaliklarning hayoti, bu yerda bo'lib o'tgan muhim voqealar, shahar va qishloqlar bilan bog'liq epizodlarni berishga harakat qiladi. Asarni o'qir ekanmiz, xalqimizning qadim tarixi bilan qisqacha bo'lsa-da tanishib, muhim estetik zavq olamiz. So'g'diyonanining antik hayoti haqida yozilgan qisqa bir satr ham butun bir romanning kuchiga tatiydi. Chunki buning sababi, o'sha davrdan darak beruvchi badiiy ijod namunalarining juda kamligidadir.

«Aleksandr» hayotnomasining sahifalarini varaqlasak, (varvarlar) skiflar hayotiga oid ma'lumotlar bilan ham yaqindan tanishamiz. Ma'lumki, bu qabilalar qadimdan So'g'diyona yerlarida yashab kelganlar.

Romanda Eron shohi Doro va uning qotili Bess haqidagi sarguzashtlar juda qisqa berilgan. Arrianning asarida Doro Kavkaz tog'larida o'ldiriladi¹. Bess esa So'g'diyonada, Maroqand yaqinidagi bir qishloqda Spitamen va Datafern yordamida, Aleksandr sarkardasi Ptolomey tomonidan qo'lga olinadi².

¹ Arrian. Poxod Aleksandra. Izd. AN SSSR. M-L., 1962, str. 126. (Bundan keyingi manbalar ham shu asardan olinadi).

² Arrian. O'sha asar, 131- bet.

Kursiy Ruf ham «Aleksandr Makedonskiyning tarixi» kitobida Doro va Bess bilan bog'liq voqealarga keng o'rin ajratgan¹.

Plutarx bu temaga alohida to'xtalib o'tirmaydi.

Hayotnomada tasvirlanishicha, Aleksandr Bessni qo'lga olgandan so'ng, uni o'lim jazosiga mahkum etib, Girkaniya tomon yurishni davom ettiradi. Yo'lda girkalar Aleksandrning Bukefal nomli otini o'g'irlab ketishadi. Aleksandr bundan juda darg'azab bo'ladi. Boshqa tarixiy asarlarda tasvirlanishicha ham, Bukefalga teng keladigan ot o'sha paytda yo'q edi. Aleksandr uni juda sevardi. Bukefalning o'g'irlab ketilishi Aleksandrni chuqur qayg'uga soladi, chunki u bu go'zal otga mehr qo'yib qolgandi. Aleksandr butun Osiyoni mana shu bebaaho va tengsiz tulpori bilan aylanib chiqishni orzu qilardi.

Bukefalni topish amrimahol bo'ladi. Skiflar Aleksandrning bu otni qanchalik sevishini yaxshi bilardi. Ular Bukefalni o'g'irlab, Aleksandrning yo'llini kesib qo'yishmoqchi bo'lgandi. Biroq Aleksandr turli tomonlarga choparlar yuborib, agar skiflar Bukefalni qaytarib berishmasa, butun skif bolalarini va xotin-qizlarini qiy nab o'ldirajagini ma'lum qiladi. Bu shum xabardan so'ng, skiflar Bukefalni egasiga qaytarib beradi. Aleksandr bundan behad xursand bo'ladi. Hatto Bukefalni olib kelgan skiflarga katta pul ham hadya qiladi².

Roman sahifalarida varvarlarning urf-odatlari keng o'rin ajratilgan. Asarda yozilishicha, Aleksandr varvarlarning urf-odatiga rioya qiladi. Hatto varvarlarning milliy kiyimlarini kiyib yurishni ma'qul ko'radi.

Mana shu ma'lumotdan ham ko'rinish turibdiki, eramizdan avvalgi 329-327- yillardayoq So'g'diyonada yashagan elatlarning o'z milliy kiyimlari, o'ziga xos urf-odatlari mavjud bo'lgan. Hatto ularning urf-odatlari va milliy kiyimlari makedonlarga ham manzur bo'lgan.

Ularning milliy kiyimlarini kiyib, urf-odatlari amal qilganliklari uchun ham varvarlar Aleksandrga asta-sekin ko'nika boshlaydilar. Hatto shoh makedon jangchilariga ham yerli xalqning urf-odatlarini o'rganishni ta'kidlaydi.

Yozuvchi o'z asarida So'g'diyonada yashovchi elatlarning barchasini umumiyl nom ostida «varvarlar» deb ataydi. Boshqa asarlardagi kabi

¹ Kvint Kursiy Ruf. Istorija Aleksandra Makedonskogo. Izd-vo MGU, 1963. Str. 269-274.

² Plutarx. «Sravnitelnoye jizneopisanije», v trex tomox, tom II. Izd-vo AN SSSR. M. 1968. Str. 428.

So'g'diyonada yashovchi elatlarning hayotiga alohida to'xtalib o'tirmaydi. Biroq Aleksandrning varvarlarning urf-odatlariga qiziqishi masalasi boshqa asarlarda bunchalik keng ifodalanmagan.

Aleksandr varvarlarning kiyimini dastlab ularning vakillari bilan uchrashganda, ularning uylariga tashrif buyurganda, xullas, ahyon-ahyonda kiygan bo'lsa, keyinchalik u butunlay «varvarchasiga» kiyinib yurishga ko'nikib qoladi¹.

Kitobning keyingi sahifalarida yanada muhimroq voqealarga duch kelamiz. Aleksandr o'z hokimiyatini kuch va zo'ravonlik bilan emas, balki varvarlar bilan yaqin aloqa bog'lash orqali, hatto ular bilan qo'shilish orqali bu ishni amalga oshirish mumkin, deb o'yldi. Shuning uchun ham, u jangchilarini mahalliy xalqning urf-odatini o'rganishga undasa, varvarlarni esa makedonlarning odatiga ko'nikishga chorlardi. Shu maqsadida o'ttiz ming mahalliy bolalarga grek madaniyatini o'rgatish maqsadida maxsus joy va ularga saboq berish uchun ma'rifatli kishilarni tayinlaydi.

Mana shundan ham ko'rinish turibdiki, O'rta Osiyoda, jumladan, so'g'diyonalik bu o'ttiz ming bola faqat tildan emas, balki grek urf-odatlaridan, madaniyatidan ham saboq olgan. Biroq Aleksandr bu o'ttiz ming so'g'diyonalikdan o'zining harbiy maqsadlarida foydalanishni mo'ljallaydi. Hatto Hindistonga yurish qilganda ularni o'z lashkarlariga qo'shib oladi. Aleksandring Hindistonga yurishi chog'ida so'g'diyonaliklar ham faol qatnashgan edi.

Demak, greklar bilan so'g'diyonaliklar, Yevropa bilan Osiyo o'tasida o'zaro adabiy-madaniy aloqa bog'langan. Greklar osiyoliklarning madaniyatiga, osiyoliklar esa greklarning madaniyatiga qiziqish bilan qaray boshlagan. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Aleksandr bilan birga O'rta Osiyoga bosqinchilik, jaholat va qirg'in urush dahshatlari kelgan bo'lsa, yana shu bilan birga, o'ziga xos grek madaniyati ham kirib kelgandi.

Asarda qayd etilishicha, Aleksandr «Oreksart daryosi bo'yiga keladi. Bu yerda skiflar bilan to'qnashadi»².

¹ Plutarx. O'sha asar, 428- bet.

² Yaksart - «Asl inju» degan ma'noni anglatadi.

Balki bu o'rinda yozuvchi Yaksart daryosini Oreksart deb nomlagandir. Boshqa grek va rim romanlarida Oreksart¹ degan daryoning yo'qligi ma'lum.

Plutarx kitobida uning o'tmishdoshlari bo'lgan ko'plab tarixchilarning nomlarini ham keltirib o'tadi. Bular Klitarx, Poliklit, Onesikrit, Antigen, Istr, Aristobul, Xaret, Ptolomey, Antiklid, Filon Fivanskiy, Teangellik Filipp, Gekatey Elektrolyskiy, Filipp Xolkidskiy, Durid Samosskiy va boshqalar. Bu tarixiy shaxslarning ayrimlari Aleksandrning sarkardalari va uning yaqin kishilari bo'lgan. Masalan, Aristobul, Ptolomey, Xaret, Antiklid Aleksandr bilan birga O'rta Osiyoga kelgan, So'g'diyona tuprog'ida yuz bergen voqealarni o'z ko'zlarini bilan ko'rgan. O'zlarini guvoh bo'lgan voqealarni maxsus «Kundalik»larida qayd qilib borgan. Bundan tashqari, Klitarx, Poliklit, Onesikrit, Antigen, Istr Aleksandr haqida maxsus badiiy asarlar yozgan adiblardir. Bundan ko'rindaniki, Plutarx Aleksandr haqida asar yozishdan avval juda ko'plab tarixiy va badiiy asarlarni sinchiklab o'rganib chiqqan. Ayniqsa, O'rta Osiyo xususidagi dalillarni to'plashda aniq fikrlarga ega bo'lish uchun So'g'diyonadagi voqealarning shohidi bo'lgan Ptolomey, Aristobul, Xaret «Kundalik»lari bilan yaqindan tanishgan.

Aristobul Aleksandrning yaqin kishisi edi. Ptolomey atoqli sarkarda bo'lgan. Xaret esa Aleksandrning shaxsiy qo'riqchisi edi. Plutarx ularning shu tarixiy asarlarini o'qish bilangina cheklanib qolmagan, butun umrini tarixni o'rganishga bag'ishlagan. Gretsiya va Rimda yashagan zamondoshlari orasida tarix ilmini nazarda tutadigan bo'lsak, Plutarxga teng keladigan adib yo'q edi. Plutarx tarixning haqiqiy bilimdoni bo'lgan.

Shuning uchun ham, Plutarxni qomuschi adib sifatida tilga olishlari ham bejiz emas.

Hayotnomada tasvirlanishicha, Aleksandr makedon qo'shinlarining «ruhan tushkunlikka tushib qolishlaridan doimo cho'chirdi. Agar varvarlar makedoniyaliklarda tushkunlik kayfiyatini sezsa, ular turli tomondan hujumni kuchaytirishlari mumkin deb o'yldi»².

Shuning uchun bo'lsa kerak, u o'z yurtlariga qaytib ketishni istagan ko'pgina jangchilariga ruxsat beradi. Ikkinci tomondan, jahongir o'z jangchilarining ko'ngli xush bo'lishi va ruhan tushkunlikka tushmasliklari

¹ Oreksart - Gerodotning «Tarix» yoki «Tadqiqot»asarida Massaget diyorida Araks degan daryo tilga olinadi. U Girkaniyadan oqib o'tadi. Ko'p o'rnlarda Araks daryosi Oks deb yuritilishi ta'kidlanadi. Lekin u Oks daryosi emas.

² Plutarx. O'sha asar, 429- bet.

uchun mahalliy aholi bilan aloqani mustahkamlashga intilar edi. Buning uchun yerli xalqning urf-odatini qabul qilish eng qulay yo'l edi. Hatto makedon jangchilarining mahalliy xotin-qizlarga uylanishiga ham ruxsat berilgan edi. Uning bu siyosati ayrim makedoniyaliklarga xush kelmasa, boshqa birlari uni qo'llab-quvvatlashardi. Sarkarda Krater makedon-grek madaniyatini yerli xalqqa singdirish, yerli xalqning urf-odatini esa qabul qilmaslik masalasini yoqlab chiqsa, boshqa bir sarkarda, masalan, Gefestion yerli xalqning madaniyatini va urf-odatlarini makedonlarga qabul qilish haqidagi Aleksandrning buyrug'ini astoydil qo'llab-quvvatlardi.

Bularning har ikkalasi ham Aleksandrning yaqin kishilaridan edi. Bu haqda yozuvchi qiziq bir o'xshatish keltirib o'tadi. «Gefestion Aleksandrning do'sti, Krater esa shohning do'stidir»¹.

Aleksandrning Roksanaga uylanish masalasiga ham romanda alohida to'xtab o'tilgan.

Roksananing chiroyli va go'zal bo'lganligini yozuvchi alohida qayd etadi. Aleksandr bu go'zalni sevib qoladi va unga uylanadi. Roksanan Aleksandrning xayoli va orzusidagi qiz edi. Unga uylangandan so'ng «varvarlar bilan yanada yaqin aloqa bog'lanadi, varvarlar ham Aleksandrga ishonch bilan qaray boshlaydi»².

Bu epizoddan ochiq-oydin ma'lum bo'ldiki, Aleksandr varvarlarning urf-odatini qabul qilish kerakligi haqidagi g'oyasini shunchaki ta'kidlabgina qolmasdan, unga birinchi bo'lib o'zi amaliy javob beradi, so'g'diyonalik go'zal Roksanaga uylanishi buning yorqin isboti bo'ldi.

Grek va Rim tarixiy nasrining ayrim sahifalarida, o'rta osiyolik turli xil qabilalarni umumiy nom ostida varvarlar deb ataganliklarining guvohi bo'lumiz. Jumladan, Kvint Kursiy Ruf «Aleksandr Makedonskiyning tarixi»³, Arrian «Aleksandrning yurishi»⁴ asarlarida So'g'diyona hayotini tasvirlar ekan, bu yerdagi qabilalarni varvarlar deb nomlaydi. Tarix fanlari doktori O.O. Kryugering ta'kidlashicha, greklar o'zlaridan boshqa hamma xalqlarni varvarlar deb atashgan⁵.

¹ Plutark. O'sha asar, 430- bet.

² O'sha joyda.

³ Kursiy Ruf. Istorija Aleksandra Makedonskogo. Izd-vo MGU, 1963, str. 303-315.

⁴ Arrian. Poxod Aleksandra. Izd-vo AN SSSR, M-L., 1962, str. 143-149.

⁵ O.O. Kryuger. Kratkiy slovar imen i nazvaniy, Arrian, Poxod Aleksandra. Izd-vo SSSR, M-L., 1962, str. 389.

Tarix tadqiqotchilari V.G. Boruxovich, I.E. Frolov ham O.O. Kryugerning varvarlarga bergen yuqoridagi izohiga yaqin fikrni aytib, greklar grek tilida so'zlashmaydiganlarni varvarlar deb nomlashgan, deydi¹. Xuddi mana shunday fikrni taniqli tadqiqotchi F.N. Arskiyning ilmiy qarashlarida ham uchratamiz².

Bundan ko'riniq turibdiki, varvar atamasini faqat o'rta osiyoliklarga tegishli deb qarashimiz unchalik to'g'ri emas. Chunki greklar grek tilida so'zlashmagan barcha xalqlarni varvarlar deb atashgan. Muhimi shundaki, o'sha davrlarda juda ko'plab xalqlar grek tilida so'zlashgan. Ulkan yunon davlati bosib olgan o'lkalarda grek tili va yozuvini joriy etgan. Hatto Aleksandr ham o'ttiz ming so'g'diyonalik farzandlarga, grek tili va madaniyatini o'rgatuvchi maxsus markaz tashkil etadi³. Aleksandr istilosidan so'ng to arablarning bosqinchilik davrigacha (eramizning VII asrigacha) O'rta Osiyoda grek yozuvi mavjud edi⁴. Arablar O'rta Osiyoni bosib olgandan so'ng, ular milliy madaniyatimizni, grek yozuvi va madaniyati namunalarini ham tub ildizi bilan yo'q qilib tashlashga qattiq kirishdilar.

Eramizdan avvalgi 329-327- yillarda grek-makedonlarning o'rta osiyoliklarga varvarlar deb qarashi turli xil ma'no kasb etadi. Birinchisi, bu yerdagi qabilalarni umumiy nom ostida varvarlar deb atagan bo'lsalar (bu shunchaki qabila nomiga nisbatan berilgan atama), ikkinchidan, varvar so'zi tilga daxldor bo'lib, greklar ajnabiylardan tilda so'zlashuvchilarni varvarlar deb ataganlar. Uchinchidan, grek-makedonlar osiyoliklarga ma'lum darajada past nazar bilan qaraganlar.

Bu yerdagi xalqlarni vazshiy va madaniyatga jahli bilan qarovchilar deb tushunishgan.

S.I. Ojegovning ta'rificha, varvar so'zi grek va rimliklarga xos bo'lib, «ajnabiylardan menimsaslik, ko'zga ilmaslik, pisand qilmaslikdir. Madaniy boyliklarga qo'pol, vahshiylarcha munosabatda bo'lishdir»⁵.

Grek-makedon bosqinchilari o'rta osiyoliklarni varvarlar, yovvoyi, vahshiy kishilar deb ataganlar. Ikkinchidan, o'rta osiyoliklarga past nazar

¹ Ksenofont. Kiropediya, izd-vo «Nauka», M., 1976, str.Yu 296.

² F.N. Arskiy. «Strabon», Izd-vo «Misl». M., 1978, str. 23.

³ Plutarx. Sravnitelnoye jizneopisanije. Izd-vo AN SSSR, M., 1963, str. 430.

⁴ N. Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi, «O'qituvchi» nashriyoti, 1963, 34- bet.

⁵ S.M. Ojegov. Slovar russkogo yazika. Moskva. Izd-vo «Russkiy yazik», 1983, str.

bilan qaraganlar. Aslida, grek-makedon bosqinchilari zolimlik va jaholatni avj oldirgan. Vahshiylik va zolimlik olovini alangalantirgan, shaharlarni vayron qilgan, qishloqlarga o't qo'rgan. Madaniy boyliklarimizni talab, o'z yurtlariga olib ketgan. Holbuki, O'rta Osiyodagi madaniyat greklar va Rim madaniyatidan qolishmas edi. Mustahkam devorlar bilan o'ralgan muhtasham shaharlar grek-makedonlarni lol qoldirgandi. O'rta Osiyo o'sha davrlardayoq «Shaharlar o'lkasi» deb nom olgan.

O'rta osiyoliklarning temirdan yasalgan quroq-aslahalari, oltin idishlari juda go'zal bo'lган. O'rta osiyoliklarning g'oyaviy-siyosiy tushunchalari ham yuksak edi. Ayniqsa, vatanparvarlik g'oyat ulug'langan. Plutarx ham o'z asarida o'rta osiyoliklar madaniyatini yuksak baholaydi.

Plutarx asarida Filot va Klit fojiasi bilan bog'liq voqealar hayajonli epizodlarda ifodalangan. Filot Parmenionning o'g'li, Parmenion Fili ppping eng yaqin kishisi, Aleksandrning esa eng keksa maslahatchilaridan edi. Aleksandrning Osiyoga yurishini ham Parmenion maslahat bergandi. Uning uch o'g'li bo'lib, ularning ikkitasi otasining ko'zi o'ngida jangda halok bo'ladi. Kichik o'g'il Filotni Aleksandrning o'zi qurban qiladi. Buning sababi, Damashqda Doro boyliklari qo'lga kiritilgandan so'ng, Kilikiya jangida asir tushganlarni Makedon lageriga olib kelishadi. Bu asir olinganlar orasida Pianlik Antigona ismli ayol ham bor edi. Antigonaning husn-jamoli Filotning e'tiborini o'ziga tortadi. Bu ayol bilan sharob ichib, kayfi oshib qoladi-da, o'zining jangdagi ko'rsatgan jasoratlardan hikoyalar aytib maqtanadi, Aleksandrni kamsitadi. Kunlardan bir kuni Antigona Filot aytgan gaplarni o'zining bir jazmaniga aytadi. Bu gap aylanib Kraterning qulog'iga yetib keladi. Krater Antigonani chaqiradi, pinhona Aleksandrning oldiga olib kiradi. Aleksandr Antigonaning bo'lgan voqeani og'zidan eshitadi, Filot bilan aloqani uzmaslik, bo'lgan gapdan o'zini pinhona-xabardor qilib turishligini tayinlaydi.

Filot yana Antigona bilan uchrashishni davom ettirib, kayfi oshganda Aleksandrni kamsitib ko'rsatishga urinadi.

Shu vaqt ichida boshqa bir makedon, Xalastr shahrilik Dimn o'zining yaxshi ko'rgan qizi Aleksandrga qarshi fitna tayyorlayotganini Nikomaxga aytadi. Nikomax bu voqeani akasi Kebalinga yetkazadi. Kebalin Filotga muhim gapi borligini aytib, ukasi ikkalasini Aleksandr huzuriga kiritishni so'raydi. Filot turli xil bahonalar bilan Aleksandrning band ekanligini aytadi. Ular ikkinchi marta keladi. Biroq Filot ularni Aleksandrning huzuriga qo'ymaydi. Filotga nisbatan ularda shubha bo'lgandan so'ng,

boshqa bir kishiga murojaat qiladi. Kebalin ukasi bilan Aleksandrning oldiga kirgandan so'ng, avval Dimn haqida gapiradi, keyin Filotga nisbatan ko'ngillarida shubha borligini ma'lum qiladi. Aleksandr Dimnni hibsga olish haqida buyruq beradi. Biroq, Dimn hibsga olish uchun kelgan jangchilarga qarshilik qilgani uchun jangchilar uni o'ldirib qo'yadi. Dimndan boshqa guvohlar yordamida Filotning fitnaga aralashgani tasdiqlanadi. Nihoyat, Filot hibsga olinib, o'limga mahkum etiladi¹. Shundan so'ng, Aleksandr Makedoniyaga elchi jo'natib, Filotning otasi Parmenionni ham o'ldirish haqida buyruq yuboradi. Natijada esa, Aleksandrning yaqin kishilari o'rtasida shohga nisbatan qo'rqinchli shubha paydo bo'ladi.

Shundan so'ng Plutarx asarida Klit fojiasi bilan bog'liq epizodlar boshlanadi. Klit fojiasidan uch kun avval Aleksandr qiziq bir tush ko'rgan edi. Tushida «Klit Parmenionning o'g'illari bilan qora kiyimda o'tirardi, ularning hammasi o'lik holda edi»².

Har ikkala asarda bu voqealar shunchaki quruq bayon tarzida emas, balki keskin badiiy situatsiyalar fonida beriladi. Filot fojiasi boshqa romanlarda berilmagan yoki qisqagina ta'kidlab o'tilgan. Bu fojia esa Aleksandr haqidagi deyarli barcha asarlarda qayd qilinadi. Plutarx o'z romanida Klit fojiasining qayerda sodir bo'lganligini ham aytmaydi. Kvint Kursiy Ruf asarida ta'kidlanishicha, Klit o'sha vaqtida Maroqand hokimi edi. Aleksandr katta ishonch bildirib, o'zining yaqin kishisi Klitga eng katta o'lka-So'g'diyona hokimligini topshirgandi³.

Shunday qilib, Plutarxning «Aleksandr» asari O'rtta Osiyo haqida, qadimiy So'g'diyona tarixi va bu yerlarda bo'lib o'tgan qiziq-qiziq voqealar haqida anchagini ma'lumot beradi. Bu asar ona yurtimizning, qadrdon elimizning, jonajon shahrimiz, hattoki qishloqlarimizning antik davrlaridan hikoya qiluvchi nodir adabiy yodgorlikdir.

¹ Plutarx. O'sha asar, 431- bet.

² Plutarx. O'sha asar, 432- bet.

³ Kvint Kursiy Ruf. Istoriya Aleksandra Makedonskogo. Izd-vo, MGU, 1963, str. 307.

ARRIAN

Arrian-to'liq ismi sharifi Kvint Enniy Flaviy Arrian bo'lib, u Kichik Osiyoning Vifini degan joyida, taxminan eramizning 90-95- yillari orasida tug'ilib, 175- yilda vafot etgan. Vifinida asosan Rim hukmronligi davrida kelib qolgan greklar yashardi. Vifini o'sha davrlarda ancha uzoq-uzoqlarga dong'i ketgan badavlat hokimliklardan biri edi. Jug'rofiy sharoiti qulay, ko'rkmagli va tabiiy go'zalligi bilan maftunkor bo'lgan bu viloyatda hokimlar bilan birga harbiylar ham yashar edi. Shuning uchun ham, bu yerda ilm olish uchun qulay sharoitlar mayjud edi. Aholi ikki tilda-grek va lotin tillarida so'zlashardi.

Ayniqsa, Nikomediya shahri Arrian dunyoqarashining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu shahar faqat Vifini viloyatigina emas, balki ulkan Rim davlati tarixida ham alohida o'rIN tutgan. Rim o'z hukmronligini qo'lga kiritish chog'ida bu shahar mustahkam istehkom rolini ham bajargan. Nikomediyada ilm-ma'rifat kishilari, zamonasining donishmandlari ko'p bo'lgan. Rim hukmronligiga qarshi bu viloyatda va uning markazi bo'lgan Nikomediyada asosan lotin tili hukmron til bo'lsa ham, aholi orasida grek tilida so'zlashish odad tusiga kirgan. Yunonistonning ulug' so'z san'atkori Homer asarlarini o'qish va mutolaa qilish, ulkan yunon dramaturglari Esxil, Sofokl, Yevripid asarlarini sahnada tomosha qilish har bir nikomediyalikni qiziqtirardi. Bunday qizg'in adabiy muhit Arrianning e'tiborini o'ziga tortadi.

Arrian eramizning 112-116- yillarda zamonasining atoqli faylasufi Epiktet qo'lida tahsil oladi.

Epiktet faqat Vifini yoki Nikomediyadagina emas, balki Rim davlatida ham obro'ga ega bo'lib, hatto, Gretsiyada ham tanilgan olimlardan biri edi.

Epiktet eramizning taxminan 50-133- yillarda yashab ijod qilgan. O'sha davr falsafasini rivojlantirish borasida Epiktetning xizmati g'oyat salmoqlidir. U falsafada antik davrlarda dong'i ketgan yunonistonlik donishmand Suqrotdan qolishmasdi.

Arrian Epiktet qo'lida yunon tilidan ta'lim oladi. Lotin va grek tillarini puxta o'rganadi. Yunon va Rim tarixiga katta qiziqish bilan qaraydi. Notiqlik san'ati va falsafadan chuqur bilim oladi.

Ma'lumki, Suqrot kabi Epiktet falsafasi ham bizgacha asl holida yetib kelmagan. Suqrotning falsafasini uning shogirdi Ksenofont (eramizgacha

430-355- yillar) davom ettingani kabi, Arrian ham o'z ustozasi falsafasini keyinchalik rivojlantiradi va ustozasi Epiktetga sodiq qoladi.

Suqrot falsafasi bilan Ksenofont, Epiktet falsafasi bilan Arrian ijodi orqali tanishamiz. Arrian Ksenofont ijodiga va u orqali Suqrot falsafasiga juda katta qiziqish bilan qaraydi. Hali ta'lif olib yurgan yoshlik chog'laridayoq Ksenofont ijodida keng o'rinnegallagan antik davrlarga oid tarixiy voqealar va ayniqsa, sharq shaharlari ta'rifi uning e'tiborini beixtiyor o'ziga tortadi.

Arrianning hayotini Ksenofont hayotiga qiyos qilish mumkin. Ksenofont kabi Arrian ham harbiy mashg'ulotlarni puxta o'rganadi, Ksenofont kabi notiqlik san'ati va falsafani rivojlantiradi.

Ksenofont Suqrot haqida yozgani kabi, Arrian ham Epiktet faoliyatiga, o'z ustozining ijodiyotiga qiziqish va hurmat bilan qaraydi.

Uning Epiktet falsafasi ta'sirida yozilgan: «Epiktet suhbati», «Epiktet ilmi bo'ylab hukmronlik» kabi asarlari ilmiy-nazariy fikrlarga nihoyatda boydir. Bu asarlarni o'qisak, faqatgina Epiktet ijodining nazariy asoslari bilangina emas, balki uning, shaxsiy hayoti bilan ham yaqindan tanishamiz.

Epiktet falsafasiga qiziqish Rim adabiyotida asosan eramizning II asriga kelib kuchayadi. Mamlakatning quyi tabaqa vakillarigina emas, balki Rim imperatorlari ham Epiktet falsafasiga ixlos bilan qaray boshladi. Masalan, Rim imperatori Mark Avreliy Epiktet falsafasiga g'oyat yuksak baho beradi. Epiktetning ijod durdonalari asosan Arrian ijodi orqaligina bizgacha yetib kelgan. Biroq Arrian o'z ustozining butun ijodini to'plab, uning falsafiy qarashlarini izchil tahlil qilib bera olmadni. Shunday bo'lsa ham, u o'z ustoziga mehr-muhabbat bilan qaraganligi, uning ilg'or fikrlarini davom ettinganligi va Epiktet nomini ulug'lagani uchun ham zamondoshlari va keyingi avlod uni «yangi Ksenofont» deb ataydilar. Bu bejiz bo'lmay, Arrianning ijodi ko'p jihatdan Ksenofontdan ustun ekanligini ko'rsatadi.

Buning sababi bor. Arrian zamonasining badavlat xonadonlariga mansub bo'lgani uchun ham yoshligidanoq harbiy yurishlarga qiziqish bilan qaraydi. Harbiy taktikaning amaliy va nazariy asoslarini puxta o'rganadi. Bu hayotiy tajribalar uning keyingi davr ijodiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Arrian ijodida «Qora dengiz tasviri», «Qizil dengiz qirq'oqlari bo'ylab sayohat» asarlari alohida o'rinn tutadi. Bu asarlar o'zining tarixiy asosi, muhim harbiy qimmatga ega ekanligi jihatidangina emas, balki badiiy tasvir jihatdan ham tahsinga sazovorligi bilan ajralib turadi.

Haqiqatan ham, Arrian eramizning 131- yilida imperatorning topshirig‘iga binoan Qora dengiz qirg‘oqlari bo‘ylab ekspeditsiyaga yuboriladi. Sayohat taassurotlari asosida yaratilgan bu asarlar Rim imperatoriga juda yoqib qolib, Arrianning mavqeyini oshiradi. Arrianning keyingi ijodi Rim imperatorligi hayoti bilan bog‘liqdir. Ayniqsa, «Qizil dengiz qirg‘oqlari bo‘ylab» asari arab va hind davlatlari tarixi bilan bog‘liq bo‘lib, bu asar Rim imperatorining e’tiborini o‘ziga tortadi.

Rim imperatorligida senator darajasiga ko‘tarilganda Arrian eramizning 116- yilida davlat ishlari yuzasidan Gretsiyaga boradi. Bu imperatorlik delegatsiyasiga Avidiya Nigrin rahbarlik qilardi. Delegatsiya a’zolari orasida Arrian o‘zining bilimdonligi va dunyoqarashining kengligi bilan ajralib turardi. Rim davlatining chegaralariga oid qimmatli ma’lumotlarni to‘plagan. Arrian imperatorlik tahsiniga sazovor bo‘lib, «Imperatorning elchisi» degan faxriy nom oladi. Arrian imperatorlikning obro‘-e’tiborini qozongandan so‘ng eramizning 121-124- yillarda imperatorlikda elchi bo‘lib ishlaydi.

Rim imperatorligining ishonchini to‘la qozongan Arrian 131-137- yillarda Kappadokiy viloyatiga hokim etib tayinlanadi. Kappadokiy viloyati eng chekka va notinch viloyatlardan biri edi. Shuning uchun ham, Rim imperatori unga katta ishonch bildirib, Arrianni mana shu viloyatga hokim qilib yuboradi. Katta harbiy taktikaga ega bo‘lgan Arrian Kappadokiy viloyatini tashqi dushmandan himoya qiladi. Arrianning chekka o‘lkalarga qilgan sayohatlari, harbiy yurishlari, senator va elchi bo‘lib ishlagan kezlaridagi orttigan tajribalari, nihoyat, viloyat hokimligi darajasiga ko‘tarilishi shaxsiy hayotidagina emas, balki ijodiy faoliyati sahifalarini ham boyitib boradi. Harbiy yurishlarga nihoyatda qiziqqonligi, o‘zi katta harbiy tajribaga ega bo‘lganligi uchun ham u o‘zidan ilgari o‘tgan sarkardalar, mashhur lashkarboshilar, pahlavon jangchilar hayotiga, janglar va qirg‘in urushlar tarixiga qiziqish bilan qaraydi. Tarixiy voqealar haqdida qimmatli dalillarni, zarur hujjatlarni yig‘adi. Uzoq yillar davomida Aleksandr Makedonskiyning hayoti va harbiy yurishiga oid ma’lumotlarni to‘playdi.

O‘sha davrlarda Aleksandr Makedonskiyning hayotiga har bir rimlik alohida qiziqish bilan qaraydi. Rim imperatori o‘z hukmronligini tobora mustahkamlab, Aleksandr Makedonskiydek harbiy yurishlar qilishni orzu ham qilib turadi. Ayniqsa, Rim imperatori Trayan (113-117- yillar) hukmronligi davrida Aleksandr Makedonskiy shaxsiga qiziqish yanada

kuchayadi. Trayan o'zini Aleksandr bilan teng baholaydi. Ko'p jihatdan o'zini undan ustun ham qo'yadi.

Rimliklar Aleksandr Makedonskiy haqidagi tarixiy kitoblarni qo'ldan tushirmay o'qishardi. Arrianning Aleksandr Makedonskiy haqidagi hikoyalari imperatorga ham juda yoqadi.

Yevropaliklarni antik davrlarda Osiyoning tabiiy go'zalliklari, jug'rofiy kengliklari, muhtasham binolari, urf-odatlari qiziqtirib kelgan. Bu uzoq va begona o'lkalar haqida har bir gretsiyalik va rimlik qiziq-qiziq hikoyalari tinglashni yoqtirardi.

Aleksandr Makedonskiyning Osiyo bo'ylab harbiy yurishi davrida grek-makedon qo'shinlari orasida rimliklar ham bor edi. O'sha davrlarda Rim davlati yunon davlatiga qaram edi. Makedonlar, greklar, rimliklarning ko'pgina bobokalonlari turli xil sabablarga ko'ra O'rta Osiyoda qolib ketgandi.

Rim imperatori Adrian ham Aleksandrning harbiy yurishlarini e'tibor berib kuzatgan, uning tarixiga oid asarlarni ko'p o'qirdi. Uzoq yillar davomida u imperatorlik taxtini saqlab qoldi (117-138- yillar). Adrian bir necha marta daxlar, keltlar va sharqlik qabilalar bilan bo'lgan og'ir janglarda Aleksandrning harbiy taktikasini qo'llaydi. Bunday harbiy taktikani qayta ishlab chiqish, uning nazariy asoslarini va amaliy mohiyatini boyitishni, bu haqda yirik asar yozishni imperator 136- yilda Arrianga topshiradi. Arrian bu ishning uddasidan chiqib, ikki qismidan iborat kitob yozadi. Bu kitob Adrianga juda ma'qul bo'ladi.

Adrian hokimligining so'nggi yillarda Arrian Rimning davlat va harbiy ishlaridan chetlashtiriladi. Shundan so'ng u mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan kichik lavozimlarda ishlaydi. 147- yilda u Afinadagi kichik bir lavozimga tayinlanadi. Bu davrda u qizg'in ijodiy ishga beriladi. Afinadagi adabiy muhit bilan bog'lanadi. Biroq uning Afinadagi hayoti biroz qiyinlashadi. Shuning uchun ham, u ona shahri Nikomediyaga qaytib kelib, o'sha yerda hayot kechira boshlaydi.

Arrian ijodida «Ov haqida» asari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu asarida u kelt qabilasining ovchilik taktikasi haqida hikoya qiladi. Asar tarixiy dalillarga boy bo'libgina qolmasdan, «Alanlar tarixi» asari kabi badiiy xarakterga ham egadir. Bundan tashqari, Arrianning Timoleon va Dion haqidagi biografik xarakterdagи asarlari bizgacha yetib kelmagan.

Arrianning ijodini sinchiklab o'rgansak, biografik xarakterga ega bo'lgan asarlarning ko'plab yaratilganligiga guvoh bo'lamiz. Bu xildagi asarlarni yaratish Gretsya-Rim adabiyotida an'anaviy tusga kirib qolgandi. Arrian

o‘zining bir qator tarixiy-biografik asarlari, jumladan, «Aleksandrning yurishi» me’muar tipidagi asari bilan bu janr sohasini yanada boyitdi.

Arrianning o‘nlab ijod durdonalari orasida «Aleksandrning yurishi» asari alohida ajralib turadi. Arrian nomini jahon adabiyotiga olib chiqqan ham uning mana shu asaridir.

«Aleksandrning yurishi»ni sinchiklab o‘qib chiqsak, bu asar Ksenofontning «O‘n mingchilar yurishi» asarining uslubiga juda yaqin turganligini ko‘ramiz. Bu asarida Ksenofont Kirning harbiy bosqinchilik yurishlarini tasvirlagan. Ksenofont bilan Arrian ijodi o‘rtasida ko‘p jihatdan o‘xshashlik mavjud. Ikki adibni qariyb to‘rt asr bir-biridan ajratib turgan bo‘lsa ham, ularning asarlari janr xususiyatlariga ko‘ra ham, mavzu jihatdan ham bir-biriga yaqin turadi. Arrian Ksenofont ijodiga qayta-qayta murojaat qilganligini ko‘ramiz. Ksenofontning tarixiy voqealarни tasvirlash mahorati, ijodiy tajribalari Arrian uchun chinakam ijodiy mактаб vazifasini o‘tagan. Ksenofontning ijodiy mактabi ta’siri ostida, xususan, «O‘n mingchilar yurishi» asarining davomi sifatida Arrianning «Aleksandrning yurishi» asari dunyoga keladi.

Arriangacha ham Aleksandr haqida ko‘plab asarlar yaratilgan. Biroq Arrian yaratgan asar tarixiy dalillarning aniqligi, voqealar tasvirining jonliligi bilan ulardan sezilarli darajada ajralib turadi. Shuning uchun ham, «Aleksandrning yurishi» asari Arriangacha yaratilgan Aleksandr haqidagi asarlar ichida eng yuksagi va mashhuri bo‘ladi. Arrian o‘z asarining kirish qismida bu haqda to‘xtalib, shunday ta’kidlab o‘tadi: «Aleksandr haqida juda ko‘p kishilar yozgan, avval siz ularning asarlarini o‘qingda, so‘ngra mening asarimga baho bering». Haqiqatan ham, Arrian asarining Aleksandr haqida yaratilgan o‘zga asarlardan ustun tomoni shundaki, boshqa mualliflar bu mavzuda yozuvchi yoki tarixchi sifatida yondashgan bo‘lsalar, Arrian harbiy mutaxassis, hatto sarkarda sifatida quraydi. Yozuvchining qalami ham bundan ilgari yaratilgan o‘nlab biografik xarakterdagi asarlarning yozilishi jarayonida ancha charxlanib qolgan edi. U butun ijodi davomida tarixga murojaat qilib keldi. Senator va imperatorning elchisi (konsul) lavozimlarida ishlab yurgan kezlarida bevosita davlat ishlari va harbiy masalalarga tegishli muhim voqealarning shohidi bo‘lgan. Qizil dengiz va Qora dengiz bo‘ylab qilgan safarlari davomida Osiyo tarixiga qiziqishi ham ana shuning natijasidir.

Masalaning yana bir muhim tomoni shundaki, mashhur faylasuf, o‘z davrining donishmandi Epiktet ilmini chuqr o‘rgangan Arrian

Aleksandrning harbiy yurishiga falsafiy nuqtayi nazardan yondashgan bo'lishi ham tabiiy.

Arrian Aleksandr Makedonskiyning shaxsiga juda katta mas'uliyat bilan yondashadi. Aleksandrga buyuk tarixiy shaxs sifatida qaraydi. O'zining o'ta murakkab mavzuga qo'l urayotganini his etadi. «Aleksandr hali o'zining haqiqiy yozuvchisini topa olmaganligini» alohida ta'kidlaydi.

Kir esa o'zining mohir yozuvchisini topa olgan edi. Bu yozuvchi Ksenofont edi. Aleksandr-chi? Uning haqiqiy yozuvchisi kim? Arrian mana shunday sharaflı nomga sazovor bo'lishni doimo orzu qilardi. Aleksandr harbiy sarkarda sifatida Kirdan ustun turadi. Shuning uchun ham, Ksenofont an'analarini davom ettirish, uning uslubini shunchaki qo'llash bilan cheklanib qolish ham Arrian uchun bir yoqlamalik bo'ldi.

Arrian katta hayot tajribasiga ega bo'lgandan so'ng, to'plagan boy tarixiy va ilmiy materiallariga asoslanib «Aleksandrning yurishi» kitobini yozishga kirishadi. Asar yozishni uzoq yillar ko'ngliga tugib yurgan, Aleksandrning hayotiga oid ayrim qiziqarli epizodlarni ilgari ham yozishga ulgurgan bo'lsa-da, asosiy ishni Rimning davlat va harbiy ishlardan chetlashtirilgandan keyingina boshlaydi. Bu davrda Rim imperatori Adrian o'ldirilgan edi. Arrian o'zining ona shahri Nikomediyaga kelib, anchadan buyon o'zini qiy nab yurgan ko'nglidagi orzusini qog'ozga tushirishga ahd qiladi. Bundan birozgina avval, 2-3 yil mobaynida Afinada, so'ngra Makedoniyaning Aleksandriya shahrida bo'lib, bu shaharlarning jahonga mashhur muhtasham kutubxonalaridan Aleksandrga oid ma'lumotlarni to'plagan, o'z shaxsiy arxivini ancha boyitgan edi. Ma'lumki, Fili pp podshohligi davrida alohida e'tibor berilgan, biroq undan ilgari ham mavjud bo'lgan Afina kutubxonasi, Aleksandr davriga kelib jahondagi tengsiz kutubxonalardan biriga aylangandi. So'ngra barcha mamlakatlardan to'plangan madaniy boyliklar, qo'lyozmalar, adabiyot va san'at asarlari, tarixiy yodgorliklar shaxsan Aleksandrning buyrug'iga binoan Aleksandriya kutubxonasiga keltirildi. Rim imperiyasi kuchaygandan so'ng Gretsya va Makedoniya kabi ko'pgina Ellin mamlakatlari birin-ketin bosib olinadi. Afina va Aleksandriya kutubxonasi dagi beba ho adabiy yodgorliklar, ilmiy boyliklar Rimga keltiriladi. Biroq Afina va Aleksandriya kutubxonalari avvalgi dovrug'ini yo'qotmaydi. Har bir ilm ahli bu kutubxonalarga kelib, undan saboq olishni o'zlar uchun faxr deb bilishadi. Jumladan, taqdir taqozosiga ko'ra Rimning davlat va harbiy ishlardan chetlashtirilgandan

so‘ng Asinaga kelib kichik bir lavozimga ega bo‘lgan Arrian ham mana shu kutubxonada saboq olishni davom ettiradi.

Bunday nodir asarlarni o‘qish Arrianga nasib etgan. U o‘zining «Aleksandrning yurishi» asarida O‘rtta Osiyo, jumladan, bugungi O‘zbekiston hududida yashovchi qabilalar, bu yerning jug‘rosiy sharoiti, shaharlarining nomi, tabiat manzaralarini shunday aniq hikoya qiladiki, xuddi bu yerlarni u o‘z ko‘zi bilan ko‘rgandek tasvirlaydi. Go‘yo Arrian O‘rtta Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonimizda bo‘lgandek. Bu asar bizga O‘zbekistonning antik davrlariga oid qimmatli ma’lumotlarni beradi.

Arrianning «Vifini tarixi» deb nomlanuvchi 8 kitobdan iborat yirik asarlari majmuasi ham bizgacha yetib kelmagan. Bu majmuada Arrian o‘zi tug‘ilib o‘sgan ona yurti Vifini haqida hikoya qilgan edi. Unda eramizdan avvalgi 75 yilgacha bo‘lgan davr o‘z ifodasini topgandi. Bu davr shoh Nikomets III hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi.

Bundan tashqari, Arrian «Parfiya tarixi» nomli 17 kitobdan iborat asar yozadi. Bu asarlar majmuasida esa, Parfiya urushigacha bo‘lgan davr, Trayan (113-117- yillar) sultanati bilan bog‘liq voqealar tasvirlanadi. Afsuski, bu asar ham bizgacha yetib kelmagan. Bu asarlarning qachon yozilgani, unda hikoya qilingan voqealarning xarakteri, badiiy tasvir vositalari haqida ham, tabiiyki, aniq bir ma’lumotga ega emasmiz.

ALEKSANDRNING YURISHI

Arrian asarining ikkita kitobi uchinchi va to‘rtinchchi kitoblarji O‘rtta Osiyo tarixiga bag‘ishlangan. Uchinchi kitob 30 bobdan tashkil topgan. Uchinchi kitobning 28- bobidan boshlab O‘rtta Osiyo tarixinining o‘ziga xos tasviri keltiriladi.

«Aleksandr Oks daryosi qirg‘og‘iga keldi»¹, deydi muallif. Bungacha bo‘lgan boblarda Aleksandrning Eronga qilgan yurishi, Eron shohi Doro ustidan g‘alaba qozonishi hikoya qilinadi. Eron shohi yengilgandan so‘ng, u Kavkaz tog‘lariga qarab qochadi. Aleksandr uni izma-iz ta‘qib etib kelaveradi. Ta‘qib bir necha kun davom etadi. Doro Kavkaz tog‘lariga yashirinmoqchi bo‘ladi. Biroq Bess Eron shohining eng yaqin kishisi

¹ Arrian. Poxod Aleksandra, Izd-vo AN SSSR, M-L., 1962, str. 130. (Bundan keyingi manbalar ham shu asardan olinadi).

bo'lishiga qaramasdan, Doroni o'ldirib, boyliklarini olib, O'rta Osiyoga qarab qochadi. Aleksandr Doroning o'ligini topib olib, uni sharq udumiga ko'ra izzat-ehtirom bilan dafn etishni buyuradi-da, o'zi Bessning izidan ketadi. Bir necha vaqt Kavkazda bo'lib, u yerda «shahar quradi va unga Aleksandriya deb nom beradi»¹.

Oks daryosi hozirgi Amudaryoning qadimgi nomidir. «Bu daryo hind daryolarini hisobga olmaganda, Osiyodagi eng katta daryolardan biri edi»², - deyiladi asarda. Aleksandr Oks daryosidan kechib o'tishga harakat qiladi. Biroq daryo juda keng edi, undan kechib o'tish mumkin emasdi. Daryoning kengligi 6 stadiy (1 stadiy-grek o'lchovida 184 metr, 98 santimetrga to'g'ri keladi). Shu bilan birga, daryo ancha chuqur edi. Bu daryoga qulay ko'priq qurish uchun uzoqdan yog'och olib kelishga to'g'ri kelardi. Daryoga ko'priq qurish ancha uzoq vaqt ni talab etardi. Shuning uchun Aleksandr teridan qayiqqa o'xshash suv o'tmaydigan moslama yasashni buyuradi. Terilarni o'simliklarning quruq poyasi bilan tikdiradi (bunday o'simlikning nomini muallif tilga olmaydi. Ehtimol u qamish bo'lsa kerak. Chunki daryo bo'yalarida qamish o'sadi). Shunday qilib, Aleksandr qo'shinlari Oks (Amu) daryosidan besh kun davomida o'tib oladi.

«Daryodan o'tolmagan urushga yaroqsiz, keksa kishilarni Aleksandr uylariga jo'natib yuboradi. O'z ixtiyorlari bilan Aleksandr qo'shinlarini tark etib, o'z yurtlariga ketmoqchi bo'lgan fessaliyaliklarga ham ruxsat beradi»³. Shu voqealar bilan bog'liq epizodlarga e'tibor bersak, Aleksandr dastlab O'rta Osiyoni jang-u jadallarsiz, osongina qo'lga kiritish niyatida bo'lgan.

Aléksandr Oks daryosidan o'tgandan so'ng, So'g'diyona-hozirgi O'zbekiston tomon shoshiladi. Chunki bu yerda Bess katta qo'shin bilan Aleksandrga qarshi kuch to'playapti, degan xabar tarqaladi. Shu vaqt Spitamen bilan Detaferndan Aleksandrga chopar kelib, agar kichik bir otryad yuborilsa, Bessni ushlab berishligini bildiradi. Bu xabarni eshitgandan so'ng Aleksandr otryadga Laganing o'g'li Ptolomeyni bosh qilib, Spitamen bilan Datafern huzuriga yuboradi. Bu otryad juda yaxshi qurollangan, saralangan jangchilardan iborat edi.

¹ O'sha asar, 129- bet.

² O'sha asar, 130- bet.

³ O'sha asar, 130- bet

Baqtriya va So'g'diyonaning hokimi bo'lgan Bess aslida ahmoniyalar sulolasidan bo'lgan. Doro IIIni o'ldirgandan so'ng u o'zini shoh deb e'lon qiladi. Ahmoniyalar, so'g'diyonaliklar Bessni tutib berishga qaror qiladilar.

Ptolomey 10 kunlik yo'lni to'rt kunda bosib o'tib, Spitamen tunagan lager yaqiniga keladi. Piyoda askarlarga yurishni davom ettirishni buyurib, o'zi otliq askarlar bilan Bess joylashgan qishloqqa yaqinlashadi. Spitamen Bessni o'z qo'li bilan dushmanga tutib berishni or bilib, Ptolomeyga Bess joylashgan qo'rg'onni ko'rsatib, o'zi So'g'diyonaning ichkarisiga qarab ketadi. Ptolomey Bess joylashgan qo'rg'onni o'rabi olib (qo'rg'on devor bilan o'ralgan, uning maxsus darvozasi bor edi), uning qo'riqchilariga agar Bessni tutib berishsa, ularga tegmaslikka va'da qiladi. Shundan so'ng qo'rg'onning darvozasi ochiladi, jang-u jadalsiz tinch yo'l bilan ular Bessni asir olishib, yana Aleksandr huzuriga qaytishadi. Aleksandr o'z podshohi Doroga xiyonat qilgan Bessdan nafratlanadi. Shuning uchun ham, Ptolomeyga «Bessni yalang'och qilib, ko'chaning o'ng tomoniga bog'lab qo'yishni buyuradi. Sharmandalarcha qi p-yalang'och turgan Bessning yonidan Aleksandrning butun qo'shinlari saf tortib o'tadi»¹.

Mana shu epizoddan ham ko'rinish turibdiki, Aleksandrning Bessni shunday sharmandali holga qo'yishi va qo'shining namoyish etishi bilan muhim bir masalaga ishora qilinyapti.

Birinchidan, kimda kim xiyonat yo'liga qadam qo'ysa-jazosi shu, sharmandali o'lim, demoqchi bo'lsa, ikkinchidan, o'z jangchilariga ham katta saboq bermoqda.

Ma'lumki, bundan ilgarigi davrlarda Eron shohi Kir, so'ngra Doro O'rta Osiyoga tez-tez hujum qilib, bu yerdagi tarqoq qabilalarni bosib olgandi.

Eron shohlari Doro va Kir IV-V, asrlarda yashab o'tgan. Bu haqda grek yozuvchisi Ksenofontning «Kiropediya», Plutarxning «Artakserks» asarlarini o'qib, keng ma'lumot olamiz. Aleksandr davridagi Eron shohi Doro esa boshqa tarixiy shaxs. Ikki Eron shohlari Dorolar o'rtasida qariyb ikki asrlik davr oralig'i bor. Ikkala Doro ham ulkan Ahmoniyalar davlatining podshohi edi. Shuningdek, ular o'zlarini So'g'diyonaning ham podshohi deb hisoblardi. So'g'diyona ham Ahmoniyalar davlatiga qaragan. Podshohlik

¹ O'sha asar, 131- bet.

o'sha vaqtarda ulug'langan. Bess o'z podshohi Doroga xiyonat qilgani uchun ham Spitamen undan nafratlanadi. Ikkinchini tomondan, Spitamen Aleksandrning Bessni ta'qib etib kelayotganini sezib, basharti Bessni tutib bersam Aleksandr skiflar yeriga kelmasligi mumkin, degan fikrga boradi. Romanda Spitamen joylashgan qo'rg'onning nomi aytilmagan. Ptolomeyning Amudaryodan keyin o'n kunlik yo'lni to'rt kunda bosib o'tib, qo'rg'onga yetib kelishi, bu qo'rg'onning Samarqandga yaqinroq joyda bo'lganligidan dalolat beradi.

Biz bu o'rinda asarda tasvirlangan voqealarni so'zma-so'z keltirib o'tirmasdan, unga o'z munosabatimizni bildirishga harakat qilamiz. Yuqoridagi epizoddan ko'rinish turibdiki, qadim zamonlarda ham sotqinlarning taqdiri sharmandali holda yakun topgan. Antik davrlardayoq xalqimiz sotqinlarga ayovsiz munosabatda bo'lgan. Sotqinni nafaqat oddiy fuqaro, hatto podshohlar ham kechirmagan. Bess kabi xiyonatkorlar o'sha zamonlarda ham uchrab turgan. Bessning sotqinligi bilan bog'liq epizodlarni Arrian bekorga qalamga olmagan.

Yuqoridagi voqealarga diqqat bilan e'tibor bersak, Arrian shu epizoddayoq to'rt obrazning xarakterini tasvirlayapti. Aleksandr, Ptolomey, Bess va Spitamen obrazlari. Aleksandr qat'iy fikrli, shafqatsiz, Ptolomey o'z shohiga sadoqatli. Bess sotqin, lekin Spitamen-chi? Bu o'rinda qiziq bir ifodaga duch kelamiz. Bess har qancha sotqin bo'lmasin, har qancha nafratga loyiq bo'lmasin, Spitamen uni o'z qo'li bilan tutib bermaydi. Arrianning ta'kidlashicha, «Bessni o'z qo'li bilan tutib berishdan Spitamen or qiladi»¹. Mana, Arrian romanining nozik, o'ziga xos tasviri. Spitamen o'z qo'li bilan Bessni tutib, Aleksandrga topshirishi mumkin edi. Yoki bo'lmasa, o'zining xos kishilari orqali Bessning qo'l-oyoqlarini kishanlab, Aleksandrga yuborishi ham mumkin edi, Biroq, Spitamenning bunday qilishiga nomusi yo'l qo'ymaydi. Dushmani oldida egilishni xohlamaydi. Bess Spitamenning qarorgohiga boshpana qidirib keladi. Spitamenni o'ziga yaqin oladi. Spitamen-chi? Bess har qancha yaqin bo'lmasin, bunday sotqinga Spitamen mard va jasur o'g'lon sifatida shafqatsiz, ona Vataniga bostirib kelayotgan yovga esa tiz cho'kishni, ona yurtining dushman oyog'i ostida toptalishini sira-sira xohlamaydi. Asarni o'qib, antik davrlardayoq xalqimiz sotqin va xoinlarga nisbatan shafqatsiz bo'lgan, ularni eng og'ir jazoga hukm etgan, degan tushuncha paydo

¹ O'sha asar, 131- bet.

bo‘ladi. O‘sha davrdayoq Spitamen kabi halol, pokiza insonlar ko‘p bo‘lganligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Arrianning tarixiy xizmati shundaki, asardagi voqealar tasviriga u haqiqiy ijodkor ko‘zi bilan qaraydi. Tarixiy haqiqatni bo‘yamasdan ko‘rsatishga harakat qiladi. Bundan ilgarigi epizodlarda, jumladan, Eron shohi Doro bilan bo‘lgan jang tasvirlarida ham adib o‘zining mana shu pozitsiyasida qoladi. Doroga nisbatan so‘g‘diyonaliklarning nafrat o‘ti kuchli. Chunki u makedonlar bilan bo‘lgan urushgacha So‘g‘diyona yerlarini bosib olib, boyliklarimizni talab, odamlarimizni qul qilib olib ketgan edi. Eronliklar bilan makedonlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan qirg‘in janglarda ming-minglab so‘g‘diyonaliklar ham qatnashib, ularning ko‘plari qurban bo‘lgan edi. Doro qonxo‘r, Doro yovuz, Doro mol-dunyo, dur-u javohirlarga hirs qo‘ygan shoh. Ammo u sotqin emasdi. Osiyoga bostirib kelgan yovga qarshi bir necha yillar davomida kurashadi. Asarda Doro shoh bo‘lsa ham, o‘z vataniga sodiq qoladi. Aleksandr bir necha marta katta-katta va’dalar berib, undan taslim bo‘lishni taklif qilganda ham Doro unamaydi. Greklar bilan eroniylar o‘rtasida urush uzoq vaqt davom etadi. Hatto Doroning onasi, xotini, o‘g‘il va qizi Aleksandr qo‘liga asir tushganda ham, Doro dushmanga tiz cho‘kishni xohlamaydi. O‘z yurtiga sotqinlik qilishni istamaydi. Dushmanga qarshi kurash rejasidan qaytmaydi. Arrian bu o‘rinda Doroning qilmishidan nafratlanishi va uni haqorat qilishi ham mumkin edi. Biroq adib hamisha voqeaga real yondashishga harakat qilgan.

O‘z navbatida, yozuvchi Aleksandrning xarakterini yorqin bo‘yoqlarda ochib beradi. Bosqinchilik Aleksandrning qonida bor edi. Otasi Filiipp IIning butun umri jang-u jadallarda o‘tgan. Yozuvchi Aleksandrni bosqinchi, shu bilan birga, tanti va mard sarkarda obrazi sifatida tasvirlaydi. U Doroning onasi, xotini va farzandlariga ozor yetkazmaydi. O‘g‘lini eng bilimdon, donishmand kishilar qo‘liga topshirib, saboq berishni lozim topadi.

Doroning qiziga uylanishni ko‘pgina yaqin kishilar Aleksandrga taklif etadi. Biroq Aleksandr ularning bu taklifini rad qiladi. Doroning oilasiga yaxshilik qilishga intiladi. Oilasi asir tushib qolganini eshitib, Doro Aleksandrga ikkita maktub yo‘llaydi.

Mana shu tasvirlar Arrian romanida g‘oyat obyektiv ifodalangan.

Aleksandr o‘zining eng ashaddiy dushmaniga nisbatan shafqat qiladi, jang maydonini mardlik va matonat maydoni deb biladi. O‘limidan so‘ng

shohni Eron urf-odatiga ko‘ra dafn etsa, Bessni shafqatsiz ravishda jazolaydi. Uni sharmandali holda yalang‘och qilib, Eronga olib keladi-da o‘limga mahkum etadi. O‘limi oldidan qo‘li, burni va oyoqlarini kesib, qiy Naydi.

Toki insoniyat bunday sotqinlik yo‘liga qayta qadam bosmasin, degan ramziy ma‘no bor bunda. Bessni butun eronliklar va qo‘shin oldida jazolaydilar.

Biz Arrian kitobida hozirgi O‘zbekiston hududining antik davrlari, qadim So‘g‘diyonaga tasvirlangan voqealar yo‘nalishiga asosiy diqqatni jalb qilmoqdamiz.

Aleksandr Bessni qo‘lga tushirgandan so‘ng mahalliy aholidan ko‘plab otlar yig‘ib, So‘g‘diyonaning markaziy shahri Maroqand tomon yo‘l oladi. O‘z qo‘shinlari bilan eramizdan avvalgi 329- yilning bahorida So‘g‘diyonaga kirib keladi. U Hindiqush tog‘laridan o‘tayotganda juda qiyinaladi. Biroq kitobning mana shu o‘rnida ayrim chalkash tasvirlar ham borki, tahlil jarayonida birmuncha qiyinchiliklar tug‘diradi.

Maroqandga tomon kelayotganda Aleksandr qo‘shinlari varvarlarning qarshiligidagi duch keladi. Varvarlar 30 mingdan ziyodroq edi. Ular Aleksandr qo‘shinlarini ancha shoshirib qo‘yadi. Hatto makedonlarni orqaga qaytarishga muvaffaq bo‘ladilar, so‘ngra o‘zлari baland tog‘ cho‘qqisi tomon chekinadi. Aleksandr kuch to‘plab qurolli, saralangan armiyasi bilan tog‘ tomon hujumni davom ettiradi. Varvarlarning qattiq qarshiligidagi qaramasdan, Aleksandr ularni yengadi. Ikki o‘rtada shiddatli jang boradi. «Varvarlar tomonidan otilgan yoy Aleksandring o‘ng kuragiga kelib tegadi. Yoy Aleksandring kurak suyagiga borib yetgan edi. Tog‘ cho‘qqisiga chiqib olgan varvarlarning ko‘pchiligi pastlikka tomon uloqtiriladi»¹.

Muhimi shundaki, Aleksandr So‘g‘diyonani osongina qo‘lga kiritaman, bu yerdagi tarqoq qabilalar menga qarshilik qilmasdan taslim bo‘ladi, deb o‘ylagan edi. Varvarlarning bunday qattiq qarshilik ko‘rsatishi Aleksandr uchun kutilmagan bir hodisa edi.

Arrian varvarlarning hujumini tasvirlash orqali So‘g‘diyonaga elidagi qabilalarning vatanparvarligini ko‘rsatishga harakat qiladi. Boshqa ellardagi ko‘pgina xalqlar qarshiliksiz o‘z ixtiyorlari bilan taslim bo‘lganlar. So‘g‘diyonaliklar esa Aleksandr bilan bir necha bor jang qiladi. Yurtiga bostirib kelayotgan yovni qaytarish uchun kurashadi. Mana shu birinchi hujumdayoq Aleksandr qo‘shinlari ancha talafot ko‘rgan edi, uning

¹ O‘scha asar, 132- bet.

o'zi birinchi marta so'g'diyonaliklar tomonidan yaralanadi. Arrian asarida vatanparvarlik g'oyasi ilgari suriladi. So'g'diyonada yashovchi elatlarning mardligi, botirligi, jasurligi o'ziga xos ravishda ko'tarinki ruhda tasvirlanadi.

Tarixiy voqelikka bunday holisona yondashish, yozuvchining halolligini, pokiza inson bo'lganligini isbotlaydi. Arrian mana shunday yozuvchilik burchiga oxirigacha sodiq qoladi. Ko'pgina yozuvchilarning ijodini olib qarasak, Aleksandrning bosqinchilik siyosati ko'klarga ko'tarilib maqtalganini, so'g'diyonaliklarning o'z vatanini himoya qilishlarini vahshiylilik, yovvoyilik deb tasvirlashgacha borib yetganini ko'ramiz. Arrian esa voqealarning tafsilotini to'g'ri bayon qilishga harakat qiladi.

Varvarlarning yengilishi va Aleksandrning yaralanishi bilan romanning uchinchi kitobi yakunlanadi.

Asarning to'rtinchi kitobi Aleksandrning Tanais¹ daryosi yoqasiga kelishi, daryo bo'yiga shahar qurish va unga Aleksandr² deb nom berishi bilan boshlanadi. Bu shaharning kelajakda yanada taraqqiy etishiga Aleksandr ishondi. Ikkinci tomondan u skiflarning hujumidan saqlovchi mustahkam qo'rg'on bo'lishini nazarda tutgan. Strabon ham o'zining «Geografiya» asarida Aleksandr Tanais daryosi bo'yiga kelmaganligi va u yerdagi qabilalar bilan jang qilmaganligini ta'kidlaydi³.

Ko'p o'tmasdan «yaqin atrofda yashovchi varvarlar, bu yangi qurilgan shaharga hujum qilib, makedoniyalik askarlar gapnizonini o'rab oladi. Bu qo'zg'olonda ko'plab skiflar ishtirok etgan edi. Ular orasida Bessni tutib bergen odamlar bor edi»⁴.

Demak, varvarlar deb nomlanuvchi vatanparvarlar orasida sak, skif qabilalari ham bo'lган. Bessni tutib berishda Spitamen bilan Datafern qatnashgani shunday xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Yozuvchining g'oyaviy pozitsiyasining yuksakligi shundaki, So'g'diyonada yashovchi qabilalar tarqoq bo'lgan, degan qarashga chek qo'yadi. Aleksandr qo'shinlariga daryo yoqasida qilingan hujum bu yerdagi turli qabilalarning birligini, o'zaro inoqligini isbotlaydi. Yozuvchining ta'kidlashicha, «varvarlarning bu qo'zg'olonida so'g'diyonaliklar ham bor edi»⁵.

¹ Tanais - Don daryosi.

² Aleksandriya shahri - Tanais (Don) daryosi yoqasiga emas, Yaksart (Sir) daryosi yoqasiga, Xo'jand shahriga yaqin joyda, Bekobod tarafda qurilganligi ma'lumdir.

³ Strabon. Istoriya semnadsati knigax. Kn. Sed'maya. Str. 521.

⁴ Aleksandrning yurishi, 333- bet.

⁵ O'sha asar, 133- bet.

Bunday qayta-qayta qilingan hujumlar Aleksandrni dastlab shoshirib qo'yadi. Ayniqsa, varvarlar, so'g'diyonaliklar va boshqa elatlarning birlashganini eshitgan Aleksandr kuch to'plab, zudlik bilan harbiy yurishni davom ettiradi.

Piyoda askarlarga baland narvonlar tayyorlashni buyurib, o'zi otliq askarlar bilan G'aza shahri tomon yuradi. Aleksandrning maqsadi, G'aza shahrida to'plangan varvarlarning katta qo'shiniga zarba berish edi. Biroq varvarlar G'aza shahrini tashlab, allaqachon yaqin oradagi yetti shaharga joylashib olgan edi.

Shunday qilib, «ikki kun ichida Aleksandr qo'shinlari yetti shahardan beshtasini qo'lga kiritadi. Oltinchi shahar ulardan eng kattasi bo'lib, u Kir shahri deb nomlangan edi. Bu shahar Kir tomonidan qurilganligi uchun Kiropil deb ataladi»¹.

Kitobda tasvirlanishicha, Kiropil shaharni qo'lga kiritish nihoyatda qiyin bo'lgan. Nihoyat, shahar o'tasidan o'tuvchi daryo Aleksandrning diqqatini o'ziga tortadi. Bahor va yoz oylarida bu daryo qor va sel suvlari bilan to'lib oqsa, hozir esa juda sayoz bo'lib qolgan edi. Mana shu daryoning o'zani orqali shaharga kirib olish mumkin. Shahar himoyachilarining butun diqqat-e'tibori tashqarida-qal'a devorlariga, mahsus mashinada otilayotgan ulkan toshlarda edi. Aleksandr o'z qo'shinlarining bir qismi bilan orqa tomonidan daryo o'zani orqali shaharga kirib oladi. Shahar ichkarisida jang bosholanadi.

Toshdan yasalgan qurol Aleksandrning boshi va bo'ynini yaralaydi. Jarohat Aleksandrni ancha dovdiratib qo'yadi. Shoh bo'ynini ushlagancha hushidan ketadi.

Krater va boshqa qo'shin boshliqlari kamondan otilgan o'qdan halok bo'ladi. Bosqinchilardan ko'p kishi yaralanadi. Ikki o'ttada shiddatli jang chog'ida shahar himoyachilaridan 8000ga yaqin kishi halok bo'ladi. 15 mingga yaqin himoyachilar shahar ichkarisidagi qal'aga kirib oladi. Aleksandr ularni bir kun davomida o'rab turadi. Nihoyat himoyachilar suv tanqisligi tufayli taslim bo'ladilar.

Bu Aleksandrning ikkinchi marta yaralanishi edi. Bu yara unga ancha azob beradi.

Aleksandrning maxsus tosh otadigan mashinasi haqidagi tasvir Arrian romanida bir necha epizodlarda qayd etib o'tiladi.

¹ O'sha asar, 134- bet.

Bunday mashinaning yaratilishi eramizdan avval IV-III asrlardayoq Gretsiyada ilm-fanning nihoyatda rivojlanganligidan dalolat beradi.

Aleksandrning toshotar mashinasi o'sha davrdayoq Osiyo mamlakatlariiga ma'lum va mashhur bo'ladi. Xitoyliklar Aleksandr bilan urushmaslik to'g'risida ahdnama tuzib, unga ko'pdan-ko'p yorliqlar, behisob mol-dunyolar berib, nihoyat bu mashinani ham qo'lga kiritgan edi.

Xitoyliklardan bu mashinani Chingizzon tortib olib, Osiyo va Yevropadagi bir qancha mamlakatlarni ishg'ol etadi. Chingizzxonning toshotar mashinasi haqidagi jonli tasviri badiiy adabiyotda V.Yanning «Chingizzon», «Botuxon», «So'nggi dengizgacha» romanlarida uchratamiz. Keyinchalik bu mashinadan Amir Temur ham o'mi kelganda foydalangan. Bu haqda S.Borodin o'zining «Samarqand osmonida yulduzlar» romanida to'xtalib o'tgan.

Bundan ko'rindiki, yunonlarning Suqrot, Platon, Aristotel kabi donishmandlari, ular haqidagi falsafiy mazmundagi hikoyalar, ularning ilg'or fikrlari bilan birga, insoniyat boshiga qirg'in keltiruvchi harbiy maqsadlarda ishlatalidigan mashinalari ham Osiyoga o'sha davrdayoq yetib kelgan edi.

Aleksandr Makedonskiyning mana shu mashinasi bo'lmaganda uning O'rta Osiyonini ishg'ol etishi qiyin edi. Chunki Arrian romanida tasvirlanganidek, So'g'diyonadagi deyarli hamma shaharlar hatto ayrim qishloqlar ham mustahkam devor bilan o'ralgandi. Bu devorlardan toshotar mashinasiz Aleksandrning o'tishi amrimahol edi. Arrian romanida tasvirlangan Kiropil shahri ham Eron shohi Kir tomonidan shunday mustahkam qurilgandi. Bu mustahkam devor bilan o'ralgan shaharni yoy, nayza yoki qilich kabi oddiy qurollar bilan qo'lga kiritish mumkin bo'lmagan.

O'sha davrlarda va undan ilgari ham, Rim hukmronligigacha Yevropadagi gullab yashnagan shaharlardan biri bo'lgan Afinada ishlab chiqilgan bu mashina Yevropaning g'arbiy mamlakatlariiga nisbatan ham Osiyoga tezroq yetib keldi.

Muhimi shundaki, grek ilm-fanining bunday namunalari faqat bosqinchilik urushlari maqsadlarida bizgacha yetib kelmasdan, balki bunday bosqinchilik urushlaridan bir necha asrlar ilgari ham Grek-Rim va Osiyo adabiy aloqalari mayjud edi. Gerodot asarlarida berilgan O'rta Osiyo tasvirlari

buning yorqin namunasidir. Yoki bo'lmasa, O'rtta Osiyoda yashovchi massaget, shak qabilalari haqidagi fikrlarning Gerodot, Polien ijodida tasvirlanishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Suqrot, Platon, Arastu kabi grek donishmandlari haqida yaratilgan xalq afsona va rivoyatlari yunonlar bilan so'g'diyonaliklar o'rtasida qadimdan turli xil aloqalar mavjudligini isbotlaydi.

Bizning uzoq o'tmishimizdan hikoya qiluvchi «To'maris» afsonasi o'zining tarixiy asosiga ega ekanligi sir emas. Eron shohi Kir massagetlar qabilasi ustiga bostirib keladi. Zolim Kir massagetlar qabilasiga ayovsiz zulm o'tkazadi. Bosqinchı Kirning zolimligidan ko'p azob chekkan massegetlar nihoyat «To'maris» afsonasini yaratadilar. Xalq qahramoni To'maris Kirning ustidan g'alaba qozonadi. Mana shu «To'maris» afsonasining asosida tarixiy haqiqat yotadi. Gerodotning «Tarix yoki tadqiqot» asarida ta'kidlanishicha, o'sha davrlarda haqiqatan ham massagetlar qabilasiga To'maris degan jasur ayol shoh bo'lgan ekan. Arrian romanida Kir bilan bog'liq voqealar birinchi bor takrorlanadi. Masalan, romanning bir epizodida Kirni qo'llab-quvvatlagan, qadimda Ariaspom deb atalgan, keyinchalik, Everget deb nomlangan elga Aleksandr keladi. Evergetlar skiflar bilan bo'lgan jangda Kirga yordam bergen edi. Aleksandr ularga hurmat bilan munosabatda bo'ladi. Ularni Ellin odamlari bilan teng huquqli deb e'lon qiladi. Ularning yaxshiroq hayot kechirishlari uchun qo'shni yerlardan istagancha joy beradi. Chunki Aleksandr ham Kir kabi skiflarning qarshiligiga uchrab, bir necha bor so'g'diyonaliklarning to'satdan qilingan hujumlari dahshatini tortmoqda edi. Gerodot ijodida «To'maris» hikoyasi va u bilan bog'liq tafsilotlar bayoni berilgan. Gerodotning ta'kidlashicha, Kir haqiqatan ham Eron shohi bo'lgan. Eramizdan avvalgi V-VI asrlarda yashab o'tgan Ksenofont Kir haqida epopeya yozadi. Bu epopeyani «O'n minginchilar yurishi» deb ham ataymiz. Bu epopeya Kirning butun tarjimayı holini yoritib bergen. Hatto Aleksandr Makedonskiy Eron shohi Kirning qabrini ochib ko'rghanligini Arrian ham ta'kidlab o'tadi. Bundan chiqadiki, Kirning massagetlar qabilasi ustiga, ya'ni O'rtta Osiyoga bostirib kelganligi ham tarixiy haqiqat. Bu yerda shahar¹ qurbanligi va unga Kir deb nom

¹ Kir shahri Yaksart (Sir) daryosi yaqinida, Arrian asarida esa Tanais daryosiga yaqin deb beriladi.

berilganligi haqidagi Arrianning tafsilotlari ham haqiqatga yaqindir. Bu shaharni Kir yoki Kiropil deb ham ataganlar. Kiropil shahri O'ratepaga, yaqin joydan topilgandi.

Hatto, Arrian kitobining bir sahifasida Kambiz va Kirning skiflarga qarshi kurashi haqida to'xtalib o'tadi.

«Massagetlarga qarshi yurish va Kirning o'limi» hikoyasida aytishicha, Kir Bobilni bosib olib, massagetlarni o'ziga bo'yundirmoqchi bo'ladi. Massagetlar Kaspiy dengizining sharq va g'arb o'lkalari bo'ylab cho'zilgan keng o'lkalarga joylashgan juda ko'p sonli qabilalardan edi. Kaspiy boshqa dengizlar bilan qo'shilmaydi. Uni uzunasiga 15 kunda suzib o'tish mumkin. Dengizning g'arbiy tomoni Kavkazning baland tog'lari bilan o'ralsan. Kavkazda turli xalqlar yashaydi. Ular yovvoyi daraxtlarning hosilini iste'mol qiladilar. Dengizning sharq tomonidagi keng tekisliklar massagetlar yerlaridir.

Ular ham otliq, ham piyoda jang qiladilar. Yoy, nayza va dastalari uzen oyboltalar bilan qurollangan. Tilla va misni juda ko'p ishlatadi. Misdan yasalgan nayza, yoy va oyboltalarni bo'yniga yelka aralash osib yuradigan kamar va tasmalari tilla bilan bezatilgan. Shuningdek, otlarga misdan sovut taqar, yuganlar va suliqlarga bezaklar taqishgan, temir va kumushni ishlatmaganlar. Ekin ekish bilan shug'ullanmaganlar. Go'sht, baliq va sut mahsulotlari bilan oziqlanganlar. Quyoshni xudo o'mida ko'rib, otlarni uning nomiga qurbanlik qilganlar.

Kir ularga qarshi urushni xohlab qoladi. U juda mag'rur edi, shuning uchun ham, o'zgalarni nazarga ilmasdi.

Massagetlarning podshohi malika To'maris edi. Unga uylanish niyati borligini izhor etish uchun Kir o'z odamlarini malikaning qarorgohiga yuboradi. To'maris Kirning yovuz niyati borligini sezib, unga rad javobini beradi. Shundan so'ng Kir mamlakat hokimligini o'g'li Kambizga qoldirib, o'zi To'marisga qarshi jangga otlanadi.

To'maris barcha qo'shinlarini yig'ib, Kirni qarshi oladi, ikki o'tada qirg'in jang boshlanadi. Vatanparvarlar mardonavor turib jang qiladilar, avval ular uzoqdan dushman ustiga yoy o'qlarini yog'diradilar.

So'ngra nayza va xanjar bilan olishuv boshlanadi. Jang uzoq davom etadi. Yon berishni hech bir tomon xohlamasdi. Nihoyat, massatetlar g'olib keladilar, yigirma to'qqiz yil (eramizgacha bo'lgan 558-529- yillar) podshohlik qilgan Kir o'ldirilib, dushman lashkarlari qirib tashlanadi.

Kirning o'limi haqidagi hikoyalardan eng haqiqatga yaqini mana shu.

Shuning uchun ham, «To'maris», «Shiroq» afsonalarini xalqimiz tarixidan hikoya qiluvchi nodir asarlar deb bilamiz. O'rta Osiyo hududida yashovchi massaget, shak qabilalari hayoti bilan bog'liq voqealarni o'rganishda bu asarlar muhim manba bo'lib xizmat qiladi. «Shiroq» afsonasida tasvirlangan voqealarning ham tarixiy asosi bor. Haqiqatan ham, Eron shohi Doro shak qabilalari ustiga bostirib kelib, ularga behad azoblar beradi. To'maris singari Shiroq ham xalq qahramoni, oddiy bir cho'pon zolim Doroning butun boshli katta bir qo'shini ustidan g'alaba qozonadi. Xalqimiz qadimdan shunday bo'lishini orzu qilgan. Bosqinchilar hech qachon muvaffaqiyat egasi bo'lib qolmagan. Kirga qarshi ham, Doroga qarshi ham tinimsiz kurash olib borgan. O'z vatanini, qabilasini jon-dilidan sevgan, uni mardonavor himoya qilgan. Polienning «Harbiy hiylalar» asaridan tashqari, Gerodotning ham Doro haqida hikoyalari mavjud.

Ahmoniyalar sulolasi: Kir I (558-530), Kambiz II (530-522), Doro I (522-486), Kserks I (486-465), Artakserks I (465-424), Sog'dian II (424-423), Doro II (423-404), Artakserks II (404-358), Artakserks III (358-338), Arses (338-336), Doro III (336-330). Ahmoniyalar sulolasining hukmronligini Aleksandr Makedonskiy tugatadi.

Eron podshohliklari bilan yunonlar o'rtasida ham qadimdan qirg'in urushlar juda ko'p bo'lgan. Masalan, Esxilning «Eroniyalar» tragediyasida Salamin orolida bo'lib o'tgan eroniylar bilan greklar o'rtasidagi urush tafsilotlari tasvirlanadi. Tragediya tarixiy asosga ega. Bu asar Esxil tomonidan eramizdan avvalgi 472- yilda yozilgan.

Muhimi shundaki, bu tarixiy haqiqatga ega Eron-Yunon urushida Esxilning o'zi bevosita ishtirot etadi. Ko'rgan-bilgan voqealari asosida tarixiy asar yaratadi. «Eroniyalar» tragediyasi antik davrda yaratilgan birinchi tarixiy tragediya edi. Bu tragediyadagi ko'pgina obrazlar real hayotda bo'lib o'tganligi bilan e'tiborga loyiqidir.

Esxiday buyuk tragediyanavisning mamlakatda ro'y berayotgan muhim ijtimoiy-siyosiy voqealardan, o'z zamonasidagi keskin situatsiyalardan chetda turishi mumkin emasdi. Uning «Eroniyalar»dan tashqari hamma tragediyalari mifologik xarakterga ega. Esxil antik adabiyotda birinchi bo'lib tarixiy mavzuga qo'l urar ekan, bunday asarlarning kuchli g'oyaviy-estetik ahamiyatga ega ekanligini amalda isbot etadi.

Esxilning «Eroniyalar» tragediyasida tasvirlangan voqealar, ayniqsa, Kserksning otasi shoh Doro obrazi «Shiroq» afsonasidagi Doroni esga soladi. Darhaqiqat, Doro o'sha davrlarda nihoyatda boyib, harbiy jihatdan kuchayib ketgandi. O'sha davrlarda Ahmoniyalar davlati ham eng yirik va markazlashgan davlatlardan biri bo'lgan.

Doro Osiyo mamlakatlardan, jumladan, O'rtal Osiyodan ham son-sanoqsiz kishilarni qul qilib, mol-dunyolarini talab, boshiga ne-ne kulfatlar yog'dirmagan deysiz? So'g'diyonaliklardan keyinchalik harbiy askar sifatida foydalangan. Dorodan qolgan dunyo uning o'g'li Kserksni Yunonistonday buyuk davlat bilan bellashishga da'vat etadi. Bu davrda, ya'ni eramizdan avvalgi V-IV asrlarda Yunoniston kuchli va markazlashgan davlat bo'lib, Afina shahrining dovrug'i olamga yoyilgan edi.

Eron shohi Doro ham Osiyodagi ko'pgina qo'shni mamlakatlarni qo'lga kiritgandan so'ng Yunonistonni bosib olishga shaylangandi. Keyingi davrlarda iqtisodiy jihatdan va harbiy ustunlikka ega bo'lgan Eron podshohliklari O'rtal Osiyoga bir necha marta hujum qilib, bu yerdagi qabilalarni talagan. Eron bilan So'g'diyona o'tasida juda ko'p qirg'in urushlar bo'lgan. Siyovush, Afrosiyob afsonalari o'sha eng qadimgi davrlardan qolgan yorqin sahifadir.

Qadimda Eron shohligi So'g'diyona yerlariga juda ko'p hujumlar qilgan, aholidan katta-katta o'lpon, soliqlar yig'ib olgan. Arrian asarida tasvirlangan Kiropil shahri va shunga o'xhash bir necha shaharlar qurib, ularda o'z kishilarini saqlagan.

Ikki asarda tasvirlangan, ya'ni Esxilning «Eroniyalar» nomli tarixiy tragediyasida tasvirlangan Doro bilan Arrianning «Aleksandring yurishi» tarixiy asarida berilgan Doro obrazini bir tarixiy shaxs deb tushunmaslik kerak. Ulardan biri eramizdan avvalgi V asrda, ikkinchisi III asrda yashagan. Biroq har ikkala Doro ham So'g'diyonaga hujum qilib, bu yerlarni bosib olgan. Har ikkala Doro ham o'zlarini So'g'diyonaning podshohi deb e'lon qilganlar.

Arrian asarida vatanparvarlik, qahramonlik go'zal badiiy lavhalarda ifodalangan. Kitobni o'qir ekansiz, Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usi o'quvchi qalbida alangalanadi.

Kitobda tasvirlanishicha, varvarlarning vatan himoyasida skiflar ham qatnashgan edi. Ularning ko'pchiligi mardonavor jang qilib, qirilib ketadi. Birodarlarining bunday fojiali qismatiga skiflar befarq qarab turishmaydi.

Arrian asari antik davr grek va Rim adabiyotidagi ko‘pgina yuksak saviyadagi asarlar bilan teng turadi. Voqealarni hikoya tarzida bayon qilish grek va Rim adabiyotining antik davrlariga xos an’ana edi.

Kitobda ifodalanishicha, Tanais daryosining narigi qirg‘og‘ida osiyolik skif qo‘shinlari paydo bo‘ladi. Ular daryoning berigi qirg‘og‘idagi varvar birodarlarining qo‘zg‘oloni haqidagi xabarni eshitib, makedonlarga qarshi kurashga shay turar edilar. Ko‘p bosqinchilik urushlarini boshidan kechirib, Vatanni jon-dildan sevish va uni qattiq turib himoya qilishni yaxshi tushungan skif elatlari makedonlarga qarshi katta qo‘shin to‘playdilar. «Spitamenning Maroqandda katta qo‘shin to‘plaganligi haqidagi xabar Aleksandrning qulog‘iga yetib keladi. So‘ngra Spitamenga qarshi o‘zining eng mashhur lashkarboshilarini Andramaxa, Menedem va Karanni saralangan askarlari bilan yuboradi»¹.

Albatta, o‘sha davrlarda So‘g‘diyonada yashovchi elatlari millat sifatida shakllanmagan edi. Skif, sak, dax, so‘g‘d elatlarining qaysi millatga mansub ekanligini aniqlash qiyin. Lekin ularning qismati bir xil bo‘lgan. Urf-odati, tili, turmush tarzi bir- biriga yaqin edi. Bosqinchilarga qarshi kurashda ular bir jon bir tan bo‘lib ishtirok etganlar.

Aleksandr o‘zining harbiy yurishi davomida turli xil tillarni biladigan tilmochlarni ham o‘zi bilan birga olib yuradi. «Maroqand himoyasini mustahkamlayotgan Spitamenga qarshi yuborilgan Aleksandr qo‘shini orasida skif tillarini yaxshi biladigan Farnux degan Likeyts qabilasiga mansub bir tilmoch ham bor edi. U mahalliy tillarni, ular bilan qanday munosabatda bo‘lishni yaxshi bilgan»².

Kitobda skiflar hayotiga oid yana bir qator muhim ma’lumotlar berilgan. Tanais daryosining narigi qirg‘og‘iga to‘plangan skif qo‘shinlari qarama-qarshi qirg‘oqda turgan makedoniyaliklarga qarab qichqirishar, haqoratlar, «biz skiflar bilan hazillashmanglar», deb baqirishar edi. Gohida daryoning tor o‘zanidan turib makedon qo‘shinlariga qarshi yoy o‘qlarini yog‘dirardilar. Ularga qarab «Osiyolik elatlari bilan skiflar o‘rtasida farq yo‘q»³, deb qo‘yishardi.

Mana shu epizoddan ham ko‘rinib turibdiki, boshqa qabilalar bilan skiflar o‘rtasida do‘stona munosabat bo‘lgan. Bir elatning boshiga og‘ir

¹ Aleksandrning yurishi, 131- bet.

² O‘sha asar, 135- bet.

³ O‘sha asar, 135-136- betlar.

musibat tushsa, ikkinchisi yordamga kelgan. Adibning mahorati shundaki, bu o'rinda varvar va skif qabilalari orqali O'rtta Osiyodagi boshqa qabilalar o'rtasida ham o'sha vaqtarda mustahkam do'stlik aloqlarini bo'lganligiga ishora qilyapti. Ikkinchisi tomonidan, Arrian Osiyodagi bu qabilalar o'rtasida vatanparvarlik tuyg'usi kuchli bo'lganligini ham ta'kidlayapti. Yuqorida Kiropil shahrini himoya qilishda varvarlar orasida skiflarni ham bor edi, degan fikrni aytgan bo'lsa, keyingi epizodda skiflarning boshqa bir qo'shinlari varvarlarga yordamga kelganligini ta'kidlaydi. Bunday epizodlar romanning ma'lum darajada g'oyaviy mundarijasini boyitgan.

So'g'diyona va Baqtriyada yashagan antik davrdagi ellar va elatlari, ularning hayoti va turmushi haqida to'xtalgandi, birini ikkinchisidan ustun qo'yish yoki kamsitish xatodir. Ayrim tadqiqotchilar bu yerdagi barcha g'alaba yoki muvaffaqiyat yaxlit bir urug', yoinki bir elatniki deb qarashgacha borib yetadilar. Jumladan, O'rtta Osyo tarixini o'rganishda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan, ulkan tadqiqot ishlaridan biri hisoblangan «Tojiklar» kitobining muallifi, yirik tadqiqotchi olim Bobojon G'afurov O'rtta Osiyodagi barcha yutuq hamda yuksalishlarning tepasida birgina xalq turganligiga ishora qiladi¹. Masalaga bunday yondashish boshqa xalqlarni kamsitishga olib keladi. Aleksandr Makedonskiy davrida O'rtta Osiyoda yashagan ko'plab qabilalarning yoki urug'larning qaysi millatga tegishli bo'lganligini ajratish qiyin. Chunki bu davrdan bizgacha yozma yodgorliklar yetib kelmagan. Agar jonli guvoh-yozma manbalar yetib kelganda edi, biz ularning yozuvni yoki nutqiga qarab qaysi millatga daxldor ekanligini aniqlashimiz mumkin edi. Tarixiy manbalarda bu yerdagi elatlarning tillari bir-biriga juda yaqin bo'lganligi ta'kidlanadi². Aleksandr Makedonskiyning O'rtta Osiyoga bostirib kelgan davrlarini aks ettiruvchi Kvint Kursiy Rufning «Aleksandr Makedonskiyning tarixi», Arrianning «Aleksandrning yurishi», Plutarxning «Aleksandr», Diodorning «Tarixiy kutubxona», Pompey Trogning «Filipp tarixi», Yustinning «Pompey Trog epitomi» asarlari va boshqa adiblar: Klitarx, Strabon, Nearx, Megasfen, Psevdo Kallisfen asarlari bilan yaqindan tanishsak, ular O'rtta Osiyodagi qabila va elatlari haqida gapirgan-u, lekin

¹ B.Gafurov. Tadjiki, Izd-vo «Nauka», M., 1972.

² X.Tursunov, N. Beknazarov. O'zbekiston SSR Tarixi, Toshkent, «O'qituvchi», nashriyoti, 1982- yil, 31- bet.

ularning qaysi millatga mansub ekanligini tilga olishmagan. Grek va Rim adiblarining tarixiy romanlarini o'qib chiqsak, So'g'diyonaning antik davrida yashagan tarixiy shaxslarga duch kelamiz. Bu tarixiy shaxslar, Spitamen, Oksuart, Roksana, Datafern, Sisimifr va boshqalar bo'lib, ularning qaysi millatga, hatto qaysi urug' yoki qabilaga mansub ekanligini ham aniqlashimiz qiyin. Muhimi, ular So'g'diyonada yashagan. Spitamen qo'shinlari ichida ham turli ellar va elatlarning vakillari bo'lishgan. Bularni falon millatga tegishli deyishimiz bir yoqlamalikka olib boradi. Biz ularni bir ibora bilan vatan himoyachilar, vatanparvarlar deb atashimiz to'g'ri bo'ladi.

Aleksandr Tanais daryosidan o'tib, skiflarga zarba bermoqchi bo'ladi. Biroq skiflar osonlikcha yon berishmaydi. Aleksandr qo'shinlarining daryodan o'tishi juda qiyin kechadi. Skiflar ularga kecha-yu kunduz tinchlik bermaydi. Makedon qo'shinlari daryodan o'tishda yana katta talafot ko'radi. Sarkarda Aristandr ko'p yo'qotish bo'layotganligini, skiflar qattiq hujum qilayotganini, daryodan o'tishga hech imkon bermayotganini aytganda, Aleksandr unga: «Kserksning otasi Doro kabi butun Osiyoga, skiflarga kulgi bo'lguncha, o'lganining yaxshi!», - deydi.

Asarda bundan keyingi voqealar yanada keskinroq, shiddatliroq, chuqur dramatizm bilan boyitilgan.

Spitamen o'zining jangchilar bilan Maroqandga hujum boshlaydi. Maroqandni egallab turgan makedon qo'shinlarining ma'lum qismiga talafot berib, shaharning ichidagi markaziy qal'a tomon intiladi. Biroq Aleksandr tomonidan yuborilgan yordamchi qo'shining Maroqandga yaqin kelib qolganini eshitib, So'g'diyonaning shimal tomoniga chekinadi. Aleksandrning tilmochi va otryad boshlig'i Farnux uni So'g'diyonaning chegarasigacha quvib boradi. Spitamen 600 otliq jangchini yig'ib, yana qarshi hujumga o'tish to'g'risida skiflar bilan kengash o'tkazadi. Bu safar Spitamen qo'qqisdan hujum boshlash rejasini ishlab chiqadi. Uning bu harbiy rejasi Politimet² bo'yidagi jangda qo'l keladi. Karan otliq qo'shinlari sarkarda Adramaxni ogohlantirmasdan Politimet daryosidan o'ta boshlaydi. Buni sezgan Spitamen daryoning boshqa bir o'zanidan nariqi qirg'oqqa o'tib olib, Karan qo'shinlarining orqa tomonidan hujum boshlaydi. Qo'qqisdan boshlangan hujum Karan qo'shinlarini shoshirib

¹ O'sha asar, 136- bet.

² Politimet - Zarafshon daryosi bo'lib, grekcha «Hurmatli» degan nomni anglatadi.

qo'yadi. Makedoniyaliklar daryoning o'tasidagi orolchaga to'planishadi. Spitamen qo'shinlari ularni har tomondan o'rabi olib, qirib tashlaydi. Lashkarning asir tushgan qismini ham o'ldiradi. Bu fojiali voqeani eshitgan Aleksandr juda darg'azab bo'ladi va Spitamenning orqasidan boradi.

Aleksandr qo'shinlari yengilmas, ular g'oyat qudratli kuchga ega, deb butun Osiyoga tarqalgan shov-shuv gaplar shu jangdan so'ng bekor bo'lib chiqadi. Skiflar o'zlarining tadbirdorligi va jasurligini namoyish etadi. Shunday qilib, Politimet daryosi bo'ylarida makedon qo'shinlari ikki marta katta talafot ko'radi. Skif qabilalari qadimdan bosqinchi yovga shafqatsiz, vatanga sadoqatli bo'lganligi asarda alohida tasvirga olinadi. Arrian o'z romanida bunday voqealarini batafsil yoritib berishga harakat qilgan.

Aleksandrning So'g'diyonadagi hayoti nihoyatda og'ir kechgan. U Kiropil shahrini zabit etish chog'ida boshidan va bo'ynidan yaralangandan so'ng ancha azob chekkan. Karan boshliq qo'shining qirib tashlanishi ham Aleksandrning ko'ksiga hanjardek og'ir botadi. Skiflarning ketma-ket hujumi, o'zining ikki marta yaralanishi Aleksandrning ruhida keskin holatlarni yuzaga keltiradi. Skiflar yeridagi bunday qarama-qarshiliklar Aleksandrni ancha shoshib qo'yadi. So'g'diyonadagi keskin ziddiyatlar Aleksandrni asabiy bir holga solgandi, hatto uning xotirasi ancha zauflashadi¹. Natijada, u sarkarda Klitni o'z qo'li bilan achchiq ustida o'ldirib qo'yadi. Klit Dronidning qizi Lanikaning² ukasi edi. Lanika Aleksandrni tarbiyalab, voyaga yetkazgan, unga ko'krak suti bergen ayol edi. Aleksandr Osiyoga yurish boshlaganda Lanika o'z ukasi Klitni emmisdosh o'g'li Aleksandrga qo'shib yuboradi. Aleksandr Klitni o'ldirib, chiuqur ruhiy azob chekadi, o'zini Lanika oldida gunohkor sezadi. Uch kecha-yu kunduz hech narsa yemasdan, ichmasdan, tashqariga chiqmasdan xonaning ichidan berkitib olib yotadi. Klitning fojiali o'limi haqidagi voqealar romanda hayajonli epizodlarda berilgan.

Klit fojiasi tarixiy voqealari bo'lib, yozuvchi bu fojia orqali ko'nglidagi dardini aytadi. Grek urf-odatlariga xos voqealar, Zevs va Dionis sharafiga bug'ishlangan marosimlar haqidagi muhim gaplar ham Klit fojiasi bahonasida aytildi. Bundan ko'rinish turibdiki, Arrian faqat tarixiy dalillarga, ularning tarixiy tafsilotlariga suyanib qolmasdan, balki ulardan yangicha g'oyaviy mazmun topishga harakat qiladi.

¹ Yefremov I. Tais Afinskaya, izd-vo IR, Orjonikidze, 1985, str. 258.

² Lanika - Kursiy Ruf asarida Gallanika deb berilgan.

Bu o'rinda Tanais daryosi bo'ylarida yashovchi yevropalik skiflar va xorazmliklar elchisi bilan suhabat epizodlarini eslash o'rinnlidir. Bu davrda Aleksandr Politimet daryosi yaqinidagi qo'rg'onida edi. Tanais daryosining nariqi qirg'og'idagi skiflar o'zlarining shohlari yaqinda vafot etgani va taxtga o'tirgan uning ukasi Aleksandrning buyrug'iga muntazir ekanligini, kerak bo'lsa, do'stlikni mustahkamlash uchun o'z qizini berishga roziligini ham ma'lum qiladi. Aleksandr skiflar o'ziga taqdim etmoqchi bo'lgan shoh qizini rad etadi.

Xorazm shohi Farazmen So'g'diyona va Baqtriyada yashovchi birodarlariga yordam berishdan bosh tortadi. U Aleksandrga 1500 jangchidan iborat qo'shin va sovg'a-salomlar berib, o'z mustaqilligini saqlab qoladi. Shoh Farazmen mana shunday xoinlik yo'liga qadam bosmasdan Spitamen qo'shinlariga yordam bergenida, grek-makedon qo'shinlariga yanada ko'proq talafot yetkazilishi mumkin edi.

Elchilar Xorazm shohi Farazmen Pantu viloyatiga hujum boshlash niyatida ekanligini bildirib, Aleksandrga yordam so'rab murojaat etadi. Aleksandr Pantu viloyatiga hujum boshlashning hozir mavrudi emasligini bayon qiladi.

Shundan so'ng Aleksandr Oks (Amu) daryosi bo'yiga qaytadi va yana So'g'diyona tomon yurishini danom ettiradi. Bu Aleksandrning elimizga ikkinchi bor yurishi edi.

Shunday qilib, birinchi marta So'g'diyonani qo'lga kiritolmagan va katta talafot ko'rgan Aleksandr endi katta qo'shin bilan o'zi Maroqandga yo'l oladi. Gefestion sarkardaligidagi qo'shinni So'g'diyona shahriga yuboradi. Ken va Artabaz qo'mondonligidagi katta qo'shinni skiflar tomon jo'natadi. Aleksandr bu safar So'g'diyona davlatiga katta kuch bilan keladi. So'g'diyonaga keyingi yurishi Aleksandrga omad keltiradi. Skiflar ustidan ustma-ust g'alaba qozonadi. Skif xalqining milliy qahramoni, jasur va mardonavor o'g'loni, So'g'diyonaning sadoqatli farzandi Spitamen o'limi bilan bog'liq voqealar asarning to'rtinchchi kitobida tasvirlanadi. Aleksandr So'g'd tog'ida bo'lgan so'nggi jangda hiyla ishlatadi. Ularning qabila boshlig'i Oksiartning xotini va bolalarini asir oladi. Aleksandr Oksiartning qizi Roksanaga oshiq bo'lib qoladi. Jangchilar Doroning xotinidan keyin Osiyoda bunday go'zalni uchratmaganliklarini aytib, Roksananing husn-jamoliga maqtov so'zlar aytishadi.

Aleksandr Roksanani asir sifatida ushlab turmasdan, uni o'ziga faxriy xotinlikka oladi.

Kitobni o'qir ekanmiz, antik davrlardayoq O'rta Osiyo hududida juda ko'plab shaharlar mayjud bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Arrian skiflar yerdagi Maroqand shahrini va So'g'diyona shahrini alohida-alohida tilga olib o'tadi. Shaharlarning ko'pligi O'rta Osiyoda qadimdan madaniyat va ilm-fanning rivojlanganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, O'rta Osiyoda yashovchi skiflar, saklar, dax qabilalarining o'ziga xos yashash tarzi ularning jasurligi, tadbirkorligi vatanparvarligi haqida ham keng ma'lumotga ega bo'lamiz. Arrianning bu romani O'rta Osiyoning, jumladan, So'g'dyonaning antik davrlariga doir chuqur ma'lumot beruvchi yirik badiiy polotnodir. Asarni varaqlagan o'quvchi o'z xalqining tarixi, o'z ona yurtining qadimgi o'tmishi bilan tanishib, hayajonga tushadi. Axir kim o'zining o'tmishiga qiziqish bilan qaramaydi deysiz? Bizga mana shunday uzoq tariximizdan bir necha yorqin sahifani Arrian taqdim etdi. Bu sahifalarga bitilgan tafsilotlarning ayrimlari haqiqatdan bir qadar uzoq. Biz bu haqda to'xtalib o'tirmadik. Ammo asar sujetining asosiy qismini Arrian xuddi qadimda o'zi O'rta Osiyoda bo'lgandek tasvirlaydi. Uzoq rimliklar, greklar o'lkasidan turib O'rta Osiyoning qadimgi tarixi haqida bunday memuar asarlarni yozish o'ziga xos jasoratdir.

DIODOR

Bizga yana antik dunyodan uch ulug' adibning nomi yaqindan tanish. Bular Diodor, Pompey Trog va Yustindir.

Diodorning hayotiga doir juda kam ma'lumotga egamiz. Uning qachon tug'ilgani noma'lum, ammo eramizgacha bo'lgan I asrda yashab o'tgani aniq.

Diodor ijodini chuqur o'rgangan va bu haqda tadqiqot ishlari olib borgan adabiyotshunos M. Mandes¹ ham Diodorning hayotiga oid keng va batatsil ma'lumotlar berolmaydi. Shunday bo'lsa-da, Diodorning kim ekanligini aniqlashga, uning ijodi haqida kitobxonlarga ma'lumot berishga harakat qilamiz.

Diodor yoshligidanoq grek tili va grek adabiyotini puxta o'rganadi. Kitarxning tarix va notiqlik san'atiga oid asarlarini berilib o'qiydi.

¹ M. Mandes. Opit istoriko-kriticheskogo kommentariya grecheskoy istorii Diodora. Odessa. 1901.

Diodor Gretsiya, hatto Kichik Osiyo bo‘ylab sayohatga chiqadi, bu sayohat taassurotlari uning dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Afinaga kelib, grek xalqi tarixiga alohida qiziqish bilan qaraydi. Afinadagi adabiy oqimlar bilan yaqindan muloqotda bo‘ladi. Ellinizm davrini o‘rganishga kirishadi. Bu davrni boshlab bergen Aleksandrning hayotiga va uning harbiy yurishlariga oid kerakli ma’lumotlarni to‘playdi. Biroq, Afinada Aleksandr tarixiga oid chuqur ma’lumotga ega bo‘limgach, u Misr tomon yo‘l oladi. Misrda joylashgan muhtasham va go‘zalligi jihatidan Afinadan qolishmaydigan Aleksandriya shahriga boradi. Bu yerda u oltin tobutda mo‘miyolangan Aleksandrning qabrini va uning maqbarasini ziyorat qiladi. Bu shaharni eramizdan avvalgi 332- yilda Aleksandrning o‘zi qurdirgan edi.

Ma’lumki, Aleksandr eramizdan avvalgi 323- yilning 11- iyunida Bobilda vafot etgan. Uning shaxsiy qo‘riqchisi va atoqli sarkardasi Ptolomey Aleksandriya podshohi bo‘lgandan so‘ng, Aleksandrning tobutini shu shaharga olib kelgan va unga muhtasham maqbara qurdirgan edi.

Diodor Aleksandriya shahridagi jahonga nomi ketgan katta kutubxonalar bilan tanishadi. Bu kutubxonada ellinizm mamlakatlariidan keltirilgan yetti yuz mingdan ziyod nodir qo‘lyozmalar, bebafo kitoblar saqlanmoqda edi. Diodor bu noyob nuxalar bilan tanishish sharafiga muyassar bo‘ladi. Bu kutubxonaga asos solgan, Makedoniya tarixida o‘chmas iz qoldirgan Aleksandrning tarjimayi holiga oid tarixiy dalillarni yig‘a boshlaydi.

Diodor «Shoh jurnali» yoki «Efemerida» sahifalarini diqqat-e’tibor bilan o‘qib chiqadi. Bu jurnalda Aleksandrning qadim So‘g‘diyonada bo‘lgan davrlariga oid muhim ma’lumotlar saqlanmoqda edi.

Aleksandr bilan Osiyoga kelgan, tarixiy voqealarning shohidi bo‘lgan Ptolomey, Aristobul, Kallisfenning «Kundalik»lari bilan ham batafsil tanishadi.

Diodorda Klitarxning Aleksandr haqidagi asari, ayniqa, katta taassurot qoldiradi. Biroq Klitarxning ijodida tarixiy haqiqat o‘zining haqqoniy va aniq ifodasini topmagan edi. Bu holat Diodorning «Tarixiy kutubxona» romaniga salbiy ta’sirini ko‘rsatdi.

Diodorning «Tarixiy kutubxona» romanida O‘rtta Osiyo tasviriga uncha keng o‘rin berilmagan. Shuningdek, qadimgi So‘g‘diyonadagi jug‘rofiy

muhit, shaharlar va qishloqlar bilan bog‘liq hodisalar, tarixiy voqealarning qayerda kechganligi haqidagi ma’lumotlar romanda aniq detallarda yoritilmagan. Bu jihatdan Diodorning «Tarixiy kutubxona» asari Aleksandr haqidagi Ruf, Plutarx, Arrian asarlardan farq qiladi. Biz, albatta, bu o‘rinda romandagi So‘g‘diyona tarixiga bag‘ishlangan epizodlarni nazarda tutyapmiz. Asarning tarixiy va badiiy xususiyatlarini e’tiborga olsak, bu asar o‘sha davrlardayoq grek adabiyotida munosib o‘rin egallagan edi. Bir so‘z bilan aytganda, Diodor nomini jahonga tanitgan uning «Tarixiy kutubxona» asaridir. U asar ustida o‘ttiz yil mehnat qilgan.

Diodor ijodini keng tadqiq qilgan M. Mandes, u o‘z asarida tarixiy voqealarga tarixchi sifatida emas, yozuvchi nuqtayi nazaridan yondashganligini ta’kidlaydi¹. Masalaga M. Mandes fikriga asoslanib yondashadigan bo‘lsak, haqiqatan ham, romanda tarixiy sanalarga emas, voqealar bayoniga kengroq e’tibor berilganligini ko‘ramiz. Romanning badiiy ifodasi Diodor qalamining o‘tkirligini ko‘rsatadi.

Kitobda tasvirlangan voqealar tafsilotining bayoni xususida e’tirozimiz yo‘q, biroq bu voqealarning qayerda kechganligi-Baqtriyadami yoki So‘g‘diyonadami, Oks daryosi bo‘yidami yoki Yaksart yoqasidami, ajratish ancha qiyinchilik tug‘diradi.

Kitobda Eron va Hindiston voqealariga keng o‘rin berilgan. Bu holat asar muallifining tarixiy dalillarga munosabatini belgilaydi. Diodor o‘rgangan tarixiy asarlarda O‘rtta Osiyo tasviri uncha keng berilmagan. Chunonchi, Klitarx ijodida ishonchsiz o‘rinnar ko‘p. Klitarxning Aleksandr haqida yozgan asaridan O‘rtta Osiyoga kelgan va bu yerdagi tarixiy voqealarning shohidi bo‘lgan Ptolomey biroz ranjiydi. Ptolomey keyinchalik Makedoniya shohligini egallagandan so‘ng, o‘z «Kundalik»lariga tayangan holda, badiiy asar yozadi.

Diodor esa Klitarx an’anasini davom ettiradi. Muhim shundaki, Klitarx ijodiga Diodor katta ishonch bilan qaraydi. Buning sababi, Klitarx ellinizm davrining atoqli adiblaridan biri edi.

Diodorning «Tarixiy kutubxona» asari keyinchalik Yustin, Plutarx ijodiga katta ta’sir ko‘rsatganligini ko‘ramiz. Bu adiblar Diodor ijodidan foydalanganligini o‘z asarlarida qayd qilib o‘tadi. Ayniqsa, Plutarxning

¹ M. Mandes. Opit istoriko-kriticheskogo kommentariya, grecheskoy istorii didora. Odessa, 1901, str. 2.

«Aleksandr va Sezar» nomli «Qo'shaloq hayotnoma»sida Diodorning badiiy tasvirlash uslubi ta'sirini ko'ramiz. Plutarxning «Aleksandr» asari Diodorning «Tarixiy kutubxonasi»siga juda yaqin turadi.

Diodor o'zining XVII kitobdan iborat asarini Aleksandr Makedonskiy davriga bag'ishlaydi. Diodor romanining ko'p boblari yo'qolib ketgan. Ayniqsa, So'g'diyona tarixiga tegishli boblarning anchagini sahifalari yirtilib, yo'qolgan. Shuning uchun ham, bu kitobning 69-bobidan 97-bobigacha bo'lgan 28 bobdagi sahifalarini o'rghanib chiqamiz. Bu boblardagi voqealarning ko'pchiligi So'g'diyonada va unga qo'shni o'lkalarda bo'lib o'tadi.

Kitobda Oks (Amu) daryosi Araks deb nomlanadi. Gerodotning «Tarix yoki tadqiqot» asarida ham Amudaryo Araks deb nomlanadi. Arrianning «Aleksandrning yurishi» romanida esa Amudaryo Oks deb atalganining guvohi bo'lamiz. Bundan taxmin qilish mumkinki, Diodor O'rtta Osiyo tarixini o'rghanishda Gerodot ijodiga murojaat etgan.

Aleksandr Araks daryosidan o'tgandan keyin, dahshatli va qo'rqinchli voqeanning guvohi bo'ladi. Eron shohi Doro sakkiz yuzga yaqin kishini bu yerlarga haydab yuborgan, qolganlarini shafqatsiz qirib tashlagan edi. Bu odamlarning birining qo'li qirqilgan, boshqasining oyog'i kesilgan, birining burni, boshqasining qulog'i yo'q edi. Ularning hammasining ahvoli ayanchli edi. Ularning ichida bironqa ham jazo olmagani yo'q edi. Ular yordam so'rab Aleksandrga yalinadilar. Aleksandr ularning ahvolini ko'rib, juda achinadi. Hatto ko'ziga yosh keladi.

Aleksandr ularga yordam beradi. Romanda tasvirlanishicha, Aleksandr bu muhtoj kishilarning har qaysisiga 3000 dirham pul, beshtadan kiyim, 2 juftdan poyabzal, 50 tadan qo'y, 50 puddan bug'doy va boshpana beradi.

Bu epizodda Aleksandrning rahmdilligi, oddiy odamlarga g'amxo'rliqi, insonparvarligi tasvirlansa, bundan keyingi epizodda uning shafqatsizligi, mol-u dunyoga o'chligi, inson bolasiga jabr-jafo keltiruvchi qonxo'r bosqinchi ekanligi tasvirlanadi.

Aleksandr Osiyo shaharlaridan biri Persopol (Eron shohligining poytaxti)ni bosib olgandan so'ng, o'z jangchilariga shoh saroyidan tashqari shaharning hamma boyliklarini talashni buyuradi. Bu shahar Osiyodagi eng boy shaharlardan biri edi. Makedoniyaliklar shaharning barcha erkaklarini o'ldiradi. Juda ko'plab kumush, oltin, qimmatbaho buyumlar, dengiz javohirlari (marvarid)ni o'lja qilib oladilar. Butun

jahonga mashhur bo'lgan shoh saroyining hamma boyliklari talanib, ayanchli holga keltiriladi.

«Makedoniyaliklar kun bo'yи talon-tarоj bilan mashg'ul bo'ladilar. Mol-dunyoga ruju qo'ygan bosqinchilar, boylikka mukkasidan ketib, talashib, bir-birini o'ldira boshlaydilar. Ularning ko'pchiligi o'zaro kelisholmay o'lib ketadi. Hatto onalar ham qilich domiga tortiladi. Xotin-qizlarga zo'ravonlik ko'rsatilib, qul qilib olinadi»¹.

Mana shu epizoddan ham ko'rинib turibdiki, romanda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki xil tasvirga duch kelmoqdamiz. Bu epizodlarning birida odillik, insoniylik haqida hikoya qilinsa, ikkinchisida bosqinchilik, qonxo'rlik, vahshiylikni ifodalovchi voqealarning guvohi bo'lamiz. Darhaqiqat, Diodor o'z asarining qahramoni Aleksandr xarakterida ikki holatni-ijobiy va salbiy xislatlarni jamlaydi. Asarni o'qir ekansiz, bir epizodda Aleksandr g'amxo'r, mehrbon kishilarniadolatga, tinch-totuvlikka undovchi obraz sifatida gavdalansa, boshqa bir epizodda u o'ta qonxo'r, shahar va qishloqlarga o't qo'ygan, qirg'in urushlarning asosiy sababchisi qilib ko'rsatiladi.

Asarda, ayniqsa, Kavkaz o'lkasi manzaralariga keng o'rин berilgan, Girkaniya, Kaspiy dengizi bo'ylarida yuz bergen voqealarni yozuvchi jonli manzaralarda tasvirlaydi. Aleksandr bu o'lkalarga tez-tez tashrif buyuradi. Aleksandrga Girkaniya sohillarining go'zal tabiatigina emas, odamlari ham yoqadi. Girkaniyaliklar Aleksandrga jiddiy qarshilik ko'rsatmasdan, ayrim viloyatlar o'z ixtiyorlari bilan taslim bo'ladilar. So'g'diyona esa dahshatli jang maydoniga aylanadi.

So'g'diyona tabiatni Girkaniya tabiatni kabi go'zal qilib tasvirlanmaydi. Biroq girkaniyaliklar qarshiliksiz, o'z ixtiyorlari bilan vatanini grek-makedonlarga topshirsalar, so'g'diyonaliklar bosqinchilarga qarshi qattiq kurashadilar. Qo'zg'olonlar ko'taradilar. Bir necha bor grek-makedon qo'shinlariga hujum qilib, tinchlik bermaydilar. Romanda so'g'diyonaliklarning vatanparvarlik xislatlari ko'p jihatdan ustun darajada tasvirlanadi. So'g'diyonaliklar o'z el-elatini bosqinchi yovlardan mardonavor turib himoya qiladilar. So'g'diyona yerlariga yovuzlik niyatida qadam bosgan istilochilarga qarshi tinimsiz kurash olib boradilar. Bunday vatanparvarlik kurashiga Spitanen boshchilik qiladi. Spitamen butun So'g'diyonani, qolaversa Baqtriyani, hatto Tanais (Don) daryosi

¹ Diodor. Istoricheskaya biblioteka, str. 98.

bo‘ylarida yashovchi skiflarni ham oyoqqa turg‘azadi. Ularni birdamlikka chaqiradi. Ma’lumki, O‘rta Osiyoda o‘scha davrlarda to‘rtta yirik mamlakat mavjud edi. So‘g‘diyona, Girkaniya, Baqtriya va Xorazm. Grek va Rim tarixiy nasri namunalarining deyarli hammasida xorazmliklarning Aleksandrga qarshi kurashmaganligi, ularning o‘z ixtiyorlari bilan taslim bo‘lganligi tasvirlanadi. Lekin So‘g‘diyona va Baqtriya yerlarida bevosita Spitamen harakatidan tashqari yana bir qancha boshqa vatanparvarlik kurashlari davom etib turgan. Ularning deyarli hammasi Spitamen bilan aloqada bo‘lgan. Chunki, Spitamen harakati nihoyatda kuchayib ketib, hatto Aleksandr qo‘sishnalarini ham ikki marta tor-mor keltiradi.

Diodor asarida Satibarzon haqida ham keng ma’lumotlar berilgan. Qolgan hamma grek va Rim romanlarida Spitamen nomi tilga olinadi. Ko‘pgina joylar nomining ham o‘zgartirib atalishi Diodor romanida uchraydi. Bu shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi joylar masalasiga diqqat bilan e’tibor bermagan yoki o‘rgangan manbalarda shunday chalkashliklar bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Masalaga ikkinchi tomondan yondashadigan bo‘lsak, haqiqatan ham, Satibarzon degan tarixiy shaxs bo‘lgan. U grek-makedon qo‘sishnları ichida xizmat qilib yurib, vatanparvarlik harakatiga yaqindan yordam beradi. So‘g‘diyona va Baqtryadagi birodarlari bilan pinhona bog‘lanib, Aleksandrga qarshi kurash olib boradi. Bu o‘rinda, asarda tasvirlanishicha, Satibarzon Bess bilan birgalikda makedoniyaliklarga qarshi kurash olib borishga kelishadilar. Bundan xabar topgan Aleksandr katta qo‘sish bilan ularga qarshi boradi. Satibarzon Xartakanaxda qo‘sish to‘play boshlaydi. Bu shahar tabiatining go‘zalligi jihatidan ajralib turadi. Bu o‘rinda yozuvchi Xartakanax deganda Maroqand (Samarqand) shahriga yaqin joyni nazarda tutadi. Chunki boshqa grek va Rim tarixiy asarlarida Xartakanax degan shaharning nomini uchratmaymiz. Ikkinci tomondan olib qaraganimizda, boshqa grek va Rim romanlarida Spitamenning, haqiqatan ham, Maroqandda kuch to‘plagini ma’lum qilinadi.

Spitamen o‘zining 2000 otliq jangchisi bilan Bess qo‘sishnları joylashgan o‘lkaga (Baqtryaga) keladi. U qolgan jangchilariga tog‘ga qochishni buyuradi. Bu o‘rinda tog‘ning nomi aniq aytilmagan. Urgut tog‘lari bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Roman muallifining fikricha, bu tog‘lar yashirinish va jon saqlash uchun juda qulay edi.

Aleksandr shundan so‘ng yana Girkaniya-Kaspiy dengizi bo‘ylariga boradi, Drangen viloyatida bo‘lib, Arimasپ yurtiga keladi. Asarda qayd

etilishicha, bu yurting ikkinchi nomi «muruvvatli» degan ma’noni anglatardi. Buning boisi bor. Yozuvchining hikoya qilishicha, Eron shohi Kir o‘zining bir harbiy yurishida fojiaga duch keladi. U o‘zining qo‘smini bilan sahroni kesib o‘tayotganda ochlikka, suvsizlikka yo‘liqadi. Bu sahro (Karmana va Qizilqum cho‘llari bo‘lsa kerak deb taxmin qilinadi) dan na ovqat, na suv topish amrimahol edi. Kirning jangchilari ochlikdan bir-birining go‘shtini yeya boshlaydilar. Kir o‘zining 30000 qo‘smini bilan Arimasp viloyatiga kirib keladi. Armaspliklar Kir qo‘sishinlariga oziq-ovqat va suv hadya etadilar. Bu muruvvati uchun Kir arimaspliklarni turli jazolardan va shuningdek, har xil soliqlardan ozod qiladi. Arimaspliklar Aleksandrni ham xush qabul qiladilar. Arimasp elatiga qo‘smini bo‘lgan gedrospevlar ham Aleksandrga qarshilik ko‘rsatmaydilar. Aleksandr o‘ziga xayrixoh bo‘lgan bu ikki qo‘smini yurda xavf-xatarsiz yurganda, uning ayg‘oqchilari Satibarzonning katta qo‘smin bilan kelayotganini ma’lum qiladi. Aleksandr Satibarzonga qarshi o‘zining sarkardalaridan Erigiya va Stasanarni katta qo‘smin bilan yuboradi¹.

Muhimi shundaki, biz bu o‘rinda Diodor asarini boshdan oyoq ko‘chirib emas, balki uning boshqa tarixiy asarlardan farqli tomonlarini, hatto o‘zga kitoblarda uchramaydigan epizodlarni berishga va tarixiy-badiiy xususiyatlarini tahlil etishga harakat qilyapmiz. Boshqa romanlarda uchramaydigan yana bir epizodni Diodor o‘z asarida shunday hikoya qiladi.

Bu voqeа greklar tili bilan aytiganda, 113- Olimpiada yilda, ya’ni eramizgacha 328- yilda sodir bo‘lgan edi. Ma’lumki, bu tarixiy sana so‘g‘diyonaliklar boshiga og‘ir kunlar, ko‘p kulfatlar keltirgan edi. Bu, tarixiy yilda So‘g‘diyonadagi ko‘plab shahar va qishloqlar vayron qilingan, son-sanoqsiz begunoh insonlar qatl etilgan edi. Boshqa grek va rim nasriy asarlarida bu tarixiy sana qayd etilmaydi. Ifoda va ta’kidlarning yo‘nalishiga qarab, bu voqeа qachon sodir bo‘lganligini anglash mumkin. Diodor esa o‘z romanida voqeanning eramizdan avvalgi 328- yilda bo‘lib o‘tganligini (ya’ni 113- Olimpiada yili) aniq ta’kidlaydi. Kitobda voqeanning qaysi yilda bo‘lib o‘tganligiga izoh berilishi biz uchun ahamiyatlidir. Diodor romanini kabi qadimgi davrlarda yaratilgan asarlarning tarixiy ahamiyati, uning badiiy-estetik ahamiyatiga nisbatan ustun turishi tabiiydir, ya’ni bunday asarlarda tarixiylik o‘ziga xos badiiylik kasb etsa, badiiylik tarixiylikni

¹ O’sha asar, 313- bet.

ta'min etib turadi. Bu holat faqatgina qadimgi grek va rim nasrigagina xos bo'lib qolmasdan, umuman tarixiy mavzudagi adabiy asarlarga ham tegishlidir. Bu ikki holat bir-biri bilan uyg'un keladi. Ba'zi bir epizodlarda, gohida ayrim romanlarda tarixiylik bilan badiylik uyg'un keladi yoki ba'zan tarixiylikning salmog'i ortib ketadi. Ya'ni adib badiiy ifodaga berilib ketib, tarixiy voqelikni unutib qo'yadi. Yoki tarixiy sanalar atrofida aylanib qolib, badiiy tasvirga e'tibor bermaydi. Bu o'rinda tarixiylik so'zini tarixiy voqeа ma'nosida qo'llayapmiz. Biroq tarixiylik, aslida, keng ma'noli tushunchadir.

Eramizgacha 328- yilda bo'lib o'tgan voqealarga diqqat bilan e'tibor bersak, Aleksandrning Narapamisadlar bilan bo'lgan jangi va So'g'diyonanining shimoliy qismida joylashgan bu o'lkaning tasviri romanda o'zining ancha keng ifodasini topgan.

Kitobda tasvirlangan Narapamisad o'lkasi So'g'diyonanining shimoliy qismida joylashgan. Bu o'lkaning tabiat shunday quyuq bo'yoqlarda chiziladi: «Bu yerlarda qor nihoyatda ko'p yog'adi. Qish o'ta sovuq bo'ladi. Uylarning tomi sopol bilan yopilgan. Uy teshiklaridan tutun chiqib turadi. Bu yerlarda yashovchilar o'zlarini sovuqdan saqlash uchun uylarini hamma tomondan o'rab olgan. Yerda qor ko'p saqlanganligi sababli aholi o'ziga oziq-ovqatlarni g'amlab olib, yilning katta qismini xonadonlarida o'tkazadilar. Uzumzorlarni va mevali daraxtlarni sovuqdan saqlash uchun tuproq bilan berkitib qo'yadilar. Kunlar isib ketgandan so'ng yana ularni ochadilar. Aholi yerga ishlov berish va ekish-tikish bilan unchalik shug'ullanmaydi. Hamma yerni qorliklar va muzliklar qoplab yotadi. Ko'pgina jangchilar sovuqqa dosh berolmasdan darmonsizlanib, kuchsizlanib qoldilar. Quyosh nuridan yarqirab tovlangan qor ko'pgina makedoniyaliklarning ko'zini olib qo'yadi. Shunday qiyinchiliklarga qaramasdan, shoh bu yerlarni ham bosib oladi»¹.

Kitobdan keltirilgan ushbu epizod bilan yaqindan tanishsak, muallif bu o'rinda Yevropada, Tanais daryosi qирғоqlarida yashovchi xalqlarning yashash sharoiti, turmushi haqida gapirayotganligini payqab olish qiyin emas. Tarixiy manbalar Aleksandrning rus o'lklarida bo'lmanidan darak beradi².

¹ O'sha yerda, 312- bet. (Aslida bu voqeа Baqtriyada yuz beradi).

² Patanin G.N. Kazak - kirgizskiye i altayskiye predaniye. Legendi skazki. Jurnal «Jivayastarina», № 902, vip.II-III, 1896, str.172.

Arrian esa, «Aleksandrning yurishi» romanining to'rtinchi kitobi avvalida shunday fikrni aytadi. «Yevropada yashovchi bu elat juda katta edi. Aleksandr ular bilan do'stlik aloqalarini bog'lash uchun o'z odamlarini yuboradi. Bu elchilarning asosiy maqsadi ularning tabiatini bilan tanishish, urf-odatlarini bilish qanaqa qurol bilan jang qilishlarini o'rganishdan iborat edi¹.

Aynan mana shunga yaqin bo'lgan epizodni Kvint Kursiy Rufning «Aleksandr Makedonskiy tarixi» romanida ham uchratamiz. «Shoh ular bilan juda muloyim gaplashadi. Bu Yevropa skiflariiga o'zining yaqin kishisi Pendani elchi qilib yuboradi. Shohning elchi yuborishidan maqsadi, yevropaliklarni Tanais (Don) daryosidan beruxsat o'z chegarasiga o'tmasliklari to'g'risida ogohlantirish edi².

Ko'rinish turibdiki, uchala romanda keltirilgan epizodlar qaysidir qirrasi bilan bir-biriga yaqin turadi, qaysi tomoni bilandir bir-biriga o'xshashligi sezildi.

Boshqa grek va Rim nasriy asarlarida So'g'diyonaning milliy qahramoni Spitamenning o'limi haqida turlicha hikoya qilinadi. Ularning birida Spitamenni xotini o'ldirgan deyilsa, boshqa birida Aleksandrning sodiq kishilari, ayg'oqchilari o'ldirgan degan fikr olma suriladi. Diodor romanida esa Satibarzon (yozuvchi Spitamenni shunday nomlaydi) makedoniyalik sarkardasi Eriqiy bilan yakkama-yakka jangda mardlarcha olishib halok bo'ladi³. Albatta, bu voqeanning tarixiy asoslari haqida biror narsa deyish qiyin. Ko'rinish turibdiki, grek va rim adiblari ijodida Spitamenning o'limi haqida turli xil epizodlar yaratilgan. Shular ichida Diodor asarining badiiy umumlashmasi ko'p jihatdan hayotiy chiqqan va uning estetik hamda tarbiyaviy ta'siri kuchi kattadir.

Diodor o'z qahramoni Satibarzonning xotini yoki qandaydir noma'lum shaxs tomonidan o'ldirilishini xohlamagan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham, Satibarzonning yakkama-yakka jangda mardonavor o'limi bilan bog'liq voqealar ancha ta'sirli chiqqan.

Ayrim tarixiy manbalarda Spitamen qaroqchi, isyonkor, behayo, g'alayonchi sifatida tasvirlanadi⁴.

¹ Arrian. Poxod Aleksandra. Izd-vo AN SSSR, M-L., 1962, str. 33.

² Kvint Kursiy Ruf. Istorija Aleksandra Makedonskogo. Izd. MGU, 1963, str. 273.

³ Diodor. Istoricheskaya biblioteka, str. 114.

⁴ N.G. Drayzen. Istorija ellinizma, M., 1896, str. 136.

Bundan ko‘rinadiki, ayrim tarixchilar Spitamen qo‘zg‘olonining va uning vatanparvarlik kurashining mohiyatini to‘liq yoritib bermaydi. O‘rtal Osiyo haqida o‘z asarlarida ancha keng ma’lumot keltirgan Arrian va Kursiy Ruf ham Spitamen harakatiga keng to‘xtalib o‘tmaydi. Diodor asarida esa boshqacha bir holatni ko‘ramiz. Yozuvchining fikricha, Satibarzon (ya‘ni Spitamen) mohir sarkarda va jasoratli inson¹ edi.

Makedonlar bilan so‘g‘diyononaliklar o‘rtasida keskin jang ketadi. O‘z vatanini qattiq turib himoya qilgan so‘g‘diyononalik qullar bo‘sh kelishmaydi. Biroq makedoniyaliklarning harbiy qurollari ustun bo‘lib, Aleksandrning jangchilarini qirg‘in urushlarni ko‘raverib pishib qolgan, harbiy mashqlarni puxta o‘tagan, janglarda chiniqqan edi. Spitamen qo‘shinlari orasida hali jang ko‘rmagan, qo‘liga ilk bor qurol ushlagan oddiy dehqonlar, kosiblar ham bor edi. Buning ustiga, so‘g‘diyononaliklarning qurollari ham oddiy edi. Hatto jang qilish uchun qurol yetishmaganligidan ayrimlari qo‘llariga belkurak va tayoq, panshaxa ushlab chiqishgandi. Shunday bo‘lsa ham, ular mardonavor jang qilib, ona-Vatan uchun hatto o‘limga ham qo‘rqmasdan tik borar edilar. Spitamen jangchilarining mardonavor jang qilayotganidan quvonsa ham qurol-yarog‘larining zaif ekanligidan achinadi. Shuning uchun ham, u «boshidan quloqchinini yechadi-da, makedoniyaliklarning sarkardasini yakkama-yakka jangga chaqiradi. Aleksandr sarkardalari orasida ancha dong‘i ketgan, katta harbiy taktikaga ega bo‘lgan, qilichbozlik mahoratini yaxshi bilgan Eriqiy maydonga tushadi. Ikki o‘rtadagi yakkama-yakka olishuv uzoq davom etadi. O‘zining jismonan baquvvat ekanligini sezgan Spitamen g‘alaba qilishi muqarrar ekanligiga ishonch hosil qiladi. Biroq Eriqiy o‘zining g‘olib raqibiga chap berib, og‘ir janglarda ishlatadigan sirli hunarini ishlatadi-da, Spitamenning ko‘ksiga xanjar soladi»².

Diodor asarining yana bir muhim tomoni shundaki, Spitamen o‘limidan so‘ng So‘g‘diyonada vatanparvarlik harakatining to‘xtab qolmaganini to‘g‘ri ko‘rsatadi. Boshqa asarlarda esa Spitamen o‘limidan so‘ng So‘g‘diyonada go‘yo jang tugaydi. Aleksandr xotirjam bo‘lib, Hind mamlakati tomon yo‘l oladi. Diodor romanida esa, Spitamenning o‘limidan so‘ng So‘g‘diyona vatanparvarlarining kurashi avjiga chiqadi.

¹ Diodor. Istoricheskaya biblioteka, str. 114.

² O’sha asar, 114- bet.

Diodor vatanparvarlik mavzusini o‘z romanida ancha keng tasvirlaydi. Muhimi shundaki, yozuvchi So‘g‘diyonadagi vatanparvarlik kurashini yoqlab chiqadi. Hatto yozuvchining ularga bir qadar xayrioxohlik bilan qaraganligini ham sezish mumkin.

Kitobda tasvirlanishicha, Aleksandr So‘g‘diyona yerlaridan qul qilib olingen kishilarga o‘ta dushmanlik ko‘zi bilan qarab, ularni shafqatsiz jazolay boshlaydi. So‘ngra vatanparvarlar izidan borib, to‘satdan ularga hujum qiladi. Bu jangda ko‘plari o‘ladi. Qolganlari esa, hujum qilmaslik haqidagi shartnomani buzganligi uchun xudoni o‘rtaga qo‘yib Aleksandrni haqorat qiladi. Aleksandr ularga qarab, varvarlar makedonlarning ashaddiy dushmanlari ekanliklarini, shuning uchun ular shaharni tashlab chiqib ketishlarini qattiq turib talab qiladi. Varvarlar Aleksandrning do‘q-po‘pisasidan qo‘rqlaydilar. Shahar himoyachilari jalka shaklida saf tortadilar-da, o‘rtaga xotin-qizlar va bolalarni olib, jangga shaylanadilar. Turli tomondan hujum qilgan dushmanlar bilan yuzma-yuz turib mardonavor jang qiladilar jang nihoyatda dahshatli tus oladi. Ikki o‘rtada qilich-nayza bilan olishuv, hatto mushtlashish avjiga chiqadi. Ko‘plari qirilib ketadi, yarador bo‘ladi. Ayollar erkaklar bilan bir safda turib, matonat bilan jang qiladilar. Ko‘p ayollar halok bo‘lgan erlarining qurollarini olib jangga kiradilar. Ko‘plari qurolsiz jangga kirib, dushmanlarning qurollarini tortib oladilar. Ayollar turli xil yo‘llar bilan makedoniyaliklarning hujumiga qarshilik qila boshlaydilar. Erkaklar va ayollar mardonavor jang qilib, dushman qo‘lida halok bo‘lishini bilsa ham, bu o‘lim ular uchun sharafli ekanini sezib turishardi. Jangda ayollarning ko‘payib ketganligini ko‘rgan Aleksandr urushning befoydaligini aytib, jangchilariga orqaga chekinishni buyuradi¹.

Bu voqeal So‘g‘diyonaning qaysi shaharida yuz berganligi noma‘lum. Ammo bundan ilgari tasvirlangan epizod bevosita Spitamen harakatiga tegishli ekanligini hisobga olsak va yozuvchining katta shahar haqida hikoya qilayotganini nazarda tutsak, voqeaning Maroqandda ro‘y berganligini aniqlash qiyin emas.

Diodor so‘g‘diyonaliklarni matonatlil kishilar deb ataydi. Makedoniyaliklarni esa dushmanlar deb ta‘riflaydi. Shu jihatdan olib qaraganda ham, Diodor asari boshqa adiblarning asarlaridan ustun turadi. Haqiqatan ham, makedoniyaliklarning tutgan pozitsiyasi so‘g‘diyonaliklarga

¹ O‘sha asar, 115- bet.

nisbatan dushmanlik, bosqinchilikdan iborat. So‘g‘diyonaliklarning harakati esa vatanparvarlik mardlik va matonat namunasidir. Biroq ko‘plab grek va Rim tarixiy nasriy namunalarida, masalan Arrian, Ruf asarlarida o‘zgacha holatlarni ko‘ramiz. Bu adiblar ijodida ham so‘g‘diyonaliklarning harakatiga berilgan birmuncha obyektiv bahoni ko‘ramiz. Biroq so‘g‘diyonaliklarning vatanparvarlik harakatiga Diodorda bo‘lgani kabi obyektiv munosabatni sezmaymiz. Diodor so‘g‘diyonaliklarning vatanparvarlik harakatini yoqlaydi, hatto bu yo‘lda kurashib halok bo‘lganlarni ta’riflab, «ular sharafli o‘limga borayotganliklarini payqab turishardi¹», deb yozadi.

Hali biz Diodorning «Tarixiy kutubxona» asariga to‘liq to‘xtalganimiz yo‘q. Ko‘p jihatdan qadim So‘g‘diyonaga tegishli bo‘lgan ayrim xarakterli epizodlarni bayon qilib o‘tdik, xolos. Aslida asardagi So‘g‘diyona bilan bog‘liq Baqtriya va Hind tuprog‘ida bo‘lib o‘tgan voqealar, qonli urushlar tasviri, qirg‘in janglar ta’rifi, shahar va daryolar haqidagi hikoyalar ham o‘quvchilarning e’tiborini beixtiyor o‘ziga jalb etadi.

POLIEN

Poliennenning ijodi jahon madaniyati xazinasida alohida yuksak o‘rin egallaydi. Uning asarlarining tarixiy va badiiy qimmati hali tadqiqotchilar tomonidan chuqur o‘rganilgan emas. Shuningdek, hayotiga oid manbalar ham tiklanganicha yo‘q. «Harbiy hiylalar» (strategem) deb nomlanuvchi sakkiz kitobdan iborat nodir asar Polien nomini jahonga tanitdi.

Poliennenning «Harbiy hiylalar» nomli shoh asarining mohir tarjimoni Dimitriy Pappadopulo yozuvchi ijodini o‘rganishning ahamiyati haqida va umuman yodgorlik bo‘lib qolgan asarlarni asrashning muhimligini ta’kidlab shunday degan edi: «Qadimiylar qimmatbahosha (bu o‘rinda asosan «Harbiy hiylalar» asarini nazarda tutmoqda) qoldiqlarini asrash keyingi avlodlarning Polien oldidagi burchidir»².

Xuddi shu nuqtayi nazardan olib qaraganimizda, qadimgi muarrix yozuvchi ijodi bilan o‘zbek kitobxonlarini tanishtirishni o‘zimizning sharafli burchimiz deb bilamiz.

¹ O‘scha asar, 115- bet.

² O‘scha joyda.

Polien butun ijodiy faoliyati davomida harbiy mavzuda to‘qqiz yuzta asar yozgan. Shulardan bizgacha sakkiz yuz qirq oltitasi yetib kelgan. Garchi harbiy mavzuga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, bu asarlar grek tarixiy nasrining yorqin namunasi hisoblanadi.

Biz Polienning hayotiga oid juda oz ma'lumotga egamiz. Olimlarning aytishicha, u taxminan eramizdan avvalgi II asrda Makedoniyada tug'ilgan. Ma'lumki, Makedoniya davlati bu davrda jahondagi eng gullab yashnagan, markazlashgan madaniyat o'choqlaridan biri edi. Garchi Aleksandr vafotidan keyin mamlakatda ichki nizolar kuchayib ketgan bo‘lsa-da, ilm-fan, san'atining ravnaqi borasida hali o‘z mavqeyini yo‘qotmagandi. Polien bu madaniyat markazida chuqr bilim oladi. Mashhur Aleksandriya maktablarining birida bilim o‘rganadi. Juhon tarixiga oid manbalarni to‘playdi. Ba’zi bir olimlar Polienning yoshligidanoq harbiy kishi bo‘lganligini qayd qilsalar, boshqa birlari bu fikrni inkor etadilar. Polienning harbiy mavzuda asar yozganligini asos qilib, ayrim manbalarda uning mashhur sarkarda bo‘lganligi ham qayd etib o‘tiladi. Polienning ijodi bilan yaqindan tanish bo‘lgan Dimitriy Pappadopuloning qayd etishicha, adib o‘z davrining mashhur huquqshunos (advokat)laridan bo‘lgan¹.

Ma'lumki, huquqshunoslik antik davrlarda, ayniqsa, Makedoniya, Gretsya, Rim kabi yirik davlatlarda oliy imtiyozlardan biri edi. Bu imtiyoz kamdan-kam kishilarga nasib qilardi. Chunki huquqshunoslari, eng avvalo, juda bilimdon, ayni chog‘da, notiqlik san’atidan chuqr xabardor kishilar bo‘lgan. Polien ham notiqlik san’ati, falsafa va tarixdan chuqr bilim olgan. Agar Polien ijodining mahsuli bo‘lgan sakkiz kitob bilan yaqindan tanishsak, uning juda keng dunyoqarashga ega bo‘lganligiga, jahon tarixini chuqr bilganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu kitobda faqat Makedoniya, Gretsya va Rim tarixigina emas, balki jahon tarixiga oid muhim ma'lumotlar berilgan. Zamonasining donishmandi Sundasning xabar berishicha, u notiqlik san’atidan dars bergen.

Polien juda yirik sakkizta kitob yozgan. Bu kitoblar majmuasini umumiy nom ostida «Harbiy hiylalar» deb nomlaydi. Bu asarlarni o‘qir ekanmiz, unda faqat harbiy mahoratga oid dalillar majmuasi yoki jang-u jadallarga oid raqamlar yig‘indisi o‘rin egallab qolmasdan, balki o‘ziga xos badiiy go‘zalliliklarga ham duch kelamiz. Ko‘pgina xalqlarning urf-odatlari, yashash tarzi, tashqi va ichki dushmanga munosabatini o‘rganamiz. Adib

¹ O’sha asar, 8- bet.

o'zidan avval bo'lib o'tgan yaqin va uzoq o'tmishdagi tarixiy voqealarni qalamga olar ekan, vatanparvarlik va matonat kabi yuksak fazilatlarni ulug'laydi. Shu tufayli Polien ijodi faqat harbiy faktlar yig'indisidan iborat deb qarash mutlaqo noto'g'ridir. Polien ijodini o'rganar ekanmiz, undan tarix, jug'rofiya, etnografiyaga oid juda ko'p manbalarni bilib olamiz. Polien ijodiga xos badiiy tasvir vositalarini o'rganishning ham ahamiyati kattadir. Darhaqiqat, antik davrlarda huquqshunoslar va notiqlik san'atini egallagan kishilar o'z zamonasining o'qimishli va savodxon kishilaridan biri bo'lgan; Sakkiz kitob majmuasi bilan tanishar ekanmiz. Polien, eng avvalo, badiiy nasr ustasi bo'lganligini bilib olamiz.

Bizgacha Polien asarlari to'liq holda yetib kelmagan. Ko'pgina sahifalar turli xil sabablarga ko'ra yo'qolib ketgan. Bizga meros bo'lib qolgan boy adabiy merosni varaqlab ko'rар ekanmiz, adibning jahon tarixiga oid juda ko'p narsalarni bilganligiga guvoh bo'lamiz.

Polien to'plagan harbiy sarkardalar hayotiga oid asarlarni sakkizta kitob qilib, ularning oltitasida greklar, yettingchisida eronliklar yurishi va Osiyoda yashovchi boshqa xalqlar, sakkizinchisida esa rimliklar va buyuk ayollar haqida yozgan edi. Birinchi kitob so'zboshisida ma'lum bo'lishicha, u 900 ga yaqin harbiy hiylalarga oid novellalar yozgan. Polien adabiy merosidan bizgacha 846 tasi saqlanib, qolganlari turli xil sabablarga ko'ra yo'qolib ketgan.

Birinchi grek matnnini Isaak Kazavbon nashrga tayyorlaydi va lotin tilida ba'zi bir o'zgartirishlar kiritib, Yusta Vulteya chiqardi. Yuz yildan keyin Delfiya maktabining rektori Pankratiy Massvitskiy ikki qo'lyozma yordamida Polien asarlarini eng yaxshi variantda nashr qiladi. Bu qo'lyozmalarning biri Florensiya kutubxonasida, ikkinchisi esa Troits kengashining Kontabriy kutubxonasida saqlanmoqda. Bu nashrda muallifning ko'p xatolari tuzatilgan, to'ldirilgan va tushuntirish uchun eslatmalar berilgan. Shu nashrga asoslanib Samuil Mursii o'zining lotin tili tarjimasida so'zlar katalogini kiritib, uning yangi nashrini tayyorlaydi.

Umuman olganda, Polienning «Harbiy hiylalar» kitobi badiiy jihatdan o'qimishli, tarixiy jihatdan muhim ahamiyatga molik asardir.

HARBIY HIYLALAR

Polienning «Harbiy hiylalar» asarida biz uchun ahamiyatli sahifalardan biri sharqda Faylaqus nomi bilan mashhur bo'lgan Filipp haqida

qimmatli fikrlar berilgandir. Yozuvchi Filippning harbiy taktikasi haqida to'xtalar ekan, eng avvalo, uning xarakteri, ruhiy dunyosi haqida muhim fikrlarni aytib o'tadi. Bu Polien ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Ya'ni Polien ko'proq tarixiy shaxslarning xarakterini ochib berishga e'tibor beradi. Bu jihatdan Polien ijodi boshqa grek-rim tarixchilari ijodidan ajralib turadi. Masalan, yozuvchi Filipp xarakteridagi bir muhim xususiyat haqida to'xtalib shunday deydi.

Filipp Meneget bilan gimnastika bo'yicha musobaqalashayotgan paytdajangchilar undan pullarini berishni talab qiladi. Shunda Filipp terini artib, kulimsirab puli yo'qligini bildirmay deydi: «Talabingiz to'g'ri, axir men ham sizlarni yaxshi mukofotlash uchun dushmanlar bilan urishyapman deb qo'llarini ko'tarib, ular ishiga aralashadi, so'ngra, hazil-mutoyiba bilan ularni ko'ndiradi. Keyin jangchilar chaqchaqlashib qaytib ketishadi. Ko'pincha Filipp obrazli kulgi bilan mana shunday qilib ular qo'ygan talabni unuttirar edi.

Filipp dushmanni chalg'itish niyatida Makedoniyadagi Antipatrga yolg'on mazmundagi, ya'ni Amfissiyaga yurishi boshqa kunga qolgani, hozir esa qo'zg'oltonni bostirish uchun Frakiyaga yurishi to'g'risida xat yuboradi. Xatni olgach, amfissiyaliklarning xotirjam bo'lganidan foydalanib, Filipp to'satdan hujum boshlaydi-da, harbiy boyliklarini talab, Amfissiyani zudlik bilan egallaydi. Bu o'rinda Filippning o'ziga xos harbiy taktikasi haqidato'xtalib, shunday deydi: «Filipp dushmanni necha marta qurol kuchi bilan yenggan bo'lsa, shuncha marta chalg'itish va so'z bilan yenggan. U ko'proq so'z orqali chalg'itish yo'li bilan bo'lgan g'alabani yaxshi ko'rardi. Chunki bunda ko'proq o'zining hissasi bo'lar edi».

Yozuvchining ta'kidlashicha, Filippning harbiy muvaffaqiyatlarga erishuvida uning faqat so'z ustasi bo'lganligi kifoya bo'lib qolmay, jangchilarni muttasil ravishda jismoniy jihatdan chiniqtirib borganligi ham ta'kidlanadi.

Poliennen asarida, ayniqsa, Aleksandr Makedonskiy haqida bergen ma'lumotlari diqqatga sazovordir. Otasi Filipp kabi Aleksandrning ham harbiy mahorat egasi bo'lganligi, hatto ko'p jihatdan otasidan ham ustun ekanligi haqida so'z yuritadi. Shuningdek, yozuvchi Aleksandr bosib olgan o'lkalar va u yerlarda joriy qilingan intizom va qonunlar, sarkardaning o'ziga xos salbiy va ijobiy xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Aleksandr butun dunyoni o'z hokimligiga bo'ysundirish uchun odamlarning sharaf bilan o'lganlarini, hatto ba'zi bir aqlli hayvonlarni Aleksandritlar deb atash lozimligi haqida hukmini joriy qiladi. Aleksandr urush vaqtida jangchilarning soqollarini oldirib, so'ngra jangga chorlardi, chunki dushman soqollaridan osongina ushlab g'olib bo'lmasligi uchun, deb yozadi Polien.

Yozuvchining ta'kidlashicha, Aleksandr boshqa sarkardalar singari chetdan turib buyruq berish yoki uzoqdan jangni kuzatish bilan kifoyalanib qolmasdan, gohida o'zi jangga kirib ketardi. Hatto o'z jangchilarini bilan og'ir yumushlarni ham qilib, jasurlik bilan eng xatarli yo'llarga ham borardi. Bu jangchilar uchun katta ruhiy madad bo'lib qolmasdan, ibrat maktabi ham sanalardi.

Aleksandr Tirni qurshov qilayotganida qal'a devorlarga chiqish qiyin edi, shuning uchun qumdan chiqish zinapoyasi qilishni buyurib, o'zi birinchilardan bo'lib qum tashiy boshlaydi. Buni ko'rgan ayrim ya'qov jangchilar ham ishga tushib ketishadi. Polien asarida makedonlar bilan eronliklar o'rtaсидаги jang epizodlari haqida ham qiziqarli sahifalar mavjud. Ularning birida aytishicha, Doro bilan bo'lajak og'ir jangdan oldin Aleksandr jangchilarga shunday buyruq berdi. «Eronliklarga yaqinlashganingizda tiz cho'kib qo'llaring bilan yer kovlay boshlaysizlar, signalni eshitib, birdaniga turib dushmanha hujum qilasizlar». Jangchilar xuddi shunday qilishadi. Buni ko'rgan eronliklar, jangsiz taslim bo'lyapti deb o'ylab xursand bo'lganidan jangni to'xtatishadi. Makedonliklar to'satdan hujum qilib, ularni yengadi va qochishga majbur etadi.

Asarda ta'kidlanishicha, Aleksandr Doro bilan oxirgi marta Arbellada jang qiladi. Eronliklarning bir otryadi makedoniyaliklarni aylanib o'tib, ular tomoniga hujum qiladi. Parmenion Aleksandriga shu karvonga yordam qilishni maslahat beradi. Shunda Aleksandr shunday deydi: «Agar biz karvondan ajrasak ham qo'shinni ikki qismga bo'lmay, dushmanni ta'qib qilishda davom etamiz. Shunda biz ham karvonni saqlab qolamiz, ham dushman narsalari qo'limizga tushadi».

Eronliklar bilan bo'lgan jangda g'alaba qozongan makedoniyaliklar muvaffaqiyatlar oldida esankirab, maqtana boshlashadi. Bundan xabar topgan Aleksandr tadbirkorlik bilan ularni tinchitadi.

Osiyoni egallashda g'alaba ustiga g'alaba qilayotgan jangchilar Aleksandriga shunday deb maqtanishadi: «Hammasi biz tufayli, shuning uchun bizning aytganimizni, talabimizni bajarasan». Shunda Aleksandr

makedoniyaliklarni ajratib, o'zi forslar tomonga o'tib, shunday deydi: «Agar o'zlaringga xohlagan odamlaringni boshliq qilib, forslarni yengsalaring, unda men talablarining bajarishga roziman». Shunda jangchilar o'zlariga ishonmay, qo'rqqanlaridan bu fikrlardan qaytadilar. Bu o'rinda yozuvchi janglar davomidagi g'alabalarda Aleksandrning muhim o'rinni tutganligini ta'kidlaydi. Yozuvchi Aleksandrning o'z jangchilarini jangga undash qobiliyati bo'lganligini aytib o'tadi.

Aleksandr forslar bilan birinchi jangda chekinayotgan jangchilariga qarab: «Makedoniya yigitlari yana bir qadam olg'a, yana bir marta dushimanga zarba bersak bo'ldi» deb ularni ruhlantirdi. Ruhlangan jangchilar chekinishdan to'xtab, birdaniga hujumga o'tib, dushmanni quva boshlaydi.

Yozuvchi o'sha davrdagi qirg'in urushlarning bo'lishiga sabab boylik orttirishdan iboratligini uqtiradi. Jangchilar ham boylik orttirib o'z ona yurtlariga qaytish niyatida bo'lган.

Hindistonga kirgandan keyin Aleksandr qarasaki, jangchilar forslardan qo'lga kiritgan o'ljalarini zo'rg'a ko'tarib, hindlarga qarshi yurishga unchalik tobi yo'qday. Shunda u birinchi bo'lib o'zining shohlik o'ljalarini, keyin esa jangchilarinikini yoqib yuboradi. Yengillashgan, jangchilar yangi o'ljani qo'lga kiritish uchun jangga kiradilar.

Behisob boylik to'plagan jangchilar jonlarini saqlashga harakat qilib, jang qilishga xohishlari so'ngan. Buni sezgan Aleksandr tadbirkorlik bilan shunday yo'l tutgan edi¹.

Polien ijodidagi hikoyatlarning deyarli barchasi qadimgi davr grek va Rim tarixiy nasrida o'ziga xos ravishda bayon etilgan. Mana shu faktning o'ziyoq, Polienning realist yozuvchi bo'lganligidan dalolat beradi. Adib turli xil yolg'on-yashiq gaplardan qochib, haqiqatdan so'z ochishga intiladi. Shu jihatdan quyida Kursiy Ruf asaridan keltirilgan parcha yuqorida biz bayon etgan Polien asariga juda o'xshash. Bunday o'xshash tarixiy sujetlarni qo'shib, undagi tasvirlangan voqealarning tarixda bo'lib o'tganligiga yana bir karra ishonasan kishi. Aleksandrga lashkar og'ir yukli bo'lganligi tufayli oldinga qarab tez harakat qila olmasligi haqida Satibarzon tömonidan xabar yetib keladi. Buni sezgan shoh avval o'zining yukini, boyligini, keyin lashkarlarinikini bir joyga toplashga buyruq beradi.

¹ O'sha asar. 233- bet.

Hayvonlarni saqlab qolib, eng zarur narsalardan tashqari hammasini yoqib yubordi. Boshqalarga ibrat bo'lsin uchun birinchi bo'lib o'zinikini yoqadi. Yoqilgan narsalar ichida qimmatbaholari bo'lsa-da, ammo hech kimga alam qilmaydi, chunki shohning boyligi ham yondirilgandi. Shu damda shohning qisqa va hayajonli nutqi hammani tinchlantiradi va jangchilar xizmatga tayyorligini aytadilar, ortiqcha yukdan xalos bo'ldik, lekin tartib-intizom joyiga tushdi, deyishadi ular¹.

Fessaliyaliklar Tempey daryosidan o'tish yo'llini to'sib turadilar. Shunda Aleksandr Ossey tog'i cho'qqilarini kesib, zinapoya qilib tog'dan o'tadi va Fessaliyani egallaydi. Bu Aleksandr zinapoyasi hozir ham saqlanib qolgan va u yerga borgan sayyoohlар buni ko'rishlari mumkin.

Yozuvchi Aleksandrning o'z jangchilari va dushmanga munosabati xususida ham qiziqarli faktlarni keltirib o'tadi.

Aleksandr, adolatli yo'l tutib, makedoniyaliklarni va greklarni juda oddiy yo'l bilan, lekin vahimali, hammani titratadigan dahshatli holatda sud qilardi.

Dushmanni esa tantana bilan, ya'ni chodir ichida o'rtada sudya, bir tomonda shohning o'zi qo'riqchilari bilan, boshqa tomonda alvon kiyimda forslar, jangchilar hammasi oltinlar bilan bezatilgan kiyimda, tashqarida minglab makedoniyaliklar turar edi. Chodir juda katta bo'lib, 50 ta oltin ustunga tortilgan edi.

Polien Aleksandrni faqat bosqinchi sifatida ta'riflab qolmay, balki uning insonparvar bo'lganligi, adolatli hukmlar chiqarganligi haqida ham to'xtaladi.

Polien Aleksandrning ikki tomonlama hujum qilish mahoratini quvvatlaydi. Bu haqda boshqa tarixiy manbalarda ham ko'pgina jang tafsilotlari berilgan.

Aleksandr bir tomondan shiddatli jang boshlab, ikkinchi tomondan dushmanning orqasiga sezdirmasdan pinhona o'tib to'satdan hujum qiladi. Ikki tomondan qilingan hujum zarbidan duishman sarosimaga tushib qolib osongina taslim bo'lar edi. Aleksandrning bunday ikki tomonlama hujum takifikasi haqida Polien shunday yozadi:

«Aleksandr Arbelda Doro ustidan g'alaba qozonadi. Shunda Doroning eng yaqin qarindoshi Frassaort ko'p minglik forslar qo'shini bilan Suz daryosini egallab oldi. Ular tog' ustida turib pastdag'i makedoniyaliklar

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 233- bet.

ustidan toshlar otadi. Shunda Aleksandr jangchilarni bir joyga yig'ib, mustahkam qo'rg'on quradi. Lik ismli cho'pon kelib ularga yo'l ko'rsatishini aytadi. Bu haqda Aleksandrga Apollon ilgari aytgan edi.

Aleksandr Likka ishonib, uning orqasidan, qo'shining bir qismini qoldirib, qolgan bilan tog'dan o'tadi va aylanib kelib kechasi forslarga hujum qiladi. Pastdan esa Gefestion va Filot boshtiq makedon qo'shirlari hujum boshlaydi. Shunday qilib, ikki tomondan qurshab olingan, tog'liklarning bir qismi asirga olinadi, qolganlari jangda halok bo'lib, ayrimlari cho'qqidan tushib ketadilar¹.

Bu o'rinda yana bir parchaga e'tiborni jalb qilish kerakki, bu parcha uchala voqeа tasvirida ma'lum darajada o'xshashlik borligidan tashqari, tarixiy voqealarning Parsiya, Girkaniya va So'g'diyona yerlarida bo'lib o'tganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari uchala voqeа bayonida ham, agar diqqat bilan e'tibor bersak, Aleksandrga tog'ning orqa tomoniga o'tish yo'lini mahalliy qabila vakillari ko'rsatadi. Bundan ko'rindaniki, Aleksandr O'rtा Osiyo yerlarini yaxshi bilmagani uchun mahalliy xalq ichidan o'zi uchun sadoqatli kishilarni topib, ulardan turli maqsadlarda toydalangan. Mahalliy kishilar bilan yaqinlashish yo'llarini qidirgan. Polien hatto bunday yo'l ko'rsatuvchi kishi, Lin degan odam bo'lganligini ham aytib o'tadi.

O'rta Osiyo tasvirini beruvchi grek va Rim tarixiy nasrida voqealar bir-biriga juda bog'lanib ketgan. O'z navbatida, bunday voqealarning bog'lanish nuqtasini topish ko'p jihatdan ahamiyatlidir.

Polien asarida Girkaniya va So'g'diyona haqida ayrim ma'lumotlar berib o'tiladi. Masalan, makedon-grek jangchilari Girkaniyaga kelganlaridan keyin uylariga qaytish niyatida g'alayon ko'taradilar. Aleksandr bu g'alayonni tadbirkorlik bilan osongina bostiradi, Adib bu haqda shunday yozadi:

"Aleksandr Girkaniyaga kelganida bu yerda makedoniyaliklar va greklar o'itasida u haqda yomon mish-mishlar borligini biladi.

So'ngra u yaqin odamlarini yig'ib, uyiga 3 yildan keyin borishligi haqida xat yozishini buyuradi, Xat olib ketuvchilarni yo'lda to'xtatib, xatlarni birma-bir o'zi ochib o'qiydi. Bu xat orqali jangchilarning o'z shohi haqidagi fikrlari qanday ekanligini bilib oladi?".

¹ O'sha asar, 231- bet.

² Polien. O'sha asar, 228- bet.

Polien keltirib o'tgan bu lavha, haqiqatan ham, tarixda bo'lib o'tganligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin. Fikrimizning isboti uchun tarix sahifalariga murojaat qilamiz. Kursiy Ruf o'zining «Aleksandr Makedonskiy tarixi» asarida xuddi shunday bir tafsilot bayonini berib o'tadi. Unda hikoya qilinishicha, ayrim jangchilar shohdan norozi bo'lib yurganligi haqidagi xabarni eshitib ularning huzuriga keladi. Agar uylariga xat yozsa, xatni shohning tayinlagan chopariga bersalargina, bunday xat, albatta, yetib borishini, o'zga kishilarga berilgan xatning yetib borishi gumonligini aytadi. Har bir jangchi o'zining qarindoshiga yoki uyiga bu uzoq ellarda bo'lgan voqealarni, shohga nisbatan munosabatlarni ochiqoydin yozardi. Bu xatlar shohning sodiq choparlari orqali Aleksandrga yetkazilar va shoh shunga qarab xulosa qildi. Agar kiunda kim xizmatidan nolib yoki shohning sha'niga haqoratlar aytib yozsa, albatta, qattiq jazolanardi. Gohida norozi jangchilar birinchi bo'lib janga yuborildi. Bunday gunohkor jangchilar esa o'zlarini oqlash uchun zo'r berib jang qilishardi.

Bunday bir xil mazmundagi tarixiy dalillarni qiyosiy o'rganishda davom etamiz. Bunday o'xshash mazmunli dalillar qanchalik ko'p bo'lsa, tarixiy voqelikning haqiqatga yaqinligi shunchalik ravshan bo'ladi. Yustinning «Pompey Trog epitomi» asarida ta'kidlanishicha, Aleksandr o'z vataniga g'alaba elchilarini yuborib, o'zining jangda qo'lga kiritgan muvafiqiyatlari haqida vatandoshlariga so'zlab berishni buyuradi. So'ngra o'z vatanidan tobora uzoqlashib borayotgan jangchilarga qarindoshlariga xat yozishga ruxsat beradi. Yig'ilgan xat to'plamlarini esa pinhona shoh qabuliga olib kelishni buyuradi. Bu xatlarni o'qib, o'zining sha'niga aytilgan haqorat fikrlarni bilib olib, shoh haqida eng yomon fikrga ega bo'lgan jangchilarni qarorgohiga yig'adi. Keyinchalik ularni o'lim jazosiga mahkum etib, ayrimlarini eng chekkadagi o'lkalarga bo'lib yuboradi¹.

Shundan so'ng grek-makedonlar o'z yurtlariga, yaqin va qarindoshlariga umuman xat yozmay qo'yadilar. Ayrim yozganlari ham Aleksandrni ulug'lab, uning haqiga duo o'qib, uzoq ellarda baxtiyor yurganliklariga shukrona bayon qilishardi. Bunday mazmundagi xatlar albatta, yetib borardi. Garchi keyinchalik Aleksandr bunday maktublar mazmuni bilan umuman qiziqmay qo'ygan bo'lsa-da, uning jangchilari endi o'ylab xat yozishga odatlanadilar.

¹ Yustin. Pompey Trog epitomi. Vestnik drevniy istorii, 1954. № 3, str. 215.

Yozuvchi o'z asarida Aleksandr davridagi va hatto Eron shohi Kir (eramizdan avval V asp) zamonasidagi taomlar haqida ham to'xtalib o'tadi.

Bir kuni Aleksandr Eron shohi saroyida shohning tushlik va kechqurungi ovqatlari ro'yxatini hamda Kirning farmoyishlarini ko'rib qoladi. Ro'yxatning mazmuni bunday edi:

«Toza bug'doy uni 400 artab, II-III sortidan 300 artabdan, hammasi bo'lib 1000 artab. Eng toza arpa uni 200 artab, II va III sortidan 400 artabdan, hammasi bo'lib arpa uni ham 1000 artab. Krupali undan tayyorlangan nondon 200 artab, eng mayda, ya'ni pivo tayyorlanadigan arpa aralash undan 10 artab, 400 ta qo'y, 100 ta ho'kiz, 30 ta yilqi, 400 ta boqilgan g'oz, 600 ta har xil qushlar, 300 ta qo'zichoq, 30 ta vovvoyi echki. Toza sutdan 10 mariy, achitilgan sutdan 10 mariy, bir talant sarimsoq piyoz, yarim talant piyoz, silfiya sharbati, olma murabbosidan yarim artaba, qora uzumdan 3 talant, ukrop 3 mina, vino 5 mariy.

Tuz 10 artab, quruq ukrop 300 min, petrushka o'rindi 4 kapotin, mol yog'i 5 mariy, shirin mindaldan 3 mariy, shirin quruq mindaldan 3 artab, vino 500 mariy, Bobil yoki Suzdag'i kechki ovqatga yarmi funikli, yarmi uzum vinosidan olib kelar edilar¹.

Ikki yuz arava o'tin, boshqa materiallar 100 arava, sut asaldan 100 yashik. Midiyadagi kechki ovqatga quyidagilar: «krapiva o'rindi 3 artab, shafran 2 min, bug'doy uni 500 mariy, arpa uni 1000 artab, eng toza krupa uni 500 artab, shu undan tayyorlangan non 500 mariy, mol uchun arpa 20000 artab, hashak 5000 arava.

100 mariy uksus, yuqoridagi oziq-ovqatlarning bir qismi jangchilarga berilsa, qolgan qismi, shohga va sarkardalarga berilar edi. Makedoniyaliklar bunday ulkan tushki va kechki ovqatdan hayron bo'ladilar. Aleksandr esa ular ustidan kuladi. «Chunki,- dedi u, - bunday ovqatlangan jangchilar va shoh yaxshi jang qila olmaydi va osongina yengiladi»².

«Harbiy hiylalar» asaridan o'rin olgan Eron shohlari Kir va Doro haqidagi hikoyatlar, ularning harbiy mahoratlari haqida qaydlar diqqatga sazovordir.

¹ Polien. O'sha asar, 239- bet.

² O'sha asar, 240- bet.

Uch marta hujum qilib Midan shahrini qo'lga kirlita olmagan Kir, to'rtinchi marta yana hujum qiladi. Jangchilar ham bunga rozi bo'lishadi. Chunki u yerda ularning xotinlari, bola-chaqalari bor edi. Bu safar Kir shiddat bilan Midanni egallaydi.

Kir tadbirdorlik qilib Krez bilan yarash bitimini tuzib, orqaga qaytadi. Lekin kechasi yana kelib, Krez qo'shinining xotirjamligidan foydalanib, to'satdan hujum qiladi. Kir ularning qal'asini qurshab olib, qal'a himoyachilarining qarindosh-urug'larini asir oladi-da, agar ular qal'ani topshirmasa asirlarni osish va og'ir jazoga hukm qilishini aytadi.

Shundan so'ng ular qal'ani o'z ihtiiyorlari bilan topshiradilar.

Kir Krezni asirga olganidan keyin Bobilga jo'naydi. Mazar Midiyiskiyini esa Lidiya viloyatini egallashga yuboradi. So'ngra Lidiya viloyatidagi erkaklarni o'q otish, otda yurish, jang qilishni unutishlari uchun ayollar ishini bajarishga majbur qiladi. Haqiqatan ham, ilgari nihoyatda urushqoq va jangovar bo'lgan Lidiya xalqi harbiy yumushlarni unutadi.

Kir yangi bir harbiy hiyla o'ylab chiqib, Krezga hujum qilar ekan. Krezda otliq askar ko'p ekanligini ko'rib, ularga qarshi tuyalarni qo'yib yuboradi. Chunki otlar tuyalardan qo'rqrar edi. Shuning uchun tuyadan hurkib, otlar askarlarini yiqitib orqaga burilib boshqa jangchilarni ham bosib-yanchib qocha boshlaydi. Shunday qilib, Kir jangsiz g'alabaga erishadi.

Kir forslarni midiyaliklardan olib o'ziga bo'ysundirish uchun forslarga yer beradi va ishdan keyin ularni yaxshilab mehmon qiladi, so'ngra ulardan so'raydi: «Kimning qo'l ostida ishlash yaxshidir?» shunda forslar Kir tomonga o'tib uni o'zlarining shohi deb tan oladilar. Keyinchalik Kirning sarkardaligida ular Midiyani yengadi va Osiyoning bir qancha viloyatlarini bo'ysundiradilar.

Keyinchalik Midiyadan yengilgan Kir Pasargad tomon chekinadi. Buni ko'rgan forslar esa midiyaliklar tomonga o'ta boshlaydi. Bundan tashvishga tushgan Kir ularga qarab shunday dedi: «Ertaga bizga 100 ming kishilik qo'shin yordamga keladi. Shundan so'ng Kir kechasi jangchilarga hamma tomonga gulxanlar yoqishini buyuradi. Buni ko'rgan midiyaliklar Kirga qo'shinlar yordamga kelgan deb o'ylab, qochib ketadilar.

Sartlarni qurshab olgan Kir, qal'a devorlariga yog'ochdan yasama jangchilarini qo'yib o'zi shaharning boshqa tomoniga ketadi. Ertalab fors jangchilari ko'rsaki, qal'a devorlariga Kirning jangchilari chiqib olishgan.

Yasama jangchilar ekanligini sezmay vahimaga tushgan Krezning jangchilar darbozalarni ochib qocha boshlaydi. Kir esa osongina sartlarning ustidan g'alaba qiladi.

Tang ahvolda qolgan Arpang bir kuni Kirga mahfiy ravishda xat yuborish uchun xatni quyonning qorniga soladi va yo'lda hech kim sezimasligi uchun bu quyonni olib boradigan odamga ovchining kiyimini kiydiradi.

Krez greklardan keladigan yordam kechikayotganidan tashvishga tushadi. Kirning xavf tug'dirayotganini sezib eng kuchli, bo'yи uzun jangchilariga greklarning kiyimlarini kiydirib, quro'l-aslahalarini taqdiradi. Grek jangchilarini ko'rgan Kir yordamchi kuch yetib kelgan bo'lsa kerak deb vahimaga tushadi. Shuning uchun Kir uch kunga Krez bilan sulh tuzishga majbur bo'ladi.

Polien asarida O'rta Osiyoda yashagan skiflar va sak qabilalarining tadbirdor bo'lganligi haqida ham ma'lumotlar bor. Doro skiflar bilan jang qilayotgan vaqtida ularning oldidan bir quyon chopib o'tadi. Shu mahal skiflar quyonni beparvogina quvib ketadi. «Demak, - deb o'ylaydi Doro, - skiflar kuchli ekan, chunki bizga e'tibor ham qilmay quyonni quvib yuribdi. Tezda bu yerdan qaytish kerak» degan qarorga keladi.

Doro birinchi bo'lib, qo'l ostidagi xalqlarga soliq solishga kirishadi. O'zini yomon ko'rsatmaslik uchun soliq hajmini aniqlash va uni yig'ishni hokimlarga topshiradi. Ular qo'l ostidagi xalqqa katta soliq soladi. Doro yig'ilgan soliqlarning yarmini xalqqa qaytarib beradi. Bundan xursand bo'lgan xalq endi yarmini o'zlari olib keladigan bo'ladi.

Doro skiflarni yengishiga ko'zi yetmay, chekinish haqida o'ylay boshlaydi. Buning ustiga, oziq-ovqat ham oz qolgan edi. Skiflarni aldash uchun qarorgohini o'z joyidan ko'chirmaydi. U yerdagi eshak va otlarni to'plab, qarorgohda yana bir necha jangchini qoldiradi. Ularga kechasi bir necha joyga gulxan yoqishni buyurib, o'zi asosiy qo'shin bilan chekinadi. Skiflar buni sezmaydi, kechasi yongan gulxan va shov-shuvlarga ko'ra hali dushman shu yerda deb o'ylaydi. Keyinroq skiflar bu Doroning hiylasi ekanligini sezishadi. Biroq endi Doroni quvib yetish qiyin edi.

Saklarning bir otryadini qo'lga olgan Doro, o'z jangchilariga ularning kiyimlarini kiydirib saklar oldiga jo'natadi. Bularni saklar yordamga kelgan do'stlarimiz deb kutib oladilar. Shunday qilib, saklarning qolgan otryadlari ham tor-mor qilinadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida afsona deb nomlanadigan «Shiroq» hikoyati

ham Polien asari orqali bizgacha yetib kelgan. Unda hikoya qilinshicha, Doro saklarni o'rab olganida, ularning sarkardalari Sakesfar, Omarga va Famirns o'zaro maslahatga to'planishadi. Shunda ularga Sirak degan otboqar kelib, agar mening bolalarimga uy va ko'p pul bersalaring men Doro qo'shinlarini yolg'iz o'zim yo'q qilaman, deydi.

Saklar bunga rozi bo'lishadi. Sirak shu yerdayoq pichoq bilan burnini, qulog'ini va boshqa joylarini kesib, yo'lga tushadi va Doro huzuriga achinarli ahvolda kelib, meni shu ahvolga solgani uchun saklardan o'ch olishim kerak, buning uchun sizlarga yordam beraman, deydi. Doro uning gapiga ishonadi. Shunday qilib, Doro qo'shiniga yo'l ko'rsatuvchi bo'lib, ularni uzoq bir cho'lga boshlab boradi. U yerda na suv, na bir daraxt bor edi. Harbiy boshliq Ranosbat Sirakdan «Bizni qayerga olib kelding» deb so'raydi. Shunda Sirak kulib deydi: «Men sizlarni yengdim. Bu bilan hamyurtlarim saklarga yordam berdim». Buni eshitgan Ranosbat darhol Sirakning boshini tanidan judo qiladi. Shunda Doro Apollonga suv yetkaz deb iltimos qiladi. Shundan so'ng cho'lga yomg'ir yog'adi va ko'p jangchilar o'limdan qutqariladi. Shu bilan Baqtriya daryosiga yetib oladilar.

Doroning skiflar yurtiga yurishi haqida ko'plab rivoyatlar mavjud. Ularning deyarli barchasida ham Doroning skiflardan yengilganligi hikoya qilinadi. Polien keltirgan «Shiroq» («Sirak») hikoyatida Doro qo'shinlarining skiflar tomonidan tor-mor etilganligi bayon qilinsa, Gerodot asaridagi «Doroning skiflar o'lkasiga yurishi» hikoyatida skiflar bilan bo'lgan jangda Doroning bevosita o'zi qatnashadi.

Har ikkala tarixiy hikoya ham mazmunan g'oyat boy bo'lib, bunday hikoyatlarni o'rganishning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ular o'quvchini bobokalonlari singari jasur va mard, vatanparvar va erksevar bo'lishga undaydi.

- Osiyo gullab yashnagan, ko'p sonli aholiga ega bo'lgan, badavlat o'lka edi, - deb boshlaydi o'z hikoyasini Gerodot. Doro skiflarni o'ziga qaram qilishni juda xohlar edi. Skiflarning na shahri, na qal'asi bor, ko'chishga moslashtirilgan uylari mavjud edi, xolos.

Skiflar ot ustidan o'q otishga juda usta bo'lib, asosan chorvachilik bilan shug'ullanishardi. Bepoyon tekisliklari o't-o'lanylarga juda boy edi.

Doro ularga qarshi yurish boshlaydi. Oldin choparlarni, so'ngra ularning orqasidan piyoda lashkarlarni yuboradi. Bosfor dengizi bo'yalarida esa kemalarni shaylaydi. Har tomonlama hujum rejalarini taxt bo'lgandan so'ng, Suz shahridan katta qo'shin bilan yo'lga tushadi. Bosfor (Qora

dengiz)ga yetib kelgandan so'ng kemalarga o'tirib, Simplegada (kemalar o'tish uchun xavfli bo'lgan orol) tomon suzib ketadi. U qirg'oqqa joylashgan ibodatxonaga keladi-da, Pont deb ataluvchi nihoyatda go'zal dengiz manzarasini tomosha qiladi. Eni 4 stadiy keladigan Bosfor bo'g'ozi Marmar dengiz deb ataluvchi Prodonditgacha cho'zilib ketgan bo'lib, eni 4 stadiy va uzunligi 400 verst keladigan Gellespontomga qo'shilib ketardi. Gellespontom Egey deb ataluvchi katta bir dengizga qo'shiladi.

Doro Pont manzarasini ko'zdan kechirgandan so'ng, samoslik Mondrokl tomonidan qurilgan ko'prikl keladi. Bu ko'prikl Doroga juda manzur bo'lgani uchun u Mandroklni oliv in'omlar bilan taqdirlaydi. Mandrokl Bosfor ko'prigiga Doroning taxtda o'tirgan holatini va shohning ko'priklidan o'tayotgan, qo'shinlarini kuzatayotgan paytini tasvirlaydi. Bu surat tagiga shunday deb yozib qo'yilgan edi:

«Mandrokl tomonidan baliqlar mo'l-ko'l Bosforga ko'ringan bu ko'pri yodgorlik sifatida Doroga bag'ishlanadi. Shoh Doroning hukmini halol bajargani uchun u o'ziga gulchambar, samosliklar uchun esa abadiy shon-sharaf keltiradi». Shunday qilib, Doro Yevropa tomon yurishni davom ettiradi. Ionlarni Pont Istr tomon, Dunay daryosining bir necha irmoqlarga bo'linuvchi (bu yer ikki kunlik masofa edi) joyiga ko'priq qurish uchun yuboradi.

Istr Yevropaning g'arbiy qismiga joylashgan keltlar yeridan tortib, butun Yevropa bo'ylab oqardi. Yilning sovuq oylarida daryoning suvi ancha sayozlashib qolardi, chunki bu vaqtida, yomg'ir juda kam bo'lib, ko'proq qor yog'ardi. Quyoshli kunlarda esa qorlar erib, har tomonidan toshqin suvlar kelib qo'shilardi-da, daryoni to'ldirib yuborardi. Buning ustiga, yozda kuchli yomg'ir yog'ardi.

Doro Istr qirg'oqlariga kelib, uning barcha qo'shinlari daryoga qurilgan ko'priklidan o'ta boshlaydi. Shunda Doro ionlarning sarkardasini chaqirib, unga 60 tugundan iborat tasmani beradi-da, shunday deydi: «Mana sizlarga tasma. Men skiflarga qarshi ketyapman. Shu bugundan boshlab bu tugundan har kuni bittadan yechasizlar. Agar men shu tugunlar tugaguncha qaytib kelmasam, o'z yurtlaringga ketaveringlar. Bu davr ichida ko'priklni mustahkam qo'riqlab, himoya qilinglar. Bu o'zlarining uchun ham foydalidir».

Skiflар ochiq jangda Doro qo'shinlariga bas kelolmasligini anglab, qo'shni elatlarga yordam so'rab elchi yuboradi. Shohlar o'zaro kengashib, Doroga qarshi ochiq jang qilishda zaif ekanliklarini aytadilar. Shunday

qilib, skiflar yo‘lda uchragan buloq va quduqlarni ko‘mib, o‘t-o‘lanlarni quritib, chekina boshlaydilar.

Izma-iz quvib kelayotgan Doro qo‘sishnleri kechasi xorib-charchab, tamaddi qilishayotganlarida skiflar qo‘qqisdan hujum boshlaydilar. Skiflarning otliq qo‘sishnleri hamma vaqt eroniylarning otliq qo‘sishnleridan ustunlik qilishardi. Piyodalari esa zaifroq edilar. Bu talafotdan so‘ng, tang ahvolda qolgan Doroga skiflar o‘z vakillarini yuborishadi. Vakillar Doroga sovg‘a-salomlar olib borishadi. Bu sovg‘alar ichida bitta qush, sichqon, qurbaqa va beshta yoy o‘qi bor edi. Eronliklar butun aql-zakovatlarini ishga solib, skiflar yuborgan sovg‘anining mag‘zini chaqishga, ma’nosini anglashga harakat qiladilar. Buning ma’nosini shunday edi: «Agar qushga aylanib, osmenga uchib ketmasangiz, yo sichqon kabi yerning tagiga yashirinmasangiz, yoki qurbaqaga o‘xshab botqoqlikdan sakrab o‘tmasangiz, sizlar uchun o‘z ellaringizga sog‘-omon qaytishlik nasib etmaydi. Mana shu yoy o‘qlaridan o‘lib ketasiz».

Bu yerlarda yo‘l yo‘q edi. Lashkarlarning asosiy qismi piyodalardan tashkil topgan. Eronliklar qaysi yo‘ldan Istr daryosining xavfsiz ko‘prigiga yetib olishni o‘ylab, hang-mang bo‘lib qoladilar. Otliq skiflar yo‘lni yaxshi bilishardi. Shuning uchun ham, ular ko‘prikkalardan ilgari yetib keladi. Ular ko‘priknini qo‘riqlayotgan ioniyaliklarga shunday deydi: «Ioniyaliklar, oxirgi kunlaring keldi, bu yerda qolib, nohaq ish qilyapsizlar. Jonlaringning sog‘ qolganiga shukur qilib, skiflar xudosidan minnatdor bo‘linglar-da, ko‘priknini buzib, zudlik bilan o‘z yurtlaringga qaytinglar. Dorodan shunday qasos olaylikki, u qayta bu yurtlarga yovuzlik niyatida qadam bosmasin».

Ioniyaliklar o‘zaro kengasha boshlashadi. Gellespont davrida Xerson hokimi va sardori bo‘lgan afinalik Miltiad skiflar taklifini ma’qullaydi. Miletlik Gistiyey sal boshqacharoq fikrda bo‘ladi. U aytadiki, agar Doroning qudrati yakson qilingan bo‘lsa, endi hokimiyatni hech kim idora eta olmaydi. Davlatga endi xalq hokimlik qiladi. Uning bu fikriga boshqalar ham qo‘shiladi. Ioniyaliklar o‘zaro kengashib, skiflarning g‘azabi qo‘zg‘almasdan ko‘priknini buzib, o‘z yurtlariga jo‘nab qolishga qaror qiladi.

O’sha kuni kechasi yetib kelgan Doro vayron etilgan ko‘priknini ko‘rib vahimaga tushadi. Doro ovozi o‘tkir bir misrlikka qirg‘oq bo‘ylab borib, miletlik Gistiyeyni chaqirib, qaytarib kelishni buyuradi. Birinchi ovozni eshitishi bilanoq, Doroning sog‘-omon ekanligini sezgan Gistiyey hamma

kemalarni qaytarib, ko'priki tuzatadi. Shunday qilib Doro skiflar o'lkasidan o'z yurtiga qaytib ketadi.

Doro Frakiyani o'z hukmiga bo'ysundirgach, mamlakatda katta qo'shinga sardor qilib Megabizni qoldiradi.

Gistiyeyga esa qilgan xizmatlari evaziga Frakiyadan bir viloyat hokimligini beradi. Gistiyeyning qudrati oshib ketishidan qo'rqqan Megabiz, uni Suzga chaqirib olishni Dorodan o'tinib so'raydi. Doro uning maslahatiga qulq solib, Gistiyeyni Suzga chaqirib oladi.

To'maris kabi jasur ayollarimiz, Shiroq kabi erksevar o'g'lonlarimiz, Spitamen kabi haqiqiy vatanparvarlar tarixda juda ko'p bo'lgan.

Sirakning bunday tadbirkorligini Bobilni egallahsha Zopir ham qo'llaydi.

Doro uzoq vaqtgacha Bobilni egallay olmaydi. Shunda Doro Zopirni Bobilga jo'natadi. Zopir Bobilga kelib, uni Doro qiyaganini, o'ldirmoqchi bo'lGANI, zo'rg'a undan qochib qutulgani to'g'risida aytadi. Zopirga ishonib Bobil boshqaruvini unga berib qo'yishadi.

Eronliklar Kir shohligi davrida midiyaliklar bilan jang qiladi.

Kirning bir hokimi Ivar chekina boshlaydi, uning orqasidan qolganlar ham chekinishga tushadi. Shunda forslarning xotinlari ularni uyaltirib, chekinishdan to'xtatadi. Natijada, ular hatto midiyaliklarni chekinishga majbur qiladi.

Poliem asarida tavrlar haqida ham ma'lumot beradi. Tavrlar skiflar avlodidan bo'lganligini ta'kidlaydi.

Tavr qabilasi skiflik xalq bo'lib, jang oldidan o'zlarining orqa tomonini chuqur qilib qazib qo'yar edilar.

Ularning qarori qat'iy bo'lib, g'alaba yoki chuqurga tushib o'lishlari kerak edi.

Skiflar tavrlar bilan bo'ladigan jangga qattiq tayyorgarlik ko'radilar. Ular shu yerlik dehqon va cho'ponlarni ham o'zlariga qo'shib dushmanga ko'rsatadi. Bunchalik ko'p dushmanni ko'rgan tavrlar chekindilar.

Skiflar butun Osiyoni bosib olish uchun uzoq ellarga ketishgandi. Bu vaqtida skif ayollari o'zlarining qullaridan bola orttirishadi. Xo'jayinlari, ya'ni o'zлari aloqa qilib yurgan xotinlarning erlari qaytganini ko'rgan qullar, ularga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Ikki o'rtada jang boshlanadi. Qullarning qarshiligini qaytarish amrimahol bo'ladi. Shunda skiflar qo'llariga quroq o'rniga qamchi olib, o'z qullariga qarshi jangga kiradilar.

Qullar faqat qamchidan qo‘rqrar edilar. Chunki qullar asrlar davomida qamchi bilan kaltaklanib kelgan. Ularning ajdodlari va bobokalonlari ham qamchi bilan kaltaklanardi. Qullar yoshligidanoq dahshatli qamchi zarbiga duch keladi. Shuning uchun ularga qamchi zarbidan og‘irroq jazo yo‘q edi. Buni sezgan skiflar ustakorlik bilan boshqa qurollarini tashlab, qo‘llariga uzun qamchilarini olganlardan so‘ng, qullar o‘takasi yorilgudek bo‘lib xo‘jayinlarining oyoqlariga bosh urib, yalinib-yolvorishga tushadilar. Qayta bunday xatoliklar takrorlanmasligi, o‘z xo‘jayinlariga sodiq qolishlariga ont ichadilar. Ayrim beva xotinlar o‘z erlari bo‘lgan qullarning o‘rtasiga tushib, omon saqlab qoladi. Ammo o‘z erlariga xiyonat qilgan ayollar qullar bilan birga jazolanadi. Skiflarga qarshi bosh ko‘targan qullarning ko‘pi chopib tashlanadi. Ba’zilari o‘z xo‘jayinlariga sodiq qolganligini isbot etib omon qolsa-da, bir umr qamchi zarbidan xor bo‘lib yashaydi.

Skif ayollari ichida uzoq yillar hijron azobini tortib, ayriliq dardiga bardosh berib, o‘z erlariga sodiq qolganlari ham ko‘p edi.

Aytishlaricha, skif ayollari juda jasur bo‘lib, qo‘shni qabilalarning hujumini mardonavor qaytarib turadilar. Hatto uzoq ellardan skiflarning xotini beva qolganini eshitib, ularga erlik qilib, mol-mulkini egallab olish niyatida bo‘lgan qabilalar ham bir necha bor hujum qilib, yenga olmagach bitim tuzib, er bo‘lish niyatlarini ochiq-oydin aytadilar.

Mana shu faktlardan ham ko‘rinib turibdiki, Polien asarlari ko‘proq afsonaviy xarakterga ega bo‘lib qolmay, balki tarixiy ahamiyat ham kasb etadi. Shu tufayli Polien bayon qilgan voqealarining tarixiy ildizlarini topib, qiyosiy o‘rganish muhim masalalardan biridir. Hozircha biz ayrim hikoyalarning tarixiy asoslarini qidirib topishga muvaffaq bo‘ldik.

Polien asarida Aleksandr qo‘shinlarining suvgaga tashna bo‘lganligi haqida ham qiziq voqealar berilgan. Unda hikoya qilinishicha, jangchilar juda suvsashadi, lekin suv yo‘q edi. Ikki jangchi uzoq joydan toshlar orasidan zo‘rg‘a ozgina suv topib kelib shohga beradi. Lekin shoh bu suv o‘zidan boshqa hech kimga yetmasligini bilib, to‘kib tashlaydi. Shunda jangchilar uning xalqparvarligidan xursand bo‘lib, chidam bilan uning orqasidan ergashadi.

Bunday suvgaga tashnalik voqeasi haqiqatan ham yuz bergen. Bu voqeas tafsilotini bir qancha tarixchi adiblar o‘z asarlarida qayd qilib o‘tadilar. Biroq, ularning ayrimlari bu voqealarni Girkaniyada bo‘lib o‘tgan desalar, boshqalari So‘g‘diyonada deydi, boshqa birlari Baqtriyada bo‘lib o‘tganligini

hikoya qiladi. Eng muhimi, shunday voqeа tarixda bo'lib o'tganligi aniqdир.

Xuddi shunday faktни Kursiy Rufning Aleksandr Makedonskiy tarixi asarida ham uchratamiz. Polien asarida bunday sahro va suvsizlik qayerda bo'lganligi aniq ko'rsatilmasa, Kursiy Ruf asarida bunday voqeа So'g'diyonada ro'y berganligi keltiriladi. Aleksandr Baqtriya yerlaridan o'tib, So'g'diyona cho'llariga yetib keladi. Bu yerlarda suv yetishmas, yaqin stadiyda namlik yo'q edi. Jazirama cho'l issig'i har tomondan olov purkardи.

Yer ham juda qizib ketardi. Shuning uchun kechasi yurish osonroq edi. Issiqtan tomoq qurib, badan yonganday tuyulardi. Jangchilarining madori qurib, ruhan ezila boshlaydi. Oyoqda turish ham, oldinga yurish ham qiyin edi. Faqat ozgina jangchilaridagina suv bor edi, ular hamma narsalarini, vino va hatto yog'larni ham ichib tugatgandilar. Suv ichganlar yanada tezroq suvsar, qayt qilardi. Shoh jangchilariga madad berardi. Shunda 2 jangchi ildamroq yurib lagerga joy tanlaydi va u yerdan suv topadi. Jangchilaridan biri suv ko'tarib kelayotgan so'g'diyonalikni tutib olib, Aleksandrning oldiga keltiradi. Shoh undan suvni qayoqqa olib ketayotganini so'raydi. Shunda so'g'diyonalik suvni chanqab yotgan o'g'illariga olib ketayotganini aytadi. Keltirilgan suvini shohga tutadi. Lekin so'g'dinyonalikka qarab shoh bu hamma lashkarimga yetmaydi, yolg'iz men esa ichmayman. Yaxshisi o'g'illaringga olib bor, deydi.

Nihoyat kechga yaqin Oks daryosiga yetib olishadi. Bunday faktlar Polien asarlarining haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatib turibdi.

Bu o'rinda, biz Polien asarining ayrim xarakterli tomonlariga, ma'lum bir sahifalariga qisqacha to'xtalib o'tdik. O'rta Osiyoning qadim davrlari haqida qimmatli ma'lumotlar bergen Polien ijodi biz uchun g'oyat qadrliidir. Polien ijodida hali o'lkamizning antik davrlariga oid ko'p manbalar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

STRABON

Strabonning o'n yetti kitobdan iborat «Geografiya» asari jahon adabiyotida o'zining munosib o'rniga ega. Asarda antik davrlarga oid juda boy materiallar bor. Bu materiallar, ayniqsa, tarixiy jihatdan qimmatlidir. «Geografiya» asari o'z davri uchungina emas, bugungi kunda bizning zamondoshlarimiz uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shu tufayli

bu asarda O'rtta Osiyoning antik davrlari tasviri va Strabonning hayot yo'li haqida qisqacha to'xtalib o'tishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yidik.

Strabon eramizdan avvalgi 64 - 63- yillarda Amasiya viloyatida tug'iladi. Yozuvchi Qora dengizdan yuz kilometr janubda, O'rtayer dengiziga tomon cho'zilgan o'lkada tug'iladi.

Amasiya jug'rofiy sharoiti qulay bo'lgan viloyatdir. Bir tomondan Qora dengiz, ikkinchi tomondan O'rtayer dengizi bilan tutashgan, tabiat go'zal bo'lgan o'lkalardan biri edi.

Shoh Mitridat II (eramizdan avvalgi 302 - 266- yillar) davrida Amasiya Partiy viloyatining markazi edi. Shoh Fornak I (eramizgacha bo'lgan 184 - 157- yillar) davrida viloyat markazi Sinon shahriga ko'chiriladi. Amasiya avvalgidek muhtasham va qadimiyligini saqlab qoladi-yu, biroq bu shaharga endi avvalgidan kam e'tibor berila boshlaydi. Albatta, bunday o'zaro toj-taxt urushlari Strabon yashagan davrgacha bo'lib o'tsa-da, Strabon bu tarixiy voqealarning qanday kechganligini to'liq o'rgangan edi.

Bundan tashqari, shoh Nikomeda II (eramizdan avvalgi 74- yil), Mitridat IV (eramizdan avvalgi 120 - 63- yillar), Lukull (eramizgacha 70- yil), Pompey (eramizdan avvalgi 66- yil) davrlarida ham ko'plab qirg'in janglar bo'lib o'tadi. Bu jang-u jadallar bevosita Amasiya shahri bilan bog'liq holda ro'y beradi. Bunday tarixiy voqealarga boy shaharda Strabonning dunyoga kelishi favqulodda moziyining zulmat bulutlari bilan qoplangan osmonida yulduz chaqnagandek bo'ldi. Strabonning yoshligi ajoyib va g'aroyib voqealarga boy, adoqsiz tarixiy hodisalar bo'ronida o'tadi. Toj-taxt va boylik uchun kurash, yer talashib gulistonlarni xarobalarga aylantirish, tinch-totuv yashashni orzu qilgan: insonlar boshiga ajal urug'ining sepilishi va hokazo ko'z ko'rib, quloq eshitmagan vahshiylilar Strabon tug'ilgan zamonda odati hol edi.

Amasiyaliklar bir tomondan O'rtayer dengizi orqali Kichik Osiyo taraflarga uzoq safarlarga jo'nasalar, ikkinchi tomondan, Qora dengiz bo'ylab, Panta o'lklariga, undan o'tib, Kavkaz va hatto skiflar yerlarigacha tez-tez kelib ketardilar. Dengizchilarning hikoyalari amasiyaliklarni xayratga solardi.

Strabon yoshlidan g'aroyib sarguzashtlarga boy voqealarni tinglashni juda sevardi. Ayniqsa, yosh bolakayning qalbini dengizchilarning sayohatlari o'ziga asir etgan edi. Strabon yoshlidan dengizni sevardi. Ayniqsa, tabiat quchog'ida bo'lishni juda-juda yaxshi ko'rardi. Strabonning

tabintni jordan ortiq sevishiga sabab, uning tog‘alari ustasi farang mergan edilar. Ov paytida tog‘-u toshlar, qalin o‘rmonlarda yuz bergen qiziqarli voqeular haqida Strabon ulardan ko‘plab hikoyalari tinglardi. Strabon tabint qo‘ynida yuz bergen voqealarni eshitish bilan kifoyalanib qolmasdan, ulg‘aygan sari ularni o‘z ko‘zi bilan ko‘rish, bevosita o‘sha voqeularning shohidi bo‘lishga intiladi.

Strabonning bobokalonlari sarkarda o‘tgandi. Katta bobosi Dorilay Taktik shoh Mitradat V (eramizgacha 150 - 129- yillar) qo‘shinida yirik sarkarda bo‘lib, tengsiz g‘alabalarga erishgan edi. Bobosi Dorilay ham katta qo‘shuning boshlig‘i bo‘lgan. Strabon yoshlidiga bobokalonlarining jangovarlik yurishlarini eslab, ulardan fahrlanib yurardi. Bu antik davrning o‘ziga xos muhim qiyofasi edi. O‘sha davrlarda odamlarning jangovarlik ishlariiga qarab baho berishardi. Jangda qo‘lga kiritilgan g‘alabalarni madh etib, qo‘shiqlar to‘qishardi. Hatto bosqinchilik urushlarini ham maqtab qo‘yishardi. Antik dunyoda to‘xtovsiz jang-u jadallar hukm surardi. Bir mamlakat boyib, ikkinchisi talon-taroj bo‘lardi. Yana bir davr kelib, buning aksi ro‘y berardi. Minglab kishilarning boshiga og‘ir kulfatlar tushardi. Lekin buning sabablari haqida o‘ylash hech kimning parvoyiga kelmasdi.

Strabon yoshlidiga zamonasining mashhur ilm ahllari qo‘lida ta’lim oladi. Amislik Tirannion Strabonning birinchi ustozi edi. U Pergam maktablarida jug‘rofisiyan dars berardi. O‘sha davrlarda Pergam maktabi mashhurlikda Aleksandriya maktabidan qolishmasdi. Bu maktabda jug‘rofisiya, shuningdek, Homer ijodi asosiy darslik sifatida o‘tilardi.

Tirannion o‘z davrining bilimdoni, turli xil fanlar yuzasidan keng tushunchaga ega, ma‘lumotli kishisi edi. Shuning uchun ham, uni vatandoshlari yangi zamon Aristoteli deb atashardi. Strabon dunyoqarashining tobora o‘sib borishida, bilimining chuqurlashishida ustozi Tirannionning xizmati nihoyat katta bo‘ladi.

Strabon antik dunyo shoirlarining, ayniqsa, Homerning poemalarini isbos bilan o‘qirdi. Hatto o‘spirinlik yillaridayoq Homerning «Iliada», «Odisseya» dostonlaridan katta-katta qo‘shiqlarni yod olgan edi.

Strabonning ikkinchi ustozi Aristodem edi. Meandre viloyatining Nise shahrida Strabon undan saboq olgan edi. Aristotel juda keksayib qolganiga qolmasdan, ritorikadan qiziqarli va mazmundor dars o‘tardi. O‘zining una shahri Rodosda bu purhikmat kishi ertalab ritorikadan, kechqurun grammatikadan tahsil berardi.

Aristotel bir necha yillar Rimda shoh Pompeyning o'g'illariga ham saboq bergan edi, Aristotelning yordamida Strabon Eratosfen ijodi bilan ham yaqindan tanishadi. Eratosfen ham o'z davrining chuqur bilimli kishilaridan biri edi.

Strabon, ayniqsa, selevikiyalik Genarx nomini hurmat bilan tilga oladi. Aristodem ijodining davomchisi bo'lgan bu olim, ayniqsa, jug'rofiyani juda chuqur bilardi. Ksenarx uzoq-uzoq o'lkalarining tarixini va jug'rofiy joylashuvini aniq sharhlab berardi. Garchi, Ksenarxdan unchalik uzoq vaqt saboq olmasa ham, qisqa kunlar ichida undan ko'p narsa o'rganganligini Strabon hurmat bilan eslaydi. Ksenarx o'z ona shahri Selevkiyada ko'p yashamasdan, Aleksandriyaga boradi. U Aleksandriyada, dunyoda dong'i ketgan kutubxonada uzoq vaqt bo'lib, bilimini yanada chuqurlashtiradi. So'ngra olim Afinaga kelib, ziyolilar muhitiga yaqinlashadi. Shundan keyin o'sha davrlarda mashhurligi jihatidan Afinadan qolishmaydigan Rimga kelib, jug'rofiya, tarix va ritorikadan saboq bera boshlaydi.

Strabonning bilim doirasining kengayishida yana bir olimning xizmatlari kattadir. Bu o'zidan ikki asr ilgari yashab o'tgan mashhur faylasuf Zenon edi. Zenon stoiklar maktabining asoschilaridan biri edi. Zenon o'z falsafiy qarashlari bilan Stoiklar falsafasini yuqori pog'onaga ko'taradi. Zenonning o'z davridayoq shogirdlari juda ko'p edi. Keyingi davrlarda ham uning falsafiy qarashlari muhlislari tomonidan izchil davom ettiriladi. Zenon ijodining ta'sirini shoir Seneka, imperator Mark Avreliy, shuningdek, Strabon ijodida yaqqol ko'ramiz.

Strabon yoshligidan sayohatga otlanadi. Uzoq vaqt Italiya bo'ylab sayohat qilib, so'ngra Rimga keladi. Misr mamlakatlarini kezadi. Strabon qayerda bo'lmasin, eng avvalo, mashhur shoir, tarixchi va geograflarning ijodini o'rganishga ko'proq vaqtini sarflardi.

Strabon qirq uch kitobdan iborat «Tarixiy kundaliklar» asarini yaratadi. Grek tarixchisi Polibeyning «Umumiy tarix» asari Strabonda katta taassurot qoldiradi va u o'z ijodini bu mashhur tarixchi tadqiqotlarining davomi deb biladi.

Strabon o'z ijodini eramizgacha bo'lgan 46-yildan boshlaydi. Bu yillarda Rim davlatining mavqeyi tobora ortib, hatto ulkan yunon davlatini ham o'z qo'l ostida saqlamoqda edi. Strabon ijodining ilk sahifalari mana shu tarixiy voqealarga qaratilgandir¹.

¹ N.F. Arskiy. Strabon. Izd-vo. «Misl», M., 1978, str. 17.

Strabon grek tarixchi adiblari Gerodot, Ksenofont, Fukidid asarlarini qunt bilan o'qyidi va ularning ijodidan antik dunyoning tarixiy voqealariga oid ko'p ma'lumotlarni to'playdi.

Strabon o'z ijodida asosan Rim tarixiga kengroq to'xtaladi. Sitsiliyadagi qullar g'alabasi, Spartak qo'zg'oloni, Mariyey bilan Sulloyning toj-taxt uchun kurashlari, Rim va Ispaniya urushlari, Gney Pompey, Yuliy Sezar haqidagi hayotiy voqealar Strabon ijodida keng o'rinni egallaydi. Aksiumik maydonidagi Antoniy bilan Oktavian jangi ham Strabon e'tiboridan chetda qolmaydi.

Strabon ijodida Polibey, Korneliy Nepot, Diodor Sitsiliyskiy, Tit Liviy, Sallyustiy, Artemidor Efesskiy kabi donishmandlarning nomini uchratamiz. Mana shu dalilning o'ziyoq Strabonning butun umrini ilmga bag'ishlaganidan dalolat beradi.

Strabon, haqiqatan ham, chuqur ilmni, o'zi ta'kidlaganidek Aleksandriya, Pergam va Rim kutubxonalaridan oladi. Bu ziyo maskanida dunyo tarixini o'rganadi. Bebaho tarixiy kitoblar Strabon ko'z o'ngida uzoq o'lkalarning xaritalarini gavdalantiradi.

Oktavian eramizdan avvalgi 31- yilda ulkan Rim davlatining imperatori bo'lgandan so'ng, mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida muhim o'zgarishlar yuz bera boshlaydi. Rim imperiyasining mavqeyi tobora oshib, davlat chegaralari kengaya boradi. Uzoq viloyatlardagi davlatlar bilan savdo-sotiq, iqtisodiy va madaniy aloqalar keng yo'lga qo'yildi.

Ulkan Rim davlati bilan O'rta Osiyo, Xitoy, Hindiston mamlakatlari bo'ylab karvonlar tez-tez qatnay boshlaydi. Tarixiy manbalar, Rim davlati bilan, ayniqsa, O'rta Osiyoning va Xitoyning turli tomonlama mustahkam aloqalari tiklanganligini tasdiqlaydi.

Oktavian faqat davlatlararo tashqi aloqani kuchaytirilganligi bilan kifoyalanib qolmasdan, mamlakatning ichki hayotida ham muhim o'zgarishlar yasaydi. Rimliklar hayotida ilgarigi davrlarga nisbatan to'kin-sochinlik, tinchlik va osoyishtalik hukm suradi. Oktavianning bunday siyosatidan rimliklar behad mamnun bo'ladilar. Shuning uchun ham, Oktavianga Avgust (ma'budvash, muqaddas, to'kin-sochinlik, pishiqchilik) nomi beriladi.

Bu davrga kelib, adabiyot va san'at ham gullab yashnay boshlaydi. Oktavian mashhur ilm ahllarini, adabiyot va san'at namoyandalarini saroya chorlab, ilmiy anjumanlar, adabiy kechalar o'tkazadi. Imperatorning o'zi ham adabiyotga chuqur ixlos bilan qarardi. Hatto u badiiy ijod bilan ham mashg'ul bo'lardi. Strabonning nomi tez orada butun Rimga tanildi. Uning «Tarixiy kundaliklar» asari keng jamoatchilik tomonidan qizg'in qarshi olinganidan mamnun bo'lgan Strabon «Geografiya» asarini yozishga kirishadi. Adib bu asari ustida ish boshlaganida oltmis yoshlarga borib qolgan edi. U bo'lajak asari uchun uzoq yillar davomida tarixiy ma'lumotlarni to'playdi, izlanadi, juda ko'plab muhim manbalar bilan yaqindan tanishib boradi.

Strabonning hamrohlari isavriyalik sarkarda Publiy Serviliy, muarrix Feofan Mitelenskiy, sayohatchi Elliy Gall va shoir Goratsiy edi. Sayohatchilar Kappadokiya, Frakiya (Kichik Osiyo), Tovra (Qora dengiz bo'yłari), Kavkaz va Moniya viloyatlari bo'ylab safarlarini davom ettiradi. Strabon Homer dostonlarida tasvirlangan Ilion (Troya) ning go'zal qizi Yelenani olib qochib kelgan shahzoda Paris yurtlarida bo'ladi.

Strabon kichik Osiyoning ko'pgina shaharlarda bo'lib, Misrga keladi. Aleksandr Makedonskiy eramizdan avvalgi 332- yilda asos solgan Aleksandriya shahrida uzoq vaqt yashab qoladi. Aleksandriyaning ulkan kutubxonasidan Aleksandrning harbiy yurishi va u bosib olgan Osiyo mamlakatlari tarixini o'rghanadi. Ayniqsa, O'rta Osiyo, So'g'diyona, Baqtriya tarixi Strabonda katta qiziqish uyg'otadi.

Eramizdan avvalgi 494- yilda ulkan Ahmoniyalar davlatining podshohi Doro tomonidan bosib olingen Milet shahriga boradi.

Strabon Aleksandr Makedonskiy maqbarasini tomosha qiladi. Bu maqbara Aleksandr Makedonskiyning atoqli sarkardasi, keyinchalik Misr podshohi bo'lgan Ptolomey Laga o'g'li tomonidan qurilgan edi.

Ma'lumki, Aleksandr Makedonskiy dastlab Bobilda dafn qilingan. Ptolomey Misr taxtiga o'tirgandan so'ng unga katta hurmat bildirib, Aleksandr hokini Aleksandriya shahriga olib keladi, shoh tobutini oltindan yasab, ichini qimmatbaho dur-u javohirlarga to'ldiradi¹.

Bu maqbaraga yaqin joyda «yorug' dunyo ajoyibotlari» deb nomlangan yarim milliondan ziyod bebaho kitoblar bilan to'ldirilgan Aleksandriya kutubxonasi Strabonni tarix olamiga yetaklaydi. Bu kutubxonaning bir

¹ Keyinchalik bu tobut noma'lum sabablarga ko'ra yo'qolib ketgan (Muallif izohi.)



4- rasm. Oktavian Avgustning oltindan yasalgan boshi. Berlin Muzeyi.

qismi eramizdan avvalgi 47- yilda Yuliy Sezar (bu davrda Aleksandriya Rim hukmronligiga qaram edi) imperatorligi davrida yonib ketadi. Imperator kutubxona taqdiriga juda qayg'uradi. Chunki Yuliy Sezar badiiy adabiyotni juda sevar, ilmma'rifat ahllarini, zamonasining shoirlarini saroyga tez-tez taklif etardi. Imperatorning buyrug'iga binoan xalqdan nodir kitoblar yig'ib olinib, kutubxona qayta to'ldiriladi. Pergom kutubxonasiagi ko'pgina kitoblar ham Aleksandriya kutubxonasiga o'tkazilgan edi. Kutubxona Yuliy Sezar tashabbusi bilan deyarli qadimgi holatiga keltiriladi. Shuning uchun ham, Strabon bu qutlug'

dargohdan istagan kitobini olib o'qishga muvaffaq bo'ladi. Ayniqsa, Oktavian Avgust davrida Aleksandriya kutubxonasiga katta e'tibor bilan qaraladi. Strabon o'z asarida 37 shoirning, 16 faylasufning, 15 geografning, shuningdek, astronom, vrach, notiq, siyosiy arboblarning, juda ko'plab tarixchilarining nomlarini tilga oladi va ularning ijodiga mu-rojaat etadi. Antik dunyoning ulug' shoirlari ichida Homer nomini sharaf bilan esga oladi, Strabon o'z asarining 240 sahifasini bu ulug' shoir ijodiga bag'ishlaydi. Bundan tashqari, buyuk adiblar, fojianavislari, shoirlar, Gesiod, Pindar, Sofokl, Yevripid, Kallimax ijodlari ham anchagina sahifalarda yoritib berilgan. Mana shu faktning o'ziyoq Strabonning badiiy uasrga, nazmga, tragediya asarlariga katta qiziqish, chuqr xayrioxlik bilan qaraganligidan dalolat beradi. 770 sahifadan iborat bebahoh adabiy merosining qariyb yarmini antik dunyo adiblari ijodiga bag'ishlashining o'ziyoq, Strabon ijodining tarixiy jihatdangina emas, adabiy-badiiy, ilmiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega ekanligini bildiradi.

Strabon juda katta ilm sohibi, yuksak quvvayi hofizaga ega bo'lgan antik dunyoning ulug' adiblaridan biri bo'lib, 90 yilga yaqin umr ko'radi. U «Tarixiy kundaliklar» asarining «Aleksandr tuzuklari» («Deyaniya Aleksandra») deb atalmish bo'limida shunday yozadi: «Nima uchun Aleksandr Makedonskiy davrini yorituvchi olimlar va yozuvchilarining asarlarida shunchalik ko'p xatolar va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan?»

Bu savolga Strabon ijodidan javob axtaramiz. Buning sababini adib shunday izohlaydi: «Birinchidan, ular Aleksandr Makedonskiyning hurmatini qozonish uchun uni sharaflovchi tafsilotlarni bayon qilaverganlar, Ikkinchidan, ayrim o'lka va elatlarning tarixi, tabiatini sinchiklab, chuqur o'rganilmagan». Mana shu fikrning o'ziyoq Strabonning o'z ijodiga o'ta mas'uliyat va talabchanlik bilan yondashganligidan dalolat beradi. Strabon ozgina bo'lsa-da, ijodiy xatolikka yo'l qo'yib, avlodlar oldida, insoniyat kelajagi oldida gunohkor bo'lib qolishdan cho'chigan. Shu tufayli fidoyi ijodkor sifatida tinimsiz izlanish, sinchkovlik bilan tekshirish ishlari olib borgan. Strabon butun umri davomida o'qiydi, ilm oladi. Butun hayotini ijodga bahshida etadi. Shuning uchun ham, uning ijodida haqiqatni, faqat haqiqatni ko'ramiz.

JUG'ROFIYA

Strabonning o'n yetti kitobdan iborat yorik asari juda ko'plab mamlakatlar va xalqlar tarixiga bag'ishlangandir Strabonning o'zi yer yuzining yuzlab o'lkalarda, minglab katta-katta shaharlarda bo'ladi. O'zi bo'lgan elatlarning tarixini ko'rgan va bilgan voqealari asosida yuritsa, uzoq yurtlarga oid faktlarni aniq manbalar, tarixiy kitoblardan qidiradi.

Nomlanishi «Geografiya» deb atalsa ham, asar boshdan oxirigacha dunyo xalqlari, elatlarining faqat joylanish chizg'ilaridan iboratdir, deb tushunmaslik kerak. Asarni o'qir ekanmiz, ilmiy va badiiy qimmatga ega bo'lgan yorqin ifoda va ma'lumotlarga duch kelamiz. Bu asar jug'rofiya fanining rivojida katta rol o'ynaydi. Shuningdek, u antik adabiyot tarixini yorituvchi ilmiy tadqiqot hamdir. Chunki adib antik dunyoda ijod qilgan shoirlar, fojiana vislar ijodiga to'xtalar ekan, o'z asaridan ko'pgina sahifalarni adabiyot mavzusiga bag'ishlagan va adabiyotning o'ziga xos xususiyati haqida qimmatli fikrlarni bayon qila olgan.

Muhim tomoni shundaki, Strabon o'tmishdoshlari bo'lgan shoirlarni shunchaki tilga olib o'tmasdan, ularning ijodiga keng to'xtaladi, asarlaridan katta-katta parchalar keltirib, ularga o'z munosabatini bildiradi. Alovida adiblar ijodigagina emas, adabiyotning umumiyo yo'nalishlariga, rivojlanish yo'llariga ham keng to'xtaladi. Shoirlar ijodini baholashda Strabon o'zining kuchli ilmiy fikrlariga tayanadi. Ayniqsa, Homer, Sofokl, Yevripid, Kallimax ijodi yuzasidan bildirgan xulosalari ko'p jihatdan

qimmatlidir. Shu tufayli «Geografiya» asarini faqat jug‘rofiya tarixi uchungina ahamiyatli deb qarash biryoqlamalikdir.

Strabon ensiklopedist olim sifatida tarix, adabiyot jug‘rofiya, etnografiya fanlarining uzviy bog‘liqligi nuqtayi nazaridan masalaga keng va mufassal to‘xtaladi. «Geografiya» hajm jihatdan yirik asar bo‘lib qolmasdan, mazmunan ham juda boydir. Bu asar Strabon nomini jahonga tanitdi. Asarning yana muhim xususiyatlardan biri shundaki, unda estetik zavq bag‘ishlovchi lavhalar juda ko‘p. Strabon o‘z asarida go‘zal badiiy ifodalarga juda keng o‘rin beradi. Mamlakatlar, o‘lkalar tabiatini go‘zal badiiy bo‘yoqlar bilan sug‘oriladi.

O‘n yetti kitobdan iborat «Geografiya» asarining sakkiz kitobi Yevropa, olti kitobi Osiyo va bitta kitobi Afrika hayotiga bag‘ishlangan. Mana shu o‘nbesh kitob ko‘proq badiiy xarakterga, qolgan ikki kitob esa ilmiylik ruhiga ega. Bunda adib, asosan, shoirlar ijodiga, donishmandlarning fikrlariga, muarrixlarning asarlariga o‘z munosabatlarini bildirib, chuqur ilmiy xulosalar chiqaradi. Ko‘p muammolarning tugunini yechadi. Bir qator mushohadalarga boy masalalarni o‘quvchining e’tiboriga havola etadi.

III kitob Iberiya haqida, IV kitobda Galliya, Britaniya, Alp haqida, V-VI kitobda Italiya, Sitsiliya haqida, VII kitobda Germaniya, Bolqon yarimorollari va nihoyat, skiflar haqida to‘xtaladi. Bu kitobdan Volga, Don daryolari bo‘ylarida yashovchi skiflar haqida chuqurroq ma’lumot olamiz.

VIII-IX-X kitoblarda esa Gretsiya va Krit viloyatlari haqida to‘xtaladi. Bu kitobda adabiyot va madaniyatning ilk o‘choqlari xususida batatsil fikr yuritiladi. XI kitobda Kavkaz, Kavkazbo‘yi, Bosfor, Panta, Parfiya va Girkaniya o‘lkalarining tabiatini, jug‘rofiy o‘mi, tarixi yoritilardi. Bu kitobda Kaspiy dengizi bo‘ylarida yashovchi qabilalarning hayoti ham qalamga olinadi. Hozirgi Turkmaniston yerlarida yashovchi elatlarning tarixiga Strabon juda qiziqish bilan qaraydi. Ayniqsa, massagetlar qabilasi haqida muhim ma’lumotlar beradi.

Kitobda O‘rtta Osiyoda yashovchi sak, so‘g‘d, skif, massaget qabilalari o‘tmishi alohida qayd qilib o‘tiladi. XI-XIII-XIV kitoblarda Kichik Osiyo tarixi yoritiladi. XV kitobdan ham Eron va Hindiston davlatlari haqida qimmatli ma’lumotlar olamiz. XVI kitob Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Ossuriya, Bobil, Mesopotamiya, Suriya, Finikiya, Arab mamlakatlaridan hikoya qiladi. XVII kitob esa Misr, Efiopiya, Liviya o‘lkalariga bag‘ishlangan.

Strabon Kaspiy dengizining sharq qismida yashovchi massagetlar hayotiga to'xtalar ekan, bu qabilalar haqida ilgari o'tgan muarixlar qariyb hech narsa yozmaganligini ta'kidlaydi. Yozilganlari ham juda oz yoki yetarlicha aniq ma'lumotlar bermaydi, deydi.

Muallif Qora dengizning shimoliy qismida yashovchi skif, sarmat qabilalari haqida to'xtalar ekan, bu joylar «varvarlarning yerlari» deydi.

Albatta, Qora dengizning shimol qismida yashovchi skiflar, Kaspiy dengizining sharqiy qismida joylashgan massagetlar haqida grek va rim adiblari ilgari ham yozishgan. Bu haqda Gerodotning ijodidan ancha kengroq ma'lumotlar olamiz.

Rimliklar Vengriya, Rumiya yerlarini bosib olib, to Dunay daryosi bo'ylarigacha kelgan edi. Biroq ular O'ita Osiyoga yurish qilishni nazarda tutmagan edilar. Rimliklarning bostirib kelayotganini eshitgan Kaspiy dengizining shimolidagi va Dunay daryosi bo'ylaridagi skiflar sharq tomon ko'chib o'tadilar. Biroq ular Gangadan Afg'oniston yerlarigacha, Xitoydan Osiyogacha cho'zilgan o'lkalarni yaxshi bilishardi.

Kaspiy dengizining sharqiy qismida joylashgan keng tekisliklar Girkaniya viloyati bo'lib, bir tomoni Midiya va Arman tog'lari bilan o'ralsan. Bu tog'larning yonbag'irlarida albanlar bilan armanlar yashaydi. Katta qismida gellar, quddusliklar, amardlar, vitiya va anariaklar yashashadi. Anariaklar yashaydigan joylar Parrasiv o'lkasining bir qismi bo'lib, ularni hozirgilar forslar deb ataydilar. Eppion tog'lari bilan o'ralsan Vitiya viloyati Epionda joylashgan. Bu yerlarda ellian qurollarini, misdan yasalgan buyumlarni uchratish mumkin. Bu yerda Apariak degan shahar bor. Aytishlaricha, unda go'yo xudoning irodasini biladigan, har qanday savollarga tangri nomidan javob beradigan ibodatxona kohinlari, orakullari kayf-u safo surib yashasharmish. Yana boshqa elatlar esa qaroqchilik va jang-u jadallar bilan mashg'ul bo'larmish.

Dengiz qirg'oqlarini quddusliklar egallahsgan bo'lib, ularning yeri 5000 stadiyni tashkil etardi, deydi Patrokl.

Bu mulohazadan ko'rinish turibdiki, Strabondan ilgari bu yerlarga Patrokl degan kishi ham uzoq Rim o'lkalaridan kelgan. Aniq ma'lumotlar berishiga ko'ra, u Kaspiy dengizining sharqiy qirg'oqlarini kezgan. Hozirgi Turkmaniston kengliklarida ham bo'lgan, bu yerdagi qabilalar bilan uchrashgan. Chunki «Bu yerdagi qabilalar qashshoq yashardi»¹, deydi

¹ Strabon, O'sha asar, 518- bet.

muallif. Shu fikrning o'ziyoq bu yerdagi elatlarning hayoti bilan u yaxshi tanish bo'lganligidan dalolat beradi. Strabonning bu o'lkalarga kelganligi noma'lum, ammo uning Qora dengiz bo'ylariga kelganligini, Kavkaz o'lkasida bo'lganligini tarixiy ma'lumotlar tasdiqlaydi.

Girkaniya unumdar, serhosil yerlar bo'lib, juda keng o'lka edi. Bu joylarda Talabroka, Samariana, Karta kabi bir qancha mashhur shaharlar bor. Bu o'lkaning bir cheti dengizga borib to'xtaladi. Bu dengiz Kaspiydan 1400 stadiy balandlikda joylashgan edi¹.

Bizningcha, bu Orol dengizidir. Mana shu lavhalardan ham ko'rinib turibdiki, Strabon Girkaniya o'lkasining joylashishinigina emas, bu vodiyyadagi shaharlar, serhosil, unumdar yerlar, qabilalarining iqtisodiy ahvoli haqida ham ma'lumot bermoqda.

Girkaniya ba'zi bir davrlarda Marg'iyona, hatto So'g'diyona davlatlari, bilan ham qo'shilib ketgan.

Mahalliy xalqning boyligi asosan quyidagilardan iborat edi: uzumchilik, vinochilik, bog'dorchilik, boshoqli o'simliklardan non olishadi, o'rmonlarida asalari bilan shug'ullanishadi. Dengiz, orollarida yashash juda qulay. Aytishlaricha, bu yerdagi odamlar oltin ham saqlarmish.

Girkaniyaning hukmdorlari dastlab o'zga yurtlardan bo'lgan varvarlar - midiyaliklar, forslar, keyinchalik parfiyaliklar bo'lib, ular o'zga yurtlardan kelgan qo'pol va johil varvarlar edi. Qo'shni o'lkalarda qaroqchilik, ko'chmanchilik hukm surib, keng cho'llar yastanib yotadi².

Girkaniya o'lkasining antik davrlari haqida berilgan ushbu ma'lumotlar, faqatgina ma'lumotlar tizimidan iborat bo'lib qolmasdan, shu davrga oid ayrim muhim masalalarni yechishga ko'maklashadi. Aristobulning so'zlariga ko'ra, Girkaniyada boy o'rmonlar bo'lib, unda eman daraxtlari bor edi. Oqqarag'ay, qoraqarag'ay va umuman qarag'aylar bu yerda o'smasdi.

Bu epizodda Girkaniya o'rmonlariga ta'rif berilmoqda. Biroq bu ta'rif Strabon yashagan zamonaga daxldor bo'lmasdan, eramizdan avvalgi 330- yillarga taalluqlidir. Chunki, Aristobul Aleksandr Makedonskiyning ishonchli kishisi va bilimdon hukmdor bo'lib, eramizdan avvalgi 330 - 327- yillarda Girkaniya viloyatiga kelgan va bu yerdadan olgan taassurotlarini o'z kundaliklarida qayd qilgan edi. Aristobul Girkaniya

¹ O'sha asar, 519- bet.

² O'sha asar, 519- bet.

viloyatidan Oks daryosiga kelib, bu daryoga ko‘prik quradi. Chunki hunarmandlik kasbini puxta egallagan Aristobul, hozirgi til bilan aytganda, injener edi. U Aleksandrning tosh otadigan mashinalarini sozlar, ko‘priklar qurardi.

Strabon Aleksandriya shahrida uzoq muddat istiqomat qilib, tahsil olib yurgan kezlarida Aleksandriyaning olamga mashhur kutubxonasidan Aristobul va Ptolomey kundaliklarini topib o‘qiydi.

Girkaniyadan dengiz tomon Ox va Oks daryolari oqib o‘tadi. Ox daryosi Nesay orqali o‘tadi. Ko‘plar aytadiki, go‘yo Ox daryosi Oks tomon oqarmish. Aristobulning aytishicha, Oks Hind daryosini hisobga olmaganda, Osiyoda eng yirik daryodir. Patroklning so‘zlashicha, Oks Hindistondan Girkaniyaga mol va yuk tashuvchi kemalarning qatnov yo‘li bo‘lgan. Bu yo‘l bilan ular Albaniya va Kur orqali Evkseyn viloyatlariga kelib ketishgan. Qadimgilar Ox daryosini kamdan kam tilga oladilar. Faqatgina Parfam tarixini yozuvchi Appolodor bu daryoni eslaydi uning Parfamdan oqib o‘tishini ta’kidlaydi¹.

Mana shu faktdan ham ko‘rinib turibdiki, qadimgi davrlarda Aristobul, Ptolomey, Kallisfen, Evman, Diodordan tashqari ham Appolodor degan yozuvchi O‘rtta Osiyo haqida asar yozgan. Appolodor o‘z asarini «Parfem tarixi» deb atagan. Strabon bu tarixchining asarini o‘qigan. Chunki, Strabonning hayot yo‘lini ta’riflaganda ta’kidlab o‘tgan edikki, u O‘rtta Osiyoga oid faktlarni sinchkovlik bilan o‘rgangan. Hatto ayrim mubolag‘ali yoki ishonchsz manbalarga ham tayangan. Lekin o‘z asariga ozgina shubha tug‘dirgan faktlarni olib kirmagan. Bu jihatdan u O‘rtta Osiyoga kelib ketgan Aristobul ijodiga katta ishonch va hurmat bilan qaraydi. Hatto O‘rtta Osiyoda bo‘lgan Ptolomey «Kundalik»lariga ham biroz shubha bilan munosabatda bo‘ladi. Chunki Ptolomey Aleksandrning eng yaqin kishisi va ishongan sarkarsi edi. U o‘z kundaligida Aleksandr Makedonskiyga ortiqcha baho berib yuborgandi. Shuning uchun ham, o‘z kundaliklarida tasvirlangan ayrim voqealarning bayoniga Aleksandr Makedonskiyning ishonchini qozonish uchun mubolag‘a jumlalarni qo‘shib bayon etardi.

Tanaid² daryosi Osiyoni Yevropadan ajratib turadi. Osiyoning katta qismi Tanaid daryosi bilan Girkaniya dengizi o‘rtasida joylashgan bo‘lib, bu joylar makedoniyaliklar tomonidan bosib olinmagan edi. Osiyoning

¹ Strabon. O‘sha asar, 520- bet.

² Tanaid - ko‘p tarixchilar bu daryoni Tanais deb ataydilar.

bu bo‘lagini Aleksandr bosib olgan deb, yozuvchilar o‘zlarini ko‘rsatish uchun ustamonalik bilan noto‘g‘ri fikr yuritganlar.

Meotiy ko‘li Tanaid daryosini o‘ziga qabul qilib, Kaspiy dengizi bilan qo‘shilardi, bu dengiz esa boshqa suv havzalari bilan tutashgandi¹.

Tanaid (Don) daryosi bo‘ylarida skiflar yashagan. Girkaniya hozirgi Turkmaniston hududi bilan Tanaid (Don) daryosi oralig‘idagi masofada dengiz borligi ta’riflanadi. Bu dengiz Orol dengizi ekanligi aniqlanmoqda. Arrianning «Aleksandrning yurishi», Kvint Kursiy Rufning «Aleksandr Makedonskiy tarixi» romanlarini o‘qib ko‘rsak, Aleksandr Makedonskiy Tanaid daryosi bo‘ylariga borganligi, skiflar bilan jang qilganligi haqidagi epizodlarga duch kelamiz.

Strabonning yuqoridagi fikrlarida qayd etilishicha, makedoniyaliklar Tanaid daryosi bo‘ylariga bormaganligi ma’lum bo‘ladi. Atoqli olim Bobojon G‘afurov esa makedoniyalik shoh Aleksandrning Tanaid daryosi bo‘ylariga bormaganligi haqidagi faktlarni tasdiqlaydi².

Hind tog‘idan Ox, Oks kabi ko‘plab daryolar oqib keladi. Bu daryolar ichida eng shimoliy qismda joylashgan Yaksart bo‘lib, u ham Kaspiy dengiziga quyiladi.

Yaksart daryosini ham Tanaid deb atashadi. Polikleytning aytishicha, Tanaid butunlay boshqacha. Bu daryoning bo‘ylarida qora qarag‘ay o‘sadi. Qora qarag‘aydan skiflar yoy o‘qi yasaydilar. Bu shundan darak beradiki, Tanaid Osiyoda emas, Yevropada joylashgandir. Osiyoning shimoliy va sharqiy qismlarida qora qarag‘ay o’smaydi. Ammo, Eratosfening ta’kidlashiga ko‘ra, qarag‘ay Hindiston tomonlarda o‘sadi, chunki Aleksandr undan o‘z kemasini mustahkamlashda - chirigan yoki singan qismlarini sozlashda foydalangan. Eratosfen bu xildagi ma’lumotlarni to‘g‘ri ko‘rsatib berishga harakat qilgan, biz uchun bu faktlar muhim ahamiyatga egadir.

Haqiqatan ham, ko‘pgina tarixiy kitoblarda Yaksart daryosi Tanaid daryosi bilan chalkashtiriladi. Holbuki, Sir bilan Donni bir-biridan ancha uzoq masofa ajratib turadi. Strabon ta’kidlaganidek, Tanaid daryosi Yevropa yerlaridan oqsa, Yaksart Osiyoni kesib o‘tadi³. Biroq, Strabon Yaksartni Kaspiy dengiziga quyiladi, deydi. Balki o‘sha davrlarda Orol dengizi Kaspiy

¹ Strabon. O‘sha asar, 520- bet.

² B.Gafurov. Tadjiki, Izd-vo «Nauka», M., 1972, str. 96.

³ Strabon. O‘sha asar, 520- bet.

bilan tutashgan bo‘lishi ham mumkin. Yoki ikki dengiz oralig‘ida juda oz masofa qolgan bo‘lishi ham mumkin. Har holda, Yaksartni Kaspiy dengiziga quyiladi, degan Strabon unchalik haqli emas. Biz uchun Strabonning xizmati shu bilan xarakterlanadiki, ko‘pgina mavhum faktlarga aniqlik kiritgan. Masalan, Yaksart bilan Tanaidni bir-biridan ajratib berishning o‘ziyoq muhimdir. Chunki, Yaksart bo‘ylarida bo‘lib o‘tgan voqealar olimlar uchun juda ahamiyatlidir. Ko‘pgina tadqiqotlar bu ikki daryo o‘rtasida bo‘lib o‘tgan voqealarni bir-biriga chalkashtiradi.

Girkaniya dengiziga sharq tomondan borsak, o‘ng tarafdag‘i Hind dengizigacha cho‘zilgan tog‘larga duch kelamiz. Ellinliklar bu tog‘ni Tavram deb atashadi. Bu tog‘lar Pomfiliya va Kilikiyadan boshlanib Hind dengizigacha turli xil nom bilan ataladi. Tog‘ning shimoliy qismida gellar, quddusliklar, amardlar joylashgan bo‘lib; girkanlar ko‘pchilikni tashkil qildi. Agar sharq tomonga yursak, Ox daryosiga chiqamiz. Bu yerda parfiyaliklar, marg‘iyalar, ariylar yashashadi. Keyin bepoyon dasht boshlanadi. Bu yerlarni Girkaniyadan Sarniy daryosi ajratib turadi. Armaniston tomondan bu tarafga yetib kelgan tog‘ etaklari Paraxoafr deb nomlanadi. Girkan dengizidan Ariygacha 6000 stadiy masofadir. Shundan so‘ng Baqtriya, So‘g‘diyona boshlanadi, nihoyat ko‘chmanchi skiflар yeriga kelamiz.

Bu tasvirlar endi kitobning yettinchi bobida emas, sakkizinch bobida berilgan. Bu bobda muallif dax, saklar, massagetlar haqida ma’lumotlar beradi. Ko‘proq bu yerdagi mahalliy xalqlarning urf-odatlari, turmush tarzi haqida so‘zlaydi. Ayniqsa, massagetlarning o‘tmishiga ko‘proq to‘xtaladi. Kaspiy dengizidan Hindistongacha bo‘lgan keng o‘lkalarda yashovchi ellar va elatlar haqida hikoya qiladi. Bu yerlarda yashovchi boshqa ko‘pgina qabilalarning hayoti bilan ham yaqindan tanishamiz. Strabon ijod jarayonida Eratosfen degan adib ijodidan foydalanganligini ta’kidlaydi. Eratosfen haqida biz to‘liq ma’lumotga ega emasmiz. Shuningdek, Strabon boshqa tarixiy kitoblarda uchramaydigan shunchalik ko‘p nomlarni o‘z asarida keltiradiki, ularning ko‘pchiliginiz izohlash qiyin.

Bu keng dashtliklarning chap tomonida, tog‘ etaklariga joylashgan xalqlarga qarama-qarshi bo‘lgan shimol taraflarda ko‘chmanchi skif qabilalari yashashadi. Skiflarning sharq tomonida joylashgan qabilalarni massagetlar va saklar deb atashadi. Ularni umumiyl nom ostida skiflar deyishadi. Biroq, har bir xalq o‘zining alohida nomiga ega. Ularning katta

qismi skiflar deviladi. Bu ko'chmanchi qabilalar ichida ancha atoqli bo'lgan baqtiriyalik asiya, pasianlar, toxarlar, sakapavlarni ellinlar Yaksart daryosi bo'ylarida saklar va so'g'dlardan ajratib qo'ygandi. Yaksart qirg'oqlarida asosan saklar yashashardi¹.

Ushbu epizodda Strabon asosan hozirgi O'zbekiston hududida qadimda yashagan qabilalar haqida fikr yuritmoqda. Haqiqatan ham, boshqa tarixiy manbalarning darak berishicha, bu yerlarda massagetlar, sak, dax, so'g'd qabilalari yashashgan. Ularning tili bir bo'lgan. Urfodatlari, yashash tarzi, qismati uyg'un edi. Ular asosan chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Aholi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi holda yashagan. Bu qabilalar o'rtasida o'zaro aloqa, yaqin qo'shnichilik munosabatlari mavjud edi. Shu bilan birga, ular o'rtasida janjallar va nizolar ham bo'lib turgan. Bu nizolar haqida Strabon shunday mazmunda yozadi:

"Bu yerda turli xil xalqlar yashardi. Deyalar ularning birini Aparnamlar, ikkinchisini Ksanfiyamlar, uchinchisini Pissuramlar deb atagan. Aparnamlar boshqalarga qaraganda Qora dengizga yaqin yerlarda, Girkaniya o'lkasida yashashardi. Qolganlari esa Ariyaga qarama-qarshi tomonda cho'zilgan keng o'lkalarga joylashgan edi. Bu elatlar Girkaniya, Parfiyadan to Ariyagacha cho'zilgan biyobon, qaqrab yotgan cho'llarda yashovchi qabilalarga (Girkaniya, Nesaya, Parfiyaga) hujum qilib turishardi. Bu yerdagi xalqlar bir-birining yerlaridan o'tgani uchun ham soliq to'lashga majbur edilar. Agar bu kelishuvga xi洛f ish qilinib, bir-biriga hujum qilishsa, ikki o'rtada urush boshlangan. Yana ular o'zaro kelishib oladilar. Bir necha muddatdan so'ng yana urush boshlanib ketadi. Ularning hayot tarzi shunday ekan. Qo'shni qabilalar bir-biriga hujum boshlashardi, yana yarashib olishardi².

Tarixiy hujjatlar Strabon keltirgan ushbu faktning to'g'rilingini tasdiqlaydi. Qadim So'g'diyona, Girkaniya yerlarida yashovchi qabilalar o'rtasida o'zaro ichki nizolar tez-tez bo'lib turgan. Arzimagan narsaga ikki o'rtada janjallar chiqqan. Yana qabila oqsoqollari tinch-totuv yashash sullini tuzishgan. Kichikroq qabilalar boshqa bir kattaroq qabilalarga o'lpon, boj-xiroj to'lab turishgan. Hatto bir qabila mollari ikkinchi bir

¹ Strabon. V semnadsati knigax. Knigasedmaya. Glava vosmaya, tip. Ris. Uyaz. Medinsovoy, M., 1879, str. 321.

² Strabon. O'sha asar, 522- bet.

Tog‘da yashovchilar yovvoyi mevalar bilan oziqlanardi. Jumladan, ularda oz-moz qo‘ylar bo‘lib, bu qo‘ylarni qurban qilmasdan, suti va junini olish uchun saqlardilar. Ularning kiyimlari o‘simlik sharbatlari bilan bo‘yalgan bo‘lib, uzoq vaqtgacha o‘zining yarqiroq rangini yo‘qotmasdi. Dashtda yashovchilarning esa o‘z yerlari bo‘la turib, lekin bu yerlardan ular hosil olmasdi. Qo‘y va baliq go‘shti yeb, kun ko‘rishardi, ko‘chmanchi holda yashashardi. Bu yerdagi barcha xalqlar bir xil hayot kechirish tarziga ega edi. Ularning o‘lim marosimlari, urf-odatlari bir-biriga juda o‘xshab ketardi. Har bir xalq o‘zicha mug‘ombir, ayyor, ustamon, yovvoyi, janjalkash, lekin o‘zgalar bilan munosabatda soddadil va haqgo‘y edilar¹.

Strabon bergen ma’lumot haqiqatga juda yaqindir. Adib bobokalonlarimizning fe'l-atvorlarini, fazilatlarini to‘g‘ri baholaydi. Ayniqsa, «O‘zgalar bilan munosabatda olajanoblik va haqgo‘ylik» bizning xalqimizga xos go‘zal fazilatdir.

Massaget va sak qabilalari tarkibiga atasiy va xorasmiylar ham kiradi. Shu joylarda Baqtriya va So‘g‘diyona o‘lkalaridan Spitamen Aleksandr tazyiqidan qochib kelgan edi. Keyinchalik Arsak Selevka Kallipi tazyiqidan qochib Apasiakamga keladi. Eratofen ma’lumotlariga ko‘ra, aroxat va massagetlar Oks daryosining g‘arb tomonlarida baqtriyaliklar tutash hududda yashardilar. Baqtriyaliklar esa uncha katta yerlarga ega bo‘lmasdan, parapamislар yeriga yaqin yashashardi. Saklar bilan so‘g‘dlarni bir-biridan Yaksart daryosi ajratib turardi. So‘g‘dlar bilan baqtriyaliklarni esa Oks daryosi ajratib turadi. Eratosfening so‘zlariga qaraganda, girkaniyaliklar bilan ariyaliklar o‘rtasida tapirlar yashardi. Girkaniyaliklardan so‘ng amardlar, anariyaliklar, kaluslar, albanlar, kaspiriyliliklar, vitiyaliklar va shunga o‘xshash ba’zi bir elatlар dengiz bo‘ylab yoyilib ketgandi. Girkaniyaliklarning boshqa tomonida derbiklar va nihoyat, qaduslar bilan yonma-yon madiyslar va matianamlar istiqomat qilishardi².

Strabon bu o‘rinda Yaksart va Oks daryolari bo‘ylarida yashovchi qabilalarning joylashuv holatiga to‘g‘ri baho beradi.

Eratosfen ko‘rsatgan masofalarini shunday aniqlaydi: Kaspiydan Kurgacha 1800 stadiy, Kurdan Kaspiy darvozasigacha 3600 stadiy, Ariy viloyatidan Aleksandriyagacha 6400 stadiy, shu yerdan Baqtriya

¹ O’sha asar, 522- bet.

² Strabon. O’sha asar, 523-524 betlar.

shahrigacha 3870 stadiy, Yaksart daryosigacha esa 5000 stadiy, hammasi bo'lib 22,670 stadiy masofadir. Shunday qilib, Eratosfen Kaspiy darvozasidan Hindiston yerlarigacha bo'lgan masofani aniqlaydi. Gekotompilagacha 1960 stadiy, Ariy viloyatidan Aleksandriyagacha 4530 stadiy, Profasiyagacha 1600 stadiy. Boshqalarning fikricha, bu masofa 1500 stadiy. So'ngra Araxotov shahrigacha 4120 stadiy. Hammasi bo'lib bu masofa 15300 stadiyni tashkil etadi. Bevosita bu masofaning davomi-hind chegarasidan Hind dengizigacha bo'lgan joylarning kengligi saklarga gacha bo'lgan masofaga tengdir¹.

Strabon o'z ijodida Eratosfen nomini takror-takror tilga olib o'tadi. Albatta, bu masofa o'lchovlari nechog'lik to'g'ri ekanligi haqida aniq bir ma'lumotga ega emasmiz, lekin uzoq yunon o'lkasining adibi O'rta Osiyo haqida shunchalik qiziqish bilan faktlar to'plashi va o'lkamizning antik davrlari haqida shunday qiziqarli ma'lumotlar berishi biz uchun muhimdir. Strabon ijodining boshqa grek va rim adiblari-Ruf, Plutarx, Arrian, Diodor ijodidan farqli tomoni shundaki, uning asarlarida faqat Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyoga qilgan harbiy yurish davridagi voqealar o'z aksini topmasdan, asosan undan keyingi davrlardagi hayot tasviri ham ifoda etiladi.

Parfiya uncha katta maydonga ega emas. Bu davlat Girkaniya kabi Eron hukmronligi davrida, shuningdek, uzoq davom etgan Makedoniya hukmdorligi davrida ham o'lpon to'lab turgan. Parfiya o'z boshidan ko'plab jang-u jadallarni kechiraverib, qashshoqlanib qolgan edi. Bu mamlakat yerlaridan yurish qilayotganda shohliklar o'z qo'shinlarini tezroq olib o'tardi. Chunki bu yerda qo'shinlarni ta'minlaydigan oziq-ovqat topish qiyin edi. Bizning davrimizga kelib Parfiyaning maydoni ancha kengaydi, uning tarkibiga Komissena va Xorena kirdi. Shuningdek, Kaspiy dengizigacha bo'lgan bepoyon yerlar ham qachonlardir Midiyaga qarashli bo'lgan. Ungacha bu yerlar Rag va Topirlarniki bo'lib, endilikda Parfiyaga qaram bo'la boshladi. Ragning yonida ikkita shahar-Apameya va Gerakleya bor. Apollodorning ta'kidlashicha, Kaspiy dengizidan Raggacha 500 stadiy, Parfiya shohining qasri bo'lmish Gekatomiyagacha 1260 stadiy. Poseydonning fikricha, Rag shahri nomining kelib chiqishi bir qancha shaharlar va 2000 qishloqni vayron qilib yuborgan zilzila ofati bilan bog'liq. Aytishlaricha, topirlar, derbinlar bilan girkaniyaliklar qorasida

¹ O'sha asar, 524- bet.

yashashardi. Topirlarning qiziq bir odati bo‘lgan. Ular eri bor xotinlarga yana boshqa kuyov topardi va bu eridan ham ikki-uch bola ko‘rardi. Ularning bu rasm-rusumlari rimliklarnikiga o‘xshab ketardi. Ya’ni, rimlik Katon ham o‘z xotinini qandaydir Gortenziyaga bergen edi¹.

«Bizning davrimizda» degan ibora Strabon yashagan davrga to‘g‘ri kelib, adib o‘zi yashagan zamondan turib uzoq o‘tmishga nigoh tashlaydi. Uzoq o‘tmishda bu yerlarda bo‘lib o‘tgan voqealarning tafsilotini sinchiklab o‘rganadi. Masalan, o‘tmishda Girkaniyada dahshatli zilzila bo‘lib o‘tganligini eslatadi.

Suriya bilan Midiya shohlarining bir-biriga dushmanlik munosabatlari oqibatida Tavranning narigi tomonida yashovchi aholi isyon ko‘targan paytda baqtriyaliklar ham g‘alayon qilgan edi. So‘ngra skiflar avlodidan bo‘lgan Arsak dayevning bir qismini egallab, Parfiyaga bosib kiradi va uni o‘ziga bo‘ysundiradi. Avvaliga Arsak va sheriklari ancha kuchsiz edi. Chunki turli qabilalar bilan urushaverib holdan toygan edi. Keyinchalik, Arsak qo‘shni viloyatlarni bosib olib, janglardagi katta g‘alabasi natijasida kuchayib ketib, Evfrat tomonlardagi keng o‘lkalarning hukmdori bo‘lib oladi.

Arsak bir vaqtlar skiflar ustidan g‘alaba qozongan baqtriyaliklarni ham endilikda o‘ziga qaram qilib oladi. Skiflar keyinchalik Rim kabi ulkan davlatga aylanadi. Bu beqiyos muvaffaqiyatlar skiflarning turmushiga to‘kin-sochinlik keltiradi. Skiflarning hukmronlik doirasining kengayishi va urushda muvaffaqiyatga erishishlari uchun shart-sharoitlar vujudga keladi.

Bu o‘rinda Strabonning skiflar davlati haqida bergen ma’lumotlari qimmatlidir. Skiflar davlati shu darajada kuchayib ketadiki, u hatto qudrati jihatidan o‘sha davrlarda mashhur bo‘lgan Rim davlati bilan bu shohliklar o‘rtasida aloqa qilganligi tabiiy hol. Chunki skiflar buyuk davlatga aylanib, uning dovrug‘i Rimgacha yetib boradi.

Arsakning jangovarligi va qahramonligi, shuningdek, bosqinchilik siyosati haqida Strabon ijodida anchagina ma’lumotlar berilganki, bu haqda ham alohida to‘xtalamiz.

Strabon o‘zining ikkinchi va oltinchi kitoblarida Parfiya haqida mufassal to‘xtalib o‘tgan edi. Yettinchi kitobida ta’kidlanishicha, Parfiya shohligida ikkita oliy kengash bo‘lgan. Birinchi kengash shoh va uning qarindosh-

¹ O‘sha asar, 524-525- betlar.

urug‘laridan iborat o‘zaro kengash, ikkinchisi, fozil va donolardan iborat bo‘lgan kengashdir¹.

Strabon ijodida shohliklar siyosati, shoh qasri, shoh saroyidagi qiziq-qiziq voqealar bayoni ham beriladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Parfiya shohlik chog‘ida donishmandlarning fikriga tayanib ish yuritgan.

Baqtrianing bir qismi Ariyadan shimol tomonga, katta qismi esa sharq tomonga cho‘zilgan edi. Baqtriya keng o‘lka, bu yerda zaytun daraxti mevasidan boshqa hamma hosil yetishtiriladi.

Apollodor Artemitening ta‘kidlashicha, Ellin shunday buyuk davlatga aylanadiki, buning sababi ularning yerlari boy va hosildorligida edi. Hatto ular Arriana va hindlarni ham o‘zlariga bo‘ysundirib olgan edi. Bu borada ular Aleksandriyadan ham o‘zib ketgandi. Bu muvaffaqiyatlarga erishishda, Imaya Gpanisgacha yetib borgan sarkarda Menendrning roli katta edi. Ba‘zi bir bosqinchilik yurishlarining boshida Menandrning o‘zi turardi, boshqa birlariga esa Baqtriya shohi Yevtidemning o‘g‘li Dimitriy sarkardalik qilardi. Ular Potalekonigina egallab qolmasdan, balki Saraosta va Sigerdida deb atalmish shohliklarni ham o‘zlariga qaratib oladi. Apollodorning so‘ziga qaraganda, «Baqtriya butun Arriananing bezagi» edi. Baqtriyalik shohlar Serov va Fri povgacha o‘z hukmdorligini o‘tkazadi.

Baqtriyaliklarning asosiy shahri Baqtra bo‘lib, u Zariaspnoy deb atalgan. Bu shahar orqali o‘tgan daryo Oksga borib quyilardi. Ikki daryoning quylish joyida Adrapsa va boshqa ko‘pgina shaharlar bor edi. Bu shaharlar orasida shoh nomi bilan ataluvchi Yevkratidiya ham bo‘lgan. Ellinliklar bu o‘lkalarni egallab olgandan so‘ng ularni Satrakin, Aspion, Turi va Parfiya kabi viloyatlarga bo‘lib yuboradi. Ellinliklar Oks bilan Yaksart oralig‘ida joylashgan So‘g‘diyonani ham egallab olishadi².

Baqtriya haqida berilgan bunday qimmatli faktlar, ayni chog‘da, tarixiy ahamiyatga ham egadir. Shahar va daryolarning jug‘rofiy joylashuvi haqidagi ma’lumotlar antik dunyo haqidagi tasavvurimizni yanada chuqrulashtiradi³.

Qadimgi So‘g‘diyona va baqtriyaliklar turmush tarzi va urf-odatiga ko‘ra nomadovlardan farq qilmasdi. Ular haqida Onesikrit ko‘pgina yaxshi-

¹ O‘sha asar, 525- bet.

² O‘sha asar, 525- bet.

³ O‘sha asar, 527- bet.

yomon rivoyatlarni aytgan edi. Shulardan birida hikoya qilinishicha, ularning urf-odatiga ko'ra, qarigan kishi o'lmasa ham tirik holda itlarga berilgan. Baqtra shahri tashqi tomonlari toza ko'rinsa-da, ichida odam suyaklari to'lib yotardi. Aleksandr bu urf-odatlarni yo'q qiladi. Yana bir rivoyatda, kaspiyliklar haqida hikoya qilinib, ularning urf-odatiga ko'ra yetmishdan oshgan odam qamab qo'yildi va ochlikdan o'lib ketardi. Aleksandr kelib, bu dahshatli urf-odatlarga barham beradi, yangi rasm-rusumlar joriy qilganda hamma hayratga tushgandi¹.

Antik davrlar haqida Strabon keltirgan bu rivoyatlar qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riliqi haqida biron narsa deyishimiz qiyin. Ammo hamma xalqlarning ham yovvoyilik davrida bunday vahshiyiliklar sodir bo'lgani tabiiyidir. Chunki bu o'rinda Strabon o'zi yashagan davrni emas, uzoq o'tmishdagi rivoyatlarni nazarda tutmoqda.

Aytishlariga qaraganda, Aleksandr Baqtriya va So'g'diyonada sakkizta shaharga asos soladi. Bir qancha shaharlarni, ya'ni Kariat, Maroqand, Kir-Eron shohi Kir tomonidan qurilgan shaharlarni bosib oladi. Kir shahridagi aholi isyon ko'targani uchun Aleksandr Kirni hurmat qilishiga qaramasdan, bu shaharni yakson etadi. Aleksandr ayyorlik bilan ikkita mustahkam qal'ani egallaydi. Ulardan biri Baqtriyadagi Sisimifr qal'asi bo'lib, ko'pincha uni Ariamaz deb atashgan. Sisimifr qal'asining balandligi 15 stadiy, kengligi 80 stadiy bo'lib, yuqori qismida hosildor yerlar bor edi. Bu hosildor yerlarda 500 kishi yashasa bo'lardi. Xuddi shu yerda Aleksandr izzat-ikrom bilan kutib olinib, Oksiartring qizi Roksanaga uylanadi.

So'g'diyonadagi qal'a Baqtriyadagi Sisimifr qal'asiga qaraganda ikki baravar baland edi. Shu yerlarda Aleksandr bronxidlar shahrini yakson qiladi. Bronxidlar Kserks hukmronligi davrida bu o'lkalarga badarg'a qilingan edi. Bu shahar vayron qilinishining yana bir sababi, hatto ibodatxonalarda o'g'rilik va xoinlik ko'payib ketgan edi².

Sisimifr qal'asi boshqa manbalarda Xerion deb atalib Oks daryosining yuqori oqimida, Baqtriya yerlarida joylashgan edi. Xerion qal'asining egasi Sisimifr bo'ladi. U Aleksandrga qarshi dastlab qattiq kurashadi, so'ngra Aleksandr bu qal'ani qo'lga kiritolmagach, Sisimifr bilan sulh tuzishga majbur bo'ladi. So'g'diyonadan o'tadigan daryoning nomini

¹ O'sha asar, 527- bet.

² O'sha asar, 525- bet.

Aristobul Politimet deb ataydi. Bu nomni makedoniyaliklar qo‘yib ketgan edi. Ular dasht joylarni sug‘orib, qumliklarga suv chiqaradi va u qaqroq yerlarga singib ketadi. Aytishlaricha, yer qazuvchilar, Ox daryosi bo‘ylaridan foydali qazilmalar topishadi. Ba’zi bir antik tarixchilarning aytishicha, Ox daryosi Baqtriya orqali o’tadi. Boshqalarning fikricha, bu daryo Baqtriyaga yaqin joydan oqadi. Yana ba’zilarning aytishlaricha, Ox va Oks daryolari alohida -alohida oqib borib Girkan dengiziga quyilgan. Boshqa ma’lumotlarga qaraganda, Ox boshlanishida alohida daryo bo‘lsa ham, keyinchalik Oks daryosiga qo‘shilgan. Yaksartning o‘zi esa alohida daryo edi. Lekin bu daryo ham dengizga borib quyilardi¹.

Shuningdek, bu o‘rinda Girkan dengizi deganda tarixchi Orol dengizini nazarda tutayotgan bo‘lsa kerak. Chunki Kaspiy dengizi haqida u boshqa joyda alohida to‘xtalib o’tgan edi.

Girkaniyadan So‘g‘diyonagacha bo‘lgan masofada, Eron, Makedoniya va Parfiyaga ma’lum xalqlar yashagan. Bessni ta’qib etish chog‘ida shu xalqlarga qarshi Aleksandr o‘zining so‘nggi harbiy yurishini qiladi. Lekin Bess asirlikka olinadi va orqaga qaytariladi. Spitamen esa xoinlarcha o‘ldiriladi. Shundan so‘ng Aleksandrning bosqinchilik yurishlariga So‘g‘diyonada yakun yasaladi. Patroklning ta’kidlashicha, ko‘pgina odamlar Hindistondan Girkaniyaga daryo orqali suzib keladi. Lekin bu rivoyatlarga ko‘plar ishonmaydi².

Spitamenning o‘limi haqida, takror aytamiz, tarixiy kitoblarda turli xil ma’lumotlarga duch kelamiz. Ba’zi bir manbalarda u xotini tomonidan, boshqa manbalarda Aleksandr ayg‘oqchilari tomonidan, yana bir manbalarda o‘z odamlarining sotqinligi tufayli o‘ldirilgan, deyiladi. Har holda, qanday bo‘lmasin, Strabon ta’kidlaganidek, u xoinlarcha o‘ldirilgan.

Shunday qilib, Strabonning «Geografiya» asari o‘lkamizning antik davrlari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Bu allomaning asarini o‘qib, O‘rtta Osiyodagi shahar va daryolar tarixi bilangina tanishib qolmasdan, balki bu yerdagi xalqlarning urf-odatlari, rasm-rusumlari, hayoti va turmush tarzi haqida ham ma’lumot olamiz. Muhim tomoni shundaki, Strabon boshqalar aytgan fikrlarni takrorlamasdan, yangi-yangi dalillarni keltiradi. Albatta, boshqa antik adiblar singari Strabon ijodida ham ayrim

¹ O’sha asar, 528-529 bet.

² O’sha joyda, 529- bet.

chalkash fikrlar uchraydi. Lekin aksariyat hollarda, adib voqealar bayoniga holis qarashga harakat qilgan. Yana bir muhim jihat shundaki, Strabon bobokalonlarimiz hayotidan aniq dalillar asosida hikoya qiladi.

POMPEY TROG VA YUSTIN

Qadim So'g'diyona tasviri va O'rta Osiyoning antik davrlarida ro'y bergan voqealar Pompey Trog va Yustin asarlarida alohida mahorat bilan chizib beriladi. Bu ikkala ulug' adib ijodining biri ikkinchisining davomidir. Ya'ni Pompey Trog ijodining davomini Yustin ijodida ko'ramiz.

Pompey Trogni biz Yustin ijodi orqali taniymiz. Uning 44 kitobdan iborat «Filiipp tarixi» asari turli xil sabablarga ko'ra keyinchalik yo'qolib ketgan.

Pompey Trog bu asarini eramizning 7-yillarida yozdi. Uning hayotiga oid juda kam ma'lumotga egamiz. Pompey Trog Narbon viloyatining Galli elida yashab o'tadi. Uning bobosi Sertori jangida jasorat ko'rsatganligi tufayli imperator Gney Pompey tomonidan Rimning grajdaniq huquqiga ega bo'lgan edi. Uning amakisi Mitridatov jangida Gney Pompey sarkardaligidagi otliq qo'shining bir qismiga boshliq qilib tayinlanadi. Uning otasi imperator Yuliy Sezar davrida kotib va tarjimon bo'lib ishlaydi.

Pompey Trogning «Filiipp tarixi» asari sujeti bilan ham biz asosan Yustin asari orqali tanishamiz. Taassufki, Yustin asarining ham ko'p sahifalari yo'qolib ketgan.

Keyinchalik boshqa bir noma'lum tadqiqotchi bu asarning kamchiliklarini, yo'qolib ketgan sahifalari o'mini to'ldirishga harakat qilgan.

Shu bilan Yustinning nomini jahonga tanitgan Pompey Trogning «Filiipp tarixi» asaridir. Pompey Trogni jahonga tanitgan esa yustinning «Pompey Trog epitomi» nomli asaridir. Pompey Trog haqida qisqagina ma'lumot bergen Yustin o'zi haqida lom-lim demaydi. Shu tufayli biz Yustin haqida juda qisqa ma'lumotga egamiz. Uning Avgust asridan keyin eramizning I-II asrlarida Rimda yashab o'tganligi ma'lum, xolos.

Bu ikki adib o'z zamonasida unchalik katta obro'-e'tibor topmagan bo'lsa ham, O'rta asrlar va Uyg'onish davrlariga kelib, nomlari ko'pchilikka tanish bo'lib qoldi.

Yustin hayotining ko‘p qismi Avgust asri va undan keyingi davrlar adabiyoti va san’atining rivoji bilan bog‘liqdir. Ma’lumki, eramizdan avvalgi 31- yilda o‘ziga «Avgust» degan muqaddas nomni olgan Rim imperatori Oktavian adabiyot va san’atning ravnaq topishi va gullab yashnashiga alohida e’tibor bilan qaragan. Imperator ɻamonasining ulug‘ adiblari va buyuk san’atkorlarini o‘z qoshiga chorlab, adabiyot kechalari va san’at anjumanlari o’tkazib turardi, Rim adabiyotiga Vergiliy, Goratsiy, Ovidiy kabi buyuk so‘z san’atkorlarini yetkazib bergen Avgust asri yana o‘zining son-sanoqsiz katta-kichik ijodkorlari bilan e’tiborga loyiq.

Yustin tarixni juda yaxshi bilgan, ayni paytda, mahoratli yozuvchi edi. Tarixchi sifatida Pompey Trog hikoya qilgan tarixiy voqealarning asoslarini puxta o‘rgangan va ularga o‘zining munosabatini bildirgan bo‘lsa, yozuvchi sifatida Pompey Trog asaridagi badiiy tasvirlarning davomchisi sifatida ko‘zga tashlanadi. Chunki asarda yo‘qolib ketgan ko‘pgina sahifalarning badiiy xususiyatlarini va ifoda vositalarini tiklashga harakat qilgan.

U Pompey Trog asaridagi badiiy epizodlarni o‘zining mustahkam g‘oyaviy pozitsiyasida turib tahlil etadi. Mana shu belgi va xususiyat Yustin dunyoqarashining kengligidan, bilimining chuqurligidan darak beradi. Aks holda, unga Pompey Trogning tarixiy romanini o‘rganish va unga badiiy jilo berish nasib etmagan bo‘lardi. Muhim shundaki, Yustin o‘z salafining romanini qayta kashf etadi, kerakli o‘rinlarda unga badiiy jilo beradi. Hatto Pompey Trog asaridagi ayrim xom, maromiga yetmagan epizodlar Yustin ijodxonasida pishib yetiladi, yozuvchining tasvir uslubida yoritiladi. Yustin Pompey Trogning dardiga sherik bo‘lganligini, ayrim lavhalarni hamdard bo‘lib, u bilan birgalikda bitganligini ko‘ramiz. Yana shunisi xarakterlikni, Yustin o‘ziga yoqmagan ayrim lavhalarni o‘z salaflarining asaridan olib tashlagan. Yoki boshqa o‘rinlarda bunday badiiy lavhalarga qaytadan ishlov bergen. Ba’zi bir o‘rinlarda boshqacha holatga duch kelishimiz ham mumkin. Romandagi katta-katta badiiy lavhalarni, tarixiy voqealar tasvirini o‘zi yaratadi. Shuning uchun ham, Yustinning xizmati Pompey Trog mehnatidan qolishmaydi. Shu tufayli bo‘lsa kerak, Yustin nomi jahon adabiyotida katta hurmat bilan tilga olinadi. Chunki Yustinning «Pompey Trog epitomi» asari o‘ziga xos badiiy asardir. Hatto u g‘oyaviy yuksakligi va badiiy go‘zalligi jihatidan ayrim grek va Rim romanlaridan ustun turadi. Shuningdek, bu asar ilmiy xarakterga ega. Unda xalqlar tarixiga oid muhim ma’lumotlar bor.

O'n besh kitobdan iborat Pompey Trogning «Filiipp tarixi» kitobini Yustin qayta ishlab to'ldirar ekan, baribir asarni avvalgi holiga keltira olmaydi. Bu o'n besh kitobda bayon qilingan voqealar tafsiloti asosan quyidagicha:

Yustin asarlarida, asosan, skiflar haqida hikoya qilinadi. «Skiflar yeri kengligi va uzunligi jihatidan bepoyon o'lka edi. Ular o'zlariga tegishli yerlarni chegaralab olishgan edi. Ularda na uy, na qurilish va na doimiy istiqomat qiladigan joy bor. Ular mudom ko'chib, qo'nib yurishga odatlangan. Mayda va yirik mollar boqadi. Ular xotini va bolalarini o'zlar bilan birga olib yuradi. Ularning issiqdan va sovuqdan saqlaydigan teridan tayyorlangan maxsus yoping'ichi bo'lgan»¹.

Yustin asaridan keltirilgan skiflar hayotiga oid bu epizod, qadim So'g'diyonada yashagan bobokalonlarimiz hayotiga juda o'xshash. Haqiqatan ham, uzoq o'tmishda bobokalonlarimiz urug'-urug', elat-elat bo'lib, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lib yashaganlar. Ular asosan chorvachilik bilan shug'ullangan. Shuning uchun ham, teri va namatdan yasalgan buyumlarni turli maqsadlarda ko'p ishlatgan. Bu o'rinda Yustin asosan eramizdan avvalgi IV-III asrlarni nazarda tutmoqda. Chunki romanda tasvirlangan skiflar hayotiga oid voqealar asosan shu davrni va hatto undan ilgari bo'lib o'tgan voqealarni beixtiyor esga soladi.

Asarni varaqlar ekanmiz, har ikkala muallifning ham skiflar hayotini yaxshi bilganligiga ishonch hosil qilamiz. Yustin skiflar hayotiga shunchaki kuzatuvchi sifatida yondashib qolmasdan, balki bu voqealarning ishtirokchisi, shohidi sifatida qalam tebratadi. Shu sabab skiflar hayotiga oid badiiy tasvirlar romanda juda hayotiy chiqqan. Har ikkala adib ham skiflar hayotini chuqur o'rgangan. Faqat Aleksandrning Osiyo mamlakatlariga, jumladan, O'rta Osiyoga qilgan harbiy yurishini tasvirlovchi asarlarni va u bilan bog'liq tarixiy manbalarni o'rganish bilan cheklanib qolmagan. Jumladan, Ptolomey, Aristobul, Kallisfenning «Kundalik»larini o'rganib chiqqan. Aleksandr bilan So'g'diyona yerlariga kelgan Evmen va Diodat qo'lyozmalari bilan yaqindan tanishgan. «Shoh jurnali» yoki «Efemerida» deb nomlanuvchi maxsus bebaho asarni sinchiklab o'rgangan. Yana shu davr tasvir etilgan o'nlab tarixiy lavhalarni qiziqib o'qigan. Eng muhimmi, Pompey Trog ham, Yustin ham Gerodot

¹ Yustin. Epitoma Pompey troga. Jurnal «Vestnik vremeney istorii» 1954, № 2, str. 212.

ijodini bilgan. Ayniqsa, Gerodotning «Tarix» yoki «Tadqiqot» asari har ikkala muallifning diqqat markazida turgan.

«Tarix» yoki «Tadqiqot» asarida skiflar hayotiga oid juda ko‘p manbalar berilgan. Pompey Trog va Yustin skiflar hayotiga doir ayrim voqealarning bayonini tasdiqlash uchun ko‘p o‘rinlarda Gerodot ijodiga murojaat qiladi. Ayniqsa, Yustinning «Pompey Trog epitomi» asarida berilgan skiflar haqidagi voqealar tasviri Gerodotning «Skifiya» asari tasviriga o‘xshab ketadi.

Biz bu o‘rinda Pompey Trog va Yustin nomlarini birdek tilga olib o‘tmoqdamiz. Biroq, biz asosan «Pompey Tpor epitomi» asarini tahlil qilyapmiz, o‘rganayotgan obyektimiz Yustinning «Pompey Trog epitomi» asaridir. Shuning uchun ham, asosiy e’tiborni mana shu asar tahliliga qaratmoqchimiz.

Yustin o‘z asarlarida skiflarning hayoti, yashash tarzi haqida hikoya qiladi. Muallif bu bilan chegaralanib qolmasdan, skiflarning xarakteri, se’l-atvori, dunyoqarashiga xos xarakterli belgilar haqida ham so‘z yuritadi. Masalan, Yustin asarining bir joyida shunday fikrni uchratamiz. «Ular tug‘ma haqiqatgo‘y edilar. Ular uchun o‘g‘irlik qilish eng og‘ir jinoyat edi».

Mana shu fikrdan ham ko‘rinib turibdiki, skiflar qadimdan haqiqatgo‘y bo‘lgan va haqiqat uchun kurashganlar. O‘g‘irlik esa qadimdan ota-bobolarimiz uchun yot narsa. Yustinning skiflarga bergen bunday yuksak ta’rifi qimmatini yo‘qotmaydi. Qadim bobokalonlarimiz xususida aytilgan bunday yuksak baho bugungi kunda ham avlodlar qalbini faxr hissi bilan to‘ldiradi.

Asarda tasvirlanishicha, «Skiflarning qo‘y-mollari alohida joylarda saqlanmasdan, keng yaylovlarda erkin yurardi. Skiflar oltin va kumushdan hazar qillardilar. Sut va asal iste’mol qilishga odatlanganlar. Yirtqich hayvonlarning terisidan ham foydalanadilar».

Bu epizodlar real hayotga juda yaqindir. Yozuvchi skiflarning qadim turmush tarzini xuddi o‘z ko‘zi bilan ko‘rgandek jonli lavhalarda tasvirlaydi. Haqiqatan ham, skiflarning qo‘y-qo‘zilari, mollari keng yaylovlarda o‘tlab yurgan. Ularni ayrim qo‘ralarda saqlash yoki maxsus arqonlarga bog‘lab qo‘yish odat bo‘lmagan. Qadimgi skiflar oltin yig‘ish va kumush buyumlar to‘plashga odatlanmagan. Tinch-totuv hayot, mol-ko‘ylarining ma‘rab yurishi ular uchun bebaho boylik bo‘lgan. Skiflar erkin hayot kechirish tarafdoi edilar. Shuning uchun ham, keng yaylovlarda mol-

qo‘ylarining erkin yurishi, hatto qo‘lga o‘rgatilgan parrandalarning bepoyon osmonda erkin uchishlari skiflar hayotiga oid erkinlik, ozodlikning ramziy ma’nosini kasb etadi.

Romanning bir o‘rnida, «boylikka hirs qo‘yish uni ishlata bilgan joydagina avjiga chiqadi» degan fikrga duch kelamiz. Skiflar uchun boylik oltin va kumush buyumlar emas, balki bebahohi terilar va undan tayyorlangan turli xil kiyimlar hisoblangan. Mayin junlardan qahraton qishlarni ham pisand qilmaydigan o‘tovlar yasashgan¹.

Hayvon go‘shtlarini iste’mol qilganlar. Sut-qatiqlari esa eng shifo-baxsh ichimliklar hisoblangan, hayvonlarning terisidan o‘q o‘tmaydigan qalqonlar yasalgan, egar-jabduqlar qilingan. Hatto saratonda issiq o‘tmaydigan soyabonlar ham teridan yasalgan. Xullas, «teri va junning qiymati skiflar uchun oltindan ham baland bo‘lgan»².

Yustin asarini o‘qib shunday xulosaga kelish mumkinki, antik davrlarda hamma narsa oddiy va tabiiy bo‘lgan. Ortiqcha bezaklarga hirs qo‘yish skiflar uchun begona edi.

Oltin va kumush buyumlarga qiziqish qadim skiflarga keyinroq kirib kelgan. Bunday qiziqish Osiyo mamlakatlari O‘rta Osiyodan avvalroq Eronda kuchaygan edi. Eron qadimdan taraqqiy etgan Afina shaharlariga yaqin joylashgan. Eronliklar bilan yunonlar o‘rtasida qadimdan savdosoti aloqalari kuchaygan. Hatto Yunon-Eron urushi qadimgi dunyo tarixida eng uzoq cho‘zilgan urushlardan bo‘lib, eramizdan avval VI asrga tegishlidir. Bu urushning tafsilotlari Esxilning (eramizdan avval 525-456- yillar) «Eroniyalar» tarixiy tragediyasida batatsil bayon etilgan. Eronlar bilan yunonlar o‘rtasida bu urushdan tashqari ilgari ham teztez jang-u jadallar bo‘lib, mol-dunyo, oltin talashib, ming-minglab kishilar qurban bo‘lgan. Eron shohlari dafn qilinganda ham ularning tobuti oltinga to‘ldirilgan.

O‘rta Osiyoda oltinga qiziqish Eron shohlari Kir, Doro (eramizdan avvalgi V asr) hujumlaridan so‘ng paydo bo‘ldi.

Hatto qadimgi Osiyo mamlakatlari dan biri bo‘lgan Troya bilan yunonlar o‘rtasidagi (eramizdan avvalgi XIV-XIII asrlar) urushning boshlanishiga ham bir «oltin olma» sabab bo‘lgan edi. Bu haqda yunon

¹ Hozirgi kunda ham O‘zbekistonning qorako‘l terilari jahon bozorida oltindan qimmat turadi.

² Arrian. Poxod Aleksandra. Izd. AN SSSR, M—L., 1962, str. 126.

antik adabiyotida yaratilgan siki asarlar, ayniqsa, «Troya sikli» dostonlarida keng ma'lumotlar berilgan. Yunon-Troya urushining boshlanish sabablarini hikoya qiluvchi «Kipriya» dostonida «Oltin olma» haqida kishi qalbini sehrlovchi qiziq-qiziq lavhalar berilgan. «Kipriya» dostonida tasvirlangan voqealarning tafsiloti bilan yaqindan tanishsak, osiyolik Parisning ustidagi sharqona kiyimlar Sparta go'zali Yelenani o'ziga rom etadi. Muhimi shundaki, Paris Afina va'da qilgan oltinlarga uchmaydi, Gera taklif etgan boyliklarni olmaydi, balki dunyoda eng latif go'zalni in'om etish istagida bo'lgan go'zallik ma'budasi Afroditaning so'zlariga ishonadi.

Bunday antik davrning nodir badiiy yodgorliklari bo'lgan asarlarda ko'plab qirg'in urushlarining boshlanishiga sabab bo'lgan narsa oltin va qimmatbaho zeb-u ziynatlar ekanligi haqida hikoya qilinadi.

Xalqimizning qadimiy og'zaki ijod namunalari bo'lmish «Alpomish» dostonida Qo'ng'irot elida yashovchi ikki aka-uka biri-shoh Boybo'ri, biri-boy Boysari o'rtasidagi nizoning kelib chiqishiga «Bir tirraqi uloq» sabab bo'lgan. «Ko'rquamish» ko'lida elibiylilik qilib, mollarini semirtirib, yaylovda yayrab yotgan Boysariga Boybo'rining mahramlari borib, «Bir tirraqi uloq»ni zakot berishni so'raydi¹. Bu taklifga ko'nmagan Boysari bilan Boybo'ri o'rtasida keskin konflikt, kelishmovchilik chiqadi. Ko'rinish turibdiki, xalqimizning ushbu dostonida ham O'rta Osiyo xalqlarining asosan chorvachilik bilan shug'ullanganligi tasvirlanadi. Muhimi shundaki, O'rta osiyoliklar tabiat tomonidan in'om etilgan bu bebafo boylik-qo'y-qo'zilar, sigir va echkilarga g'oyat katta davlat deb qaraganlar. Hatto otlarning, sigirlarning, serkalarning qulog'iga, bo'yniga, shohlariga oltindan taqinchoqlar taqib qo'ygan. Oltin taqinchoqlarni odamlarga emas, jonivorlarga taqishgan.

«Alpomish» dostonidagi epizodlarning birida, Boybo'ri mahramlaridan o'n to'ittasining otlarining bo'yniga tilla qo'tos² taqilganligi hikoya qilinadi.

Mana shu fikrlar ham Pompey Trog va Yustinning asarlarida bayon qilingan badiiy lavhalar hayotiyigini qadimda skiflarning oltindan hazar qilganliklarini, bu yerdagi xalqlarning asosiy boyligi chorvachilik ekanligini tasdiqlaydi. Bu o'rinda «hazar qilgan» degan so'zning ma'nosini «oltinga unchalik qiziqmagan» deb tushunmoq ma'quldir.

¹ Alpomish—Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 1987- yil, 8- bet.

² Qo'tos—ot bo'yniga osiladigan buyum.

Bundan, So‘g‘diyonada chorvachilik rivojlanib, ilm-fan taraqqiy etmagan ekan-da, degan tushuncha paydo bo‘lmasligi kerak. So‘g‘diyonadagi o‘nlab shaharlar, bu yerdagi muhtasham imoratlar, ulardag‘i go‘zal naqshlar, mustahkam qo‘rg‘on va devorlar grek-makedonlarni lol qoldirgan edi. Kvint Kursiy Rufning «Aleksandr Makedonskiyning tarixi» romanining IV kitobida ta‘kidlanishicha, skiflarning jangda kiyadigan «halqasimon temirdan yasalgan sovut kiyimi bor edi». Arrian «Aleksandrning yurishi» romanining uchinchini kitobida, ularning «Hamma joyini berkitib turadigan temirdan sovut kiyimi va turli xil qalqonlari bor edi», - deb yozadi.

Atoqli tadqiqotchi olim Bobojon G‘afurov eramizgacha bo‘lgan IV asarda O‘rtta Osiyo qurollarining yuqori saviyada bo‘lganligi haqida to‘xtalib, «Temir va bronzadan yasalgan hanjarlar, qilich va nayzalarining dastabaldoqlari juda go‘zal qilib bezatilgan edi. Ular hanjarlarini o‘ng tomonlariga osib yurganlar. Shamshirlarining uzunligi 1,2 metrgacha kelardi. Bir, ba’zan ikki qirralik temir boltalari bor, nayzalarining uzunligi ikki metr dan ziyodroq edi»¹. Mana shu dalilning o‘ziyoq So‘g‘diyonada ilm-fanning nihoyatda rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, Yustin asaridagi tarixiy voqealar bayoni ham beriladi. Unda ta‘kidlanishicha, «Skiflar uch marta Osiyo ustidan hukmronlik qilishga muvaffaq bo‘ladi. Ularning g‘alabaga erisholmagan hollari ham bo‘ladi. Skiflar Eron shohi Doroni sharmandalarcha o‘z yerlaridan quvib chiqaradi. Kirni butun qo‘sishnlari bilan qirib tashlaydi. Bu o‘rinda mualliflar Gerodot va Polien ijodida butun tafsilotlari bilan hikoya qilingan «To‘maris» va «Shiroq» asarlarini nazarda tutyapti.

Buyuk Aleksandrning sarkardasi Zapirion qo‘sishnlari skiflar tomonidan qirib tashlangan edi».

Yustin skiflar hayotiga ijobiy munosabatda bo‘ladi. Aleksandrning Osiyoga yurishini qoralamagan holda, skiflarning mardligi, vatanparvarligini ulug‘laydi. Ularning tashqi dushmanlarga qarshi kurashini, bosqinchi yovlarga bergen ayovsiz zarbasini maqtaydi. Romanni o‘qisak, skiflarning o‘ziga xos turmush tarzi Yustinga yoqib tushganligini sezish qiyin emas. Bu jihatdan, Yustinning haqiqiy yozuvchi sifatida o‘zga xalqlar hayotiga obyektiv munosabatda bo‘lganligi ahamiyatlidir. Yustin Makedon qo‘sishnlari va skiflar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan voqealarga ham halollik bilan yondashadi.

¹ B. G‘afurov. «Tadjiki». Izd-vo «Nauka», M., 1972, str. 92.

«Pompey Trog epitomi»da berilgan Doro (522-486) va uning farzandlari haqidagi hikoya ham xarakterlidir. «Doro o'limi oldidan shohlikni o'g'li Artakserksga¹ topshirib, O'rta Osiyo hokimligini Kirga² beradi.

Otasi shoh Doroning bunday hukmi Kirga ma'qul bo'lmaydi. Shuning uchun ham, u o'z akasiga qarshi pinhona kurash olib boradi. Artakserks buni payqab qoladi. Kirni o'z qoshiga chaqirib, uni oltin kishan bilan zanjirband qiladi. So'ngra uni o'ldirmoqchi bo'lganda onasi kelib qolib, xalaqit beradi. Natijada, Kir ozod etiladi. Shundan so'ng Kir Artakserksga qarshi pinhona emas ochiqchasiga jangga hozirlik ko'ra boshlaydi. Artakserks afinaliklarga qarshi urush e'lon qiladi. Ikki o'rtada qattiq jang ketayotganda Kir afinaliklarga yordam berib, Artakserksga qarshi kurasha boshlaydi. Jang bo'layotgan maydonda ikki aka-uka tasodifan yuzmayuz kelib qoladi. Kir birinchi bo'lib Artakserksni yaralaydi. Biroq vafodor ot Artakserksni jang maydonidan holi joyga olib boradi. Artakserksning xos kishilarini Kirni o'rab olib, o'ldiradilar.

Mana shu epizoddan ham ko'rinish turibdiki, qadim zamonalarda odamlar mol-dunyo, boylik orttirish uchun tug'ishgan o'z aka-ukalarini o'ldirishdan ham qaytmaganlar. Mol-dunyoga hirs qo'ygan shoh va shahzodalar uchun boylik har qanday insoniylikdan ham ustun turgan.

Minglab odamlarning hayoti bir hovuch oltin uchun qurbon qilingan. Qirg'in urushlarni boshlovchi shohlar o'z manfaatlari yo'lida ne-ne qishloq va shaharlarni kultepalarga aylantirgan, go'zai madaniyatimiz obidalarini xonavayron etgan. Qanchadan-qancha donish-u fozillarni og'ir qismatga giriftor qilgan. Qonxo'r Kirning jirkanch basharasini xalqimiz azaldan qarg'ab keladi. Doroning shaklar qabilasiga o'tkazgan zulmi zamonalr qarididan hayqirib, hali ham ovoz berib turibdi. Osiyolik bobokalonlarimiz massagetlar va shaklar qarg'ishiga uchrangan Kir³ va Doro abadiy yovuzlik, qonxo'rlik, qabihlik obraziga aylanib qolgan. Yustin o'z asarida bu tarixiy kimsalarning jirkanch basharasini mahorat bilan ochib beradi. Kserks hech qachon insoniyatga yaxshilik qilishni o'ylamaydi. Hatto o'z ukasi Artakserksga ham yovuz niyatda bo'ladi.

¹ Artakserks—Esxilning «Eroniylar» tragediyasida berilgan Kserks obrazidir. Kserks tarixiy shaxs bo'lib, O'rta Osiyo xalq og'zaki ijodida Kaykovus nomi bilan uchraydi.

² Bu o'rinda adib Kserksni (486-465) nazarda tutyapti.

³ Kir ham O'rta Osiyoning hokimligiga ega bo'lgandan so'ng, bu yerdagi qabilalar boshiga og'ir kulfatlar solgan.

Yustinning asarida qayd etilishicha, «Aleksandr Hindiqush tog‘lari orqali Baqtryaga eramizdan avvalgi 329- yilning bahorida kirib keladi». Bundan ko‘rinadiki, So‘g‘diyonaga ham u o‘sha yili bahor oyolarining oxirlarida keladi. Chunki baqtryialiklar Makedon qo‘sishinlariga deyarli qarshilik ko‘rsatmaydi. Shuning uchun ham, Aleksandr Baqtryada ko‘p ushlanmasdan, tezda So‘g‘diyona tomon yo‘l oladi. Sababi, So‘g‘diyonada ashaddiy dushmani Bess yashirinib yurganligi haqidagi xabarni eshitadi. Bess Eron shohi Doroning eng yaqin kishisi bo‘lib, Baqtrya hokimi qilib tayinlangan edi. Ayrim grek va rim romanlarida Bessning Baqtryada qo‘lga olinganligi ma’lum qilinadi. Yustin asarida esa bu voqealari aniq dalillar bilan ko‘rsatilib, Bessning So‘g‘diyonada asir olinganligi ta‘kidlanadi¹.

Yustin asarida hikoya qilinishicha, mana shu olis yurtlarda o‘zi haqida xotira qoldirish maqsadida Aleksandr Baqtrya va So‘g‘diyonada 7 ta shahar barpo etadi. Shulardan biri Yaksart (Sir) daryosi bo‘yiga qurilgan Aleksandriya Esxata (Xo‘jand yaqinida) shahridir. Bu shahar juda tez fursatda - o‘n yetti kunda qurib bitkaziladi. Shahar devorlarining aylanasi olti ming qadam edi². Bu Aleksandriya Esxata shahriga Kir tomonidan barpo etilgan **Kiropil** kabi uchta shaharning aholisi joylashadi³.

Bu yerda u qo‘shtining bir qismini va ishonchli kishilarini qoldiradi.

Bundan keyingi ma’lumotlar ham e’tiborlidir. Masalan, asarda Klit fojiasi bilan bog‘liq voqealar ancha ta’sirli epizodlarda berilgan. Shuningdek, Klit fojiasi Maroqand yaqinidagi tog‘da eramizgacha bo‘lgan 328- yilda ro‘y bergenligi qayd etiladi. Bizningcha, bu joy Urgut tog‘lari, Omonqo‘ton atrofida bo‘lsa kerak. U yerda Iskandarsoy bor. Yozda salqin va sersoya bo‘ladi. Klit Dionis sharafiga bag‘ishlangan ziyofat chog‘ida o‘ldirilgan.

¹ Yustin. Epitoma Pompeya Troga. «Vestnik drevney istorii», 1954, № 3, str. 215.

² B.Gafurov. «Tadzhiki». Izd-vo «Nauka», M., 1972, str. 96.

³ 6000 par qadam — B.G‘afurovning hisobicha 9 kilometrlik o‘lchov.

TARIXIY KUNDALIKLAR

Makedoniyalik shoh Filipp II davridayoq muhim hujjatlarni saqlaydigan maxsus arxiv mavjud edi.

Bu arxivda Fili pning shaxsiy hayotiga oid va uning sultanatiga tegishli muhim hujjatlar qattiq nazorat ostida saqlanardi. Bu davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan hujjatlar orasida Fili pning harbiy taktikasini belgilovchi, og‘ir janglar tarixini o‘rganuvchi va bo‘lajak janglar rejasini ifodalovchi ma‘lumotlar ham mavjud edi. Shuningdek, bu arxivda Yevropadagi va Osiyodagi ko‘pgina katta-kichik mamlakatlarning joylashuv xaritasi, jug‘rofiy xarakterdagи boshqa chizmalar, harbiy bo‘linmalarning joylashuv holati mahorat bilan ishlab chiqilgan edi. Bu hujjatlar bilan tanishgan kishi Fili pning katta harbiy kuchga ega ekanligiga, uning harbiy taktikasiga hayrat bilan qaramasdan iloji yo‘q. Saqlanadigan hujjatlarning tuzilishi, saqlanish tartibi yosh Aleksandrni lol qoldiradi. U barcha ilmlar singari janglar tarixi bilan ham yaqindan tanishishga qiziqadi. Janglar taktikasining nazariy assoslарини o‘rganishga alohida diqqat qiladi. Bunday jang tasvirlari aksariyat hollarda badiiy ifodalardan iborat edi. Jang tafsilotlari qiziq-qiziq badiiy epizodlarda hikoya qilingan. Aleksandr bunday lavhalarni yoshligida berilib o‘qiydi. 12-13 yoshlar chamasidagi Aleksandr katta qo‘singa qo‘mondonlik qilib, dushman bilan bo‘lgan jangda zafar qozonadi. Bo‘lib o‘tgan jang haqida otasi Fili pnga to‘lib-toshib hikoya qiladi. Shubhasiz, bunday g‘alabaga erishishda otasi Fili pning arxividagi janglar tarixiga oid hujjatlar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Fili pning hujjatlar to‘plami Aleksandrning haqiqiy sarkarda bo‘lib yetishishida, chuqur harbiy bilimga ega bo‘lishida haqiqiy maktab vazifasini o‘taydi. O‘zi taxtga o‘tirgandan so‘ng esa bu mакtabning mavqeyini yanada mustahkamlaydi. Arxivga nazoratchi qilib o‘zining eng ishonchli kishisini tayinlaydi. Ilgari otliq qo‘singa sarkarda bo‘lgan, nihoyatda hushyor va ziyrak kardinlik Evmen arxivdagi hujjatlarni ko‘z qorachig‘idek asray boshlaydi. Uning qo‘lida shohning xatlari, buyrug‘i va yo‘l-yo‘riqlari ham saqlanardi. Aleksandr davrida naqadar ulkan bo‘lgan, bebaho hujjatlar saqlanadigan bu arxivdan bizgacha juda ko‘p fakt va materiallar yetib kelgan. Bu hujjatlar majmuasi «Zenon arxivi» deb ataladi.

Zenon Apolloniyaning eng yaqin va ishongan kishisi edi. Bu arxivning nazoratini kuchaytirish masalasiga Apolloniya ham aralashardi. Arxivda har bir hujjat kuchli nazorat ostida saqlanardi. Xatlarning kimga

yuborilayotgani yoki kimdan kelganligi, buyruqlarning qachon chiqqanligi, oyi, kuni, hatto soatigacha aniq ko'rsatilib, maxsus jildga qayd etib borilardi. Shu bilan birga, bo'lgu'si janglar rejasи va janglarning taqdiri ham alohida yozilib qo'yilardi. Mana shunday hujjatlardan Apolloniyaning qo'li bilan yozilgan xatda eramizgacha bo'lgan 354- yil 21- sentabr sanasi qayd etilib qo'yilgan bo'lsa, o'sha xatning 22-sentabr soat 2 da kuchga kirganligi Zenonning qo'li bilan yozilgandir. Bu xatda Payrisadadan Argas shahriga yuk tashuvchi hayvonlarning yuborilishi so'ralgan edi. Shuningdek, saqlanmada Aleksandrning o'z qo'li bilan yozilgan xatlar ham mavjud edi. Masalan, Aleksandrning onasi Olimpiadaga yo'llagan xatlari, ayniqsa, muhim ahamiyatga egadir. Bu xatlarning birida Aleksandr Hindiston haqida yozadi. Arxivda Eron shohi Doroning Aleksandrغا yo'llagan ikkita maktubi ham bor. Unda Doro Aleksandr qo'lida asirlikda saqlanayotgan xotini, onasi va o'g'li bilan qizi haqida yozadi. Doroning xati fors tilining eramizdan avvalgi 330- yillardayoq rivojlanganligidan dalolat beradi. Shuningdek, bu arxivda saroy muhitiga oid, uning rejaları-yu, qo'lga kiritgan g'alabalarini hikoya qiluvchi «Kundalik» ham saqlanadi. «Kundalik»da Osiyo mamlakatlari, jumladan, O'rta Osiyoga oid ma'lumotlar ham qayd etilib borilgan. Afsuski, «Kundalik»da Aleksandrning sharqqa yurishi batafsil va keng yoritib borilmagan. Bu biz uchun muhim bir hujjatdir. Chunki «Kundalik»da Aleksandrning Eronga, shuningdek, O'rta Osiyoga yurishi qisqa qayd etib borilgan. Antik tariximizga oid yangi ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Ko'pgina Grek va Rim adiblari O'rta Osiyoning antik davrlarini yoritishda bu kundalikdan samarali foydalanganlar. Bu «Kundalik» tarixiy voqealarga boyligi jihatidangina emas, xalqlar va o'lkalar tarixini yoritganligi tufayli ham qimmatlidir.

Arxivda Osiyoning fors va arab mamlakatlariiga oid ma'lumotlar juda ko'p. Bunday ma'lumotlar grek-rim adabiyotida ham istagancha topiladi. Chunki Gretsiya ham Rim ham bu mamlakatlari bilan deyarli qo'shni joylashgandi. Aleksandr davridan avval ham bu mamlakatlari o'rtasida o'zaro turli xil aloqalar mavjud bo'lgan.

«Kundalik»da Aleksandr yurishining oxirgi yillari, ayniqsa, uning Hindiston safari va hayotining so'nggi kunlari batafsil yoritib borilgan. Aleksandrning o'limiga oid ma'lumotlar, uning kasallikka chalinganligi yoki zaharlangan bo'lishi ham mumkin degan taxminlar «Kundalik»dan keng joy olgan.

Olinfa shahridan Strattid degan adib Aleksandrning o'limi haqida 5 ta kitob yozgan ekan. Biroq bu kitob bizgacha yetib kelmagan. Aleksandrning o'limi sabablari haligacha aniq bir yechimga ega bo'lgan emas. Ba'zi bir tadqiqotchilar uni bezgak kasaliga yo'liqqan desalar, boshqa bir tarixchilar uni zaharlangan, degan xulosaga kelmoqdalar. «Kundalik»da Aleksandr hayotining so'nggi damlarini tasvirlovchi g'oyat hayajonli lavhalar anchaginadir.

O'rta Osiyo haqidagi, Amudaryo va Sirdaryo bo'yłari, bu ikki daryo oralig'idagi ro'y bergen antik davr voqealariga doir aniq ma'lumotlarni Ptolomey va Aristobul «Kundalik»laridan topamiz. Bu «Kundalik» biz uchun nihoyatda bebaho asardir. Ularda Aleksandrning harbiy yurishlari, uning oyog'i yetgan joylar tasviri, jang tafsilotlari batafsil bayon qilinadi. «Kundalik»da Aleksandrning o'limidan keyingi qarama-qarshiliklarga boy bo'lgan ijtimoiy hayot, o'zaro toj-taxt uchun kurash harakatlari ham yorqin ifodalangan.

Biz uchun qimmatli sanalgan bu «Kundalik»ning mualliflari Ptolomey bilan Aristobul kim edi, degan savolning tug'ilishhi tabiiy. Bu ikki zotning o'z «Kundalik»lari bo'lgan. Ular o'z ko'zlar bilan ko'rgan, bevosita o'zlar guvoh bo'lgan voqealarni qalamga oladi.

Ptolomey ham, Aristobul ham O'rta Osiyoda bo'lgan. Bu ikki adib O'rta Osiyoning antik davrlaridagi Girkaniya, Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, Xorasm, So'g'diyona mamlakatlariga safar qilishgan. Uchta yirik davlat - Baqtriya, So'g'diyona, Xorasmda yashaganlar. Bu yerdagi elatlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan, ularning madaniy hayoti bilan yaqindan tanish bo'lgan. Gurg'on, Murg'ob, Qunduz, Araks, Yaksart, Oks, Politimet daryolarini kechib o'tib, ularning vohasini kezgan. Bu haqda ular o'z «Kundalik»larida qiziqarli badiiy lavhalar keltirishgan.

Ona yurtimizning antik davrini o'rganishda mana shu ikki zotning ijodi g'oyat muhim rol o'ynaydi. «Kundalik»da tasvirlangan voqealar aniq, joylar nomi konkret, jug'rofiv holatlar jonli lavhalarda ifodalangan. Hatto «Kundalik»da berilgan tabiat manzaralari ham bizga tanish. Ayniqsa, hozirgi O'zbekiston hududini tasvirlaganda bizning qalbimizga yaqin bo'lgan bo'yoqlarni ko'ramiz. Tog'lar, sahrolar, cho'llar, to'qayzorlar, daryolar, shaharlar, hatto qishloqlar, odamlar, hammasi uzoq o'tmishimiz tarixi. Eramizgacha bo'lgan 329-327- yillar manzarasi.

To'g'ri, bu «Kundalik»larda ham Aleksandrni ko'klarga ko'tarib maqtagan o'rinalar, ortiqcha ta'riflarga boy lavhalar uchraydi. Hatto

Aleksandrga yoqish uchun ayrim jang tafsilotlari bo'rttirib tasvirlanadi. Shuningdek, mubolag'asiz ifodalar ham uchraydi.

Albatta, bu ikki olimni qonli urushlarga qatnashmagan, bosqinchilik tug'ini qo'lida tutmagan, deb aytolmaymiz. Chunki ularning har ikkalasi ham Aleksandr Makedonskiyning eng yaqin kishilari bo'lgan. Biz uchun bugungi kunda ularning yozib qoldirgan «Kundalik»lari noyob hujatlardir.

«Kundalik»ning eramizdan avvalgi 332-322- yillarga tegishli sahifalari, ayniqsa, muhim ma'lumotlarga boy va rang-barang. Bu yillarga oid sahifalar Osiyo mamlakatlari Eron, Afg'oniston, Hindiston, shuningdek, O'rta Osiyo tarixi bilan bog'liq. Bu yillarga oid ma'lumotlar Osiyo mamlakatlarining yozma adabiyotida saqlanib qolmagan. Ko'pgina xalqlarning yozuvi ham o'sha davrlarda shakllanmagan edi. Bu davrga tegishli yurtimizning tarixi haqida manbalar asosan Ptolomey va Aristobulning «Kundalik»laridan boshlanadi.

Ptolomey bilan Aristobulning «Kundalik»lari ellinizm davrining shoirlari Leonid Terentning epigrammalari, Arat poemalari, Kollimax gimnlari, Meleagr she'rlari kabi yuksak badiiy-estetik qimmatga ega bo'lmasa ham, biz uchun ular tarixiylik nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Antik davrimizni tasvirlovchi yagona yozma manba bo'lGANI uchun ham qimmatlidir.

Ptolomey o'z davrining yirik harbiy va siyosiy arbobi edi. Aleksandr sarkardalari orasida u eng atoqlisi edi. Aleksandr unga ishonardi, shuning uchun ham, uni o'ziga shaxsiy qo'riqchi qilib oladi. Ptolomey Aleksandrning saralangan qo'shinlariga sarkandalik qiladi. Muhimi shundaki, Ptolomey kundalik voqealarni yozib borishga o'z ixtiyori bilan kirishadi. «Kundalik» kimningdir topshirig'iga binoan yoki Aleksandrning buyrug'i bilan yozilmay, bunday «Kundalik»ning kelgusida ahamiyati katta ekanligini uning o'zi his qiladi. Chunki, Aleksandrning Ptolomey va Aristobuldan tashqari ham Evmen va Diodot kabi maxsus «Kundalik yozuvchi» muarrihlari ham bor edi. O'z navbatida, Aleksandr sarkardalari Ptolomey bilan Aristobulga ham «Kundalik» yozishga ijozat bergen edi. O'sha davrda, ayniqsa, qo'shinlar orasida shohdan beruxsat tarixiy asar yozish mumkin emas edi.

«Kundalik»da ifodalangan voqealarning eng muhimlari bilan Aleksandr tanishtirib borilgan. Uning «Kundalik» sahifalaridan joy olgan ko'pgina sarguzashtlar Aleksandrga manzur bo'lgan.

Ptolomeyning «Kundalik» asari bizgacha asl holda to‘liq yetib kelmagan. Uning ayrim sahifalarigina saqlanib qolgan, xolos. Bu sahifalarni amerikalik tarixchi Robinson keyinchalik to‘plab tarjima qiladi. Muhimi shundaki, Ptolomeyning bu «Kundalik» asari keyingi davrlarda yaratilgan o‘nlab romanlar uchun tarixiy manba bo‘lib xizmat qildi. Demak, asar o‘zining to‘liq mundarijasini saqlab qoldi. Ptolomey va Aristobulning «Kundalik»lari yozilmaganda edi, Aleksandr haqida bitilgan keyingi kitoblar sahifalari u qadar hayotiy va jonli chiqmagan bo‘lardi. Ptolomeyning «Kundalik» asari bizgacha yetib kelgan o‘nlab romanlar sahifalarida o‘zining yorqin ifodasini topgan. Garchi uning ko‘pgina sahifalari yo‘qolgan bo‘lsa-da, u to‘lig‘icha o‘z ahamiyatini saqlab qolgan.

O‘rta Osiyoning antik davrlari haqidagi qaysi bir grek va Rim tarixini varaqlamaylik, Ptolomey va Aristobul nomiga duch kelamiz. Kursiy Ruf, Plutarx, Arrian, Diodor, Strabon, Pompey Trog, Yustinlar o‘z asarlarida Ptolomey va Aristobul nomlarini qayta-qarta tilga olib o‘tadilar. Shunday qilib, endilikda badiiy adabiyotda ham Aristobul va Ptolomeyning o‘ziga xos obrazlari yuzaga keldi. Ayniqsa, «Aleksandriya, Aleksandr haqida roman», Ivan Yefremovning «Afinalik Tais» romanlarida bu ikki muarrihnинг badiiy obrazlari yaratilgan.

Ptolomey Makedoniyaning badavlat xonadoniga mansub edi. Shuning uchun ham, yoshligida yaxshi ta’lim oladi. Ayniqsa, tarix va ritorikani sevib o‘qiydi, falsafani chuqur o‘rganadi. Harbiy ilmni puxta biladi. Aleksandr Osiyoga yurish qilishdan oldin ham Ptolomeyni yaxshi bilgan. Ptolomey harbiy nazariya va amaliyotni yaxshi bilgani uchun ham Aleksandrga yoqib qolgandi. Aleksandr qo‘sishnulari orasida qilichbozlikda Ptolomeyga teng keladigani topilmasdi. Ptolomey zamonasining ulug‘ adiblarining asarlarini sevib o‘qirdi. Uning «Kundalik» asarida asosan harbiy safar tafsilotlari, shuningdek, So‘g‘diyonada yuz bergen muhim voqealar, bu yerdagi elatlarning urf-odatlari, hayot tarzi bayon qilinadi.

Aleksandrning vafotidan so‘ng toj-taxt uchun o‘zaro urushlar kuchayib ketadi. Ulkan ellinizm davlati mayda bo‘laklarga bo‘linib, zulm kuchaydi. Aleksandr taxtiga da‘vogarlar ko‘payadi. Biroq Ptolomey tadbirkorlik bilan mamlakat shohligini egallaydi. Qarigan chog‘igacha shohlik taxtidan tushmaydi. Ancha keksayib qolgandan so‘ng 304- yilda o‘z taxtini o‘g‘li Ptolomey II Filadelfga bo‘shatib beradi.

Ptolomey «Aleksandrning yurishi» romanini yozishda o‘zi yig‘gan tarixiy ma’lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, Kallisfen «Kunda-

lik»lariga ham, Evman va Diodot tomonidan qayd etilib borilgan «Efemerida» yoki «Shoh jurnali»dan ham foydalanadi. Ptolomey roman yozishga asosan qarilik chog'ida qo'l uradi. Ayniqsa, taxtni o'z o'g'li Ptolomey II Filadelfga bo'shatib bergandan so'ng, butunlay ijod ishlariga berilib ketadi.

Aleksandrning Ptolomey kabi yuzlab sarkardalari bo'lgan. Ular ichida Ptolomeyning nomi ulug'. Chunki u o'zidan keyingi avlodga o'lmas asar qoldirdi. Ptolomeyning safdoshi, u bilan O'rta Osiyoga kelgan cassandriyalik Aristobul ham Aleksandr haqida o'z taassurotlari asosida asar yozadi. Aristobul o'zi mustaqil ravishda «Kundalik» tuzadi. Sharq mamlakatlarining qishloq va shaharlari, bu yerlarda bo'lgan janglar tarixi, sharq tabiati va xalqlari hayotini o'z kundalik daftariga batafsil yozib yurgan. Kundalik daftari sahifalarini yildan yilga boyitib boradi. Sharq mamlakatlaridan ketgandan keyin ham ijod dardi bilan yashaydi. O'z safdoshi Ptolomeyning asar yozishga kirishganini eshitgandan so'ng, u bilan bellashadi. Ptolomey kabi Aristobul ham o'z kundaligidan tashqari, Evman va Diodot xotiralariga murojaat qiladi. «Efemerida» yoki «Shoh jurnali» deb nomlanuvchi maxsus hujjatlar to'plamini qayta-qayta o'qib chiqadi. Aristobul ancha keksayib qolgan bir davrda - 84 yoshida asar yozishga qo'l uradi. Keksalik chog'ida, ya'ni 90 yoshga qadar Aleksandr Makedonskiyning sharq mamlakatlariga qilgan yurishi haqida roman yozadi. O'z asarini qariyb yakunlab, so'ngra olamdan o'tadi. Ptolomey kabi Aristobul ham uzoq yillar davomida asar yozishni niyat qilib yuradi. Aristobulning asari Ptolomeynikidan farq qiladi. Ptolomey sharq mamlakatlariga sarkarda sifatida kelgan bo'lsa, Aristobul usta hunarmand sifatida keladi. Ptolomey o'z asarida ko'proq janglar tarixini yozishga harakat qilsa, Aristobul Osiyo mamlakatlarining geografik joylashishi, tabiat tasviri, daryolar va shaharlар tarixi haqida yozadi. Oks (Amu) va Yaksart (Sir) daryolari ustiga ko'priq qurish ishlarida shaxsan o'zi qatnashadi. U o'z ishining mohir ustasi edi. Daryolar ustiga doimiy va vaqtinchalik ko'priklar qurish ishlarini u yaxshi bilardi. Aristobul Aleksandr Makedonskiyning eng yaqin va ishongan kishilaridan biri edi. Shuning uchun ham, muhim ahamiyatga ega bo'lgan maxfiy ishlarni Aleksandr Aristobulga alohida ishonib topshiradi. Eron shohi Kirning qabrini ochish ishini ham Aleksandr Aristobulga ishonib topshiradi. Aristobul o'z davrining bilimdon, savodxon kishilaridan biri edi.

Ayrim manbalarda, Aristobul 90 yoshga kirib vafot etgan degan faktlar uchrasa, boshqa birlarida, 84 yoshida o'lgan, degan taxminlar bor. Fikrimizcha, Aristobul Aleksandr haqida o'z xotiralariga tayanib asar yozishni ancha ilgari boshlagan. Chunki insonning keksalik chog'ida xotirasni ancha susayib qoladi. Buning ustiga, u asar yozishni Aleksandrning o'limidan keyin boshlagan. Keksa bir adibning xotirasidan ko'p voqealar bayoni ko'tarilgan bo'lishi mumkin. Aristobul 84 yoshida emas, ilgariroq asar yozishga qo'l urgan, degan fikr to'g'ridir.

Ptolomeyning asari ham, Aristobulning asari ham «Boburnoma», «Shayboniynoma» singari tarixiy faktlar, xotiralar majmuasidan iborat asar edi. Aristobulning kundaliklari keyingi davrda yaratilgan o'nlab romanlar uchun muhim hayotiy manba bo'lib xizmat qildi.

XALQ IJODI DURDONASI

Ellinizm davrida adabiyot va san'at gullab yashnadi. Bu davrda grek adabiyoti yangi bir taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. So'z san'ati yangi ijodkorlarning nomi bilan boyidi. Janr va mavzu jihatidan xilma-xil asarlar yuzaga kela boshladi. Badiiy adabiyotning mavzu ko'lami kengaydi. Ayniqsa, tarixiy nasriy asarlarga e'tibor yanada oshdi. Shu sabab tarixiy shaxslar obrazini yaratish, tarixda bo'lib o'tgan voqealar asosida asarlar yozish bu davr adabiyotida an'anaga aylanadi.

Ilgarigi davrda mifologik xarakterdagи sujetni, ma'bud va ma'budalar bilan bog'liq sarguzashtlarni ifodalash asosiy o'rinda turgan bo'lsa, ellinizm davriga kelib tarixiy obrazlar, konkret inson shaxsi va ular bilan bog'liq hayotiy voqealarni tasvirlash adabiyotning yetakchi mavzusiga aylanadi. Bu davr adabiyoti o'zining faqat mavzu ko'lami bilangina emas, g'oyaviy jihatidan ham yuksak darajaga ko'tarilgan edi. Badiiy adabiyot namunalarining estetik ta'sir kuchi orta bordi. Bir so'z bilan aytganda, bu davr adabiyotida mavhumlikdan konkretlikka, oddiylikdan murakkablikka tomon siljish yuz beradi. Mifologik xarakterdagи obrazlar o'rnini konkret tarixiy shaxslar obrazi egalladi.

Tarixiy shaxslar obrazi ellinizm davrigacha bo'lgan grek adabiyotida ham mavjud edi. Bunga misol qilib Esxilning «Eroniyalar» tragediyasini ko'rsatishimiz mumkin.

Attika davrining ulug‘ adibi Esxilning 90 ga yaqin tragediyalaridan yolg‘iz «Eroniylar» tragediyasi tarixiy xarakterga ega bo‘lsa ham, bu o‘sha davr uchun muhim ahamiyatga ega edi. Esxilning qolgan hamma tragediyalari mifologik xarakterdadir. Shuningdek, Sofoklning 120 dan ortiq tragediyalari, Yevripidning 90 dan ortiq asarlarining mavzusi mifologik xarakterdagи voqealar tasviriga qaratilgan. Shuning o‘zi grek adabiyotining antik davrlaridayoq xalq og‘zaki ijodiyoti nihoyatda rivojlanganligidan, gullab yashnaganidan dalolat beradi. Chunki Homer, Esxil, Sofokl, Yevripid ijodiyoti xalq og‘zaki ijodi ta’sirida yuzaga kelganligini ko‘ramiz.

Ellinizm davri adabiyotining yuksalishiga asosiy sabab, davrdagi ijtimoiy-siyosiy voqelikda muhim o‘zgarishlar yuz berganligida, deb tushunmoq lozim. Ikkinci tomondan bu davr grek adabiyoti Attika davrida yashab o‘tgan so‘z san’atkorlaridan Homer, Esxil, Sofokl, Yevripid, Aristofan kabi ulug‘ ijodkorlari bilan haqli ravishda faxrlanar edi. Ellinizm davri ijodkorlari bu ulug‘ zotlarning asarlarini bir chetga surib qo‘ymasdan, zamon talablari asosida ular yaratgan eng ilg‘or an’analarni o‘zlariga qabul qildilar. O‘zlaridan ilgari yashab o‘tgan salafslari ijodiga chuqur hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo‘la boshladilar.

Ellinizm davri adabiyotida Aleksandr haqida juda ko‘p asarlar yaratilganligining guvohimiz. Bu davr tarixiy asarlarida Aleksandr Makedonskiy obraqi asosiy bosh qahramon sifatida tasvirlanadi. Masalan, Plutarxning Aleksandr haqidagi romani bunga misol bo‘la oladi. Tarixiy nasrning yorqin namunasi bo‘lgan Ptolomey va Aristobul asarlarida Aleksandr shaxsi ulug‘lanadi. Aleksandr obraqi yozma adabiyotdagina emas, xalq og‘zaki ijodida ham o‘zining talqinini topadi. Bunday yozma va og‘zaki ijod namunalarida Aleksandr bosqinchchi sifatida emas, donishmand va hatto muqaddas obraz sifatida tasvirlanadi. Bunday ruhda yuzlab hikoyatlar, rivoyatlar vujudga keladi. Faqat nasrdagina emas, she’riyatda ham Aleksandr shaxsini ulug‘lovchi she’rlar, dostonlar yaratiladi. Bunday asarlarda tarixiy haqiqat mezonи buziladi. Ijodkorlar Aleksandr obrazini yangi-yangi sifatlar bilan bo‘yab-bezaydilar. Aleksandrning bosqinchilik siyosatiga panja orasidan qaraydilar. To‘g‘ri, tarixiy shaxsga nisbatan, uning badiiy obraqi yorqin ijoddir. Badiiy to‘qima har qanday tarixiy obrazni uning shaxsiga nisbatan ijodiyroq tasvirlashni taqozo etadi. Muhimi shundaki, grek xalqi o‘z farzandini bosqinchchi sifatida emas, donishmand, yo‘lboshchi, haloskor obrazida ko‘rishni xohlaydi.

Har bir xalq o‘z farzandini ardoqlashga harakat qiladi. Xuddi ota yoki ona o‘z dilbandini aziz bilganidek, xalq ham o‘z yo‘lboshchilari, sarkardalari, haloskorlarini yoqlaydi, hatto ularga g‘urur bilan qaraydilar. Masalan, Zahiriddin Muhammad Boburni olib qaraylik. Hindistonliklar unga bosqinchı sıfatida munosabatda bo‘ladilar. O‘zbek xalqi esa o‘z farzandini qudratli shoh va buyuk shoir deb biladi. Amir Temur saltanatining ham O‘rta Osiyoning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida tutgan o‘z o‘rnı bor. Ikkinci tomonidan u bosqinchı shoh. Xuddi shu nuqtayı nazardan olib qaraganimizda, Aleksandr, eng avvalo, Makedoniya xalqining o‘ziga xos davlat arbobidir. O‘sha davrlarda Makedoniya, Gretsiya va hatto Rim ham yaxlit bir davlat negiziga ijplashgan edi. Shuning uchun ham, bu xalqlar adiblari o‘z hukmdori bo‘lgan Aleksandr normini ulug‘lar, uning shaxsiga hurmat va ehtirom bilan qarardi. Grek va Rim adabiyotida Aleksandrning ijobiliy obraz sıfatida tasvirlanishining boisi ham shundadir. Mana shunday xalq ijodiyotining qodir namunasi «Aleksandr haqida roman» asaridir. Bu romanning qachon vujudga kelgani aniq sanalar bilan ko‘rsatilmagan. Chunki u xalq og‘zaki ijodi namunasidir. Bu romandagi ayrim epizodlar asarning hali Aleksandr hayotlik chog‘idayoq yaratila boshlanganini ko‘rsatsa, boshqa bir epizodlar bu xulosaga ziddir. Roman xalq og‘zaki ijodining uzoq yillik mahsulidir. Bu asar asrlar davomida og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga o‘tib keladi. Undagi ko‘pgina lavhalar yangilanadi, ba’zilari esa zamonlar ruhiga moslashtiriladi. Bu romanning konkret bir ijodkor tomonidan yaratilgani noma’lum.

«Aleksandr haqida roman» asarining muallifi xalq, butun bir jamoadir. Shuning uchun ham, romanda ma’lum darajada tarixiylik buzilgan. Tasvirlangan voqealarning qayerda va qachon bo‘lib o‘tganligi aniq aytilmaydi. Tarixiy voqeanning qayerda va qanday holatda yuz berganini aniq tarixiy hujjatlar asosida ko‘rsatish, tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylanishi jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq bu jarayon individual ijodkorlar tomonidan yaratilgan asarlarga tegishli. Xalq ijodiyotida, omma tomonidan yaratilgan asarlarda xayolot kuchli bo‘ladi. Bu tabiiy holdir. Qaysi bir xalq romanini yoki og‘zaki ijodini olib qaramang, unda fantastik ruhga keng o‘rin berilganini ko‘ramiz. Xuddi mana shu jarayon, fantastik ruh individual ijodkorlar tomonidan yaratilgan asarlarni omma tomonidan yaratilgan asarlardan ajratib turadi. Makedoniya xalqi tomonidan yaratilgan «Aleksandr haqida roman»ning

u haqda individual ijodkorlar tomonidan yaratilgan boshqa romanlardan farqli tomoni ham shunda. Bu haqiqat faqat grek-makedon adabiyotiga tegishli hodisa bo'lib qolmasdan, barcha xalqlar adabiyotiga ham taalluqlidir.

«Aleksandr haqida roman» asarida tarixiylik mezoni buzilgan, dedik. Albatta, tarixiylik deganda biz faqat tarixiy haqiqatni, tarixiy ma'lumotlarnigina tushunmasligimiz kerak. Tarixiylik tushunchasi keng ma'noga ega. Bu ijodkorning nuqtayi nazarini ham belgilaydi. Tarixiylik o'tmishni tarixiy taraqqiyot jarayonida tasvirlashni taqozo etadi. Bir so'z bilan aytganda, tarixiylik barcha voqealarни obyektiv harakatda, rivojlanishda ko'rsatishdan iborat. Bu, asosan individual ijodkorga xosdir.

Xalq ijodiyotida esa tarixiylik biroz fantastik, ko'tarinkilik ruhida beriladi. Ya'ni xalq tarixni fantastik bo'yoqlar bilan bezaydi. Unga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi. Shuning uchun ham, «Aleksandr haqida roman»dagi Aleksandr obrazini tarixdagи Aleksandr Makedonskiyga teng deb bo'lmaydi. Xalq romanidagi Aleksandrni Klitarx, Kursiy Ruf, Arrian, Plutarx va boshqa yozuvchilar tomonidan yaratilgan asarlardagi Aleksandr obrazi bilan ham teng baholash to'g'ri emas. «Aleksandr haqida roman»dagi Aleksandr obrazi, eng avvalo, xalqning idealidagi obrazdir. Endi u tarixdagи Aleksandr Makedonskiy emas, xalq romanidagi odil shoh obrazidir. Xalq idealidagi qahramon tarixdagи Aleksandr Makedonskiy singari qishloqlarga o't qo'ymaydi, shaharlarni xonavayron etmaydi, minglab begunoh insonlarni bekorga nobud qilmaydi. U, eng avvalo, donishmand shoh obrazidir. U o'zga shohlarni ham adolatga chaqiradi. Shu jihatdan grek-makedon xalqi tomonidan yaratilgan «Aleksandr haqida roman» Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» romanidagi Iskandar Zulqarnayn obraziga juda yaqin turadi. Albatta, har ikkala asarda tasvirlangan voqealar, sarguzashtlar bayoni bir-biridan farq qilsa ham, Iskandar obrazi bilan Aleksandr obrazi o'tasida, ayniqsa, ularning xarakteri, fazilatlari, odil shohlarga xos xislatlari bir-biriga yaqin. O'zbek xalq og'zaki ijodida yaratilgan ko'pgina hikoyat va rivotatlarda ham Iskandar xalq idealidagi odil shoh obrazi sifatida tasvirlanadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida yaratilgan Iskandar obrazi ham «Aleksandr haqida roman»dagi asosiy obrazga ancha yaqin turadi. Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» asari ham xalq og'zaki ijodiyoti ta'sirida vujudga kelgan.

Aslida «Saddi Iskandariy» XV asrning eng yuksak darajadagi ijod namunasidir. Demak, sharq adabiyotida badiiy doston XV asrdayoq yuksak

darajada shakllangan edi. Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» asarini she'riy yo'l bilan yozilgani uchun doston deyishga odatlanib qolganmiz. Bu, bizningcha, uncha to'g'ri emas.

Alisher Navoiy xalq og'zaki ijodiyoti an'analarini izchil davom ettiradi. Ulug' bobomiz ijodkor sifatidagina emas, shaxs sifatida ham xalq manfaati, uning baxt-saodati yo'lida kurashgan. Shoир sifatida xalq ezgu-niyatlarining kuychisiga aylangan. Shu nuqtayi nazardan qaraganimizda, Alisher Navoiy yaratgan Iskandar Zulqarnayn obraz faqat shoирning o'zi yaratgan obraz emas, balki xalq idealidagi umumlashma obrazdir. Iskandar haqida xalq og'zaki ijodida ham qator dostonlar bor. Shuning uchun ham, bu asar xalq qalbidan chuqur o'rinn olgan.

Iskandar Zulqarnayn faqat o'zbek xalqining emas, balki O'rta Osiyo xalqining yoki umuman Osiyo xalqlarining idealidagi obrazdir. Bunga misol qilib Nizomiy Ganjaviyning «Iskandarnoma», Amir Hisrav Dehlaviyning «Oinayi Iskandariy», Abdurahmon Jomiyning «Xiradnomayi Iskandariy» asarlaridagi Iskandar obrazlarini ko'satish mumkin. Odil shohlar haqida hikoya qiluvchi Firdavsiyning «Shohnoma»sida ham Iskandar obraziga juda keng o'rinn berilgan. Hind xalqi ijodiyotining ajoyib namunasi bo'lgan «Kalila va Dimna»da ham Iskandar obraz keng talqin qilinadi. Osiyo xalqlari o'rtasida tarqalgan «Qobusnama»da ham Iskandar donishmand inson obraz sifatida tasvirlanadi.

Osiyo xalqlari og'zaki ijodiyotida yaratilgan Iskandar haqidagi hikoyat va rivoyatlarni to'plasak, tom-tom kitoblarga ham sig'maydi. Iskandar xalq sevgan qahramondir.

Alisher Navoiy «Saddi Iskandariy» asarini Husayn Boyqaroga atab yozadi. Bundan tashqari, o'nlab she'rлarida Iskandar nomini tilga oladi. Husayn Boyqaroga Iskandar haqida bir qancha hikoyat va rivoyatlar so'zlab beradi. Husayn Boyqaroni adolatga chaqiradi, ezgulik sari chorlaydi. Ammo, afsuski, butun intilishlari esa zoye ketadi. Husayn Boyqaro do'sti Alisher Navoiy ko'rsatgan yo'ldan bormasa ham, Iskandar Zulqarnaynga taqlid qiladi. Iskandarday bo'lishga harakat qiladi. Biroq zamon, davr uning Iskandarday adolatli hukmdor bo'lishga yo'li qo'ymaydi. O'sha XV asr, feodalizm sharoiti, zulm avjiga chiqqan davr Alisher Navoiy dunyoqarashlariga tamoman zid edi. Iskandar Zulqarnayn timsolidagi Navoiyning orzulari amalda chilparchin bo'ladi. Faqat u

xayoldagina, poetik ohanglar og'ushidagina qolgan edi. Bu jarayon Uyg'un va Izzat Sultonning «Alisher Navoiy» dramasida ham mahorat bilan ko'rsatib berilgan.

Iskandarday odil shoh o'zbek xalqining yoki umuman osiyoliklarning ideali bo'libgina qolmasdan, grek va makedon xalqlarining ham orzusiga aylangan edi. «Aleksandr haqida roman»ning ko'pgina epizodlari, hatto Aleksandr obrazi dunyoqarashidagi ko'pgina dono fikrlar osiyoliklar tomonidan yaratilgan Iskandar obraziga yaqin turadi. Bu jihatdan, «Aleksandr haqida roman»dagi Aleksandr obrazi tarixdagい Aleksandr Makedonskiy shaxsiga nisbatan ko'proq Iskandar obraziga yaqindir. Chunki romandagi Aleksandr obrazi tarixiy shaxs emas, balki xalq idealidagi Aleksandr - adolatli shoh obrazidir.

Xalq orzusidagi odil shohlar aslida tarixda bo'lмаган. Chunki zulm, ekspluatatsiyaga asoslangan jamiyat bunga yo'l bermagan. Biroq hayotda adolatli bo'lishga intiluvchi donishmand shohlar ham o'tgan. Masalan, O'rta Osiyoda Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rimda Oktavian Avgust, ruslarda Ulug' Pyotr va hokazo. Lekin ularni ham xalq idealidagi adolatli shohlarga teng deb bo'lmaydi. Bu hukmdorlarda nisbatan ijobjiy xislatlar ko'proq bo'lган chunki bu podshohlar o'zlaridan avval o'tgan shohlarga nisbatan adolatli hukm chiqarishga harakat qilganlar Bobur, Ulug'bek, Ulug' Pyotr, Oktavian Avgust tarixda o'tgan boshqa bir guruh hukmdorlardan - Chingizzon, Napoleondan farq qiladi. Shuningdek, Aleksandr Makedonskiyning faoliyatiga baho berganda ham, avvalo, grek va Rim adiblari ijodiga tayanamiz. Kursiy Ruf, Plutarx, Arrian, Pompey Trog, Diodor, Yustin romanlarini o'qisak, bu adiblar Aleksandr Makedonskiyning tarjimayi holini nisbatan obyektiv yoritib bergenlar. Bu adiblar ijodida Aleksandr xarak-teridagi salbiy, shu bilan birga, ayrim ijobjiy xislatlar ham ko'rsatilgan. Xalq ijodining namunasi bo'lган «Aleksandr haqida roman»da esa Aleksandr faqat ijobjiy obraz sifatida tasvirlanadi. Romanda badiiy to'qimaga keng o'rinn berilgan. Tarixiy haqiqatni tasvirlash ijodkorlarning fikr doirasidan uzoqda qolgan. Natijada, tarixiy davr koloriti, Aleksandr faoliyati bilan bog'liq voqealar mohiyati o'z ifodasini yetarli darajada topmagan.

Roman voqealar go'zal badiiy bo'yqlarda tasvirlanadi. Tiniq ifoda, poetik ohangdorlik romanning asosiy pafosiga aylangan. Bunday belletristik ifoda umuman xalq ijodi namunalariga tegishlidir.

«Aleksandr haqida roman»da g‘oya yetakchi o‘rinda turmaydi. Biroq, roman o‘qimishlidir. Undagi go‘zal badiiy ifodalar o‘quvchini beixtiyor sehrlaydi. Aleksandr bilan Doro yoki Aleksandr bilan Roksana o‘rtasidagi dialoglar o‘ziga xos falsafiy xarakterga ega. Ayni chog‘da, bu obrazlar o‘zlarining tarixiyligi bilan ham ajralib turadi. Romanda bundan tashqari Ptolomey, Fili pp, Olimpiada, Parmenion kabi tarixiy obrazlar ham mavjuddir. Shu bilan birga, Nektaneb, Kandik kabi to‘qima obrazlar ham borki, bu va shuningdek, boshqa ayrim tarixiy obrazlar ham asosiy obraz Aleksandr faoliyati bilan bog‘langan.

«Aleksandr haqida roman» bir qancha o‘zgarishlarga uchrab bugungi kunimizgacha yetib kelgan. Romanning grek tilidagi nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Eramizdan avvalgi II-I asrlarga oid bu romanning keyingi nusxasi bir qator o‘zgarishlarga, qo‘sishchalarga uchrab, eramizning III asrlarida qayta tiklanadi.

Shunday qilib, «Aleksandr haqida roman» turli davrlarda turli xalqlar tomonidan turli o‘zgarishlarga uchrab, juda ko‘p nusxalarda bizgacha yetib kelgan. Aleksandr o‘limidan so‘ng yaratilgan bu roman, grek tilida asl nusxasiga ega bo‘ladi. Rim hukmronligi davrida greklar uchun muqaddas bo‘lgan bu romanni ular ham o‘zlarining ijod durdonalaridek qabul qiladilar. Hatto Rim imperatori Trayan, keyinchalik Adrian «Aleksandr haqida roman»ni katta qiziqish bilan o‘qib chiqadilar.

Asrlar o‘tib, «Aleksandr haqida roman»ning ikki xil yo‘nalishi paydo bo‘ladi. Birinchi yo‘nalishidagi nusxalarida tarixiy haqiqat real tasvirlarda o‘z aksini topadi. Aleksandr tarjimayi holi va uning harbiy yurishlari tarixiy dalillar asosida tasvirlanadi.

Ikkinchi yo‘nalishdagi nusxalarida fantastikaga, g‘aroyib sarguzashtlar bayoniga duch kelamiz. Bu xil yo‘nalishdagi roman nusxalarida voqealarning tarixan aniq va konkret bo‘lib o‘tganligiga e’tibor berilmaydi.

«Aleksandr haqida roman» rus adabiyotida XV asrdayoq paydo bo‘la boshladi. Rus tilida yaratilgan romanning tarjmoni Yevrosin bo‘lib bu asar Kirillova Belozerskogo monastirida to‘rt nusxada bosilib chiqadi. Hozir bu nusxalar Sankt Peterburgdagi M.E. Saltikov-Shchedrin kutubxonasida saqlanmoqda.

«Aleksandr haqida roman» XVI asrga kelib 90 marta qayta ishlanadi va jahondagi 24 tilga tarjima qilinadi. Hozir bu romanning yuzdan ziyod qayta ishlangan variantlari mavjud bo‘lib, o‘ttizdan ortiq tilga tarjima

qilingan. Mana shu faktlarning o'zi ham romanning asl nusxasi juda ko'p o'zgarishlarga uchraganini ko'rsatadi.

Undan ba'zi bir epizodlari olib tashlangan, ijodkorlar tomonidan ayrim voqealar bilan to'ldirilgan, davr ruhiga moslashtirilgan.

«Aleksandr haqidagi roman»da O'rta Osiyoga oid voqealar juda kam bayon etiladi. Biroq biz bu romanda Osiyoga tegishli voqealarga, jumladan, eronliklar hayoti tasviriga duch kelamiz. Shuningdek, sevgi-muhabbat mavzusi, ayniqsa, romandagi asosiy personajlardan biri Roksana obrazi bizga tanish.

Roksana haqida grek va Rim tarixiy romanlarida anchagina lavhalar bitilgan. Bu romanlarni o'qib chiqsak, Roksananing tarixiy shaxsi va obrazi xususida yaxlit bir tushunchaga ega bo'lamiz.

«Aleksandr haqida roman»da Roksana Eron shohi Doroning qizi obrazida beriladi. Bunday fikr tarixiy haqiqatga mos emas. Chunki Roksana ba'zi bir manbalarda So'g'diyona, boshqa «bir manbalarda Baqtriya go'zali sifatida berilgan. Aleksandr So'g'diyona yerlarida bo'lganida Roksanaga oshiq bo'lib qoladi. U Oksiartning qizi. Oksiart har doim so'g'diyona liklarning milliy qahramoni Spitamen bilan yonma-yon yurgan. Hatto Aleksandrga qarshi kurash olib borgan. Spitamen o'limidan so'ng, Oksiart Aleksandr tomoniga o'tib ketadi va uning eng yaqin kishisiga aylanadi.

Tarixiy manbalarning va tarixiy romanlarning deyarli hammasida Roksananing beqiyos go'zal ekanligi, tengsiz husn-u jamol egasi bo'lganligi qayd etiladi. Haqiqatan ham, Aleksandrning uni sevib qolganligi, Aleksandr orzu qilgan, shohning idealidagi qiz Roksana bo'lib chiqqanligi ta'kidlanadi. Hatto ikki o'rtadagi muhabbat tillarda doston bo'ladi. Bu jihatdan «Aleksandr haqida roman»da xarakterli voqealar bayon etiladi.

Xalq romanida o'quvchi qalbini o'ziga sehrlovchi, his-hayajonga soluvchi lavhalar juda ko'p. Mana shunday badiiy go'zal epizodlar kishini xayol daryosiga yetaklaydi. Romanda bunday epizodlar asosan Roksana obrazi bilan bog'liq ravishda beriladi. Shunday badiiy tasvirlardan biriga diqqatni jalb qilib ko'raylik.

Makedonlar yaralangan Doroni oltin aravachaga solib, Persepolga, ilgari Eron shohligining saroyi bo'lgan, keyinchalik Aleksandr shohlik tojini tikkan shaharga olib keladilar. Doroning paymonasi to'lgan, umrining oxirgi soniyasini o'tayotgan edi.

Aleksandr bebaho shohona liboslarini kiyadi. Boshiga Solomon (Sulaymon) shohining tilla tojini o'rnatib, qo'liga shohlar uchun odat-bo'lgan oltin asoni tutib, Doroning tilla taxtiga o'tiradi. Makedoniyaliklar bilan birga eronliklar ham shoh qarshisiga kelib egiladilar-da, toj-u taxtni muborakbod etadilar: «Eron shohligi, butun yorug' olam shohligi Buyuk Aleksandrga abadiy nasib etsin!» So'ngra Doroning qizi Roksanani olib kelishadi. Oltin aravachada jon talvasasida yotgan Doro joni-jahoni bo'lgan qizini ko'rib avvaliga to'yib-to'yib yig'laydi. Keyin Roksananing qo'lidan ushlab, uni bag'riga bosadi va shunday deydi: «Borlig'im, jonom, yorug' jahonim, mening Roksanam! Seni makedoniyalikka uzatyapman. O'z ixtiyorim bilan emas, xudoy taolonning izmi bilan» -deydi, so'ngra Aleksandrga yuzlanib, shunday murojaat etadi: «Sen shahanshoh Aleksandr, sevimli malikangni qabul et. Agar uni sevib qolgan bo'lsang, o'zingga nikohlاب olgin. Boshqa olampanoh shohlarning malikalari singari tarbiyala. Bunday bo'lishini hech ham o'ylamagan edim. Sizlarning nikohlaringizdan so'ng, forslar bilan makedonlar o'rtasida qon to'kili-shiga chek qo'yilsin. Bizlar juda mag'rur kishilarmiz, lekin o'z qismatimizga hamma vaqt tan bergenmiz. Men bu nuridiyda qizimning to'yiga jahondagi hamma shohlarni va ulug'larni taklif etib, beqiyos tantana qilmoqchi edim. Afsus, men o'ylagandek bo'lib chiqmadi. Hashamatli to'y o'rniغا, makedonlar bilan forslar boshida qonli kunlar boshlandi».

Shundan so'ng, Doro o'ksib-o'ksib yig'lab, Roksanaga yuzlandi. «Jonom mening, Aleksandrni o'zingning shahanshohing deb bil va uni butun borlig'ing bilan sevgil».

Doro Roksanani bag'riga bosib yuzidan uch marta o'padi va Aleksandrga qarab shunday deydi: «Aleksandr, sen yolg'iz, ko'zimning qorasini bo'lgan qizimni agar rostdan ham sevib qolgan bo'lsang, uni o'zingga sevimli xotin qilib olgin. Dilbandim Roksana beqiyos husn-jamol egasi hamda oqiladir. Afsuski, mening paymonim yaqin qoldi. Endi men uchun narigi dunyo eshigi ochiq. Men ketyapman, ammo u yoqdan orqaga yo'l yo'q. Narigi dunyoga ketganlar qaytib kelmaydi».

Aleksandr oltin taxtdan pastga tushib, Roksanaga yaqin keladi-da, qo'lidan tutib, uning sochlarni mehr bilan silaydi. Boshidan oltin tojini olib, Roksanaga kiydiradi, o'zining qimmatbaho uzugini Roksananing qo'liga taqadi. So'ngra shoh Doroga qarab: «Hurmatli shoh Doro, qara, o'z ko'zing bilan ko'rib qanoat hosil qil! Sening go'zal qizing, toki men tirik ekanman, men qancha hokim bo'lsam, u hokima bo'lib qolajak.

Podshohligimning oxirigacha malika bo'lib yashajak. Ko'ngling to'q bo'lsin, men so'zimdan qaytmayman».

Doro bu so'zlarni eshitib sevinadi. O'z qizi Roksanaga qarab shunday deydi: «Aleksandr bilan birga asrlar bo'yи shohlik davrini suringlar. Butun jahon poyiqadamlaringda bo'lsin».

Shundan so'ng, Doro vidolashish uchun kelgan xotiniga behalovat tikilib, qo'lidan tutadi. Keyin Aleksandrga so'nggi bor hasrat qiladi: «Mana, mening malikam! Aleksandr, sen uni o'z onangdek qabul et! Onang Olimpiada singari hurmat qilgil!»

Doro o'z xotiniga qarab: «Sen ham Aleksandrga itoat et. Uni e'tiqod bilan hurmat qil!» - deydi. Shundan so'ng Doro oxirgi so'zlarini aytadi: «Mening endi ko'nglim taskin topdi. Barcha qayg'ularim unut bo'ldi. So'nggi bor senga arzim shulki, agar mening narigi dunyoda o'kinmasligimni istasang «qotillarim, oqpadar Qandarqis bilan Orizvarni jazolagin» ... Shunday qilib, Doroning dafn marosimini izzat-ikrom bilan o'tkazadi. Makedoniyalik butun qo'shinlar Doroning oltin tobutini ko'tarib, qabristongacha boradilar¹.

Doroning yaralanishi va u bilan Iskandarning uchrashuvi epizodlari «Saddi Iskandariy» dostonida ancha ta'sirli ifodalangan. Shu bilan birga, bu epizod «Aleksandr haqida roman»dagi xuddi shunday ifodaga ko'p jihatdan o'xshashligini ko'ramiz.

«Aleksandr haqida roman» ham «Saddi Iskandariy» dostoni kabi xalqchillik ruhiga ega. Unda ham xalqning o'z orzu-istiklari, o'ylari yorqin ifodasini topgan. Romanda ham xalq zolim shohlarni adolatga chaqiradi. Behuda qon to'kishlarga chek qo'yishni uqtiradi. Xalqni xonavayron qilib behisob boyliklarni to'plashning foydasi yo'qligini ta'kidlaydi.

«Aleksandr haqida roman»da hikoya qilinishicha, Aleksandr jahannamni aylanib yurganda hayvonsifat holga tushgan hind shohi Senxosga yo'liqadi. Aleksandr undan «nima uchun bunday ayanchli ahvolga tushding» deb so'raganda, «qilgan gunohimiz uchun, sen ham mag'rurlanma, agar inson zotiga jabr qilsang, mendant battar holga tushasan», deydi.

Shundan so'ng, Aleksandr hayajon ichida bir talay odamlar orasida Doroga ko'zi tushib qoladi. Doro yig'lab, Eron xalqining va qizining ahvolini so'raydi.

¹ Aleksandriya. Roman ob Aleksandre Makedonskom, izd-vo «Nauka», M.—L., 1965, str. 114.

Aleksandr jahannamdagagi g'aroyib g'orga kirib, hind shohi Porni ko'rib, uning ahvoliga achinadi. «Ey, ulug' hind shohi, sen o'zingni xudoga teng qilib ko'rsatar eding? Endi bo'lsa yupun bir ahvolda oddiy odamlar bilan birga yuribsan», deydi. Shunda Por: «Ehtiyyot bo'l, Aleksandr, sen ham men kabi maqtanchoq bo'lma, bir kun kelib sen ham men kabi qarib bir ahvolga tushib qolasan, qo'lingdan kelgancha yaxshililingni ayama»¹, deb javob beradi.

Aleksandr chuqur o'yga toladi, qilgan barcha gunohlarini yuvishga harakat qilib, bundan buyon behuda qon to'kmaslikka, inson zotiga jabr yetkazmaslikka qaror qiladi. Yorug' olamga hasrat bilan qaytib, xalqqa o'zining butun davlatini bo'lib beradi.

Antioxga hind podsholigini va butun Marsidon viloyatini hamda shimoliy o'lkalar hokimligini beradi. Filonga Eron shohligini va butun Osiyoni hamda Kilikiyani tortiq qiladi. Ptolomeyga Misr va Isroil arab mamlakatlari hamda ikki daryo oralig'idagi o'lkalarni hadya etadi. Selevkiga Rim shohligini, Lamedaushga nemislar yerini va Parij shohligini in'om qiladi², o'zi esa Roksana bilan Eron poytaxtida bir yilcha tinch va osoyishta hayot kechirib, mamlakatdaadolat o'rnatib, qirg'in urushlarga butunlay chek qo'yib, Bobilga qarab yo'l oladi.

Romanda diniy xarakterga ega bo'lgan lavhalar ham juda ko'p. Jahannam bilan yorug' dunyo, u dunyodagi odamlar bilan bu dunyo odamlari, ularning fikrlari, o'y-xayollari bir-biriga qiyos qilinadi. Biroq har ikkala dunyoning qiyosiy talqinida bir xil mantiq hukmrondir. Bu ham bo'lsa, inson,adolat, behuda qon to'kmaslik, qirg'in urushlarni to'xtatish g'oyasi yotadi. Xalq o'z idealidagi shoh Aleksandrdan ibrat olishni barcha zolimlarga, qonxo'rлarga, dahshatli urush olovini yoquvchi kimsalarga, mol-dunyoga hirs qo'ygan ochko'z va tuban tojedorlarga bashorat qiladi. Xalq tinchlikni istaydi. Adolatli va osoyishta hayotni qo'msaydi. Saodatni orzu qiladi. Shuning uchun ham, xalq yaratgan asarlarda faqat yaxshilik qilgan, ezgulik sari intilgan, kulfat va adovatning oldini olgan kishigina abadiy shon-shavkat egasi bo'la oladi, degan gumanistik pafos tarannum etiladi. .

Aleksandr jahannamning qayerida bo'lmasin, narigi dunyoda shoh bilan gadoning tengligini ko'radi. Bil'aks, bu dunyoda zolim bo'lgan

¹ Aleksandriya. Roman ob Aleksandre. Str. 123—124.

² O'sha asar. 127—131- betlar.

shohlar narigi dunyoda nihoyatda ayanchli ahvolda azob chekayotganining guvohi bo'ladi. Bundan nima uchun odamlar bu dunyoda shoh va gadoga ajralib, ikki qutbga bo'linadilar, degan falsafiy mantiq hosil bo'ladi. «Yaxshidan ot, yomondan dod qoladi» deganlaridek, agar bu dunyoda kimda kim yomonlikni, tubanlik va badkirdorlikni o'ziga ravo ko'rар ekan, bunday kimsalar o'lgandan so'ng ham qarg'ish va nadomatga yo'liqadilar, degan falsafa ilgari suriladi. «Aleksandr haqida roman», «Saddi Iskandariy» kabi falsafiy-didaktik ruhdagi asarlarni o'qigan kishi faqat yaxshilik yo'lidan yuradi. Tinchlikni, mehr-oqibatni, insoniylikni ulug'laydi.

«Aleksandr haqida roman»ning oxirgi sahifasi shunday so'zlar bilan yakunlanadi:

«Aleksandr Makedonskiy Bobilda vafot etadi. O'n ikki yil shohlik qiladi. O'n ikki yoshidan boshlab jangda qatnashadi. O'ttiz ikki yil-u sakkiz oy umr ko'radi. Yigirma ikkita o'zga xalqlar yerlarini bosib oladi. O'n to'rtta ellin qabilalarini o'ziga bo'ysundiradi. O'n bitta shahar quradi. Aleksandr yanvar oyida, yangi oy chiqqan kun erta tong paytida tug'iladi. Adamdan uning o'limigacha 5167 yil o'tdi. Hali Isoning tug'ilishigacha 300 yil bor edi. Aleksandrdan Diolektiangacha 800 yil, shoh Likiniyagacha 707 yil bor edi. Aleksandrdan so'ng Ptolomey Laga o'g'li 38 yil Misrga va Aleksandriyaga shohlik qiladi. Ptolomey har tomondan nodir kitoblarni yig'ib, ularni sharhlab chiqadi va Misrning markazi bo'lgan Serapis shahrida saqlaydi. Aleksandrdan Isogacha bo'lgan davrda Ptolomey sulolasи hukmronlik qiladi»¹.

«Aleksandr haqida roman» bilan «Saddi Iskandariy» (A. Navoiy) dostonidagi voqealarning umumiy ruhi bir-biriga juda yaqinligini yana shu bilan isbot etish mumkinki, Aleksandr ham, Iskandar ham yoshligida padari buzrukrori Filipp-Faylaqusdan ajralib qoladi. Har ikkalasi ham Eron shohi Doroga qarshi jang qiladi. Har ikkala asarda ham Doro o'zining kishilari tomonidan jarohatlanib o'ladi. Har ikkala asarda Doroning qizi Roksanaga Aleksandr, Ravshanakka Iskandar uylanadi. Har ikkala asarda ham Aleksandr (Iskandar) befarzand bo'lganligi ta'kidlanadi. Shuningdek, Aleksandr (Iskandar) o'limi oldidan onasini eslaydi. Har ikkala asarda ham Aleksandr-Iskandar o'z yurtida emas,

¹ Aleksandriya. Roman ob Aleksandre Makedonskom po russkoy rukopisi XV veka. Izd-vo «Nauka», M.—l., 1965, str. 137.

o‘zga yurtlarda olamdan ko‘z yumadi va so‘ngra uning tobuti o‘z yurtiga olib ketiladi. Har ikkala asarda ham Aleksandr-Iskandarning donishmand ustozi Aristotel (Arastu) obrazlari bor.

Bu xildagi o‘xshash ifodalarni yana keltirish mumkin. Masalan, qahramonlarning xalqparvarligi, donishmandligi, xalqni ortiqcha soliqlardan ozod etishi kabi epizodlar alohida tahlil talab etadi. Har ikkala asarda ham Aleksandrning jazirama yoz oylarida o‘lganligi qayd etiladi. Haqiqatan ham, Aleksandrning 11- iyunda vafot etganligini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Alisher Navoiy ham Iskandarning iyul oyida yorug‘ olam bilan vidolashganini qayd etadi¹.

Ayniqsa, Iskandarning o‘limi oldidan qilgan vasiyatlari g‘oyat ta’sirlidir.

«Iskandar onasiga aytmoqchi bo‘lgan vasiyatlarini yozib tamomlab, xatning oxirini «Vassalom» so‘zi bilan tugatdi. So‘ngra, qog‘ozni taxlab, maktubni elchiga topshirgach, yana ko‘nglida qolgan muddaolarini ham bayon aylaydi:

«Hech qayerda to‘xtamay, kechasi-kunduzi demay yurib, onamga shu maktubni eltid bering. Ikkinchidan, hozir mening oftobim so‘nib, quyoshim yuziga qora bulut yopilgach, boshim ustida ko‘p yig‘i-sig‘i, dod-voy qilib, jahonni motamzodalik bilan xarob aylamang. Mening tanamni tobut ichiga solib, kecha-kunduz demay jadal bilan yurib, Iskandariya shahriga olib boring. Tiriklikda istiqomatgohim bo‘lmish u joy o‘lganimdan so‘ng mozorimga aylansin. Valekin meni tobutga yotqizgan paytingizdayoqut teshigidan i pni chiqazib qo‘ylgani kabi, albatta, bir qo‘limni tobutdan chiqazib qo‘ying. Toki haloyiq bu qo‘lga, hayrat ko‘zi bilan emas, balki ibrat ko‘zi bilan boqib: «Bu panjalar saf tortib, yer yuzini o‘z qo‘lida olgan edi: butun dunyodagi mamlakatlarning hammasini quruqlikda va suvda bo‘lgan barcha la’l-u gavharlarni shu kaftiga kiritib olgan edi. Endi, ajal qo‘li bu dunyodan ko‘chish nog‘orasini qoqib, bo‘yniga abadiylik tomon jo‘nash boshvog‘ini solgach, mana endi bu qo‘llar dunyodan shol kishining qo‘lidan quruq, chinorning yaprog‘siz butog‘iday bo‘m-bo‘sh ketayotir!» - desinlar. Bu hol odamlar uchun bir ibrat maktabi bo‘lib, dunyonи egallash mashg‘ulotidan qo‘llarini torsinlar»².

¹ Alisher Navoiy, Saddi Iskandariy. G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, Toshkent, 246- bet.

² O’sha asar, 253—254- betlar.

Shunday qilib, Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonida ham O‘rtal Osiyoning o‘ziga xos antik olami tasvirlanadi. Alisher Navoiy antik dunyo voqeligini XV asr hayotiga olib kelib bog‘laydi. «Saddi Iskandariy» tarixiy asar bo‘lib, uning ta’sir obyektida qadim-qadim zamonlar voqeligi o‘z ifodasini topgan bo‘lsa ham, zamonaviylik ruhi kuchlidir. Chunki Alisher Navoiy o‘zi yashagan zamonning ijtimoiy-siyosiy voqeligi cho‘qqisida turib o‘tmishga nazar tashlaydi.

Navoiy antik dunyoga o‘zicha nigoh bilan qaraydi. U o‘zining «Saddi Iskandariy» dostonida qadim-qadim zamonlarni shunchaki badiiy ifodalabgina qolmay, unga ilmiy nuqtayi nazardan yondashadi. Masalan, uning «Lisonut-tayr», «Hayratul-abror», «Xazoyinul-maoniy», «Farhod va Shirin» dostonlarida ham antik dunyoga lirk chekinishni ko‘ramiz. Ayniqsa, «Tarixi mulki Ajam»da Navoiy antik davrimizni ilmiy jihatdan keng tadqiq etadi.

Jomiy ham o‘zining «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun», «Xiradnomayi Iskandar» dostonlaridan tashqari «Tuhfatul-ahror» («Nuroniyalar tuhfasi») asarida ham Iskandar faoliyatiga va u yashagan zamonga qayta-qayta murojaat qiladi. Antik dunyoga bunday qiziqishni Nizomiy Ganjaviy, Amir Xisrav Dehlaviy, Firdavsiy ijodida ham uchratamiz. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘tmishda o‘tgan fozil-u donolar insoniyat o‘tmishiga, antik davrlar deb atalmish qadim zamonlarga alohida e’tibor bergenlar. Hatto antik dunyoning sirli voqealarini o‘zları yashayotgan zamonning manfaatlariga xizmat ettirganlar.

Navoiy o‘tmishiga tarixchi olim sifatida yondashibgina qolmasdan, balki antik davrlarni XV asr hayotiga moslashtiradi. Ma’lumki, Navoiy antik davrlarni chuqur bilgan. U o‘z ijodidagi eng qadimgi davrlar haqida keng ma’lumot beradi. Biz Gerodot, Ksenofont ijodi orqali tanishayotgan Kir, Doro kabi Eron shohlari yashagan davrdan avvalgi zamonlarni ham Navoiy o‘z ijodida tadqiq etadi. Masalan, shoir o‘zining «Saddi Iskandariy» dostonining kirish qismida, antik dunyoda yashab o‘tgan shohlar haqida mufassal ma’lumotlar berib, shunday deydi:

«Tarix sahifalarini juda ko‘p ko‘zdan kechirgach, bu shohlarning to‘rt tabaqa ekanliklari ma’lum bo‘ldi. Shu tarixni yozgan olim ularni «Eron shohlari» deb atabdi. Agar bu gapda muncha ixtilof bo‘lsa, hato qilganlar uzrildir. Zero, uzoq zamonlar o‘tishi falak tarafidan ko‘pgina hodisalar yuz berishi natijasida tarixlarga behad putur va bu fanga ko‘pgina quşurlar yetgan bo‘lishi tabiiydir. Va lekin, bu tarixdan xabar bergenlar

orasida «Nizomut-tavorix» («Tarixlar nizomi») kitobi mukammal va mo'tabardirki, men buni boshqa tarix kitoblarining sarlavha va imundarijalariga ham solishtirib ko'rdim.

Boshda bularni to'rt qismga bo'lgan edim, endi shularning birinchisi «Peshdod», ikkinchisi «Kayoniy»¹, uchinchisi «Ashkoniy» va to'rtinchisi «Sosoniy» deb ataladi.

«Peshdod» sulolasida o'n bir shoh o'tgan bo'lib, eng qadimgi sultanat egalari shulardir. «Peshdod»larning birinchi shohi bo'lmish Qayumars taxtga chiqqach,adolat yo'lini tutdi. Agar uning tuzumi butun jahonga tarqalgan bo'lsa ham, lekin kiyimlari vahshiy hayvonlarning terisi va charmdan bo'lgan. Bundan keyingi jahongirning nomi Xushang bo'lib, uning taxtlari juda hashamador bo'lgan. Xushangning donoligining chegarasi bo'lмаган, u «Jovodoniy xarid» («Aqlning abadiyligi») nomli kitob ham yozgan. U olamdan o'tgach, o'rniga Tahmuras o'tirdi. U shunday ish tutdiki, butun olam ahlining umid orzusi shu bilan bog'lanib qoldi. Tahmuras olamda juda ko'p shaharlar bino qildi. Nishopur, Marv, Si pohon kabi shaharlarni ham aslida shu qurgandir. Undan so'ngra Jamshid olamda ot soldi: u qancha mamlakatlarni oldi va bir qancha odamlarning boshiga toj kiydirdi. U, xaloyiqqa ham ko'pgina naf yetkurdii va ancha ajib amr-farmonlar, tartib-qonunlar ham ixtiro va joriy qildi. Undan keyingi dunyo shohi Zahhok deb atalardiki, u shafqatsizlik bilan ish ko'rgach, tez orada taxtdan tushib, dunyodan o'tib ketdi. So'ngra, jahongir Faridun taxtga chiqqan bo'lib, butun dunyo uning qo'll ostiga o'tib, amr farmonida turdi. U o'z boshiga shohlik tojini kiyib olib, diqqat bilan dunyodagi hamma narsani kovlab-tekshirib o'tdi. Uning o'rniga valiahd bo'lib Minuchehr o'tdiki, bu eski dunyo uning taxtgohi edi. Furot nomli daryoni o'sha Minuchehr qazdirib, hammayoqqa dovdaraxtlar ekib, dunyoni bo'stonga aylantirgan edi. Undan so'ngra, Navzar podsholik bilan baxtiyor bo'lib, jahondagi mamlakatlarga amr-farmon beruvchi bo'ldi. Lekin dunyo uning murodini yuzaga chiqarmadi, qisqasi, bu olam unga vafo qilmadi. Keyin, Afrosiyob shohlik qilgan bo'lsa ham, u o'z zulmkorligi bilan Eronni xarob ayladi. Uning davrida deyarli obodonchilik bo'lмагани kabi, falak o'zini ham obod qilmay, tez orada hayotdan mahrum etdi. Endigi navbat Zob Tahmasbniki edi. Lekin

¹ «Peshdodiy» va «Kayoniy» podshohliklarida «Avesto»da uchraydigan afsonaviy podshohliklar bor.

uning martabasining balandligi ham o'tib ketgan bo'lib, toj-u taxt qo'liga kirgach, butun mamlakatni va xalqni yetti yillik soliqdan ozod qildi. Olam Tahmasbdan bo'shagach, Garshosbdan zamon zeb-ziynat topdi. U sho'x falak otini o'ziga rom qilib olgan bo'lsa ham, lekin kuni bitgach, olamdan o'tib ketdi.

Shu yuqorida nomlari zikr qilingan o'n bir kishi o'sha qadimgi dunyoni idora qilgan Eron shohlari bo'lishiga qaramay, dunyo ularni bir o'yinchoqday o'tkazib yubordi¹ ».

Shu fikrlarning o'ziyoq Navoiyning qadimgi davrni mukammal bilganligi va bu antik dunyo voqealarini o'z ijodida ham ilmiy, ham badiiy in'ikos ettirganligining guvohidir. Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonida, «Tarixi muluki Ajam» asarida va boshqa ijod durdonalarida tilga olgan Qayumars (Gaya Maretan) va Jamshid (Yima) nomlarini «Avesto»da ham uchratamiz. Shuningdek, Navoiy o'z ijodida Aleksandr Makedonskiyning Osiyoga yurishi davridagina emas, balki undan ilgarigi zamonlarni ham keng tasvirlashga intiladi.

AVESTO

Qadim zamonlarda O'rta osiyoliklar zardushtiylik dinini muqaddas deb bilishgan. Bu dinning qonuni yodnomasi «Avesto»dir. Zardushtiylik dini O'rta Osiyo, Kavkaz, Eron, Hindiston va hatto Kichik Osiyodagi ko'pgina xalqlarni bir-biri bilan ko'p jihatdan bog'lab turgan.

«Avesto»ni ilmiy o'rganish, tarjima qilish, uni keng tadqiq etish masalasiga jahon olimlari qadimdan hozirgi kunimizgacha zo'r qiziqish bilan qaramoqdalar. Necha-necha asrlardan buyon jahon olimlari o'rtasida «Avesto» xususida shunchalik ko'p tortishuvlar, bahs va munozaralar bo'lib kelmoqdaki, hali tadqiqotchilar uning asl nusxasi, tili, g'oyaviylik dinining asoslari borasida aniq bir to'xtamga kela olganlaricha yo'q. Ammo «Avesto»da tasvirlangan voqealar, zardushtiylik dinining mohiyati jahon olimlari tomonidan e'tirof etilib, bugungi kunda bu asarni o'rganishimiz kerakmi, yo'qmi degan savolga javob topilgan. Antik zamonlardayoq bobokalonlarimiz chuqr e'tiqod qo'ygan zardushtiylik dinini va uning

¹ A. Navoiy. Saddi Iskandariy, 22—26- betlar.

muqaddas qomusi «Avesto»ni o'rganishimiz, biz avlodlar uchun ko'p jihatdan ahamiyatlidir. Zeroki, zardushtiylik dini bobokalonlarimizning bиринчи дини edi. Zardushtiylik dini O'rta Osiyoda tarqalgan edi. Shu tufayli bugungi kunda biz uchun «Qur'on» qanchalik muqaddas bo'lsa, «Avesto» ham shu darajada qadrlidir.

«Avesto»da ilgari surilgan zardushtiylik dinining mohiyati atoqli olimlar tomonidan yuksak baholanmoqda. Bu o'rinda yirik tadqiqotchi S.F. Oldenburgning fikrini keltirib o'tish o'rinnlidir. «Zardushtiylik, - deb yozadi akademik, - insonning yer yuzidagi hayotini yengillashtirishga, uni baxtiyor qilishga qaratilgan eng oqilona din»¹. Mana shu fikrning o'ziyoq «Avesto»ni o'rganishimizning nihoyatda muhim va zarurligini tasdiqlaydi.

Zardushtiylik dinining mohiyatini ochib bergen va «Avesto»ni o'rganishning ahamiyatini o'zining qator tadqiqotlarida izohlagan yirik «Avesto»shunos mutaxassis olim A.O. Makovelskiyning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tishga to'g'ri keladi. «Avesto» haqida to'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun A.O. Makovelskiyning asarlarini² o'z ona tilimizga tarjima qilsak foydadan xoli bo'lmaydi. Bu olimning ishlari «Avesto» haqida yozilgan tadqiqotlar ichida eng mukammali desak ham bo'ladi. «Avesto» haqida yaratilgan tadqiqotlar va bahslarga to'xtalar ekanmiz, asosan A.O. Makovelskiy fikrlariga tayanamiz.

Yevropada Avestoni o'rganish va bu borada qilingan bиринчи urinishlar haqida to'xtalgan Dramsteter bu kitobni «Sharqning muqaddas kitobi» deb atagan edi.

Yevropada «Avesto»ga atab yozilgan asarlar ichida fransuz Brissitin qalamiga mansub «Eronda shoh hukmronligi haqida» (1790- yil) asarida din va eski urf-odatlar haqida to'xtaladi.

XVII asrda bu ma'lumotlar fransuz, ingliz va italyan sayohatchilari tomonidan yanada to'ldiriladi.

Fransuz sayohatchisi Gabrel Dyu-Shinon, zoraastriylarning muqaddas kitobini ko'rgani va ular yagona bir tilda yozilmagani haqida ma'lumot beradi.

Zamonasining yirik oriyentalisti (sharqshunos olim), oksfordlik professor Tomas Gaid midiyaliklarning, eronliklarning va parfiyaliklar

¹ Oldenburg S.F. Predisloviye k knige Arnoolda «Svet Azii», SPb, 1906, str. 20.

² Makovelskiy. Iстория науchnogo izucheniya Avesto, glavnoye napravleniya v nem i otsenka. «Avesto» izd-vo AN. Baku, 1960.

Zoroastrga e'tibor qilgan ilmiy ishlardan italiyalik Jambatist Vikoning «Yangi fanni asoslash» nomli falsafiy ruhda yozgan asarini tilga olish mumkin. Viko Zorastr haqida hurmat bilan gapirib, «Qadimning buyuk tafakkuri» deb ataydi. Lekin Jambatist Viko miloddan avvalgi VII asrda yangi Bobil davlatini tashkil etgan Xoldey somiylar qabilasi deb fikr qiladi. 1820- yilda Frankfurt - Mayn shahrida I.G. Raden qadimgi baqtriyaliklar, midiyaliklar va eronliklarning yoki Zend xalqining dinini o'rganishga bag'ishlangan asarini yozadi. Muallif Anketil Dyuperronnning tarjimasiga tayanib, «Zend xalqi» dinining tarixini tiklamoqchi bo'lib, Zend xalqi-Baqtriya, Midiya va Eron xalqlarini birlashtirib turgan, degan fikrni aytadi.

1827- yilda Berlinda E. Raskin «Zend-Avesto va zend tilining asl nusxasi, uning qadimiyligi» degan asarini nashr etadi. E.Raskin bu asarida zend tili sanskrit tilidan paydo bo'lmay, balki tovushlarning aytishi jihatidan eron tiliga yaqin ekanligini isbotlab beradi.

XIX asrda «Avesto» o'ziga ko'pgina faylasuflarni jalb qila boshlaydi. G. Ritter 12 tomdan iborat «Falsafa tarixi» (1829-1853) asarida “Avestoda”gi diniy tasavvurlar asosida afsonaviy qarashlar yotadi, bu diniy tasavvurlar, grek afsonalariga qaraganda fikrlarga boydir degan fikrni aytadi. «Avesto»ni falsafiy tomonini xarakterlab G. Ritter, uning ayrim qismlarida odamlar xayolida paydo bo'lgan ta'limotni sistemali ravishda namoyish etishga bo'lgan urinishlarni ko'rish mumkin deb yozadi.

«Avesto»ga nemis mafkurasining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Gegel ham katta e'tibor berib, Zoroastri qadimgi Eron dinining asoschisi deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, Gegel dinning rivojlanishi inson tarixinining rivojlanishiga aloqasi yo'q, deb fikr yuritadi.

Gegel «Avesto»ning tilini qadimgi Baqtriya-zend tili deb atadi.

«Avesto»ni ilmiy o'rganish borasida yana bir fransuz olimi Bu Urnufning xizmatlari katta bo'ldi. U o'zining «Yasnaga izoh» asarida eronliklarning urf-odatiga tayanib «Avesto»ni o'rganishga kirishsa, ikkinchisi sankkrit bilan Ved afsonalarini taqqoslash asosida ish olib boradi. Bu urnuf asos solgan bunday taqqoslash maktabi esa «Avesto»ning tilini tushuntirish uchun Hindistonning tili va afsonalaridan foydalanishadi. Shuning uchun ham, bu maktabning namoyandalari o'zlarini «vedantislar» deb atashardi. Bu maktabga Bu Urnuf, Rot, Benfey, Vindishman, Geyter, Xaug va boshqalar kiradi. Bu Urnufning qilgan xizmatlari shundan iborat ediki, u Persepol va Behistunda qadimgi

eron yozuylarini o'qib, birinchi ahemoniyarlarning tili «Avesto»ning tili bilan egizakligini aniqlaydi. Ahmoniyarlarning birinchi shohi Doroning ovozi Behistun qabridan yangradi. Bu esa Bu Urnufning eng katta yutug'i edi.

Gegel Zoroastr dinini tabiat dini, lekin ozod dinga o'tayotgan din deb xarakterlaydi.

«Bu din, - deb yozadi Gegel, - yorug'lik va mehr-oqibat dinidir. U yovuzlik va qorong'ilikka qarshi turadi. Yorug'likning yovuzlik bilan kurashi, hayotning o'lim bilan kurashidir. Zoroastrning dini rivojlanishi va hayotning barhayot bo'lishi, ekin ekishni, uy hayvonlarini boqishni va yerga qarashni talab qiladi. Bu dinga sig'ingan odam hattoki murdani yerga ko'mmay, yoqmay qushlarga yem bo'lishini tilaydi».

Umuman olganda, Gegelning xulosasiga ko'ra, xudo jahondagi buyuk kuchdir. Bu kuch ham yorug'lik, ham harakat, ham mehr-oqibatdir. U barcha yovuzliklarni yengib chiqishi kerak.

Bu Urnufdan keyin uning taqqoslash maktabi a'zosi Roten «Avesto» va Ved afsonalari bir joydan tarqalganligini isbotlay boshladi. Xuddi shu yo'nalishda «Avesto»ni izohlash kerakligini Vindishman o'zining Mitra va Anaxita haqidagi «Zoroastr tajribalari» asarida aytib o'tdi.

Taqqoslash maktabining a'zosi Xaug (Faid) «Avesto»ni tarixiy asar sifatida tan oladi.

«Avesto»ni o'rganishda taqqoslash maktabining a'zolari olib borgan ishlar bu asarni o'rganishda qilingan katta yutuq bo'ladi. Avestoni o'rganishda Ved so'zları va fikrlarning bayon etilishi, «Avesto»dagi so'z va fikrlarning bayon etilishiga o'xshab ketardi. Taqqoslash tilshunosligi xalqning o'tmishini, ularning eng qadimgi tillarini va madaniyatini ochib berishga harakat qiladilar.

Shunday qilib, Avestoni o'rganishda o'zlarining tadqiqotlari va metodlari bilan qarama-qarshi bo'lgan ikki maktab yuzaga keladi.

Taqqoslash maktabi Avestoga olib boradigan yo'l paxlaviy izohlari va eronliklarning urf-odatlari an'analarida emas, balki Vedlardadir deb tushuncha beradi. Ved - «Avesto»ning eng yaxshi izohidir. Taqqoslash maktabining a'zolari Rot, Benfey, Zauglar ana shu fikrda edilar.

Ularga qarshi turgan an'anaviy maktab a'zolari «zend» va sanskrit, «Avesto» va Vedni alohida-alohida o'rganish kerak, deb ta'kidlaydilar.

Afsona va tarixni taqqoslash, filologiya, hind adabiyotining tarixiga oid asar «Rigveda» tarjimasi Myuller qalamiga mansubdir.

Maks Myullerning fikricha, ariyliklar Pomir tizma tog‘larida yashagan. U yerdan ular eramizgacha bo‘lgan XV asrda ko‘chib ketishgan. Uning fikricha, ariyliklar kuchayganda ikki guruhga bo‘lingan. Bir guruh hinduga qarab ketgan bo‘lsa, ikkinchisi Yevropa tarafga qarab yurgan. Mana shu ko‘chish natijasida, eramizdan avvalgi XIV asrda, ariyliklarning bir qismi Eronga o‘tib ketishgan.

Maks Myuller 49 tomdan iborat «Sharqning muqaddas kitoblari» (1879-1904 y.) asarini nashr ettiradi. Bu to‘plamga sharq xalqlarining muqaddas kitoblarining asl nusxalari, ularning ingliz tiliga tarjimasi, kirish so‘zлari bilan berilgan. Bu nashrda «Avesto»ga I, IV, XXII va XXXI tomlar bag‘ishlangan.

«Avesto»ni o‘rganishning uchinchi bosqichi Xristian Bartoleme (1855-1925) nomi bilan bog‘liqdir. 1878- yilda Xristian Bartoleme «Qadimgi eron lug‘ati» kitobini nashr etdi. Bu kitob o‘n yillar mobaynida «Avesto»ni o‘rganishda asosiy qo‘llanma bo‘lib keladi.

F.Volf Bartoleme lug‘atiga asoslanib, «Avesto»ning to‘liq tarjimasini beradi. Bartolemening, gat tiliga tarjima qilingan xristian lug‘ati esa «Avesto»ni o‘rganishda, bundan keyingi ishlarda asos bo‘lib xizmat qiladi. Vaqt o‘tishi bilan «Lug‘at»ga o‘zgartirishlar kiritish kerak bo‘lib qoladi. Gersfeldning aytishicha, Bartoleme «Lug‘at»i nodir asar bo‘lib, muallif qo‘lidagi kichik lingvistik material edi.

Fransuz sharqshunosi Benvenist «Avesto»ni kelajakda o‘rganish aynan ana shu «Lug‘at»ga asoslangan holda olib boriladi, degan fikrni bayon etib, o‘zi ham «Avesto» haqida maqolalar yozadi. Lekin «Avesto»ni o‘rganishga shu darajada katta e’tibor berildiki, unga Bartolemening «Lug‘at»i ham yordam bermay qoldi.

Xristian Bartoleme boshqa bir asari «Avesto»ning tili va qadimgi eron tili» (1895) asarida eng qadimgi gat tili va «Avesto»ning tilini o‘rganib chiqadi. Mana shu ikki tilga asoslanib, u qadimgi eron yozuvi va Eron shohligidagi yozuvlar orqali qadimgi eron tilini o‘rganishga kirishtadi.

Biroq Bartoleme fikrlarini tanqid qilib Andreas «Avesto»ning bizgacha yetib kelgan matni qadimgi bo‘lmay, arxeti pi aramay alifbosida yozilganligini aniqlaydi.

G‘arb olimlarining «Avesto»ni o‘rganish borasidagi tadqiqotlari bilan birga, fors olimlarining asarlari ham yuzaga kela boshlaydi. Fors olimlarida «Avesto» Zoroastr dinining davomi va ilohiy asar sifatida qiziqish uyg‘otgan edi. Ularning asarlari ko‘r-ko‘rona maqtash, apotegetik

xarakterda bo'lib, Kapadia o'zining «Zoroastr ta'limoti va eronliklar dinining falsafasi» kitobida zardushtiylik dinining qadimiyligiga alohida e'tibor beradi. Bu din qadimgi buddizm, xristianlik va islom dinidan ilgari paydo bo'lgan. Kapiada zardushtiylikni «yuqori falsafiy fikrlar majmuasi» deb bilib, hozirgi fors e'tiqodini qadimgi zardushtiylik bilan birgalikda ulug'laydi.

Kapiada o'zining kitobini ingliz tilida chop etayotganda, sharq va g'arb olimlarini kelishgan holda ish ko'rishga da'vat etadi. Eronliklar an'anasiga va urf-odatiga tayanib, Kapiada Zoroastrizmni, zardushtiylikning paydo bo'lishini quyidagicha bayot etadi.

Bundan 3500 yil ilgari Midyaning Raga shahrida Purushaspa xotini Doglo bilan yashaydi. Ularning Zaratustra nomli o'g'llari dunyoga keladi. Yuqorida duo qilingan Spitama Zaratustra Vishtasp shohligining oldingi poytaxti bo'lgan Balx shahriga keladi.

Oppoq, toza kiyim kiygan, qo'lida muqaddas olov va sarv daraxtining novdasidan yasalgan sultanat hassasini ushlagan Zaratustra Vishtasp saroyiga kelib, Baqtriyaning payg'ambari darajasiga ko'tariladi. U yerdagi xalq Zaratustraning yaratgan dinini qabul qilib, mazda diniga (mazdayasiniyali) bir xudoga sig'ina boshlaydi. Qolganlar esa bir qancha xudolarga sig'ingan daevayasniyali politeistlar bo'lib, yangi va eski dinlar o'rtasidagi kurashda zoroastrizm yutib chiqadi. Bu din faqatgina Baqtriyaning dini bo'libgina qolmay, balki arablar istilosigacha Eron davlatining ham dini bo'lib qoladi.

Rossiyada «Avesto»ni o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Bu borada Kossovichning ilmiy izlanishi salmoqlidir. Uning «Zendavestdan to'rt asar» (1861) degan ilmiy tadqiqoti alohida o'rin tutadi. Zoroastrizmni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlardan XIII asrda yozilgan «Zaratushtnoma»ning forschadan tarjimasi, Peterburg Akademiyasi a'zolarining izlanishlaridan biridir (tarjima muallifi Xristian Rozenberg). Bu kitobda Zoraastr haqidagi qadimgi rivoyatlarning eron tilida qayta ishlangan matnlari chop etilgan. Kitobda yozilishicha, Zoroastr boshqa bolalar singari yoshligida umuman yig'lamagan, balki otanasing uyini nurga to'ldirib kulgan. Yovuz sehrgarlar bolani o'ldirish uchun barcha tadbir-choralarni qo'llashgan, lekin ularning barcha urinishlari zoye ketgan. Yetti yoshga to'lganda Zoroastr o'zining aql-farosati bilan boshqalardan ajralib turgan. 30 yoshgan yetganda esa, yangi dinning payg'ambari bo'lgan. Erondan shimoli-g'arb tomonda

joylashgan vatanini tark etib, yangi ta'limotni mustahkamlash uchun Eronga yo'l oladi. Eronning shimoli-sharqiy chegarasida Dag'yu (Avestodagi Vogu-manu, ya'ni «ezgulik fikr») kelib, Axura Mazdaning taxtiga ko'tarib o'tkazadi, u yerda Zoroastr Axuramazzadan o'z savollariga javob eshitadi. Shundan keyin u do'zaxga tushib, Axraman nomli do'zax ruhi bilan uchrashadi. Axraman agar Zoroastr dindan voz kechsa, dunyodagi barcha qimmatbaho zeb-ziyatlarni unga berishini aytadi. Shu mahal osmonda-do'zaxda bo'lgan Zoroastr yerga qaytib tushadi. Shunda unga Axramanning askarlari bo'lmish wahshiy sehrgarlar hujum qilishadi. Zoroastr ularga Avestodagi muqaddas so'zlarni ayтиb hujumlarni qaytaradi. Bundan keyin Zoroastr Balxga kelib, shu yerning shohi Gushstabga yangi dinni qabul qildiradi. Zoroastrning shoh Gushstab saroyida paydo bo'lishi va shohga dinni qabul qildirishi turli g'aroyib voqealar orqali bayon etiladi. Zoroastrning Baqtriyada yangi dinni qabul qildirishi, osonlikcha kechmaydi. Eski dinga sig'inuvchilar bilan qattiq kurash olib boradi. Nihoyat, Zoroastr bu kurashda yengib chiqadi. «Zaradusht-noma»da bayon etilgan rivoyatlarning asosiy ma'nosi shundan iboratki, hayot bu - kurash demakdir, mehr-oqibat esa faqat yozuvlikka qarshi olib borilgan og'ir jangda yenggan taqdirdagina g'alabaga olib boradi.

«Zaradushtnoma» fors xalqlari o'rtasida shuhrat qozongan muqaddas kitob hisoblanadi.

Inqilobgacha bo'lgan davrda zoroastrizm va Avestoni o'rganishda V.V. Bartold, K.G. Zalemana, A.L. Pogodin, K.A. Inostransev chuqur ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Zardushtiylikni o'rganish borasida qilingan mehnatlardan B.A. To'rayevning xizmatlarini alohida eslab o'tish kerak. Bu boradagi uning fikr va mulohazalarini «Qadimgi sharq tarixi» (II tom, III nashr, 1933) asarida o'qish mumkin.

Uning yozishicha, qadimgi dunyo davlatlari ichida tarixda alohida o'rinn tutganlardan bizga ma'lum bo'lgan Midya davlatidir. Bizning bilimlarimiz Gerodot va Ktesiy bilan chegaralanib qolgan. Midiyaliklarga oid bizda bironta ham yozuv saqlanib qolmagan. Umuman, midiyaliklarda yozuv bo'lganmi degan savol tug'iladi. Shuning uchun To'rayev zoroastrizm paydo bo'lishida Midyaning tutgan o'mi haqidagi savolni o'rganish o'rinsiz, deb hisoblaydi.

B.A. To'rayev Eronning ibridoiy dini bilan Ved dinini o'xshash, deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ularni samo shohi bilan zulmat ajdaholari

o'rtasidagi jang bayon etilgan afsonalar, mehr-oqibat ruhlarining yovuzlik ruhlariga qarshi turishida, olova sig'inishlarda, mast qiluvchi o'simlikdan tayyorlangan sharbatni (Hindistonda soma, eronliklarda xayuma) ikki dingga sig'inuvchilar iste'mol qilishib, ular yuqori xudojo'ylikni tan olishlari bilan ham o'xshashdir. Lekin bu o'xshashliklardan tashqari ba'zi farq qiladigan tomonlari ham bor.

Hind mehr-oqibat ruhlari «deva»lar Eronda shayton bo'lishdi. Eronda esa hind shaytonlari «asurlar» Axurlar deb nom olishdi (To'rayev). Hindiston dinida muhim ahamiyatga ega bo'lgan somaxaoma Eronda unchalik qadrlanmaydi. Olov ma'budasini Hindistonda «agnes», Eronda esa «agar» alohida o'rinni tutadi, chunki u yerda olov ezgulik sari xizmat qiluvchi, poklik ramzi sifatida qadrlanadi. Eron dini hind dinidan o'zining pokligi bilan ham farq qilardi. Hindistonni Varuna boshchiligidagi yetti xudojo'ylardan Eronda tan olingan Axura Mazda «eng aql-zakovatli xudo» deb nomlanib unda Amesha-Spenta «o'lmas tafakkur» deb ataladi.

Eron dinining Hind dinidan farqli joyi shundaki, u o'zining idealistligi bilan, dunyoning negizi materiya bilan ruh bir narsa deb bilishi bilan ajralib turadi.

Keyinchalik eron va hind dinlarining rivojlanishi umuman qaramaqarshi bo'lgan yo'naliishlarda boradi. Ezgulik sari qadam qo'ygan Buddha Nirvaga keladi. Zoroastr madaniyatga xizmat qilishni o'ziga yuksak vazifa qilib oladi.

To'rayev zardushtiylikni diniy islohot deb tushunadi. Zoroastrizm ilohi o'z oldiga faqat dinni maqsad qilib qo'ymay, balki xudoga sig'inishni tozalashni va unga axloqiy ma'no berishni, ijtimoiy shart-sharoitni o'zgartirishni, ya'ni cho'ponga oid hayotdan dehqonchilikka o'tishni maqsad qilib qo'ygandi.

Zardushtiylikni va «Avesto»ni o'rganishga katta hissa qo'shgan olimlardan A.A. Freyman va E.E. Bertelsning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash kerak.

A.A. Freyman «Avesto»ni chuqur o'rgangan olim bo'lib, undagi ayrim terminlarni yangicha, o'ziga xos izohlagan. E.E. Bertels esa «Avesto»ning ayrim qismlarini ruschaga tarjima qilib, «Avesto»ni nodir adabiy meros sifatida tan olgan olimdir.

Oxirgi o'n yil ichida V.V. Struve, I.M. Dyakonov, B.G. G'afurov, I.G. Aliyev kabi tarixchilarning zardushtiylik tarixini tadqiq qilgan asarlari paydo bo'ldi.

Ozarbayjonda arablar hukmronligi o'rnatilmasdan va islom dini tarqalmasdan oldin hukm surgan zoroastrizmga xalqning ilg'or namoyandalari qiziqish bilan qaradilar. Bular Abbas Kuli Og'a Bakixinov, Mirza shafi (Vosex), Mirza Fatali Oxundov va Jafar Jabborli va boshqalardir.

Butun bir «Avesto»da uning qadimgi nusxalaridan boshlab ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va zulmat, tinchlik va urush kabi qarama-qarshiliklar o'rtasidagi kurashlar bayon etilgan bo'lib, antiteza (qarama-qarshi, ziddiyat) usulida izohlangan. Bunday antiteza usulida yozish qadimgi, zoroastrizm she'riyatiga ham xos edi.

Mitraning qadimgi ashulasi ham antiteza uslubida yozilgan. Bunda asosan urush va tinchlik masalasi bayon etilgan. Mitranning bu qo'shig'i 2 qismdan iborat. Birinchisi «Mitra jangchi sifatida», ikkinchisi «Mitra tinchlik haqida». Shularning birida Mitra boshqalarga ziyon yetkazmaydigan mamlakatning olampanohi sifatida tasvirlanadi. «Mitra ularga tinch hayot bahsh etadi, uyda tinchlik bo'lishining tarafdoi, tinch yashashni istagan mamlakat xalqlariga o'zlarini himoya qila olishlari uchun kuch ato etadi, ularning uylarini va mamlakatlarini himoya qiladi. Boshqa tomondan esa Mitra jinoyatchi qabilalarga qarshi turuvchi qasoskor sifatida tasvirlanadi. U bu odamlarning uylarini, qishloqlarini va mamlakatlarini vayron qiladi. Mitranning qasos olish kuchi cheksizdir. Shunday qiib, Mitra antiteza ko'rinishida-mamlakat himoyachisi va olampanohi, qasoskor sifatida o'quvchi ko'z o'ngida gavdalanadi. Mitra haqidagi qo'shiqda urush va tinchlik qarama-qarshi qutblardir.

Zarostra shunga o'xshash antitezalarni she'riyatda keng qo'llaydi. Unda birinchi o'rinda ezgulik va yovuzlik, Axuramazda va Axraman antitezasi turadi.

Ishonch ramzini ham zoroastra antiteza shaklida bayon etadi. «Yasnaning 49-bobida aytishicha,adolat hamma vaqt hukmron bo'lib, yovuzlik yo'q qilinishi kerak. Men ezgulik bilan bo'lishni xohlayman, yovuz kuchlar bilan munosabatda bo'lishni xohlayman».

«Avesto»da asosan savol-javob uslubi qo'llanilgan. Masalan, Yasnaning 10-bobida Mitra so'raydi: «Men sog'ligim va boyligimni kimga berishim kerak?» 110 stansdan (stans-she'rning sintaktik jihatdan tugallangan har bir misrasi hamda to'rt misradan iborat she'riy band) u yana savol beradi: «Kasallik, o'lim va kambag'allikni kimga berishim kerak?»

Antiteza uslubi Zoroastrgacha bo'lgan she'riyatda ham uchragan.

Agarda she'rda «kimki sevsə» so'zları uchrasa, undan so'ng «yoqtirmaganlar» so'zi yoki shunga o'xhash fikr, albatta, ishlatildi.

Videvdatning III bobida qarovsiz qolgan yer, turmush qurmagan qiz bilan taqqoslanadi. Yerga o'g'it tashlagan va ekin ekkan dehqon esa ayolni farzandli qila olgan erkak bilan qiyoslanadi.

Videvdatning IV bobida quyidagi taqqoslanish beriladi. Agarda qarz olgan odam qarzini vaqtida qaytarib bermasa, u baribir tunda birovning uyiga o'g'irlilikka kirgan odamga o'xshaydi.

Videvdatning V bobida mazdaitlar dini, Vuzuktra daryosi boshqa daryolardan ustun turganidek, u ham boshqa ta'limotlardan ustun qo'yiladi. Bu din o'z soyasiga kichik daraxtlarni olgan ulkan daraxt bilan taqqoslanadi.

«Avesto»da ishlatilgan epitettarga ham alohida ahamiyat berish kerak. Chunki xudolarning chaqiriqlari asosan epitetlar yordamida ochib beriladi. Masalan, Axuramazdaga ulug', aql-zakovatli, tabarruk deb baho beriladi.

Axraman esa yovuz, juvonmarg, razil deb xarakterlanadi.

Mitrani izohlashda ham qator sifatlar qo'llaniladi. U yerning xo'jayini ming ko'zli, ming qulqoli, qotmadan kelgan, yaxshi qurollangan, tush ko'rmaydigan, baland minorada turuvchi, hammadan ustun va hokazo.

Xaoma xudosi «tilla suvi yuritilgan» epitetni olgan Trishtriya xudosi 9 sirius yulduzi esa o'zidan nur tarqatuvchi, yuqori turuvchi, kuchli, yaxshi ko'z bilan qarovchi (yomon ko'zga qarshi turgan) epitetlari xosdir. «Shoh» epiteti quyosha qiyos berilgan. Yerning epitetlariga esa-yumaloq, keng, uzoqlarga olib boruvchi, dunyonи yetti mamlakatni quchog'iga olgan kabilar kiradi.

Vafot etganlarga ham (fravashlar) ko'pgina epitetlar bag'ishlagan. Bular asosan ayol nazokatini, chiroyini xarakterlovchi so'zlardir. Bularga shahlo ko'z, uzun qo'lli, ixcham belli kabi so'zlar kiradi.

Videvdatda fravashlar ulug', aql-zakovatli, otlar esa - yugurganda pishqiradigan, yaltiraydigan kabi so'zlar bilan izohlanadi.

Zaroastrning o'gitlarida uning so'zları Agura xudosiga qarata aytildi. Aslida esa bu so'zlar xalqqa nisbatan aytildi.

«Avesto» va gat yillari uchun plenastik tarkibida bir xil yoki bir-biriga yaqin so'zlar keragidan ortiq takrorlanadigan iboralar, jumlalar xosdir. Masalan, «qushlar qanotli jonzotlar», «qizil olov alangalanadi».

«Avesto»ning badiiy uslubida ayrim jumlalarning bir necha martadan qaytarilishi xarakterlidir.

«Avesto» she'riy shaklda yozilgan bo'lib, 7, 8, 9, 10, 11, 12 misralarga bo'lingan. Gatlar bo'g'inlar miqdoriga qarab metrik usulda yozilgan. Gertel esa «Avesto»ning hamma qismlari sillobik xarakterda yozilganligini isbotlab beradi. Gat she'rlari 7, 9, 11 bo'g'inli bo'lsa, Avesto 9 bo'g'inli she'rlardan iborat bo'lib, ayrimlari 10, 12 bo'g'inni tashkil etadi. Gertel «Avesto»ning vaznini «Rigveda» vazni bilan taqqoslaydi.

Gertel asariga I. Fridrix qo'shimcha kiritadi. Uning yozishicha, Behistun va Doro davriga xos ayrim yozuvlar ham bir xil she'riy vaznda yozilgan bo'lib, bu she'riy vazn Gertel «Avesto»da aniqlangan vaznga o'xshaydi.

Xalq og'zaki ijodiyotining yorqin namunalari bo'lmish ertaklar, afsonalar, hikoyat va rivoyatlar qadimgi davrlardayoq keng tarqalgan edi. Bu janrlardagi asarlar folkloarning boshqa janrlariga nisbatan ham ilgari vujudga kelib, xalq orasida ommaviylashib ketadi. Muhim tomoni shundaki, bu janrlardagi asarlarning eng qadimgi davrlardan bizgacha saqlanib qolgan yozma shakllari mavjud. Jumladan, «Avesto»da Axraman va Axuramazda, Ardisura Anaxita, Qayumars (Gaya Maretan), Jamshid (Yima) haqida juda ko'plab afsonalar yaratilgan.

Bu mifologik xarakterdagi afsonaviy obrazlar sharq xalqlari uchun qadimdan muqaddas sanalib kelingan. Xalqimiz bu mifologik xarakterdagi nomlarga aslo afsona deb qaramagan. Balki ularga o'tmishda haqiqatan ham yashab o'tgan tarixiy shaxslar, deb munosabatda bo'lgan. Hatto bu afsonaviy muqaddas siymolar aslo o'lgan emas, hozir ham yashab kelmoqda deb tasavvur qilganlar. Ularga iltijo qilib, yalinib-yolvorgan, e'tiqod qo'yishgan, sig'ingan. Sharq xalqlari og'zaki ijodidagina emas, balki mumtoz adabiyotda ham bu mifologik obrazlar keng o'rinn egallaydi. A. Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonida bu afsonaviy nomlarning tarixda haqiqatan ham yashab o'tganligini, ularning ayrimlari shoh bo'lganligini qayd qilgan. Bunday mifologik xarakterdagi obrazlarni biz Firdavsiy, Jomiy ijodida ham uchratamiz. Biz Qayumars va Jamshid obrazlarini sharq mumtoz adabiyotida juda ko'p uchratamiz. Bu obrazlar haqida to'xtalishimizdan avval «Avesto» haqida chuqurroq to'xtalmoqchimiz.

«Avesto» va zorastrizmning kelib chiqishi haqida, qadimdan ilmiy adabiyotda ikki xil fikr yuritiladi. Ba'zilarning aytishicha, zardusht ta'llimoti Midiyada paydo bo'lib, u yerdan sharqqa tarqalgan. Zoroastrizm va «Avesto»ning paydo bo'lishini Midiya deb biluvchi nazariya tarafдорлари Anketil Dyuperron, Darmosteter va boshqalar, zamonaviy sharqshunos-

lardan Fransiyada Meye va Yuar, Germaniyada Gersfeld, Italiyada Tedesko edilar.

Bunga qarshi fikr bildirgan sharqiy yoki baqtriyalik nazariya tarafdlorlari, zardushtizm aslida Baqtriyada paydo bo'lib, bu yerdan Midiya va Eronga tarqalgan degan fikrni bildirdilar. Bu nazariyaning tarafdlorlari etimologiya matabining a'zolari va Bartelilis, ayni vaqtida esa g'arbda Nyuberglar edi. Oxirgi vaqtida bu nazariyani ayrim sovet olimlari ham qo'llab-quvvatlashdi.

Bu muammoni yechish uchun, birinchi navbatda, uning mohiyatini tushunib olish kerak.

«Avesto»ning kelib chiqishi haqidagi savolga javob berish uchun ikki narsaga e'tibor berish lozim. Birinchidan, «Avesto» bir necha asrlar davomida yozilgan bo'lib, qo'shiq, afsona, har xil vaqtida yozilgan muqaddas kitoblarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun «Avesto»ning kelib chiqishini umumlashtirmay, uning ayrim qismlarining yozilish davri haqida fikr yuritish kerak. Ikkinchidan, «Avesto»ning ayrim xususiyatlari faqat xronologik tarafdan emas, balki jug'rofiy tarafdan ham farq qiladi.

Ular zardushtiylik hukmronlik qilgan turli mamlakatlarda yozilgan. Bunday mamlakatlarga Midiya, Eron, Armaniston, Kichik Osiyo, sharqda Baqtriya, O'rta Osiyo, Hindistonning Panjob shahri kirgan. Zardushtiylik Hindiston, Afg'onistondan Gretsiyagacha, Bobildan Ozarbayjon va Armanistongacha tarqalgan edi. O'zining ko'p asrlik tarixi davomida «Avesto» va zardushtiylik hamma vaqt yangi qismlar bilan to'ldirilib borildi. Bu to'ldirishlar «Avesto»ning tili o'lik til bo'lib qolgan davrdan boshlanadi.

Agar biz zardushtiylik tarqalgan o'lkalarni va uning ikki ming yillik hukmronligini inobatga olsak, unda biz qandaydir yagonalikni ko'rishimiz kerak. «Avesto»ning birinchi qismlari e'tibor bilan o'qilsa, zardushtiylikning urug'chilik tuzumi paytida yuzaga kelganini, qadimgi sharqning quldorlik jamiyatida rivojlanib, feodalizm paydo bo'lishi vaqtida yangi ko'rinishga ega bo'lganini, bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tayotganda zardushtiylikda ham o'zgarishni ko'rish mumkin. Agar «Avesto»da yozilgan, qadimgi xalqlarning qo'shiqlari, afsonalari va ibtidoiy jamaoa tuzumini aks ettiruvchi rivoyatlar inobatga olinsa, «Avesto»ning xronologik jadvali o'tmishning boshlanishiga borib taqaladi. Agarda «Avesto» ayni paytda Hindistonda (Bombey shtatida) yashovchi parslarning muqaddas kitobi ekanligini e'tiborga olsak, bu narsa burjuaziya sinfiga mansub ekanligini bilsak, «Avesto»ning tarixini kapitalizmgacha

uzaytirishimizga to'g'ri keladi. Albatta, ibtidoiy jamoa tuzumidan boshlab quldorlik, feodalizm va kapitalizm davrlaridan o'tgan «Avesto» bu davr ichida bir necha marta o'zgartirildi.

«Avesto»ning mazmuni yangi bazisga xizmat qilishi uchun o'zgartirilgan.

«Avesto» va zardushtiylikda vaqt o'tishi bilan katta o'zgarishlar bo'lganidek, O'rta Osiyo va Midya zardushtiylik ta'llimoti o'rtasida ham anchagina farq bor.

Gersfeld O'rta Osiyoda topilgan, oltin plastinkalarda tasvirlangan «Avesto» bilan qadimgi grek adiblari yozgan urf-odatlar haqidagi ta'llimotning turlicha ekanligini aytib o'tadi.

Bu narsadan shunday xulosa chiqarish kerakki, zardushtiylikda turli davrlarda har xil o'zgarishlar bo'lgan. Dunyoda hech narsa o'zgarmay qolmaganidek, bu yo'nalişlar ham vaqt bilan birqalikda o'zgarib borgan. Mana shu nuqtayi nazardan «Avesto»ni o'rganish kerak. Birinchi navbatda, «Avesto»ni geografik, kosmologik va astronomik jihatdan tadqiq etish lozim bo'ladi.

Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonida, «Tarixi muluk Ajam» asarida va boshqa ijod durdonalarida tilga olgan Qayumars (Gaya Maretan) va Jamshid (Yima) nomlarini «Avesto»da ham uchratamiz. Shuningdek, Navoiy ijodida Aleksandr Makedonskiyning Osiyoga yurishi davrinigina emas, balki undan ilgarigi zamonalarni ham keng tasvirlashga intiladi.

O'rta Osiyoda qadimdan har xil kultlar va o'ziga xos dinlar mavjud bo'lganligini eng qadimgi davrlardan qolgan qomusimiz «Avesto» orqali bilamiz. Haqiqatan ham, yunonlarda turli xil ma'bud va ma'budalar bo'lganligi singari, O'rta Osiyo va Eronda ham quyoshga va yorug'lik ma'budasi - Mitra, fayz va baraka ma'budi - Noxit, baxt, qismat va yurt tinchligi ma'budi - Xumo, yer-suv va yog'ingarchilik ma'budi - Anaxita va Xubbi, qirg'in urushlar va muzaffarlik ma'budi - Mirrix, yaxshilik va ezungulik ma'budalari Gaya Maretan va Yima kabilarni muqaddas bilganlar. Bu muqaddas nomlarni biz «Avesto»da uchratamiz.

«Avesto»da zardushtiylikning kelib chiqish tarixi haqida qiziq-qiziq rivoyatlar bor. Ularning birida hikoya qilinishicha, qadim-qadim zamonalarda Midyaning Raga shahrida Purushaspa xotini Dogdo bilan hayot kechirar ekan. Ulardan Zaradusht degan o'g'il tug'ilibdi. Unga Spitam Zaradusht deb nom berishibdi. Spitam Zaradusht shoh Vishtaspning poytaxti Balx shahriga keladi. Ustiga oppoq libosdan kiyim kiyib, qo'liga muqaddas

olov tutgan Zaradusht shoh Vishtaspning saroyiga keladi va Baqtriyaning muqaddas kishisiga aylanib qoladi. Spitam Zaradusht bu yerda o‘zining diniy aqidalarini tarqatadi. Xalq esa undan diniy ta’lim oladi. Asta-sekin Spitam Zaradushtning mavqeyi Baqtriyadan uzoq-uzoq joylarga ham yetib boradi. Muqaddas Zaradushtning diniy ta’limotini qo‘shni Eron, so‘ngra so‘g‘diyonaliklar ham qabul qiladi. Zaradushtning Axuramazda va Axriman haqidagi hikoyalari Baqtriya va so‘g‘diyonaliklarni o‘ziga rom etib, tobora uning shuhrati ortib boradi. Shunday qilib, Hindistondan Kaspiy dengizigacha, Baqtriyadan yunon o‘lkasigacha, So‘g‘diyonadan Erongacha bo‘lgan xalqlar o‘rtasida zardushtiylik dini keng quloch yoyadi. Hatto zardushtiylik diniga e’tiqod qo‘yanlar ma’lum bir quyosh tug‘i ostida birikkanlar. Aytishlaricha, Spitam Zaradusht o‘z e’tiqodini qabul qilgan ellar va elatlarni birlikka, o‘zaro ittifoqqa chaqirgan. Go‘yo yaxshilik xudosi Axuramazda Spitam Zaradushtga shuni bashorat qilgan emish. Hatto Spitam Zaradushtning ta’kidlashicha, unga Axuramazda o‘zi yaratgan ellar va elatlar haqida ham hikoya qilib beribdi.

Vedevdatning birinchi bobida 16 mamlakat tilga olinadi. Bu mamlakatlarning asoschisi Axuramazda edi. Bundan tashqari, bu mamlakatlarga Axriman qilgan yovuzliklar ham tasvirlanadi.

Vedevdatning bu qismi «Avesto»ning geografiyasini, ya’ni zardusht dini tarqalgan o‘ikalarni ko‘rsatib beradi. Bu tarixiy geografiyanı o‘qishga ko‘plar urinib ko‘rishi, lekin bu tarixiy real mamlakatlar ichida, afsonaviy mamlakatlardan bo‘lganligi uchun mazkur urinishlardan ijobjiy natija chiqmadi.

Vedevdatning birinchi qismida Axuramazda Spitame Zardushtga qarata shunday so‘zlarni aytgan: «Men Zardusht, har bir mamlakatni, buning hech qanday yaxshi joylari bo‘lmasa ham, barpo qildim». Bu o‘rinda u shunday izoh beradi: «Har bir inson o‘sib-ulg‘aygan mamlakatni eng yaxshi va go‘zal mamlakat deb hisoblaydi». Shunday qilib, inson o‘zi o‘sib-ulg‘aygan Vatanini sevsa, vatanparvarlikning asosiy negizi shunga kelib qadaladi, degan xulosa chiqadi.

Axuramazda davom etadi: «Men barpo etgan yerlardan eng birinchisi, bu Daitya (Amu) daryosi sohilidagi Ayrian Vayego yeri edi».

Daitya daryosining birinchi nomi Araks bo‘lgan. (U Araks deb somoniylar davrida ham nomlangan).

«Lekin zolim Axriman, - deb so‘zida davom etdi Axuramazda, - u yerda qizil yer ochib, qahraton qishni boshladi». Shunday qilib,

Axuramazda o‘zining birinchi mamlakatini barpo etgandan so‘ng u yerda Axriman barcha go‘zallikni barbod etib, Daitya daryosida ilon paydo bo‘ladi. Bu ilonlar avlodи ko‘payib, daryo qirg‘og‘ida yashay boshlashadi.

Mana shu yerdan yovuzlik va ezgulik o‘rtasida kurash boshlanadi. Barcha yaxshilik xislatlari Axuramazda bo‘lsa, barcha yovuzliklar Axrimanga tegishlidir. Qish, muzliklar Axriman yovuzligining boshlanishidir. Qahraton sovuq suvni muzlatadi, yermi qoplaydi, o‘simliklarni nobud qiladi. Qishning tugashi esa sel boshlanishiga sabab bo‘ladi. Bularning barchasiga Axriman sababchidir.

Axuramazda barpo etgan ikkinchi mamlakat, so‘g‘diyonaliklar yashagan Gavadir. Shunday qilib, Gava vedevdatda So‘g‘diyona nomi bilan atalgan. Axriman bu yerda ham Axuramazdaga zid ishlarni qiladi. Bu yerga u zaharidan sigirlar va boshqa mollar nobud bo‘ladigan pashshalarni olib keladi.

Uchinchi mamlakat - bu ulkan, dindor xalq yashaydigan Marg‘amdir (Marg‘iyona, ya’ni Marv). Angra bu yerda shahvoniy nafsnинг tarqalishiga sababchi bo‘ladi.

Axuramazdaning to‘tinchi mamlakati, go‘zal Baxdi (Baqtriya, Balx). Bu o‘lkaning aholisi yaxshilik qiluvchi dehqonlardan iboratdir. Ular uchun Axriman - ilonlarni yeydigan chumolilarni tarqatadi.

Marv va Baqtriya oralig‘ida joylashgan Nisaya (Nasoim) mamlakati Axuramazdaning beshinchi mamlakatidir. Bu yerda razil Axriman aholiga ishonmaslik ruhini singdiradi.

Darmsteter bunga ham izoh beradi. Uning aytishicha, Nisaya (Nasoim) nomli bir nechta shahar bo‘lgan. Shulardan bittasi Marv va Baqtriya oralig‘ida joylashgan. Darmsteter bu yerni «Nisan, uning va Baqtrianing oralig‘ida yotgan «Marv» deb tarjima qilishni taklif qiladi.

Axuramazdaning oltinchi mamlakati Garoiva Gari daryosining havzasi. Bu - Hirotdir. Angra bu yerning aholisini yig‘i va nido bilan zaharlagan.

Yettinchi mamlakat Vasnkrenta (Qobul), Axriman bu yerga odamlarni qiradigan parilarni tashlab ketadi.

Sakkizinchi mamlakat - maysazor va o‘tloqlarga boy bo‘lgan Urvadir. Ba‘zi bir fikrlarga qaraganda, bu Xurosondagi Tus shahridir, boshqa bir fikrga qaraganda, Isfahon atrofidagi yerlardir. Bu yerning ofati zolimlik ruhidir.

To‘qqizinchi mamlakat - Xnenta. Bu yerda verkanlar yashashardi. Bu Girkaniya edi. Bu yerning izohida shunday deyiladi. «Verkandagi daryo -

Xnentadir. Bu esa Gorgan daryosidir. Bu yerdagi ofat - to'g'rilab bo'lmaydigan, sharoitga to'g'ri kelmaydigan gunoh ishlardir».

O'ninchি mamlakat go'zal Garaxvaiti. Bu yerning kulfati -jasadlarni yerga ko'mishdir. O'n birinchi mamlakat shuhrat qozongan Getumant. Bu Erimanta havzasidagi Gelmendadir. Axriman qilgan yovuzlik - zolim jodugarlarning zulm o'tkazishidir.

O'n ikkinchi mamlakat Raga u uch viloyatni o'z ichiga olgan. Bu yerning ofati - cheksiz ishonchhsizlik edi.

O'n uchinchi mamlakat - muqaddas Kaxra. Bu qanday davlat ekanligi noma'lum. Uni Xitoy deb o'ylashgan, lekin bu noto'g'ri. Xurosonda shu nomdagi shahar bor edi. Axriman o'tkazgan zolimlik - kechirib bo'lmaydigan gunoh, ya'ni jasadlarni yoqish edi.

O'n to'rtinchi mamlakat - to'rburchak Varena. Bu yerni egallagan ofat ayollarning kasalliklari va chet mamlakatlarining bosqinchilik ishlardir.

O'n beshinchi mamlakat - Hind daryosi havzasidagi yerlar, ya'ni ilgarigi Panjob shahridir. Axriman bu yerda ayollar kasalligi va chidab bo'lmaydigan jazirama issiq ofatini yog'diradi.

O'n oltinchi mamlakat - Upa Aodayeshu Rangaya. Bu shahar Rangi suvlarini yonida joylashgan. Bu mamlakatda boshsiz odamlar yashashadi. Boshsiz degan so'zni olimlar izohlab, bu yerning xalqi hukmdorsiz deyiladi.

Boshqa bir guruh olimlar bu yerda, haqiqatan ham, boshsiz, ko'zlarini yelkalarida joylashgan xalq yashardi deb aytadilar. Bu yerning ofati chidab bo'lmas sovuq edi. Ayrimlami aytishicha, bu mamlakat Mesopotamiyada joylashgan bo'lib, afsonaviy g'aroyib joy edi.

Vedevdatning geografiya ocherki quyidagi so'zlar bilan tugallanadi. «Bulardan tashqari, bu yerlarda o'zining boy tabiatini va hayotda zarur bo'lgan xomashyosi mavjud bo'lgan yerlar va mamlakatlar ham bordir.»

«Avesto»da bu o'lkalarning tabiatini, geografik muhiti, u yerlarda yashagan hayvonlar va jonivorlar haqida qiziq-qiziq hikoyatlar berilgan. Mana shu afsonaviy ruhdagi hikoyatlar orqali ham antik davrlarga oid muhim faktlarni bilib olsak bo'ladi. To'g'ri, «Avesto»da asosan afsonaviy voqealar bayoniga duch kelamiz. Ammo har qanday afsonaning asosida haqiqatdan darak beruvchi ma'lum tarixiy voqealar yotganligini hisobga olsak, «Avesto» bizga antik dunyoning haqiqatga yaqin sahifalarini ochib beradi. Masalan, «Avesto»da hikoya qilinishicha, yer yuzida birinchi marta ikkita kuch - yaxshilik va yomonlik paydo bo'lgan emish. Yaxshilik kuchini

Axuramazda, yomonlik tarafdonini Axriman deb atashgan. Axuramazda yaratadi, kashf qiladi, odamlarga ezbilik va yaxshilik ulashadi. Axriman esa buzadi, yakson etadi, kishilar orasida g'araz va riyoni avj oldiradi. Ikki kuch hech qachon bir-biri bilan chiqisha olmaydi. Ular misoli olov bilan suv kabi bir-biriga qarama-qarshi turadi. Bizning e'tiborimizni tortgan tomoni shundaki, «Avesto»dagi ko'pgina hikoyatlar asosan mana shu ikki kuch o'rtasidagi kurashni tasvirlashga qaratilgan. Yomonlik yo'q bo'lib ketmaydi, u hamma vaqt yaxshilikning oldiga g'ov bo'lib, uning yo'lini to'sgani-to'sgan. Bu ikki kuch shunday bir abadiylikka daxldorki, ular bir-birini abadiy yakson qilib tashlay olmaydi. Bir-biriga qarshi doimo kurashgani-kurashgan. Qadim-qadim zamonlarda yaratilgan «Avesto»da ilgari surilgan bunday g'oya, u har qancha afsonaviy yoki diniy xarakterga ega bo'lmasin, o'zining g'oyaviy-estetik ta'sir kuchiga ega. Yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash faqat antik dunyoga xos bo'lib qolmasdan, bu ikki kuch keyingi davrlar uchun ham xarakterlidir. Hatto hozirgi kunda ham yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash to'xtagan emas. Bu ijobiy va salbiy qutb har bir insонning shaxsiy faoliyatida, ijtimoiy hayotida, umuman, davlatlar o'rtasida ham ya-shab kelmoqda. Xarakterli tomoni shundaki, «Avesto»da yaxshilik tarafdoi bo'lgan Axuramazdaning ezbilik yo'lidagi kurashlari, uning yaratuvchilik faoliyati ma'qullanadi, yaxshilik ulug'lanadi, yomonlik va nafrat bilan qarshi olinadi. Biroq har qancha qarg'ish va nafratga yo'liqmasin, yomonlik yaxshilikka qarshi kurashaveradi. Umuman olganda, bunday ruhda tasvirlangan «Avesto»dagi hikoyatlar kishi ruhiga ijobiy ta'sir etadi.

Qadimiylar qomusimiz bo'lgan «Avesto»dan O'rta Osiyoning go'daklik davriga oid yana juda ko'plab faktlarni bilib olishimiz mumkin. Haqiqatan ham, asarda o'lkamizning eng qadimgi davrlari o'zining ajoyib va g'aroyib sarguzashtlarga boy ifodasini topgan.

«Avesto»da Axuramazda o'zi yaratgan yerlarni sanab o'tar ekan, boyligi va xushmanzaraligi jihatdan birinchi bo'lib, Amu bo'yłari va So'g'diyonani tilga oladi. Shunga ko'ra, «Avesto» o'rta osiyoliklarning eng qadimgi og'zaki ijod namunasidir. Afsonaviy hikoyalar negizida Amudaryo va So'g'diyonaning ilk bor yaratilgani haqidagi ma'lumotlar fikrlarimizni dalilidir. Axuramazda va Axriman haqidagi diniy e'tiqodlardan ancha keyin paydo bo'lgan zardushtiylik dini ham bizga qo'shni bo'lgan Baqtriyadan tarqaganini «Avesto» tasdiqlaydi. Spitam Zaradushtning Baqtriya podshosi Vishtasp saroyiga kelib qolganligi haqida yuqorida to'xtalib o'tgan edik.

Zaradushtning ta'limoti keyinchalik zaradushtizm g'oyasi, dini degan ma'no kasb etdi. To'g'ri, Spitam Zaradusht Baqtriyaga Midiya va Balxdan kelgan. Lekin u o'zining zaradushtiylik ta'limotini ilk bor Baqtriyada joriy qiladi. Zardushtiylik dini Baqtriyadan qo'shni davlatlar So'g'diyona, Girkaniya, Marg'iyona kabi O'rta Osiyo yerlariga yoyiladi. Chunki bu yerda yashovchi elatlar o'tasida o'sha davrlardayoq yaqindan aloqa mavjud edi.

Videvdatda (19,3) koinot quyidagi qismlardan tashkil topgan deyilgan: yer, samo va jannat. «Avesto»da yer yumaloq, okeanlar bilan o'ralgan deb tasvirlanadi. Bunday tasvirlash qadimgi greklarning yerni tasvirlaganiga o'xshab ketadi. Ya'ni yer har tomondan okeanlar bilan o'ralgan. Okean deganda, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan uch dengiz ko'zda tutiladi. Kaspiy, Qora yoki O'rtayer dengizi. Dengizlar okeanlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Tog'lar esa, ilgari tekis yer hisoblangan joyda qad ko'targan.

«Avesto»da yer yetti qismga bo'linadi. Ya'ni yer shari oltita o'qi bo'lgan g'ildirakka o'xshatiladi.

Qadimgi ta'limotlarga ko'ra, yer markazi atrofida joylashgan 6 kroshvar, ya'ni o'q shimolda Rangi (Volga), sharqda Hind, janubi-g'arbda Tigr daryolari bilan chegaralangan.

Yerning chegaralari haqida ham Yashtda so'z yuritiladi. Unda yozilishicha, qasoskor xudo jinoyatchi Mitra Hindugami, Tigrgami yoki Yaksartgami, qayerga qochishidan qat'i nazar, baribir qo'lga tushirgan. Mana shu uch daryo, ya'ni Hindu, Tigr va Yaksart yerning eng chekka yerlari hisoblangan. Yerning markazi esa Marv, ya'ni Mitra shaxsi ulug'langan shahar bo'lgan.

Midiyada yer 4 narsadan, ya'ni yulduzlar, oy, quyosh va koinotdan tashkil topgan deb qayd qilingan.

Yashta (12) da yozilishicha, qatlamlar quyidagicha joylashgan. Birinchisi - yulduzlar, ikkinchisi oy, uchinchisi quyosh va to'rtinchisi jannatdir. Yulduzlar turkumi eng pastki qatlamda, ya'ni yerga yaqin joylashgan.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lgan «Avesto»da juda ko'plab qo'shiq, hikoyat va rivoyatlar mavjud. Bu qo'shiq va rivoyatlarda asosan zardushtiylikning ramziga aylangan quyosh muqaddas kuch sifatida ta'riflanadi. Qadimdan o'rta osiyoliklar quyoshni sevganlar. Odamlar qahraton qishning ayozli, qahr bilan kirib kelgan sovuq qish faslidan ko'ra qut-barakaga to'la quyoshli kunlarni iltijo qilib kutganlar. Yaxshilik ma'budi Axuramazda quyosh olib kelsa, Axriman sovuq kunlarni

keltirgan. Shunday qilib, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash «Avesto»dagi qo'shiqlarning, hikoyat va rivoyatlarning asosini tashkil qiladi. «Avesto»da quyosh qut-baraka ramzi sifatida ta'riflanadi. Shunday qilib, quyosh ma'budasi Mitra ko'pincha Yaksart (Sirdaryo) bo'ylarida yashirinib yuradi¹.

Bundan tashqari, «Avesto» O'rtta Osiyo xalqlarining nihoyatda mehnatkash bo'lganligidan darak beradi. Bu jihatdan, ayniqsa, mehnat ma'budasi Ardisura Anaxita haqidagi rivoyatlar diqqatga sazovordir. Shuningdek, Qayumars (Gay Maretan), Jamshid (Yima) ham insonlarga baxt va shodlik olib keluvchi, to'qlik va osoyishtalikni ta'min etuvchi obrazlardir. Bu obrazlar tashqi tomondan xavf tug'diruvchi, hujum qiluvchi yovlarga qarshi kurashadi. Suv toshqinini va yong'inning oldini oladi. Chorva mollarini ko'paytiradi. Elda mo'l-ko'lchilik, to'kin-sokinchilikni ta'min etadi.

Bobokalonlarimiz qadimdan zardushtiylik dinini qattiq himoya qilganlar. Atoqli olim A.O. Makovelskiyning qayd qilishicha, zardushtiylik tarafdlari Aleksandr Makedonskiyni Axriman, «la'natি badkirdor», zardushtiylik dinini oyoqosti qildi, deb la'natlaganlar².

Mana shu faktdan ham ko'rinish turibdiki, zardushtiylik tug'i ostida bo'lgan barcha ellar va elatlar bosqinchi yovlarga qarshi bir tan, bir jon bo'lib kurash olib borganlar. Ayniqsa, bunday yuksak vatanparvarlik ruhidagi kurash grek-makedon bosqinchilariga qarshi So'g'diyonada, Baqtriya, Girkaniya, Marg'iyonada avj olib ketgan edi.

Zardushtiyliklar yaxshilikni (Axuramazda) yoqlab chiqadilar. Biroq u bilan birga hayotda yomonlik (Axriman) ham yashab qolaveradi. To'g'ri, zardushtiylik dinining ham inson qismati bilan bog'liq tuban, yaramas tomonlari bo'lgan. Masalan, insonlar keksayib, ishga yaroqsiz bo'lib qolgandan so'ng ularni eng og'ir jazoga mahkum etganlar. Ba'zi bir o'lkalarda keksaygan odamlarni qo'y kabi so'yanlar, boshqa bir yerlarda yerdan g'or kovlab, ularni tiriklayin qaramaganlar. Ba'zi joylarda odamlarni tiriklay cho'l-u sahrolarga haydab, yirtqich hayvonlarga yoki qushlarga yem qilganlar. Mabodo kishilar o'lib qolsalar, ular dafn qilinmasdan, itlarning oldiga tashlangan. Aleksandr Makedonskiy zardushtylarning bu odatini taqiqlaydi. Shu bilan birga, zardushtlarning mehnat va

¹ Avesto. Izd-vo AN Az, Baku, 1960, str. 67.

² Avesto. Izd-vo An Az, Baku, 1960, str. 48.

qahramonlikni ulug'lashi, jangovarligi, mehnatsevarligi va boshqa ko'pgina urf-odatlari, Aleksandr Makedonskiyga ma'qul tushadi. Aleksandr butunlay So'g'diyonacha kiyinib yuradi. O'z qo'shinlarini ham mahalliy xalq urf-odatini qabul qilishga va yerli xalqning milliy kiyimlarini kiyib yurishga undaydi. Shunday qilib, O'rta Osiyoda zardushtiylik dini arab istilosigacha (eramizning VII asri) yashab keladi.

Ammo shuni ham ayrib o'tish kerakki, atoqli shohlar o'lganda ularning jasadini oltin tobutga solib, ichini dur-u javohirlarga to'ldirib dafn etganlar. Hatto marhumning boshi tagiga «Avesto»ni ham qo'yganlar. Qabrnı aylantirib hashamatli ibodatxona qurbanlar. Bu ibodatxonalar keyinchalik muqaddas joyga aylangan. Shuningdek, ma'bud va ma'budalarga atab ham ko'plab ibodatxonalar qurilgan. Aleksandr Makedonskiy Tus shahrida shoh Vishtaspga qurilgan uchta ibodatxonadagi qabrlarni ochib ko'rsa, ularning biridan «Avesto» muqaddas kitobi chiqadi¹. Albatta, bu kitob «Avesto»ning to'liq nusxasi bo'lmay, uning ma'lum bir sahifalaridan iborat edi, xolos. Qabrdan topilgan bu «Avesto»da juda muhim manbalar bayoni qayd etigan edi. Shuningdek, unda Zaradusht ta'limoti va faoliyati bilan bog'liq asosli faktlar keltirilgan. Zardushtiylik e'tiqodiga tobe bo'lgan go'zal ayollar haqida ham voqealar bayon etiladi. Jumladan, uning bir sahifasida shoh Vishtasp ismi-sharifi bilan bog'liq bo'lgan ayolning nomi qayd qilingan.

Vishtaspning vatani, Firdavsiy tug'ilgan Mashhadga yaqin joylashgan Tus shahri edi. Vishtasp midiyaliklar ismidan bo'lib, Tus shahri esa Aleksandr Makedonskiy hukmronlik qilgan davrda greklarga ma'lum bo'lgan. A. Makedonskiy o'zining harbiy yurishi chog'ida bu shahardan o'tgan. Shahar atrofida Vishtasp asos solgan uchta ibodatxona joylashgan bo'lib, shularning birida «Avesto»ning me'morial varaqasi saqlanardi.

Ayollar ro'yxati yozilgan me'morial varaqada Zardushtning uch xotini va qizlaridan keyin Vishtasp familiyasidagi ayollar ro'yxati boshlanadi. Gotosa va Gumayya. Gotosa (grek tilida Atossa) ahmoniyalar va sosoniyalar san'atida tasvirlangan go'zal ayoldir. Aytishilaricha, «Avesto»da yozilgan Vishtasp Doroning otasi bo'lgan. Atossa esa zardusht bilan bir vaqtda yashab o'tgan. O'sha davrda erkak 16 yoshida uylanib, bir nechta xotin olish huquqiga ega bo'lgan. Lekin birinchi xotini eng kattasi hisoblanmagan. Avstriyalik Ardaviraz o'zining yetti onasiga uylangan. Yashtada (15) Attosaga

¹ A. O. Makovelskiy. Avesto. Izd-vo AN Az, Baku, 1966, str. 80.

ikki epitet beriladi «purubratra» va «azata». Birinchisi, u bir nechta aka-ukalariga turmushga chiqqanligi ma'lum qilinadi. Atossa, o'z navbatida, Vishtaspning xotini va opasi sifatida aytildi. Ikkinci epitet «merosxo'r» degan ma'noni bildiradi. Xuddi shunday epitetlar Doroning qiziga ham taalluqlidir. Aytishlaricha, u ham ona tomondan bo'lgan o'z akalari bilan turmush qurgan.

Nyubergning aytishicha, tarixiy Atossa o'zining akasi Gomato, Kambiz va qarindoshi Doro bilan turmush qurgan. Kirming merosxo'ri sifatida Atossaning «qari qiz» bo'lishdan tashqari, uning hamma narsaga haqqi bor edi. Atossaning onasi Amites bo'lib (549 (8)- yilda tug'ilgan), u o'zining uchinchi eri bo'lgan Dorodan (eramizdan avvalgi 545- yilda tug'ilgan) biroz katta edi. Gerodotning yozishicha, u o'z eri ustidan hukmronlik qilardi. Uning Kserks ismli o'g'li bo'lgan. Atossa xalqning aql-zakovatiga katta ta'sir qiladi. Uni faqat merosxo'r deb emas, balki aka-ukalar bilan turmush qurgan ayol sifatida ham eslab yurishadi. Gersfeld «kavi» so'ziga yangicha izoh beradi, uningcha, «kavi» unvon bo'lib, «klan (qadimgi irlandiyaliklarda va shotlandiyaliklarda, urug' jamoasi boshlig'i) ma'nosini bildirgan. Bu Spitam urug'inining unvoni bo'lgan Kavi - ulug' oilalarning a'zolaridir (deyokidlar, gistaspidlar va boshqalar). Har bir urug'ning oila a'zolari xashayyatya («Shoh» so'zi paydo bo'lgan edi) unvoni bilan ajralib turishi kerak. Bu unvon asosan viloyat hukmdoriga taalluqli bo'lgan. Zardusht ham Spitam urug'idan bo'lib, kavi bo'lgan. Vishtasp esa ham kavi, ham xashayyatya edi. Oxirgi atama - midiyaliklarning so'zi bo'lib, ham hokimlik, ham ulug' shoh unvoni bo'lib xizmat qilgan. Hammadan oldin davlat barpo etgan eronliklar bu so'zni midiyaliklardan olishgan. Agar hukmdorning bunday unvoni bo'lmasa, uning podshohligi qonunsiz deb hisoblangan.

Midiya va Eronda shunday odat bor edi. Kimda kim taxtga o'tirsa, u o'z nomini o'zgartirishi kerak. Masalan Doro (Darayyavagush), Kserks (Xshayyasar) va Artakserks (Rtaxshatata) bo'lgan. Agar bu ismlar podsholik davrida yuzaga kelgan bo'lsa, unda shoh Doroning birinchi ismi nima bo'lgan degan savol tug'iladi.

Gersfeldning yozishicha, shoh Doro Vishtaspning o'g'li bo'lib, uning asli ismi Spanadata edi. Shoh bo'lgandan so'ng u o'zini Doro yavagushsi deb atadi. Doroning buvasining nomi bilan atalmish Vishtasp degan o'g'li ham bor edi.

Taxtga o'tirganlarning ismini o'zgarishi Zardusht ta'limoti bilan bog'liqdir. Aynan Doro «Doro yavagush», «Doro - vaguman»ning qisqartilirgan shakli bo'lib, «xudojo'y fikrlarga egaman» degan ma'noni bildiradi. Kserks nomi esa - Xshayyarshah, «Xshayyarshmanaxi» so'zining qisqartirilgan shakli bo'lib, «Erkinlik ustidan hukmdorman» degan ma'noni anglatadi.

Shu o'rinda nima uchun ahmoniyarlarning ismi faqat me'morial varaqalarda uchraydi, degan savol tug'ilishi mumkin.

«Avesto»da arshakiylar davrigacha bo'lgan vaqtning yozuvlaridan faqat ayrim qismlarigina qolgan. Makedoniyaliklar istilosiga davrida «Avesto»ni yo'q qilishga urinilgan. Bunday quvg'inlik faqat diniy bo'lmay, balki siyosiy ahamiyati ham bor edi. «Avesto»da ilgari surilgan ta'limot faqat diniy bo'lgani uchun emas, balki siyosiy jihatdan ham istilochilarining g'oyasiga zid turardi.

Gersfeld bandva va graxma so'zlarini ham izohlagan. Bandva so'zi, «o'zimizniki», ya'ni aka tarafdan qarindosh, tutingan aka degan ma'noni anglatadi. Graxma so'zi esa - shoh sevgilisi degan ma'noni bildiradi. Zardushtning bandvasi - Kambiz, Kambizning graxmasi - Gomata va Smersdis edilar.

Gersfeldning yozishicha, bu yerdagi barcha atamalarning izohini bilmay, ularning quvg'inlikka uchrash sabablarini va Zardushtning hayotidagi asosiy voqealar sababini tushunib bo'lmaydi. Me'morial varaqasida esa Zardusht va uning urug'i nomi yozilgan ro'yxat, Vishtasp va uning oila a'zolarining nomi yozilgan ro'yxatdan ham ilgari yozilgan.

Tarixda bunday voqealar ko'p uchragan. Ayrim joylarda farzand o'z onasiga uylangan. Bunday odad Baqtriya va So'g'diyonada ham mayjud bo'lganligi haqida grek tarixchi adiblari Flaviy Arrian va Kvint Kursiy Ruf o'z asarlarida aytib o'tadi. Hatto bunday odad Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyoga bostirib kelgan davrlarida ham sodir bo'lib turganligini ma'lum qiladi.

Aleksandr So'g'diyonadagi yirik shaharlardan biri bo'lgan Nautakni bosib oladi. Nautak¹ dan o'tib, Oks daryosining yuqori oqimi Baqtriya bilan So'g'diyona chegarasida, baland tog'lar bag'rida joylashgan Xushon qal'asiga keladi. Bu qal'aning hokimi Sisimifr edi. Taqdir taqozosiga ko'ra

¹ Nautak — Qarshi shahri yonida ekanligi aniqlangan.

Sisimifr o‘z onasiga uylanib, undan ikki o‘g‘il ko‘rgan. Roman muallifi o‘sha davrlarda Xerionda shunday odat bo‘lganligini qayd qiladi.

Sisimifr o‘zining yurtdoshlari bilan shaharni qattiq turib himoya qilardi. Tashqariga olib chiquvchi yerosti yo‘llari ularning o‘zlarigagina ma’lum edi. Aleksandr ulardan shaharni topshirishni talab qiladi. Elchi qilib o‘zining eng yaqin kishisi, so‘g‘diyonalik Oksiartni yuboradi. Sisimifr shaharni topshirishga rozi bo‘ladi. Biroq uning onasi (shuningdek, xotini) «o‘zgalarning oyog‘i ostiga shaharni tashlaguncha o‘lmoq afzaldir, joningning tinchini o‘ylaguncha, vijdoningni o‘ylagin»¹ deydi. So‘ngra, «Sisimifr Oksiartga o‘g‘illarini, hamyurtlarini qo‘sib onasining huzuriga boradi. Oksiartning bergan va’dalariga ishongandan so‘ng, u shaharni topshiradi. Aleksandr Sisimifrning ikki o‘g‘lini o‘ziga jangchi qilib oladi, o‘zini hokim qilib tayinlab, bundan buyon do’st bo‘lib qolishga va’da beradi»².

Bunday voqealar ona urug‘i (matriarxal) hukmron bo‘lgan davrlarga to‘g‘ri keladi.

Qadimda Eronda asosan to‘rtta sulola hukmronlik qilgan. Peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar, sosoniylar. Shulardan peshdodiylar, kayoniylar sulolasida afsonaviy shohlar hukmron bo‘lib, ahmoniylar sulolasining eng birinchi vakili shoh Kir (eramizdan avvalgi 558-230- yillarda) edi.

Ahmoniy eronliklarning odamni dafn etish marosimi «Avesto»da yozilganidek ancha farq qiladi. «Avesto»da murdalar ko‘milmay, hayvonlarga yem qilish uchun qoldirilgan.

«Avesto»da odamning o‘limiga sababchi bo‘lgan kuch «atravan» deb atagan. Eronliklarda bunday kuchni «magiya» deb atashgan.

Strabonning yozishicha, Kappadokiyada ilohiy kuchlarni «pifayflar» deb atashgan. «Avesto»da ta’kidlanishicha, atravanlarga o‘xshab, maglar ham murdalarni yovvoyi hayvonlar ixtiyoriga topshirishgan. Bu haqda Gerodot shunday deb yozadi: «Bu narsa sirli ravishda bajariladi. Eronliklar murdalarni qush yoki itlar yeb, bo‘laklarga bo‘lib tashlagandan keyin ko‘madilar. Maglar esa dafn etmay, murdani ochiqda qoldiradilar».

Maglarning bunday odati akademik V. V. Struvening fikricha, Kaspiy daryosining janubida yashovchi elatlarning shafqatsiz urf-odatini sal yumshatardi. Bu urf-odat haqida Strabon ham yozgan.

¹ Kursiy Ruf. 311- bet.

² Kursiy Ruf. 311- bet.

«Kaspiyliklar 70 yoshdan oshgan qariyalarni ochlikdan o'ldirib, cho'lga olib chiqib tashlaydilar. O'zları esa, murdaga qaysi hayvon birlinchi bo'lib yaqinlashishini kuzatib turadilar. Agar murdani qushlar olib ketsa, uni xudojo'y odam deb hisoblashgan. Agar hayvon yoki it olib ketsa - hurmatga sazovor emas, deb xulosa chiqarishgan. Agar hech qanday jonzot murdaga yaqinlashmasa - uni baxtsiz deb hisoblashgan».

Murdalarni hayvonlar ixtiyoriga topshirish qadimgi kaspiyliklardan tashqari zardushtiylarda ham uchraydi. («Avesto»da bu narsa qayd etilgan). Zardusht ahmoniy va maglar dinining markazi Midiya deb uqtirgan. Qadimgi Ozarbayjon va Armaniston Mazda xudosining shaxsi hukm surgan davlatlardir.

Mazda buyuk Urartu davlatining dini edi. Urartu madaniyatini qabul qilganlar midiyaliklar edilar. Urartu davlatining ayni gullab yashnagan paytida ular mazda dinini qabul qilib, boshqa dinga sig'inganlarga qarshi kurash boshlaydilar. Mazdaizm maglardan yangi urf-odatlarni qabul qilib, Axuramazdaga qurbanliklar keltirishni yaxshi odat deb bilishgan. Midiya ittifoqi tuzilgandan keyin bu din Eronda ham tarqalgan. (VIII asrda Sharqiy Eronda ham tarqaladi.) Maglar - Urartu xalqi ozarbayjon xalqining qadimgi diniy dunyoqarashlarini ham meros qilib oladilar. Ular bu din hukmdorligini barcha Midiya urug'lari o'rtasida o'rnatib, keyinchalik qo'shni xalqlarga ham tarqatadilar. Maglar oldin Midiya xalqining, keyinchalik Eron xalqining fikr va urf-odatini targ'ib etadilar.

Midiya davlati paydo bo'lgandan keyin, midiyaliklarning boshqa xalqlar ustidan hukmronligi kuchayadi va bu narsa maglar dinining tarqalishiga asosiy sabab bo'ladi.

Shunday qilib, mazdaizmnинг markazi Midiya bo'lib, aynan shu yerdan u sharqqa, O'rta Osiyoga va janubga, Eronga tarqay boshlaydi. Asrimizgacha bo'lgan VIII asrda Midiya va Baqtriya o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatilgan edi.

«Avesto»dagi ko'pgina rivoyatlar zardushtiylik dinidan avval paydo bo'lgan turli xil e'tiqodlarga ham daxldorlir. Masalan, Axuramazda olovga (Otashkadalar) topingan. Ibtidoi yamoa tuzumi davridagi voqealar ham «Avesto»da o'z aksini topgan.

Qabrdan topilgan «Avesto»da qayd etilishicha, o'sha davrlarda erkaklar bir nechta xotin olish huquqiga ega ekanlar. Erkaklar roppa-rosa 16

yoshidan boshlab uylanishgan. Hamma vaqt birinchi xotin boshqalariga bosh bo'lgan'.

Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Umuman olganda, Spitam Zaradusht asos solgan «Avesto» O'rta Osiyoning antik davrlarini aks ettiruvchi yagona yozma manba bo'lib, hali bu noyob asar olimlarimiz tomonidan atroflicha o'rganilgan emas. Hamon bu asarga diniy kitob sifatida sovuqqonlik bilan qarab kelmoqdamiz. Holbuki, bu kitob allaqachon ko'pgina Yevropa xalqlari tillariga tarjima qilingan. Asar o'zining haqiqiy tadqiqotchilarini kutmoqda.

«Avesto» aslida ikki million she'riy misradan iborat bo'lgan ekan. Bu bebahoh asar o'n ikki ming buzoq terisiga oltin harflar bilan bitilgan. Aleksandr Makedonskiy uning Istaxrada saqlangan nusxalarini yoqib yuborgan.

«Avesto»ning biz o'rganayotgan keyingi nusxalarida Yasna, Vispart, Videvdat, Yashta nomlari bilan ataluvchi boblari mavjud. Ayrim manbalarda «Avesto» eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda yaratilgan deyilsa, boshqa manbalarda eramizdan avvalgi IX asrdan eramizgacha bo'lgan uzoq davr mobaynida yaratilib, qayta ishlanib kelingan, deyilgan².

Ma'lumki, A.O. Makovelskiy «Avesto» orqali qadim o'tmish davrlarimiz haqida muhim fikrlarni ayta olgan, ayrim murakkab jumboqlarni yechib bergen. «Shoh» so'zi asosan Osiyo xalqlari o'rtasida keng tarqalgan «Shoh» so'zi jahon xalqlariga ham yaqindan tanish.

«Avesto» fors-tojik xalqining yozuvini o'rganishdagina emas, balki O'rta Osiyo va Eron tarixini o'rganishda ham muhim ahamiyatga egadir. «Avesto»dagi Gotlar va Yashta nomlari bilan bog'liq ismlar eramizdan avvalgi X asrlarga tegishli. «Avesto» avloddan avlodga, og'izdan og'izga o'tib, bir necha bor qayta ko'chirilgan. «Avesto»ning hozir bizga ma'lum nusxasi eramizning IV asrida sosoniyalar davlatining shohi Xisrav I davrida yozib olingan. «Avesto»da Ahmoniyalar sulolasi eramizdan avvalgi V-III asrlarda yashab o'tgan shohlar va ularning yorliqlari haqida ham qiziq fikrlar berilgan.

Haqiqatan ham, qadimda o'tgan shohlar o'zlariga turli xil yorliqlar berib, nomlarini ulug'lashga harakat qilardilar.

¹ Avesto. Izd-vo AN Az, Baku, 1960, str. 80—81.

² Kor-ogli. Uzbekskaya literatura, M., izd-vo «Vissshaya shkola», 1973, str. 5—6

«Avesto»da faqat zoroastrizm dinining ta'limotinigina emas, balki qabilalar va daryolarning, yorug' zaminning geografik joylashuvi haqida, osmon sirlariga doir, meditsina va odob-ahloqqa oid fikrlarni ham ko'plab uchratamiz. Shuningdek, «Avesto» aslida Eronning davlat dini sifatida shakllangan bo'lsa-da, undan O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Hind mamlakatlarigacha.cho'zilgan ulkan o'lkaning tarixiga oid ham muhim faktlarni qidirib topamiz.

«Avesto» haqidagi ayrim ma'lumotlarni XI asrda yozilgan zoroastrizm diniy ta'limoti haqidagi asar - «Denart» orqali bilamiz. Bu asarda qayd qilinishicha, «Avesto» yigirma bir nask (bob) bo'limdan iborat emish. «Avesto»dan qilingan tarjima va sharhlar «Zend» nomi bilan ham mashhurdir. Keyingi davrlarda «Avesto» bir qancha bo'laklarga bo'linib ketib, Yashta, Yaspa, Vispart, Videvdat nomlari bilan ataladi.

«Avesto»da hikoya qilinishicha, qadim zamonlarda it insonlar uchun ulug' totem hisoblangan. Insonlar itni juda qadrlaganlar. Itga nisbatan hurmat-e'tibor bilan munosabatda bo'lingan. Itni yarador qilgan yoki unga azob bergen kishilar qattiq jazoga hukm etilgan. Hatto itni urgan yoki haqorat qilgan kishilar abadiy baxtsizlikka duchor bo'ladi, degan naql tarqalgan. Och qolgan itlarga ovqat berishni insonlar o'zlarini uchun savob ish deb bilganlar. Kuchukcha olti oyga to'lganda uni tarbiya qilishni hurmat yuzasidan yetti yoshli qizlarning zimmasiga yuklanib, bu ayni paytda Axuramazdaga ham katta hurmat belgisi edi. Chunki itlar Axuramazdaning eng sadoqatli qo'riqchilari hisoblanardi.

Bundan tashqari qadimgi davrlarda ot ham totem hisoblangan. Hatto ma'buda Mitraning ot bilan aloqasi borligi ta'kidlanadi¹.

Xalqimizning uzoq tarixiga alohida e'tibor bilan qarasak, eramizdan avvalgi X-IX asrlarda yaratilgan «Avesto»da juda ko'plab xalq og'zaki ijodi namunalarini, hikoyat va rivoyatlarni, afsonalarni uchratamiz. «Avesto»ni mifologik xarakterdagи afsonalar to'plamidan iborat deb atashimiz ham mumkin. Undagi afsonaviy voqealar asosan So'g'diyona, Baqtriya, Girkaniya va Parfiya o'lkalariiga bag'ishlangan. Buning boisi bor. Chunki «Avesto» Baqtriya va So'g'diyona yerlarida yaratilgan.

Zardushtiylik So'g'diyonaga qo'shni bo'lgan Baqtriya yerlaridan tarqalgan.

¹ Avesto. Izd-vo AN Az, Baku, 1963, str. 75.

Xullas, ikki million she'riy misradan iborat bo'lgan «Avesto» xudolar, ma'bud va ma'budalar haqidagi afsonalardan iborat edi. Bu afsonalar xalq diliga yaqin bo'lib, ularning orzu-umidlari, mehnat faoliyatları, kurash va intilishlari ifodasidan iborat. Shuning uchun ham, «Avesto» xalq o'rtaida keng tarqalib, muqaddas kitobga aylanadi. Bu ulkan kitob, o'zida zoroastrizm dinining asosiy ruhini yoritgan bo'lsa-da, ko'p jihatdan ezgulik yo'lida xizmat etganini ham inkor etolmaymiz. Dastlabki nusxalari mil.av. o'ninchis asrlar va undan ilgari davrlarda yuzaga kela boshlagan bu asar faqat antik dunyo kishilari uchungina emas, balki keyingi davrlarda ham insoniyat uchun katta ma'naviy xazina sifatida xizmat qilib keldi. Jumladan, undagi Qayumars, Jamshid haqidagi afsonalarni mumtoz adabiyotda ko'plab uchratamiz.

«Avesto»da asosan zardushtiylik haqida fikr yuritilar ekan, bir-biriga qarama-qarshi ikki kuch-yaxshilik va yomonlik o'rtaida to'xtovsiz kurash ketadi. Axuramazda osmonda yashaydi, Axriman esa yerda. Shunday qilib, yer hamma vaqt to'xtovsiz kurash maydoniga aylanib kelgan. Biroq hamma vaqt yaxshilik yomonlikning ustidan g'alaba qilib keladi.

«Avesto» deb nomlangan bu muqaddas kitob xudo va ilohiy kuchlarga bag'ishlangan bo'lsa-da, aslida antik hayotning mazmunini o'zida ifoda etar edi. O'sha davrlarda M.Gorkiy ta'kidlaganidek, «Xudo u yoki bu hunarning sohibi, kishilarning ustozi va hamkori edi. U mehnat muvaffaqiyatlarining badiiy umumlashmasi edi. Shu sababli mehnatkash ommaning «diniy» tafakkurini qo'shtirnoq orasiga olish zarur, chunki bu ijodkorning o'zidir. Kishilarning qudratli rivojini oldindan sezib, ularning qobiliyatini ideallashtirgan afsonalar yaratish o'z negiziga ko'ra realistik edi. Har bir qadimiyl fantaziyaning pardozida uni harakatga keltirib turgan kuchni osongina payqash mumkin, bu kuch insonlar mehnatini yengillashtirishga bo'lgan intilishdir. Bu intilishning turmushga jismoniy mehnat kishilari tomonidan tatbiq qilingani juda ravshandir»¹.

Yana bir xarakterli tomoni shundaki, antik davrlarda odamlar, quyosh, yer, suv, o'simliklarga sig'inganlar. Xalqimiz, ayniqsa, quyoshsevar bo'lgan. Quyoshni inson zotiga karomat keltiruvchi ilohiy kuch deb bilganlar. Quyosh yorug'lil manbayigina emas, insonlarga qut-baraka, to'qlik va xursandchilik keltiruvchi manba sifatida ham ta'riflangan. Ko'chmanchilik bilan shug'ullangan, boshpanasiz va yalang'och odamlar quyoshli kunlarda bemalol hayot kechiraverganlar. Shu jihatdan faqat

quyosh hayot manbayi sanalgan. Osiyoliklarning hozirgacha quyoshni ulug'lashlari bejiz emas.

Antik dunyodan bizga meros bo'lib qolgan «Avesto»dan keyin yaratilgan boy og'zaki ijod namunalarini Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) haqidagi hikoyatlardir. Iskandar haqida yaratilgan folklor asarları yarim afsonaviy, yarim tarixiy asosga ega.

Aleksandr Makedonskiy ham sharqqa harbiy yurishi chog'ida o'zini tengsiz qudratga ega ilohiy kuch deb tanitadi. Xalq orasida Aleksandrni Fili ppning o'g'li emas, Misrning bosh tangrisi Ammonning o'g'li degan afsonalar tarqaladi. Tarixiy manbalarda ham, afsonalarda ham hikoya qilinishicha, haqiqatan ham, Aleksandr dubulg'asining ikki yonida ikkita katta-katta, egri, mertin shoh - misrliklar qo'y qiyofasida tasvirlagan quyosh xudosi Ammonga qarindoshlik belgisi bor edi. Bunday afsonalar hali Aleksandr Makedonskiy Eronga hujum boshlamasdan ilgari tarqalgan edi. Unga berilgan Iskandar Zulqarnayn nomi ham o'sha davrlardayoq mavjud edi. Sharq xalqlarining quyoshni muqaddas deb bilib, unga qattiq e'tiqod qo'yishlari ham Iskandar nomiga taqlid qilingan.

Iskandar quyoshga yaqinlik belgisi. «Iskandari mehr-quyosh Iskandari, dunyoni qamragan quyosh». Zulqarnayn esa quyosh xudosi, shohdor qo'yisfat Ammonga yaqinlik belgisidir. Quyoshni mag'lubiyatga uchratish mumkin emas. Zardushtiyliklar uchun quyosh qudratli kuch bo'lgani singari, Iskandar ham ilohiy qudratga ega bo'lgan siymo sifatida namoyon bo'ladi. Aleksandr Makedonskiy sharqliklar bergan bu nomdan g'oyat mag'rurlanadi. Hatto o'zini karomat keltiruvchi ilohiy kuch sifatida ko'rsatishga harakat qiladi. Zardushtiylik dinini bekor qilib, «Avesto»ning Istarida saqlangan nusxasini topib oladi-da, yoqib yuboradi. Biroq Aleksandr Makedonskiyning zardushtiylik diniga nisbatan qilgan bunday nojo'ya harakatlari xalqning g'azabini qo'zg'otadi.

Shundan so'ng, zardushtiylik diniga sig'inuvchi barcha xalqlar Aleksandrning istilochilik harakatiga qarshi qattiq kurash olib bora-dilar. Quyosh xudosining Iskandarga nisbatan ixlosi yo'qolib, ayniqsa, So'g'diyona, Baqtriya, Girkaniya xalqlari zardushtiylik tug'i ostiga to'planib, Aleksandrga qarshi kurashga otlanadilar. Aleksandr esa Iskandar - quyosh xudosi siymosi sifatida zardushtiyliklarni o'ziga sig'inishga undar edi.

¹ M.Gorkiy. Adabiyot haqida. O'z Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent, 1962, 266- bet.

Shunday qilib, Aleksandr Makedonskiy eramizdan avvalgi VI asrda Kayxisrav asos solgan Ahmoniyalar sulolasini tugatsa ham, uning qalbi bo‘lgan muqaddas dini, zardushtiylikni yo‘qota olmadi. Zardushtiylik e’tiqodi arablar istilosи davrigacha yashab qoldi.

Oldingi davrlarda Aleksandr Makedonskiy haqida turli xil salbiy va ijobjiy ruhdagi afsonalar ko‘p yaratilgan edi. Biroq arablar istilosи davriga kelib Iskandarni ulug‘lash yozma va og‘zaki adabiyotda keng tus oladi. Chunki arab bosqinchilari Aleksandrning istilochilik siyosatini ma’qullaydi. Iskandarning bosqinchilik yurishlarini qo‘llab-quvvatlash orqali o‘zining bosqinchilik siyosatini oqlashga, uni diniy aqidalar bilan bog‘lashga harakat qillardilar. Shu tufayli keyingi davrlarda yaratilgan folklor asarlarida Iskandar asosan ijobjiy obraz sifatida beriladi. O‘zining bosqinchilik siyosatini «xaloskorlik» niqobi ostiga yashirgan Iskandar, endilikda chinakam xalq xaloskori, donishmandi, adolatli podshoh obraziga aylanadi. Biz o‘rganayotgan folklor asarlarida ham Iskandar asosan ijobjiy obraz sifatida talqin qilinadi.

Tarixda bir qancha Iskandar Zulqarnaynlar o‘tganligi haqidagi afsonalarni xalq og‘zaki ijodiyotida ham uchratamiz. Bunday afsonalarning noto‘g‘ri ekanligini, tarixda bitta rumlik Iskandar Zulqarnayn o‘tganligini Nizomiy Ganjaviy o‘zining «Iskandarnoma» asarida hamda Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy tarixda ikkita Iskandar o‘tganligini o‘zining «Xiradnomayi Iskandariy» dostonida ta‘kidlab o‘tadilar. «Saddi Iskandariy» asarida, ularning biri Doro bilan jang qilganini, ikkinchisi ya’jujlarga qarshi sad-devor qurbanligini aytadi.

Ki olamba ikki Skandar emish,
Ki ikkisi davronda dovar emish.
Biri ulki, Doro bila qildi rozm,
Biri buki, sad bog‘la-yu etti azm.

Mana shu faktning o‘ziyoq «Saddi Iskandariy» dostoni Aleksandr Makedonskiy proobraziga qaratilmaganini tasdiqlasa, ikkinchidan, Iskandar Zulqarnaynning Faylaqus o‘g‘li bo‘lganligini, boshqa Iskandar Zulqarnaynning o‘tmaganligini isbotlaydi.

¹ Navoiy asarlari lug‘ati, Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972, 281- bet.

Yima (Jamshid) hamma vaqt oltin kamon va oltin suvi yuritilgan qamchidan foydalanardi. Bu narsalarni unga Axuramazda sovg'a qilgandi. Yima yerga kamondan o'q uzadi, qamchini yerga urib dedi: «Sevimli, muqaddas Armatay! Sen odamlarni va mollarni ko'tara olishing uchun, yer kengayib kattalashgan». Shundan so'ng yer kengayib, avvalgi holatidan uch barobar kattalashadi. Yimaning yer yuzida olti yuz yil hukmronlik qilish davrida, yer unga yana tordek ko'rindi va u yana yerni uch barobarga kengaytiradi. Xuddi shu holat Yima hukmronligiga 900 yil bo'lganda ham takrorlandi. Shunday qilib yer birinchi holatdagi ko'rinishidan bir necha barobar kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, Yima Naitya daryosi bo'yida joylashgan Ayriane Vaegoda shu tarzda podsholik qiladi.

Axuramazda barcha tirik mayjudotni nobud qila oladigan sovuqlar yaqinlashib kelayotganini aytib, Yimani ogohlantiradi. Axuramazdaning buyrug'iga binoan Yima yopiq inshootlar quradi. Bu inshootlar barcha hayvon va o'simliklarni sovuqdan saqlab qolishga mo'ljallangandi. Bu inshootlarning eshik va derazasi ham bor bo'lgan. Bu yerda u odamlarni, itlarni, qushlarni, qoramol va boshqa hayvonlarni, o'simliklarni va ularning urug'larini yig'adi. U yerga ayrim kamchiligi bo'lgan jonzotlardan boshqa hamma narsa yig'ib olinadi. Kamchiligi bo'lganlar esa, ya'ni bukirlar, aqdan ozganlar va boshqalar Axrimanning yovuzligi tufayli bo'lgan deb inshootlarga kiritilmaydi.

Yima Firdavsiyning «Shohnoma» asarida Jamshid deb ataladi. Axuramazdaning yordami bilan u eng kuchli shoh bo'ladi. Lekin oldinma-kekin ko'pgina g'alabalarni qo'lga kiritgandan so'ng u qaddini g'oz tutib, hech narsani tan olmay qo'yadi. U shunday deydi: «Bu dunyo meniki, hech qanday xudoni tan olmayman. Faqat men hamma narsani barpo eta olishim mumkin».

Zardushtning aytishicha, Yimaning noto'g'ri yo'l tutishi sababli, odamlar o'ladigan bo'lib qolishadi. Ilgarilari odamlarga shohli molning go'shtini iste'mol qilish man etilgandi. Keyinchalik odamlar gunoh ishga qo'l urib, shohli molning go'shtini yeydigan odat chiqarishadi. Shu sababli o'lmas qilib yaratilgan odamlar nobud bo'la boshladilar. O'zining bu gunohi uchun Yima jannatdan quviladi. Odamlarning bu gunohlari uchun yer yuzida qish boshlanadi.

Qish sovug'idan saqlanish uchun Yima boshpana qura boshlaydi. Bu boshpanalarga to'ladan kelgan eng chiroyli erkak va ayollarni, eng yaxshi

hayvonlarni, eng chiroyli va xushbo'y o'simliklarni va eng lazzatli taomlarni yig'adi.

Yima birinchi marta quruvchi sifatida tasvirlanadi. Qish bo'limganda odamlarga uy kerak emas edi. Qish boshlangani uchun ular uy qurishni o'rganishlari kerak. Uyni qanday qilib qurish kerak degan Yimaning savoliga, Axuramazda quyoshda quritilgan g'ishtdan deb javob beradi.

Eng oxirgi rivoyatda Yima - Jamshid moddiy madaniyatning asoschisi sifatida gavdalanadi. Yima odamlarga quroq-yarog' yasashni, mato to'qishni, tegirmon, ko'prik, kemalar va boshqa inshootlar qurishni o'rgatadi. Bundan tashqari, odamlarni tibbiyot sirlari bilan tanishtiradi.

Oxirgi rivoyatda yozilishicha, Yima 710 yarim yil yashagan. Dunyoda odamzod paydo bo'lib, ular qishloqlarda tinch hayot kechira boshlaydi. Yima dunyoni odamlar, qoramol, yuk tashiydigan hayvonlar, itlar, qushlar va olov bilan to'ldiradi. Odamlar mol boqib, dehqonchilik bilan shug'ullanar edi. Yerdan yuqori hosil olinadi. Havo bahor hidi bilan to'ladi. Hamma narsa gullab yashnaydi. Biroq odamzodning oltin asrining tarixiga yakun yasaladi. Yovuz Axriman ularning baxtiga, tinch va farovon hayotiga chang solib, izg'irin sovuqni kuchaytirib, hammayoqni qorga to'ldiradi.

Ikkinci bosqich odamzodda ezgulik va yovuzlikning kurash davri bilan xarakterlanadi. Bu kurash Zardushtning paydo bo'lishiga qadar davom etadi.

Uchinchi bosqich odil sud kunigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. O'lliklar tirladi. Axuramazda Axriman ustidan g'alaba qozonadi. Shundan keyin yer yuzida ezgulik hukmronlik qiladi. Zardushtiylikdagi odamzod tarixiga shu tariqa yakun yasaladi. Odamzod o'tmishini tasvirlovchi va ularning kelajagini aytib beradigan rivoyatlar paydo bo'la boshlaydi.

Yima «Avesto»dan ham oldin yozilgan epos qahramoni edi. Firdavsiyning «Shohnoma»sida tartibga chaqiruvchi, fan va madaniyat asoschisi, birinchi quruvchi sifatida Yimaga oliv baho beriladi. Zardusht esa Yimani tanqid qiladi.

«Avesto»da yirik qoramol muqaddas hisoblangan. Qadimgi rivoyatlarda ham yer yuzida paydo bo'lgan birinchi hayvon ho'kiz yoki sigir bo'lgan. Shu tufayli odamlar sigir va ho'kizning go'shtini iste'mol qilishmagan.

Qadimgi qabilalar yaratgan epik qo'shiqlarda yozilishicha sigir totem, ya'ni muqaddas hayvon hisoblangan.

Muqaddas hayvonlar bilan birgalikda, muqaddas o'simliklar ham bo'lgan.

«Avesto» odamni mast quluvchi «Xoma» o'simligini ruhlantiruvchi kuch sifatida biladi.

Xoma yoki xaoma o'simlik bo'lib, u ham ichimlik, ham xudodir. U hind «soma»si bilan o'xhash bo'lib, «Ved»larda u haqda yozilgan.

Bu o'simlik faqat Persenomda o'sgan.

Zardushtiylik dinining tarixi va ta'limoti haqida gap ketganda o'zbek olimasi Fozila Sulaymonovaning xizmatlari alohida tafsinga sazovordir. Olima zardushtiylikning Gretsiyada, kichik Osiyoda va Ioniya ham keng tarqalganligini ta'kidlab o'tadi. Ayniqsa, miletlik olim Fales (eramizdan avvalgi 624-574- yillar) falsafasini chuqur o'rganib chiqadi. Tadqiqotchi Ioniyalik yana bir olim Anaksimandr (eramizdan avvalgi 610-547-46 yillar) ta'limotida ham zardushtiylikning o'ziga xos yo'naliishlari o'rganib chiqilganligini ta'kidlaydi. Olima o'z tadqiqotining davomida, yana bir qator ioniyalik donishmandlar ijodiga to'xtalib o'tib, qadimgi davrlardayoq zardushtiylikka qiziqish Misr, Bobil, Finikiya kabi o'lkalarda ham katta bo'lganligini faktlar orqali asoslab beradi. Bu borada miletlik yana ikki olimning nomini tilga olib, Anaksimen (eramizdan oldin 585-528- yillar) va Xeraklit (eramizdan avval 544-475) ijodlari orqali zardushtiylik dinining mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Zardushtiylik dini uzoq Ioniya o'lkasiga yetib qolmasdan, balki yuqoridagi faylasuf-donishmandlar ijodiga ham ta'sir etganligi ko'rsatib beriladi.

Fozila Sulaymonova o'zining «Zardushtiylik va Ioniya ilm-falsafasi» nomli maqolasida muqaddas kitob «Avesto»ni ham atroficha tahlil qilishga harakat qiladi. Bu o'rinda olimaning muhim bir fikriga ham to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. «Har bir zardusht, - deb yozadi tadqiqotchi, - kuniga besh marta yuvinib, poklanib quyoshni olqishlab sig'inishi shart bo'lgan. Bu an'ana ham islomga zardushtiylikdan o'tgan. Zardushtiylar tabiatni, yer, suv, daraxt, o'simlik, jonivorlarni e'zozlashi, yerni ishlatib, sug'orib, bog'-pog', ekinzor qilishi, chorvani, ayniqsa, yilqichilikni yo'lga qo'yishi, suvni muqaddas tutishi shart edi. Bu ta'limotga O'rta Osiyo, ayniqsa, o'zbek va tojik xalqlari haligacha amal qilib kelishadi»¹.

¹ F. Sulaymonova. «Zardushtiylik va Ioniya ilm falsafasi». //Adabiy meros, 1989, 2/48, 9—10- betlar.

Mana shu fikrning o'ziyoq ikkinchi dinimiz bo'l mish islam diniga ham zardushtiylikning katta ta'sir o'tkazganligidan va bu din hozirgacha e'zozlanib kelinayotganidan dalolat beradi.

«Avesto»dagi mifologik xarakterdagи obrazlarni biz sharq mumtoz adabiyotida ko'plab uchratamiz. Masalan, A. Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida Jamshidning jomi quyoshdan ham porloq qilib tasvirlanadi. Bu jom Iskandar qurgan qal'aning o'rtasidagi uydan topiladi. Farhodning ko'zi bu jomni ko'rib qamashib qoladi. Jamshidning jomi quyoshdan ravshan bo'lsa, uning o'zi undan ham porloqdir. Jamshidning jomida dunyodagi sodir bo'layotgan voqealar o'z aksini ko'rsatib turadi.

Jomning tashqi tomonida yer yuzining markazi, ichki tomonida esa to'qqiz qavat osmon ko'rindi. Jomning tashqi tomoni olijanob insonning qalbiga, ichki tomoni esa pokiza va toza kishining yuragiga o'xshab turadi.

Safou tob aro andoqqi Xurshed,
Dema Xurshed, balkim jomi Jamshed ...
Bori maxfiy umur izhori anda,
Jahon holoti ravshan bori anda.
Tashida jilva aylab markazi xok,
Ichinda lek to'qquz davri aflok
Tashi ul nav'kim komil zamiri,
Ichi andoqli sohibdil zamiri.

Haqiqatan ham, mumtoz adabiyotda Jamshid jomi nomi bilan ataluvchi misrani ko'p uchratamiz. Bunday misralarda Jamshidning o'zi singari uning jomi ham yaxshilik tarafdori, insonlar uni ichib xursand va shodumon bo'ladi, qo'shiqlar aytadi.

Quyosh Iskandar kabi qorong'ulikka, yerga cho'kib, Jamshed jomi tilsimlar ichiga yashirinsa ham, ular jomi Jamshed sharobini ichaveradilar.

Skandardek kirib zulmatg'a Xurshed,
Tilism ichra yoshundi jomi Jamshed.
Alar topib yana ishratqa asbob,
Solib Joma jom ichra bodayi nob.
Surub gohi Skandardin tarona,
Debon Jamsheddin gohi fasona.

Bu o'rinda Jamshed jomi ikki xil ma'noda, ham ko'zgu, ham sharob ma'nolarida qo'llanilmoqda.

Xuddi, shuningdek, «Avesto»dagi Axriman obrazini ham mumtoz adabiyotda ko'p uchratamiz. Jumladan, A. Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida bu obraz yovuz kuch sifatida beriladi. Dostonda tasvirlanishicha, dev qiyofasida o'rmonda yashaydi. U devlar qal'asidagi Sulaymon uzugini qo'riqlaydi. Sulaymon uzugi yaxshilik timsoli. Bordi-yu, inson zoti uni qo'lga kiritsa, yaxshiliklar tilsimini ochib qo'yishi mumkin. Yovuz niyatli Axriman esa buni sira ham xohlamaydi. Inson bolasining baxtiyor bo'lishini istamaydi. Shuning uchun ham, uzukni qo'lga kiritish uchun borayotgan bahodir Farhodning yo'lini to'sadi.

Dostonda Axriman yashayotgan o'rmon ham dahshatli bir holda tasvirlanadi. Bu manzarani ko'rgan kishi bu yerdan sog'-omon chiqib ketishiga umid qilmaydi. Biroq Farhod o'z yo'lida davom etadi. Dostonda Axriman dahshatli tusga kirgan qora bulutga qiyos qilinadi. Uning boshidan oxirigacha zahar ekanligi ko'rinish turardi. Uning qiyofasi do'zax uchquni va qiyomat olovini eslatardi. Uning mag'rur qadam bosishidan zamon bo'stoni titrar, qichqirishidan esa osmon ayvoni darz ketar edi. Badanidagi har bir mo'yi misoli bir o'q, o'q ham emas, ajdahoga o'xhash bir ilon edi. Uning jismidan hiyla-yu nayrang qatra-qatra tomib turar, shu har bir qatrani makkor falak asta-sekin tarbiyalab, undan yangi bir dev yaratar edi. Qarashi malomat shomiga, bo'ynining uzunligi bo'lsa qiyomat kuniga o'xshardi¹.

Dostonda Axriman nihoyatda makkor, ayyor sifatida berilgandir. Axrimanning ichki qiyofasi nihoyatda salbiy bir holda tasvirlangani singari, tashqi qiyofasi ham dahshatli holatda edi. Uning yuzi qop-qora edi. Qadimdan xalq og'zaki ijodiyotida salbiy qiyofada tasvirlangan. «Avesto»da yomonlik qiyofasida, yaxshilik, ezzulik tarafdori Axuramazdaning dushmani bo'lgan Axriman mumtoz adabiyotda ham salbiy obrazda beriladi. Uning gurzisi chinorday kelardi. Chinorday emas, minoraday bayaybat edi. Uning uchiga ulkan tog'ning bir parchasini bog'lab olgandi. Bu gurzi, agar Elburs tog'iga tegsa, bu tog'ni mayda-mayda qilib, tuproqqa aylantirgudek edi².

¹ A. Navoiy. Farhod va Shirin. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975, 74- bet.

² A. Navoiy. Farhod va Shirin. Xamsa, Toshkent, 1975, 74- bet.

Shunday qilib, ezgulik yo'lida Sulaymon uzugini axtarib borayotgan Farhod yovuz kuch qiyofasidagi Axrimanni o'ldiradi.

«Avesto»dagi Axriman obrazini Nizomiyning «Haft paykar» dostonida ham uchratamiz. Bu asarda Axriman ajdaho qiyofasida tasvirlanadi. Ezgulik yo'liga otlangan Bahromning yo'lini bu yovuz kuch to'smoqchi bo'ladi¹.

Shoir Qayumarsga mifologik obraz sifatida qaramaydi, balki tarixiy shaxs timsolida talqin etadi. Hatto uning tarixda yashab o'tganligini, shohlik davrini ham aniq belgilab beradi.

O'ttiz yil olamda shohlik qildi u,
Nur sochib quyosh-u shodlik qildi u.
Ne turli jondor bor olamda, bari
Orom istab kelar Qayumars sari.

Shoirning nazarida Axriman ham tarixiy shaxs bo'lgan. Qayumarsning yakka-yu yagona dushmani Axrimandir. Asarda Axriman dev qiyofasida tasvirlanadi. Shoir Qayumars va Axriman obrazlarini yaratari ekan, bu obrazlarni g'oyat ishonarli tarzda, hayotiy ifodalar fonida beradi. «Shohnoma»dagi «Qayumars» dostonini o'qir ekansiz, bu ikki salbiy va ijobiy obrazlarni shu darajada mahorat bilan yaratganki, Qayumars bilan Axriman o'rtasidagi qarama-qarshi kurashlar, keskin konfliktlar situatsiyasi davrning muhim ijtimoiy-siyosiy voqealari bilan bog'lanib ketadi. Shoir eng qadimgi zamonlarda yuz bergan voqealarni, insoniyatning go'daklik davrlarini qalamga olar ekan, uzoq o'tmishni o'z zamonasiga bog'laydi. Odamzod tarixida ilk bor boshiga toj kiyib, shohlik taxtiga chiqqan Qayumarsning aslida adolatli, haqiqatgo'y bo'lganligini ta'kidlash orqali shoir o'zi yashayotgan shohlarning zolimligidan, qonxo'rligidan zorlanadi. Aslida Qayumars kabi shohlar insoniyatga baxt-saodat keltirish uchun, xalqqa haloskor va panoh bo'lish uchun ezgu niyat bilan taxtga chiqqan edi, zamonlar o'tishi bilan shohlar xalqni ezish, behisob boylik toplash, qirg'in urushlarni boshlash kabi razil va qabih niyat bilan taxtga chiqishni o'zlarini uchun oliy bir maqsad deb bildilar.

Alisher Navoiy o'zining «Saddi Iskandariy» dostonida, haqiqatan ham, Qayumarsning birinchi shoh bo'lganligi haqida to'xtalib, uning tarixda yashab o'tganligini shunday ta'kidlaydi. «Peshdod sulolasida

¹ Nizomiy. To'plamlar. Yetti go'zal. Toshkent, 1982, 78- bet.

o'n bir shoh o'tgan bo'lib, eng qadimgi sultanat egalari shulardir. Peshdodlarning birinchi shohi bo'lmish Qayumars taxtga chiqqach, adolat yo'lini tutdi. Uning tuzumi butun jahonga tarqalgan bo'lsa ham, lekin kiyimlari vahshiy hayvonlarning terisi va charmidan bo'lgan»¹.

Bu fikrning to'g'riligini «Shohnoma»da ifodalangan misralar orqali ham tasdiqlashimiz mumkin.

Taxt-u baxtin topib faravon,
Yo'lbars terisidan qilardi chopon.

Firdavsiy zolim shohlarni Qayumarsdek mard va tanti, adolatli va haqiqatgo'y bo'lishga chaqiradi.

«Avesto»da uchraydigan yana bir mifologik obraz Jamshiddir. «Shohnoma»da «Jamshid» nomli alohida tarixiy doston bor. Unda ta'kidlanishicha, Jamshid yetti yuz yil podsholik qilgan.

Dostonda ifodalanishicha, Jamshid taxtga o'tirar ekan, ruhiga «yaxshilik yo'lin» yer etib, jun, ipak, kanopdan gazmol to'qib, insonlarga kiyim kiyishni farmon bergen emish. Jamshid zamonasida odamzod «na dard, na yomonlik ko'rmas»dan baxtli hayot kechirBDi. Hatto yangi yilning boshlanishi ham Jamshidning taxtga o'tirishi bilan bog'liq ekanligi qayd qilinadi.

Jamshidga sochishar oltin-u gavhar,
Shu kunni yangi yil - bayram deyishar.
Yana o'tdi uch yuz yillar baxtiyor,
Na o'lim, na bir dard ko'rmas bu diyor.

A. Navoiy ham o'zining «Saddi Iskandariy» dostonida Jamshidni ijobjiy obraz sifatida ta'riflaydi. «Undan so'ngra Jamshid olamga ot soldi: u qancha mamlakatlarni oldi va bir qancha odamlarning boshiga toj kiydirdi. U xaloyiqqa ham ko'pgina naf yetkurdy va ancha ajib amr-farmonlar, tartib-qonunlar ham ixtiro va joriy qildi»².

Sharq mumtoz adabiyotida Qayumars, Jamshid, Axriman kabi mifologik xarakterdag'i obrazlarni ko'plab uchratamiz.

¹ A. Navoiy. Saddi Iskandariy. Toshkent, 1978, 25- bet.

² A. Navoiy. Saddi Iskandariy. 25- bet.

AMAZONKALAR

Grek va Rim tarixiy adabiyotidan amazonkalar haqida qiziq hikoyalar o‘qiyimiz. Antik dunyo adiblari amazonkalarning skiflar avlodidan bo‘lganligini ta’kidlashadi.

Shu o‘rinda amazonkalar o‘lkasi qayerga joylashgan edi degan savol tug‘ilishhi tabiiydir.

Kursiy Rufning ta’kidlashicha, Girkaniya bilan chegaradosh Fermodonta daryosi bo‘ylarida amazonka qabilasi yashagan. Bu qabilaning malikasi, ya’ni shohi Felestris bo‘lib, u Kavkaz bilan Fazis (Rion) daryosi o‘rtasida yashovchi xalqqa hukmdor bo‘lgan¹.

Diodor ham «Tarixiy kutubxona» asarida, haqiqatan ham, amazonkalarning bo‘lganligini tasdiqlaydi. Adib o‘z asarida Kursiy Ruf fikriga yaqin ma’lumotni beradi. Bu o‘rinda Diodor Sitsiliyskiy o‘z asarida yo Kursiy Ruf ijodini o‘qib undan foydalangan yoki har ikki adib ham bir xil manbani o‘qib chiqqan. Diodor amazonkalar haqida to‘xtalib shunday yozadi:

«Keyin Aleksandr Girkaniyaga qaytadi va uning huzuriga Amazonka malikasi (shohi) Falestra tashrif buyuradi. Bu malika Fasom va Fermodonto daryolari o‘rtasidagi yerlarga hukmdor edi. Juda jasur, kuchli va go‘zal edi»².

Diodor amazonkalar haqidagi hikoyasida davom etib, ular skiflar avlodidan ekanligini aytadi. «Amazonkalar, - yozadi Diodor, - faqat Osyonigina emas, balki Yevropani ham o‘zlariga bo‘ysundira boshladi»³.

Diodor o‘z fikrida davom etib, amazonkalar shohining Aleksandr huzuriga kelganligi haqida yana shunday yozadi: «Aleksandr undan nima uchun kelganligini so‘raydi. Shunda Falestra Aleksandrdan farzand ko‘rish niyati borligini aytadi, chunki buyuk kishilardan buyuk farzandlar tug‘iladi, deb hisoblaydi. Aleksandr Falestraning bu maslahatiga rozi bo‘ladi va u bilan 13 kun birga bo‘lib katta sovg‘alar berib, o‘z vataniga kuzatib qo‘yadi»⁴.

¹ Kursiy Ruf. O’sha asar, 211- bet.

² Diodor. O’sha asar, 108- bet.

³ Diodor. O’sha asar, 228- bet.

⁴ O’sha asar, 108- bet.

Qadimgi tarixiy kitoblarda amazonkalar haqida ko‘p qiziq hikoyalarni o‘qiganmiz. Amazonkalar haqidagi hikoyalar haqiqatmi yoki afsonami degan fikr xayolingizni chulg‘aydi. Bu g‘aroyib va jasur ayollarning vatani qayer bo‘lgan degan savolga ham turlicha javob topamiz. Kursiy Ruf, Yustin, Pompey Trog kabi adiblar amazonkalarning Kaspiy dengiziga yaqin yerlarda yashaganliklarini qayd qilishadi. Girkaniya bilan chegaradosh Fermodonta daryosi bo‘ylarida amazonka qabilasi yashardi. Bu qabilaning malikasi Falestris bo‘lib, u Kavkaz bilan Falis daryosi o‘rtasida yashovchi xalqqa hukmdor edi.

Aleksandrni ko‘rish va u bilan uchrashish niyatida Falestris shohga chopar yuboradi. Shohdan ruxsat olgandan so‘ng, 300 ta go‘zal ayol bilan uning huzuriga keladi. Amazonkalar kiyimi badanlarini to‘liq yopmas edi. Chap ko‘kragi ochiq bo‘lib, kiyimi tizzasidan pastga tushmasdi. Ular qizlarini emizish uchun faqat o‘ng ko‘kragini qoldirib, chap ko‘krak bezini kesib tashlardi. Go‘yoki bu usul ular uchun yoy va nayza otishda qulaylik tug‘dirardi. Falestris shon-shuhratga unchalik loyiq bo‘lmagan shohning gavdasiga qo‘rmasdan qarab turardi. Hech narsa kerak emasmi, degan shohning savoliga Falestris shunday javob qaytaradi: «Shohdan farzand ko‘rishi, agar qiz bo‘lsa o‘zimda qoldirib, o‘g‘il bo‘lsa shohga merosxo‘r qilaman»¹.

Kursiy Ruf o‘zining asarida amazonkalarga ta’rif berar ekan, xuddi shunday amazonkalar haqidagi ma‘lumotlarni Yustinning «Pompey Trog epitomi» asarida ham uchratamiz. Yustin asarini o‘qib Amazonkalar haqida kengroq ma‘lumotga ega bo‘lamiz. U o‘zining «Pompey Trog epitomi» asarida amazonkalar haqida shunday hikoya qiladi.

Amaldorlar nayrangi bilan o‘z vatanidan quvg‘in qilingan podsho avlodiga mansub ikki o‘siprin Pme va Skolopit o‘zлari bilan birga ko‘plab yosh yigitlarni olib chiqib ketadilar. Ular Termodont daryosi yaqinidagi Kankadokin, Pontiskoy qirg‘oqlari bo‘ylab joylashgan Temiskir vodiysini egallaydilar. Bu yerdan ular ko‘p yillar mobaynida qo‘shni qabilalar ustiga yovuz yurishlar qildi. So‘ngra ko‘p qabilalar o‘zaro kelishib, ularni pistirmaga aldab olib kelib qirib tashlaydilar. Ularning beva qolgan xotinlari qo‘llariga qurol olib o‘z yurtini himoya qila boshlaydilar. Qo‘shni qabila erkaklari bilan turmush qurishni ular qullik deb hisoblardilar. Ular erkaklarsiz, o‘z davlatini himoya qila boshlaydilar. Ularning ba‘zi ayollari

¹ Kursiy Ruf. O‘sha asar. 211- bet.

boshqalardan o'zlarini baxtliroq sezmasligi uchun, uyida qolgan erkaklarni ham o'ldiradilar. O'z erlarining o'limi uchun ular qo'shni qabilalardan qattiq qasos oladilar. Qurok kuchi bilan qasos olib tinchlik o'matgan bu ayollar o'z avlodining yo'q bo'lib ketmasligi uchun qo'shni qabila erkaklari bilan vaqtincha aloqa qila boshlaydilar. Agar o'g'il bola tug'ilsa, o'ldirib tashlardilar. Qizlarni esa qurok ishlatishga, otlarda ov qilishga o'rgatardi. Yoydan o'q otishga xalaqit bermasligi uchun qizlarning o'ng siynasini yoshligidayoq kuydirib tashlashardi. Ana shundan amazonka nomi kelib chiqqan.

Ularning Marpeziya va Lampeto ismli ikkita podshosi bor edi.

Ular jangchilarini ikki qismga bo'lib, navbat bilan o'z chegaralarini qo'rqlay boshlaydilar. Yevropaning katta qismini bo'ysundirib, bir qancha Osiyo mamlakatlarini ham bosib oladilar.

U yerda Efes va boshqa ko'plab shaharlarga asos solib, katta o'lja bilan qo'shning bir qismini jo'natadilar. Osiyo ustidan hokimlikni saqlab qolish uchun qoldirilgan qo'shinlar o'zaro til biriktirib, maxfiy kurash olib borgan dushmanlar tomonidan yanchib tashlanadi. Marpeziya o'rniga uning qizi Sinona taxtga o'tiradi. Sinona harbiy taktikani o'ta kuchli bilishidan tashqari, umrining oxirigacha qizligini saqlab qolganligi bilan hammani hayratga solardi. Bu podshoh qizning shon-shavkatni nihoyatda kuchayib ketib, amazonkalar dong taratadilar. Hatto Gerakl haqida bitilgan afsonadagi podshoh Eristey bir kuni Gerkulesdan talab qilib amazonka podshohining qurolini olib kelishni buyuradi. Gerkules to'qqizta harbiy kemada oliy tabaqa grek o'spirinlari bilan amazonkalarga kutilmaganda hujum qiladi. Bu paytda amazonkalarga ikki opa-singil - Antionia va Oritiya podshohlik qilishardi. Ammo ulardan biri Oritiya o'sha vaqtida o'z davlatidan ancha uzoqda urush olib borardi. Shu sababli Gerkules yengil g'alabaga erishadi. Ko'plab amazonkalar janglarda halok bo'ladi, ko'plari asirga olinadi. Shuningdek, Antionaning ikki singlisi bor bo'lib, ularning biri - Menalinni Gerkules, Ippolitani esa Tesey asira qilib oladilar. Keyinchalik Tesey o'z asirasiga uylanib, undan Ippolit ismli o'g'il ko'radi. Gerkules esa g'alabadan keyin Menalinnani onasiga qaytib beradi, evaziga esa podsho qurolini qo'lga kiritadi. Buyruqni bajargan Gerkules o'z podshosi Eristeyning huzuriga qaytadi¹.

¹ Yustin. Epitoma Pompeya Troga. Vestnik drevney istorii. 1954. № 2, str. 213-215

Yustin o‘z asarida keltirgan amazonkalar haqidagi hikoyani fesseliyaliklarning eng qadimgi yodnomasi (taxminan eramizdan avvalgi VIII asr) «Ellada qahramonlari» asarida uchratamiz. Yustin o‘z asarida keltirgan Gerakl, Evristey, Gerkules, Tesey, Minalist obrazlarini «Ellada qahramonlari»da ham uchratamiz. Biroq «Ellada qahramonlari» asarida amazonkalar haqida kengroq hikoya qilinadi. «Gerakl jangda yengib, Minolitaning kamarini olib keladi» deb nomlanuvchi hikoyatni o‘qisak, qadim zamonalarda elladaliklar skiflar yurtiga faqat oltin junli teri qidirib emas, balki charm kamar qidirib ham kelganligi haqida hikoya qilishadi. Bu hikoya skiflar yurtidagi amazonkalar haqida hikoya qilgani uchun batafsil to‘xtalishga harakat qilamiz.

Evristey shohning Admeta degan yosh qizi bo‘lgan ekan. U bir kuni otasining huzuriga kirib, shunday debdi:

- Sharq tomonda, juda olisda bir podshohlik bor emish, unda mamlakatni xotinlar idora qilar emish. U yerda xotinlar oila boshlig‘i, tayanchi hamda uy bekasi emish. Xotinlar shaharlarni boshqararmish, savdo- sotiqni va sudni o‘zлari qilisharmish, ehromlarda xudolarga qurbanlik keltirib, davlat ishlarini o‘zлari hal qilar emishlar. Ular qurollanib, jangovar otlarda chopar, dushman bilan mardlarcha jang qilar emishlar.

Ular o‘zларини amazonkalar deb atashar, erkaklarni yomon ko‘rishar, hech kim bizni yengolmaydi, deb maqtanishar emish. Buyuk Zevsning rafiqasi, menga homiylik qiluvchi Gera menga buning sirini ochdi, jangovar amazonkalarning butun kuchi ularning malikasi Ippolitaga urush xudosi Ares sovg‘a qilgan oddiy charm kamarda emish. Agar malika u kamarni bog‘lab yursa, o‘zini ham, amazonkalarni ham hech kim yenga olmas emish. Ota! Men xuddi o‘sha xotin kabi yengilmas bo‘lishni, hokimiyatni yolg‘iz o‘zim idora qilishni xohlayman. Ippolitaning kamariga ega bo‘lishni istayman!

Shoh Geraklga amazonkalar mamlakatiga borib, malika Ippolitaning kamarini olib kelishni buyuribdi.

Amazonkalar davlati sharqda, Kichik Osiyoda ekan.

Gerakl katta kema jihozlabdi, sodiq do‘satlari - Iolayni, Afina shahzodasi Teseyni va boshqalarni chaqirib olibdi. Ular butun dengizchilar uchun jasur argonavtlar ochgan yo‘ldan suzib ketibdilar. Uzoq suzibdilar, oxiri dovul quturib turgan Qora dengizdan o‘tib, Fermodont daryosiga chiqibdilar, oqimga qarab yuqoriga suzib borib, amazonkalar poytaxti Femiskira shahriga yetibdilar. Darvozalar oldida qurollangan xotinlar

turisharkan, ular charm qalpoq, kalta xitonlar, to'piqlarigacha tushadigan tor, uzun shim kiygan emishlar, yelkalariga oy shaklidagi qalqonlar osib, qo'llariga ikki yuzli bolta olgan emishlar.

Soqchilar Gerakl bilan uning o'rtoqlarini shaharga kiritmabdilar, shuning uchun ular daryo qirg'og'ida, shahar devori tagida joylashishga majbur bo'libdilar.

Ko'p o'tmay, qurollangan qizlar otryadi bilan chiroyli ot mingan malika Ippolita yetib kelibdi. Qizlar ichida malikaning jonajon o'rtog'i go'zal Antiopa ham bor ekan. Bir vaqtlar uning husni amazonkalarni halok qilay degan ekan.

Amazonkalar ko'p vaqtidan buyon Gretsiyaga yurish qilishni o'ylab yurar ekanlar, vaqt kelib ular dengizdan suzib o'tishibdi. Afina devorlari tagiga yetishibdi va go'zal shaharni qamal qilishibdi. Afinaliklar qamalga tayyor emas ekanlar. Sal bo'limganda, shahar jangovar amazonkalar qo'liga o'tar ekan. Biroq Antiopa Afina jangchilari orasida shahzoda Teseyni ko'rib qolibdi va unga ishqи tushibdi. Go'zal amazonka ham Teseyga yoqib, shahzoda uning yordami bilan jonajon shahrini qutqarishiga umid bog'labdi. U tunda Antiopa bilan uchrashish niyatida yashirinib, amazonkalar lageriga kelibdi.

Ippolita o'rtog'inining muhabbatini sezib qolibdi va xiyonatdan qo'rqib, tezda qurshovni to'xtatishni buyuribdi. Amazonkalar Afinadan chekinib, o'z mamlakatlariga qaytib kelishibdi. Antiopa Teseydan judo bo'libdi. Biroq u Teseyni unutmagan ekan, hozir uni Geraklning do'stlari ichida ko'rib, quvonib ketibdi, sevgisi yana kuchliroq alanga olibdi. Tesey ham uni tanibdi, bildirmay uning yoniga boribdi, mahfiy uchrashuv to'g'risida shartlashibdi.

Ippolita Gerakldan nima uchun kelganini so'rabdi.

Gerakl o'ziga malika Ippolitaning kamarini olib kelish buyurilganini aytibdi.

- Men kamarimni faqat jangda g'olib chiqqanga beraman, - debdi malika. Biz bilan jangga chiqing, yengsangiz kamar sizlarniki bo'ladi!

Ippolita kamar o'zida bo'lsa, uni hech kim yenga olmasligiga ko'zi yetib shunday degan ekan.

Ikkala otryad jangga tayyorlanish uchun tarqalibdi.

Amazonkalar shaharga qushday uchishibdi, Geraklning hamrohlari esa daryo bo'yidagi lagerlarida tunab qolishibdi.



5- rasm. Gerakl. V asrda yaratilgan Parijdagi Luvr muzeyi.

ismli amazonkani ham halok qilibdi. Shunda uchta qiz, ma'buda Artemidaning o'zi ovga olib chiqadigan, nayza otishda tengi yo'q uchta mohir ovchi oldinga chiqibdi. Uchovlari baravariga shiddat bilan Geraklga nayza otibdilar, biroq tegizolmabdilar. Geraklning nayzasi esa chiyillab uchib borib, uchovining ham qo'lini sindiribdi.

Amazonkalar eng yaxshi jangchilarining yengilganini ko'rib qo'rqib ketibdilar.

- Sho'rimiz quridi! Sho'rimiz quridi! Ippolita, kamaring qani? - deb qichqirishibdi ular.

O'z dugonalariga xiyonat qilganidan Antiopaning yuragi ezilibdi, biroq shu paytda u ellinlar orasida Teseyni ko'rib qolibdi, sevgi uning barcha his-tuyg'ularidan ustun kelibdi.

Ippolita dahshatli qiyofada jonidan umidini uzib, oldinga chiqibdi. Sehri kamar dushman qo'lida ekanligini faqat u bilan Antiopa bilar ekan. Dovyurak malika darg'azab amazonkalarga dugonasining sirini ochishni istamay, jangda o'lishni ma'qul ko'ribdi. U mardlarcha jangning eng

Tesey tun bo'yi lagerda bo'lmabdi. Ertalab u quvonib kelib, Geraklga sehrli kamarni beribdi.

- Qanday qilib? Sen uni jangsiz qo'lga tushirdingmi? - debdi Gerakl hayron bo'lib.

- Antiopa uni malikadan o'g'irlab olib, menga berdi, - debdi Tesey.

Gerakl alдов yo'li bilan qo'lga kiritilgan o'ljadan foydalanishga ko'nmabdi, jang boshlanibdi. Amazonkalarning eng shiddatlisi Ayela shamolday uchqur, yovvoyi otda Geraklning ustiga otilibdi. Gerakl ot choptirib kelayotgan amazonkaning qo'lidagi boltasini urib tushiribdi. Shunda Ayela qochib qutulmoqchi bo'libdi, oti uni chetga olib qochibdi, biroq Geraklning o'q-yoyi uni quvib yetib, shu ondayoq o'ldiribdi. Gerakl yakkama-yakka janglarda yetti marta g'olib chiqqan Protoya

хавфли joyiga o‘zini urar, o‘ziga o‘lim izlar ekan, birdan u o‘q-yoydan varalanib yiqilibdi.

Malikaning o‘lganini ko‘rgan amazonkalar dovdirab qolib, qochishga tushibdilar. Ularning ko‘pchiligi asir olinibди, ба’зили о‘лдирilibди. Геракл асирга тушган Антиопани Тесеяга бериди. Тесея унга уylanibdi. Геракл Микенига, шоҳ Евристей ҳузурига қатиб келибди ва Ипполитанинг камарини унга бериди. Шоҳ камарни қизига хадиа қилибди, бироқ Адмета камарни тақиб ўрішга ботинмай, уни ҳудоларга хадиа сифатидан Гераклнинг ехромига топширибди¹.

Yustinning «Pompey Trog epitomi» асаридаги шундай фикрларни о‘qiymiz.

«Skiflarning shavkatli qahramonliklari to‘g‘risidagi hikoyamizni skif xalqining kelib chiqish tarixidan boshlash kerak. Ularning ayollari jasoratda erkaklaridan qolishmasdi, haqiqatdan ham, agar ularning o‘zları Parfiya va Baqtriya podsholiklari tuzgan bo‘lsalar, ayollari esa amazonka podsholigiga asos solgandi. Shuning uchun skiflarning erkaklari bilan ayollarining qahramonliklari haqida fikr yuritadigan kishi ikkilanib qolishadi. Qaysi jins jasoratliroq bo‘lgan deb, bu haqda qiziqarli hikoyalar aytishadi»².

Jahon adabiyotida amazonkalar haqida juda ko‘plab асарлар bitilgan.

Qisman bo‘lsa-da, haqiqatan ham amazonkalarning bo‘lganligi haqida Plutarx ham izoh berib o‘tadi.

Ko‘plar, shular jumlasidan Klitarx, Poliklit, Onesikrit, Antigen va Istrlarning aytishlaricha, Aleksandrning oldiga amazonka (amazonka - maxsus otliq kiyimini kiygan chavandoz ayol) keladi. Lekin Aristobul, Aleksandrning qo‘riqchisi Xaret, Ptolomey, Antiklid, Filon Fivanskiy, teangereniyalik Fili pp, Gekatey Eretriyskiy, Fili pp Xalkidskiy va Durid, Somosskiylar buni uydirma gap deb tasdiqlaydilar. Aleksandr ham ularning fikriga qo‘shilganday. Anti patraga batafsil yozgan xatida, skiflarning shohi унга хотинликка қизини бermoqchi ekanligi haqida so‘z yuritilgan. Amazonka haqida esa hech narsa aytilmagan. Aytishlariga qaraganda, oradan ancha vaqt o‘tgandan so‘ng, o‘sha paytda шоҳ bo‘lgan Lisimaxga o‘zining amazonka haqida yozgan to‘rtinchи kitobini o‘qiyotganda, Lisimax kulib, tarixchidan: «Men o‘sha paytda qayerda edim?»³ deb so‘rabdi.

¹ Ellada qahramonlari, Toshkent, «Yosh gvardiya» nashriyoti, 1976, 114—116 betlar.

² Yustin. Epitoma Pompey Trog. Vestnik drevney istorii, 1954, № 2, str. 211.

³ Plutarx. O‘sha асар, 239- bet.

Diodor skiflar va amazonkalar haqida yana bir qator muhim ma'lumotlarni berib o'tadi. Bu o'rinda ularning ayrimlariga to'xtalamiz. Bir qancha vaqtidan keyin skiflarda shohlik lavozimiga erkaklar o'rniga ayollar chiqib oladi. Skif ayollari jang qilish va boshqa ishlar bo'yicha erkaklardan qolishmas edi. Eron shohi Kir davrida ham Formadont daryosi bo'yidagi xalqlarni ayollar boshqarar edi. Hatto ular urushga ham ayollarni tayyorlay boshlaydi. Erkaklarni uy-ro'zg'or va boshqa mayda ishlarga jalb qiladi. Bu haqda maxsus qonun ham chiqariladi. Ataylab o'g'il bolalar yoshtagidan urushga yaroqsiz qilib tarbiyalanar, qizlarni esa aksincha, harbiy yurishlarga tayyorlar edilar. Shunday qilib, ayollar hukmdorlik qilgan skif xalqlari juda ko'p joylarni egallab, katta g'alabalarga erishadi. Ularning dovrug'i butun dunyoga targaladi. Lekin bu uzoqqa cho'zilmaydi. Irakliy ularga qarshi katta urush olib boradi va ularni astasekin yengib, Amazonka degan nomni butunlay yo'q qilib yuboradi. Faqat ulardan Penfesiliya ismli bir jasur ayol ozgina qo'shini bilan tirik qoladi va keyinchalik bu ayol Geraklitga qarshi bir nechta janglarda ishtirok etadi. Lekin u ham Axil tomonidan o'ldiriladi¹.

«Hatto Eron shohi Kir ham, - deb yozadi Diodor, - ayollar boshqarib turgan skiflarni yenga olmaydi»². Bu o'rinda Diodor Eron shohi Kirni mag'lubiyatqa uchratgan To'marisni nazarda tutyapti. Amazonkalar haqida va ayniqsa To'marisning jasorati haqida Gerodot ham o'zining «Tarix yoki tadqiqot» asarida qiziqarli hikoyalarni aytib o'tadi. Xususan u To'maris haqidagi hikoyatida shunday yozadi: «Massagetlarga qarshi yurish va Kirning o'limi» hikoyasida aytlishicha, Kir Bobilni bosib olib, massagetlarni o'ziga bo'ysundirmoqchi bo'ladi. Massagetlar Kaspiy dengizining sharq va g'arb qismlari bo'ylab cho'zilgan keng o'lkalarga joylashgan juda ko'p sonli qabilalardan edi. Kaspiy boshqa dengizlar bilan qo'shilmaydi. Uni uzunasiga 15 kunda suzib o'tish mumkin. Dengizning g'arbiy tomonida Kavkaz baland tog'lar bilan o'ralgan. Kavkazda turli xalqlar yashaydi. Ular yovvoyi daraxtlarning hosilini iste'mol qiladilar. Dengizning sharq tomonidagi keng tekisliklar Massaget yerlaridir.

Ular ham otliq, ham piyoda jang qiladilar. Yoy, nayza va dastalari uzun oyboltalar bilan quollangan. Tilla va misni juda ko'p ishlatadi.

¹ Diodor. O'sha asar, 298—299- betlar.

² Diodor. O'sha asar, 230- bet.

xavfli joyiga o‘zini urar, o‘ziga o‘lim izlar ekan, birdan u o‘q-yoydan varalanib yiqilibdi.

Malikaning o‘lganini ko‘rgan amazonkalar dovdirab qolib, qochishga tushibdilar. Ularning ko‘pchiligi asir olinibdi, ba’zilari o‘ldirilibdi. Gerakl asirga tushgan Antiopani Teseyga beribdi. Tesey unga uylanibdi. Gerakl Mikeniga, shoh Evristey huzuriga qaytib kelibdi va Ippolitaning kamarini unga beribdi. Shoh kamarni qiziga hadya qilibdi, biroq Admeta kamarni taqib yurishga botinmay, uni xudolarga hadya sifatida Geraklning ehromiga topshiribdi¹.

Yustinning «Pompey Trog epitomi» asarida shunday fikrlarni o‘qiyamiz.

«Skiflarning shavkatli qahramonliklari to‘g‘risidagi hikoyamizni skif xalqining kelib chiqish tarixidan boshlash kerak. Ularning ayollari jasoratda erkaklaridan qolishmasdi, haqiqatdan ham, agar ularning o‘zлari Parfiya va Baqtriya podsholiklari tuzgan bo‘lsalar, ayollari esa amazonka podsholigiga asos solgandi. Shuning uchun skiflarning erkaklari bilan ayollarining qahramonliklari haqida fikr yuritadigan kishi ikkilanib qolishadi. Qaysi jins jasoratliroq bo‘lgan deb, bu haqda qiziqarli hikoyalar aytishadi»².

Jahon adabiyotida amazonkalar haqida juda ko‘plab asarlar bitilgan.

Qisman bo‘lsa-da, haqiqatan ham amazonkalarning bo‘lganligi haqida Plutarx ham izoh berib o‘tadi.

Ko‘plar, shular jumlasidan Klitarx, Poliklit, Onesikrit, Antigen va Istrlarning aytishlaricha, Aleksandrning oldiga amazonka (amazonka - maxsus otliq kiyimini kiygan chavandoz ayol) keladi. Lekin Aristobul, Aleksandrning qo‘riqchisi Xaret, Ptolomey, Antiklid, Filon Fivanskiy, teangeniyalik Filipp, Gekatey Eretriyskiy, Filipp Xalkidskiy va Durid, Somosskiylar buni uydirma gap deb tasdiqlaydilar. Aleksandr ham ularning fikriga qo‘shilganday. Antipatraga batafsil yozgan xatida, skiflarning shohi unga xotinlikka qizini bermoqchi ekanligi haqida so‘z yuritilgan. Amazonka haqida esa hech narsa aytilmagan. Aytishlariga qaraganda, oradan ancha vaqt o‘tgandan so‘ng, o‘sha paytda shoh bo‘lgan Lisimaxga o‘zining amazonka haqida yozgan to‘rtinchchi kitobini o‘qiyotganda, Lisimax kulib, tarixchidan: «Men o‘sha paytda qayerda edim?»³ deb so‘rabdi.

¹ Ellada qahramonlari, Toshkent, «Yosh gvardiya» nashriyoti, 1976, 114—116 betlar.

² Yustin. Epitoma Pompey Troga. Vestnik drevney istorii, 1954, № 2, str. 211.

³ Plutarx. O‘sha asar, 239- bet.

Diodor skiflar va amazonkalar haqida yana bir qator muhim ma'lumotlarni berib o'tadi. Bu o'rinda ularning ayrimlariga to'xtalamiz. Bir qancha vaqtidan keyin skiflarda shohlik lavozimiga erkaklar o'mniga ayollar chiqib oladi. Skif ayollarini jang qilish va boshqa ishlar bo'yicha erkaklardan qolishmas edi. Eron shohi Kir davrida ham Formadont daryosi bo'yidagi xalqlarni ayollar boshqarar edi. Hatto ular urushga ham ayollarni tayyorlay boshlaydi. Erkaklarni uy-ro'zg'or va boshqa mayda ishlarga jalb qiladi. Bu haqda maxsus qonun ham chiqariladi. Ataylab o'g'il bolalar yoshligidan urushga yaroqsiz qilib tarbiyalanar, qizlarni esa aksincha, harbiy yurishlarga tayyorlar edilar. Shunday qilib, ayollar hukmdorlik qilgan skif xalqlari juda ko'p joylarni egallab, katta g'alabalarga erishadi. Ularning dovrug'i butun dunyoga tarqaladi. Lekin bu uzoqqa cho'zilmaydi. Irakliy ularga qarshi katta urush olib boradi va ularni astasekin yengib, Amazonka degan nomni butunlay yo'q qilib yuboradi. Faqat ulardan Penfesiliya ismli bir jasur ayol ozgina qo'shini bilan tirik qoladi va keyinchalik bu ayol Geraklitga qarshi bir nechta janglarda ishtirok etadi. Lekin u ham Axil tomonidan o'ldiriladi¹.

«Hatto Eron shohi Kir ham, - deb yozadi Diodor, - ayollar boshqarib turgan skiflarni yenga olmaydi»². Bu o'rinda Diodor Eron shohi Kirni mag'lubiyatga uchratgan To'marisni nazarda tutyapti. Amazonkalar haqida va ayniqsa To'marisning jasorati haqida Gerodot ham o'zining «Tarix yoki tadqiqot» asarida qiziqarli hikoyalarni aytib o'tadi. Xususan u To'maris haqidagi hikoyatida shunday yozadi: «Massagetlarga qarshi yurish va Kirning o'limi» hikoyasida aytlishicha, Kir Bobilni bosib olib, massagetlarni o'ziga bo'ysundirmoqchi bo'ladi. Massagetlar Kaspiy dengizining sharq va g'arb qismlari bo'ylab cho'zilgan keng o'lkalarga joylashgan juda ko'p sonli qabilalardan edi. Kaspiy boshqa dengizlar bilan qo'shilmaydi. Uni uzunasiga 15 kunda suzib o'tish mumkin. Dengizning g'arbiy tomonida Kavkaz baland tog'lar bilan o'ralgan. Kavkazda turli xalqlar yashaydi. Ular yovvoyi daraxtlarning hosilini iste'mol qiladilar. Dengizning sharq tomonidagi keng tekisliklar Massaget yerlaridir.

Ular ham otliq, ham piyoda jang qiladilar. Yoy, nayza va dastalari uzun oyboltalar bilan qurollangan. Tilla va misni juda ko'p ishlatadi.

¹ Diodor. O'sha asar, 298—299- betlar.

² Diodor. O'sha asar, 230- bet.

Nayzalari misdan yasalgan. Yo'yning bo'yniga yelka aralash osib yuradigan kamar va tasmalari tilla bilan bezatilgan. Shuningdek, otlarga sovut taqar, suvliqlari, yuganlariga bezaklar taqardi, temir va kumushni ishlatmasdilar. Ekin ekish bilan shug'ullanmasdilar. Go'sht, baliq va sut mahsulotlari bilan oziqlanishardilar. Faqat quyoshni xudo o'mida ko'rib, otlarni uning poyiga qurbanlik qiladilar.

Kir ularga qarshi urushni xohlab qoladi. U juda mag'rur edi. Shuning uchun ham, o'zgalarni ko'zga ilmasdi. Bosqinchilik urushlarida erishgan ko'p g'alabalar uni yana qonxo'rlik sari yetaklaydi.

Massagetlarning podshohi malika To'maris edi. Unga uylanish niyati borligini izhor etish uchun Kir o'z odamlarini malikaning qarorgohiga yuboradi. To'maris Kirming yovuz niyati borligini sezib, unga rad javobini beradi. Shundan so'ng Kir mamlakat hokimligini o'g'li Kambizga qoldirib, o'zi To'marisga qarshi ochiq jangga otlanadi.

To'maris barcha kuchlarini yig'ib, Kirmi qarshi oladi, ikki o'rtada qirg'in jang boshlanadi. Vatanparvarlar mardonavor turib jang qiladilar, avval ular uzoqdan turib, dushman ustiga yoy o'qlarini yog'diradilar. So'ngra nayza va hanjar bilan olishuv boshlanadi. Jang uzoq vaqt davom etadi. Yon berishni hech bir tomon xohlamasdi. Nihoyat, massagetlar g'olib keladilar, yigirma to'qqiz yil (eramizgacha bo'lgan 558-529- yillard) podshohlik qilgan Kir o'ldirilib, dushman lashkarlari qirib tashlanadi. Kirning o'limi haqidagi hikoyalardan eng haqiqatga yaqini mana shu»¹.

Gerodot keltirgan ushbu faktning o'ziyoq qachonlardir skiflar podshohi ayol kishi bo'lganligini tasdiqlaydi. Ularni qadimgi tarixchilar amazonlar, ya'ni bir siynasi kesilgan jango var ayollar deb ta'rif bergan bo'lishi mumkin. Bu o'rinda Gerodot bergan ta'rifga e'tibor qilib, massagetlarning Kaspiy dengizi-Sharq va G'arb tomonidagi yerlarda yashaganini nazarda tutsak, bu joylar Girkaniya va Oks daryosi bo'ylariga to'g'ri keladi. Skif ayollaridan podsholar bo'lganligini To'maris orqali ham isbotlashimiz mumkin.

Bu o'rinda skiflar haqida va amazonkalar xususida to'xtalar ekanmiz, grek va Rim tarixi bizga shu narsani aniqlab berib turibdiki, skiflar aslida O'rta Osiyodan tarqalgan bo'lib, hozirgi Turkman (Girkaniya), Ozarbayjon, Turkiyaliklar, Qirim orolida yashovchi turk qabilalari, Qozon atrofida yashovchi tatarlar, Ural tog'larigacha cho'zilib ketgan yerlarda

¹ Gerodot. Istorya v devyati knigax. Kn. chetvertaya, str. 325.

yashovchi qozoqlar, oltoyalik turkiy qabilalar, bu tomoni Xitoyda yashovchi uyg'urlar, qirg'izlar (ular o'zlarini shimol tomonidan ko'chib kelganmiz deyishadi, baribir bizga urug'dosh bo'lgan) va boshqa turkiy qabilalar turli sabablarga ko'ra o'sha qadim zamonaldayoq uzoq ellarga ko'chib ketishgan. Aslida ularning eng qadimiy vatani O'rta Osiyo bo'lgan. Ularning tili bir, hatto bir urug'dan tarqalgan. Faqat tilidagi ayrim o'zgarishlar geografik muhitga bog'liq ravishda farqlanib borgan. Hozir ham masalan, bir millat bo'la turib, ikki joyda yashovchi kishilar tilida katta o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Bunday turkiy qabilalar hozir bir-biridan qanchalik uzoq yashamasinlar qarindosh ekanliklarini, urug'dosh bo'lganliklarini, hatto asli eng qadimiy vatani O'rta Osiyo ekanliklarini unutmasliklari kerak. Fikrimizcha, skiflar bir qabilaga mansub bo'lmasdan, bir qancha qabila va elatlari yig'indisi, ayniqsa, bir-biriga yaqin tilda so'zlashuvchi qabilalar shu nom bilan atalgan bo'lishi mumkin. Masalan, hozirda va o'tmishdagi turkiy tilda gaplashuvchi xalqqa skiflar deb nom bersak maqsadga muvofiq bo'lardi.

Esxil o'zining «Zanjirband Prometey» tragediyasida Amazonkalar haqida qisqacha to'xtalib shunday deydi:

«Toki erkak zotini xush ko'rmovchi qavm
Yashaydigan qo'shnlarga duch kelguningcha
Bu qo'shinni tashkil etar otliq ayollar;
Maskanlari - Fermadonta, Femiskirada.
Suyaklardan uyum qurgan qahhor Salmides.
Kemalarga dahshat solar dengizda turib,
Ular senga ko'rsatishar ezgu yo'l-yo'riq'.

Bu o'rinda ulug' dramaturg amazonkalar nomini aynan tilga olmasa ham, gap mazmuni amazonkalar haqida borayotganligini anglash qiyin emas. Bu o'rinda amazonkalar Orol dengizi bo'ylaridan Kaspiy dengizigacha cho'zilib ketgan keng o'lkada yashaganliklarini tasavvur qilish mumkin. Bundan chiqadiki, amazonkalar dovrug'i Esxil yashagan davrlardayoq uzoq Gretsiyaga tarqalgan edi. Bunday faktlar juda qimmatli bo'lib, amazonkalar haqidagi tasavvurimizni boyitadi. Demakki, bizning

¹ Esxil. «Zanjirband Prometey». Toshkent, G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1978, 64- bet.

jasur ayollarimiz qadimda qorong‘u kulbalarda quldek hayot kechirib qolmasdan, jahonga dovrug‘ solib, hukmronlik ham qilib kelgan.

Esxilning «Zanjirband Prometey» tragediyasida amazonkalar tilga olinib o‘tiladi. Hatto, amazonkalar ham tog‘ga zanjirband qilingan Prometeyning ayanchli holini ko‘rib achingan ekanlar. Bundan ko‘rinadiki, amazonkalar haqidagi hikoyatlar faqat afsonalardan iborat bo‘lib qolmasdan, balki tarixiy haqiqatga ega. Eramizdan avvalgi V asrlarda amazonkalar nomi Esxil yashagan o‘lkalarga yetib borgan. Amazonkalarning Kaspiy bo‘ylarida yashashi, hatto Kavkaz tog‘ida zanjirband qilingan Prometeyning holini ko‘rib achinganligini Esxilning ta‘kidlashi fikrimizning dalilidir.

Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, Amazonkalarning Prometeyning holini ko‘rib achinganligi afsonaviy hodisaga o‘xshaydi. Chunki Prometey afsonasining o‘zi mifologik xarakterga ega. Biz uchun Esxilning amazonkalar haqida fikr bildirishining o‘zi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki Esxildan ilgari Amazonkalar haqida grek xalq ijodiyoti («Ellada qahramonlari») orqaligina ma’lumotlar olgan edik. Individual adib ijodida amazonkalar haqida hech bir fikrlarni uchratmagan bo‘lsak, endi Esxilning «Zanjirband Prometey» tragediyasida bu jasur ayollar haqida so‘z yuritish masalani yanada oydinlashtiradi.

Achinmoqda senga hatto,
Sheryurakli amazonkalar¹.

Amazonkalar haqidagi hamma faktlarda xoh u mifologik xarakterga ega bo‘lsin, xoh tarixiy fakt bo‘lsin, jasur ayollar bo‘lganligi qayd qilinadi. Amazonkalar dushmaniga nisbatan shafqatsiz bo‘lgan. Esxil aytganidek, bu skif avlodlari bo‘lmish ayollar «Sheryurakli» edi.

Garchi mifologik xarakterga ega bo‘lsa ham, ko‘pgina asarlarda ayrim joylar, hatto qahramonlar ham tarixiy bo‘lishi mumkin. Bu xolni biz yunon mifologiyasining boshlanishi bo‘lmish Homer asarlarida ham uchratamiz. Mifologik xarakterga ega bo‘lsa-da Esxil asarlarida joy va tarixiy qahramonlar nomini uchratamiz. Kavkaz tog‘i, skiflar, amazonkalar haqidagi ma’lumotlar fikrimizning dalilidir.

¹ Esxil. Zanjirband Prometey. Toshkent, G’. G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978, 39- bet

Ehtimol, Esxil Kavkaz tog'lari, Qora dengiz va Kaspiy bo'ylab O'rtal Osiyo tomonlarga kelgandir. Yoki bironta grek sayyohidan bu o'lkalar haqida ma'lumotlar to'plagandir. Chunki tarixiy joylar jug'rofiyasini o'z asarida aniq chizib bergenligiga guvoh bo'lamiz. Bu xolni biz Prometeyning Argos shohi Inahining qizi Loga aytgan so'zlari orqali yaqindan bilib olamiz.

Sen-chi, Io, so'zlarimni jo qil qalbingga,
Bilmoq bo'lsang sargardonlik intihosini.
Bunday o'tib haydalmagan dalalar bo'ylab,
Odimlaysan Mag'rib sari. U yerda senga
Yo'liqadi ko'chmanchi xalq - vahshiy skiflar¹.

Bu o'rinda Esxil mag'rib tomonlarda «haydalmagan yerlar» borligini ta'kidlash bilan, skiflarning yer haydab, dehqonchilik qilishdan ko'ra, ko'proq chorvachilik bilan shug'ullanishlarini qayd etmoqda. Shu bilan birga, Esxil skiflarni «ko'chmanchi xalq» deb aniq izoh bermoqda. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, skiflar tarixi bilan shug'ullanuvchi yirik mutaxassis olimlar, skiflarning qadim zamonlarda asosan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lib yashaganliklarini va asosan, chorvachilik bilan shug'ullanganligini aytgan edilar.

Esxil skiflarning asosan chodirlarda yashaganliklarini qayd qilib o'tadi. Bu chodirlar hatto g'ildirakli aravaga tortilganligini ham ta'kidlaydi. Haqiqatan ham, tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, skiflarning ko'chib yurishi qulay bo'lishi uchun chodirlarini aravachalarga o'rnatib olgan edilar. Bu haqda shunday yozadi:

Ular bari chodirlarda o'tkazishar kun,
Chodir jilar g'ildiraklar yordami bilan².

Esxil skiflarning jangovar xalq bo'lganligini aytadi. Ayniqsa, skiflar kamondan o'q otishga usta bo'lganligini ta'kidlaydi. Jangovarlikda va kamondan o'q otishda, ularga bas kelish qiyin edi, deydi. Esxil skiflar yurtida bo'lgandek, xuddi ular bilan uchrashgandek aniq ma'lumotlar

¹ Esxil. Zanjirband Prometey, 63- bet.

² Shu kitob, 63- bet.

beradi. «Zanjirband Prometey» tragediyasidagi ayrim misralarni o‘qib, ehtimol, Esxil olis skiflar yurtiga kelgandir, deb o‘ylanib qolasan, kishi.

Yovni ko‘zlab olislardan kamon tutganlar.
O‘q otishar, sen ularga kelmagin yovuq.
Vale yo‘ling tushaversin kanora bo‘ylab,
G‘arqob bo‘lib zorlanadi unda dolg‘alar¹.

Esxil skiflarning behudaga o‘q uzmasligini aytadi. Agar sen ularga ozor bermasang, ularga dushmanlik ko‘zi bilan qaramasang, ular bekorga hujum qilmaydi, deydi.

Esxil Amudaryoning ham qadimiyligi nomini tilga olib o‘tadi. Bu yerlardan so‘qmoq axtarib ovora bo‘lma, baribir adashib ketasan, deydi shoir.

Esxil Amudaryoni Araz nahri deb ataydi. Boshqa qadimgi tarixchilarning asarlarida Oks, Araks deb nomlangan.

Yura-yura so‘ng kelasan Araz nahriga,
Behudaga berilmagan ana shunday nom.
O‘tib bo‘lmas, u yerdan sen so‘qmoq axtarma².

Tragediya muallifining ta’kidlashicha, Araz daryosiga Kavkaz tog‘lari yaqin.

Esxil o‘z asarida amazonkalar mana shu Araz daryosiga yaqin joyda yashayotganligini ishora qiladi. Bu o‘rinda Araz daryosi qadimgi greklar tilida nomlangan Oks daryosi ekanligiga shubha qilmaymiz. So‘ngra, deydi Esxil, yuksak cho‘qqili viqorli tog‘lar orasidan o‘tib, «peshingacha sandiroqlaysan».

Toki erkak zotini xush ko‘rmovchi qavm,
Yashaydigan qo‘sishinlar duch kelmaguncha³.

Tragediyaning keyingi qismida amazonkalar haqida kengroq ma‘lumotlar beriladi. Esxil amazonkalarning «otliq ayollar» ekanligini ta’kidlaydi. Amazonkalarning viloyati Fermodonta, Femiskirada degan o‘lka ekanligi ham aniq ko‘rsatib o‘tiladi.

¹ O‘sha joyda, 63- bet.

² Shu kitob, 63- bet.

³ Esxil. «Zanjirband Prometey», 63- bet.

Bu qo'shinni tashkil etar otliq ayollar,
Maskanlari - Fermodonta, Femiskirada.

Esxil amazonkalar haqida ta'rif berar ekan, Osiyo to'g'risida ham to'xtalib o'tadi. Shundan so'ng «Yevropaning dalalarin qoldirib ortda», «Osiyo qit'asiga yetib kelasan» deydi. Bu o'rinda «Osiyo» so'zi «Asiyalar qit'asi» deb berilgan. Esxil osiyoliklarga yuksak baho beradi. Osiyoliklar «Bor ne'matni yaratuvchi xalqi azim» degan fikrni aytib o'tgan, ya'ni bu o'lka osiyoliklar yashaydigan joy noz-u ne'matlarga mo'l-ko'l, hamma narsa yetishtiriladi, to'kin-sochinlik, degan ma'noda.

Ko'rinib turibdiki, Esxil o'z tragediyasida amazonkalar haqida alohida to'xtalib o'tib, keng izoh bermoqda. Amazonkalar haqidagi fikrimizni boyitmoqda. Ularning yashayotgan o'lkasi Osiyo tarafda, Kavkazga yaqin joyda, degan gaplarni aytmoqda.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, demak, Esxil yashagan zamonda amazonkalarning dovrug'i uzoq Gretsiyagacha borib yetgan. Xususan, Esxil va uning zamondoshlari amazonkalar haqida keng ma'lumotlarga ega bo'lgan. Osiyolik jasur ayollar o'zlarining erki va iqboli uchun kurashib, uzoq ellarga ham ma'lum va mashhur bo'lgan. Bugun biz avlodlar bu jasur ayollarimizning izini qidirib topmoq uchun hali ko'p xayrli ishlar qilishimiz lozim bo'ladi.

Amazonkalar nomi Homer yashagan zamondan bir necha yuz yillar ilgari ham ma'lum va mashhur bo'lgan. Aytishlaricha, yunonlar bilan troyaliklar o'rtasida bo'lib o'tgan jangda amazonkalar katta jasorat ko'rsatadi. Olimlarning aniqlashicha, bu urush miloddan avvalgi XIII asrda bo'lib o'tgan ekan. O'sha qirg'in urushda amazonkalar o'z qavmlari bo'lmish troyaliklarning nihoyatda og'ir ahvolga tushib qolganini, yunonlarning qurshovida qolgan xalq o'z shahrini mardonavor himoya qilayotganini eshitib chidab turolmaydi. Shunday og'ir ahvolda do'stga yordam bermoqni ular o'zlari uchun buyuk sharaf deb bilishadi. Axir skiflar avlodи ilgari bir necha bor Troyaga tashrif buyurishgan, shoh Priamning ulug' mehmoni bo'lishgan. Troyaliklar bilan skiflar o'rtasida qalin do'stlik, savdo-sotiq, bordi-keldi yo'llari mavjud edi. Amazonkalar troyaliklarni katta fojia kutayotganini, hatto ulug' pahlavon Xektorning o'limi haqidagi shum xabarni eshitib, shoshilinch yo'lga tushadilar. Tez kunda uchqur otlar mingan malika Penfesiliya boshchiligidagi amazonkalarning katta qo'shini Troyaga yetib keladi.

G‘am-g‘ussaga botib o‘tirgan Troya shohi Priam amazonkalarning yordamga kelganini eshitib behad xursand bo‘ladi. Malika Penfesiliya sharafiga katta ziyoft berib, o‘z qizidek shod-u hurramlik bilan qarshi oladi. Erkaklardek shijoatga ega bo‘lgan, kuch-qudrati to‘lib toshgan malika yunonlarning barcha pahlavonlarini mahv etaman, kemalariga o‘t qo‘yib hamma Troya dushmanlarini qirib tashlayman, deydi ko‘zlarida o‘t chaqnab.

Nihoyatda epchil, ayniqsa, kamondan o‘q otishda hech kim teng kela olmagan amazonkaliklar, troyaliklarning qolgan-qutgan barcha jangchilari bilan birikib ertasi kuni axeylarga qarshi jang boshlaydilar. Axeyliklar amazonkalarning shiddatli jangiga dosh berolmaydi. Axeylarning qurollari asosan qilich-qalqon va nayzadan iborat edi. Amazonkalar ot ustida yoy o‘qini bexato otib, axeylarni qirib, tobora dengiz tomon surib borardi.

Yunonlarning mag‘lubiyatga uchrashi aniq bo‘lib qoladi. Katta g‘alabadan ruhan tetiklashgan troyaliklar va amazonkalar yanada shiddatliroq jang qilishar edi. Ne-ne jang ko‘rgan yunon lashkarlari sarosimaga tushib qoladi. Raqiblarining bunchalik kuch-qudratni qayerdan olganliklariga hayron edilar. Shunda kutilmaganda yunon pahlavoni Axilles yordamga yetib keladi. Axilles sherdai o‘kirib jangga kiradi. Penfesiliya Axillesni mo‘ljalga olib nayza otadi. Nayza pahlavonning qalqoniga tegib sinib ketadi.

Amazonkalar malikasi pahlavonga qarata ikkinchi marta yoydan o‘q otadi, ammo bu safar ham uni jarohatlay olmaydi. Shunda Axilles g‘azabga to‘lib bor kuchi bilan raqibiga tashlanib, uni yaralaydi. Malika yaralanganini sezib, qilichini yalang‘ochlab, endi Axillesni o‘ldirishga qaror qiladi. Axilles raqibining yaralanganidan foydalanib, vujudi kuchga to‘lib, shunday nayza sanchadiki, natijada nayza otning bo‘ynidan kirib, malikaga borib sanchiladi. Malika oti bilan birga yiqlilib tushadi. Shunda Axilles raqibining boshidagi dubulg‘a (shilom)sini yechib qarasaki, ayol kishi bilan jang qilib g‘olib chiqqan ekan. Pahlavon malika Penfesiliyaning husn-jamolini ko‘rib, mahliyo bo‘lib qoladi.

Penfesiliya shunday go‘zal ediki, hatto u go‘zallikda ma‘buda Artemidadan ham qolishmasdi. Axilles malikaning qarshisida sarosimaga tushib, uni chin yurakdan sevib qolganini sezib, dili fig‘on bo‘ladi.

So‘ngra ulug‘ pahlavon Axilles malikaning jasadini chuqur qayg‘u bilan janggohdan olib chiqib, troyaliklarga hadya etadi. Troyaliklar jangda

mardonavor halok bo'lgan yana o'n ikkita amazonkaning jasadini qurol-aslahalari bilan qo'shib, izzat-hurmat bilan o'tda kuydiradilar.

Yana bir hikoyatda aytishicha, amazonkalar hatto Afinaga bostirib borishadi. O'sha vaqtida Afina podshosi Tesey edi. Tesey «argo» kemasida «oltin junli teri» qidirib Kavkaz tog'lariga, hatto skiflar yeriga ham kelib ketgan. Bunday xatarli safar chog'ida ko'p marta jang-u jadallar, qirg'in urushlarni boshidan kechirgan. U hatto Amazonkalar shahri Femiskiraga hujum qilib, bu shaharning malikasi Antiopani sevib qoladi. Shundan so'ng, Antiopani o'ziga xotin qilib uzoq Afinaga olib ketadi. Afinaliklar malikani katta hurmat bilan qarshi oladilar.

Amazonkalar o'z shohi Antiopaning uzoq ellarda sarson-sargardon bo'lishidan xavotirlanib, malikani asiralikdan ozod qilish uchun uzoq Afinaga yurish boshlaydilar. Amazonkalar shaharni vayron qilib, attikaliklarni yoydan o'qqa tutib, chekinishga majbur etadilar. O'z eri Teseyni nihoyatda sevib qolgan, Antiopa ham eri bilan birga o'z qavm-u qarindoshlari bo'lgan amazonkalarga qarshi shiddatli jangga kiradi. Ikki o'rtada qattiq jang boshlanadi. Nogahon, otilgan bir yoy o'qi Antiopaning ko'kragiga sanchiladi. Malika yonida jang qilayotgan eri Teseyning oyog'iga yiqilib, jon beradi. O'z shohi Antiopaning amazonkalar odatiga xiyonat qilib, o'lganini eshitgan otliq ayollar Afinani tark etib, o'z yurtlariga qaytib keladilar.

Bunday afsonaviy hikoyatlar asosida ma'lum darajada haqiqat yotganligini sezamiz. Skif avlodlaridan bo'lmish amazonkalarning qadim zamonlardayoq, Troya, Afina kabi uzoq ellarga ma'lum va mashhur bo'lishi bugungi kundagi xotin-qizlarimizning ham qalbini iftixor va g'urur bilan to'ldiradi.

OLTIN JUNLI TERILAR O'LKASI

Antik davrlardayoq yaratilgan tarixiy asarlarda Armaniston o'lkasi haqida juda ko'plab go'zal ifodalarni ko'ramiz. Qadimgilar, Yerevan shahrini antik dunyoga mansubligi jihatidan Afinadan keyingi ikkinchi o'rinda turadi, deb bejiz aytishmagan edi.

Muhimi shundaki, qadimgi zamonlardayoq Armaniston deb atalgan bu o'lka, hozirgacha ham o'zining ma'nosini yo'qtGANI yo'q. Shuning uchun ham, eramizdan avval VIII-VII asrlardayoq yunon adiblari o'z

asarlarida Armaniston haqida qiziq hikoyalar yozib qoldirgan edi. Boshqa bir manbalarda kolxidlar yurti Kavkaz tog‘i etaklari bo‘lib, Armanistonni ham o‘z ichiga olardi, deyilgan.

Antik davrlardayoq greklar va rimliklar Armanistonga kelib-ketganligi, bu o‘lkada g‘aroyib voqealarning guvohi bo‘lganliklarini o‘z yurtdoshlariga aytib ado qilolmasdi. Bunday adog‘i yo‘q hikoyalarning ko‘plari o‘sha antik zamonlardan bizning kunimizgacha saqlanib qolgan.

Qadimgi yunon va rimliklar Kavkaz tog‘i etaklaridagi ko‘pgina xalqlarni umumiyl nom ostida Armaniston deb atashardi.

Armaniston podshohligi Parfiyadan keyin kattaligi bo‘yicha barcha podsholiklardan ustun turardi. Armaniston Kappadokiyadan Kaspiy dengizigacha bir yuz ming qadamni egallagan, kengligi esa yetti yuz ming qadamdir. Armanistonga fessaliyalik Yason asos solgan degan ma'lumotlar bor. Ajoyib jasurliklar ko‘rsatgani uchun Yasonni o‘z davlatining xavfli shaxsi hisoblagan Peliy o‘ldirmoqchi bo‘ladi. Biroq ayrim sabablarga ko‘ra bu qotillik amalga oshmay qoladi. Shunday maqsad bilan Peliy Kolxidga yurish e’lon qilib, u yerdan Yasonga mahalliy xalqlar uchun katta yodgorlik hisoblangan oltin junli qo‘y terisini olib keltirishni buyuradi¹. Aytishlaricha, bu teri oltin junli qo‘yniki bo‘lgan ekan.

Oltin junli teri haqidagi afsonalar ko‘p o‘tmay haqiqatga aylanadi. Soddadil va jasur elladaliklar, haqiqatan ham, Kavkaz tog‘lari etaklaridagi Kolxidlar yurtida bebaho oltin junli teri bo‘lsa kerak, deb qattiq ishonishadi. (Balki oltin kabi tovlanib turuvchi Buxoro surlari, turkman qorako‘llari qaysidir bir sabablarga ko‘ra o‘sha zamonlarda elladaliklar qo‘liga tushib qolib, ularning qo‘ylari oltin junli bo‘ladi, degan afsonalar to‘qilgandir.) Oltin junli teri haqidagi afsonalar butun Ellada bo‘ylab tez tarqaladi. «Ellada qahramonlari» nomli qadimiyl hikoyalarda mana shu oltin junli teri vohasi o‘z badiiy ifodasini topgan.

Yustin o‘zining «Pompey Trog epitomi» asarida ta’kidlab o‘tgan Peliy va Yason voqeasi ham «Ellada qahramonlari»dan keng o‘rin egallagan. Unda hikoya qilinishicha, Fessaliyada ko‘rfaz sohilida bir vaqtlar Iolk degan boy va go‘zal shahar bo‘lgan ekan. Unda Ezon degan chol shohlik qilar ekan. Peliy ismli o‘jar va amalparast ukasi Ezonni taxtdan tushirib, o‘zi hukmronlik qila boshlabdi. Ezon Peliya bo‘ysunibdi, lekin o‘z qadrdon

¹ Yustin. «Pompey Trog epitomi», «Vestnik drevney istorii», 1955, № 1, 224-bet.

shaharini tashlab ketmay, Iolkda oddiy fuqaro qatori turib qolibdi. Kichik o'g'li Yasonni esa Peliydan qo'rqib, Pellon tog'idagi o'rmonga jo'natibdi.

Pellon yonbag'irlaridagi o'rmonda kentavrлarning yovvoyi qabilasi yashar ekan. Bular yarim odam-yarim ot qiyofasida bo'lib, boshlari bilan tanalari odamnikiga o'xsharkan, lekin to'rt oyoqli ot gavdasiga o'rnashgan ekan. Kentavrлar vahshiy bo'lib, mamlakatning tinch aholisiga xavf solar, ba'zi-ba'zida yovvoyi poda singari chang-to'zon ko'tarib, tog'dan tushar va ekinzorlarni toptab, duch kelgan tirik jonne yanchib halok qilar ekanlar. Biroq bu yovvoyi mahluqlar orasida aql-farosati bilan dong taratgan Xilron nomli bir keksa kentavr bor ekan. Ezon o'z o'g'lini xuddi o'shaning tarbiyasiga topshiribdi.

Yason Xironning tog'dagi g'orida ko'p yillar yashabdi. Qari Kentavr uning badanini chiniqtiribdi, o'smirni kuchli va epchil qilibdi, nayza va qilich bilan muomala qilishni o'rgatibdi, unga tabiatning ko'pgina sirlarini ochibdi va dushman bilan kurashda hiylagar bo'lishni uqtiribdi.

Iolkda Peliy shohlik qilar ekan. Qo'li ostidagi shaharda unga hech qanday tahdid bo'lmasa ham, doimo uni allaqanday dahshat qyinoqqa solar ekan. U tez-tez karomatli kohinlarga murojaat qilib, uzoq yashash-yashamasligini va shohligiga kim to'siq bo'lishini so'rарan ekan.

Bir kuni u kohindan, menga kim tahdid qiladi, deb so'ragan ekan, kohin:

- Bir oyog'iga shippak kiyan odam, - debdi.

Peliy bu gapni qulog'iga quyib olibdi, shu kundan boshlab u kim bilan uchrashsa dastavval oyog'iga qaraydigan bo'libdi.

Yason yigirma yoshga to'lgach, o'zini turmushning har qanday sinovlariga bardosh beradigan, baquvvat va chidamli his etibdi va uyiga qaytmoq orzusiga tushibdi. U Xiron bilan xayrashib, Pelion o'rmonidan chiqib, tog'dan tushibdi-da, Iolkka qarab yo'l olibdi.

Yo'lда unga bahor yomg'irdidan toshgan bir soy uchrabdi. Yaqin orada na ko'prik, na toshqin ustiga tashlangan biror yakka cho'p ko'rinnabdi. Yason yelkasidagi qoplon terisini yig'ishtirib olibdi va soyni kechib o'tmoqqa jazm qilib, sira ham tap tortmay suvga kiribdi.

Shu vaqt u to'satdan birovning chaqirayotganini eshitib qolibdi. Qayrilib qarab, toshqin chetidagi tosh ustida ko'pirib toshayotgan suvga qo'rquv ichida tikilib o'tirgan bir kampirni ko'ribdi.

- Narigi yoqqa o'tkazib qo'y, - debdi u Yasonga, - anchadan beri shu yerda bitta-yarimta yordam qilarmikin, deb o'tiribman, biroq

men ojizaga hech kim yordam qilgani yo‘q. Yason indamay kampirni ko‘tarib olibdi va soy tagidagi toshlarga asta-sekin oyoq qo‘yib, uni narigi qirg‘oqqa o‘tqazib qo‘yibdi. Suvdan o‘tayotganida uning chap oyog‘idagi shi ppak yechilib, oqib ketibdi. Yason qirg‘oqqa chiqib, kampirni avaylab yerga tushiribdi va o‘z yo‘liga ketmoqchi bo‘lib chog‘lanibdi, shunda u birdan:

- Rahmat, Yason, bu yaxshililingni unutmayman! - degan kuchli, jarangdor ovozni eshitibdi.

U shartta o‘girilib qarabdi, biroq yonida hech kim yo‘qmish. Yason ajablanibdi, bu kampir kim bo‘ldi ekan, ismimni qayoqdan bildi ekan, deb xayol sura-sura, nari ketibdi. Ko‘p o‘tmay Yason Iolkka yetib kelibdi va odamlar to‘la katta bozor maydonidan chiqib qolibdi.

- Sochlari qizlarnikidek uzun, yelkasiga ola-bula teri tashlagan bir oyog‘ida shippagi bor bu notanish, chiroyli yigitchaga hamma hayrat bilan qarab qolibdi.

Yigitcha otasining uyiga qanday borishni so‘rabdi. Birdan ot dupuri va g‘ildiraklarning guldiragani eshitilib, maydonga chiroyli fessaliy otlari qo‘shilgan ikki g‘ildirakli ajoyib aravada Iolk hukmdori Peliy kirib kelibdi. Olomon to‘s-to‘s bo‘lib ketibdi, shohning aravasi oldida yolg‘iz Yasongina qolibdi. Peliy qarshisida bir oyog‘iga shippak kiygan odamni ko‘rib, qaltirab ketibdi. Shoh otlarni to‘xtatibdi va qovog‘idan qor yog‘ib:

- Ey, musofir yigit, sen kim bo‘lasan. Qayerda tug‘ilgansan, Iolkda nima qilib yuribsan? - deb so‘rabdi.

- Men musofir emasman, - debdi Yason, - shu yerda, Iolkda tug‘ilganman. Men shoh Ezonning o‘g‘liman, otamdan zo‘rlik bilan tortib olingen mulkni qaytarib olmoq uchun keldim.

Menga otamning turarjoyini ko‘rsating, tezroq uni ko‘rishim kerak.

Arava taraqa-turug‘ qilib, ko‘z ochib-yumguncha o‘takasi yorilayozgan Peliyni olib ketibdi. Keksa Ezonni juda sevgan Iolk aholisi esa yigitcha bilan ko‘rishib, uni otasining uyiga boshlab boribdi.

Keksa Ezon to‘ng‘ich o‘g‘lining baquvvat va go‘zal yigit bo‘lganini ko‘rib, sevinganidan yig‘lab yuboribdi. Shu kuni Ezonning uyida hushchaqchaq bazm avjiga chiqibdi, barcha qarindosh-urug‘ va do‘stlari Yasonning qaytib kelganini bayram qilishibdi. Bu to‘y-tomoshada yolg‘iz Peliygina ko‘rinmabdi. U o‘z saroyida qayg‘uga cho‘mib, Yasonning kelishini bezovtalik bilan kutar va undan qanday qilib qutulish yo‘lini o‘ylar ekan.

Yason qarindosh-urug'lari va do'stlari bilan kirib kelganda shoh yana ham qo'rqib ketibdi.

- Men sen bilan urishgani kelganim yo'q, - debdi Yason Peliyga. - Biz bir-birimizga begona emasmiz, qonimiz bir: sen otamning ukasisan, amakimsan. Men o'tradagi ixtilofni qilich bilan emas, totuvlik bilan hal qilishni istayman. Zo'rlik bilan tortib olgan mamlakatni o'z ixtiyorin bilan menga qaytar, shunda men sening butun boylingingni, sen hosil yig'ib oladigan yerlarni, podangni va yilqilaringning hammasini, aravangni, saroyingni, qimmatbaho liboslaringni o'zingga qoldiraman. O'zing yoshingni yashab, oshingni oshab, ma'murchilikda, osoyishtalikda yashaysan, senga va bolalaringga qo'l tekkizmayman.

Biroq makkor Peliy Yasonga shunday javob beribdi.

- Sen haqsan, Ezonning o'g'li, sen talab qilgan narsani berishga roziman. Biroq uni bekordan bekorga olishing insofdan bo'larmikin? Men lolkda yigirma yil hukmronlik qildim, shu yillar ichida shohlik qilishga haq-huquq orttirdim. Uni shundaygina qo'limga tutqazib qo'ya qoladi, deysanmi?! Yason, sen yoshsan, ayni kuchga to'lgan vaqting, menga bir xizmat qilsang na bo'lur? Bir necha yildan beri xunrezlik alami yuragimga toshday qadalib yotibdi. Hali o'zing aytding-ku, biz bir-birimizga begona emasmiz ...

- Buyur! - debdi Yason mag'rur. - Amringni bajo etishga va'da beraman.

- Quloq sol! - debdi Peliy. - Oltin junli teri to'g'risida hech narsa bilasanmi? Friksning otasi bilan bobong, otang bilan mendek aka-uka ekanligidan xabaring bormi? Kolxidada Friksning holi nima kechganini bilasanmi?

Shundan so'ng Peliy Yasonga: shoh Eyet avval Friksni sevganini, katta qizi Xalkiopani unga berib, o'ziga voris qilib tayinlaganini aytib beribdi. Biroq keyinchalik Eyet yana uylanibdi, yangi xotini unga Apsirt nomli o'g'il tug'ib beribdi. Shunda shoh Friksga Kolxidadan chiqib ketishini buyuribdi. Friks shohdan oltin junli terini qaytarib berishni so'rabdi. Eyet bu gapni eshitgach, benihoya g'azab talvasasida kuyovini o'ldirib qo'yibdi.

- Friksning ruhi menga tinchlik bermaydi, - deb davom etibdi Peliy o'zini g'amgin qilib ko'rsatib, u kechalari kelib, mendan Kolxidaga borib, Eyetdan oltin junli terini tortib olishni so'raydi. Biroq men qarib qoldim, bunday uzoq safarga chiqishga kuch-quvvatim yo'q. Bu ishni sen

bajarishing kerak, Yason! Oltin junli terini olib kel, shunda sen Friksning o'chini olgan bo'lasan va ona vataningni dunyodagi hamma mamlakatlardan badavlat qilasan, men bo'lsam Iolk taxtini jon deb senga topshiraman.

Makkor Peliy Yasonga shunday debdi, ichida esa:

«O'z o'limingni izlab yo'lga chiq! Bir joyda emas, bir joyda - quturgan dengizdami, begona qirg'oqdamni yoki yovuz Eyet huzuridami - ishqilib, uni topasan, Ezonning o'g'li. Oltin junli terini qo'lga kiritolmaganingdek, Iolkni ham qayta ko'rmaysan!» debdi.

Yason xatarli, og'ir safarga hozirlik ko'ra boshlabdi.

To'lqinli uchta dengizdan suzib o'tib, Kolxidaga yetib borish uchun haligacha Gretsiyada bo'limgan katta, tezyurar va mustahkam kema kerak ekan. Katta kemada uzoq safarga borish, oltin junli terini kuch yoki hiyla bilan qo'lga kiritish uchun Yasonga jasur, kuchli, hamrohlar - dengizchi va jangchilar kerak ekan¹.

Shunday qilib, Yason uzoq Kolxidlar yurtidan, olis Kavkaz tog'lari etaklaridan oltin junli terini olib kelish uchun mashaqqatli va xatarli safarga otlanadi.

GIRKANIYA

O'rta Osiyodagi o'lklalar ichida Girkaniya ham o'zining go'zal tabiatining maftunkorligi bilan ajralib turardi. Girkaniya, Marg'iyona, So'g'diyona, Baqtriya kabi ellarning qadim o'tmishdagi qismati ham bir bo'lgan. Bu elatlar antik zamonlardayoq zardushtiylik diniga sig'inganlar. Ularning turmush tarzi, urf-odatida ham ko'p jihatdan o'xshashliklar mavjud edi. Bu yerdagи qabilalar asosan chorvachilik bilan shug'ullanib, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lib yashardi. Girkanlar So'g'diyona yerlariga, So'g'dlar Girkaniya tomonga ham o'tib yashashgan. Qo'y-qo'zilarini boqishib, bir yaylovda o'tov qurishgan. Bir dasturxonadan taom yeb, sut-qatiq ichishgan.

Hozirgacha olimlar, qadim zamonlarda massaget, shak qabilalari Girkaniyada yashaganmi, marg'iyonalikmi yoki so'g'diyonalikmi, aniqlay

¹ Ellada qahramonlari. Toshkent, «Yosh gvardiya» nashriyoti, 1976.

olmay, qizg'in tortishmoqdalar. Ba'zi bir etnograflar bu qabilalar hozirgi Turkmaniston respublikasida yashagan desalar, boshqa birlari hozirgi O'zbekistonning ichkarisida yashagan deydilar. Ayrimlari Qoraqalpog'iston, Xorazm yerlariga olib borib qo'yishadi. Muhim shundaki, massaget, shak qabilalari qadimgi eng yirik elatlardan bo'lib, ularning vatani hozirgi O'rta Osiyo yerlari edi. Eron shohlari Kir, Doro O'rta Osiyodagi hamma viloyatlarni o'ziga bo'ysundiradi. Bu yerdagi barcha qabilalar ulkan Ahmoniyalar davlatiga qaram bo'lib, qariyb uch asr (eramizdan avvalgi VI-IV asrlar) Eron shohlarining qo'l ostida bo'ladi. Ba'zan bu qabilalar birlashib, boj-xiroj to'lashdan bosh tortib, istilochilarga qarshi kurashar edilar. Buning yorqin misoli sifatida Eron shohi Kirning massagetlar tomonidan tor-mor etilishi bo'lsa, shak qabilalari tomonidan Doro qo'shinlarining mag'lubiyatga uchrashidir.

Aleksandr o'z qo'shinlari bilan Girkaniya yerlariga kirib kelar ekan, bu yerdagi qabilalarning nihoyatda jangovar ekanligi haqida eshitadi. Girkaniya bir tomonidan Kaspiy dengizi bilan tutashib, dengiz bo'ylab Kavkaz tog'larigacha, ikkinchi tomonidan Oks daryosigacha cho'zilib ketgan bepoyon yerlarni o'z ichiga olardi. Aytishlaricha, Aleksandr Makedonskiydan yengilgan shoh Doro Kadomon ham Girkaniya tomonga chekinadi. Mana shu Girkaniya yerlarida Baqtriya hokimi Bessning sharqqa yurishi tasvirlangan asarlarda Girkaniyaning antik davriga keng izoh beriladi.

Kursiy Ruf o'zining «Aleksandr Makedonskiy tarixi» asarida Girkaniyaning faqat tabiatini, u yerdagi daryolar va tog'lar tasvirini berib qolmasdan, balki Kaspiy bo'ylarida yashovchi xalqlar hayotini va u yerlarda bo'lib o'tgan tarixiy voqealarni ham katta qiziqish bilan ifodalaydi. Girkaniyada yashovchi qabila va elatlarning turmushi, yashash sharoitlari ham yozuvchining e'tiborida turadi. Bu qabilalarning o'yikrlari, yashash tarzi, ayniqsa, Aleksandrga munosabati o'quvchini hayratga soladi.

Aleksandr Eriyiga yukni dala yo'li bilan olib ketish uchun bir otryad berdi.

Aleksandrning o'zi esa 150 chaqirim yurganidan keyin piyoda va otliq askari bilan Girkaniyaga yaqin joydagi bir vodiyya joylashdi. U yerda qalin o'rmon bo'lib, qoyalardan tushgan suv hisobiga daraxtlar o'sar edi.

Tog'ning etagida Ziobet degan daryo oqib, qoyalarga urilishi natijasida 2 irmoqqa bo'linadi.

Irmoqdan biri birdaniga yer tagiga qarab oqardi. Bu daryo 300 chaqirimgacha yer tagidan oqib, yana yer yuziga chiqardi. Uning kengligi 13 chaqirim edi, keyinchalik torayib, Ridagi daryosiga quyilar ekan.

Kursiy Ruf xuddi shunday holatning, ya'ni Politimet daryosi bo'yalarida ham borligiga ishonch hosil qiladi.

Yerli aholining aytishicha, daryoning yer tagiga oqish joyida boshlangan narsalar yer tagi orqali oqib boshqa joydan chiqar ekan. Aleksandr bu sirli voqeani ikkita ho'kiz tashlab sinab ko'radi.

To'rtinchi kuni lashkarlar shu yerda dam olishadi, shu kuni Bess bilan Doroni bosib olgan Nabarzandan shoh xat oladi. Xatda yozilishicha, Nabarzan Doroning dushmani emas, balki u Doroga foydali maslahat beradi. Biroq shu maslahatgo'yligi uchun uning o'limga mahkum qilinishiga sal qoldi. Doro go'yo o'z himoyasini kelgindilarga ishongan holda, o'z odamlarining sodiqligini inkor etdi. Bu sodiqlik 230 kun davom etadi. Uning o'zi xavfli vaziyatda turib, kerakli zarur choralarini qabul qiladi.

Agar Aleksandr chaqirsa, qo'rmasdan uning huzuriga kelishi mumkin. U qo'rqlaydi, chunki shunday buyuk shoh va'dasini buzmas axir. Shoh misoli bir xudo, alday olmaydi. Agarda Aleksandr unga ishonmasa, quvg'in qilishi mumkin. Jasur odam qaysi joyni tanlasa, o'sha yer u uchun vatan bo'ladi. Aleksandr ikkilanib, forslarga, agar Nabarzan kelsa unga teginmaslikka va'da berdi. Bu vaqtida shoh qo'shini qalin saflanib yo'lda davom etar edi. Shoh gohida o'zining ishonchli odamlarini razvedkaga yuboradi.

Oldinda yengil qurollanganlar, keyin piyodalar, ulardan keyin esa yuklar borardi. Bu mamlakat aholisining urushqoqligi va tabiatining injiqligi shohni doimo sergak bo'lishga majbur qiladi.

Bu ulkan tekislik Kaspiy dengizigacha borar edi. Uning chap tomonida kerketlar, mossinlar va xalivilarning yerlari bo'lib, o'ng tomonda, g'arbda levkosirlar, shimolda amazonkalar yashar edi. Boshqa dengizlarga qaraganda Kaspiyning suvi unchalik sho'r bo'lmay, unda ulkan ilonlar, rang-barang qanotli baliqlar bor edi. Birovlar buni Kaspiy dengizi deyishsa, boshqalar esa Girkaniya dengizi deyishadi, ba'zilar esa bu dengizga Meotiy botqoqliklari quyiladi deyishgan. Boshqa birovlar bu Kaspiy dengizi emas, balki bu Hindistondan Girkaniyaga yo'l ochgan okeanning o'zi deyishgan.

Shu yerdan shoh yana 20 chaqirim ichkariga kiradi. Yo'lda daryo, o'rmonlar xalaqit beradi, lekin dushman ko'rmasdi. Bu mamlakat mevali daraxtlarga boy bo'lib, yeri uzum yetishtirishga moslashgandi. Bu yerda qayinga o'xhash daraxtlar o'sib, ular o'zidan asal chiqarardi. Agar aholi bu asalni quyosh chiqqunga qadar yig'masa, u yo'q bo'lib qolardi.

Shu yerdan Aleksandr yana 30 chaqirim yurdi va Frataferni uchratib, uni qabul qiladi, so'ngra Arva shahriga keladi. Shu shaharda u Krater va Erigey bilan qo'shiladi. Ular tapurlar qabilasining boshlig'i Fradatni olib kelishadi. Aleksandr uni ham yaxshi qabul qiladi. Keyin u Girkaniyaning hokimi qilib Manapni tayinlaydi. U shoh Oh (Eron shohi) davrida quvg'in qilinib, so'ngra Fili ppga arz qilib kelgan edi. Tapurlarning boshlig'i qilib Aleksandr yana Fradatning o'zini tayinlaydi.

Doroga sodiq bo'lган Artabaz ham o'z bolalari bilan shohni izzatikrom bilan kutib oladi. Bu o'lkа Girkaniyaning chekka vodiylaridan edi¹. Shoh Artabazga o'ng qo'lini berib ko'rishadi. Chunki u shoh Oh davrida quvg'inlikda yurganida Fili ppning dargohida mehmon bo'lgandi.

«Men xudodan iltijo qilamanki, sen shoh, abadiy baxtga ega bo'lgin, men o'zim baxtliman, lekin qarilik o'ylantiradi, sening yaxshiliklarining ko'ra olmay qolaman», - deydi Artabaz shohning marhamatini ko'rib sevinganidan.

Artabaz 95 yoshda bo'lib, 9 ta o'g'li bor edi. Ularni shohning ixtiyoriga topshirib, sadoqat bilan xizmat qilishini aytadi. Shoh, odatda, piyoda yurar edi, lekin bu safar keksa Artabaz uyalmaslik uchun o'ziga va Artabazga ot keltirishni buyurdi. Lagerdan chiqqandan keyin shoh Artabaz olib kelgan greklarni yig'moqchi bo'ldi. Lekin ular rad javobini berib, lakonliklar himoya qilinmasa, nima qilishni o'zimiz bilamiz deyishdi.

Ular Doro davrida lakonliklarning elchisi bo'lib, uning mag'lubiyatidan keyin eronliklar qo'li ostidagi grek mardikorlariga qo'shilishgan edi. Shoh ularga oldindan hech qanday va'da bermasdan, o'z huzuriga taklif qildi va o'z taqdirini o'zlar hal qilishini aytadi. Shundagina ular zo'rg'a kelishga va'da berishadi.

Ammo afinalik Demokrat o'zini o'zi qilich bilan o'ldiradi, chunki u ham doim makedoniyaliklar istilosiga qarshi chiqqan bo'lib Makedoniya

¹ Ayrim manbalarda Artabaz Baqtriya hokimi edi deyiladi.

shohining kechirishiga ko‘zi yetmasdi. Qolgan barcha greklar Aleksandrga bo‘ysunishdi. Ular jami 1500 jangchi va Doroga elchi qilib yuborilgan 90 kishi edi¹.

Keyin u Artabazni uyiga izzat-ikrom bilan qo‘yib yuboradi va o‘zi Girkaniya shahriga yetib keladi. Bu yerda Doroning saroyi bo‘lib, Nabarzan shohni izzat-ikrom bilan kutib oladi. Ular ichida Doro yaxshi ko‘rgan go‘zal Bagoas bor edi. Keyinchalik Aleksandr ham bu go‘zalni yaxshi ko‘rib qolib, uning iltimosiga ko‘ra Nabarzanni kechirgani.

Plutarx tasvirida berilishicha, Aleksandr Girkaniya tomon yurish boshlaydi. Dastlab u Gekatompilomga kelib to‘xtaydi va shu yerda jangchilar dam olishadi. Bu yer juda boy o‘lka bo‘lib, odam yashashi uchun hamma sharoit mavjud edi. Shundan keyin yana 150 stadiya yurib ulkan tog‘ yonida to‘xtaydi. Bu tog‘ yonbag‘rida bir g‘or bo‘lib, bu g‘orni xudolar joyi deb atashardi. Shu yerdan Stivoit daryosi boshlanib, uch stadiydan keyin yuqoridagi ulkan toshga urilib, sharshara bo‘lib yer tagiga singib ketar va 300 stadiy yer osti bo‘ylab oqib, yana yer ustiga chiqar edi. Xuddi shu yerdan Aleksandr yurishini davom ettirib, Girkaniya hududiga kiradi va Kaspiy dengizigacha bo‘lgan hamma shaharlarni o‘ziga bo‘ysundiradi. Aytishlariga qaraganda, bu yetti dengizda ulkan ilonlar va baliqlar bo‘lgan ekan. Bu yerlar ham juda boy va hosildor yerlar bo‘lib, asosan uzumzorlarni tashkil qilar va vino yetishtirildi. Shuningdek, bug‘doyzorlar va barglaridan asal oqib turuvchi daraxtlar ham ko‘p edi. Yana Anfridon deb ataluvchi uchar hayvonlar va asalarilar ham ko‘p edi. Aleksandr Girkaniya va unga qo‘shti bo‘lgan xalqlar orasida yurganida Doro bilan qochgan sobiq harbiy boshliqlar unga ixtiyoriy ravishda bo‘ysunadilar. Aleksandr Doro qo‘shtinining sobiq harbiylaridan 1500 ga yaqin kishini yaxshi kutib olib, ularni jazolamaydi.

Kursiy ta’kidlashicha, Doro Girkaniyaga qarashli bo‘lgan Dranglar yurtida o‘ldiriladi. Dranglar yurtining hokimi o‘shanda Barzaent bo‘lib, u Bess bilan pinhona til biriktirib, Doroni o‘ldirishda ishtirot etgan edi. Keyinchalik Barzaent Aleksandrning xoin Bessni ta’qib qilayotganini eshitib, Doroga qilingan suiqaasdning ishtirotkchisi bo‘lganligi uchun siri fosh bo‘lib qolishidan qo‘rqib, Hindiston tomon qochib ketadi.²

¹ Kursiy Ruf. O‘sha asar, 207- bet.

² Kursiy Ruf. O‘sha asar, 217- bet

Boshqa bir manbalarda Girkaniya yerlarida, xususan, uning Drongis shahrida yaqin jangchilaridan biri Dimi Aleksandrga fitna uyuşhtirilgani ta'kidlanadi¹.

Boshqa bir manbada esa, Aleksandr Girkaniya yerlarida o'z jangchilariga qarata nutq so'zlab, ularni Osiyoning ichkarisi tomon jangni davom ettirishga undaydi. Bu haqda Plutarxning fikrlari diqqatga sazovordir.

Aleksandr hamisha makedoniyaliklarning ruhi tushib, safarni davom ettirishdan bosh tortmasa, deb qo'rqardi. U o'zi bilan Girkanda bo'lgan eng yaxshi yigirma ming piyoda va uch ming otliq askarga murojaat qiladi. Varvarlar, makedoniyaliklarni xuddi tushlarida ko'rganday ko'rishadi. Agar endi ular Osiyoni o'z safar rejalariga kirlitsa, varvarlar ularga xuddi xotinlarga hujum qilganday dahshat bilan hujum qilishadi. Agar kimning ketgisi kelsa, uning yo'li to'silmaydi. Lekin xudolar makedoniyaliklar uni o'z xohishlari bilan tashlab ketishganining guvohi bo'lishsin. U makedoniyaliklarga butun dunyoni bosib olmoqchi ekanligi haqida gapiradi. Taxminan shu gaplarni Aleksandr xatida Anti patragaham yozadi. Uning yozishicha, shoh o'z gaplarini tugatgandan so'ng, jangchilar unga dunyoning chetigacha bo'lsa ham u bilan birga borishlarini aytishibdi. Jangchilarning bu qismini ko'ndirgandan keyin, qolgan askarlar ham shoh ortidan borishga tayyor ekanliklarini bildirishadi.

Albatta, qo'shinni bunday bardamlikka, ruhan tetiklikka undovchi mutqlarni Aleksandr ko'p marta so'zlagan. Ularning ayrimlarigina tarixiy hujjatlarda saqlanib qolgan, xolos.

Aleksandr Girkaniyada turib, yaqindagina bosib olgan Parfiya, Midiya o'lkalari va Eron bilan ham aloqasini uzmaydi. Bu o'lkalarga yangi hokimliklar tayinlar, qo'shimcha kuchlar yuborib, to'plangan boyliklarni o'zi asos solgan Aleksandriya shahriga yuborib turar, Makedoniya bilan Girkaniya o'rtasida to'xtovsiz karvon qatnay boshlagan edi.

Aleksandr So'g'diyona tomon yurish boshlashdan avval Girkaniyada katta qo'shin to'plab, o'z kuchlarini ancha mustahkamlab oladi. Makedoniya va Gretsiyadan yangi kuchlar kelib qo'shiladi. Chunki So'g'diyonadagi qabilalarning nihoyatda jangovar va vatanparvar ekanliklari haqida Aleksandr ko'plab rivoyatlar eshitgandi.

Girkaniya yerlari ham bepoyon bo'lib, bu o'lkada asosan massaget qabilalari yashardi. Massagetlar bir vaqtlar hatto Parfiya va Midiyani

¹ Diodor. O'sha asar, 110- bet.

ham o'zlariga qaram qilib olgan edi. Keyinchalik Parfiya va Midiya shohligi ajralib chiqadi.

Aleksandr mahalliy xalqning urf-odatini qabul qilishni Girkaniya va hatto Midiya, Parfiya yerlaridanoq boshlagan edi. Keyinchalik So'g'diyona va Baqtriyada bu ishni oxiriga yetkazadi. Shuning uchun ham, ayrim tarixchilar Aleksandr mahalliy xalqning urf-odatini faqat So'g'diyonada joriy etgan edi, deganda haq emas. Fikrimizning dalili uchun quyidagi dalilga murojaat qilishimiz mumkin. Kursiy Rufning ta'kidlashicha, dam olish va harakatsizlikdan ko'ra ko'proq harbiy ishlarni yoqtirgan Aleksandr ko'p vaqtlarini maishatga sarf qiladigan bo'lib qoladi. Vaqt-bevaqt kechasi bilan ichkilikbozlik va aysh-ishratni odat qiladi.

Bu odatni yaxshi qabul qilmayotgan qabiladoshlarini shoh urishar, bu esa ularga yoqmas edi. O'z urf-odatlariga sodiq odamlarni shoh bo'ysundirilgan o'zga qabilalar ichiga aralashtiradi. Shuning uchun jangchilar tomonidan norozilik va shikoyatlar bo'ladi. Bundan Aleksandr goh gumonsirar, goh g'azablanar edi. Shoh Gretsiyadan keltirilgan xushovozlarga qanoat qilmasdan, asirga olingan ayollarni qo'shiq aytishga majbur qilar edi. Shu ayollar ichida bittasi o'zining go'zalligi, kamtarligi bilan shohni o'ziga jalb etadi, uning ko'zlaridan, yuzidan yuqori tabaqa dan ekanligi bilinib turar edi. Shoh so'rab bildiki, u forslar shohi Ohning nabirasi Gustaspning xotini ekan. Gustasp Doroning qarindoshi bo'lib, katta qo'shinni boshqarar edi. Buni eshitgan shoh bu ayolni tutqunlikdan ozod qiladi va erini topishda yordam beradi. Ertasi kuni shoh Gefestionga asirlarni saroyga yig'ishni aytadi. Bu yerda u yuqori tabaqali odamlarni ajratadi. Bundaylar 1000 ta bo'lib, ular ichida Doroning ukasi Oksafr ham bor edi. Qo'lga tushirilgan o'lja 26000 talant puldan iborat bo'lib, 12000 ini shoh lashkarlariga sovg'a uchun sarf qiladi, xuddi shuncha pulni qo'riqlayotgan odamlarning o'zları o'g'irlab ketgandi.

Oksidat eronlik shahzoda bo'lib, Doro uni qatl etish uchun ushlab turgan edi. Aleksandr uni ozod qilib, Midiyaga hokim qilib qo'yadi. Doroning ukasi Oksafrni esa o'z do'stlari safiga qo'shib oladi. Shoh bu yerdan ilgari unchalik mashhur bo'Imagan, hozir esa Tigr va Efrat daryosidan to Qizil dengizigacha bo'lgan joydag'i xalqlar ustidan boshchilik qilayotgan Parfiyaga qarab jo'naydi. Bu yerlardagi tekis va hosildor joylarni skiflar egallab olgan bo'lib, ular xavfli qo'shni edi¹. Ular Yevropa va

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 197- bet.

Osiyoda yashar edilar. Bosforning nariji tomonidagilar osiyoliklar bo'lib, Yevropada yashaydiganlar esa Frakiya chegarasidan Borisfengacha va undan Tanais daryosigacha cho'zilgan edi. Tanais Yevropa va Osiyo o'rtaida oqar edi.

Shunday qilib, Aleksandr Girkaniya yerlarida uzoq turib qolmasdan Oks daryosi tomon yurishni davom ettiradi. Girkaniya yerlarida mahalliy qabilalarning qattiq qarshiligiga uchramagan Aleksandr qo'shinlarini So'g'dlar katta tayyorgarlik bilan kutib turishardi.

Yustinning «Pompey Trog epitomi» asarida Parfiya haqida ham qiziq epizodlarni o'qiyimiz. Ma'lumki, Midiya va Parfiya yerlari Girkaniyaga vaqin edi. «Hatto parfiyaliklar tili, - deb yozilgan yuqoridagi asarda - midiyaliklar bilan skiflar tilining aralashmasidan iborat edi». Ma'lumki, skiflar Girkaniya va Midiya yerlarida ham yashar edi. Tarixiy manbalarda ta'kidlanishicha, hatto qachonlardir Parfiya, Midiya, Girkaniya yerlari birlashib, bir shohlikka qaram bo'lgan.

Shuningdek, parfiyaliklar bilan skiflar o'rtaida tez-tez jang-u jadallar bo'lib turgan.

Bu o'rinda «Pompey Trog epitomi» asaridagi lavhalarga alohida to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi.

Parfiyaliklar otlarda shiddat bilan jang qiladilar. Goh dushmanga to'satdan hamla qilib, goh orqaga chekinib, ko'pincha orqaga qo'chganlarida mahorat bilan harakat qilishardi. Chunki quvib kelayotganlar, odatda, ehtiyyotsiz bo'lishadi, ularga favqulodda zarba berish qulayroqdir.

Parfiya podshosi Mitridat o'limidan keyin uning o'g'li Fraat taxtga o'tiradi. Parfiya podsholigini egallagan Fraat Antioxdan qasos olish maqsadida Suriyaga qarshi urush boshlashga qaror qiladi. Ammo skiflarning hujumi uni o'z davlatini himoya qilish uchun Parfiyaga qaytishga majbur qiladi. Antioxga qarshi urushga qatnashish uchun skiflar parfiyaliklar qo'shiniga yordamga chaqirilgan edi. Ammo skiflar belgilangan muddatdan ancha kechikib yetib kelishdi. Skiflarni shartnomaga muddatini buzib, kechikib kelganligi uchun ayblashib, urushga qatnashish uchun belgilangan haqni to'lashmaydilar. Norozi bo'lgan skiflar o'z haqini talab qilib urush boshlaydilar. Shuning uchun Fraat ularga qarshi yurish qilib, davlatni boshqarib turish uchun Gimerni qoldiradi. Gimer vaqtincha hokimiyatni boshqarib turganini unutib, zolimlik yo'liga o'tadi va Bobil bilan boshqa shaharlar aholisini siqib talay boshladи. Fraatning o'zi

qo'shiniga Antiox bilan bo'lgan jangda asirga tushgan greklarni olgan edi. U qo'shinidagi grek asirlarining o'ziga bo'lgan dushmanlik kayfiyatini unutgandi. Shuning uchun greklar parfiyaliklarning jangovarlik holati susayganini sezib, dushman tarafga qochib o'tadilar va shiddatli to'qnashuvda parfiyaliklarni tor-mor qilib, Fraatni o'ldiradilar.

Fraat o'miga Parfiya podshohligiga uning otasi tomondan amakisi Artaban qo'yiladi. Skiflar esa o'z g'alabalari bilan chegaralaranib qolmasdan, Parfiyani talon-taroj qilib, o'z yurtlariga qaytadilar. Artaban toxarlar eliga hujum qilib, ikki o'rtada bo'lgan og'ir jangda qo'lidan yaralanadi va tez orada vafot etadi.

Undan keyin shohlik taxtiga janglarda qahramonlik ko'rsatib ulug' sarkarda laqabini olgan o'g'li Mitridat chiqadi. Qo'shni davlatlar bilan bo'lgan ko'pgina urushlarda g'olib chiqib, u Parfiya podsholigiga ko'plab elatlarni birlashtiradi. Bir necha bor skiflar bilan ham muvaffaqiyatli janglar qilib, o'z avlodlari uchun qasos oladi. Nihoyat u arman podshosi Artoasdo bilan urush boshlaydi. Bu o'rinda keltirilgan qiyosiy misollar bir-biriga o'xhashligidan o'quvchi ajablanmasligi kerak. Biz turli manbalardan olingan bir mavzu haqidagi ma'lumotlarni aslida qanday bo'lsa, shundayligicha keltirishni lozim topdik.

FITNA

Aleksandrning hayoti hech bir qarama-qarshiliksiz, silliqqina o'tgan deya olmaymiz. Faqat o'lkalarni bosib olish, xalqlarni bo'ysundirish uning hayotining mazmuni bo'lib qolmay, balki taqdiri keskin qarama-qarshiliklar, xavf-xatarlar girdobida aylanardi. Har qadamda uni fojia, dahshatli o'lim kutib turardi. Biroq u bu qarama-qarshilik, pinhoniy fitna to'siqlarni yengib, xoinlik hanjarlarini sindirib olg'a tomon harakat qilardi. Shu jihatdan Aleksandr kuchli iroda egasi bo'lgan. Ayniqsa, xarakteridagi ruhiy bardoshlilik va matonat uni hamma vaqt g'alabaga yetaklagan.

Bu o'rinda Aleksandrni o'ldirish uchun tayyorlangan bir fitna tarixiga to'xtalib o'tishimiz mumkin.

Kursiy Rufning ta'kidlashicha, Aleksandr Girkaniyadan Baqtriyaga o'zini Artakserks deb nomlagan Bessga qarshi jangga borar ekan, unga yana qo'shimcha kuchlar yetib keladi: Zonl o'zi bilan Gretsiyadan 500 jangchi; Antipair esa Illiriyadan 300 jangchi yuboradi. Fili pp

bilan 130 fessal chavandozi, Lidiyadan 2600 piyoda jangchi va 300 otliq askar keladi. Bu kuchni qabul qilgan shoh dranglar yurtiga qarab jo'naydi. O'rta Osiyoda Aleksandr faqat tashqi dushman xavfi ostida bo'lmasdan o'z qo'shini ichida ham fitnachilar borligini sezib qoladi. Jumladan, shohga qarshi tayyorlangan fitnani Kursiy Ruf o'z asarida g'oyat hayajonli lavhalarda bayon qiladi. Quyida shu xususdagi tarixiy voqeaga qisman to'xtalib o'tamiz.

Dranglar yurtida shoh to'qqiz kun dushman xavfi bilan yashar ekan, o'z lashkarlari orasidan ichki dushman ham chiqadi. Bu shohning yaqinlaridan biri Dimn edi. U bir kuni Nikomaxni chaqirib, agar sotqinlik qilmasa, unga bir sirni ochishini aytadi. Nikomax xudoni o'rtaga qo'yib qasamyod qiladi. Shunda Dimn shohga qarshi fitna uyuştirilayotganini va bu yo'lda uning ham ko'magi kerakligini aytadi. Buni eshitgan Nikomax rozi bo'lmaydi. Shunda Dimn unga yalina boshlaydi va mabodo qatnashmasa ham bu haqda hech kimga aytmasligini iltimos qiladi.

Hatto u Nikomaxni qo'rqtib, agar u sotsa, yoki qatnashmasa birinchi bo'lib uni o'ldirishlarini, agar qatnashsa katta boylik berajagini va'da qiladi.

Dimn jahl qilib, qilich bilan goh o'zini, goh Nikomaxni o'lirmoqchi bo'lib, nihoyat uni ko'ndiradi. Yuzaki rozilik bildirgan Nikomax undan boshqa fitnachilarni ham so'rab oladi. Dimn fitnachilarni birma-bir aytib beradi.

Bular Demetriy - shohning shaxsiy qo'riqchisi, Pevjolay, Afobeta, Iolay, Dioksen, Arxetopis va Aminta edi.

Shundan so'ng Nikomax hamma gapni akasi Kebalinga aytadi. Shunda Kebalin Nikomaxga boshqalarda shubha paydo bo'lmasligi uchun shoh chodiriga yaqin bormaslikni tayinlaydi. Kebalining shoh bilan uchrasha olmasligi tayin edi. Shunda u bu gapni Filotga aytib, shohga yetkazishga buyuradi. Filot uni maqtab Aleksandr huzuriga kiradi, lekin boshqa gaplar bilan chalg'ishib, dardini aytmay chiqadi. Ikkinchı marta ham shoshib qolib esdan chiqaradi.

Kebalin yana bir bor Filotga eslatса ham baribir aytolmaydi. Shunda Kebalin Filotdan xavfsirab, bu sirni - ombor mudiri Metrenga ma'lum qiladi.

U Kebalinni omborga yashirib, fitna haqidagi xabarni darrov shohga yetkazadi, bu sirni Kebalin aytganligini bildiradi.

Shoh Dimnni hibsga olishni buyurib, o'zi Kebalining oldiga boradi. Kebalin uni xursand holda kutib olib, «Men seni tirik ko'rganimdan

xursandman» deydi. Aleksandr hamma narsani bat afsil undan so'rab oladi. Bunga necha kun bo'lgan degan savolga, Kebalin 3 kun deb javob beradi. Shuncha kundan buyon aytmagani uchun Kebalinni shoh yana qamab qo'yadi. Lekin Kebalin darrov Filotga aytgan edim, u esa aytmay yuribdi, undan so'rang deb qichqira boshlaydi.

Shoh qayta-qayta Kebalindan so'raganida ham Filotga aytganini ta'kidlaydi. Shunda shoh qachonlardir do'sti bo'lgan Filotning bu xoinligiga chiday olmay osmonga qarab nola qila boshlaydi.

Shoh nima uchun chaqirganini bilgan Dimn qilich bilan o'zini yarador qiladi. Shunda menga qarshi qanday jinoyat o'ylab topding, Dimn, - deydi shoh, unga g'azab bilan qarab, - mening o'rnimga Filotni Makedoniyaga hukmdor qilmoqchi bo'ldingmi? Dimn esa gapira olmay, hushidan ketib o'ladi.

Shoh Filotni huzuriga chaqirib, Kebalinning fitna haqida aytgan xabarini nega yashirib yurgani sababini so'raydi. Kebalin, haqiqatan ham, fitna haqida unga aytganini Filot tan olib, bu gapga unchalik ishonmagani, chaqimchilik qilmaslik uchun aytmaganini ma'lum qiladi va shohni quchib yig'lamsirab, bu xatosi uchun kechirim so'raydi.

Shoh do'stlar yig'iniga Filotni chaqirmsandan Nikomaxni taklif qiladi. U akasi Kebalinning gaplarini to'la-to'kis qaytaradi, Krater ham Filotni unchalik yoqtirmas edi. Chunki u Filotning shoh oldida maqtanib dimog'dorlik qilishini bilar, unga xavf ostida qarardi. Krater o'zining Filotga nisbatan nafratini yashirib, shohga qarab, agar sen bu haqda avvalroq biz bilan maslahatlashganingda edi, biz seni ogohlantirar edik. Filotga bu gaplarni eslatish kerak emasdi, deydi. U har doim senga qarshi fitna uyushtirishga tayyor. Endi sen unga ishonmasligingni u juda yaxshi biladi.

Yaxshilingiz tufayli mabodo u seni tushunib tinchlansa ham, lekin uning otasi Parmenion - ya'ni sen qatori katta armiyaga ega bo'lgan ulug' odam - o'g'lining hayoti uchun sendan qarzdorligiga beparvo qaramaydi. Ba'zi bir narsalardan biz nafratlanamiz. Hatto o'limni ham tan olishga uyalamiz.

Filot seni kechirdi deb emas, balki xo'rлади deb o'ylaydi. Bilginki, bunday odamlar bilan butun hayoting davomida kurashishingga to'g'ri keladi. Hali senda bizni quvg'in qilishga tayyor dushmanlar yetarlicha. O'zing, eng avvalo, ichki dushmanlardan saqlan. Agar sen ularni uddalay olmasang, tashqi dushmaning bundan foydalanishi hech gap emas.

Shunday deb Krater shohga Filot fitna boshlig‘i yoki qatnashchisi ekanini, shuning uchun ham, bu shum xabarni shohga atay aytmaganligini ma’lum qilib hammani ishontiradi. Filot shohning men bilan gaplashishga vaqt yo‘q deb Kebalinni aldagan edi. Nikomax esa qasam ichgan bo‘lsa ham darhol bu xabarni akasiga yetkazdi, Filot bo‘lsa, shu ikki og‘iz so‘zni shohga aytishga vaqt topa olmabdi. Uning aytishicha, bu gaplarga unchalik ishonmabdi. Unda yolg‘on xabari uchun Kebalinni yo‘q qilish kerak edi. Shohning hayotiga xavf soladigan har qanday mishmishni ham diqqat bilan eshitib, uning tagiga yetish kerak ekanligini Filot tushunmabdi, shekilli. Shunday qilib, Filot va fitnaning boshqa qatnashchilarining ustidan nazorat o‘rnatishga qaror qilindi, Bu qarorni hech kimga aytmaslikni tayinlab, go‘yo yig‘inda ertangi yurish to‘g‘risida gap bo‘ldi degan xabarni chiqardilar. Hatto Filot oxirgi kechaga taklif qilinganda ham shoh u bilan ilgariday do‘stona gaplashardi.

Keyin chiroqlar o‘chib, shohning huzuriga do‘stlari Gefestion, Krater, Ken, Erigey bilan birga bir necha kishi kirdi, shuningdek, shohning shaxsiy qo‘riqchilari Perdikka va Leonnat ham kiradi. Hamma soqchi va qo‘riqchilarga hech kimni Parmenion tomonga chiqib ketishi uchun yo‘l qo‘yilmasin, deb topshiriq berildi. Afarriy shoh chodiriga 300 ta qurollangan jangchilar bilan kiradi.

Sodiq jangchilar fitna qatnashchilarini ushlab kelishga, Afarriy esa 300 odami bilan Filotni ushslashga yuboriladi.

Filotni uxbab yotgan joyida ushslashadi. Qo‘liga kishan solingen Filot shohga qarab: «Mening yovuzligimni baribir sening mehribonliging, shafqating yengdi, o shoh!» - deb boshqa hech narsa demaydi. Ertasi kuni 6000 jangchi shoh huzuriga yig‘iladi. Qurollangan askarlar Filotni to‘sib turar edi. Makedoniyaning urf-odatiga ko‘ra urush hukmini qo‘shinlar, tinchlik vaqtida esa xalq chiqarar edi, shungacha shoh hukmi kuchga kirmasdi.

Shunday qilib, birinchi Dimnning jasadini o‘rtaga qo‘yishdi, lekin ko‘pchilik uning qanday va nima uchun o‘lganini bilmasdi.

Shoh g‘amgin holda uzoq vaqt jim turdi, keyin jangchilarga qarab shunday dedi: «Ba’zi birovlarning jinoyati tufayli sizlarning orangizdan yo‘q bo‘lishimga sal qoladi. Bu yig‘inda sotqinlarga nisbatan qahr-g‘azabimni, meni saqlab qolganlarga minnatdorchiligidagi bildiraman. Hatto bu jinoyatchilarning nomlarini aniq aytishga ham tayyorman. Menden va mening otamdan juda ko‘p yaxshilik ko‘rgan Parmenion bu

fitnaning boshlig'i ekan. U o'g'li Filotni, Pefkolayni, Demetrni va Dimnni shu jinoyatga boshladi».

Bu shum xabarni eshitganlar qalbida qahr-g'azab uyg'onadi. Keyin Nekomaxni, Kebalinni, Mitronni olib kelishdi, ular bo'lgan voqeani aytib berishdi. Shunda shoh davom etib: «Bu xabarni yashirgan odam haqda nima deysiz. Dimn bekorga o'lmaydi. Kebalin qyinoqlardan cho'chimadi, Mitron esa bu xabarni o'z vaqtida yetkazadi. Faqat, Filot o'zini bu xabarga ishonmaslikka solib, mening hayotim xavf ostida ekanligidan beparvo bo'ladi. Chunki u yovuz maqsadni ko'zlagan edi. Midiyani boshqarib turgan otasi yordamida mening o'rninga shoh bo'lmoqchi edi. Hatto u mening farzandim yo'qligini yuzimga solardi.

Lekin u xato qiladi, farzandim o'rniga mana sizlar menga farzand, qarindosh va aka-ukasizlar, sizlar bilan men o'zimni yolg'iz his etmayman.

Shoh keyin Parmenionning o'z o'g'illari Nikonor va Filotga yuborgan xatini o'qib beradi. Xatda shunday deyilgan edi: «Avval o'zlarining, keyin o'zlaringga qarashli odamlarni o'ylang, shunda biz istagan narsamizga erishamiz». Bu maktubning mazmunini faqat o'g'illari tushunadi, boshqa odam esa uning mazmuni nima haqda ekanligiga tushunmaydi, deb shoh qo'shimcha qiladi. «Dimn va boshqalar ham uning ismini aytishga, sotishga qo'rqr edi, lekin hayotning o'zi Filotning sotqinligini ko'rsatdi. Filot Makedoniyada menga qarshi fitna uyushtirgan Aminta bilan do'stlashdi, mening dushmanim bo'lgan Attayaga singlisini berdi. Bularning hammasi uning menga nisbatan dushmanligini, shon-shuhuratimni ko'rolmasligini isbotlab turibdi. Endi esa meni o'ldirmoqchi bo'ldi. Men esa unga juda ishonib eng yaxshi qo'shinga boshliq qilib qo'yib, undan ko'p yaxshiliklar kutgan edim. Sizlar meni qanday yuksakka ko'targan bo'lsalar, men ham uning otasini shunday oliv darajaga ko'tardim. Eng boy mamlakatga hukmdor qilib qo'ydim.

Shunday qabiladoshning qo'lida qurban bo'lgandan ko'ra, bir arzimas dushman qo'lida o'lganim afzaldir. Faqat sizlar mening hayotimni saqlab qolishingiz mumkin»¹. Shundan so'ng Filotni hammaning oldiga olib chiqishadi. Yaqindagina unga havas bilan qarab yurgan odamlar endi unga qahr-g'azab bilan qarar edi. Kechagina otliq qo'shinga sarkarda bo'lib yurgan Filot, bugun esa boshini egib turardi.

¹ Kursiy Ruf. 225—226- betlar.

Yaqindagina ikki o'g'li Gektor va Nikanorni yo'qotgan Parmenionning ham uchinchi o'g'li Filot bilan birga taqdiri yomon bo'lishini hamma sezib turardi. Aminta esa jangchilarni chalg'itmoqchi bo'lib, shunday dedi: «Bizni dushmanga sotishibdi, endi biz ularni yenga olmaymiz. Qurshovda qolib vatanimizga, oilamizga qayta olmaymiz».

Amintaning bu so'zлari shohga yoqmadи.

Shundan keyin Ken Filotning azob chekib o'lganidan ko'ra osongina o'z qo'lida o'lishini afzal bilib, qo'l ko'targan edi, biz unga hali gapirishga imkoniyat berishimiz kerak deb, shoh uning qo'lini ushlab qoladi.

Lekin Filot gapirish u yodqa tursin, hatto boshini ko'tarib, og'zini ham ocholmaydi. Keyin u ko'z yoshlарini oqizib, hushidan ketadi, birozdan so'ng o'ziga keladi. Shunda shoh unga qarab dedi: «Seni makedoniyaliklar sud qiladi, ular bilan o'z ona tilingda gaplasha olasanmi? Shunda Filot javob qaytardi: «Makedoniyaliklardan tashqari boshqa odamlar ham ko'p. Men o'shalarning tilida gapiraman. O'ylaymanki, meni ular tushunadi. Shunda shoh dedi: «Ko'ryapsizlarmi hatto u o'z ona tilini tan olmaydi».

- «Aybsiz gapira olmaydi, aybdor - xohlaganicha gapirishi mumkin, - dedi Filot, - shuning uchun men vijdonimni saqlagan holda bunday og'ir ahvolda o'z his-tuyg'ularimni ifoda eta olmayapman. Meni himoya qiladigan, eshitadigan biron-bir odil sud yo'q. Men nima uchun aybdorligimga hayronman. Fitnachilar qatorida meni hech kim tilga olmadi. Kebalin ham, Nikolax ham ismimni tilga olmadi, Agar men fitnachi bo'lsam, Dimn aytishi kerak edi-ku! Axir, u jinoyat ochilmasdan oldin so'roq qilingan-ku. Axir Kebalin bu xabarni menga aytmaganida, hozir men bu ahvolga tushmagan bo'lardim. Agar Dimn tirik bo'lganida, meni himoya qilgan bo'lar edi. Boshqalar esa o'zini himoya qilish uchun hamma aybni menga ag'darmoqda. Nahotki, aybdorlardan birontasi bor haqiqatni aytmasa, demak, ular hech kimni ayamaydi. To'g'ri, men hali ham aytmaganligimni bo'ynimga olaman. Lekin sen, Aleksandr, menga o'ng qo'lingni berib kechirgan eding-ku! Hatto bayramda ham men bilan birga bo'lding. Agar sen menga ishonganingda edi, shubbalanishga o'rinn qolmasdi. Qanday narsa seni bu qarordan qaytardi? Meni ushlaganlarida qattiq uxbay yotgan edim. Qanday qilib fitnachi shunday uxlaydi? Jinoyatchi tinch uxbay olmaydi.

Bu xabarni yetkazgan yigitchaning aniq dalillari yo'q. Meni kechirganining uchun afsuslanma.

Baxtga qarshi o'sha buzuqi haqida har xil mish-mishlar eshitib, yana o'zi kelib aytmay, akasini yuborgani uchun undan shubhalandim.

Keyinchalik u Kebalinga aytgan gapidan tonishi mumkin, men bo'lsam yolg'onchi bo'lib qolishdan, shoh do'stlarida shubha tug'dirishdan cho'chidim. Hatto men hech kimga teginmasam ham o'limimni xohlovchilar chiqib qolishdi. Aybsizni aybdor deb yolg'on gapirganimda o'zimga qancha dushman orttirgan bo'lardim. Agar men ataylab yashirgan bo'lsam, Kebalinni darhol yo'q qilishim kerak edi-ku!

Agar shohni yo'q qilish niyatida bo'lsam, nega uning huzurida bir o'zim bir necha bor bo'lib, uni yo'q qilmadim. Dimnsiz o'zim hal qila olmasmidim. Demak, u fitna boshlig'i, Filot esa uning soyasida turib Makedoniya taxtini egallamoqchi bo'libdim! Qaysi bir boshliqni qo'lga oldim yoki ularga sovg'a in'om qildim. Meni yana o'z tilini, urf-odatini yo'qotgan deb ayblashyapti. Axir, bizning tilimiz allaqachon muloqotdan chiqqan. Hozir hamma boshqa tillarni o'rganyapti. Aminta bilan do'stligimni inkor etmayman. Shunday martabali odam bilan do'stlashganimga aybdormanmi?

Haqiqatan ham, Yupiter o'g'li deb hisoblangan odamning qo'l ostida qiynalasizlar deb ularga yozgan edim. O, do'stlikka bo'lgan ishonchim chin dildan bergen maslahatlarim uchun shu ahvolga tushdimmi?

Shoh haqida emas, shohning o'ziga yozganimni tan olaman. Men unga nisbatan nafrat uyg'otish uchun emas, balki uning hayoti xavfli ekanligidan qo'rqedim. Yupiterni tan olish Aleksandr uchun loyiq ish deb o'ylardim. Agar hamma Orakulga ishonsa, unda menga xudoning o'zi guvoh bo'lsin. Jinoyat qilmoqchi bo'ldimmi, yo'qmi bu haqda Ammondan so'ragunlaringcha meni kishanda ushlab turinglar.

Agar xudodan ko'ra azoblash qulayroq bo'lsa, haqiqatni bilish uchun, men unga ham tayyormani.

Bunday jinoyatda ayblanganlar, odatda, qarindoshlarini olib kela olmaydi, chunki u ham shu jinoyatda ayblanyapti.

Shuncha o'g'lidan ajralgan otamga endi bu ham bormidi. Uni men bilan birga ko'misharmidi?!

Shunday qilib, aziz otam, sen ham men uchun va men bilan birga o'lasan. Nima uchun meni bu dunyoga keltirding?

Bilmayman, afsuslanishga nima loyiqligini: mening yoshligimmi yoki sening qarilicingmi? Men ayni kuchga to'lgan vaqtimda o'lyapman, seni esa tuhmat kutyapti. Axir, Parmenion Fili pp shohgazahar tayyorlag-

nini bilib qolib, unga bu haqda xat yozgan edi-ku! O'shanda ham otamga ishonishmagan edi. Men ham ko'p narsani yetkazganimda ustimdan kulishardi. Bizdan shunday qilib shubhalanardi. Nima qilishimiz kerak?

Turganlardan biri: «O'z homiylariga fitna uyushtirmaslik kerak» deganda, Filot dedi: «To'g'ri aytasan. Shunday qilib, agar men fitnachi bo'lsam, mening gaplarim sizlarga yoqmayotgan bo'lsa, gapimni tugataman».

Qo'riqlab turganlar uni olib ketishdi.

Sarkardalar ichida Belon ismli oddiy xalq ichidan chiqqan, jasur sarkarda bor edi. Hamma jim turganida, u Filotning boshqa kirdikorlarini ham ayta boshladи.

Filotning oltin ortilgan aravalari turganida u yerga hech kim yaqinlasha olmasdi. U uxlaganida hech kim xalaqit bermasligi kerak edi. Qishloqdan chiqqan jangchilarini Frigiytslar va paflogonlar deb mazax qildi.

Nima uchun u endi Ammonni so'rayapti. U axir Aleksandrni o'g'lim deb tan olgan Yupiterni yolg'onchilikda ayblagan edi-ku! Bu fitnani o'ylaganimda Yupiter bilan maslahatlashmagan edi-ku, endi u nimaga kerak bo'lib qoldi? Bu hiyla bilan faqat u vaqtidan yutmoqchi, otasi yuboradigan yaramaslarni kutmoqchi.

Shunda hamma hayajonlanib qoldi va birinchi bo'lib shaxsiy qo'riqchilar bu yaramasni hoziroq tilka-pora qilish kerak deb baqirdilar. Shoh qaytib kelib, bu ishni yanada chuqurroq o'rganish uchun yig'ilishni boshqa kunga qoldirdi va kech bo'lganiga qaramay, do'stlarini huzuriga chaqirdi. Deyarli hamma Filotni eski Makedoniya odati bo'yicha toshbo'ron qilishni aytди. Lekin Gefestion, Krater va Ken uni azoblab haqiqatni bilish kerak, deb turib olishdi, boshqalar ham ularga qo'shilishdi.

Maslahatdan keyin Gefestion, Krater, Ken Filotni so'roq qilishni davom ettirishadi. Shoh yana bir bor Krater bilan maslahatlashib, dam olish uchun xonasiga ketdi va so'roq natijasini kutdi. Jallodlar Filotga hamma azoblash qurollarini ko'rsatdi. Shunda Filot dedi: «Nima uchun shohning qotilini o'ldirishga shoshilmayapsizlar? Nima qilasizlar azoblab?»

Keyin uning ko'zini bog'lab, chidab bo'lmaydigan azob beradilar. Shunda u xudoning nomini tilga olib, qonunlarga murojaat qiladi.

Uni har qancha qiyashmasin, hatto ovozini ham chiqarmadi. Sen mendan nima eshitishni istaysan, Krater, deb uning ustidan kula boshlaganida g'azablangan Krater jallodni chaqirib yana qyinoqni davom ettirdi. Shunda Filot biroz dam berishini so'ray boshladи va hamma narsani

aytib berishga va'da berdi. Shu payt Parmenionga yaqin bo'lgan otliqlarning bir qismi o'zlarini o'zlari o'ldiradilar, bir qismi qochib ketishadi. Chunki odad bo'yicha Filot o'ldirilsa, unga qarindosh otliqlar va askarlar ham o'limga mahkum etilar edi. Bundan hamma, butun lager vahimaga tushadi. Hatto shoh bunday qilmasligini aytishga ham ulgurmay qoldi.

Shuncha azobdan keyin ham Filot haqiqatni aytarmidi yoki aytmasmidi - bu narsa qorong'i edi. Baribir Filot bir narsani aytdi: «Mening otam Gegelox bilan do'st edi. Bizning hamma baxtsizligimiz shu Gegeloxdan boshlandi. Shoh o'zini Yupiterning o'g'li deb tan olishlarini buyurganida, Gegelox shunday degan edi: «Nahotki biz o'z otasidan voz kechgan shohni tan olamiz? Bunday qilsak biz halok bo'lamiz. Bu bilan biz xudoni ham haqorat qilgan bo'lamiz. Aleksandr ilgarigi Aleksandr emas, balki u endi yovuz bosqinchidir. Agar kim undan o'ch olsa, yaxshi ish qilgan bo'lardi».

Gegelox shunday dedi va ertasi kuni bundan xafa bo'lgan otam meni chaqirdi. Biz ikkovimiz ham hayajonda edik. Gegelox balki bu gaplarni mastlikda aytdimi, deb undan yana bir bor so'radik, u esa hamma gapni qaytardi va agar biz bu ishni boshlasak, u ham bizga yordam berishini aytди.

Gegelox aytgan reja Parmenionga yoqmaydi, chunki hali Doro tirik edi. Agar buni Doro qilmasa, unda shohni kim o'ldirsa evaziga Osiyo va Yevropaga ega bo'lardi. Mana shu reja kelishib olinadi.

Dimn haqida hech narsa bilmayman. Lekin u qatnashchi emas, deganim bilan foydasi yo'q.

Jallodlar uni yanada qiynashib, undan yana ko'proq narsa bilishni istashadi.

Rejani qanday qilib amalga oshirish yo'llarini ham aytib beradi. Bu reja amalga oshishi qiyin bo'lgani uchun Filotning o'zi darhol o'ziga reja tuzadi va bundan Parmenionning xabari yo'qligini aytadi.

Filot jinoyati uchun o'z jazosini olgan bo'lsa-da, ilgari nafrat bilan qaragan jangchilarda uning o'limidan keyin achinish hissi paydo bo'ladi. Bunga uning yoshligi, shon-shuhrati va otasining qariligi sabab edi. Parmenion bиринчи bo'lib shohga Osiyo yo'lini ochib berdi. U janglarda sarkarda bo'lib, barcha qiyinchiliklarni yengar edi. U Fili ppning eng yaqin do'sti bo'lgan. Shunday ma'lumotlar jangchilar orasida tarqaldi va ular tayyorlayotgan qo'zg'olon haqidagi xabar yana shohga yetadi, lekin

shoh bundan hayajonlanmadı, hammani chodiriga yig'di. Atariy shoh bilan kelishgani bo'yicha Aleksandr Linkestani, ya'ni Filotdan oldin shohni o'ldirmoqchi bo'lgan odamni olib kelishni buyuradi. U ikkita guvohning ko'rsatmasiga binoan qo'lga olinib, uch yildan buyon kishanda saqlanar edi. Keyinroq Filli dni o'ldirishda ham qatnashgani ma'lum bo'ladi. Aleksandrni shoh bo'lgani uchun birinchi bo'lib tabrikladi, shuning uchun Aleksandr uni qatl etmadı, lekin aybdorligini kechirmaydi. O'shanda qaynotasi Anti patrning iltimosiga ko'ra, shohning g'azabi pasaygan edi. Lekin Aleksandrning g'azabi yana kuchaydi, bunga bo'lib o'tgan voqealar sabab edi.

Shunday qilib, Aleksandr uni olib kelib so'z berishadi. Uch yil davomida o'zini oqlash uchun tayyorlab qo'yan gaplarini hayajonlanganidan aya olmaydi. Hammaga ma'lum ediki, uni vijdon azobi qiyndi. Shundan so'ng uni jangchilar nayza sanchib o'ldirishadi.

Uning jasadini olishganida shoh Aminta va Simiyani olib kelishlarini buyuradi. Ularning ukasi Palemon qochishga ulgurgandi. Bular Filotning eng yaqin do'stlari bo'lgani uchun, eng yuqori mansablarga qo'yan edi. Shuning uchun ular ham fitna qatnashchilari deb gumon qilinadi. Shoh ulardan shubhalanishini, shuning uchun qo'llarini bog'lab qo'yishni buyuradi. Shubha yo'qli, Filot bilan ular yashirin ravishda uchrashib turgan, ularning ukasi Filotni tergov qilish vaqtida qochdi va bu bilan nima uchun qochganligini bilardi. O'zlari esa yaqinda Filotga yaqinroq bo'lish uchun, har qanday to'siqqa qaramay unga intilishadi. Jinoyat ochilishidan sal oldinroq Antifan Amintadan yo'qolgan otlar o'miga qonuniy ravishda ot berishni so'raydi, lekin u bermagan.

Mana shu faktlarning hammasini tekshirib ko'rib, agar to'g'ri chiqsa ularni ham o'ldirish, bo'lmasa oqlash kerak. Keyin Antifanni olib kelishganda, u, haqiqatan ham, ot bermaganini aytadi.

Aminta gapirishga ruxsat olib, kishanni yechishlarini ham iltimos qiladi. Shoh ikkovining qo'lini yechib, nayzalarini ham beradi. Shunda Aminta dedi: «Agar bizning hayotimizni saqlab qolsang, sendan minnatdor bo'lamiz, o'lsak taqdirimizdan ko'ramiz. Biz ozod odam sifatida sudda javob beramiz. Sen hatto bizga qurolimizni ham qaytarding.

Antifanga o'sha kuni otni bermaganimiz uchun aybdor bo'lsak, u ham xuddi o'sha kuni so'ragani uchun javob berishi kerak.

Kim aybdor, kim aybsiz ekanligini hal qilish qiyin.

Aytganday, menda bor-yo'g'i 10 ta ot bo'lib, 8 tasini ilgari bergen edim. Qolgan 2 tasini o'zim piyoda qolmaslik uchun bergim kelmadi. Men bu ishyoqmas bilan bermalol gaplashganimni inkor etmayman».

Mana endi Aleksandr va Antifanning oldida hisobot berishga vaqt keladi.

«Lekin onang o'z xatida bizni senga dushman deb ko'rsatgan. Bekorga tashvishlangan. Nimaga bizdan xavfsirash sabablarini aytmagan. Unga bizni sotgan odamning ismini ham aytmagan. Bizning qaysi harakatlarimizga asoslanib senga bu tashvishli xatni yozgan. Onangning uyidagi yigitlarni olib kelishga o'zing yubording-ku, Makedoniyaga. Buyruqni bajarishga majbur qilding va men bu topshiriqni a'lo darajada bajardim. U yoqdan xizmatdan qochib yurgan Gorgiya, Gekaten va Gorgilani va boshqa yigitlarni olib keldim. Ular hozir yaxshi xizmat qilyapti. Mana shu buyruqlarni bajarganim uchun qatl qilmoqchi bo'lsang - bu nohaqlikdir. Agar bajarmaganimda, jazolanar edik. Men 6000 makedoniyalik piyoda askar va 600 otliq olib keldim. Agar yomon bo'lganimda ular orqamdan ergashmagan bo'lardi.

Shuning uchun onangni tinchlanadir, bizdan g'azablanmasin. Bunga o'zing sababchi bo'lning».

Aminta gapirib turganda jangchilar uning ukasi Polemonni qo'lini bog'lab ushlab keladilar. G'azablangan xalqni uni toshbo'ron qilishdan zo'rg'a to'xtatishadi.

Polemon qo'rmasdan dedi: «Meni kechirishlaringni so'ramayman, lekin qochishimga akam aybdor bo'lmasin. Agar uni oqlab bo'lmasa, hamma jinoyat meniki bo'lsin».

Hamma bu gapni ma'qullab yig'lab yuboradi.

Filotning azobidan sarosimaga tushgan otliqlar qatori Polemon ham ikkilanib qochishga tushgan edi. O'zining taqdiri uchun emas, akasini aybdor qilganligi uchun betini yulib yig'lay boshlaydi.

Bu narsa hatto shohni ham to'lqinlantirib yuboradi. Faqat akasi o'zgarmay so'zida davom etdi: - Axmoq, sen otga minib qochgan vaqtingda yig'lashing kerak edi. Qayerga va nima uchun qochding?

U ko'proq akasi oldida gunohkorligini tan oldi. Shunda odamlar shohdan ularni kechirishni so'ray boshlaydi.

Hamma tinchlangandan keyin shoh dedi: «Mayli, ularni kechirdim. Ilgari qanday ishongan bo'lsam, shunday ishonch bilan qabul qilaman. Agar men sizlarni tekshirmaganimda, o'zimga nisbatan shubhani orttirgan bo'lardim. Shuhbada bo'lgandan ko'ra, oqlangan ma'qul.

Faqat sudda o'zini himoya qila oladigan odamgina oqlanadi.

Aminta, sen ham ukangni kechir».

Keyin shoh yig'inni tarqatib, Polidamantni chaqiradi. U Parmenionga juda xushomadgo'ylik qilar va jangda doimo uning yonida bo'lar edi. Unga aka-ukalarini olib kelish buyurilganida, ancha bezovta bo'lib qoladi.

Ularni darhol olib kelishdi va qo'rquvdan qaltirayotgan Polidamantni chaqirib, shoh dedi: «Parmenionning jinoyati hammaga, shuningdek, ko'proq sen bilan bizga tegishli.

Uni ta'qib qilish va jazolashni senga ishonib topshiraman. Bu ishni bajarib kelguningcha ukalaring menda garov sifatida qoladi. Midiyaga borib, mening harbiy boshliqlarimga mana bu xatni berasan. Mish-mish tarqalmasdan bu ishni tez bajarish kerak. Yana bir xatni Parmenionga berasan. Bu xatda Filotning uzugi bor va bunga Parmenion ishonadi».

Polidamant qo'rquvdan holi bo'lib, albatta, bu topshiriqni qoyil qilib bajarishini aytadi va arablar kiyimini kiyadi. Unga yo'ldosh qilib 2 ta arab beriladi. Ularning xotin va bolalari ham garovga qoldiriladi.

Suv siz cho'llarni kezib, o'n bir kunda belgilangan joyga keldilar. Yana o'z kiyimini kiyib, Polidamant Kleandr chodiriga keladi. Xat topshirilgandan keyin Kleandr va Polidamant ertalab Parmenion huzurida uchrashishga qaror qilishadi. Boshqa harbiy boshliqlarga xat beriladi.

Polidamantning kelganidan xabar topgan Parmenion uni chaqirib, shoh to'g'risida so'ray boshlaydi. Bu mamlakat vodiylarida qo'l bilan yaratilgan igna bargli o'rmonlar mavjud bo'lib, shunday o'rmonning birida Parmenion harbiy boshliqlar himoyasida sayr qilardi. Parmenion xatlarni o'qish vaqtida uni o'ldirishga kelishiladi.

Polidamant xursand holda Parmenionni quchoqlash uchun u tomon yugurdi va borib xatni beradi. Xatni ochayotib shohning hol-ahvolini so'raydi. Bu haqda xatdan bilasiz - dedi Polidamant. Birinchi xatni o'qib, shoh dam olishni ham yoqtirmaydi-ya. Endi u araxoziylargacha qarshi yurish qilmoqchi, dedi u. Keyin u Filot nomidan yozilgan xatni o'qiy boshlaydi va yuzida xursandchilik paydo bo'ladi. Shu vaqtida Kleandr uning biqiniga qilich sanchib, boshini uzib tashlaydi. Qolganlari esa o'lgandan keyin yetib keladi¹.

O'rminga kirishda turgan soqchilar bu o'lim haqida sezib qolib, hamma jangchilarni oyoqqa turg'azadilar. Ular qotilni berishlarini, bo'lmasa o'ch

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 253- bet.

olishlarini aytadi. Shunda Kleandr ular boshliqlarini yig'ib shohning iltimosini o'qib beradi. Shohning buyrug'i bilan o'ldirilganini tushungan jangchilar tarqalishadi. Ayrimlari Parmenionning jasadini ko'mish uchun ruxsat so'raydi.

Kleandr zo'rg'a jasadni beradi. Parmenionning boshi esa shohga yuboriladi.

Parmenionning o'limi shunday sodir bo'lgandi. U shohsiz ko'p mag'lubiyatga uchrar, shoh esa usiz buyuk ishlar qila olmasdi.

U 70 yoshda bo'lishiga qaramay, harbiy boshliq vazifasini yosh yigitday bajarardi. Askarlar uni yaxshi ko'rardи, jasur, chaqqon va tadbirkor edi. Haqiqatan ham, u shoh hokimiyatini egallamoqchi bo'ldimi yoki bu shunchaki shubhami - buni aniqlash qiyin edi. Filot esa haligacha haqiqatni aytmasdi. Parmenionga motam tutgan otryadni alohida qilib, unga boshliq etib Leonid tayinlanadi¹.

Xuddi shunday, Aleksandrga uyuşhtirilgan fitna tafsilotlari haqida Arrian ham «Aleksandrning yurishi» asarida qiziqarli lavhalarni keltirib o'tadi. Biroq, Arrianda bu fitna tafsilotlari Kursiy Ruf asaridagi kabi keng va batatsil hikoya qilinmaydi. Arrian bu haqda shunday yozadi:

Aleksandr o'ziga qarshi uyuşhtirilgan fitnaning aybdorlari sifatida Parmenion va uning o'g'li Filotni jazolagani haqida aniq ma'lumotlar beruvchi ko'plab tarixiy dalillarni keltirib o'tishimiz mumkin. Bu haqda Yustinning «Pompey Trog epitomi» asarida ham ancha fikrlarni uchratamiz.

Parmenion va Filot fojiasi Plutarx asarida kengroq yoritib berilgan.

Parmenionning o'g'li Filot makedoniyaliklar o'rtasida katta hurmat qozongandi. U juda dovyurak va saxiy bo'lib, Aleksandrdan keyin ikkinchi o'rinda turardi. Aytishlaricha, Filot bir kuni do'stidan pul so'rabdi. Xizmatkori pul berishdan bosh tortibdi. Shunda Filot unga: «Nima deyapsan? Nahotki senda hech bo'lmasa biron-bir kiyim ham yo'q bo'lsa?»

O'zini tuta bilishi boy-badavlatligi, o'ziga oro berib qimmatbaho liboslar kiyib yurgani uchun Filot bir qancha dushman orttirgandi. Hatto otasi bir kuni: «O'g'lim, sal pastroq tush!» - deb aytgan ekan. Aleksandr esa uni yoqtirmasdi. Ular Damashqda, Kilikiyada mag'lubiyatga uchragan Doroning boyliklarini qo'lga kiritishganda lagerga juda ko'p asirlarni olib

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 255- bet.

kelishgandi. Ular orasida asli pidnalik bo'lgan, go'zalligi bilan ajralib turgan Antigona ismli ayol ham bor edi. Filot uni o'ziga oladi. Boshqa yoshlari singari Filot ichimliklar ichib, mast bo'lgandan keyin, o'zining va otasining harbiy jasoratlari haqida balandparvoz gaplar aytib maqtanardi. Filot Aleksandrni yosh bola deb atab, o'zini ulug' qilib ko'rsatardi.

Ayol bu haqda o'zining dugonasiga gapirib berdi. U, o'z navbatida, yana kimgadir aytdi va shu tariqa bu gaplar Kraterning qulog'iga yetib bordi. Krater bu ayolni yashirincha chaqirtirib, uni Aleksandrning oldiga olib bordi. Aleksandr uni diqqat bilan eshitib, Filot bilan uchrashuvni davom ettiraverishini, uning hamma gaplarini yetkazishni buyuradi.

Bu gapdan hech narsa sezmagani va o'z go'zaliga har xil gaplarni aytgan Filot, ilgarigiday Aleksandr haqida yomon so'zlar aytar, jahli chiqqanda esa uni haqoratlar edi. Aleksandr bu so'zlarni eshitsa ham Filotga qarshi chora ko'rmasdi. Filotning otasi Parmenionning Aleksandrga sodiqligi, bu odamlarning kuchi va shuhratidan hayiqqanidandir. Aleksandr Filotga hech narsa demaydi. Bu vaqtida xalastralik (makedoniyalik) Dimn ismli yigit Aleksandrga qarshi fitna uyuشتiradi. Bu fitnaga u Nikama ismli bolani ham jalb qilmoqchi bo'ladi. Lekin Nikama rozi bo'lmay, bor gapni akasi Kebalinga aytib beradi. Kebalin Filotning oldiga borib, ukasi ikkalasining Aleksandrga aytadigan maxsus gaplari bo'lgani uchun shoh huzuriga olib borishni iltimos qilishadi. Lekin Filot, shohning yanada muhim ishlari ko'pligini bahona qilib, ularni Aleksandr huzuriga olib bormaydi. Shunday qilib, u ikki marta iltimosni bajarmaydi. Filotning o'zini tutishi aka-ukalarda shubha uyg'otadi. Shundan keyin ular boshqa bir odamga murojaat qilishadi. Bu odam ularni Aleksandrning oldiga olib keladi. Ular Aleksandrga oldin Dimn haqida gapirib, orada Filotning ular iltimosini ikki marta rad etganini ham aytib o'tishadi. Bu narsa Aleksandrning batamom jahlini chiqaradi. Shoh Dimnni olib kelish uchun askar yuboradi. Borgan askar esa, Dimn qarshilik ko'rsatgani sabablari uni o'ldirishga majbur bo'ladi. Bu xabar Aleksandrni tashvishga solib qo'ydi. Chunki Dimnning o'limi fitnaning fosh etilmay qolishiga sabab bo'lishi mumkin edi. Filotdan ranjigan Aleksandr, atrofiga uni yoqtirmagan odamlarni to'playdi. Bu odamlarning aytishicha, Dimn faqatgina bajaruvchi bo'lgan, asosiy sababchini esa, hamma narsa yopiqligicha qolishini istaganlar orasidan qidirish kerakligini aytishadi. Aleksandr bu gaplarga diqqat bilan qulog' soladi. Filotning dushmanlari esa uni yana bir qancha ishlarda ayplashadi.

Shundan so'ng, Filotni ushlab, shoh do'stlari huzurida qiyinab, so'roq qilishadi. Aleksandrning o'zi esa pardaning orqasida turib, barcha gapni eshitib turadi. Aytishlariga qaraganda, qyinoqqa chiday olmagan Filot, mungli ovoz bilan Gefestiondan shafqat qilishni so'ray boshlaganida, Aleksandr parda ortidan chiqib, «Qanday qilib, sen Filot, shunday kuchsiz va qo'rkoq bo'la turib, katta ish boshlamoqchi bo'lding?» - deb aytadi.

Filotning o'limidan so'ng, Aleksandr darhol Midiyaga Parmenionni o'ldirish uchun odamlarini yuboradi. Ha, bu o'sha Aleksandrning do'stlari ichida eng yoshi ulug'i va shohni Osiyoga yurish qilishga undagan Parmenion edi.

Parmenionning uch o'g'lidan ikkitasi jangda, otalarining ko'zi oldida halok bo'lishadi. Uchinchisining taqdiri ham fojiali tugaydi. Aleksandrning bunday yo'l tutishi, uning do'stlarining yuragiga g'ulg'ula solib qo'yadi.

Ayniqsa, bu narsa Anti patraga qattiq ta'sir qiladi. Chunki u Aleksandrdan yashirin ravishda etoliyliklarga elchi yubopib, ular bilan ittifoq tuzgan edi. Etoliyliklar esa Enaida shahrini vayron qilganliklari uchun Aleksandrdan juda qo'rqli shardi. Shoh esa voqeani eshitib, etoliyliklardan bu ishi uchun qasos olishini aytadi.

Aleksandrga uyushtirilgan fitna tafsiloti Diodor asarida ham yetarlicha izohlanadi.

OKS

Aleksandr Oks daryosi tomon ketadi. Oks Kavkaz tog'idan oqib kelardi. Aleksandr o'z qo'shinlari bilan yetib kelgan bu daryo O'rta Osiyodagi (Hindiston daryolarini hisobga olmaganda) eng katta daryo edi. Umuman olganda, Hindistondagi daryolar eng katta daryolardir. Oks Girkaniyadagi katta daryoga quyiladi. Aleksandr Oksdan kechib o'tmoqchi bo'lganda, buning o'ta mashaqqatli ekaniga amin bo'ladi. Bu daryoning eni 6 stadiy bo'lib, ancha chuqur edi. Tubi qum bilan qoplangan Oks shunday tez oqardiki, hatto daryo tubiga tushirilgan temir qoziqni ham bemalol oqizib ketardi. Daryodan o'tishning yana bir qiyin tomoni shunda ediki, ko'priq solish uchun yog'och yetishmasdi. Ko'priq qurish uchun daraxtlarni uzoqdan kesib kelishning o'zi ham anchagini vaqtini talab qilardi.

Arriandan keltirilgan ushbu ma'lumotlarga diqqat bilan e'tibor bersak, birmuncha aniqlik kiritishimizga to'g'ri keladi. Bu faktda «Oks daryosi Kavkaz tog'idan oqib kelardi» deyilgan. Bu o'rinda adib afg'on tog'larini yoki Pomir tog'larini nazarda tutgan bo'lishi kerak. Chunki, ayrim tarixiy manbalarda Afg'on tog'i bilan Kavkaz tog'i bir-biriga chalkashtiriladi. Shu tufayli bo'lsa kerak, Qobul yaqinida qurilgan shaharga Kavkaz Aleksandriyasi deb nom berilgan. Ayrim manbalarda Oks Orol dengiziga emas, Kaspiy dengiziga quyilardi degan faktlar ham bor¹.

Aleksandr chodir uchun qurilgan terilarini yig'ib olib, ularni quruq o'tlar bilan to'ldirib, ichiga suv o'tmaydigan qilib tikishni buyuradi. Bu quruq o't bilan to'ldirilib tikilgan terilar suvdan kechib o'tish uchun chidamli bo'lib chiqadi va besh kun ichida ular yordamida qo'shin narigi qirg'oqqa o'tib oladi.

Daryodan o'tish oldidan Aleksandr qo'shin orasidan keksa va harbiy xizmatga yaroqsiz bo'lib qolgan kishilarni ajratib olib, o'z xohishlariga ko'ra ketmoqchi bo'lgan fessaliyaliklar bilan birga uylariga jo'natib yuboradi. Shohning jangchilaridan biri ariylar hokimi Arsakka nisbatan shubhalari ortib, asir oladi-da, Stasanorni ariylarga hokim qilib tayinlaydi.

Aleksandr esa Oks daryosining bo'yiga qarab yuradi, shu bilan yana So'g'diyonaga qaytib bormoqchi bo'ladi. Bu yerning hokimini Aleksandrning o'zi tayinlagandi. Oks bo'yalaridagi qarorgohlaridan, aynan uning chodirining yonidan suv otilib chiqib, buloqqa aylanadi. Uning yonidan esa yana bir buloq, faqat moyli buloq paydo bo'ladi. Bu mo'jiza haqida Laganing o'g'li, Aleksandrning shaxsiy soqchisi Ptolomeyga xabar berishadi. Ptolomey esa bu xabarni Aleksandrga yetkazadi. Aleksandr bu hodisani xudoning karomati deb aytib, ko'plab qurbanliklar keltiradi. Aleksandr oldindan bashorat qilib, moyli buloq qiyinchiliklar belgisi ekanligini, lekin bu qiyinchiliklardan keyin g'alabaning muqarrarligi haqida xabar beradi.

Arrian romanida tilga olingan moyli buloq, balki hozirda Xatirchi nohiyasidagi Moybuloq qishlog'idir².

¹ Tolstova L. S. «Istoricheskiye predaniya Yujnogo priaralya». M.: Nauka, 1984, s. 40; Tolstov S. P. «Po sledam drevnerezmskoy sivilizatsii», M.: Izd-vo AN, 1948, s. 22; Esbergenov X., Xashniyazov J. Etnograficheskiye motivi v karakalpakskom folklore, Tashkent, izd-vo «Fan», 1988, s. 18.

² Arrian. O'sha asar, 147- bet.

Shu vaqtida bir qo'y tug'adi. Qo'zichoqning boshida o'simtasi bor edi. O'simtaning ikki tarafida esa bir juftdan oq belgi bor edi. Aleksandr buni ko'rib, shunday jirkanadiki, darhol qo'zini so'yishni buyurdi. Qo'zini bobilliklar so'yishadi. Shoh ularni shunday paytlarda chaqirardi. Do'stlariga esa Aleksandr, u o'z hayoti uchun emas, balki ularning hayoti uchun tashvishlanayotganini, xudo undan keyin taxtga bilimi bo'limgan va kuchsiz bir odamni o'tqazishidan qo'rqishini aytди. Lekin tez orada uning g'am-tashvishi tarqaydi. Podsho yotoqxonasining boshlig'i Proksen ismli makedoniyalik Oks daryosi qиро'ғида podshoga chodir qurayotganida, quyuq va yog'li buloqqa ko'zi tushadi. Buloqning ustini tozalashganda, buloqdan zaytun moyidan hech farq qilmaydigan jildiragan oqim paydo bo'ladi. Bu narsa mo'jiza bilan barobar edi. Chunki u yerda zaytun daraxtlari o'smas edi. Aytishlaricha, Oks daryosining suvi juda yumshoq bo'lib, unda cho'milganlarning badani yog' bilan qoplanar ekan. Bu yaxshilik nishonasiga Aleksandrning qanchalik xursand bo'lganligini uning Anti patraga yozgan xatidan bilish mumkin. Uning yozishicha, bu xudolardan olgan eng buyuk ehtiromlardan biridir. Ta'birini aytib beruvchilar esa, bu alomat shonli, lekin mashhaqqatli yo'lni ko'rsatishini, zaytun yog'i esa odamlarga mehnatlarini yengillashtirish uchun berilganini aytib karomat qilishadi.

Aleksandr tezlik bilan o'z qo'shinlarini Araks daryosidagi ko'priдан olib o'tadi. Daryordan o'tgan qo'shinlar dahshatli bir voqeaneing guvohi bo'lishadi: ular qarshisida Eron shohlari tomonidan asirga olingan 800 ta grek turardi.

Ularning deyarli hammasiga tan jarohati yetkazilgan edi. Birlarining qo'li, boshqalarining bir oyog'i, qulog'i yoki burunlari kesib tashlangan edi. Ular orasida qarilar ham, yoshlar ham bor edi. Bunday dahshatni ko'rgan Aleksandr yig'lab yuboradi. Ular hammasi bir ovozdan yordam berishni so'rар edi. «Hammangizga o'z vataningizga yetib olishga yordam beraman», - deydi Aleksandr. Lekin ular o'z vataniga bunday holatda borishni istamaydi. Chunki, u yerda bular har joyga tarqalib ketib, odamlar orasida kulgiga qolishini bilar edi. Yaxshisi, bizga bu yerda yashab qolishga yordam bergin, deydi ular. Shunda Aleksandr ularning har biriga 3000 draxtli pul, 5 tadan erkak va ayol kiyimlari, 2 tadan ho'kiz, 50 ta qo'y va 50 puddan bug'doy beradi. Ular himoyasini o'z bo'yniga olib, xafa qildirmaslikka va'da beradi. Aleksandrning bunday odamgarchiligi va hotamtoyligi ularni xursand qiladi.

Shundan so'ng Aleksandr Oks daryosi qirg'oqlariga yetib keladi. Daryoning suvi loyqa bo'lib, ichishga yaramas edi. Shuning uchun jangchilar quduq qazishga kirishadi. Biroq chuqur quduqdan ham suv chiqmaydi. Tasodifni qarangki, birdan shoh chodiridan suv chiqib qoladi. Bu tasodif emas, xudoning inoyati deb shoh boshqalarni bunga ishontiradi.

Keyin Ox va Oks daryolaridan o'tib, Marg'iyyona shahriga yetib keladi. Shaharga yaqinroq joyda 6 ta qal'a bo'lib, uning 2 tasi janub tomonga, qolganlari esa sharqqa qaragan edi¹.

Oks - Amudaryoning qadimiy yunoncha nomi. Osiyoliklar esa bu daryoni Jayxun deb atashgan.

OVDA

Keyin Bozoir deb ataluvchi mamlakatga jo'nab ketadilar. Bu mamlakatning asosiy boyligi o'rmon va boqiladigan zotdor hayvonlar edi.

Ular tez-tez qalin o'rmonlarda ov qilishni yaxshi ko'rishardi.

O'rmonlarda juda ko'plab hayvonlar to'planib qolgan edi-ki, hech kim bu yerga kelib, ov qilishga jur'at qilolmasdi. Aleksandr shu yerga kelib, hayvonlarni bezovta qilishga buyruq beradi.

Shunday maroqli ov paytida bahaybat bir sher Aleksandrga tashlanganida Lisimax yordamga yetib keladi, lekin Aleksandr sher bilan yakka olishib yengishini aytib, Lisimaxning ketishini buyuradi.

Lisimax ham ilgari Suriyada mana shunday sherni o'ldirgan, lekin o'shanda o'zining ham o'lishiga sal qolgandi. Sher epchillik qilib, chap yelkasini suyagigacha uzib olgandi.

Bugun esa shoh darg'azab bo'lib, Lisimaxga shuni eslatadi va o'zi sher bilan jang qilib, uni bir urishdayoq yiqitadi.

Men o'ylaymanki, deydi Kursiy Ruf o'z asarida, go'yoki shoh Aleksandr Lisimaxni sherga yem qilmoqchi bo'lgan rivoyat mana shundan kelib chiqqan.

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 299- bet.

Aleksandrning ovi muvaffaqiyat bilan tugasa-da, makedoniyaliklar, o‘z xalqining odatiga ko‘ra, shoh bir o‘zi emas, balki yaqin do‘stlari bilan ov qiladi, deb aytishardi.

4 ming hayvon qo‘lga tushgandan keyin shoh butun qo‘smini bilan o‘rmonda bayram qiladi.

Bizningcha, Bozoir o‘rmoni Maroqandga yaqin joyda bo‘lgan, sababi, Aleksandr ovdan so‘ng Maroqandga (Samarqand) boradi.

SOTIBARZON

Aleksandr qo‘sini lariga qarshi kurashgan yana bir jasur o‘g‘lon Sotibarzon edi. Grek va Rim tarixiy nasrida Sotibarzon nomiga ko‘p duch kelamiz. Ko‘pincha tadqiqotchilar Sotibarzonni Spitamen bo‘lsa kerak deb aytar edilar. Hatto Spitamenning nomini tarixchilar o‘zgartirib Sotibarzon deb atashgan. Ayrimlar Spitamen emas, aslida Sotibarzon bo‘lgan, degan fikrni bildirishdi. Biz bu haqda ancha izlandik va Spitamenden tashqari Aleksandr qo‘sini lariga qarshi kurashgan Sotibarzon degan kishi ham bor ekanligini aniqladik.

Sotibarzon Girkaniya, So‘g‘diyona, Baqtriya yerlarida ot choptirib, shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib mahalliy xalqni grek-makedon qo‘sini lariga qarshi bosh ko‘tarishga chorlaydi. Bosqinchilarni yenggach, mahalliy xalqqa ozodlik va erkinlik ato qilishini aytadi.

Dastlab uning bu da‘vatiga odamlar ishommaydi. Chunki o‘zining ikki ming (Bessdan olgan) otliq askari bilan istagan qishloq yoki shaharga kirib borib, xalqni yig‘ar, ularni qo‘liga qurol olib, o‘z safiga qo‘shilishini so‘rardi. Ammo, odamlar bu notanish kishining gapiga dastlab ishonishmaydi. Hatto uni Aleksandr yuborgan ayg‘oqchi bo‘lsa kerak, u bizni laqillatyapti, deb o‘ylashadi.

Aslida esa Sotibarzon Aleksandrning emas, o‘z shohiga xiyonat qilgan Bessning odami edi. U Doro qo‘sini da sarkarda bo‘lib, keyinchalik Bessning topshirig‘i bilan Oks daryosi bo‘yidagi xalqlarni Aleksandrga qarshi chorlash uchun yuborilgan bo‘lib, Bess dushman ustidan g‘alaba qozongach, Ahmoniyalar davlatining shohi bo‘lib, So‘g‘diyona hokimligining Sotibarzonga berilishini va‘da qilgan edi. Sotibarzon ikki ming otliq jangchisi bilan dushmanga qarshi kurasha olmasligini tushunib qo‘sishicha kuch to‘plashga kirishadi.

Keyinchalik esa Sotibarzonning safi ancha kengayib, bu jasur yigitga odamlar ishonadigan bo'lishadi. Ammo uning safdoshlari oddiy kishilar edi. Jang qilishni, hatto yoy otishni yoki qilichbozlikni yaxshi bilmasdi. Bunday quollar uning safdoshlariga yetishmasdi ham.

Hali jang ko'rmagan oddiy xalq vakillari qo'llariga qurol o'rniga yog'ochdan panshaxa, to'qmor tayoqlarni ko'tarib olgan bo'lsalar-da, dushman bilan jang qilishga tayyor ekanliklarini aytishardi.

Ilgari ko'p urushlarda qatnashib, jang dahshatini obdon tortgan Sotibarzon bunday kichik qo'shin bilan jang qilish qiyin ekanligini sezib, ularni o'zining ishonchli do'stlariga qoldirib, jang mashqlarini o'tkazib turishni tayinlaydi-da, o'zi Baqtriyaga Bessning oldiga jo'naydi.

Sotibarzonning to'plagan kichik qo'shini moddiy jihatdan qynalib bo'lsa-da, jang mashqlarini bajarib, dushman bilan olishuvga hozirlik ko'rardi. Qishloq va shahar aholisi haloskorlariga moddiy yordam berib turardi.

Tez orada Sotibarzon harakati keng tarqalib, uzoq-uzoqlarga ovoza bo'ladi. Ayniqsa, Bess bu harakatning kuchayib borayotgani haqida yaxshi gaplarni eshitib, xursand bo'ladi.

Sotibarzon o'zining yaxshi quollangan ikki ming otliq jangchisi bilan Bessning oldiga jo'nar ekan, bu yerda qolgan yangi to'plangan safdoshlarini dushman chiqishi qiyin bo'lgan baland tog'ning tepasiga yashirib qo'yadi. Ularga qurol topib kelmaguncha tog'dan pastga tushmaslikni tayinlaydi. Doroning hokimi Sotibarzon Xortakan shahrida jingga tayyorlanayotganini Aleksandr bilib qoladi. Aleksandrning sezib qolganligini bilgan Sotibarzon 2000 otliq askari bilan Bessning oldiga boradi va undan yordam so'raydi. Ammo Bess hozircha unga katta yordam berolmasligini, keyinchalik qo'shimcha kuchlar yuborishini aytib, yana ozgina yordam bilan Sotibarzonni Aleksandrga qarshi yuboradi.

Endi anchagina mustahkamlanib, kattaroq qo'shinga sarkarda bo'lib olgan Sotibarzon o'z safdoshlari huzuriga qaytayotganda, yo'l o'zanini o'zgartirib, Oks daryosi tomondan aylanib o'tishni ma'qul biladi. Uning niyati mabodo Aleksandrning kichikroq bir qo'shini uchrasa, uni yengib, katta o'lja bilan qaytish yoki mabodo dushman biron qishloqni bosib olgan bo'lsa, bu qishloq ahlini bosqinchilar changalidan ozod qilib, jang mashqini o'tkazayotgan safdoshlari huzuriga qaytish, so'ngra esa, orada yana harakatini kuchaytirib dushmanning asosiy qismiga zarba berish edi.

Sotibarzonning harakati kuchayib, qattiq tayyorgarlik ko'rayotgani haqida ayg'oqchilaridan anchagina ma'lumotlar olgan Aleksandr unga qarshi allaqachon katta qo'shin yuborgandi.

Yo'lda Sotibarzon ariylar qabilasiga duch kelib, ularni talay boshlaydi. Bu xabar yaqinlashib qolgan Aleksandrning qulog'iga yetib boradi.

Bu haqda Diodorning fikrlarini eslab o'tish kifoyadir. Diodorning ta'kidlashicha, Sotibarzon Ariyani bosib olib u yerdagi odamlarni Aleksandrga qarshi qo'yadi. Buni eshitgan Aleksandr unga qarshi Erigiy va Stasanorni qo'shinlarining bir qismi bilan yuboradi. O'zi esa Aroxosiyani bo'ysundirib, u yerdagi aholini o'ziga itoatkor qilib oladi¹.

Diodor Sotibarzonning Eriy tomonidan mag'lubiyatga uchraganini ta'kidlab, «Ariyada Eriy Sotibarzonga qarshi kurashib, uni yengdi², - deb yozadi.

Tarixiy manbalarda Sotibarzonning o'limi haqida ham turli xil ma'lumotlar mavjud. Arrian Sotibarzon ham, Eriy ham halok bo'lganligini ta'kidlaydi. Eriyning nayzasi Sotibarzonning yuziga tekkan edi, deb yozadi.

Bu haqda shunday epizod berilgan.

Aleksandr Baqtriyaga, Bess tomoniga yuradi. Yo'lda u dranglarni, gadroslarni va araxotlarni o'ziga bo'ysundirib oladi. Bosib olingen xalqlarni boshqarish uchun hokim qilib Menonni tayinlaydi. U araxotlar bilan qo'shni yashayotgan hindlarning yerigacha keladi. Aleksandrning qo'shini nihoyatda charchagandi. Buning ustiga, hammayoq qalin qor bilan qoplangan bo'lib, oziq-ovqat yetishmasdi, shu payt shoh Sotibarzonning 2000 otliq askar bilan (ularni u Bessdan olgan edi) ariylarga hujum qilganini va ariylar ularga qarshi qo'zg'alon ko'targanini eshitadi. Ariylarga yordamga forslardan bo'lgan Artabazanni va sarkardalar Eriy va Karanni yuboradi. Parfiylarning hokimi bo'lgan Fratafernga esa ariylarga qarshi hujumga o'tishni buyuradi. Eriy va Karan qo'shnlari bilan Sotibarzon qo'shnlari o'rtasida qattiq jang bo'ladi. Dushmanlar chekinishni xohlashmasdi. Ular faqatgina Eriy bilan Sotibarzon halok bo'lishayotganda, shunda ham Eriyning nayzasi Sotibarzonning yuziga tekkandagina, orqa-oldilariga qaramay qocha boshlaydi³. Kursiy Rufning

¹ Diodor. O'sha asar, 111- bet.

² Diodor. O'sha asar, 115- bet.

³ Arrian, 129- bet.

ta'kidlashicha, Sotibarzon bilan Erigiy o'rtasida yakkama-yakka jang bo'lib, bu jangda Erigiyning nayzasi Sotibarzonning bo'yniga taqalib, orqasidan teshib chiqadi.

Bu o'rinda Kursiy Rufning fikrini ham keltirib o'tishni lozim topdik. Adibning ta'kidlashicha, Karan va Erigylarning ariylar mamlakatidagi jangi to'g'risida ham xabar bo'ladi. Makedoniyaliklar bilan ariylar o'rtasida jang bo'lib turgan bir paytda ariylar boshlig'i Sotibarzonni yakkama-yakka jang qilishga chaqiradi. Shunda Erigiy Aleksandr jangchilari nimaga qodirligini ko'rsatishiga vaqt yetdi deb jangga tushadi. Otish mumkin emas, degan buyruq bo'lganda ular bir-biriga qarab ot qo'yishadi. Birinchi bo'lib Sotibarzon nayza otadi, lekin Erigiy chap beradi va o'z navbatida nayzasi bilan Sotibarzonni to'g'ri nishonga oladi. Nayza uning bo'ynidan kirib, orqa tomonidan chiqadi.

Shunday qilib, Sotibarzon halok bo'ladi.

O'z boshlig'ini yo'qotgan ariyliklar Erigiyga o'z quollarini topshiradilar.

Shoh bu g'alabadan xursand bo'ladi. Spartaliklar ham mardlarcha jang qilayotganini eshitadi.

Aleksandr Bessni quvib borayotib, Sotibarzonning boshini olib kelayotgan Erigiyni uchratadi¹.

Bu o'rinda Sotibarzonning dovyurak va jasur bo'lganligini ham ta'kidlab o'tishimiz lozim. Chunki, u makedonlarning sarkardasi Erigiyni yakkama-yakka mardlik jangiga chaqiradi. Tarixda bunday misollar juda ko'p. Behuda minglab kishilarning o'lib ketishidan tashvishga tushgan jasur yigitlar dushman qo'shinining boshlig'ini yakkama-yakka jangga taklif etishgan.

Shunday qilib, Sotibarzon Spitamen qo'shnilar bilan birlasha olmaydi. Chunki Spitamen endigina qo'shin to'playotgan edi. Balki Sotibarzon Bessning odami bo'lgani uchun Spitamen u bilan birlashishni xohlasmagandir. Chunki Spitamen Bessni yoqtirmas edi.

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 265- bet.

DORONING HALOKATI

Ulkan Ahmoniyalar sulolasining so'nggi vakili, Eron shohi Doro Kodomon Makedoniya podshohi Aleksandr Filipp o'g'li bilan bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchrab, o'zining katta qo'shini bilan O'rta Osiyo tomonga qarab chekina boshlaydi. Aleksandr uchun ham, Doro uchun ham hali urush tugagan emasdi.

Urushning nega tugamaganligi ko'pchilik uchun jumboq. Bu sirli jumboqni oddiy jangchilar yechishi qiyin edi. Aleksandr jangchilari endi urush tugadi, deb bayram qilishar, shod-u hurramlik bilan sharob ichib, katta o'ljalar orttirar, yaqin kunlarda vatanimizga qaytsak kerak deb o'ylardilar. Doro jangchilari esa bor umid va ishonchlarini o'z shohiga bog'lab, uning ketidan ergashib borardilar.

Ahmoniyalar davlati juda ulkan edi. Faqat hozircha Eronda bo'lgan jang muvaffaqiyatsiz yakunlangan bo'lsa-da, uning orqasida Midiya, Parsiya, Girkaniya, So'g'diyona, Xorasm, Baqtriya, Armasp va hokazo o'nlab elatlar katta tayanch bo'lib turardi. Bu o'lkkalar qariyb uch asrdan buyon Eron shohligining zulmi yukini yelkalarida ko'tarib, zahmat chekib kelayotgan bo'lsalar-da, baribir Ahmoniyalar davlatining bir bo'lagi bo'lib, unga tobe ekanligini unutolmaydilar. Shuning uchun ham, makedonlar bilan bo'lgan jangning boshlanishidan avval qanchadan-qancha farzandlarini Eronga jo'natadilar. O'rta Osiyolik farzandlar ulkan Ahmoniyalar davlatini himoya qilib, jangga kiradilar. Bu farzandlarning necha minglari qurbon bo'lsalar-da ko'pchiligi o'z shohi Doroga ergashib, O'rta Osiyoga siljib kelayotgan edilar. Shuning uchun ham, hali Doroning umidi so'nganicha yo'q edi. Mayli, Aleksandr Eronga hokim bo'lib qolsin. Bunga Doro ming bora rozi. Buning uchun Aleksandrga maktub yo'llab, Eron hokimligini berishga rozi ekanligini aytadi. Ammo u ulkan Ahmoniyalar shohligini berishni, Osiyo shohi degan bebaxr yerlikni va «oltin tojni» qo'lidan chiqarishni sira xayoliga ham keltirmagandi. Kerak bo'lsa, u O'rta Osiyoda katta kuch to'plab, toj-u taxtni saqlab qolish uchun Aleksandrga qarshi katta urush ochish niyatidan ham qaytganicha yo'q edi.

Ahmoniyalar davlatining bir bo'lagigina qo'lidan ketdi, xolos. Hali bu yozda marg'iyon, so'g'd, massaget, sak, dak, skif, everset degan jangovar xalqlar turibdiki, Doro ularni birlashtirib, ulkan qo'shin tuzsa,

Hindistondan Makedoniyagacha bo'lgan keng o'lkalarni qaytadan qo'lga kiritishi mumkin.

Aleksandr Doroning bu niyatini yaxshi bilardi. Shuning uchun ham, Suz. Persopol kabi jahonning eng go'zal va muhtasham shaharlarida uzoq turmasdan, Tigr daryosi tomon yurishni davom ettiradi. Uning niyati «Osiyo shohi» degan yuksak nomga ega bo'lgan oltin tojni Dorodan tezroq tortib olish edi. Bu tojni Doro o'z ixtiyori bilan Aleksandrga taqdim etsa nur ustiga a'llo nur bo'lardi. Unda Aleksandr Osiyo shohi degan yorliqqa osongina sazovor bo'ladi. Bu toj qo'lga kiritilgandan so'ng, Ahmoniyalar davlatining ichkarisidagi o'lkkalar Kaspiydan Hindiston-gacha, Yaksartdan Oksgacha Aleksandrga qonuniy ravishda tobe bo'lishga majbur. Shuning uchun ham, Aleksandr katta qo'shin bilan Doroni ta'qib etib kelar, Doro bo'lsa ildamroq yurib Osiyoning ichkarisiga, O'rta Osiyo yerlariga tomon kirib borardi. Davlat ketgan bilan tojni boshida saqlab qolganiga ming bor shukur qilardi.

Kutilmaganda Doroning eng yaqin kishisi, Baqtriya podshohi Bess o'z shohini yaralab, oltin tojni boshiga kiyib olib, o'zini Osiyo podshohi deb e'lon qiladi. O'zi bilan san, subd, massaget va hokazo O'rta Osiyo-jangchilarini olib, Baqtriyaga keladi. Aleksandr bu voqeani eshitib, yana oltin tojning izidan tushadi.

Yustin eronliklar jangda mag'lubiyatga uchragandan so'ng, Aleksandrning Eron shaharlarini birma-bir egallab, Doroni ta'qib etib borganligi haqida yozadi. Uning ta'kidlashicha, har ikkala taraf, ya'ni makedonlar va eronliklar jangga kirishadilar. Bu jangda har ikkala podsho ham yarador bo'ladi.

Doro qochishga tushmaganida jang nima bilan tugashi noma'lum bo'lib qolgandi. Doro qochgandan so'ng, eronliklar katta talafot ko'radilar. Oltmisht bir ming piyoda askar, o'n ming otliq jangchi o'ldiriladi. Qirq mingga yaqin jangchi asirga olinadi. Eron podshohligining saroyidan ko'p oltin va boshqa boyliklar topishadi. Asirga olinganlar ichida Doroning akasi, xotini va ikkita qizi bor edi.

Qo'lga tushgan behisob boylik va qimmatbaho xazinalarni ko'rib Aleksandr hayratga tushadi. Shodligini ichiga sig'dirolmay, birinchi marta ulkan dasturxon solib, quyuq ichkilikbozlik, zo'r maishatbozlik boshlaydi.

Aleksandr asirasi Barsinaga alohida qiziqish bilan qaray boshlaydi. Undan tug'ilgan o'g'lini Gekules deb ataydi. Doroning hali tirik ekanligini

unutmagan Aleksandr Parmenionni Eron flotini qo'lga olishga, boshqa sarkardalarini esa Osiyo shaharlarini egallashga yuboradi. Uning muzaaffarlik dovrug'i atrosga yoyilib, katta-kichik hokimliklar birin-ketin ko'ngilli ravishda g'oliblar tarafga o'ta boshlaydi. Tez fursat ichida Aleksandr ulkan oltin, behisob javohirlarga ega bo'ladi. Shundan keyin Aleksandr Suriyaga qarab yo'l oladi. Sharq podshohliklaridan ko'pi tinchlik istab, uning qarshisiga chiqadilar. Aleksandr ularning ba'zilari bilan ittifoq tuzib, hokimligini qaytarib bersa, boshqalaridan podshohlikni tortib olib, o'rinalariga yangi hokimlar tayinlardi. U Sidon podsholigi oltin toj va qimmatbaho sovg'a jo'natganida, sovg'ani qabul qilib, Abdolini o'z yurtiga hokim qilib tayinlaydi.

Doro Bobil tomonga qochayotganda yo'lida Aleksandrga xat yozib, undan o'z oila a'zolarini katta boylik evaziga qaytarib berishini iltimos qiladi. Ammo Aleksandr pul-boylik emas, balki butun Ahmoniyalar podshohligini talab qiladi. Bir qancha vaqt o'tgandan keyin Aleksandr yana xat oladiki, unga Doro qizini va podshohlikning bir qismini va'da qilgan edi. Aleksandr javob xatida Doroga shaxsan o'zi iltimos qilib kelishini, Eron podshohligining taqdirini esa g'olibning o'zi hal qilajagini bayon qiladi.

Doro tinch yo'l bilan maqsadini amalga oshirish mumkin emasligini bilib yana urush boshlaydi, o'zining 400000 piyoda, 100000 oqliq askari bilan Aleksandr tomon yo'l oladi. Biroq yo'lida Doro xotinining tug'ish payti o'lganini, Aleksandr shaxsan o'zi insonlarga xos ko'mish marosimida qatnashganligi haqidagi xabarni eshitadi. Doro bu voqeadan keyin o'zini haqiqatdan ham yengilgan deb tan oladi. Chunki Aleksandr nafaqat urush paytida jismonan, balki insonparvarlik va olijanoblikda ham undan ustun ekanligini sezadi. Shuning uchun ham, u Aleksandrga uchinchi marta xat yozib, shohga tashakkur izhor qiladi. So'ngra Aleksandrga o'z podsholigining Evfrat daryosigacha bo'lgan katta qismini berib, xotinlikka qizini berajagini yozadi. Bunga Aleksandr u nima qilgan bo'lsa, buning hammasini, u kuchli dushmanlariga qarshi urush qilajagi to'g'risida javob qiladi. U Doroga dunyoda o'zidan keyin ikkinchi podsho - ya'ni vazir bo'lishni taklif qiladi. Chunki dunyoda ikki quyosh bo'Imaganidek, bir olamda ikki buyuk podsholik bo'lolmas. Aleksandr Doroga ikkinchi kuniyoq taslim bo'lishni yoki jangga tayyorlanishni taklif qiladi.

Ikkinci kuni, har ikkalasi o'z qo'shinini jangovar holatga keltirgan bir paytda, holdan toygan Aleksandrni kuchli uyqu bosadi. Uni

uyg'otishib nima uchun u shunday xavfli bir paytda uyquga ketganligini so'rashadi. Aleksandr kutilmaganda ko'ngliga kelgan g'alabaga bo'lган ishonchdan ruhlanib, uyqu bosganligini aytadi. Jang oldidan har ikkala qo'shin bir-birini ko'rib hayratga keladilar. Makedonlarni eronliklarning ko'p sonli askarlari, ularning uzun bo'yligi, chiroyli, jangovar kiyimlari hayratga solgan bo'lsa, eronliklarni shunchalik kam sonli qo'shin ko'p ming sonli lashkarni o'tgan urushda qanday qilib mag'lub qilganligi taajjubga solardi¹.

Eronning asosiy shaharlari qo'lga olingandan so'ng, katta-katta boyliklar talangach, Doroning halokatga uchrashi ma'lum bo'lib qolgandi. Bu haqda Diodorning qayd etishicha, Aleksandr Eron poytaxti Persepolni butunlay vayron qilish va talash uchun qo'shiniga buyruq beradi. Faqat saroya teginmaslikni aytadi. Shaharning butun boyligini jangchilar o'zlarini xohlaganicha bo'lib olishadi. Qancha-qancha tillo va kumushlarni talaganiga qaramay, jangchilar yana ko'zlarini to'ymay o'zaro talashib qolar edilar. Keyin Aleksandr saroy qal'asiga kirib, u yerdan shoh Kir qoldirgan 120000 oltin va kumush tangani topib oladi. Bu pullarning bir qismini harbiy ehtiyojga ishlatib, qolganlarini esa Bobil va Mesopotamiyadan keltirilgan 3000 tuyaga ortib, belgilangan joyga jo'natadi. Shahar aholisiga hech narsani ishonmaydi va Persepolni butunlay vayron qiladi².

Persepol saroyi juda hashamatli va ulkan bo'lib, uch qator devor bilan o'ralgan edi. Birinchisiga qaraganda ikkinchisi, ikkinchisiga qaraganda uchinchi devor baland edi. Uchinchi devor juda qattiq toshlardan mustahkam qilib qurilgandi. Saroyning sharq tomonida 400 futli masofada shoh tog'i bor edi, chunki bu tog'ga shohlarning jasadi qo'yilgandi. Bu tog'ga chiqish juda qiyin edi. Shu sababli u yerga shohlarning butun boyliklari yashirib qo'yilar edi. Aleksandr o'z g'alabasini katta tantana bilan nishonlaydi. Xudolar yo'liga qurbanlik beradi. Tantanaga hamma ayollar ham taklif qilingandi. Ichkilikning mo'lligidan ko'p odamlar mast bo'lib qolishadi. Faida ismli attichenkalik bir ayol mast bo'lib qolib shunday dedi: «Aleksandr Osiyoda buyuk va sharaflı ishlarni boshlaydi, shuning uchun biz unga yordam berishimiz kerak, eronliklar uchun muqaddas bo'lган saroyni yoqib yuborishimiz kerak deb, birinchilar qatori saroy tomon ketadi va saroya o't qo'yishni

¹ Yustin. Vestnik drevney istorii. 1954, № 3, str. 210.

² Diodor, 96—97- betlar.

boshlab beradi. Shunday qilib, bu ayol Eron shohi Kserksdan o'ch oladi. Bu voqeadan keyin Aleksandr Eronning boshqa shaharlarini ham zo'ravonlik bilan bo'ysundira boshlaydi.

Arrianning ta'kidlashicha, garchi Aleksandr Eron ustidan g'alaba qozongan bo'lsa ham, Makedoniyan dan to'xtovsiz yordam kuchlari kelib turgan. Faqat Makedoniya dangina emas, qo'l ostidagi boshqa o'lkalardan ham to'xtovsiz qo'shin kelgan.

Bobilga qaytib kelib, Aleksandr Eron dan kelgan Pevkestni uchratadi. Pevkest o'zi bilan 20 mingga yaqin askar olib kelgandi. Askarlar ichida kosseylar va tapurlar ham bor edi. Shohga ularni maqtab qabilalar ichida u eng katta jangga chidamli deb aytdi. Qariyadan Filokin qo'shini bilan, Lidiyadan Menendr qo'shini bilan, Menad otliq askarlari bilan kelishgandi. Shu payt Elladadan ham elchilar kelishadi. Ular Aleksandrni xudo deb bilib, unga oltin gulchambar hadya qilishadi.

Aleksandr eronliklarga qilgan yordamlari uchun minnatdorchilik bildiradi. Ular Pevkestning topshiriqlarini ham bajarishgandi. Pevkest kelganlarni makedoniyaliklar qo'shini safiga qabul qiladi. Ma'lum bir vaqtga makedoniyaliklardan o'nboshi va yuzboshilar tayinlanadi¹.

Diodor ham Aleksandrning Eronning Suz va Persopol shaharlaridan behisob boyliklarni qo'lga kiritganligini aytadi. Uning aytishicha, Aleksandr bir necha jangdan keyin bir joyga kelganda, qo'shining dam beradi. Holdan toygan jangchilarni dam oldirib, yangi jangchilarni tayyorlay boshlaydi. Harbiy boshliqlarni qaytdan tanlab oladi. Umuman jangchilarni tartibga solib, yangi g'alaba sari otlanadi. Suzlanagga kelib, butun dunyoga mashhur bo'lgan shoh Doroning poytaxtini egallaydi. Yozishlariga qaraganda, vaqtidan yutish va tayyorgarlik ko'rish uchun Doroning o'zi chekinishga majbur bo'lgan ekan.

Shunday qilib, Aleksandr shaharni egallab, undagi saroydan 40000 tillo va kumush tanga topib oladi. Bu boylikni shoh uzoq vaqt saqlaydi. Bundan tashqari u yana Doro tamg'asi tushirilgan 9000 tanga topib oladi. Shoh o'ziga mos bo'limgan taxtda o'tirar edi. Shunda Doroning xizmatkorlaridan biri unga boshqa taxt gurzisi olib keladi. Shoh esa uni maqtaydi. Shu vaqt xizmatkorlardan biri yig'lab yuboradi. Aleksandr buning sababini so'raydi. Xizmatkor dedi: «Endi men ilgari Doroning quli bo'lgan bo'lsam, endi esa senikiman. Lekin men ilgarigi shohimni

¹ Arrian, 232- bet.

o'z tabiatimga ko'ra yaxshi ko'raman. Uning mag'lubiyatga uchraganiga achinaman»¹. Bu javobdan keyin Aleksandr fors shohida buyuk o'zgarishlar bo'lganligini sezadi va o'zini yana mag'rur tuta boshlaydi, asirlarga shafqat qilmaslik kerak, degan xayolga boradi.

Doroning mag'lubiyatidan keyin ko'pgina hokimliklar shaharlarini jangsiz, o'z ixtiyorlari bilan Aleksandrga topshiradilar. Aleksandr esa o'z ixtiyori bilan taslim bo'lgan hokimlarga ozor bermasdi. Bu haqda Diodor shunday yozadi:

«Aleksandr Persepolga yurish qiladi. Yo'lda shahar boshlig'i Tiridatdan xat oldi. Unda shunday yozilgan edi: «Biz Doroga atab qurilgan shaharni sizga jangsiz topshiramiz»².

Plutarx Doroning halokati va o'limi haqida qiziqarli voqealarni hikoya qiladi.

Hamma birday harakat qilishiga qaramay, shoh bilan faqatgina 60 askar dushman qarorgohiga bostirib kira olishdi. Ular atrofida sochilib yotgan kumush va oltinga, aravada qayoqqa ketayotganini bilmay o'tirgan ayol va bolalarga e'tibor bermay, oldinda qochayotgan askarlarga diqqat-e'tiborini qaratgan edilar. Shohning o'ylashicha, ular orasida Doro bo'lishi kerak edi.

Nihoyat, ular ikki g'ildirakli jang aravasida qattiq yaralangan, o'lim changalida yotgan Doroni topishdi. Doroning iltimosi bilan Polistrat unga suv berdi. Suv ichgan Doro biroz o'ziga keldi va dedi: «Menga muruvvat ko'rsatgan odamga minnatdorchilik bildira olmasligim, mening baxtsizligimdan dalolat beradi».

Doro Polistratga qarata: «Seni Aleksandr mukofotlaydi. Aleksandrning onamga, xotinim va bolalarimga qilgan yaxshilagini xudo mukofotlaydi. Unga mening bildirgan «minnatdorchiligidimi bildir» - deb Polistratning qo'lini ushlaganicha olamdan o'tadi».

¹ Diodor. O'sha asar, 92—93- betlar

² O'sha joyda, 97- bet.

BESSNING O'LIMI

Kursiy Ruf o'z asarida Doroni o'ldirib, xiyonat yo'li bilan Ahmoniyalar shohi bo'lgan, o'zini ikkinchi Kserks deb nomlagan Bessning taqdirini g'oyat qiziqarli lavhalarda tasvirlab beradi. O'z shohiga sotqinlik qilgan Bessdan Aleksandr ham, mard va jasur Spitamen ham nafratlanadi.

Aleksandrning yaqinlashganini sezgan Bess harbiy boshliqlar va yaqin kishilari bilan urush rejalarini tuza boshlaydi. Kayfi oshgani uchun ular dushman kuchini to'g'ri baholay olmay, nuqul kulishardi. Ayniqsa, Bess past ketmay, kiborlanib Aleksandrning shon-shuhratini hech tan olgisi kelmasdi. U Kilikiyaning kichik bir darasida bosqinchilar bilan jang qilib, qutulib ketganidan mag'rurlanardi. Holbuki, uning o'zi qo'shimcha kuch olguniga qadar so'g'diyonaliklar panohida dushmanidan qochib borgan edi. U xorasmliklar, saklar, indlar, daxlar yordamga kelishiga umid qiladi.

Bessning maslahatchilari orasida midiyalik mashhur sehrgar Kobar ham bor edi.

«Mening bilishimcha, - deydi u, - qul maslahat bergenidan ko'ra, buyruqni bajarsa, foydaliroqdир, chunki uni ham baribir hamma qatori bir narsa kutadi. Maslahat bergen odamga qiyinroq bo'ladi. Odam tabiat shundayki, o'ziga-o'zi to'g'ri baho bera olmaydi. O'zi o'ziga qaror chiqarsa, u shubhali, ishonchsiz bo'ladi. Hech kim o'zidan nafratlangisi kelmaydi. Sening boshingda shohlik tashvishi. O'ylab, aql bilan ish ko'rish kerak». Keyin u baqtriyaliklar maqolini keltirdi: «Qo'rkoq it ko'proq huradi» va «Eng chuqur daryo shovqin-suronsiz oqadi». Bu maqolni aytishimdan maqsad dushman ham donoroq bo'lishi mumkinligini senga eslatish». Kobarning bu so'zlari hammaning diqqatini o'ziga jalb qildi. Keyin u o'z maslahatini aytdi: «Sening oldingda kuchli, tadbirdor shoh turibdi». Tanais qirg'oqlaridagi qo'shinni chaqirib olib, daryo orqali himoyalanib, keyin qochmoqchimisan?

Yo'q! Bu noto'g'ri reja. Yaxshisi shohga taslim bo'lib, u bilan do'stlash. Birovning o'miga zo'rlik bilan shoh bo'lgansan, undan voz kechish osonroq. Agar sen uni tan olib, bo'ysunsang, Aleksandrning o'zi senga yordam beradi.

Mana senga to'g'ri maslahat. Yana o'zing bilasan. «Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi».

Bu gaplar Bessga yoqmadi va qahr-g'azab bilan Kobarga tashlangan edi, lekin uni ushlab qolishadi. Kobar esa zo'rg'a Aleksandr tomonga qochib o'tishga ulguradi.

Bessda 3000 baqtriyalik jangchilar bo'lib, ular Aleksandrning yaqinlashayotganini bilganidan keyin o'z qishloqlariga tarqalib ketadi. Bess esa qolgan ozgina do'stlari bilan Oks daryosini kechib o'tib So'g'diyonada yangi qo'shin yig'a boshlaydi.

Shu yerda to'xtagan shohga Gretsiyadan lakonliklar va butunlay Peleponnesning yengilanligi to'g'risida, Bessga Tanais daryosi bo'yida yashovchi skiflar yordamga kelgani haqida ma'lumot yetib keladi.

Diodorning yozishiga qaraganda, Aleksandr Doroning o'limidan so'ng uning qotili Bessni axtara boshlaydi. Bess esa allaqachon Baqtriyaga jo'nab qolgandi.

Diodor davom etib, «O'shanda Bess, - deb yozadi, - Nobarlon va Varzaentni ham o'zi bilan birga olib ketgan edi¹. Bu o'rinda Nobarzon va Varzaent haqida ham ko'pgina ma'lumotlarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Bessning Baqtriyaga tomonga qarab qochishiga sabab, Doro o'limidan sal ilgari Bessni Baqtriyaga hokim qilib tayinlagan edi. Shuning uchun ham, Bess o'zini Osiyoning shohi deb e'lon qiladi. Sababi, u Doroni o'ldirib, uning boshidagi shohlik toji bilan qo'lidagi qimmatbaho olmos uzugini olib, tojni boshiga kiygan, uzukni esa qo'liga taqqan edi.

Diodor ham Bessning o'z shohini o'ldirib Baqtriyaga kelganligini aytadi.

Aleksandr Baqtriyaga tomon yo'l oladi. Bu vaqtida Bess o'zini Osiyoning shohi deb e'lon qilib, atrofiga katta qo'shin to'playdi. Bess do'stlariga katta bayram tashkil qiladi va o'zini yengilmas buyuk shoh deb maqtay boshlaydi. Bu narsa ba'zi birov larga yoqmaydi va Bessga Aleksandr oldida baribir kuchsizsan, deb aytadi.

Arrianning fikricha, Bess Osiyoda yashovchi qabilalarni oyoqqa tur'izib, katta qo'shin bilan Aleksandrga hujum qilish niyatida bo'ladi.

Bess cho'lga aylangan yerlar, bu yerdag'i qabilalar Aleksandrga qattiq qarshilik qiladi deb o'laydi. Lekin ularni kutib turmay, Aleksandrga qarshi yurishni to'xtatmaslik uchun hozirlik ko'radi. Qalin yoqqan qor ham, ko'pgina zarur narsalarning yetishmasligi ham, uni to'xtata olmaydi. Lekin Aleksandr juda ham yaqin kelib qolganini, Oks daryosidan kechib

¹ Diodor. O'sha asar, 99- bet.

o'tayotganini aytishganda, qayiqlarni yoqib yuborib, So'g'diyona chavandozlari bilan birga Oksart va Tanais daylari ham ketishadi. Baqtriyalik chavandozlar Bessning qochmoqchi bo'lganligini aytishadi.

Diodor ham bu haqda to'xtalib, Aleksandring Kavkaz, tog'lari bo'yida (Afg'oniston) shahar qurbanligi Bessga yoqmaganligini aytadi. Bess odamlaridan ikkitasi Aleksandr tomonga qochib o'tadi va bo'lgan voqeani aytib beradi. Aleksandr esa ular orqali Bessni ushlab oladi va Doroning akasiga topshiradi. Chunki Doroni Bess o'ldirgan edi. Endi esa Doroning akasi Bessdan o'ch olib, uni tilka-pora qilib o'ldiradi.

Plutarx Bessning Aleksandr tomonidan jazolanishi haqida shunday bir voqeani keltiradi. Ikkita yonma-yon o'sgan daraxtlarni topib, shohlarining uchini yerga qayirib, Bessning ikki oyog'idan bog'lashadi. Ikki tarafga zarb bilan ko'tarilgan daraxtlar Bessni ikki tarafga ayirib yuboradi.

Yustinning «Pompey Trog epitomi» asarida Eron shohi Doroning qotili Bess haqida qisqacha bo'lsa-da, ma'lumot berib o'tiladi.

Arrianning yozishicha, Aleksandr qo'shinlari Oksdan o'tib bo'lгach, tezda Bess joylashgan yerga otlanadi. Shu payt Spitamen va Dataferndan odamlar kelib, agar Aleksandr hech bo'lmaganda kichik bir qo'shin bilan boshlig'ini yuborsa, ular Bessni tutib berib unga topshirajaklarini aytadi. Bess esa zanjirband qilinmagan bo'lsa-da, qattiq nazorat ostida edi. Bunday xabarni eshitgach, Aleksandr biroz nafasini rostlab olib, Laganing o'g'li Ptolomeyni Bessni tutib keltirish uchun shoshilinch yuboradi. Ptolomey buyurilgandek oldinga siljiydi va o'n kunda bosib o'tish mumkin bo'lgan yo'lni 4 kunda bosib o'tib, Spitamen o'z qo'shini bilan tunab yetgan qarorgohga yetib keladi.

Ptolomey biladiki, Spitamen va Datafernning Bessni berish niyati yo'q. Shunda u piyoda askarlarga orqasidan saf tortib borishni buyuradi, o'zi esa oz sonli otliq askarlari bilan Bess joylashgan qishloqqa ot choptirib ketadi. Spitamen o'zining qo'shini bilan allaqachon u yerdan ketgandi. Ular o'z qo'llari bilan Bessni tutib berishga uyalishadi. Ptolomey o'z chavandozlarini bilan qishloqni o'rabi olib oladi. Bu qishloq katta darvozali devorlar bilan o'ralgandi.

Shunda u qishloqdagilar, agar Bessni bersalar, omon qolishlarini e'lon qiladi. Ular ichkariga Ptolomey qo'shining kiritishadi. Ptolomey Bessni olib orqaga qaytadi. Sarkarda yo'lida Aleksandrga oldindan chopar yuborib, Bessni qay holda olib borish kerakligini so'raydi. U Bessni

yalang'och holda, bo'yintiriq kiydirib olib kelib, Aleksandr qo'shinlari bilan o'tadigan yo'lning o'ng tomoniga qo'yishni buyuradi. Ptolomey Aleksandr aytgandek qiladi.

Aleksandr Bessni ko'rib aravasini to'xtatadi va nega u Doroni, o'z shohini, buning ustiga, qarindosh va homiysini avval asir olib zanjirband qilganligi, keyin esa o'ldirganligini so'raydi. Bess Aleksandrning mehrini qozonish niyatida, butun Doro safdoshlari kengashining qarori bilan shu yo'lni tutganligini aytadi. Bunday so'zlardan keyin Aleksandr uni jazolashni buyuradi. Bessga so'roq paytida qo'ygan ayblarini tan olish buyuriladi. Bessni jazodan keyin Baqtriyaga olib borib qatl etish buyuriladi. Aristobul esa, Bessni Ptolomeya Spitamen va Datafern olib kelishgani va uni Aleksandrga yalang'och holda keltirishganini hikoya qiladi.

MAROQAND

Olimlarning izohlashicha, Afina, Rim, Yerevan, Samarcand dunyodagi eng qadimgi shaharlardan ekan. Zero - qadimiylikka daxidorlikda bularga teng keladigan shahar yer kurrasining hech bir burchagida yo'q. Afina va Rimning qadimiyligi haqida donolar ko'p yozishgan. Bu o'rinda Yerevanning qadimiyligi haqida to'xtalishni lozim topmadik. Ammo Maroqand haqida ham misriliklar ilgari ko'p fikrlarni bildirishgan.

Ular Maroqandning qadimiyligi obidalari, topildiq tangalar, yerostidan topilgan shahar vayronalari, ko'za va sopol idishlarning sinqlari, devorlarga chizilgan suratlar orqali bu shaharning qadimiyligi haqida qimmatli fikrlarni bayon qilganlar. Biz esa bunday faraz va tahminlar haqida to'xtalmasdan, qadimda Maroqandda bo'lib o'tgan voqealar haqida fikr yuritmoqchimiz.

Maroqandning qadimiyligi va go'zalligi haqida Aleksandr bu shaharga kelmasdan ancha ilgariroq eshitgandi. Eron shohligining poytaxti bo'lган Suz, Persopol shaharlaridan ham go'zal bo'lган bu shaharga yetishni Aleksandr ko'pdan orzu qilardi. Bu shaharning bebaaho boyliklarini Kir, Dorolar allaqachonoq talab ketgan bo'lsa-da, necha bor qayta tiklangan muhtasham binolari ham o'zining ko'rkinii va salobatini yo'qtgan emasdi.

Jug'rofiy sharoiti juda, qulay bo'lган bu shahar atrofidagi qabilalar asosan dehqonchilik bilan shug'ullanardi. Ikki-uch irmoqqa bo'linib ketgan

Politimet daryosi go'zal qizning kokilidek shahar ko'rkiga ko'rk qo'shib turardi. Politimet daryosi So'g'diyona bilan Baqtriyani bog'lab turardi. Daryoning ikki qirg'og'iga zich joylashgan qabilalar yetishtirgan turlituman mevalari, oziq-ovqat mahsulotlari bilan shaharni ta'minlab turardi. Shu tufayli qadimdayoq, Maroqand bozorida odam qaynardi. Aleksandr So'g'diyona tuprog'iga qadam qo'yishi bilan Maroqand tomon shoshadi. Maroqandga kelgandan so'ng esa, yovvoyilar yashaydigan o'lka deb eshitgan Osiyoning ichkarisida bunday muhtasham shaharning mavjudligidan hayratga tushadi. Qadimiyligi jihatidan Afinadan qolishmaydigan bu shaharga Aleksandr qayta-qayta tashrif buyuradi. Xo'sh, Aleksandr Maroqandga kelganda bu yerda qanday voqealar yuz beradi?

Qadim Maroqand deganda, biz, eng avvalo, So'g'dyonani tushunamiz. Chunki Aleksandr Makedonskiy davrida Maroqand So'g'dyonanining poytaxti edi. Maroqand va uning atrofida bo'lib o'tgan voqealarini eslaganimizda esa, Spitamen halokati ko'z o'ngimizga keladi.

Qadim Maroqandni o'ylaganimizda Buyuk donishmand Aristotelning nevarasi va shogirdi Kallisfen yodga tushadi. Kallisfen Osiyodagi eng yirik shahar hisoblangan Maroqandning peshtoqlariga hayrat bilan tikiladi.

Maroqand haqida to'xtalsak, Klit fojiasi ham ko'z o'ngimizdan o'tadi.

Maroqand deganda, turli uzoq-yaqin ellar va elatlarning elchilari uchrashadigan, karvonlar tunab o'tadigan shahar ko'z o'ngimizda paydo bo'ladi.

Kursiy Rufning ta'kidlashicha, Oks daryosidan o'tgandan so'ng Aleksandr Maroqand shahriga to'rt kunda yetib keladi. Uning devorlari aylanasisiga 70 stadiy bo'lib, ikki qator qilib o'ralgan edi. Baland va mustahkam qilib qurilgan bu binodan o'tish amrimahol edi.

Shahar ahli osonlikcha taslim bo'lmaydi. Aleksandr uni uzoq vaqt qamal qilib turadi. So'ngra sulh tuzish yo'li bilan himoyachilarga jazo bermaslikni va'da qilib, shaharga kirib oladi.

Aleksandr shaharda uzoq turmaydi. Mana shu sanoqli kunlar ichida u skif-ambiyislarning yuborgan elchilarini qabul qiladi. Bu qabila Aleksandr qo'shiniga avvallari bir necha bor qo'qqisidan hujum qilib, katta talafotlar keltirgan edi. Bu qabila bir vaqlar Eron shohi Kirga ham bo'ysunishdan bosh tortgan edi. Biroq ular Aleksandrga bo'ysunishga qaror qilishadi. Aleksandr ulardan bir necha bor hujum qilib, qarshilik qilishlarining

sababini so'raydi. Shunda skif-ambiyalar Aleksandrga nisbatan dushmanlik niyati yo'q ekanligini, ular faqat o'zlarini himoya qilish uchun qo'llariga quroq ushlaganligini aytishadi.

Aleksandr o'z ixtiyorli bilan do'st bo'lish niyatida kelgan skif-ambiy elchilariga ziyofat berib, ularning gunohidan o'tganligini aytadi.

Aleksandr Maroqanddaligida Yaksart daryosining narigi qirg'og'ida yashovchi skiflar unga qarshi jangga tayyorgarlik ko'rayotgani haqida eshitadi. Bundan tashvishga tushgan Aleksandr o'zining yaqin kishisi Pendani elchilarga bosh qilib, Yaksart orqasidagi skiflarga yuboradi. (Bu o'rinda Kursiy Ruf adashib Tanais degan.)

Shoh o'z elchilariga tayinlab, skiflarning Yaksart daryosidan berigi tomonga o'tmasligini tayinlaydi. Ularning dushmanlik maqsadida emas, do'stlik yo'li bilan shohning huzuriga kelishi mumkinligini aytadi.

Aleksandr necha kun Maroqandda bo'lgan bo'lsa ham, tinch va osoyishta uxmlay olmaydi. Shahar aholisi taslim bo'lsa-da, lekin uning atrofidagi qabilalar shaharga tez-tez hujum qilib, Aleksandrning tinchligini buzardi. Ular qo'qqisdan hujum qilib, soqchilarni o'ldirib ketar, ba'zan maxfiy yerosti yo'llari orqali shahar ichiga kirib olib, katta o'lja bilan yana orqalariga qaytib ketishardi. Shahar atrofidagi qishloqlarga chiqqan qo'shin to'dalarini tutib olib, azoblab o'ldirar yoki o'lar holatda Maroqandga qaytarib yuboradi. Bunday qasoskor to'dalarning qayerdan kelganini va qayerga yashiringanini hech kim bilmasdi. Katta talafotlar ko'rib, kundan-kun jangchilaridan ajralib qolayotgan Aleksandr darg'a-zab bo'lib, «shahar atrofidagi qishloqlarni yoqib vayron etishni buyuradi»¹.

Arrianning xabar berishicha, Aleksandr qo'shining bir qismi bilan So'g'diyonaga o'tadi. Poli perxonat, Attal, Georg va Meleagrni Baqtriyaga mamlakat tinchligini saqlab turish uchun qoldiradi. Har qanday qo'zg'oltonni bostirishni buyuradi. O'zining qolgan qo'shinini esa Aleksandr besh qismga bo'ladi. Biriga qo'mondon qilib Gefestionni, ikkinchisiga Laganing o'g'li, shaxsiy soqchisi Ptolomeyni, uchinchisiga Perdikni, to'rtinchisiga Ken va Artabazni tayinlaydi. Beshinchi otryad bilan o'zi Maroqandga qarab yuradi. Qolganlar esa o'z bilganlaricha yurish qilishardi: qochoqlarni topib bir joyga yig'ar, o'z ixtiyorlari bilan bo'ysunganlarni esa fuqarolikka olishardi. Aleksandrning butun qo'shini So'g'd yerining bir qismini

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 298- bet.

bosib o'tib, keyin Maroqandga yetib kelishadi. So'g'diyona yerlariga odamlarini joylashtirish uchun Gefestionni orqaga qaytaradi.

Spitamen, ko'p o'tmay, Maroqand shahrini istilochilardan ozod qiladi. Bu xabarni eshitgan Aleksandr Maroqand tomon yo'l oladi. Kursiy Rufning ta'kidlashicha, «u katta qo'shinni Kraterga qoldirib, Maroqandga yetib keladi. Aleksandrning Maroqand tomon kelayotganini eshitgan Spitamen Baqtriyaga qarab ketadi»¹.

Shunday qilib, shoh ikkinchi marta Maroqandga keladi. Bu safar shahar aholisi unga qarshilik qilmaydi. Biroq So'g'diyonaning ko'pgina joylarida qo'zg'olonlar bo'lib, qo'shinga talafotlar berayotgani shohni tashvishga solardi.

Aleksandr bu shaharga tez-tez kelishni istardi. Chunki shahar ko'p jihatdan shohga juda yoqib qolgandi. Ilgari bu shaharga kelganida Bosfor bo'yalarida yashovchi skiflar unga qarshi katta qo'shin to'playotgani haqida xabarni eshitib, ularga o'z yaqini Berdani elchi qilib yuborgan edi. Kursiy Rufning ta'kidlashicha, Yaksart bo'yalarida uzoq turib, ikkinchi marta Maroqandga qaytib kelganida o'sha Bosfor bo'ylaridagi skiflarga elchi qilib yuborilgan Berda qaytib kelganligini xabar qilishadi. Berda Bosfor bo'ylaridagi skiflar bilan ittifoq tuzganligini ma'lum qiladi. Haqiqatan ham, Bosfor bo'ylaridagi skiflar Aleksandr ishg'ol etgan yerkarda hujum qilmaydi.

Aleksandrning qo'shirlari butun So'g'diyona, Baqtriya, Girkaniya, Marg'iyona, Parfiya va Eron yerlarida joylashgan bo'lib, yerli xalq hali o'z kurashini to'xtatmagan edi. Istilo qilingan o'lkalarda har joy-har joyda hujumlar bo'lib, katta-kichik talafotlar yetkazilmoqda edi. Keng o'lkalarga tarqab ketgan ulkan qo'shin kundan-kun kamayib borardi. O'zining qo'l ostidagi qo'shining bir qismi Maroqand shahrini zo'rg'a himoya qilib turardi. Shuning uchun shoh Makedoniya va Gretsiyadan qo'shimcha kelayotgan qo'shini sabrsizlik bilan kutardi. Ertami-kech choparlarni yaqin atrofdagi hokimliklarga yuborib, qo'shimcha kuchning kelishidan darak olardi. Shohning o'zi Maroqandning baland devorlari ustiga chiqib goh Eron tomonga, goh Girkaniya tomonga termilib qarardi.

Nihoyat, katta qo'shining Maroqand darvozasi oldiga kelib to'xtashi shoh uchun kutilmaganda xursandchilik olib keldi. Qo'shimcha madad

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 287- bet.

kuchini Maroqandda uzoq vaqt saqlab turmasdan, shoh qo'shinni bir necha qismga bo'lib, tadbirkorlik bilan qo'zg'olon ko'targan xalq harakatini bostirish uchun yuboradi. Shundan so'ng, xalq harakati tezda bostirilib, ularning yo'lboschchilarini tiriklayin tutib Maroqand shahriga keltirishadi. «Qo'zg'olon boshliqlari qatl etiladi»¹.

Arrianning ta'kidlashicha, Aleksandr Maroqanddaligida uning oldiga yana yevropalik skiflardan elchilar kelishadi. Ular orasida Aleksandrning o'zi skiflar eliga jo'natgan elchilar ham bor edi. Aleksandr ularni yuborganda skiflarning podshosi vafot etib, uning o'rniga taxtga ukasi o'tirgandi. Elchilar skiflar hamma narsaga tayyor ekanliklarini, Aleksandr nimani buyursa, hammasini bajarishlarini aytishadi. Shohga skif podshosi yuborgan qimmatbaho sovg'alarni tortiq qilishadi. Hatto do'stlikni mustahkamlash uchun shohga qizini berishga ham roziliginibildiradi. Mabodo u qizni o'ziga munosib deb bilmasa, shohning do'stlariga bo'lsa ham, atoqli skif hokimlarining biri qizini berishga tayyor ekanligini aytishadi. Agar Aleksandr buyursa, uning buyrug'ini bajarish uchun kerak bo'lsa, hatto shohning o'zi kelishga tayyor edi.

Boshqa tarixiy manbalarda ham, Aleksandrning Maroqandda ko'pgina elchilarni qabul qilgani aytildi. Kursiy Rufning ta'kidlashicha, Aleksandr Maroqandga Xorazm shohi Farasmani elchi yuborganini, skif elchilari ham kelganligini aytib, shunday yozadi:

Massaget va dak yerlarini birlashtirib turgan Xorazm boshlig'i, Farasman ham shohga odamlarini yuborib, bo'ysunganini ma'lum qiladi.

Skiflar ham Aleksandrga o'z shohining qizini berishga roziliginibildiradi.

Aleksandr ikki elchini ham diqqat bilan tinglab, Gefestionning kelishini kutadi.

Arrianning ta'kidlashicha, Aleksandr Maroqanddaligida uning oldiga Kursiy Ruf aytganidek, Xorazm shohi Farasman yuborgan elchilar emas, balki Xorazm shohi Farasmanning o'zi otliq askarlari bilan keladi.

Farasman Aleksandrga u bilan qo'shni turishini, uning yonida kolxid va amazonkaliklarning qabilalari yashashlarini aytadi. Agar Aleksandr ular bilan birga Evxsinsk daryosi bo'yida yashayotgan qabilani ham bosib olmoqchi bo'lsa, askarlari uchun barcha narsani tayyorlab, unga yo'lboshlovchi ekanligini ma'lum qiladi.

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 299- bet.

Skif elchilariga Aleksandr muloyimlik bilan javob beradi, lekin qizlaridan bosh tortadi. Farasman bilan u do'stlik ittifoqi tuzadi. Aleksandr Farasmanni Baqtriyani boshqarish uchun tayinlangan fors Artabaz qo'liga topshiradi, so'ngra uni o'z yurtiga jo'natib yuboradi. Aleksandrning fikri-xayoli Hindiston bilan band edi. Agar uni bosib olsa, butun Osiyoni qo'lga kiritadi. Osiyoni bosib olgach, Elladaga qaytib keladi. Bu yerdan esa Gelleskont va Propontiddan o'tib, suvdagi va quruqlikdagi barcha qo'shinlarni olib, Pont bo'ylariga bostirib kiradi. Shuning uchun u Farasmandan o'z yordamini boshqa safarga qoldirishini iltimos qiladi².

Mana shu faktlarning o'ziyoq Maroqandning qadimdan ko'pgina uzoq va yaqin o'kalarga tanish bo'lganidan, bu shaharda savdo-sotiq, madaniy va iqtisodiy aloqalar kuchayganidan dalolat beradi.

Ikkinci tomondan olib qaraganimizda, Aleksandr Xorazm o'lkasiga tomon yurish qilmagan yana bir muhim fakt shundaki, Maroqandga Yevropa skiflarining elchi bo'lib kelishi Aleksandrning shimal tomonlarga, xususan, Tanais (Don) daryosi bo'ylariga hujum qilmaganini ko'rsatadi.

Maroqandliklar grek va makedon qo'shinlariga hayron bo'lib qarashardi. Jangchilarining kiyimi butunlay boshqacha edi. Maroqandga uzoq yunon o'lkasidan, Misr, Rum, Suz, Persopol shaharlaridan ajnabiylar, savdogarlar karvoni kelardi. Ammo jangchilarни, yevropacha kiyingan bunday harbiylarni hali ko'rismagan edi. Shahar ahli qo'rqa-pisa jangchilarining qurollariga nayza, qilich, yoy, qalqonlariga, boshidagi dubulg'alariga, sarkardalarning egnidagi sovut kiyimlariga hayron bo'lib tikilishardi. Ayniqsa, ularning tiliga hech kim tushunmasdi.

Ular xonadonma-xonadon yurib, o'zlarining qimmatbaho buyumlariga oziq-ovqat almashtirib ola boshlashdi. Biroq Aleksandr o'g'rilik qilishni taqiqladi. Shuningdek, zo'ravonlik bilan talon-taroj qilishni vaqtincha to'xtatishni tayinlaydi. Chunki shahar va uning atrofidagi xalqning qahr-g'azabini qo'zg'ab, ularning katta kuch bilan hujum qilishidan qo'rqardi. Shuning uchun ham, bozor maydoniga shahar ahlini yig'ib, ularga qarab ma'ruza o'qiydi. Uning tilini hech kim tushunmasdi. So'ngra uning tilini Doroning ukasi Oksidat tarjima qilib beradi (manbalarda Oksafr ham deyiladi).

«Muqaddas ma'budalarimiz Mitra, Xumo, Mirrix karomatiga ko'ra, xudo bizga o'z o'g'li Iskandar Zulqarnaynni yubordi. Bu Iskandar-quyoshimiz oldida hammamiz qul kabi itoatkor bo'lishimiz kerak. Kimda-

kim uning bashoratlariqa qulqoq tutsa, do'st bo'lib qoladi. Kimda-kim bu ulug' siymo ra'yiga qarshi chiqsa, og'ir jazoga tortilur.

Sizning shohingiz Doro mening tug'ishgan inim bo'lur. Xudoning bashorati bilan ulug' jangda mag'lub bo'ldi. Lekin shohning og'a-inilari xudoning xohishi bo'lgani uchun xudo o'g'li Aleksandning qarshisida itoatkor bo'lishga majbur. Sizlar ham shunday yo'lni tutib, xudoning o'g'li Iskandarga itoat etishga majbursiz. Iskandarning qo'li yetmagan, qadami bormagan jahonda biron yer yo'q.

Ahmoniyalar davlatining podshosi Doro Kodomon o'rniiga Iskandar Zulqarnayn sizlarga shoh sanalur.

Shuning uchun ham, shahar atrofidagi qavm-qarindoshlaringizga yetkazing. Isyon ko'tarish befoyda. Bugun bu bozorga kelgan ahli axbordan talab shulki, mollarngizni o'z narxida shohimiz sotib olur».

Shahar ahlining ko'pchiiligi Eron tilida gapirgan Oksidatning ma'ruzasiga tushunishmaydi. Shundan so'ng Oksidatning gapini Farnux so'g'd va baqtr tillariga tarjima qilib, yig'ilganlarga yetkazadi.

Arrianning aytishicha, Farnux avliyolar nasliga mansub edi. Farnuxning otasi Maroqand shahrining eng ulug' va hurmatli kishilaridan biri edi. Ularning xonadoniga Erondan tog'alari tez-tez tashrif buyurib turishardi. O'zi ham ikki marta eronlik savdogarlar bilan Suz shahriga borib kelgandi. Onasi suzlik bo'lgani uchun tog'alari bilan aloqasi yaxshi edi. Og'alari Eronning eng badavlat savdogarlaridan bo'lib, Yunon, Rum, Maroqand, Xitoy tomonlarga tuyalarga mol ortib, karvon yo'llari bilan qatnardi. Farnuxning katta bobosi ham asli eronlik bo'lib, Doro I davrida eramizdan avvalgi 489- yilda Maroqand shahriga kelib qolgandi.

Podshoh Doro I (eramizdan avvalgi 522-486) saltanatining uzoqroq qarindoshlaridan bo'lgani uchun Maroqandning kazo-kazolari ham uni avliyolar qatoriga qo'yib egilib salom berardi. Bobolari Maroqandga kelganiga ikki asr bo'libdiki, Farnux bu shaharda yashovchi baqtr, so'g'd tillarini yaxshi o'rganib olgandi. Eronlik qarindoshlari bilan esa hali tamom aloqa uzilmagandi.

Oradan qariyb ikki asr o'tgan bo'lsa ham Ahmoniyalar podshohligi sulolasi bilan Maroqanddagi bu xonadon o'rtasida aloqa uzilmagan edi. Erondan kelgan karvonlar Maroqandga qo'nganda, albatta, sovg'a-salomlar bilan Farnuxlar xonadoniga ham qo'nardi.

Doroning inisi Oksidat ham akasi Doro Kodomon tiriklik vaqtida Maroqandga ikki marta kelib ketgandi. Hatto u So'g'diyona o'lkasiga hokim

bo'lishni akasidan o'tinib so'raydi. Biroq Oksidatning ko'ngli juda yumshoq, muloyim va rahmdil bo'lgani uchun Doro unga So'g'diyona hokimligini ishonib topshirolmaydi.

Oksidat yoshligida yunon va fors donishmandlaridan bilim oladi. Otasi Arses ham o'zini ulug' Kir sulolasidan deb bilardi. Biroq podshoh bo'lishiga qaramasdan, u o'qimishli kishilarni juda hurmat qilardi, qimmatbaho sovg'alar berib qadrlar edi. Shu tufayli Arsesning bunday ilm ahllariga g'amxo'r va mehribonligini eshitgan donishmandlar uzoq-yaqindan kelib Suz va Persopol shaharlariga yig'ilal boshlaydi. Hatto bu shaharda Hind, Yunon, Misr, Rim va Xitoy donishmandlarini uchratish mumkin edi. Arsesning vaqtி ko'proq jang-u jadallarda o'tsa ham bu donishmandlardan xabar olishni kanda qilmasdi. Oksidat esa ko'pincha donishmandlar davrasida bo'lardi. O'zi yosh bo'lsa ham, podshohning o'g'li bo'lgani uchun ulug' donishmandlar o'spirinni o'z davralariga bajonidil qabul qilib olardi.

Arses davrida ulkan Ahmoniyalar davlatining ichki qatlamida jang-u jadallar kuchayib ketadi. Ahmoniyalar sulolasи ichida Arses eng adolatlil podshohlardan biri edi. Biroq u ig'vo-tuhmatlarga ishonuvchan edi. Shu tufayli u ig'vogar va hasadgo'y larga ishonib, qo'l ostidagi ko'pgina o'lkalarining hokimlarini og'ir jazoga tortadi. Bu narsa ichki nizoning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Ko'proq jang-u jadallarda yurgan Arsesning o'g'li Oksidat tarbiyasi bilan shug'ullanishga vaqtி bo'lmасди. Shu tufayli ko'proq donishmandlardan saboq olish bilan mashg'ul bo'lgan Oksidat ba'zan og'asi Doro bilan ovga chiqib turardi. Biroq Doro Oksidatni ko'ngilchan, rahmdil bo'lgani uchun yoqtirmasdi.

Shu tufayli Oksidat ulg'ayib, So'g'diyona hokimligini so'raganda Doro uning ra'yini qaytarib tashlaydi. Maroqandga ikki marta kelganida ham Farnuxlar xonadoniga mehmon bo'lgandi. Chunki Maroqandda Farnuxlar xonadonidek ulug' xonadon yo'q edi.

Aleksandr Oksidatning Doroning inisi bo'lsa ham donishmandsifat, ko'nglida g'araz tuyg'usi yo'q yigit ekanligini bilib, uni o'zining eng yaqin kishisi qilib oladi. Bu , birinchidan, forslar bilan aloqani mustahkamlash uchun zarur narsa bo'lsa, ikkinchidan, Oksidat grek tilida bemalol gaplasha olardi. Chunki, otasi shoh Arses yunon donishmandlariga qattiq tayinlab, grek tilini o'rgatishni aytgan edi.

Arsesning kuchini mustahkamlab, yunonlarga qarshi urush ochish niyati ham yo‘q emas edi. Hoziroq ulkan yunon o‘lkasining bir qismi Arses qo‘lida edi. Agar mabodo bu niyati amalga oshib yunon o‘lkasini o‘ziga qaram qilib olsa, bu o‘lkaning hokimligini o‘g‘li Oksidatga berishni ko‘ngliga tugib qo‘ygandi.

Aleksandr Oksidatni ko‘p sinab ko‘radi. Chunki og‘asi Doroning xunini olish uchun Aleksandrga qasd qilib qo‘yishi mumkin edi. Biroq Oksidat Aleksandrga sadoqat bilan xizmat qiladi. Ammo Bessni o‘z shohi Doroga xiyonat qilgani uchun la’natlar edi. Shunday qilib, Oksidat Aleksandrning yaqin kishisiga aylanadi.

Maroqandga kelganda esa Oksidat Farnuxni topib olib, Aleksandr bilan tanishtiradi. Oksidat Aleksandr bilan tengdosh edi. Farnux esa ikki yosh kichik edi. Shundan so‘ng Farnux Aleksandrning ishonchini qozo-nib, uning So‘g‘diyonadagi eng ishonchli kishisiga aylanadi. Farnux so‘g‘d, baqtr tillaridan tashqari eron tilini ham yaxshi bilardi.

Otasining Doro bilan yaqin aloqasi bo‘lgani uchun Farnux ulg‘aygach, So‘g‘diyona hokimligini so‘rab olishni ko‘ngliga tugib qo‘ygandi. Shu tufayli Farnux faqat Maroqandda bo‘lib qolmasdan, Yaksart bo‘ylarigacha, Oks qirg‘oqlarigacha kelib ketar, butun So‘g‘diyona bo‘ylab aylanib yurardi. Farnuxning So‘g‘diyona yerlarini, qishloq va qabilalar joylashuvini yaxshi bilishi Aleksandrga juda qo‘l keladi. Chunki shoh Farnux yordamida So‘g‘diyonaning ichkarisiga kirib boradi, eng maxfiy yo‘llardan ham o‘ta oladi.

Aleksandr ikkinchi bor Maroqandga kelganda ikkita to‘yda qatnashadi. Yunonistonlik savdogar Basrun o‘z o‘g‘lini maroqandlik bir qizga uylantirgandi. Basrun Maroqandga savdo ishlari bilan kelib, og‘ir kasalikka yo‘liqqandan so‘ng Yunonistonga qaytiib ketishga ko‘zi yetmagach, shu shaharda qolishga qaror qiladi. U asli Misrning Memfis shahridan bo‘lib, grek qabilalaridan birida tug‘iladi. Chunki Memfisda¹ grek qabilalari juda ko‘p edi.

Shu tufaylidir, balki xalqimiz azaldan yo‘lni qutlug‘ deb biladi. Yo‘lni buzganlarni esa qarg‘aydi, la’natlaydi. Yo‘l yurib kelganlarni esa, avliyolar qabridan o‘tib, qabristonlarni ko‘rib kelgan, ulug‘lar qo‘lini olgan

¹ Misrni arab davlatlariga qo‘sib tilga olsa-da, misrliklarning qadimgi tili butunlay boshqa bo‘lgan. Eramizning VII asridan keyingina arab tili Misrda asosiy til hisoblanadi.

deyishadi. Qadimda ulug'lar bilan ko'rishgan kishi ham ulug' hisoblangan. Chunki ulug' nison bilan uchrashgan kishi undan o'ziga yaxshi xislatlarni yuqtiradi.

Basrun umrida yaxshilarni ham, yomonlarni ham ko'rdi. U Afinadan Chingacha bo'lган yo'lни besh qo'ldek bilardi. Memfisdan Afinagacha, Afinadan Suzgacha yoki Maroqandgacha necha kunlik yo'l ekanligini aniq aytib berardi. Basrunning otasi ham savdo-sotiq ishlari bilan mashg'ul bo'lib, karvon bilan Maroqandga uch marta kelib ketgandi. Bugun esa Basrun Chindan chiqqan karvon bilan zo'rg'a Yaksart bo'ylariga yetib keladi. Avvaliga uni shu yaqin oradagi qishloqqa tashlab ketishga qaror qilgan karvon keyin uni Maroqandgacha bir amallab yetkazishga kelishadi. Karvonda Basrunning ikki o'g'li bor edi. Ular azob-uqubatda qolib bo'lsa ham otasini Maroqandga yetkazishni o'z zimmalariga olishadi. Avvaliga Yaksart bo'yidagi bir qishloqda qolishga rozi bo'lган Basrun Maroqandga yetib olishni o'ylaydi. Maroqandga kelib o'lishga ming bor shukr qiladi. Chunki Maroqandda uning otasi Laret o'lgandi. O'shanda Basrun ancha yosh bo'lgandi. Kun bo'yi Laretning kayfi chog' bo'lib, kun botish chog'ida shod-u hurramlik bilan Maroqandga kirib keladi. Laretning xursand bo'lishiga sabab, Maroqandda uning do'stlari ko'p edi. Bir hafta bu shaharda savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanib, Chin sari yo'lga tushishni mo'ljal qilib qo'ygandi. Qarangki, bozor yaqinidagi karvonsaroya qo'nib, Maroqand tamakisini qidirishga tushadi. Chunki Laret Maroqand tamakisini yaxshi ko'rardi. Har gal Maroqand tamakisidan keltirishni afinaliklar, memfisliklarga alohida tayinlardi. Chunki, Maroqand tamakisi Memfisga yetmasdanoq, yo'l-yo'lakay xarid qilinib, tamom bo'lardi. O'shanda Laret tamaki chekib bo'ldi-yu, yuklarni kuzatish uchun karvonsaroyning ichkarisiga kirib ketdi. Basrun qaysi ko'z bilan ko'rsinki, otasi yonginasida jon beradi. Unga nimadir demoqchi bo'ldi, ammo ulgura olmadi. Shu-shu, har safar Maroqand dan o'tganda, albatta, otasining qabrini ziyyarat qilib ketadi u.

Savatga o'xshash uzun nor yasab, tuyaning ustiga o'rnatadi-da, ichiga bemor Basrunni solib, karvon Maroqandga qarab siljiyli. Basrun Maroqandga kelganda behush edi. Karvon uch kungacha kutdi, Basrun hushiga kelavermagach, kichik o'g'li Robxitni qoldirib, karvon Afinaga qarab yo'lga tushadi.

Basrun ko'zini ochganda Maroqandda ekanligini sezdi. Ammo taqdirmi qarangki, nahotki, u ham otasi o'lган mana shu Maroqandga kelib jon

bersa. Ammonning savdogarlar sulolasiga qahri kelgandir, balki. Basrun endi o'lim daqiqalari yaqinlashib qolganini seza boshlaydi. Shu tufayli bo'lsa kerak, o'g'li Robxitni huzuriga chorlab, nimjon ohangda o'g'lining qulog'iqa Laretning yoniga dafn qilishni tayinlaydi. Birpas nafasini rostlab, vana qo'shimcha qiladi. «Bilasan, Chinga ketayotganda babongning qabrini ziyorat qilgandik!» Robxitning ko'zi jiqla yoshga to'ladi. «Nahotki, otamni ham bobomning yoniga dafn qilsak. Taqdirning qahri Maroqandga kelganda bizning boshimizga nega kulfat soladi», deb qo'yadi u ichida. Robxit ancha kech kirib qolgan bo'lsa ham, oy yorug'ida, Makedon jangchilaridan uchtasini yollab olib, har ehtimolga ko'ra bobosi Laretning qabrini izlab topdi. Otasini vasiyatiga ko'ra taxminan qayerga dafn qilishni ko'ngliga tugib qo'ydi. Kechasi bilan mijja qoqmay otasi boshida parvona bo'lib chiqdi. Bemor o'sha kechasi har galgidan ko'ra tinch va osoyishga uixlaydi. Taqdirning kulib boqqaniga qarangki, ertalab Basrunning labida muloyim jilmayish paydo bo'ladi. Quyosh tushlikdan qaytgandan so'ng Basrun o'g'liga tayinlab, tush ko'rganligini, tushining ta'biriga ko'ra, Ammon undan nihoyatda xafa bo'layotganini aytadi. Kechga yaqin karvonga yaramay qolgan yolg'izgina otini Ammon sharafiga bag'ishlab so'yadi va go'shtini qo'ni-qo'shnilariga ularhib chiqadi. Go'shtning yarmini karvonsaroydagilarga berishadi. Balki mana shu qurbanlikdan so'ng Ammonning rahmi keldimi, har qalay tez kunda Basrun oyoqqa turib ketadi. Bundan o'g'li Robxit behad xursand edi.

Og'ir dard Basrunning ulkan gavdasini ushoqqa aylantirib qo'ygandi. Shunday bo'lsa-da, u oyoqqa turib ketganiga shukur qilardi. Tez orada Basrun savdo ishlarini yaxshi bilgani uchun bozor ishlariga aralashib, iqtisodini ham tiklab oladi. Ona shahri Memfisga qaytishni xayolidan chiqarib tashlashga harakat qiladi. Chunki uzoq yo'lda yana dardga chalinib, Memfisga yetolmay qolishidan qo'rqadi. Shuning uchun ham, taqdirga tan berib, Maroqandda qolishga qaror qiladi. Kichkinagina bir hujrani olib, o'g'li Robxit bilan istiqomat qila boshlaydi.

Ma'lumki, Aleksandr Maroqandga kelgandan so'ng grek-makedonlarning shahar qizlariga uylanishiga ruxsat beradi. Bu xabarni eshitib, o'g'li Robxitni uylantirish niyatida yurgan Basrun shohning huzuriga boradi. Avval grek tilida, so'ngra makedon tilida gaplashgan Basrun shohining e'tiborini o'zita tortadi. Basrunning taqdiri bilan qiziqib qolgan Aleksandr uning taklifini qabul qilib, o'g'li Robxitning to'yini saroya-

tegisli bo'lgan hovuz bo'yidagi rastada o'tkazishni, to'y xarajatlarini o'z hisobidan ko'tarishini aytadi.

Robxit qo'shni hujradagi bir qizga uylanadi. Uning otasi Maroqand bozorining chaqqon savdogarlaridan edi.

To'y Aleksandr aytganidek, hovuz bo'yida katta tantana bilan o'tadi. To'yga shohning o'zi ham tashrif buyuradi. Shohning o'ng qanotida So'g'diyona, Baqtriya, Girkaniya va hatto eronlik kazo-kazolar sharq libosida o'tiradi, chap qanotini esa grek va makedonlar egallab, ularning ayrimlari o'z milliy kiyimida, ayrimlari esa jangdan keyin tantanalarda kiyinadigan harbiy kiyimda o'tirishardi. Ular ichiga faqat Gefestionning kiyimigina sharqlıklamikiga o'xshab ketardi. Aleksandr avvallari tantanalarda sharq libosini kiymasdi. Bugungi kiyimda esa uni sharq shohlaridan ajratish qiyin edi. Shohning chap qo'lidagi Doro uzugi quyosh nurida yaltirab turardi. Hovuzning kun botish tomonidagi baland so'riga chiqib, to'rdagi kursisiga borib o'tirishi bilanoq, osiyolik ulug'lar uning etagidan o'pib, birin-ketin o'z o'rinnarini egallay boshlashdi. So'ngra o'zining sarkardalari, oliv martabali kishilari shohning qo'liga taqilgan Doro uzugidan o'pib, ta'zim qila boshlashadi. Anchadan buyon kuchga kirgan bu odatga hamma o'rganib qolgandi. To'y bazmi tunning yarmigacha davom etadi. Sharq raqqoslaringin o'ziniga berilib ketgan shoh barcha g'am-g'ussasini unutgan edi.

Oradan ikki kun o'tgach, shoh Oksidatning to'y bazmida ham ishtirok etadi. Oksidat Farnuxning singlisiga uylanadi. Oksidatning Suzda ham xotini bo'lib, undan ikkita farzand ko'radi. Lekin farzandlarining ikkisi ham qiz bo'lgani uchun xotinidan ko'ngli to'lmay yurardi. Shuning uchun ham, Suzdayoq ikkinchi xotinga uylanishni ko'ngliga tugib qo'ygandi. Ammo tezda urush boshlanib ketib, uning bu orzusi amalgal oshmay qolgandi. Farnux bilan topishgan kunining ertasigayoq uning uyida mehmon bo'lib, ertalabgacha mayxo'rlik qilganida singlisiga oshiq bo'lib qolgandi. To'yni istagancha tantana bilan o'tkazishga Oksidatning qurbi yetardi. Shoh bu tantanaga, albatta, qatnashish istagini bildiradi. Bu Farnux uchun ham katta obro' edi. Shuning uchun ham, u Maroqandning eng mashhur raqqosalari bilan Zuzob nomli xushovoz qo'shiqchini ham to'yga olib keladi.

Oksidatning to'yida ham Aleksandr o'zini Osiyo shohlaridek tutadi. Shohga maroqandliklar tayyorlagan sharob juda yoqib qolgandi. Aleksandrning asabi zaifligidanmi, ozgina ichgandan yuzlari qizarib,

afti o'zgarib qolardi. O'tkir ko'zları yanada chaqchayib ketardi. Shuning uchun ham, atrofdagilar shohning ko'p ichishi tarafdori emasdi.

Oksidatning to'yida anchagina Maroqand sharobidan ichib qo'yan shoh tonggacha Zuzobning sho'x va quvnoq qo'shilg'iga mahliyo bo'lib, o'tkir ko'zlarini undan olmaydi. Og'zining suvi qochib, Zuzobning uzun sochlardan ushlab, sirli xonish qilib o'ziga tomon tortib qo'yadi. Shoh bunday dirlrabo qo'shiqchi va raqqosani hali Osiyoda ko'rmaganini mammuniyat bilan aytib, davrani yanada jonlantiradi. So'ngra Maroqand sharbatini maqtashga tushib, undan qonib ichadi. Zuzob tongga yaqin shohga yaqin kelib, yolg'izgina akasining Maroqand bozoridagi to'polonda qo'lga olinib, hozir tutqinlikda saqlanayotganini aytadi. Shoh uning akasini ertalabooq tutqinlikdan ozod etishni Ptolomeyga buyuradi.

Maroqand Aleksandrga juda yoqib qolgandi. Faqat shohga emas, bu shaharning sarkarda va martabali kishilariga ham ma'qul bo'lgandi. Sarkardalar, kazo-kazolar erta-yu kech betinim ichardi. Ichkilikbozlikka, eng avvalo, shahar hokimi Klit bosh-qosh edi. Klit dargohida har kuni quyiq dasturxon yozilar edi. Bu dasturxondan eng noyob mevalarni, shirin sharbatlarni topish mumkin edi. Ammo Maroqandga hokim bo'lgandan buyon Klitning oromi yo'qolgandi. Chunki shaharga deyarli har kun Spitamen hujum qilib, turli tomondan xavf solib turardi. Ayniqsa, tungi hujumlar tahlikali bo'lardi. Deyarli har kuni tunda qasoskorlar kimnidir o'ldirib ketar, kimnidir talar, kimnidir o'g'irlab ketardilar. Shaharda nazorat kuchaytirilgan, shahar himoyasi mustahkamlangan bo'lsa-da, har tunda baribir xunuk voqeа sodir bo'laverardi. Klit shahar ahli bilan qasoskorlar o'rtasida pinhona aloqa borligini sezardi. Shu tufayli kundan kunga vahima bosib, g'am-g'ussasini sharob ichish bilan yuvib yurardi. Qaysidir mahfiy yo'llar bilan Spitamen ham shaharga kelib-ketarmish. Uni devona qiyofasida ko'rganlar ham bor emish. Hatto Krater bir kuni Klitga shaharda yolg'iz yurmaslikni aytadi. Shundan so'ng Klitning oromi yo'qoladi. Nahotki, shuncha yil jang-u jadallarda yurib, ne-ne tahlikali yurishlardan sog'-omon qolgan Klit Osiyoning mana shu chekka shahrida o'lib ketsa?! Ancha-muncha yiqqan boyliklari kimningdir qo'lida qolsa?! Axir, bu keksa sarkarda o'z yurtiga qaytib, Makedoniyaning oqsoqollari davrasida yurish niyati bor edi-ku!

Maroqand hokimi bo'lganidan Klit avval behad xursand bo'lsa-da, keyinchalik shohdan butunlay ko'ngli qoladi. Uning xayolida Aleksandr

Klitni dushman tuzog‘iga tashlagan edi. Chunki Maroqand Osiyoning eng yirik shahri bo‘lsa-da, notinch edi. Klit esa ko‘proq o‘z jonini saqlashni, yiqqan boyliklarini avaylab-asrashni o‘ylardi.

Arrianning yozishicha, Spitamen Maroqandni bir necha kun qamal qilib turadi. Ammo shahar devorlari mustahkam bo‘lgani uchun unga kirishning iloji bo‘lmaydi. Shahar himoyachilari bo‘lmish makedon jangchilari bir necha bor Spitamenga qarshi hujum qiladilar. Biroq Spitamen shahar himoyachilarining bir qismini qirib tashlaydi, qolganlari esa shaharga kirib, jon saqlab qolishadi. O‘sanda Spitamen Klitga elchi yuborib, shaharni topshirishni bir necha bor talab qiladi. Aytishlaricha, Maroqandning ichki qismida hokimlar va aslzodalar yashaydigan bir qo‘rg‘on bo‘lib, bu qo‘rg‘on nihoyatda mustahkam ekan. Shaharning asosiy qismini bosib olgan Spitamen, bu qo‘rg‘onni ololmay juda qiynalib, uni qamal qilishni davom ettiradi. Uning niyati qal’adagilarni ochlik va suvsizlik azobida qiy nab, taslim bo‘lishga majbur qilishdan iborat edi. Mana shu qamal kunlari Klit o‘zining butunlay es-hushidan ajralib, o‘z joni ko‘ziga shirin ko‘rinadi. Klitning baxtiga «Farnux katta qo‘shin bilan kelib, Spitamenni So‘g‘diyonaneng eng chekkasigacha quvib boradi»¹.

Aleksandr Oksidat to‘yidan keyingi kuni davlat ishlari bilan mashg‘ul bo‘ladi. Turli tomondan kelgan elchi va savdogarlarni qabul qiladi. Qo‘shining joylashish nuqtalarini ko‘rib chiqadi. Maroqandda yig‘ilgan boyliklar yuklangan katta karvonni Misrga, Aleksandriya shahriga jo‘natadi.

Keyingi kuni shoh Klit dargohida katta tantanaga qatnashish uchun boradi va bu tantanada Klitga nayza sanchib o‘ldiradi.

Klit fojiasidan so‘ng Aleksandr Maroqandda o‘n kun bo‘ladi.

Bu o‘n kun ichida u ilgarigidek bazmlarda qatnashmaydi. Sharob ichishni to‘xtatadi. Boshqalarning ham mast-alast yurishiga yo‘l qo‘ymaydi. Maroqandda uzoq vaqt qolish rejasи buziladi. Har kuni uch marta Ammon sharafiga qurbanliklar keltirib, o‘z gunohini yuvadi. Har so‘zida Maroqand nomini mag‘urrona tilga olgan shoh bu shaharni qo‘l ostidagi Osiyoning poytaxtiga aylantirish niyatida edi. Ammo orzularga g‘arq to‘la bo‘lgan piyola shohning qo‘lidan tushib chil-chil sinadi. Maroqandda muhtasham imoratlar qurib, uni yanada go‘zal shaharga aylantirish

¹ Arrian. O‘sha asar, 136- bet.

niyatidan qaytadi. Og'ir gunohga botgan nimjon gavdasini zo'rg'a ko'tarib, shahar darvozasidan chiqib, xomush va g'amgin holda Nautak qal'asiga qarab yo'lga tushadi. Qaytib bu shaharga kelish shohga nasib etmaydi. Shohning nazarida bu shahar qasoskorlar, alamzadalar, xudoga ertadan kechgacha nola qiluvchi iltijogo'ylar shahri edi. Shoh Maroqandga hukimron bo'lolmadi, aksincha Maroqand shohni ruhan yengib qo'ygandek edi. Chunki Aleksandr hech qachon bunday yo'qotishni ko'rмаган edi. Maroqandga kelib, eng yaqin kishisi Klitni yo'qotdi. Bu shaharga kelib esini, aqli-hushini yo'qotdi. Shohning nazarida, Maroqand yechilmagan bir jumboq, bu ko'hna shahar inson qiyofasidagi bir keksa donishmand bo'lib ko'rindi. Aleksandr esa ulkan Sfinks qarshisida lol qolgan Lay kabi, bu nuroniy donishmandning savollariga javob topolmay, taqdirga tan berib, uning darvozasidan xomush chiqib ketadi.

YAKSART BO'YIDAGI SKIFLAR

Skiflarni urushqoq xalq bo'lgan, ular faqat yer talashib bir-biri bilan jang qilgan deyishimiz mutlaqo noto'g'ridir. To'g'ri, qadim zamonlarda skiflar yerida urushlar ko'p bo'lgan. Bosqinchilar bu boy o'lkaza tez-tez hujum qilib uni talab ketishgan. Shunday paytda, tashqi dushman xavfi tug'ilganda, skif qabilalari bir-biri bilan birikib, yelkadosh bo'lib, bosqinchilarga qarshi shafqatsiz kurashganlar.

Skiflarning orasida ham o'z donishmandlari bo'lgan. Shu tufayli ularning dovrug'i antik zamonlardayoq uzoq Gretsiya va Rim o'lkalariiga borib yetgandi. Qadimgi donishmandlar skiflar qabilasini hech yerga urib o'tishmaydi, shuningdek, kamsitib, haqorat toshlarini otmaydi. Aksincha, skiflarning juda katta elat bo'lganligini aytishadi. Skiflarga bag'ishlangan bunday iliq satrlarni o'qiganda, bobokalonlarimizni faxr hissi bilan eslaymiz. Ular o'z qabilasiga, yurtiga, ona tuprog'iga sodiq qolib, vatanparvar degan nomni sharaflab o'tganlar.

O'rta Osiyo geografiyasi antik adiblar uchun ancha og'ir vaziyatni keltirib chiqargan. Tariximizni yaxshi bilmagani sababli geografiyamizni yaxshi talqin eta olmagan hollar ham mavjud bo'lgan. Jumladan, ko'pgina asarlarda Yaksart (Sir) daryosi Tanais (Don) daryosi o'rniغا olib borib qo'yilgan. Hisor tog'lari Maroqand shahrining yonida tasvirlangan. Hind daryolari Girkaniya yerlariga bog'lab qo'yilgan.

To‘g‘ri, qadimgi grek va Rim nasrida bunday chalkashliklar juda kam. Eng muhimi, grek va Rim tarixiy nasridan O‘rtta Osiyoning antik davrlariga tegishli manbalarni o‘rganamiz. Bunday ifoda yoki tasvirlar xalqimizning uzoq o‘tmishiga oid ekanligini yuragimiz sezib turadi. Bunday aniq satrlarni o‘qib bobokalonlarimizni darrov taniymiz. Ularning ruhi tirik ekanligidan behad quvonamiz. Shaharlar, daryolar tarixini o‘rganib, tasavvurimizda yangi bir kayfiyat paydo bo‘ladi. Antik zamonlardayoq dunyoga dong‘i ketgan skiflar avlodni bugun hayot. Massaget, shak, sak kabi qabilalarning davomchilari bugungi kunda o‘z ajdodlarining ruhini pok saqlamoqda. Zero qadim zamonning tarixchilari haqiqatni yozishga odatlangan.

Qadimgi grek va Rim tarixchilari O‘rtta Osiyoning antik davrlari haqida shunday ibratli gaplarni aytib, bobokalonlarimizni shu darajada yuksaklarga ko‘tarib maqtaganki, hali biz avlodlar ular aytgan iliq gaplarning yuzdan birini ham aytga olganimiz yo‘q.

Mana shunday qadim tariximiz haqida so‘z yurituvchi, haqiqatgo‘y muarrixlardan biri sitsiliyalik Diodordir. Bu allomaning ta’kidlashicha, skiflar asosan Araks daryosi bo‘ylaridan Kavkazgacha va Meotisk ko‘ligacha (hozirgi Azov dengizigacha) bo‘lgan hududda yashar edilar. Ular asosan dehqonchilik bilan shug‘ullanishardi. Keyinchalik ular Tanais (Don) daryosigacha bo‘lgan hududni egallashadi. Skiflarda ikki shohlik bo‘lib, ularga Pal va Nap deb ataluvchi xalqlar bo‘ysunar edi. Keyinchalik skiflar Nil daryosi va Okeangacha bo‘lgan hududni bosib oladi. Shunday qilib skiflar asta-sekin ko‘payib boradi va buning natijasida ular orasida saklar, massagetlar, arimasplar degan xalqlar paydo bo‘ladi.

Skiflar faqat ko‘chmanchilik bilan shug‘ullangan tarqoq qabilalardan iborat emas. Balki ular o‘sha antik zamonlardayoq birikib, bir-biri bilan do‘splashib, ulkan qo‘shin atrofiga uyushgan. O‘zga shohliklar skiflar diyoriga bostirib kelib, bu yerdagi tarqoq qabilalarni tez-tez talab, xonavayron qilib, ularning g‘ashiga tegib ketavergach, jahli chiqqan skiflar qo‘l qovushtirib, yurt darvozasini bosqinchilarga ochib berib qarab turmasdan, yirik-yirik davlatlarni ham o‘zlariga bo‘ysundirib olishga qodir ekanliklarini ko‘rsatgan. Yon atrofdagi shohliklarni bosib olib o‘z chegarasini olis-olislargacha kengaytirib borganlar. Bu haqda Yustinning «Pompey Trog epitomi» asarida muhim faktlar keltirib o‘tilgan. Bu asarda yozilishicha, misrliklar aytadiki, bizning yerimiz

unumdar, qadimda qabilalar unumdar yerkunda joylashib olgan, shu tufayli yer yuzida eng qadimgi xalq bizmiz, deydi. Skiflar aytadiki, bizning yerlarimiz dengiz sathidan ancha balandlikda. Shuning uchun ham, biz qadimiymiz, deydi.

Skiflar bilan misrliklar o'rtasida ularning kelib chiqishining qadimiyligi to'g'risidagi uzoq vaqtidan buyon tortishuv davom etib kelayotganiga qaramasdan, skiflarning qabilasi eng qadimiy bo'lgan deb aytishadi.

Misrning tabiatini o'rtamiyona. Shuning uchun ham, na qish sovug'i, na yozning jazirama issig'i aholisiga azob bergan emas. Misrda tuproq unumdordir. Shuning uchun to'la asos bilan aytish mumkinki, qayerda kun ko'rish oson bo'lsa, odamlar birinchi marta o'sha yerda paydo bo'lishgan. Skiflarning fikricha, o'rtamiyona ob-havo qadimiylilik belgisi emas emish. Skiflar yashayotgan o'lkaning tabiatini Misrga qaraganda qattiq sovuq bo'lganligi sababli, skiflar ham ruhan, ham jismonan tetik xalq edi. Bundan tashqari, agar dunyoning hozirgi qismlari qachonlardir yagona bir bo'lakni tashkil qilgan bo'lsa, yer avval suv bilan qoplanganmi yoki unda olov hukmron bo'lganmi? Chunki undan butun olam kelib chiqqan, har ikkala holda ham skiflarning kelib chiqishi bo'yicha eng qadimiyyidir.

Hamma narsa boshda olov holatida bo'lgan. Uning asta-sekin so'nishi natijasida yer paydo bo'lgan. Shuning uchun shimoldan boshqa yerlarning hammasida ham sovuqlik bilan issiqlik hukmron bo'lgan. Axir, hozir ham yerning hech qaysi qismida shimoldagidek qattiq sovuqlar bo'lmaydi. Misrda esa va umuman butun sharqda ob-havo ancha o'rtamiyona holatga keladi. Bu yerdagi xalqlar hozir ham jazirama issiqlidan azob chekadi. Agar qachonlardir yer suv qa'rida bo'lgan bo'lsa, unda albatta, suv pasayishi natijasida avval yerning eng baland qismlari suv yuzasiga chiqqan, past yerlarda suv anchagacha saqlanib qolgan. Skiflar esa boshqa mamlakatlarga qaraganda shunchalik balandlikda joylashganki, undan boshlanadigan barcha daryolar o'z suvini Izotidga, keyin esa Pontiy va Misr dengizlariga quyadi.

Skiflar o'lkasi sharqqa qarab yastangan bo'lib, bir tarafдан Ponto - Rifej tog'lari bilan o'ralgan, ikkinchi tarafda esa Osiyo va Fasis daryosi. Skiflarda yer o'zaro bo'lib olinmagan, chunki ular dalalarda dehqonchilik qilishmaydi. Ularning na uylari, na boshqa qurilish inshootlari, na doimiy turarjoylari bor. O'zlashtirilmagan cho'l

sahrolarida bir joydan ikkinchi joyga ko'chib mayda va yirik mol boqadilar. Ular xotin va bolalarini yomg'ir va qordan saqlash uchun oilasini terilar bilan qoplangan aravalarda olib yuradi. Ana shu aravalar ularga ham boshpana edi. Ularning nazarida o'g'irlikdan og'irroq jinoyat yo'q. Ular boshqa ko'pchilik xalqlardan farqli o'laroq, oltin va kumushni ham yomon ko'rardilar. Asosan sut va asal iste'mol qilardi. Ular doimiy sovuqlardan iztirob chekishiga qaramasdan, jundan to'qilgan kiyimlardan foydalanishni bilmas edilar. Lekin hayvon terilaridan foydalanardilar.

Skiflar uch marta Osiyoga hukmronlik qilishga muvaffaq bo'ladilar. Eron podshosi Doroni skiflar o'z yerlaridan sharmandalarcha quvib yuboradilar. Kirni butun qo'shini bilan qirib tashlashadi. Buyuk Aleksandr Zopironni ham butun armiyasi bilan birga yakson qiladilar. Rim quroli haqida ular eshitgan bo'lib, o'zlarida uning kuchini sinab ko'rmagan edilar.

Parfiya va Baqtriya hokimliklariga skiflarning o'zları asos solganlar. Misr podshosi Vedosiy skiflarga birinchi bo'lib urush e'lon qilgandi. Mana shunday ulkan skiflar elatinining bir bo'lagi Yaksart daryosining qirg'oqlarida yashardi. Bu o'rinda mana shu Yaksart bo'yalaridagi skiflar haqida qisman to'xtalib o'tamiz.

Ma'lumki, Yaksart daryosi qadimda ham xuddi hozirgidek So'g'diyona bilan Baqtriya yerlarini bir-biriga tutashtirib turadi. Daryoning yuqori qismida baqtriyaliklar, saklar yashasa, quyi qismida so'g'dlar, daklar yashardi. Bir daryodan suv ichgani uchunmi, yerlari bir-biri bilan tutash bo'lgani uchunmi, bu qabilalar bir-birlari bilan do'stlashib, inoq yashashgan, shuning uchun ham, bu qabilalar Aleksandr Makedonskiyga qarshi birlashib jang qiladilar. Aslida esa Baqtriya ham, So'g'diyona ham bir necha yuz yillardan buyon ulkan Ahmoniyalar davlatining bir qismi edi. Yaksart daryosi Osiyodagi daryolar ichida eng yirigi bo'lmasa ham, uning nomi antik zamonlardo yoq Xitoy yerlaridan Afinagacha, Hind daryosidan Panta bo'yalarigacha ma'lum edi. Bu daryo bo'yida yashayotgan skiflar asosan o'troq holda hayot kechirib, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanishar edi. Ular o'z yurtiga dushmanlik ko'zi bilan qarovchi yovuz kuchlarni yaqin keltirmas, mabodo yomon niyatida kelganlari bo'lsa, bu yerdan sog'-omon chiqib ketolmasdi. Bu yerda yashovchi skiflar juda mehmondo'st, haqiqatgo'y va mehnatsevar bo'lishgan.

Do'stlikni qadrlay bilgan. Ularning fikricha, do'stlik sadoqat bilan o'lchangan.

Skiflar jang qilishni yaxshi bilishgan. Ot choptirishda ularga teng keladigani yo'q edi. Shu bilan birga, bu yerda yashovchi bobokalonlarimiz mard va jasur bo'lib, ular orasida o'z donishmandlari ham bo'lgan. Ularning dono va haqiqatgo'yligiga Yaksart bo'ylariga kelgan har qanday yot kishi qoyil qolib ketgan.

Shu o'rinda Kursiy Ruf o'z asarida bergan skiflarning Aleksandrqa qarata aytgan savol tariqasidagi fikrlarini eslash maqsadga muvofiqdir. (Birinchi bobga qarang) Mana shu skiflarning qimmatli va g'oyat falsafiy ruhdagi so'zлari orqali ham qadimda ota-bobolarimizning qanday kishilar bo'lganligini bilib olishimiz qiyin emas.

Kursiy Ruf skiflar haqida iliq gaplarni aytadi. Adib skif donishmandlari Aleksandrda ma'naviy jihatdan ustun ekanligini so'z o'yini orqali ifodalaydi. Skif elchilari shunday murakkab savollar bilan murojaat etadiki, natijada Aleksandr javob topolmay shoshib qoladi. Aleksandrning chodiriga skiflarning 20 nafar elchisi o'z maqsadlarini bayon qilish uchun keladi. Bu vaqtida hamma narsa Yaksart daryosidan o'tishga tayyorlab qo'yilgandi. Ularni shoh chodirga kiritib, o'tirishga taklif qiladi. Ular shohdan ko'zini uzmasdilar. Shohning salobatsiz gavdasi esa o'zining shon-shuhratiga mos emasday tuyulardi. Shunday qilib, biz bildikki, - deb gap boshlaydi ulardan biri. - Agar xudo sening tanangni ochko'zliging bilan bab-baravar qilib yasaganida, sening taning butun yer yuzini egallagan bo'lur edi. Shunda bir qo'lingni cho'zsang sharqqa, boshqasi g'arba yetardi. Shunda ham baribir ko'proq narsalarni qo'lga kiritishni istab, xudolar dunyosini izlar eding.

Qurbing yetmagan joylarni ham egallahni xohlaysan. Yevropadan Osiyoga, Osiyodan Yevropaga qarab intilasan, butun odamzodni bo'ysundirganingdan keyin ham jim turmay o'rmonlar, daryolar, qorlar va yovvoyi hayvonlar bilan jang qilgan bo'lar eding. Yana nima? Bilasanki, katta daraxtlar uzoq yillar mobaynida paydo bo'ladi, lekin ularni birpasda chopib tashlash mumkin. Daraxtning balandligiga qaramasdan, mevasiga ko'z tikkan odam ahmoqdir. Ularni olaman deb yiqilib ketmagin tag'in. Hatto sher ham bir zamonlarda qushchalarga yem bo'lgan. Zang ham temirni yemirib yuboradi. Yemirilmaydigan narsa yo'q.

Sen bilan o'rtamizda qayoqdan janjal paydo bo'ldi? Biz hech qachon sening yeringga oyoq bosganimiz yo'q. Sen qayerdan kelding, kimsan o'zi? Biz hech kimga xizmat qilishni va buyruq bilan ish qilishni xohlamaymiz.

Bilginki, biz skiflarga ho'kiz boqish, omoch asrash hamda nayza, o'q-yoga ega bo'lish buyurilgan. Ularni biz dushmanlarga qarshi ishlatamiz.

Mehnat bilan topganimizni do'stlar bilan birga baham ko'ramiz. Xudolar sharafiga sharob qo'yamiz, o'q-yoy bilan uzoqdan dushmanni qiyratamiz, nayza bilan yaqindagisini. Mana shunday qilib Suriya shohini yengib, keyinchalik Eron va midiliklar shohini ham daf qilib, Misrga yo'l ochib oldik.

Sen bo'lsa, bosqinchilarni quvyapman deb maqtanasan, lekin aslida o'zing bosqinchilik qilyapsan-ku. Midiyani egallading, Suriyani bosib olding. Eronni ushlab turibsan, Baqtriya hukmdorligingda Hindistonni talading, endi bo'lsa ochko'z qo'llaringni bizga cho'zyapsan.

Senga boylik nimaga kerak, baribir to'ymaysan. Baqtriyanı egallash uchun qancha ushlanib qolding? Endi bo'lsa, so'g'diyonaliklar senga qarshi urush boshlaydi.

Sen qanchalik buyuk va mashhur bo'lganining bilan baribir hech kim kelgindini yoqtirmaydi.

Tanaisdan o'tgandan keyin bizning ulkan hududimizni ko'rasan, skiflarni quvib yeta olmaysan. Bizning kambag'alligimiz sening bosqinchilik yo'li bilan orttirgan boyligingdan ustun turadi. Biz bilamizki, skif cho'llarining dahshati, hatto grek maqollarida ham qayd qilingan.

Bizda aytadilarki, baxtning oyog'i yo'q, uning faqat qo'li va qanoti bor. Qo'l cho'zganing bilan hatto qanotini ham ushlatmaydi. Agar sen xudo bo'lsang, o'liklarga ham yaxshilik qil, odam bo'lsang odamligingcha qol. Sen agar jang qilmasang, urush boshlamasang, o'zingga sodiq do'stlar topasan. Eng kuchli do'stlik bir-biriga xavf solmaydigan tinchlikni istaguvchilar o'rtasida bo'ladi. Janob hukmdor bilan qul o'rtasida do'stlik bo'lishi mumkin emas. Urushning qonunlari tinchlik vaqtida ham saqlanib qoladi. Skiflar do'stlikni qasamyod bilan mustahkamlaydi deb o'ylamagil, skiflar uchun do'stlik sodiqlik bilan o'chanadi.

Faqat greklargina o'zlarini ehtiyot qilish uchun bitimga imzo chekadilar. Bizning dinimiz esa sodiqlikni talab qiladi. Kim odamlarni hurmat qilmasa u xudoni aldagani bo'ladi.

Sodiqlikdan shubhalangan do'stning hech kimga keragi yo'q. Agar sen Baqtriya bilan to'qnashmaganingda, Tanais bizni ajratib turmaganida sen Osiyo bilan Yevropaning qo'riqchisiga aylanib qolarding. Tanaisdan keyin biz Frakiyaga borardik, u yog'i Makedoniya edi. Biz sening ikki imperiyangga ham qo'shnimiz. O'ylab ko'r-chi, biz senga do'stmi yoki dushmanmi?¹

Shunday deb, skif elchisi gapini tugatadi. Shoh esa har tomonlama o'ylab ko'rishini, ularning maslahatini inobatga olishini, baxtini sinab ko'rishnni aytadi. Elchilarni qo'yib yuborib, so'ngra jangchilarni qayiqlarga o'tqazadi. Old tomonga qalqoni bor jangchilar himoya qilish uchun o'tqaziladi. Ular ketidan o'q otuvchi mashinalar, keyin esa eshkakchilar o'tiradi. Shohning o'zi tanlab olgan jangchilari bilan birinchi bo'lib narigi qirg'oq tomon suzib ketadi. U qirg'oqda skiflar himoyaga tayyorlanardi.

Makedoniyaliklar skiflarni ko'rib biroz qo'rqib qolishadi. Buning ustiga, qayiqlar suv oqimiga bardosh berolmay zo'rg'a suzardi.

Bu o'rinda Kursiy Ruf Yaksart daryosini Tanais deb yanglish tilga olmoqda. Aslida bu voqeа Yaksart (Sir) daryosining berigi qirg'og'ida yuz bergen bo'lib, shu daryoning narigi qirg'og'ida yashovchi skiflar elchi bo'lib kelgandi. Kursiy Ruf shu o'rinda Sirdaryoning ikki qirg'og'ida yashovchi skiflarga ta'rif bermoqda. Axir bir daryoning berigi qirg'og'idagi qabilalar g'am-kulfatda qolib, jabr-sitam chekayotganda, daryoning narigi qirg'og'idagi qabiladoshlari, qarindosh-urug'lari qarab turmaydi-ku! Shuning uchun ham, skif elchilari Aleksandrni ogohlantiradi.

Aleksandr Yaksart daryosini Osiyo bilan Yevropa o'rtasidagi chegara deb tushunadi.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Aleksandr Yaksart daryosining narigi qirg'og'idagi o'lkalarga yurish qilmagan. Ammo daryoning ikki qirg'og'ida shiddatli janglar bo'lib o'tgan.

Aytishlaricha, grek-makedon qo'shnlari Maroqandga kelganda katta norozilik g'alayoni ko'tarilib, bosqinchilar yurtlariga qaytib ketmoqchi

¹ Kursiy Ruf O'sha asar, 284- bet.

bo'lgan ekan. Shoh o'z jangchilariga Doro bilan urushda g'alaba qozonsak, katta boylik to'plab o'z yurtlaringga qaytasizlar deb va'da bergen ekan. Bugun esa Maroqandga kelgan qo'shin shohning o'z va'dasida turmay, olis o'lkalarga boshlab kelgani uchun g'alayon ko'taradi. Shunda Aleksandr norozilik kayfiyatidagi qo'shin oldida so'zga chiqib, dunyoning eng chetiga, Yaksart bo'ylariga borish niyatida ekanligini aytadi. Go'yoki Yaksart daryosi bo'ylarida dunyoning qopqog'i joylashgan emish. Bu qopqoqdan xohlagan kishi osmonga chiqish, xohlaganlar esa yer tagiga tushishi mumkin ekan. Bu daryo bo'ylaridagi yerning tuprog'i oltin emish. Sizlar bu oltindan istagancha olib o'z yurtingizda katta o'lja bilan qaytasizlar, deb ishontiradi. Shoh yana aytadiki, Yaksart daryosiga yaqin joydan Eron shohi Kir muhtasham shahar qurgan ekan. Bu shaharning devorlari oltin bilan o'ralgan ekan. Shuning uchun ham, Yaksart bo'ylariga borish faqatgina xudoning karomatiga muyassar bo'lgan baxtli insonlarga qagina nasib qilar emish.

Haqiqatan ham, tarixiy manbalarda aytilishicha, Eron shohi Kir eramizdan avvalgi VI asrda Yaksart daryosi bo'ylarida, O'rategaga yaqin joyda shahar qurgan.

Shunday qilib, ulkan qo'shin Aleksandrning ketidan ergashib Yaksart tomon yo'nga tushadi. Ne-ne orzular bilan Yaksart bo'ylarida oltin, durjavohir teramiz deb kelgan jangchilarining xayollari puch bo'lib chiqadi. Biroq Aleksandr o'zining o'tkir nutqi bilan qo'shinini jilovlab olishga qodir edi.

Aleksandr Yaksart daryosi bo'yida uzoq ushlanib qoladi. Bu yerda yashovchi skiflarni bo'ysundirish amrimahol edi. Mustahkam devorlar bilan o'ralgan shaharlarni ahli mardonavor himoya qilar edi.

Keling, yaxshisi, Arrianning Aleksandr bilan skiflarning Yaksart bo'ylaridagi jangi haqidagi tasvirga to'xtalib o'taylik. Adibning yozishicha, bir necha kun o'tgach, Aleksandrning oldiga abiylar deb nomlangan skiflarning elchisi keladi. Homer ular to'g'risida o'z poemasida juda adolatparvar kishilar, adolatparvarligi tufayli hech kimga qaram emas edilar, degan edi. Shuningdek, shohning huzuriga Yevropa skiflаридан ham elchilar keladi. Bu Yevropada yashaydigan eng katta skif qabilasi bo'lib, Aleksandr «do'staridan» kimnidir do'stona aloqa o'rnatish maqsadida ular qarorgohiga yuboradi. Bu elchilarning asosiy maqsadi skiflar yerining tabiatи bilan tanishish, aholisining ko'p-ozligini, urf-

odatlari va jangga qanday qurol-yarog‘lar bilan chiqishini bilishdan iborat edi. Shu bilan birga, shoh Tanais daryosi bo‘ylarida yangi shaharga asos solish va uni o‘z nomi bilan atashga qaror qiladi. Bu joylar unga yangi o‘sadigan shahar uchun juda ma’qul ko‘ringandi. Skiflar xavfidan o‘zini himoya qilishi mumkin bo‘lib, bu shahar mamlakat uchun muhim tayanch nuqtasi vazifasini o‘tashga mo‘ljallangandi. Qirg‘oqlarda yashovchi varvarlar yangi qurilayotgan shaharning qo‘riqchilarini bo‘lmish makedoniyaliklarning jangchilarini qo‘lga tushirib, ularni rosa kaltaklashadi va shaharning ichiga o‘z odamlarini qo‘yadi. Bu qo‘zg‘olonda Bessni qo‘lga olganda yordamlashgan ko‘pgina so‘g‘diyonaliklar ham qatnashgandi. Ular o‘z saflariga baqtriyaliklarning ham bir qismini qo‘shib olishgandi. Ehtimol, ular haqiqatan ham Aleksandrdan qo‘rqishgandir, balki eng katta shahar hisoblangan Zariasp shahrida hamma qo‘mondonlarning to‘planishi haqidagi xabarni eshitib shunday qilgandir. Ularning fikricha, sarkardalarning bu katta yig‘ilishi yomon niyatda chaqirilgan.

Bu xabarni eshitgan Aleksandr har bir piyoda askarga uzun narvonlar yasashni buyurib, o‘zi esa bu yerga yaqin bo‘lgan Gaza deb nomlangan shahar tomon siljiyi.

Aytishlaricha, varvarlar shu atrofdan yettita shaharga qochib kelishgan. Shoh Kraterni shu shaharlardan eng kattasi hisoblangan Kiropilga yuboradi. Bu shaharga juda ko‘p varvarlar yig‘ilgandi. Sarkardaga shaharga yaqin bo‘lgan joydagi qal‘ani yo‘q qilish, atrofini qazib chiqish, tuproq devor bilan aylantirib chiqib, minoralarning bir qismini yo‘qotish buyurilgan edi. Shunday qilingan taqdirda shahar aholisi Krater bilan jang qilishni xayolidan chiqarib, boshqa shaharlarga yordam bera olmasdi. Shohning o‘zi esa Gazaga yaqinlashib kelar ekan, shaharni hujum qilib olishni mo‘ljallab, loydan urilgan past devorlarga oldindan tayyorlab qo‘yilgan narvonlarni tirab qo‘yishni buyuradi.

Piyoda jangchilar hujumga otlanayotganda kamonchilar, nayzabozlar, yog‘och qurol bilan tosh otuvchilar shahar himoyachilariga zarba berib turishardi. Shu bilan bir vaqtda, ularga qarata mashinalardan ham o‘qlar uchib borardi. Shiddat bilan otilayotgan o‘q yomg‘iri devor oldida turgan himoyachilarini shoshiltirib, chekinishga majbur etadi. Makedoniyaliklar bunday qulay fursatdan foydalanib narvonlar vositasida devorga ko‘tariladilar. Aleksandr buyrug‘i bilan shahardagi barcha erkaklarni o‘ldiradilar. Ayollar, bolalar va boshqa narsalarni o‘lja oladilar. Shu yerdan

U darhol ikkinchi qo'shni shaharga yurishni boshlaydi va uni ham xuddi shu yo'sinda shiddat bilan qo'lga oladi, mag'lubiyatga uchraganlarni yana o'shanday mash'um taqdir kutardi. Aleksandr uchinchi shaharni ham keyingi kuni birinchi hujum bilanoq qo'lga oladi. Xuddi shu payt shaharni talayotgan otliq jangchilarini ikkita qo'shni shaharga yuboradi. U yerda o'zi yetib borguncha hech kimni qo'yib yubormaslikni buyuradi.

Hamma ish u o'ylagandek bo'lib chiqadi.

Olinmagan shahar aholisi yondirilgan qo'shni shahardan ko'tarilayotgan tutunni ko'radi. Ularning oldiga qirg'inbarot jangdan qutulib qolganlar yugurib kelishadi. Qochqinlarning bir guruhi otliqlarga to'qnash kelib qoladilar va ularning hammasi chopib tashlanadi.

Shunday dahshatli hujum bilan ikki kun ichida beshta shaharni qo'lga olgan Aleksandr Kir deb nomlanuvchi eng katta shaharga yurish boshlaydi. Bu shahar yanada baland devor bilan o'ralgandi. Unga varvarlarning eng jangovarlari yig'ilgan bo'lib, shaharni olish ancha qiyinchilik tug'diradi. Aleksandr shahar devori yaqiniga mashinalarni keltirishni buyuradi. Bir mahal shohning shahar o'rtasidan o'tadigan, yomg'irdan so'ng to'lib-toshib oqadigan, lekin hozir butunlay qurib qolgan daryo o'zaniga e'tibori tushadi. Shahar devori daryoning oqib o'tish joyini butunlay to'smagan edi. Jangchilar daryo o'zanidan emaklab o'tib shahar ichkarisiga kirishlari mumkin edi. Aleksandr o'zi bilan birga soqchilar, qilichbozlar, kamonchilar va tosh otuvchilarni oladi. Varvarlar butun diqqat-e'tiborlarini shahar tashqarisidagi mashinalarga qaratib, o'zlari turgan joyni mudofaa qilishardi. Shoh esa hech kimga sezdirmasdan ehtiyyotkorlik bilan bir necha jangchi bilan daryo o'zani bo'ylab shaharga kirib oladi. Shu atrofdagi yaqin darvozani ichkarisidan buzib, askarlarini shaharga kiritadilar. Ikki o'tada qaqqhatqich jang boshlanadi. Aleksandr boshi va bo'yndan qattiq yaralanadi, Krater va boshqa ko'plab lashkarboshilar og'ir yaralanadilar. Shunga qaramay, varvarlarni jang maydonidan siqib chiqara boshlaydilar. Nihoyat, devorlarni ham egallab, himoyachilarni chekinishga majbur etadilar. 8000 ga yaqin shahar himoyachilarini ilk hujumdayoq halok bo'ladi. Shaharda hammasi bo'lib 15000 ga yaqin jangchi bo'lib, qolganlari qo'rg'on ichkarisiga qochib ketadi. Suv tanqisligi sababli ular taslim bo'lishga majbur bo'ladilar. Aleksandr yo'lida kelayotgandayoq yettinchi shaharning o'z ixtiyori bilan taslim bo'lganini eshitadi.

Ptolomeyning so'zlariga qaraganda, aholi hech bir qarshilik ko'rsatmaydi. Aristobul esa shahar hujum bilan olinib, barcha himoyachilar o'ldirilganini aytib o'tadi.

Ptolomeyning aytishicha, Aleksandr odamlarni jangchilariga bo'lib bergen va toki ular mamlakatdan chiqib ketmagunlaricha kishanda ushlab turish buyurilgan. Shunday qilib, qo'zg'olon ishtirokchilaridan hech bir zot tirik qolmasligi ta'kidlangan.

Shu payt bu mudhish xabarni eshitgan Osiyo skiflарining katta qo'shini Tanais daryosi sohillariga yetib keladi va agar qo'zg'olonchilar bilan to'qnashuv jiddiy tus oladigan bo'lsa, makedoniyaliklarga hujum qilishga hozirlik ko'rishga qaror qilishgan.

Arrian o'z asarida yana bir qator tarixiy ahamiyatga molik bo'lgan voqealarni bergen. Bunday voqealar ham o'quvchining e'tiborini beixtiyor o'ziga tortadi.

Aleksandr otliq qo'shinini mahalliy xalqlardan yig'ilgan otlar hisobiga to'ldiradi. Chunki uning ko'p otlari Kavkaz tog'idan oshib o'tish hamda Oks daryosining narigi qirg'og'iga yurish qilganida halok bo'lgan edi.

Aristobulning so'ziga qaraganda, Orsan deb atalmish Tanais daryosining irmoqlari ham Kavkaz tog'idan oqib kelardi, bu daryo ham Girkaniya dengiziga quyiladi. Tarixshunos Gerodot yana boshqa Tanais daryosi haqida yozadi. Bu skiflarning sakkizinchи daryosi bo'lib, u katta ko'ldan oqib chiqib, yanada kattaroq ko'lga kelib quyiladi va u Meotiy ko'li deb nomlanadi.

Bu o'rinda Arrian Tanais - Don daryosining geografik joylashuvi haqida ma'lum darajada haqiqatga yaqin fikrlarni aytgan bo'lsa-da, aslida hikoyasi davomida Tanais-Don daryosini Yaksart - Sir daryosi bilan bitta deb tushunadi. Buning boisi bor. Chunki grek-makedonlar Yaksart-Sir daryosini dunyoning bir cheti deb tushunishgan. Dunyoning eng chekkasi bo'lgani uchun ham Eron shohi Kir - (VI asrda) Yaksart bo'ylarida-Kiropil shahrini qurgan. Tarixchilar ham bu daryoning narigi qirg'og'ida yevropaliklar yashashadi deb tushunishgan. Aslida Tanais - Don daryosi bo'ylariga Aleksandr bormagan edi.

Arrian o'z asarida Aleksandr bilan Yaksart daryosining narigi qirg'og'idagi qabilalar o'rtasida bo'lib o'tgan shiddatli jang tafsilotlari haqida ham qimmatli fikrlarni aytib o'tadi. Grek adibining ta'kidlashicha, Aleksandr skiflarning daryo yoqasidan ketmayotganlarini va daryo orqali o'q otayotganlarini ko'rib turadi. Daryo uncha keng bo'lmay, narigi

qirg' oqdagilarni bermalol ko'rish mumkin edi. Buning ustiga, ular Aleksandrga qarab varvarlarcha maqtanishar, baqirib dag'dag'a qilishardi. Skiflar bilan urushishga jur'at eta olmaysan, bo'lmasa skiflar bilan osiyolik varvarlar o'rtasidagi do'stlikni senga ko'rsatib qo'yamiz deya o'shqirishar, qichqirib so'kinishardi.

G'azabi toshib, titroq ichida qolgan shoh daryoni kechib o'tib, ularga hujum qilishga qattiq tayyorgarlik ko'ra boshlaydi.

Daryodan o'tishdan oldin xudo sharafiga qurbanlik keltirgan edilar, chunki noxush voqealarning sodir bo'lishi kutilardi. Bu uni juda jumbushga keltirib, sarosimaga salsa-da, qirg'oqqa o'tish niyatidan zo'rg'a to'xtatib qoladi.

Skiflar uni joni-holiga qo'ymay haqoratlardi. Aleksandr yana qurbanlik keltirib, daryodan o'tishga hozirlik ko'rayotganda, munajjim unga falokat xavf solayotganini aytadi. Aleksandr esa butun Osiyoni zabit etib, oxir-oqibat skiflarga kulgi bo'lgandan ko'ra o'limni afzal biladi.

Qachonlardir Kserksning otasi Dariy sharmanda-yu sharmisor bo'lib, yengilgani uni qaqqhatqich jangga chorlaydi.

Hamma narsa o'tish uchun tayyor edi, jangchilar butunlay qurollangan holda daryo yoqasida shay turardi. Mashinalar skiflarga qarata o'q otish uchun ishorani kutardilar. Shu paytda ulardan ba'zi birlari yaralanadi, birining qalqon vasovutini o'q teshib o'tadi va kimdir otdan yiqlidi. Uzoqdan uchib kelayotgan o'qlar skiflarni ham ancha tashvishga soladi. Kuchli otishma chog'ida ularning yetakchilaridan biri halok bo'ladi. Natijada skiflar qirg'oqdan birmuncha uzoqlasha boshlaydilar.

Skiflarning safi tarqalib, o'zini yo'qotib qo'yanini ko'rgan Aleksandr kamaylar shovqini ostida daryodan o'ta boshlaydi. U ancha oldinda ketardi. Orqadan jangchilar kelardi. U birinchi bo'lib qirg'oqqa kamonchi va tosh otuvchilarining chiqishlarini buyuradi. Ular otliqlar daryodan o'tib olganlariga qadar skiflarni yaqinlashtirmsandan qaytarib turishlari zarur edi. Hamma qirg'oqqa chiqib bo'lgach, u skiflarga qarshi avval bir guruuh begona yerliklarni va to'rtta jangchisini yuboradi. Ular sarislar bilan qurollangan edi. Skiflar ularni og'ir yaralaydilar va cho'l ichiga izesiz yashirinadilar. Aleksandr chavandozlar bilan Balakr qo'mondonlik qilayotgan kamonchilar va boshqa yengil qurollangan jangchilarni boshlab boradi.

Shoh barcha otliq tosh otuvchilarga yaqinlashib qolgan skiflar ustiga bostirib borishni buyruq qiladi.

O‘zi esa shitob bilan otliqlarni boshlab boradi. Endi skiflar ziq qator bo‘lib borayotgan otliqlarni oldingidek o‘rab olmasdi. Bir vaqtning o‘zida otliqlarning hujumi bilan birga chavandozlar bilan aralashgan yengil qurollangan jangchilar ham skiflarni chekinishga majbur etib, ularga qayta hujum qilish imkonini bermasdi.

Shu mahal, skiflar to‘dalari orasida parokandalik boshlanib, mingga yaqini o‘ldiriladi. Qurbon bo‘lganlar orasida boshliqlardan biri Satrak ham bor edi. Shiddat bilan ta‘qib etib borayotgan makedon jangchilar kuchli issiqdan azoblanib, tashnalik azobida qoladi. Aleksandr yo‘lda uchragan iflos suvdan ichadi. Unda og‘ir kasallik boshlanadi. Shu tufayli skiflarni quvib yetishning iloji bo‘lmaydi.

«Mening o‘ylashimcha, - deb yozadi Arrian, - agar Aleksandr kasal bo‘lib qolmaganida ularning barchasini quvib borib, qirib tashlagan bo‘lardi».

Og‘ir ahvolga tushgan shohni qarorgohga qaytarib olib kelishadi.

Tez vaqtida Aleksandrning oldiga skiflar shohining elchilar kelib, o‘rtada bo‘lib o‘tgan voqealar uchun uzr so‘rashadi. Chunki butun skif xalqi emas, balki qaroqchi va bosqinchilarning galalari harakat qilgandi.

Aleksandr skiflar shohiga iltifotli so‘zlar bilan javob beradi. U shohga ishonadi, lekin uningcha, dushmanqa qarshi kurashni to‘xtatmagani ma‘qul va hozirgi qaltis paytda harakatni to‘xtatish maqsadga muvofiq emas.

Arrian Yaksart bo‘ylarida yettita shahar bo‘lganligini qayd etadi. Shu shaharlardan biri Gaza bo‘lsa, ikkinchisi Kiropil ekanligini ta‘kidlaydi. Bu yetti shahardan eng kattasi Kir deb ataluvchi shahar ekan.

Yavdat Ilyosovning «So‘g‘diyona» romanida Yaksart bo‘ylarida bo‘lib o‘tgan voqealar o‘zining go‘zal badiiy ifodasini topgan. Adib Kiropil shahri haqida, Aleksandr tomonidan qurilgan shahar xususida tarixiy haqiqatga yaqin gaplarni aytadi. Ayniqsa, Yaksart daryosining ikki qirg‘og‘ida Aleksandr qo‘smini bilan skiflar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan qirg‘in janglar romanda ta‘sirchan lavhalarda tasvirlangan.

Kayxisrav bunyod qilgan Kiropil dunyoning bir chetiga qurilgan shahar edi, deb aytadi qadimgilar. Aleksandrning Kiropil shahrini ishg‘ol etishi nihoyatda qiyin bo‘ladi. Bu haqda I. G. Drayzen ham o‘zining «Ellinizm tarixi» asarida ayrim faktlarni keltirib o‘tadi. «Aleksandr shu yerdan (Yaksart bo‘ylaridan - B. F.) bitta shahar topdiki, ularning har birini

bir necha mil masofa ajratib turardi, ular cho'Ining chetida joylashgan edi. Ular ichida Kir shahri eng mustahkami bo'lib, ancha keng edi. Bu shahar viloyatning eng ko'zga ko'ringan yirik qal'asi hisoblanardi.

Kraterni Kiropil shahriga yuborib, uni ishg'ol etishni buyurgan Aleksandr Gaza shahriga yo'l oldi, bu yetti qal'aning eng yaqini edi¹.

Bu o'rinda Kiropil - Kiresxata shahri qayerga joylashgan edi, degan savolning tug'ilishhi tabiiy. Bu haqda ham fransuz tarixchisi I. G. Drayzenning «Ellinizm tarixi» asaridan shunday javob topamiz.

«Kiropil, - deb yozadi I.G. Drayzer, - Arrianning fikricha, Yaksart bo'ylarida emas, balki yoz oylarida qurib qoladigan daryo bo'yida joylashgan bo'lган. Bundan ko'rindiki, bu shahar tog'lar etagida, cho'Ining chetida joylashgan. Bu fikrni biz Oqsu, O'ratega daryolari haqida aytolmaymiz, chunki ular qurimaydi, asosiy daryogacha yetib borishadi, lekin O'ratega tog'laridan g'arbda joylashgan, Oq tog'lardan oqib keladigan Jom daryosiga qarab oqadigan Zomin daryosi bor. Bu yerda daryo kuz oylarida qurib qoladi. Ibn Havqal aytadiki, Zomin shahri Osrushon tog'ining etagida joylashgan va uning yonida sahrolar bor. Mening fikrimcha, mana shu Kiropil yoki Kiresxata bo'lishi kerak, lekin buni Kir bunyod etmagan. Kuru shahri hind eposida ham bir necha marta tilga olinadi. Pantonning nomini Yaksart atroflarida ham uchratish mumkin. Kurusmetrda hindlar o'tasida qirg'in janglar bo'lib o'tgan. Masofa va yerning tuzilishiga ko'ra biz bu joylarni Kurust deb aytolmaymiz. Kurust Xo'jakentdan 6 mil nari joylashgan edi»².

Yaksart bo'ylarida Kiropil degan shaharning borligi tarixiy manbalarda aniq ko'rsatib o'tilgan; Bu o'rinda Kursiy Rufning Yaksart bo'ylarida bo'lib o'tgan voqealar va Kiropil shahri haqida aytgan qimmatli ma'lumotlari diqqatga sazovordir. Adib aytadiki, shoh Tanais³ qirg'og'ida qal'a-shahar qurish uchun joy tanlaydi. Lekin uning qurilishi cho'zilib ketadi, chunki so'g'diyonaliklar va baqtriyaliklar chekingandi.

¹I. G. Drayzen. «Istoriya ellinizma. Istoriya Aleksandra Makedonskogo, tom perviy, Moskva, tipo-litografiya. V.F.Rixter, 1891., str.246.»

²I. G. Drayzen. Istoriya ellinizma. Primechaniye k vtoroy glave tretyey knigi. Moskva, tipo-litografiya.F.F.Rixter, 1891.Str.72—73.

³Kursiy Ruf bu o'rinda Yaksartni Tanais deb atab yanglish fikrni aytmoqda. Shu tufayli Tanais daryosi Yaksart ekanligini bilsak ham muallif ishlatgan iborani o'zgartirishiga haqqimiz yo'q.

7000 otliq qo'zg'olon ko'taradi. Ularga boshqalar ham qo'shiladi. Shunda shoh Katenga Spitamen qo'zg'olonini bostirishni buyuradi.

Lekin qo'zg'olonne boshlagan o'zлari bo'lgani uchun, ularni chalg'itishga urindilar. Bu bilan ular odamlarni shohga qarshi borishga majbur qiladi.

Aleksandr ularning sotqinligini bilib Kraterga Kiropil shahrini qamal qilishni buyuradi. O'zi esa boshqa shaharni qurshab olib, katta yoshdag'i odamlarni qirib, shaharni vayron qiladi. Bu bilan u boshqa qabilalarni qo'rqitmoqchi edi. Lekin memakenlar qabilasi qo'rqlmaydi va qurshovni sinab ko'rmoqchi bo'ladilar.

Shoh ularga 50 otliq yuborib, agar taslim bo'lsa shafqat qilishini, bo'lmasa ayamasligini aytadi.

Ular bunga roziligini bildirib otliqlarni yaxshi mehmon qilib, kechasi ular uxlaganida hammasnni qirib tashlaydi.

Bundan g'azablangan Aleksandr shaharni o'rab oladi, lekin uni egallash qiyin edi. Shuning uchun Aleksandr oldin Meleagr va Perdikkani qamal qiladi.

Avvaliga shoh Kir tomonidan asos solingan bu shaharni ayamoqchi bo'ldi. Chunki uning nazarida Kir va Semiramida eng odil shohlardan edi. Lekin shaharliklarning jon-jahdi bilan qarshilik ko'rsatishi uni g'azablantiradi va shaharni vayron qilishga buyruq beradi. Hech bir shahar ahli bunday qarshilik ko'rsatmagan edi. Uning ostonasida buyuk jangchilaridan ajraydi.

Shoh shahar uchun bo'lgan jangda yaralanadi. Buni ko'rgan jangchilar shohimiz o'ldi deb, vahimaga tushadilar.

Lekin shoh yarador bo'lishiga qaramay, o'rnidan turib, g'azab bilan jangni davom ettiradi. Shaharni egallab vayron qiladi. Shu yerdan shoh Menedemni 3000 piyoda va 800 otliq askar bilan Maroqandga yuboradi. Bu yerga qochib o'tgan Spitamen makedoniyalik qo'shirlarni quvib yuborib, o'zi shahar aholisini qo'zg'olon ko'tarishga undaydi. Shu vaqtida Aleksandr Tanais qирг'оqlariga qaytib, u yerlarni devor bilan o'rab oldi.

Devor uzunligi 60 chaqirim bo'lib, bu shahar ham Aleksandriya deb ataladi.

Shahar juda tez quriladi, 17 kunda himoya devoridan tashqari, uylar ham qurib bo'linadi.

Shaharga asirlarni joylashtiradilar. Ularning avlodlari hozirgacha Aleksandrni hurmat bilan eslashadi.

Tanais daryosining narigi qirg'og'idagi skiflar shohiga bu shahar yoqmaydi. Shuning uchun u ukasi Kartazisni bu shaharni yo'q qilib, makedoniyaliklarni quvib yuborish uchun jo'natadi.

Kursiy Ruf asaridan olingan bu parcha Yaksart daryosi yaqinida Kiropil shahrining bo'lganligidan dalolat beradi.

Beruniy asarlarida Eron shohi Kir «Kurush» deb atalgan¹. Alloma asarining boshqa bir o'rnida esa «Kurs» deb nomlangan². «Sharq manbalarida, - deb yozadi olima Fozila Sulaymonova masalaga to'g'ri yondashib, - «Kirovush» varianti ham uchraydi. Gerodotda keltirilgan Kirning tug'ilishhi, tarbiyasi va taxtga ega bo'lishi haqidagi afsonaga ko'ra (1.108-130) u cho'pon oilasida tarbiyalangan va nomi shuni tasdiqlaydi. (Kurush qadimgi Paxlaviy tilida, «cho'pon» demakdir.) Fikrimizcha, «kumush» yoki «kurs» grekchasiga Kiros shaklini olib, bu tilga xos bo'lgan «Os» qo'shimchasi boshqa tillarda olib tashlanib, «Kir» shakli hosil bo'lган.

Bu o'rinda olima Kir shahrining bo'lgan-bo'lmanligiga izoh berayotgani yo'q. Balki Eron shohi Kirning nomiga nisbat berib o'tmoqda. F. Sulaymonovaning fikri biz uchun shu jihatdan ham ahamiyatlici, qadimgilar O'ratega yaqinida Kurush nomli shahar bo'lganligini ta'kidlashadi. Bizning asosiy maqsadimiz shundan iboratki, haqiqatan ham, Yaksart bo'yalarida Kiropil shahri bo'lganmi, yo'qmi degan savolga javob topishdir.

Yaksart daryosiga yaqin joyda Kir shahrining bo'lganligini ta'kidlab, fransuz tarixchisi I.G. Drayzen shunday yozadi: «Har holda Aleksandrning qo'shnulari bu keskin vaziyatda ehtiyojkorlik bilan ish tutishlari kerak edi. Lekin Kir shahri va boshqa chegara joylari mustahkam emasdi. Aleksandr Aleksandriya shahrini bunyod etib, bu davlatning himoya tizimini o'zgartirgandi»³.

Yozuvchi Ya. Ilyosov o'z romanida badiiy umumlashmaga keng o'rinni bergan. Albatta, tarixda bo'lib o'tgan voqealarning i pidan ignasigacha hammasini badiiy asarga kiritishning iloji yo'q. Chunki yagona sujet chizig'i

¹ Beruniy. Tanlangan asarlar, V t., birinchi kitob, 197- bet.

² Beruniy. Tanlangan asarlar I t., 135- bet.

³ I. G. Drayzen. Istoriya ellenizma. Primechaniye k vtoroy glave tretyey knigi. Moskva, tipo-litografiya V.F. Rixter, 1891, str.72—73.

bir necha joyda, hatto turli viloyatlarda bo‘lib o‘tgan voqealarni bir yerga jamlab, yagona badiiylik «ipi»ga tizib tasvirlashni taqozo etadi. Ayniqsa, tarixiy romanda hayotdagি voqealarni bo‘yab, sujet asosida ko‘rsatish mumkin emas. To‘g‘ri, bunday asarlarda tarixiy haqiqat badiiy to‘qima bilan umumlashgan holda beriladi. Badiiy to‘qima ham xuddi tarixda bo‘lib o‘tgan voqealar singari ishonchli va hayotiy tarzda ifodalansagina asarning realistik ruhi kuchayadi. Tarixiy asarlarda badiiy to‘qima ham hayot haqiqatiga yaqin bo‘lishi kerak. Tarixiy asarlar faqat tarix tomonidan ro‘yxatlangan voqealardangina iborat bo‘lib qolsa, bunday asar g‘oyaviy jihatdan sayoz bo‘ladi. Tarixiy faktlar go‘zal badiiylik bilan jilolansa, hayajonga soladigan tasvirlar bilan to‘ldirilsagina, estetik ta‘sir kuchi yuksak darajaga ko‘tariladi. Yozuvchi tarixiy voqealar tasviriga e‘tibor bermay, badiiy to‘qimaga erk bersa, faqat badiiy to‘qima asosida ish tutsa ham tarixiylik va haqqoniylig muvozanati buziladi. Biz, albatta, bu o‘rinda asosan tarixiy shaxslar obrazи tasvirlangan badiiy asarlarni nazarda tuyapmiz. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganimizda, Yozuvchi Yavdat Ilyosov «So‘g‘diyona» romanida So‘g‘diyonaning antik davrlarini tasvirlashni nazarda tutgan bo‘lsa ham, asarda Aleksandr - Iskandar obrazina yaratish asosiy planda turadi. Romanni o‘qir ekanmiz, uzoq va olis Makedoniyadan tortib Osiyoning eng chekkasidagi - Esxata shahrigacha bo‘lgan egri-bugri, past-baland yo‘llarda «Buyuk Ilon» harakati tasvirga olinadi. Bu «Buyuk Ilon»ning boshi - Iskandar. «Buyuk Illoh» o‘zining boshi (Iskandar)ni qaysi tomonga bursa, o‘sha tomonga harakatlanib boraveradi. «Buyuk Ilon» dastlab So‘g‘diyonaning poytaxti Maroqandga kelgan edi, mana endi u Kiresxata shahri tomon yo‘nalishni davom ettirmoqda. Bu «Buyuk Ilon»ni butun So‘g‘diyona kuzatardi. Faqat So‘g‘diyonagini emas, butun jahon kuzatardi. «Buyuk Ilon» o‘zini zararsiz deb hamma yoqqa jar salsa ham, uning zahari yomon edi. U ajdaho kabi ming-minglab kishilarni o‘z domiga tortib borardi.

«Buyuk Ilon» Kiresxataga borar ekan, yo‘lda ro‘y bergen jangda o‘ttiz ming tog‘likdan sakkiz mingtasi tirik qoldi, xolos. Qolgan yigirma ikki ming tog‘likni o‘z domiga tortib ketdi.

Yozuvchi Iskandar boshliq qo‘shinga «Buyuk Ilon» deb juda topqirlik bilan ta’rif bergen. Haqiqatan ham, bosqinchilar qo‘shini «Buyuk Ilon»ni eslatardi.

Iskandar so‘g‘diyonaliklarning bosh ko‘tarib chiqishidan, isyonni boshlab yuborishidan qo‘rqardi. Agar butun So‘g‘diyona va hatto Baqtriya,

birlashib Iskandarga qarshi kurashsa bormi, keyin uning barcha umidlari chilparchin bo'ladi. Shuning uchun ham, u Maroqand xalqiga ozor bermaydi. Hatto jangchilariga «xo'rozning boshini beruxsat olmaslikni» buyuradi. Shaharni talon-taroj qilishni taqiqlaydi. Kiresxataga borish uchun kerakli oziq-ovqatni ham savdogarlardan, shahar bozoridan olib g'amlaydi. Biroq otlariga arpa va g'alla olish hech kimning xayoliga kelmagan. Shuning uchun ham, Iskandar yo'lida tog'liklardan g'alla sotib olishga qaror qiladi. Bu ishga uquvli, ustasi farang Layertni yuboradi. Layert Iskandar bergan oltinlarni tog'liklarga berib muomala qilish o'rniغا, ularni do'q-po'pisa qilib qo'rqtish orqali g'alla g'amlashga kirishadi. Biroq tog'liklar Layert va uning boshqa hamrohlarini kaltaklab, qishloqdan haydab chiqaradilar. Nihoyat, Iskandar tog'liklarni qirib tashlashni buyuradi. Ikki o'rtada shiddatli jang bo'ladi. O'ttiz ming tog'likdan sakkiz mingtasi omon qoladi, xolos. Yozuvchi tog'liklarning nihoyatda jasur va botirligini shunday ta'riflaydi.

«Ammo tog'liklar bilan jang shu bilan tugamadi. Makedonlar endi tekis maydonga chiqishga ulgurar-ulgurmas yon tomondagi yumaloq tepe ortidan jangovar boltalar bilan qurollangan otliqlar bulutday yopirilib keldi. Bu shunday kutilmaganda ro'y berdiki, getayralar o'zlariga kelguncha tog'liklar ularning oldingi saflarini yanchib tashladilar. Qandaydir jasur yigit tishlarini g'ijirlatgancha to'g'ri Iskandar yoniga yorib kirdi-da, uning boshi uzra oyboltasini o'ynatdi. Iskandar baqirib yubordi va qalqon bilan o'zini tusdi. Tog'lik shunday zarb bilan urgan ediki, oybolta oltin qoplamali qalqonni parchalab, bronza sovutni ham kesib o'tib, tangri Ammon o'g'lining chap yelkasini qattiq yaraladi»¹.

Ayrim tarixiy manbalarda Iskandar Kiropil shahrini ishg'ol etish chog'ida yaralangani qayd etiladi. Boshqa bir manbalarda esa, Aleksandrning So'g'diyonada, haqiqatan ham, ikki marta yaralanishi tilga olinadi.

Ya. Ilyosov o'z asarida Aleksandrning o'ta ayyor, mug'ombir, ayni chog'da, juda tadbirkor bo'lganligini jonli tasvirlar orqali chizib beradi. Aleksandr o'zini adolatparvar, insonparvar qilib ko'rsatishga harakat qiladi. Biroq tog'liklar bilan bo'lgan jangda yigirma ikki ming kishini qirib tashlaydi. Aleksandr tog'liklarning hammasini qirib tashlashni buyuradi:

¹ Ilyosov Ya. So'g'diyona. 126- bet.

«Bittasi ham qolmasin ... - shivirladi Iskandar gezargan lablari bilan. - Bittasi ham qolmasin»¹.

Bu mash'um voqeadan so'g'diyonaliklar xabar topgach, qo'zg'olon ko'tarishdan cho'chiydi. Biroq hujum boshlagan va fojiaga yo'liqqan o'srushanlar degan ovoza tarqaladi. Aleksandr ayyorlik bilan o'srushanlarning qo'qqisidan hujum qilgani haqida Spitamenga xabar qiladi. Bu yo'lida u Spitamenning o'z odami Varaxrandan ustalik bilan soydalanmoqchi bo'ladi. Biroq Varaxran tog'liklar bilan bo'lgan jangning sababini juda yaxshi bilardi.

Haqiqatan ham, Maroqand bilan Yaksart o'rtaida tog'liklar bilan og'ir janglar bo'lganligini tarixiy manbalar ham tasdiqlaydi. B.G'afurov bu haqda shunday yozadi: «Grek bosqinchilari bilan So'g'd qabilalarining to'qnashuvি jangning birinchi epizodlari Maroqand bilan Kiropol o'rtaсидаги tog'larda Aleksandrning yurishi chog'ida bo'lib o'tdi»².

Aleksandr juda katta qiyinchiliklar bilan qarshilikni yo'q qiladi. Bu yurish paytida yerli xalqning 25 ming askari o'ldiriladi. Grek-makedon qo'shinlari ham katta talafotlar ko'radi. Bu jangda Aleksandr Makedonskiy ham og'ir yarador bo'ladi.

Tog'liklar Aleksandr qo'shinlariga tez-tez hujum qilib turardi. Bu o'rinda, ayniqsa, Maroqandga yaqin joydagи tog'liklarning hujumini eslash kifoya.

Tarqoq holda otlarga hashak yig'ib yurgan makedoniyaliklarga tog'dan tushib kelgan bosqinchilar to'satdan hujum qilib, anchasini o'ldirib, ko'pini asirga olib, tog'ga chiqib ketadilar. Tog'liklar 20000 kishi edi. Ularga qarshi jangda shoh ham qatnashib, yarador bo'ladi. Jangchilar uni lagerga olib borganini tog'liklar yuqoridan ko'rib turardi.

Ertasi kuni tog'liklar shohga elchilarini yuborib, uzr so'rashadi. Shoh ularga yarasini ko'rsatadi. Elchilar buni ko'rib hayron bo'ladi-da, kim unga nayza otganini bilib, albatta, ushlab kelishlarini aytadi. Chunki xudoga qarshi kurashish mumkin emas edi-da. Nihoyat, shohning shonshuhratini eshitgan qabila darrov bo'ysunadi va shoh ularni kechiradi³.

Qo'shin yo'lida davom etadi. Jangchilar shohni qo'lma-qo'l ko'tarib borardilar. Hatto jangchilar uni ko'tarish uchun talashardi.

¹ Ilyosov Ya. So'g'diyona, 126- bet.

² G'afurov B. «Tadjiki». M., izd-vo «Nauka», 1972, str. 94.

³ Arrian. O'sha asar, 132- bet.

Shoh bu tortishuvni bas qilish uchun, navbatma-navbat hamma ko'tarsin, deydi.

Arrianning «Aleksandrning yurishi» asarida ham tog'liklar hujumi haqida qiziqarli lavhalarni o'qiyimiz. Bu o'rinda Arrian Aleksandrning yaralangani haqida Kursiy Ruf fikriga yaqin tasvirni keltiradi.

Bu yerda oziq-ovqat qidirib ketgan va o'troq bo'lib qolgan ayrim makedonlar keyinchalik tog'ga chiqib ketgan varvarlar tomonidan o'ldirilgandi.

Ular 30 mingga yaqin edi. Aleksandr ularning ustiga bostirib boradi. Makedonlar bir necha marta tog'ga chiqishga hapakat qiladi. Lekin ular varvarlarning o'qlari ostida orqaga chekinishga majbur bo'ladilar. Ko'p odamlar yarador bo'lishadi, hatto bir yoy o'qi Aleksandrning kurak suyagini teshib o'tib, suyagining bir qismini parchalab yuboradi. Shunga qaramay, tog'liklar qo'lga olinadi. Varvarlarning bir qismini makedonlar shu yerning o'zida kaltaklashadi, ularning ko'plari o'zlarini qoyadan pastga tashlab halok bo'ladi, 30000 kishidan 8000 kishi omon qoladi.

Plutarx ham Aleksandrning yaralangani haqida xabar beradi. Unda ta'kidlashicha, Aleksandr kamondan otilgan o'q bilan kurak suyagidan yaralangan edi. O'q suyakka shunday qattiq sanchilgan ediki, suyak sinib, yarmi yuzaga chiqib qolgan edi. Ikkinci marta esa bo'yniga tosh tegib yaralangandi. Shundan keyin anchagacha uning ko'z oldi qorong'ilashib yuradi. Shunga qaramay, u o'zini avaylamas, qiyinchiliklarga qarshi turardi. Mana shu dalilning o'ziyoq, Aleksandrning So'g'diyonada ikki marta yaralanganidan dalolat beradi. Bir marta Maroqanddan Yaksart tomon ketayotganda tog'liklarning hujumi tufayli kurak suyagidan yaralangan bo'lsa, ikkinchi marta Kiropil shahrini ishg'ol qilayotganda bo'ynidan tosh parchasi tegib yaralanadi. Bundan tashqari, Yaksart bo'ylarida bir ko'lmak suvdan ichib, qattiq ichburug' kasalligiga yo'liqadi.

Romanda Kiresxata shahri uchun bo'lgan jang tafsilotlari mahorat bilan chizib berilgan. Makedon qo'shirlari Maroqandni egallagandan so'ng urush tugaydi deb o'ylashgan edi. Chunki Aleksandr o'z jangchilarini ishontirib, Eron shohligi ustidan g'alaba qozonsak bo'ldi, so'ngra urush tugaydi, bu boy davlatning barcha boyliklarini olib, uy-uylaringga jo'naysizlar degan edi. Biroq Eronni qo'lga olgandan so'ng, Doroning qotili Bessning izidan tushadi. Nihoyat, Osiyoning ancha ichkarisida joylashgan Maroqand shahriga ham keladilar, ammo urush

tugamaydi. Aleksandr endi Kiresxata shahrini qo'lga kiritish orzusida bo'ladi. Kir - Esxata - dunyoning bir cheti. Bu shaharni Kir qurban. Nega endi Kir borgan joyga biz borolmaymiz, deydi. Iskandarning jangchilari o'rtasida turli xil mish-mishlar paydo bo'ladi. Dunyoning bir cheti qanday bo'lar ekan, jangchilarda u yerlarni ko'rish orzusi paydo bo'ladi. Jangchilar hech ikkilanmasdan Kiresxatani ko'rishni orzu qiladilar. Haqiqatdan ham, ular bu shaharni dunyoning bir cheti bo'lsa kerak, deb xayol qilishgan. O'sha vaqtida odamlarda dunyoning chetichekkasi ham bo'lsa kerak degan tushunchalar bor bo'lgan. Yer sharining dumaloq-aylana shaklida ekanligi, uning cheti yo'qligi o'sha paytlar kimning xayoliga kelibdi, deysiz.

Kiresxata shahrini «dunyoning qopqog'i» deb ataydilar. Go'yo yer yuzi o'zining qopqog'iga ega, bu qopqoq dunyoning eng chekkasiga qurilgan degan tasavvurlar paydo bo'ladi. Aleksandr Kir qurban bu shaharning yonidan Aleksandriya Esxata shahrini qurish orzusida bo'ladi.

Kiresxata tasviri Ivan Yefremovning «Afinalik Tais» tarixiy romanida, ayniqsa, mahorat bilan chizib berilgan.

Ivan Yefremovning «Afinalik Tais» tarixiy romanida O'rta Osiyoning antik davrlari, ayniqsa, Yaksart bo'yalarida yuz bergen voqealar berilgan.

Romanda Aleksandr olijanob qalb egasi, insoniylik va do'stlikni ulug'lovchi obraz sifatida beriladi.

Bu holat, ayniqsa, Ptolomey, Gefestion va Tais bilan bo'lgan diologida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ya. Ilyosovning «So'g'diyona» romani bilan Ivan Yefremov asari o'rtasidagi tasvirda ancha katta farq bor. Ya. Ilyosov Aleksandrning bosqinchiligi, shafqatsiz, ayyor va ayni chog'da, tadbirkorligini belgilovchi tomoniga urg'u bersa, I. Yefremov uning olijanobligi, mardligi va boshqa ijobiy xarakterlarini tasvirlashga asosiy e'tiborni qaratadi. Biroq roman o'zining tarixiy ildizidan biroz uzoqroq turadi. «Afinalik Tais» romanida Aleksandr harbiy lashkarboshi obrazidan ko'ra ko'proq kayf-u safoga berilgan, o'z hayotini ko'proq jang-u jadallarda emas, balki Tais kabi go'zallar orasida o'tkazadigan kishi sifatida talqin etiladi.

«Afinalik Tais» romanida ham Ptolomey, Gefestion kabi tarixiy obrazlar bor. Roksana haqida ham kamroq bo'lsa-da, tasvirlar berilgan. Shuningdek, tarixiy joylar nomlari ham berilib, tarixiy faktlar ham keltiriladi. Masalan, tarixiy manbalarda, Kursiy Ruf, Arrian romanlarida

Aleksandrning Kiropil shahrini qo'lga kiritish chog'ida yaralanishi haqida so'z boradi. Yuqoridagi epizodda ko'rib o'tganimizdek, Aleksandr Kiropil shahrini qo'lga kiritish chog'ida qattiq yaralangani qayd qilinadi.

Yoy janglari natijasida juda ko'plab qurbanlar bo'ladi. Aleksandrning o'zi ham shu janglarning birida boldir suyagidan jarohat olib, ancha vaqtgacha oqsoqlanib yuradi. Bundan u juda darg'azab bo'lib, asabiy bir holga tushgandi. U gohida g'azabini bosolmay hovuridan tushish uchun skiflar bilan shiddatli jangga kirishib ketardi.

Bir kuni jangda uning boshiga tosh tegib, o'n ikki kun ko'zi yaxshi ko'rmay yuradi. Shundan so'ng uning xotirasi ancha xiralashib qoladi. Oxirgi kunlar skiflar bilan bo'lgan ketma-ket janglar uni holdan toydiradi. Aleksandriya Esxata shahriga zambilda qaytadi. Bu o'lkalarga skif qabilalari shu darajada keng yoyilgan ediki, hattoki bir tomoni Kush dengizigacha, Tanais, Evkinskiy pontigacha cho'zilib ketgandi. Nihoyat, Aleksandr ular bilan ittifoq tuzishga qaror qiladi.

Oradan necha yuz yillar o'tgandan keyin Aleksandr Esxata o'mida go'zal bir shahar qad ko'tarishini kim o'ylabdi deysiz?! Endilikda bu shaharni «Tirozi chahon», «Tinchlik kelinchagi» deb atashadi¹.

O'sha davrlarda Yaksart - Sirdaryo bo'yalarini - Kiropil va Iskandariya shahri joylashgan o'lkalarni «jahonning qopqog'i»² deb atashgan.

Esxata eng chekkadagi shahar dunyoning bir cheti, jahonning qopqog'i o'sha yerda joylashgan deb o'ylaganlar. Bu jahon qopqog'idan osmonga chiqish yoki yerga tushish mumkin deb xayol qilganlar. Bu o'lkalarga borish baxtli insonlargagina nasib qiladi. Ammo, shu bilan birga, insonlarni o'lim ham kutib turadi. Bu yovuzlikka qarshi kurashib, o'lim dahshatini yenggan kishigina baxtli bo'ladi, degan fikrlar ham tug'ilgan. Shu tufayli bu ulkan shaharni «Nimfa taraton» «O'lim kelinchagi» deb atashgan³.

Ya. Ilyosov ham o'z romanida, Aleksandrning o'z jangchilariga Kiresxata eng chekkadagi shahar bo'lganligini aytib, bu chekka o'lkaga qarab yurishini davom ettirganini aytadi.

Leontisk hikoyasini tais bir necha marta eslaydi. Bu yosh jangchi donishmand edi. U Aleksandrga aytib bergen jang usuli skiflar tomonidan

¹ Yefremov I. Tais Afinskaya. izd-vo «Ir», Ordjonikidze, 1985, str. 258.

² O'sha asar, 291- bet.

³ O'sha asar, 257- bet.

qo'llanilgan bo'lib, buning natijasida yengilmas armiyaning sharqqa qilingan harakati to'xtatib qo'yilgan edi. «Dunyo qopqog'i»dan Aleksandr janubga qarab buriladi. Peskov daryosi bo'y lab yuqoriga «Dunyo qopqog'i» va Paropamisada nomli nurli cho'qqilar tomon harakat qildi.

Jasur, kamtarin, orzumand Leontisk hayotdan ko'z yumdi. U og'ir varalangandan so'ng uch kundan keyin o'ladi. Gefestionni chaqirib Taisga o'zining oxirgi salomini, mulkini, oltin va qimmatbaho narsalarini beradi. Bir yildan keyin Taisning topshirig'i bilan Leontiskning qarindoshlarini izlash boshlanadi va ularga Leontiokdan qolgan narsalar in'om etiladi.

Mana shu lavhalardan ham ko'rini turibdiki, dunyoning qopqog'i, eng chekkadagi shahar deb nom olgan Kiropil shahri dunyoning bir cheti emas ekan. Balki, shahar So'g'diyonaning bir cheti edi, xolos. «Ptolomey, - deb yozadi I. Drayzen, - Yaksartning burilgan joyini So'g'diyonaning chegarasi deb ko'rsatadi»¹.

Kiropil qal'asini dunyoning bir cheti deb o'y lab qattiq adashgan grek-makedon qo'shnlari o'rtasida norozilik kuchayadi. Ular Aleksandr boshlagan bu harbiy yurishlarning cheki yo'qligini anglab yeta boshlaydi. Shuning uchun ham, ular olisda qolgan o'z ona diyori Gretsiya va Makedoniya qaytib ketmoqchi bo'ladilar. Qo'shindagi bu norozilik kayfiyati, avvaliga Aleksandrni shoshirib qo'yadi. So'ngra u turli xil ayyorlik va tadbirdorlik yo'li bilan bu norozilikning oldini olishning yo'llarini o'laydi. Ya. Ilyosovning «So'g'diyona» romanida bu epizod g'oyat ishonarli tarzda tasvirlab berilgan. Asarda bu voqeя Yaksart bo'yalarida bo'lganligi qayd etiladi.

Grek-makedon qo'shnlari urushni to'xtatishni, uylariga, ona yurtlariga qaytib ketishlarini podshohdan so'raydilar. Shunchaki iltimos tarzida so'rab qolmasdan, qattiq talab qiladilar ham.

«Har kim o'z ichida: «Yetar! Uyga qaytamiz! Qani bu johil bizga yurishni davom ettirishga majbur qilib ko'rsin-chi ...» deb ta'kidlardi. Jangchilar shijoat bilan bir-biriga jo'r bo'lib qichqirishar, hech kimdan qo'rmasliklarini, o'zlarini o'zlarini himoya qilishga qodir ekanliklarini namoyish qilib, nayzalarini qalqonlariga do'qillatib urishar edi»².

¹ I. G. Drayzen. Istorya ellinizma. Tom perviy. Primechaniye k vtoroy glave tret'ey knigi. M., tipo-litografiya, V.F.Rixter, 1891. Str.72.

² Ilyosov Ya. So'g'diyona, 131- bet.

Mana shu lavhada salib yurishlari, bosqinchilik grek-makedon jangchilarining o'zlarining ham joniga tegib ketganligi yaxshi ifodalangan.

Kiresxata dunyoning eng chekkasi, dunyoning qopqog'i degan afsonalar bekor bo'lib chiqqandan keyin jangchilar o'zlarini sarobga tushib qolgandek his etadilar. Shuning uchun ham, o'z yurtlariga qaytib ketishni Aleksandr dan qattiq turib talab qiladilar.

Aleksandr noqulay ahvolga tushib qoladi. Bunday og'ir vaziyatdan qutulib chiqish unga ancha mushkuldek tuyuladi. Butun qo'shin yig'ilgan. Ular baravariga uyga ketishni talab qilmoqdalar. Aleksandrning esa hech orqaga qaytgisi yo'q. U salib yurishlarini yana davom ettirish, qirg'in urushlarni boshlash niyatida. Hatto o'zining bu yovuz niyati amalga oshishida jangchilari ochiqdan-ochiq norozi ekanligini, ularda podshohga nisbatan nafrat o'ti borligini ham Aleksandr yaxshi biladi. Yozuvchi buni Feagen nomidan ochiqdan-ochiq podshohning yuziga soladi.

«Sen urush boshlamasdan oldin: «Qilgan jinoyatlari uchun forslardan uzil-kesil qasos olish bizning burchimiz» degan eding. Shundaymi? Ammo qasos olib bo'ldik-ku! Biz o'z ishimizni qilib bo'ldik. Dushman yengilib, tumtaraqay bo'lib ketdi. Yana nima kerak senga? Bizni qayoqqa olib bormoqchisan? Shuncha yurish qilganimiz yetmaydimi? Uyga qaytish payti kelmadimi!»¹.

Shundan so'ng jangchilar yana «Uyga!» deb baravariga qichqirishadi. Feagennenning so'zлари jangchilarga qattiq ta'sir qiladi. To'g'risi, Feagen haqiqatni aytgan edi. Romanda Feagen obrazni haqiqat ramzi sifatida beriladi. Feagen obrazni bilan asarning boshidayoq tanishgan edik. U Aleksandrning bosqinchilik siyosatiga qarshi chiqqan, odamlarning behuda o'lib ketishi, talon-taroj qilish adolatsizlik ekanligini Aleksandrning yuziga aytgan edi. Shunda Aleksandr haqiqatgo'y Feagenni jang maydonining oldingi safiga qo'yadi va uning qirg'in urush chog'ida dushman oyog'i ostida o'lib ketishiga ishonadi. Biroq, Feagen taqdir taqozosiga ko'ra qirg'in jangdan ham omon qoladi. Shundan buyon Feagen o'zining Aleksandrga qarshi kurashini to'xtatmaydi.

Romanda Aleksandr yovuzlik, bosqinchilik ramzi bo'lsa, Feagen haqiqat ramzi sifatida beriladi. Aslida marafonlik bo'lgan bu haqiqatgo'y jangchi, haqiqat vaadolat yo'lida o'limga ham tik boradi. Hatto Aleksandrni yomon ko'rishini ochiqdan-ochiq yuziga aytadi:

¹ O'sha joyda, 132- bet.

«Ha, Aleksandr, biz seni yoqtirmaymiz! - qattiq gapirdi marafonlik. Palaxmonchining so‘zi makedonlar va boshqa qabila jangchilarining birdan aqlini joyiga keltirdi. Esankirash ularni shu ondayoq tark etdi. Nima uchun kengashga kelganlari odamlarning esiga tushdi. Nima uchun? - davom etdi so‘zida Feagen. - Mana, otalar yurtini tark etganimizga besh yil bo‘libdi. Mana besh yildirki, keksa onalarimizni ko‘rganimiz yo‘q. Mana besh yildirki, Dionis sharasiga bo‘ladigan qishki bayramlarda yangraydigan quvnoq qo‘shiqlarni eshitganimiz yo‘q. Mana besh yildirki, osiyoliklar mamlakatiga boshlangan la’natni yurish hamon cho‘zilib kelyapti¹.

Yozuvchi romanda Feagen obrazina mahorat bilan yaratgan. Aslida Feagen asarda asosiy obrazlardan biri emas. Ammo Aleksandr xarakterining oshib berilishida Feagen obrazi muhim o‘rin tutadi.

Yozuvchi bu ikki obrazni bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki qutbdas virsildi. Biridaadolat, haqiqat, ezzulik uchqunini ko‘rsa, ikkinchisida salib yurishlarni shon-sharaf deb biluvchi bosqinchilik, talon-tarojlikni ulug‘vorlik ramzi deb tushunadi.

Yozuvchi Aleksandr obrazini ham mahorat bilan chizgan. U jangchilarini o‘ziga ishontira oladi. Umuman, u hamma vaqt o‘ziga ham ishonadi. Hatto og‘ir janglarda ham g‘alaba qozonishga ishonadi. Shu tufayli har bir qirg‘in urushdan ham g‘alaba bilan chiqadi. Buning sababi uning yoshligidan janglar tarixini ko‘p o‘qiganligi, pahlavonlar va bahodir jangchilar haqida ko‘plab rivoyat va afsonalar tinglaganligi sabab bo‘lsa kerak. Aleksandr o‘z davrining savodli kishilardan biri ham edi. Fili pp saroyida Yunonistonning atoqli donishmandlari qo‘lidan ta’lim oladi. Eramizdan oldingi IV-III asrlarda Yunonistonda notiqlik san’ati ancha rivojlangan edi. Bu holat Aleksandrga ham ta’sir etmasligi mumkin emas edi. Shu tufayli Ya. Ilyosovning romanida ham Aleksandr kuchli notiq sifatida beriladi. U o‘zining nutqi bilan jangchilarini sehrlay olardi. O‘zini va qo‘sining qudratini chamalab olar, har tomonga choparlar yuborib, «qudratli kuch», «yengilmas qo‘sish» ekanligini jar solib raqiblari yuragiga g‘ulg‘ula, dahshat solardi. Bugun ham u norozilik kayfiyatida, isyonkor holatidagi qo‘sish qarshisida shunday nutq so‘zlab hammani o‘ziga ishontiradi.

- Uygami? - kinoyali jilmaydi Iskandar. - Odam o‘z vatanini esdan chiqarmagani yaxshi. Ammo ... Mana, uylaringizga juda ketgilaring kelyapti.

¹ Ilyosov Ya. So‘g‘diyona, 132- bet.

Nima uchun? Uylaringda nima kutyapti? Nahot sizni yorug'lik ko'rmay o'sgan o'sha qora kulbalaringiz chorlayotgan bo'lса? Nahotki ertadan-kechgacha bir parcha yeringizda terlab-pishgingiz kelsa? Yoki o'lib-tirilib qilingan mehnat evaziga yarim och holda yashashnimi? Unumli yeri, sersuv chashmalari bo'lмаган, odamlariga nongina emas, hatto shu ostob nasib etmaydigan g'arib o'lka - bechora Ellada sizni nima bilan kutib oladi?

Nima uchun buyog'ini o'ylab ko'rmaysiz? Eslab ko'ring-chi: ko'plaringiz vatanimizda hatto arpa nonga to'yanmidingiz? Men sizlarni sharqqa boshlab kelganimdan beri esa mudom bug'doy non yemoqdasiz. Eslab ko'ring-chi: siz hozir intizor bo'layotgan o'z vataningizda tuzlangan baliqdan boshqa biror narsa ko'rganmisiz? Bu yerda esa go'sht, shirin-shakar meva, ajoyib-g'aroyib sabzavotlarni tanovvul qilmoqdasiz. Eslab ko'ring-chi: siz shunchalik ketgingiz kelayotgan o'sha Elladada egningiz bo'z ko'yakdan boshqa narsaga yolchiganmi? Hozir esa har qaysingizning ustingizda mayin to'qilgan matodan ajoyib kiyimlar ... Har biringizning to'rvangizda ozmi-ko'pmi oltin jiringlab turibdi. Bularning hammasini bergen kim? Aleksandr, Filiipp o'g'li¹.

Haqiqatan ham, Aleksandrda o'ziga ishonish va o'zgalarni ham ishontira olish qobiliyati bor edi.

Aleksandr sehrli so'zları bilan jangchilarini o'ziga qanchalik asir etmasin, baribir, vatanga bo'lgan muhabbat, vatanni qo'msash, sog'inch hissi jangchilarning isyonkorlik kayfiyatini bo'g'a olmaydi. Aleksandr har qancha va'dalar bermasin, jangchilari uchun jannat eshigini ochishga qodir ekanligini sehrli so'zi bilan aytmasin, baribir, jangchilarda o'z vataniga qaytish istagi barqarorligicha qolaveradi. Nihoyat, chiroyli so'zlar, har qanday va'z va nutqlar vatanni qo'msash tuyg'usi oldida nochor va ojiz ekanligini sezgan sarkarda jangchilarini qo'rqtish, ularning yuragiga dahshat olovini purkash yo'li bilan qo'shin oldiga g'ov bo'lish choralarini qidirib topadi.

- Uygami? - qayta so'radi tangri Ammon o'g'li. Uning lablarini yovuz kulgi qiyshaytirib yubordi. - Ma'qul. Men etagingizdan tutib turganim yo'q. Ketavering! Ketavering, agar keta olsangiz! - Kulgancha qo'lini yoyib, atrofni ko'rsatdi. - Lekin, bolalarim, bir arzimas narsani unutib qo'yibsiz. Qo'shin butun dunyodan ajralgan, shimol tomonda, daryo

¹ Ilyosov Ya. So'g'diyona, 133- bet.

ostida uchqur qalpoqli skiflar jangga to'plandi. Sharq tomonda sizni guldor do'ppili skiflar ko'zları to'rt bo'lib kutmoqda. G'arbiy sahrolardan sizga qulqchinli skiflar, xavf soladi. Janub tog'lilari hamma so'qmoqlarda devor bo'lib turibdi. Spitamen isyon ko'tardi. Baqtr qo'ldan ketdi. Agar menga ishonmasangiz, choparning so'zini eshiting. Sizlar hamma intiladigan, ammo qaytib ketish kamdan-kam nasib qiladigan begona mamlakatda yolg'iz qoldingiz. Siz xumga tushib ketgan sichqonga o'xshaysiz. Atrofingizda yuz minglab yovvoyilar. Qani, qutulib keting-chi¹.

Shundan so'ng Aleksandr orqa o'girib, toshga o'tirib oladi. Keyin shunday sukunat cho'kadiki, go'yo u tanho qolgandek edi. Minglab kishidan sado chiqmasdi. Faqat qotib qolgan yuzlar, lablar va qoshlar orasidagi tugunlargina ularning ichki tug'yonini ifoda etardi.

Hamma jangchilar sarkardaning sehrli so'zlariga asir bo'lib qolsalar ham, marofonlik Feagen ishonmaydi. Shu tufayli bu jasur jangchi Aleksandrga tik qarab, «Sen ... sen gunohkorsan! ... Sen bizni qopqonga tushirding!» - deb xitob qiladi. Biroq Aleksandr bunday og'ir vaziyatdan ham silliqqina qutulib chiqadi. Aleksandr endi ayyorlik, makkorlik yo'liga o'tadi.

«Aleksandr sizni jahannamdan tortib olishi mumkin edi, ammo siz yaramaslar itoat qilmay qo'ydinglar? Sizlarcha men endi yomon bo'lib qoldimmi? Mayli, shunday bo'la qolsin! Eshitinglar: men o'zimni Spitamen ixtiyoriga topshiraman, agar undan pul bilan qutulishning iloji bo'lsa amallab uyga yetib olarman. Sizlar-chi ... agar o'zlarинг o'ylaganday dono bo'lsanglar, ko'ngillaringga kelganini qilinglar. Xayr»².

Shundan so'ng jangchilarining yuragiga g'ulg'ula tusha boshlaydi. Podshohsiz ularning ahvoli nima kechadi. Aleksandr o'zining shohli dubulg'asini yechib keta boshlaydi. So'ngra Drakil bilan Layert o'zlarini uning oyog'i ostiga tashlab, podshoh nomiga sharaf-shonlar ayta boshlaydilar. Shunday qilib, Aleksandr o'z qo'shinini ipsiz bog'lab oladi. Jangchilar Aleksandrning asiriga aylanadilar. O'z taqdirini umrbod podshoh qo'liga topshiradilar.

Bu lavhada yozuvchi Aleksandrning xarakterini mahorat bilan chizib beradi. Yozuvchi bu o'rinda Aleksandrga shunchaki xarakteristika berib

¹ Ilyosov Ya. So'g'diyona, 134- bet

² Ilyosov Ya. So'g'diyona, 135- bet

qolmasdan, keskin situatsiyalar, konfliktlar orqali uning ichki olamini ham ochib beradi.

Yavdat Ilyosov o‘z romanida Aleksandrning o‘ta tadbirkor va mahoratlil notiq ekanligini ko‘rsatadi. Aslida ham Aleksandr gapga chechan, har qanday savollarga ham javob topib bera oladigan, usta notiq bo‘lganligi tarixda ta’kidlanadi. Shu jihatdan Aleksandrning bir nutqining tarixiy asoslariga to‘xtalib o‘taylik. Bu nutq ham Yaksart bo‘ylarida o‘z jangchilariga qarata aytilgan edi.

Kursiy Ruf o‘z asarida O‘rtta Osiyo tasvirini berar ekan, antik dunyoning o‘ziga xos tomonlarini ochishda o‘sha davrlarda yashab o‘tgan tarixiy shaxslar hayotini, ularning o‘rnini va tutgan rolini ko‘rsatishga alohida e’tibor beradi. Bu asarda davr va inson masalasi alohida o‘rin tutadi. Antik dunyoda yashab o‘tgan insonlarning ruhiy olami qanday bo‘lgan, tafakkurining kengligi nimalarga qodir edi degan savol tug‘iladi. Ayrimlarda e’tiroz paydo bo‘lib, o‘sha davrlarda insonlar nihoyatda go‘l, har narsaga ishonuvchan, qayoqqa yetaklasangiz o‘sha yoqqa ketaveradigan bo‘lgandir deb o‘ylashlari mumkin.

Antik dunyoda ham qat’iy fikrli, o‘zining erk va haqini talab qiluvchi, yaxshini yomondan, adolatni nohaqlikdan ajrata oluvchi insonlar-juda ko‘p bo‘lgan. Bu jihatdan Aleksandr qo‘sishlarining o‘z yurtlariga qaytish niyatida, norozilik kayfiyatida salib yurishlaridan horiganlarida ularga ruhiy bardamlik bag‘ishlagan Aleksandrning nutqi orqali bilib olishimiz mumkin. Bu nutq tarixiy asosga ega bo‘lgani uchun uni to‘liq berishga harakat qildik.

Kursiy Ruf Parfiya yerida greklar tomonidan asos solingenan Gekatompilos degan mashhur shahar bo‘lganligini ham qayd etadi. Shuning uchun shoh bir necha kun bu shaharda to‘xtab qolib, har joydan oziq-ovqat jamlay boshlaydi. Shu vaqtida shoh erishilgan g‘alabalar bilan qanoatlanib Makedoniyaga qaytar emish degan asossiz mish-mishlar lashkarlar o‘rtasida tarqaladi. Shuning uchun ham, jangchilar chodirlarga kirib, narsalarini yig‘a boshlaydi. Bunday mish-mishlarning tarqalishiga uylariga qo‘yib yuborilgan grek jangchilari sabab bo‘ladi. Aleksandr har bir grek otliq askariga 6 ming deparadan berib, ularning ayrimlarini uylariga jo‘natgan edi. Qolganlar ham harbiy xizmat tugadi deb o‘laydi. Hali Hindistonda, keyinchalik chekka Sharq mamlakatlariga bormoqchi bo‘lgan shoh bu ahvoldan tashvishga tushib, harbiy boshliqlarni yig‘adi va ularga qarab ko‘zida yosh bilan shikoyat qiladi».

Kursiy Ruf Aleksandrning nutqini shunday beradi: «Shuhratim eng yuqoriga ko'tarilgan bir vaqtida, navbatdag'i rejalarimni amalga oshirmay vatanga qaytish men uchun g'alaba emas, mag'lubiyatdir. Xudo bizning g'alabamizni ko'rolmasdan, shunday jasur odamlar qalbiga vatanni sog'inish hissiyotini solib qo'ygan, siz jangchilar sal keyinroq yanada ko'proq shon-shuhrat bilan vatanlaringizga qaytishlarigiz mumkin».

Shohning bu nutqidan ta'sirlangan sarkardalar u bilan do'st bo'lishga, eng qiyin ishlarga ham tayyor bo'lishga va jangchilarni bo'ysundirishga tayyor ekanligini va'da qilishadi. Shoh ularga nisbatan yanada yaxshi muomalada bo'lishni va'da beradi. Jangchilarning hech qachon ruhi tushmagan va ortga qarab chekinmagan, hamma vaqt shoh ularni ruhlantirib, madad berib turgandi. Shunda shoh jangchilarning hamma vaqt uning so'zlariga itoat etib, qulq solishlarini so'raydi. Yig'ilgan qo'shinga qarab shoh yana shunday murojaat qiladi:

«Eslab ko'ring, jangchilar, siz bilan biz qanchadan-qancha buyuk ishlarni qildik. Albatta, shundan keyin hammada, dam olish istagi paydo bo'ladi. Mening boshchiligidan Frakiyani, Spartani, Axeyslarni, Peloponnesni, Beotiyani bo'ysundirdik. Eslang, isjni Gellespontada boshlab, biz Kariyani, Midiyani, Kappadokiyani, Frikiyani, Paflagoniyani, Pamfiliyani, Pisidiyani, Kilikiyani, Suriyani, Finikiyani, Armanistonni, Lidiyani, Parfiyani egalladik. Boshqa sarkardalarga qaraganda men ko'proq mamlakatni bosib oldim, hatto ularning ba'zilarini sanash jarayonida esdan chiqargan bo'lishim mumkin. Agar shunchalik tezkorlik bilan bosib olingen joylarda bizning hokimiyatimiz yetarli darajada mustahkam bo'lganiga ko'zim yetganida, meni ham hech kim bu yerda ushlab turolmas edi. Men ham sizlar bilan birga o'z ona yurtimga qaytgan bo'lar edim. Lekin biz hali yangi imperiyamizni mustahkamlashimiz lozim. Bu yerdagilarni yaxshilik bilan o'zimizga o'rgatishimiz kerak.

Axir har bir mevaning pishishi uchun ma'lum fursat kerak-ku! Ishdan chiqqan har bir narsa vaqt o'tishi bilan o'z holiga qaytadi. Bu hayot qonunidur!

Nima deb o'ylaysiz? Dini, tili boshqa qabilalar bizga osonlik bilan bo'ysunadimi? Iloji bo'lsa, hali ham qarshilik ko'rsatishga tayyor. Ularni siz bilan bizning faqat qurolimiz qo'rqtib turibdi. Ularning biz tomonga o'tishi uchun uzoq vaqt kerak.

Siz bilan gaplashib turibman-u, go'yo bizga hamma narsa bo'ysunganday, lekin hali Girkaniyani bosib olgan Nabarzan, shohni o'ldirib Baqtriyani egallab olgan Bess bizga xavf solib turibdi. So'g'diyonaliklar, daklar, massagetlar, saklar, hindistonliklar hali bo'ysungani yo'q. Ular hammasi, albatta, bizning qudratimizni ko'rib bo'ysunadilar. Ular tezroq bo'ysunishi uchun doimo qo'rquvda ushlab turishimiz kerak. Shuning uchun biz bunday joylardan aslo voz kechmaymiz. Tabiblar tanadagi kasallikni qo'zg'aydigan illatni qoldirmagani kabi, biz ham halaqt beradigan barcha to'siqlarni yo'q qilishimiz zarur.

Arzimas bir uchqun katta olovga aylanishi mumkin. Doro forslar ustidan hukmdorlikni meros yo'li bilan emas, balki Kir taxtini egallab turgan Bagbasning beparvoligi tufayli qo'lga kiritdi. Shuning uchun bo'sh taxtni egallah Bess uchun qiyin bo'lmadi. Biz xato qilgan bo'lar edik, agar taxtni shu yaramas Bessning qo'liga olib berish uchun Doroni yengsak. Nahotki, siz ana shunday yaramas odam ulkan mamlakatga hukmdor bo'lishini xohlasangiz. O'ylaymanki, siz Bess Gretsya va Gellespontni vayron qilganligi to'g'risidagi xabarni eshitgandan so'ng qurol olib, unga qarshi kurashmassiz. Agar shuni kutsak, ancha kech bo'lar edi. Uni hozir ayni vaqtida yakson qilish kerak.

Bizning oldimizda yana to'rt kunlik yurish turibdi. Siz bilan biz qancha daryolarni, tog'larni, qorlarni yengib o'tdik. Biz buyuk g'alaba ostonasida turibmiz. Bizning oldimizda yana o'z hukmdorlarini o'ldirgan Bess kabi qochoqlarni yengish turibdi.

Bu olijanob ish. Avlodlarimizga qoldirgan buyuk ishlarimiz ichida eng asosiysi mana shu ish bo'lib qoladi.

Bu ish amalgal oshsa forslar bizga itoat etib, qulq soladi va biz haqiqat uchun urush qilayotganimizni, Bessning sotqin va qotilligini ochayotganligimizni hamma tushunadi»¹.

Ma'lumki, Aleksandr yoshligida zamonasining ulug' donishmandlari qo'lida tahsil olgan edi. Ayniqsa, g'arb va sharqda ulug' faylasuf deb nom taratgan Aristotel ta'limoti Aleksandr dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu davrda Yunonistonda notiqlik san'ati kuchayib ketgan edi. Aleksandrning yuqorida nutqidan ham ko'rinish turibdiki, u o'zining o'tkir nutqi bilan jangchilarini g'alabaga undar va shijoatli bo'lishga

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 201- bet.

chaqirar, umidsiz bo'lmaslikka undardi. Shuning uchun ham, bu o'rinda Aleksandrning tarixiy nutqini atay berib o'tayapmiz.

Jangchilar shohning ta'sirchan nutqini ko'tarinki ruh bilan kutib oladilar va hamma narsaga tayyormiz deb javob beradilar. Shoh ulardag'i shijoat va shiddatni qaytarmasdan, uchinchi kuni Parfiya orqali Girkaniya chegarasiga yetib keladi. Parsiyani bosqinchilardan himoya qilish uchun Kraterni Amintaning otryadi va yana 600 otliq, 600 yoychilar bilan qoldiradi. Shu vaqtida Aleksandrning jangchilari Doro o'ldi demak urush tugadi, deb uylariga qaytishni istab qoladi. Lekin Aleksandr katta yig'ilish o'tkazib, hali oldinda ko'p janglar turganligini tushuntiradi va ularni xizmatni davom ettirishga ko'ndiradi. Grek jangchilaridan iborat yordamchi qo'shinga har birini taqdirlab, javob beradi. Shular orasidan o'z xohishi bilan xizmatni davom ettirishga qolgan jangchilarga yana o'n talantdan pul mukofoti beradi. O'zining jangchilariga ham juda ko'plab pul va boshqa mukofotlar beradi.

Tanais baqtriyaliklarni yevropalik skiflardan ajratib turardi. Shuningdek, u Osiyo va Yevropa o'rtasidagi chegaradir.

Skiflar qabilasi Frakiyaga yaqinroq joylashgan bo'lib, sarmatlarning bir qismi bilan tutashib ketgandi.

Ular Istrning orqa tomonida Baqtriya bilan chegaradosh yana bir viloyatga ega edi. Osiyoning eng chekka shimoligacha cho'zilgan bo'lib, u yog'i odamsiz o'rmonlar edi. Hammasingning madaniyati bir xil edi.

Bu o'rinda Kursiy Ruf ta'kidlaganidek, Tanais - Don daryosi haqiqatan ham Osiyo bilan Yevropa chegarasiga joylashgan. Sarmatlarning bir qismi bilan tutashib ketganligi haqida to'xtalganda esa, skiflarning rus yerlariga chegaradosh bo'lib yashashini nazarda tutmoqda. Skiflar juda keng o'lkani egallab olgan bo'lib, shimol tomonidan Sibir yerlarigacha cho'zilib ketgandi. Bu o'rinda Kursiy Ruf «odamsiz o'rmonlar» haqida gapirganda Sibir o'lkasini nazarda tutganligi ayon, bir haqiqatdir.

Shoh do'stlarini maslahatga chaqiradi. Uni endi dushman emas, balki noqulay vaziyat cho'chitardi. Baqtriyaliklar yengildi, skiflar uni tashvishlantira boshladilar. O'zi esa otga mina olmaydi, oyoqqa turishi qiyin, buyruq berishga ojiz bo'lib qoladi.

Ikki tomonlama xavfdan yotib qolgani uchun xudoga iltijo qila boshlaydi. Jangchilar ham uning ataylab shunday qilmayotganini bilardilar.

Shoh endi odamlar orasidagi har xil uydirma va mish-mishlarga, oldindan aytib beruvchi folbinlar gapiga ishona boshlaydi. U Aristandrga

hayvonni o'ldirib, uning ichki tanasiga qarab bundan buyon nima bo'lishini aniqlash kerakligini buyuradi. Shoh chodiriga soqchilardan tashqari Gefestion, Krater va Erigiy ham taklif qilinadi.

«Bunday qiyinchiliklarni siz bilan biz birinchi ko'rishimiz emas, - deydi Aleksandr. - Agar biz skiflarni yengmasak, orqaga, baqtriyaliklarga qaytamiz. Bu esa biz uchun sharmandalikdir. Yo'q biz skiflarga kuch-qudratimizni ko'rsatib qo'yamiz, so'ngra hatto Yevropaga yurish qilamiz. Tabiati xilma-xil bo'lgan Osiyoni Yevropa bilan birlashtiramiz. Agar biz biroz kechiksak, skiflar orqa tomonimizga o'tib oladi. Axir faqat daryoni kechib o'tishni biz emas, ular ham biladi. Shunda bizga qarshi hamma oyoqqa turadi. Taqdir hatto yengilganlarni ham urush mahoratiga o'rgatadi. Agar skiflar daryodan suzib o'tishni bilmasa, ularga baqtriyaliklar o'rgatadi. Axir, ular bizning qanday suzganimizni ko'rgan edi-ku¹.

Hozirgacha ularga faqat bir otryad keldi, qolganlarini kutyapti. Agar biz urushni to'xtatib hujum qilmasak, keyinroq himoyalanishga majbur bo'lamiz. Mening qarorim qat'iy, hamma tushundi deb o'layman. Yarador bo'lganidan buyon (u bo'ynidan yaralangan edi) o'rniidan tura olmayapman. Agar sizlar menin orqamdan yurib, aytganimni qilsalaringiz, shundagina men sog'ayib ketaman.

Biroq, romanni o'qir ekanmiz, Aleksandrga nisbatan nafrat o'ti alangalanib qolmasdan, balki unga nisbatan achinish hissi ham paydo bo'ladi. Aleksandr o'zi kutmagan va sezmagan holda qopqonga tushib qolgandek edi. Chetdan qaragan kishiga Aleksandr misoli sarob ichida qalqib turgandek ko'rindi.

Ayniqsa, So'g'diyona Aleksandr o'ylaganidek osoyishta, odamlari qo'ydek yuvvosh bo'lib chiqmadi. Aleksandrning bu o'lkani osongina bosib olaman, degan xomxayollari chippakka chiqqdi. Skiflar grek-makedon qo'shinlariga turli tomondan hujum qilib, ularni shoshririb qo'yadilar. Hatto Aleksandr qudratlil Doro bilan jang qilganda ham bunchalik sarosima va tahlikaga tushmagan edi. Tarixiy manbalarda ham Aleksandrning So'g'diyonadagi hayoti juda og'ir kechganligi qayd qilingan. Qayta-qayta talafot ko'rishi, ikki marta og'ir yaralanishi Aleksandrning asabini ancha zaiflashtirib qo'ygandi.

«Aleksandr uzoq vaqt uxbay olmadidi. Unga bezovtalik azob berardi. Sak-tigraxaudlarning bu qadar tez chekinishi hech bir yaxshilikdan

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 277- bet.

darak bermasdi. Gerodotning hikoya qilishicha, skiflarga aldangan Eron shohi Kayxusrav to o'zi pistirmaga tushmaguncha ularni sahroda ta'qib qilib yurgan, so'ng Kayxusravnning boshini kesganlar. Boshqa bir fors, Doro Gushtasb ham qaysarlik bilan skiflar ortidan quvib yurgan, so'ngra Qora dengiz bo'yi cho'llaridan zo'r-bazo'r qutulib chiqqan¹.

Axir ilonning yog'ini-yalagan, ayyorlikda va tadbirdorlikda hech bir mson zoti bas kelolmaydigan Kir, Dorolar ham mana shu Yaksart bo'ylaridan qaytib ketmaganmidi? Skiflar bu nomdor shohlarni sharmandali ravishda mag'lubiyatga uchratmaganmidi? Shunday qilib, Aleksandr kundan kunga g'amga botib, tahlika ostida hayot kechira boshlaydi. Nihoyat u Esxata deb nom olgan bu o'lordan tezroq ketishga qaror qiladi.

Tangri Ammon o'g'li bir qarorga keladi: qaytish kerak. Uyat bo'lmaydimi? Nima bo'lsa, bo'lsin. Bu halok bo'lgandan ko'ra yaxshiroq-ku! Kimki ko'chma ma'noda boshini yo'qotsa, to'g'ri ma'noda ham uni yo'qotishi mumkin. Jarohat, kasallik va suvning yomonligini bahona qilamiz ... jangchilar qaysarlik qilib o'tirmas, shundoq ham hammasi orqaga qaytishga hozir-u nozir. Qaytish kerak.

Iskandar og'ir xo'rsinadi va Ptolomayos Lagni chaqiradi².

Aleksandr Yaksart³ bo'ylarida uzoq turmadni. Bu daryo bo'yiga Aleksandr Esxata⁴ shahrini tez fursatda, o'n yetti kun ichida qurib bitkazadi.

Aleksandr niyat qilgan yangi shaharni qurish ishlari bilan shug'ullanardi: 20 kun ichida shahar devorlar bilan o'raladi va u yerga ellinlik yollanmalarni, ya'ni varvarlarning qo'shinlarini va harbiy xizmatga varamay qolgan makedonlik jangchilarni joylashtiradi. U o'zining odati bo'yicha xudolarga qurbanlik qilish bilan birga, gimnastika musobaqalarini hamda chavandozlar musobaqasi bayramlarini tashkil etardi⁵.

Ana shu olis yurtlarda o'zi haqida xotira qoldirish maqsadida Aleksandr Fanais daryosi bo'ylarida Aleksandriya deb nomlangan shaharni quradi. O'n yetti kun ichida uzunligi olti ming qadam keladigan devor qad

¹ Ilyosov Ya. So'g'diyona, 139- bet.

² Ilyosov Ya. So'g'diyona, 140- bet.

³ Yaksart — bir kalador, sart — kalador.

⁴ Aleksandr Esxata Xo'jand shahar yaqinida.

⁵ Arrian O'sha asar, 136- bet.

ko'taradi. Baqtriya va So'g'diyonada Aleksandr yetti shahar bunyod etib, ularda o'z qo'shinidan bir qismini va ishonchli kishilarini qoldiradi¹.

Shunday qilib, uzoq yerdan kelgan greklar, rimliklar, makedonlar, misrliklar va boshqa o'nlab o'zga xalq vakillari uchun Yaksart daryosi va bu daryo bo'yida yashovchi skiflar sirli bir olam bo'lib qoldi. Aslida bu daryoning Sir deb atalishi ham bejiz bo'lmasa kerak.

Kursiy Ruf asarida Samarcand atrofida bo'lib o'tgan voqealar ham qalamga olinadi. Bu yerdagi xalqlarning soddadil, ayni chog'da, mard bo'lganligi hikoya qilinadi. Shu bilan birga, hikoyada Politimet (Zarafshon) bo'yalaridagi shiddatli janglar tarixi haqida ham qiziqarli lavhalar bitilgandir. Asarning mana shu sahifalarini o'qir ekansiz, go'yo Zarafshon bilan birga xayolan mavjlanib oqasiz.

Kursiy Ruf, ayniqsa, Yaksart (Sir) va Politimet (Zarafshon) vohasidagi qabilalarning jango varligiga alohida e'tibor bilan qaraydi.

Qayiqlar Yaksart daryosining qirg'og'iga yaqinlashib kela boshlaydi, jangchilar esa qo'llaridagi qurollarni qirg'oq tomon ota boshlashdi, buni ko'rghan skiflarning otlari qo'rqib chekina boshlaydilar. Keyin otliqlar otryadi skiflar safiga yorib kiradi, boshqa otryadlar ham jangga hozirlik ko'rishadi. Shoh esa jangchilarni tinmay ruhlantirar, bo'ynidan yaralanganiga qaramay, o'zi ham jangda qatnashardi. Shunday qilib, shohning o'zi ham jangda bo'lgani uchun jangchilar buyruqni kutib turmasdan o'zлari jang qilar, bir-biriga madad berar, o'z hayotini o'yamasdan skiflar ustiga bostirib borardi. Bunday hujumni kutmagan skiflar otlarini orqaga burib qocha boshlaydi, shoh esa holdan toyganiga qaramasdan ularni quvishda davom etadi. Nihoyatda charchagan shoh lagerga qaytib, jangchilarga kechgacha skiflarni quvishga buyruq beradi. Uning jangchilari keksa Liber toshlar qo'yib belgilab bergen chegaradan ham o'tib ketadi. G'azablangan makedoniyaliklar yanada uzoqroq ketib, yarim kechada dushmanning ko'p qismini yengib qaytadilar. Ular 1800 ta otni qo'lga kiritib qaytib kelishgandi. Makedoniyaliklarning talafoti 60 ta otliq, 100 ta piyoda jangchi va mingta yaradorlardan iborat edi.

Bu shohona yurish bo'ysunmagan Osiyoni yanada tinchlantririb qo'yadi. Mahalliy xalq skiflarning yengimasligiga ishonishardi. Bu gal ular makedoniyaliklarga tan beradi. Shu sababli saklar bo'ysunishga tayyor ekanligi haqidagi va'da bilan o'z elchilarini Aleksandrning oldiga

¹ Kursiy Ruf bu o'rinda skiflarni dushman, bosqinchilar deb ataydi.

yuboradilar. Ularni bunday qilishga shohning shuhrati emas, balki yengilgan skiflarga nisbatan shohning odamiyligida edi. U hamma asirlarmi to'lov olmasdan qaytarib berib, skiflarning jasurligini tan oladi. Sak elchilarini xushmuomalalik bilan kutib olgan shoh, ularni kuzatib qo'yish uchun Gefestionga o'xshagan, hatto o'zining yoshligiga o'xshab ketadigan yoshgina Ekssi pinni qo'shib yuboradi.

SPITAMEN

Dilimizga yaqin bo'lган yana bir o'tmishdoshimiz Spitamendir. Spitamen deganda bizning ko'z o'ngimizga el-yurtning erkini, ozodligini o'ylab xalqni vatan himoyasiga undagan vatanparvar bahodir namoyon bo'ladi. Antik davrlardayoq vatanparvarlikni yuksak tuyg'u deb ko'ngliga tukkan bu xalq haloskorি katta erksevarlar qo'shin to'plab, «yengilmas» deb nom olgan Aleksandr qo'shiniga bir necha bor qaqshatqich zarba beradi. O'zi ham qayta-qayta talafotlar ko'rsa ham yana kurashni davom ettiradi. Uning bunday jasoratiga hatto Aleksandr ham qoyil qoladi.

Spitamen katta jur'at egasi edi. U Aleksandrning ustidan g'alaba qozonish uchun kurashadi. Aleksandr unga bir necha bor odamlarini yuborib, sulh tuzishga harakat qiladi. So'g'diyonaning hokimligini va'da qiladi, biroq Spitamen o'z xalqiga xiyonat qilishni istamaydi.

Grek va Rim tarixiy nasri namunalarida Spitamenning qaysi shahar yoki qishloqdan ekanligi aniq ko'rsatilmagan. U asosan Politimet daryosi bo'ylarida, Maroqand shahri atrofida kechgan voqealar tasvirida ko'p tilga olinadi.

Aleksandr qo'shinlari qanchadan qancha hokimliklarni qo'lga kiritgan bo'lsa-da, hali hech qachon So'g'diyona yerlaridagidek tahlikaga tushmagan, katta talafotlar bermagan edi. Spitamen hech kimning xayoliga kelmagan joylarda tasodifan paydo bo'lib, qo'qqisdan hujum boshlar yoki dushmanni pistirmada turib tuzoqqa ilintirardi. Uning o'ziga xosjang taktikasi bor edi. Qilichbozlikda unga teng keladigani topilmasdi.

Skiflar Spitamenga katta qo'shin berolmasligini aytadi. Chunki ular o'z qabilalarini himoya qilib qo'shin to'playotgan edilar. Bundan tashqari skiflar Aleksandr bilan hujum qilmaslik haqida shartnoma tuzishgandi. Bu shartnoma buzilsa, Aleksandrning qahri kelib, ular yeriga bostirib kelishi mumkinligini aytadi. Spitamen ularni birlashishga, katta kuchni

bir joyga yig'ishga, so'ngra Aleksandrga zarba berishga chaqiradi. Biroq skif shohlari Spitamenga aloqani uzmashlik uchun kam sonli qo'shin beradi. Yana tayinlaydiki, bosqinchilarni quvib chiqarishda Spitamenga ular hamma vaqt madadkor bo'ladi. Shuningdek, Spitamen do'stlik niyatida hamma vaqt skiflar eliga kelishi, mabodo yolg'iz qolsa yoki hayoti tahlikaga tushsa, boshpana topishi mumkinligini ham bildirishadi. Skiflar shohi Spitamenning ko'nglini ko'tarishga har qancha harakat qilmasin, u yaralangan burgutday So'g'diyonaga ruhan tushkun holda qaytadi.

Kursiy Rufning ta'kidlashicha, greklar qadimdan skiflar haqida ko'p narsalarni bilishgan. Hatto «skif cho'llari haqida greklar ko'plab maqollar bitishgan»¹.

Kursiy Ruf So'g'diyonaga ta'rif berib, «suv yetishmas, 400 stadiygacha bo'lgan yerlarda namlik yo'q edi. Jazirama cho'l issig'i har tomonga olov purkardi»² - deb yozadi.

Bunday jazirama cho'llarda yurishga Spitamen va uning qo'shini o'rganib qolgandi. Aleksandr qo'shinlari esa bunday cho'l yerlardan yurishga qiyinalardi. Ko'pincha adashib ketib, Spitamen qo'ygan tuzoqqa ilinardi. Spitamen ochiq jangda Aleksandr qo'shiniga teng kelolmasligini bilardi. Chunki ular juda puxta qurollangan, qirg'in janglarni ko'raverib, pishib ketgandi. Spitamen safdoshlari ichida esa hali biron marta jang ko'rmagan, jangning dahshatini his etmagan kishilar ham bor edi. Aleksandr jangchilari bir xil kiyangan, qo'liga bir xil jang qurollarini salobat bilan tutgan bo'lsa, Spitamen jang-chilarining ko'pchiligi janda-junda, yirtiq-yamoq kiyimlarini kiyib, ayrimlari qo'liga cho'qmor, tayoq, tesha, o'roq, panshaxa ko'tarib olishgan edi. Shu tufayli Spitamen dushmanga qo'qqisidan hujum qilib, cho'l ichkarisiga qochishni eng qulay usul deb bilardi. Bir kun Yaksart cho'llarida, boshqa kuni Baqtriya tomonlarda, yana bir kuni Politimet bo'ylarida turib dushmanga talafotlar keltirardi. Ular massaget, skif, dak, sak, So'g'd qabilalari bilan mustahkam aloqalar bog'laydi. Skiflar keyinchalik Spitamenni o'zlarining haqiqiy haloskorি deb biladi va unga necha bor katta qo'shin bilan yordam berib, g'alabaga erishishida ko'makdosh bo'ladi.

Spitamen hech boylik yig'masdi. Boylik to'plashga qiziqmasdi ham. Qo'liga mabodo katta o'ljalar tushib qolgudek bo'lsa, uni jangchilariga

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 283- bet.

² Kursiy Ruf. O'sha asar, 263- bet.



6- rasm. Qadimgi skiflar, hattoki, Spetamen safdoshlarini ham bir otta ikki kishilab jang qilgan. Mil.av IV asr yodgorligi

kurashayotgan edi. Shohning nazarida Spetamenni bir amallab qo'lga tushirsa yoki uni jangda o'ldirsa bas, bu yovvoyilar o'lkasida urush tugaydi. Haqiqatan ham, shunday edi. Antik o'tmishdoshimiz Spetamen jasur, aqli, farosatli, ayni chog'da, hushyor va ziyrak edi.

Grek va Rim adiblari Spetamen haqida qiziq voqealarni bayon qiladi. Arrianning yozishicha, Spetamen Maroqand qo'rg'onida qoldirilgan makedon qo'shinlarini chekinishi haqidagi xabarni Yaksart bo'ylarida eshitadi.

Aleksandr Spitemenga Andromax, Menedem va Karanni jo'natadi. Unga qarshi 60 ga yaqin chavandoz jangchilarini va 800 yollanma askarni Karan qo'mondonligida yuboradi. Yollanma piyoda askarlardan esa 1500 ga yaqini yordamga jo'natilgan edi. Lekin keyingi kelgan xabarlar shohni ancha tashvishga soladi. Menedem Spitemenni qurshab olishga ketgandi. Buni sezgan Spetamen qurshovda qolmaslik uchun yo'lga pistirma qo'yadi. Yo'l o'rmon ichidan o'tgan bo'lib, pistirma uchun juda qulay edi. U yerga daklar yashirinadi. Ular dushmanga to'satdan hujum qilib otlarga ikkitadan qurollangan chavandozni mindirishadi.

Makedon jangchilari qanchadan qancha janglarda bo'lib, bunday usulni hali ko'rishmagan edi. Bir otga minib olgan ikki jangchi ikki taraflama

hujum qilardi. Bunday usul dushmani ancha shoshirib qo'yadi. Bundan tashqari, oldingi qatordagi jangga kirgan jangchilarning orqasida qo'liga tosh ushlab olgan jangchilar ham bor edi. Ular orqadan turib, hali jangga kirmasdanoq, dushman ustiga tosh yog'diradi.

Qo'liga qilich tutgan yoki nayza otishga hozirlanayotgan dushmanning boshiga to'xtovsiz toshlar borib tegib, ularni qip-qizil qonga bo'yab tashlaydi. Bu narsa jangga kirgan safdoshlariga ham ancha madad berar, ularning ruhini ko'tarardi.

Ikki o'rtada shiddatli jang boshlanadi. Makedonlar chekinib, qaytadan jangga kirishga qaror qiladi. Biroq orqa tomonda Spitamen otliqlari kutib turardi. Ular boyagidek bir otga ikkitadan minib olishgandi. Qahr-g'azabi to'lib-toshgan spitamenchilar shunday dahshat bilan dushman hujumini qaytaradilarki, ular bunday qattiq qarshilikka hech qachon duch kelmagan edi. Qo'shin oldida kelayotgan Menedemning ham jangga kirmasdanoq boshiga tosh tegib, yuzidan qon oqa boshlaydi. Shunday bo'lsa-da, sarkarda safdoshlariga pand bermaslik uchun o'zini o'nglab olib, jangga kiradi.

Menedem har tomondan qurshab olingandi. Jangchilar dushmanikiga qaraganda oz bo'lib, tiriklay qo'liga tushgandan ko'ra o'llim afzaldir, deb jangni davom ettiradi.

Uning kuchli oti bo'lib, dushman orasiga bir necha bor yorib kiradi-da, ancha talafotlar yetkazardi. Lekin daklar ko'pchilik bo'lib unga tashlanib, bir nechajoyidan yaralaydi. So'ngrau do'sti Gipsidgaotini qoldirib, o'zi jon beradi. Gipsid dushmani yorib o'tib qochishi mumkin edi, lekin do'stini yo'qotganidan g'azabi toshib, o'ch olmoqchi bo'lib, shiddatli jangga kirdi. Biroq u ham halok bo'ladi.

Bu dahshatlari ahvolni ko'rgan tiriklari esa tepalikka chiqib oladi. Spitamen ularni o'rabi olib ochlikdan sillasini quritmoqchi bo'ladi. Jangda makedonlardan 2000 piyoda va 300 otliq askar halok bo'ladi. Bu mag'lubiyatni Aleksandr boshqalardan sir tutib, kim bu sirni ochsa, o'llimga mahkum etiladi, deb qo'rqtidi.

Charchagan shoh o'zini bosish uchun daryo yoqasidagi maxsus chodir tomon ketadi. Bu yerda yolg'iz o'zi chuqur o'nya tolib, kechasi bilan mijja qoqmay skiflar yoqqan gulxnlarga tikilib, ularning taxminiy sonini aniqlardi. Eng ishongan, jasur jangchisi Menedemdan ajrab qolganiga goh kuyinardi, goh o'zboshimchalik qilgani uchun g'azabi kelardi. Nahotki Spitamen bilan sulh tuzish yoki uni qo'liga tushirish

mumkin emas, degan o'y tinchlik bermasdi. Spitamenni bir yoqli qilmasdan So'g'diyona va Baqtriyani tinchitish mumkin emasligini u yaxshi bilardi. Shoh tezroq Yaksart bo'ylaridagi mojaroni bostirib, bu yerdagi urushga chek qo'yib, Spitamenning izidan tushishga qaror qiladi. Tong otishi bilan shoh kiyinib, qo'shin oldiga chiqadi. Jangchilar shohni juda hurmat qilar, uni ko'rgach, qo'rquvni va xavfni unutardilar. Ular ko'zlarida xursandchilik yoshi bilan har qanday jangga tayyor ekanliklarini aytadilar.

Aleksandr tezlik bilan parom tayyorlab birinchi otliq va piyodalarni narigi qirg'oqqa o'tkazishni tayinlaydi. Qolgan gapni o'zлari tushungan jangchilar uch kunda 12000 sol tayyorlashadi.

Kursiy Rufning ta'kidlashicha, shunday qilib shoh 4 kunlik yo'ldan keyin 2000 jangchisini va Menedem boshchiligidagi 300 otlig'ini yo'qotgan joyga yetib keladi. Ularning suyaklarini yig'ib ko'mishni buyuradi. O'lganlarga milliy odatga ko'ra qurbanlik keltiradi. Krater ham yetib kelib, unga qo'shiladi.

Aleksandr o'zining hamma harbiy kuchlarini qishloqlarni yoqishga, katta yoshdagi odamlarni o'ldirishga jo'natadi.

So'g'dyonaning ko'p joyi cho'llardan iborat mamlakat edi. Haqiqatan, bu ulkan davlat bo'lib, uning o'rtasidan Politimet deb ataluvchi suv oqimi o'tar, ma'lum joyga borib, yer qa'riga singib ketardi. Yer tagidagi daryoning oqimi uning ovozidan bilinib turardi. Lekin uning namligi yoki bug'i bilinmasdi. Kursiy Ruf daryoning yer tagidan oqish holati Girkaniyada ham borligini ta'kidlab o'tgan edi. Biz bu haqda yuqorida to'xtalgandik.

So'g'dyononalik asirlar orasidan eng kuchli, mashhur 30 tasini shohning huzuriga olib kirishadi. Shoh ularni qatl etishga buyuradi. Bu buyruqni tarjimon orqali tushungan asirlar o'limdan qo'rmasdan qo'shiq aytib, o'yinga tushadilar.

Shoh ularning jasurligiga, o'limdan qo'rmasligiga hayrat bilan qarab, orqaga qaytaradi va buning sababini so'raydi.

Agar bizni boshqa shoh qatl qilganda qayg'uli bo'lardi, lekin sizday mashhur shohning qo'lida o'lish biz uchun sharafdir, deydi ular. Shunda shoh so'raydi: Agar sizlarga hayot baxsh etsam, menga sodiq bo'lasizlarmi?

«Biz hech qachon sizga dashman bo'lmaganmiz, faqat bunga urush sababchi, biz hamisha sodiq qolamiz».

Zarafshon bo'ylarida yashovchi elat vakillari shohga mana shunday deb javob beradilar. Yana ular Aleksandrga sodiq ekanliklarini, ularning qalbi g'araz va yovuzlikdan mustasnoligini aytib, o'z hayotlarini garovga berib, kerak bo'lganda Aleksandr uchun o'limga tayyor ekanliklarini aytadi. Ular va'dalarining ustidan chiqib, to'rttasi shohning shaxsiy soqchisi, qolganlari mahalliy xalqni boshqaruvchi qilib tayinlanadi. Bu ishlarni sodiqlik bilan bajarishda hatto makedonlardan ham qolishmaydilar.

So'g'diyonada Pebxolayni 3000 jangchi bilan qoldirib, shoh Baqtriya tomon ketadi.

Arrianning ta'kidlashicha, Aleksandr So'g'diyona yerlarini ishg'ol etish bilan band bo'lgan bir paytda, Spitamen 600 ta massagetdan iborat otliq askarlar bilan Baqtriyadagi bir qal'aga keladi. Na hokimlardan Frurax, na soqchilar uning bu hujumini kutmagan edi. Qal'a jangchilarini o'ldirib, makedonlar sarkardasi Fruraxni esa asirga olib, qamab qo'yishadi. Qal'ani qo'lga kiritganlari uchun mammun bo'lib, Zariasp shahriga yaqin kelishadi. Lekin shaharga hujum qilishga botina olishmaydi. Shunga qaramay, katta o'lja bilan orqalariga qaytishadi.

Zariasp shahrida kasal bo'lgan bir-ikkita otliq askarlar qolishgandi. Ular bilan Sosiklning o'g'li Peyfon va Kifader Aristonik birga edilar. Skiflarning hujumi haqida eshitib, ular oyoqqa turadi. 80 ta yollangan otliqni olib, massagetlarning orqasidan quvishadi. Hech narsani o'ylamasdan beparvogina ketayotgan skiflarga hujum qilib, ulardan o'ljani tortib oladi va bir-ikkitasini o'ldirishadi. Bunday tartibsizlik bilan orqaga qaytayotganida ogohlantiruvchi odamlari bo'lganligi sababli, Spitamen skiflar bilan qurshovda qoladi. Bu yerda ular 7 do'stidan va 60 ta yollangan otliq askarlaridan judo bo'lishadi. Arketonlik Kifader ham shu yerda halok bo'ladi. Peyfon esa yaralanadi va uni asirga olishadi.

Peyfonning asirga tushgani Aleksandmi ancha tashvishga soladi. Chunki Peyfon Aleksandrning yaxshi ko'rgan jangchilaridan biri edi. U Aleksandrning qo'liga navkar bo'lib kelganida juda yosh edi.

Otasi Sosikl esa Fili ppning mashhur sarkardalaridan biri bo'lib, Aleksandrni juda yaxshi ko'rар, ba'zan ovga birga olib chiqardi. Ov qilishda bu keksa jangchiga teng keladigani yo'q edi. Sosikl ancha qarib, jangga yaramay qolsa ham keksayganini sira tan olgisi kelmas, xuddi yosh jangchilardek o'zini bardam tutardi. Keksa safdoshi shoh Filippning hurmati uchunmi, yoki Aleksandrga ixlosi balandligidanmi, qo'shinga ergashib Persapolgacha birga kelgandi. Uning niyati bir necha yillardan

buyon Yunonistonga tahdid solib, tinchlik bermay yurgan eronliklarning mag'lubiyatini o'z ko'zi bilan ko'rish edi. Persopolda Aleksandrni katta g'alaba bilan qutlagach, yolg'iz o'g'li Peyfonning taqdirini Aleksandrning qo'liga topshiradi. Aleksandrning hamma vaqt g'alabaga erishishiga tilakdosh bo'lib, yosh Peyfonga hushyor bo'lishni, uning sog'-omon qaytib kelishini Aleksandrdan o'tinib so'raydi. Shoh keksa jangchi Sosiklni qimmatbaho sovg'a-salomlar berib yurtiga qaytaradi.

Peyfon yosh bo'lishiga qaramasdan dovyurak edi. Qirg'in janglarning oldida bo'lishini Aleksandrdan o'zi so'rardi. Peyfonning qo'rqlamas va botirligini sezgan Aleksandr uni kichkina bir yordamchi qo'shinga bosh qilib qo'ygandi. Biroq Sosiklni otasi kabi hurmat qilgani uchun Peyfonni avaylashga harakat qilardi. Peyfonning asirga tushganini eshitib, shohning ko'z o'ngiga Sosikl keladi. Keksa jangchining ko'zga surtgan yolg'iz farzandini yo'qotish Aleksandr uchun katta judolik edi. Buning ustiga, Sosikl Peyfonni Aleksandrga jangchi sifatida emas, ini sifatida topshirgan edi. Aleksandrning ukasi bo'limgani uchun Peyfonni o'ziga ini qilib olgandi. Peyfon ham Aleksandrni o'z og'asidek ko'rardi. «Men Fili ppga xiyonat qilmadim, sen ham o'z shohingga sadoqatli bo'l, bolam», - - degan edi o'shanda Sosikl. Sosiklning bu gaplari esiga tushib, Aleksandr Peyfondek bir jangchisini emas, o'z inisini yo'qotgandek bo'lgandi. Peyfon esa otasining o'gitlari uchunmi, Aleksandrga butun vujudi bilan berilib, sadoqat bilan xizmat qilardi.

Aleksandr asirga tushgan Peyfonni ozod qilish uchun Ptolomeyni Spitamenning oldiga elchi qilib yuboradi. Ptolomey shoh bergan bir qancha sovg'a-salomlar bilan massagetlar qarorgohiga kelganda, ularning oqsoqoli Spitamenning skiflar bilan Maroqand tarafga ketganini aytib, shoh bergan sovg'a-salomlarni oladi-da, yaralangan sarkardaning tog'dagi bir qishloqda qolganini aytadi. Ptolomey massagetlar oqsoqoli bergen to'rtta yo'l ko'rsatuvchi bilan Peyfonning huzuriga keladi. Ozib-tuzib ketgan Peyfon yara azobida isitmasi baland edi. Peyfonga tog'liklar dushmanlik ko'zi bilan qaramay, bu ham xudoning bir kimsasi-da, deb shifobaxsh giyohlar berib turishgandi. Ammo Peyfonning yarasi sovuqdan gazak olib, kundan-kun ahvoli og'irlashayotgan edi. Chap yelkasiga qilich og'ir botgan, suyakning singan joyi yiring bog'lab ketgandi.

Ptolomey o'z safdoshining ahvoli achinarli ekanini ko'rib, o'sha kuni tundayoq yo'lga tushib, kuni bilan to'xtamasdan yo'l yurib, ertasi kuni tunda shoh qarorgohiga yetib keladi. Og'ir yo'l yurib kelgan bemor

butunlay holdan toygan, shoh uning qoshiga kelganda nimalardir deb alahsirardi. Aleksandr eng mashhur tabiblarini chaqirib, Peyfonning yarasiga malham berishni buyuradi. Tabiblar Peyfonga yaralangan zahotiyoy qordam bergenlarida davolashi mumkinligini aytadi. Endi esa butunlay kech bo'lgandi. Kurak suyagini olib tashlashning hech ilojini topolmaydi. Shu taxlitda o'n sakkiz kun yara azobini tortib, goh hushiga kelib, gohida behush olamdan ko'z yumadi. Peyfon bir hushiga kelganda Spitamenning mardligi haqida gapiradi. Peyfonni kaltaklay boshlagan jangchilarga qarata Spitamen «yaralangan kishiga azob berish mardning ishi emas. Hali yosh yigit ekan, xudo umr bersa sog'ayib ketar» deb, qishloq oqsoqoliga bemorga qarashni qattiq tayinlabdi. Spitamenning bunday mardligi haqida eshitib, shoh «xudo unga aqldan ham bergen ekan-da» deb qo'yadi.

Peyfonni Yaksart daryosining yoqimli epkini urib turgan tepalik yonbag'riga dafn qilishadi. Aleksandr bu mash'um xabarni otasi kabi mehribon Sosiklga qanday yetkazishni bilmay, o'ylanib qoladi. Peyfon o'lgandan so'ng esa Ammon sharafiga qurbanlik keltiradi.

Krater bu vaqtida Politemit daryosi bo'yalarida katta qo'shin bilan Spitamenga qarshi yurishni boshlagan edi. Massagetlar uning kelayotganini bilib, cho'lga qarab qocha boshladilar. Krater Spitamen otryadining orqasidan cho'lga kirib bormasданоq yetib oladi. Bu paytda Spitamenda mingta massagetlardan tashkil topgan otliq askar bor edi. Makedoniyaliklar va skiflar o'rtaSIDA qattiq jang bo'ladi. Bu jangda makedoniyaliklar g'alaba qozonishadi. Skiflardan 150 kishi halok bo'ladi. Qolganlari esa cho'Ining ichkarisiga makedoniyaliklar topa olmaydigan yerlarga berkinishadi.

Aleksandr So'g'diyona va Baqtriyada qolgan dushmanlarni yo'q qilish uchun qo'shinini uch qismiga bo'ladi. Bir qismiga Gefestion, ikkinchisiga Ken, qolganlariga o'zi boshchilik qiladi. Biroq hali bosib olinmagan viloyatlarda ham qo'zg'olonlar bo'lib turadi. Shu vaqtida baqtriyaliklar 800 otliq massagetlar bilan birikib, atrofdagi qishloqlarni vayron qilardi. Viloyat hukmdori Attin ularga qarshi 300 otliq askarini yuboradi.

Massagetlar esa pistirma qo'yadi. Bir necha kishi hayvonlar to'dasini haydab, o'rmondan chiqadi. Ana shu hayvonlar to'dasiga Attin tartibsiz ravishda hujum qilib, pistirmaga duch keladi va ancha talafot ko'radi.

Bu xabar darrov Kraterga yetib, u chavandozlari bilan yordamga shoshiladi. Lekin massagetlar allaqachon bu yerdan jo'nab qolishga

ulgurgan edilar. Shu bilan viloyatda biroz tinchlanish bo'ladı.

Bu xabarni Aleksandrga yetkazishganda u darg'azab bo'lib, shunday baqiradiki, o'zini tuta olmay Kenga nayza sanchib olishiga sal qoladi. Ken epchillik qilib o'zini chetga olmaganida nayza uning ko'kragiga sanchilardi. Shoh otgan nayza zarb bilan chodirga urilib, uni teshib chiqadi.

«Spitamen keyingi kunlarda pistirma qo'yishni kuchaytiryapti. Pistirma uning uchun eng qulay yo'l bo'lib qoldi. Ochiq jangga chiqishga botinolmayapti. Hali shoshmay tursin, Spitamenga men ham shunday tuzoq qo'yayki, qopqongatushgan bo'riday tipirchilab qoladi», - deb o'ylaydi shoh. Aleksandr ehtiyoitsizlik qilgan Attinni nafrat bilan esga oladi va Kenga shunday deb buyuradi: «Men ham Attinni viloyat hokimligidan olib tashlayman. Necha marta aytdim unga, mahalliy xalq odamlari bilan aloqani mustahkamla, Spitamen qo'shini orqasidan ayg'oqchilarni ko'paytir deb. U bo'lsa, Spitamenni osongina qo'lga tushiraman deb o'ylaydi. Qanday uyat, qanday sharmandalik bu. Ular endi pistirmani kuchaytaveradi, biz esa tuzoqqa tushaveramiz. Krater qayerda edi, Krater! Axir u Attinga tajribali jangchilardan qo'shib yubormaydimi? Oxirgi kunlarda u qo'lga kiritgan ozgina g'alabalari bilan taltayib ketdi. Hamma vaqt skiflarning hujumini kutib turadi, tuzoqqa ilinadi. Zudlik bilan Kraterga borib ayt, Spitamenga qarshi kurashni kuchaytirsin. Menga Spitamenning yo tirigi, yo o'ligi kerak. Spitamenni bироqлик qilmaguncha sen ham, Krater ham mening huzurimga qaytib kelma».

U topshiriqni, albatta, bajaraqiga so'z berib, shohning chodiridan chiqadi. Aleksandr hali ham o'zining g'azabini bosa olmay, Spitamen haqida o'ylay ketadi: «Nahotki, Osiyoning shunday chekka o'lkasida yashayotgan yovvoyilar orasida Spitamen kabi tadbirdor, aqli o'g'lonlar bo'lsa. Hatto mening ishongan, tajribali sarkardalarimni ham chalg'ityapti u. Nahotki, uning qo'shini shu darajada ko'p bo'lsa. Bir qaraysiz, Baqtriyadagi jangda ham Spitamen bor, bir qaraysiz u Yaksart bo'ylaridagi skiflar bilan birga hujum boshlaydi. Bir qarabsizki, Politimet bo'ylariga pistirma qo'ygan yoki Maroqandni bizdan tortib olgan. Nahotki, uni tutib olishning iloji bo'lmasa».

Aleksandr Spitamenning orqasidan endi o'zi borishga qaror qiladi. Qachonlardan buyon ne-ne qirg'in janglarni ko'rigan atoqli sarkardalari ham Spitamenni qo'lga tushirolmay qanchadan-qancha jangchilarning hayotiga zavol bo'lmaydi. Mening ham Spitamen kabi jasur va epchil

sarkardam bo'lganda edi, janglarga qatnashib, yaralanib o'tirmagan bo'lardim. O'zları qo'shinni boshqaraverardilar. Men esa ko'proq davlat ishlari bilan mashg'ul bo'lardim». Aleksandr o'ziga-o'zi shunday deb, Spitamenning ketidan tushishga qaror qiladi.

Spitamen o'zining lashkarlari bilan makedonlar qo'riqlayotgan Makadan qo'rg'oniga bostirib kiradilar, ular qo'qqisdan hujum qilib, dushmanning bir qismini o'ldiradi, qolganlari ilojsiz qo'rg'onga chekinadi.

Aleksandr tomonidan Maroqandga yuborilgan otryad yaqinlashayotganini Spitamenga yetkazishganda u qo'rg'oni qamal qilishni to'xtatib, So'g'diyonaning shimoliga qarab ketadi. Farnux va uning lashkarboshisi Spitamenni mamlakatdan butunlay quvib chiqarish uchun So'g'diyona chegarasigacha boradi. Endi ular ko'chmanchi skiflarning siridan voqif bo'lgandi. Spitamen yana 600 ga yaqin skif chavandozni olib, kelayotgan makedonlarga qarshi hujumga o'tmoqchi bo'ladi. Skif cho'liga yaqin bo'lgan tekislikda turib, dushman hujumini kutishni ham, dushmanga hujum qilishni ham bilmay hayron bo'ladi. Skif chavandozlar faqat piyodalar atrofida ot choptirishar, ularga o'q uzishardi. Ular hech bir talafot ko'rmay, Farnuxning zinch kelayotgan jangchilaridan qochib ketadi. Chunki ularning otlari ildam va charchashni bilmasdi. Andromaxning otlari esa hamma vaqt yo'lida yurgan, cho'lida chopishga moslashmagan, buning ustiga, yetarli oziq-ovqatga ega bo'limgan otliqlari tobora holdan toyib borardi. Skiflar jang qilayotganlarga ham, chekinayotganlarga ham shiddat bilan hujum qildi. Ko'plar o'qdan yaralangandi. Makedonlarning to'rt burchakli piyodalardan ko'proq talafot ko'rishini sezgan skiflar atrofi qalin o'rmon bilan qoplangan Politimet daryosi bo'ylariga chekinadi.

Gipparx Karan va Andromaxga hech narsa demay, o'zining otliqlari bilan daryodan o'ta boshlaydi, piyodalar esa hech qanday buyruq olmay otliqlar ortidan ketadi. Jangchilar pala-partish tarzda qo'rqqanidan tik qirg'oqlar bo'ylab daryoga tusha boshlaydilar. Spitamen qo'shinlari makedonliklarning muvaffaqiyatsiz harakatlarini sezib, otliq jangchilari bilan daryodan o'tish joyidan ikkiga bo'linib, dushmanha ikki tomonlama hujum boshlaydi. Spitamen jangchilarini shiddatli jangga boshlaydi. Politimet daryosining sayoz va xavfli joylarini yaxshi bilgan sarkarda, dushmanha ikki tomonlama hujum usulini qo'llaydi. Endigina daryodan kechib o'tayotgan dushman qo'shinlariga daraxtlarning orasiga

yashirinib birdan hujum qiladilar. Spitamenchilarni hali ancha uzoqda bo'lsa kerak, deb o'ylab beparvogina kelayotgan Gipparx ularning qo'qqisidan boshlagan hujumidan sarosimaga tushib jangchilariga orqaga qaytishni buyuradi. Orqa tomonda esa allaqachon jang boshlangan edi. Ikki o'rtada shunday qattiq jang boshlanadiki, spitamenchilar Gipparx qo'shinini bitta ham qo'y may qirib tashlaydi. Hatto daryo o'rtasidagi daraxtlar o'sib turgan yalanglikka chiqqan makedonchilar taslim bo'lishlarini aytishsa ham u qirib tashlashga buyruq beradi. Gipparx jangchilaridan ikki kishi qochayotganini ko'rgan Spitamen ularning ketidan quvib borib, birini yoy o'qi bilan yiqitadi, ikkinchisini arqon tashlab, epchillik bilan otdan yiqitib, qo'shini oldiga sudrab keldi. Butalar orasidan sudralib kelgan jangchining qorinlari yorilib, ichaklari chiqib ketgandi. Ustidagi kiyimi dabdala bo'lib, qip-qizil qonga belangandi.

Jangchilar Spitamennenning jasurligiga qoyil qolishdi. Bu jangda Spitamen shunday matonat ko'rsatadiki, Gipparxning eng mohir jangchisi Osrup bilan yakkama-yakka olishuvda, zarb bilan urib, raqibining qo'lidagi qilichini tushiradi. So'ngra mardlik qilib, uning bo'yniga qilich solishdan o'zini tutib egnidan ushlaydi-da, xuddi uloq chogpan chavandozdek otini tezlab ketadi. Shu ketishda bir hamla bilan Osrupga yordamga shoshilgan jangchining kallasini oladi. So'ngra do'stlariga yordamlashish uchun qirg'oq tomon kelayotganda Osrupni kattakon harsangtosh ustiga otib yuboradi. Harsangtoshga boshi zarb bilan urilgan Osrupning og'zi-burnidan qon kelib, jon beradi. Bu voqeani kuzatib turgan Gipparx bu bahodirning Spitamen ekanligini bilib, o'n chog'liq otliqlari bilan u tomon tashlanadi. Spitamenni himoya qilishga shoshilgan safdoshlari yoy bilaq hujumga o'tadi. Gipparx Spitamen bilan uzoq olishadi. Spitamennenning qahr-g'azabi shunday to'lib-toshgan ediki, qoni qaynab ketganidan otning ustida tik turib oladi. Gipparx Spitamenni yiqitish maqsadida otining bo'yniga qilich soladi. Ot bir sakrab, yiqiladi. Piyodaqolgan Spitamen Gipparxbilan olishaboshlaydi. So'ngra epchillik bilan Gipparxning o'ng oyog'iga qilich soladi. Qilich Gipparxotining qornini ham kesib ketgandi. Og'riq zarbidan sakrab ketgan otning ustidan Gipparx ag'anab tushadi. Biroq chap oyog'i uzangidaq olgandi. Ot Gipparxni sudrab butalar orasigakirib ketadi. Gipparx sudrala-sudrala cho'ponlar qo'rg'oniga yetib olib, cho'ponlar orqali Krater bilan bog'lanadi. Sarkadasining halokatga uchraganini ko'rgan makedoniyaliklar taslim bo'lishga qaror qilishadi.

Taslim bo'lgan Gipparx jangchilarni ichida to'rtta so'g'diyonaliklar ham bor edi. Sotqinlik qilib Aleksandr tomoniga o'tgan va yerli xalqqa azob berib yurgan bu hamyurtlarini yalinib-yolvorishiga qaramasdan, qulqlarini va o'q otishga yaramay qolishlari uchun barmoqlarini kesib olib, yalang'och holla qo'yib yuboradi. Anchadan buyon qochib, yashirinib yurgan Spitamen safdoshlari g'alaba gashtiga miriqib qolgandek bo'ladi. G'am-u g'ussalarini unutgan holda sotqin vatandoshlarining sharmandali holatiga rosa kulishadi.

Bu xabarni eshitgan Aleksandr chuqur xayolga botadi. Zudlik bilan Andromaxni huzuriga chaqirib, voqeanning tafsilotini so'raydi. Andromax sodir bo'lgan fojianing tafsilotini to'liq bayon qilib beradi. Eshitishicha, Gipparx va Karanning ehtiyoitsizligi qo'shinini halokatga olib kelgandi. Aleksandr o'zini tutolmay baqirib yuboradi. «Men qo'shingaachinmayman, Gipparxga achinaman, u qattiq yaralangan» deydi shoh Andromaxga, Gipparx ancha kun yotib, oqsoqlanib qoladi. Aleksandr uni Makedoniyaga qaytarib yubormoqchi bo'lganida «to o'lguncha Aleksandr bilan birga bo'lajagini, Spitamenden qasos olajagini» aytadi. Biroq, Gipparx og'ir jangga yaramay, avvalgi kuch-g'ayratini yo'qot-ganini sezib, ko'ngli yarim bo'lmasligi uchun sadoqatini hisobga olib, uni Parapomisodlar yurtida barpo etilgan Aleksandriyaga hokim qilib tayinlaydi. Arrianning ta'kidlashicha, Gipparx Aleksandriya shahrining hokimligini bajaraolmagani uchun o'z vazifasidan tezda olib tashlanadi¹.

Aleksandr Amint qo'mondonlik qilayotgan baqtriyaliklar va so'g'diyonaliklardan iborat qo'shinini Kenga topshiradi. Kenga esa mabodo Spitamen paydo bo'lib qolsa, uni qurshovga olib, qo'lga tushirish uchun qishni So'g'diyonada o'tkazish buyuriladi. Spitamen va uning odamlari makedoniyaliklarning hamma yoqqa soqchilar qo'yanini ko'rib, hech qayerga qocha olmasliklarini sezgach, Kenga qarshi yurish boshlamoqchi bo'lishadi. Ular bu jangda g'alaba qozonishlariga ishonchlari komil edi.

So'g'diyona yo'llari bilan skif-massagetlarni ajratib turuvchi Gazaga kelib, 3000 ta skif otliqlarini o'z safiga olib, So'g'diyonaga bostirib kirishga ko'ndirishadi. Bu skiflar nihoyatda qashshoq yashashardi, shuning uchun o'zlarining boyliklarini yo'qotishdan qo'rqa digan joylari yo'q edi. Shuning

¹ Arrian. O'sha asar, 153- bet.

uchun ularni biron narsaga ko'ndirish oson edi. Ken Spitamen askarlari bilan kelayotganini eshitib, unga qarshi qo'shin bilan yuradi. Qattiq jang bo'ladi. Bu jangda makedoniyaliklar g'alaba qozonishadi. Spitamen qo'shinidan 800 kishi, Kenning esa 25 otliq askari va 12 piyoda askari halok bo'ladi. Tirik qolgan so'g'diyonaliklar va baqtriyaliklar taslim bo'lishadi. Skif - massagetlar esa mag'lubiyatga uchrab, birga jang qilgan so'g'diyonaliklarni va baqtriyaliklarning aravalarini buzib, Spitamen bilan cho'lga qochishadi. Lekin ularning cho'lga yurish qilishini eshitganda, Spitamennenning boshini olib, Aleksandrga yuborishadi va shu bilan shohni bu qabilalar uyiga bostirib kelish niyatidan qaytarishmoqchi bo'lishadi.

Spitamenni xotini har qanday yo'llar bilan bo'lsa ham Aleksandrdan kechirim so'rash lozimligini, bunday qochib yurishlar joniga tekkanligini aytadi. Ularning uchta farzandlari bo'lib, hech bo'lmasa farzandlariga rahmi kelishini, aks holda ularning ham halok bo'lishini ta'kidlaydi.

Spitamen xotinim sotqinlik, bevafolik qilyapti deb, bir safar uni o'ldirmoqchi ham bo'ladi.

Xotini unga chin yurakdan to'g'ri maslahat bergenini, endi nima bo'lsayam qulqoq solishini o'tinib so'raydi. Aldangan Spitamen kunning yarmida mayxo'rlikni boshlaydi va juda mast bo'ladi.

Spitamen qattiq uqlab yotganda xotini uning kallasini oladi.

Qotil xotin Aleksandr qarorgohiga kelib, bir muhim xabar olib kelganligini aytadi.

Shunda shoh bu ayolni ichkariga chaqiradi. Uning ust-boshi qonligini ko'rib, dastlab kimdir zo'rلان bo'lsa kerak, deb o'yaydi. Spitamennenning boshi ayol bilan kelgan qulning qo'lida edi. U Spitamennenning kallasini shohga ko'rsatadi.

Qonsiz, oppoq kalla Spitamenniki ekanligini darrov bilish qiyin edi. Shunda qul bo'lib o'tgan voqeani shohga aytadi. Shoh xayoliga har xil fikrlar keladi. Boshiga ko'p kulfatlar solgan dushmanining o'ldirilishi yaxshi-yu, lekin bu mash'um qotillikka ayol kishi, yana uning vafodor xotini qanday botinganini tushunish qiyin edi.

Ayol kishining bunday vahshiyligi boshqalarga o'mak bo'lmasin tag'in, degan o'y-xayol bilan shoh uning qarorgohdan chiqib ketishini talab qiladi.

Spitamennenning o'lganini eshitgan daklar uning ayg'oqchisi Datafernni ushlab berib, o'zлari ham Aleksandrga taslim bo'ladilar. Shoh gunohkorlarni qilmishiga yarasha jazolashni buyuradi.

Shunday qilib, shoh girkalar va mordlarni tapurlar bilan birlgilikda Fratoferm hokimligiga beradi. Arsak o'rniga daranglarni hukmdor etib, Stasanor tayinlanadi. Arsak esa Oksidat o'rniga Midiyaga yuboriladi. Mazey o'lgandan keyin Bobil Sitamen qo'l ostiga o'tadi.

Ko'rib o'tganimizdek, Spitamenning o'limiga oid ma'lumotlar har xil. Ularning birida skif-massagetlar tomonidan o'ldirilgan deyilsa, boshqa birida o'z xotini tomonidan kallasi kesilgan deb ta'kidlangan. Bu ikki tarixiy faktning qaysi biri to'g'ri ekanligiga ishonish o'quvchi e'tiboriga havola. Mashhur tarixchilar ham Spitamenning o'limi haqida yuqorida bayon qilingan ikki voqeа tafsilotini yecholmay hali-hamon bahs yuritmoqdalar. Bu tadqiqotchilarining biri Spitamenning xotinini qarg'asalar, boshqa birlari sotqinlik yo'liga o'tgan skif-massaget to'dalarini la'natlaydilar. Shunisi ma'lumki, Spitamenni hech bir kuch, hatto Aleksandrdek tengsiz kuch-qudratga ega bo'lgan sarkarda ham yengolmaydi. Spitamenga mardlik va jasorat jangida hech kim teng kelmaydi. Uning mardligi va matonatiga Aleksandrning o'zi ham qoyil qolib, tan beradi. Spitamen Aleksandrga yovvoyi deb bilgan O'rta Osiyo qabilalarining nimalarga qodir ekanligini ko'rsatib qo'yadi. O'z xalqininr sodiq va fidoyi farzandi bo'lgan Spitamen O'rta Osiyodagi qabilalar juda qashshoq va chor-nochor yashasa-da, ma'naviy jihatdan boy, ruhan baquvvat ekanligini isbotlaydi. Vatanini, xalqini sevishni, o'z qishlog'ini, shahrini, yurtini ardoqlashni o'rta osiyoliklardan o'rganish kerakligini dalillaydi. Aleksandr shuncha mamlakatlarni, yurtlarni, o'lkalarни bosib olsa ham, o'rta osiyoliklar singari jangovar va jasur xalqni ko'rmagan edi. Aleksandr O'rta Osiyoga qarshi urush e'lon qilmaydi. Ulkan Ahmoniyalar o'lkasining bu bir chekka o'lkasini jang-jadallarsiz, tinchgina bosib olaman, xuddi sayyohlardek bu o'lkaning jannatmakon go'zalliklarini tomosha qilib, katta boyliklar to'plab, qo'shinni o'rta osiyolik o'g'lonlar hisobiga mustahkamlab hind sari yo'l olaman, deb o'ylagan edi. Ammo Aleksandrning So'g'diyonada bir kuni ham tinch o'tmaydi.

Shunday qilib, sharqning jasur, vatanparvar o'g'loni Spitamenning nomi avlodlardan avlodlarga o'tib kelmoqda.

NAUTAK

Nautak qal'asining nomi antik zamonlardayoq uzoq ellarga ma'lum edi. Olimlar bu qal'aning Qarshi shahriga yaqin bo'lganligini ta'kidlashadi. Ehtimol, bu qal'a Urgut bilan Qarshi o'rtaqidagi baland tog'larga joylashgan bo'lishi mumkin. Aleksandr Maroqand shahridan chiqib, Nautak qal'asiga borganligi aniq. Boshqa bir tarixiy manbalarda esa Qarshi shahrining qadimgi nomi Nautak bo'lgan deyishadi. Kursiy Ruf bu qal'aning hokimi Sisimifr bo'lgan, degan fikrni aytsa, Arrian qal'aga Xerion hokimlik qilardi, deydi. Kursiy Rufda bu qal'aning nomi Nautak deb tilga olinsa, Arrian qal'a nomini tilga olmaydi. Biroq har ikkala adib ijodida ham qal'aning juda qiyinchilik bilan olingenligi ta'kidlanadi. Kursiy Rufning yozishicha, baqtriyaliklar 700 odam yo'qotadi. Ulardan 300 tasi asirga tushadi. Lekin ular ham anoyi emasdi - makedoniyaliklarga hujum qilib, 80 tasini o'ldiradi, 350 tasini esa yarador qilib o'ch olishadi.

Lekin baribir shoh ularni ikkinchi marta kechirdi. Shoh ularga yordam qilish uchun katta qo'shin bilan Nautak deb atalmish joyga yetib keladi. Bularning hokimi Sisimifr bo'lib, u o'zining onasidan ikkita o'g'il ko'rgandi. Ularda ota-onha o'z bolasi bilan er-xotinlik qilishi mumkin edi.

Sisimifr o'zining yurtdoshlarini qurollantirib, viloyatga kiradigan qisqa joyni to'sib turadi. Bu joyning yaqinidan tezoqar daryo o'tib, orqa tomonidan qoya to'sib turardi. Shu yerda yashovchilar qoyadan o'tardi, qoya tagidagi yo'lning boshlanishi yorug' bo'lib, ichki tomoni esa juda qorong'i edi. Yerosti yo'li faqat shu yerda yashovchilarga ma'lum bo'lib, bu yo'l qoyaning orqa tomoniga olib chiqardi. Nautakliklar bor kuchlari bilan darani har qancha himoya qilmasinlar, Aleksandr ularni shiddat bilan yengib, qoyani egallab oladi.

Daraga olib chiquvchi yo'lni hayqirib oquvchi sertoshqin daryo to'sib turardi. Shoh daraxtlarni kesib, yirik toshlarni tashlab bo'lsa ham, daryodan o'tishga muvaffaq bo'ladi. Buni ko'rgan nautakliklar esankirab qoladi. Shunday qilib, shoh ularni qo'rqihib taslim qiladi. So'ngra ularning qabilasiga qavm bo'lgan, lekin keyinchalik Aleksandrga tobe bo'lib qolgan Oksiartni ularning boshlig'i oldiga elchi qilib yuborib, qoyani topshirishlarini talab qiladi. Qoya himoyachilari taslim bo'lavermagach, qo'rqihib uchun o'q-yoy otadigan mashinalarini ishga tushiradi. Ortiqcha himoya qilishga qurbi yetmay qolgan himoyachilar qoya tepasiga qarab

qocha boshlashadi. Oksiart ancha sarosimaga tushib qolgan Sisimifrn makedoniyaliklarga ishonishga ko'ndira boshlaydi. Ularning Hindistonga qarab mardonavor yurishiga xalaqit bermaslikni, kimki ularning yo'liga to'sqinlik qilsa, o'ziga-o'zi o'limni sotib olishini aytdi. Sisimifrnning o'zi taslim bo'lishga tayyor edi, lekin uning onasi (ayni vaqtida xotini) birovga taslim bo'lishdan ko'ra, o'limni afzal ko'rishni aytdi. Shunday qilib, Sisimifr o'z fikridan qaytib, o'z taqdirini o'yamasdan, ko'proq shuhratini o'ylab, qoyani topshirishga rozi bo'lmaydi. Elchilarga ziyonzahmat yetkazmasdan qo'yib yuborib, Sisimifr qal'ani himoya qilishni davom ettiradi. Biroq keyinroq dushman kuchi bilan o'z kuchini solishtirib ko'rgandan keyin, ayol kishining bergen maslahati noto'g'ri ekanligini tushunib, elchilarning talabini inkor etganiga afsuslanadi.

Ilgariroq jo'nab ketgan Oksiartning orqasidan Sisimifr onasi, bolalari va qarindoshlari bilan birga yo'lga tushadi. Shoh unga chopar yuborib biroz kutib turishini buyuradi va tezda bu yerga yetib keladi. Hokimlik qilib turgan joylarni unga qaytarib, agar Sisimifr shohga sodiq bo'lib qolsa, qolgan joylarni ham qaytirib berishini aytadi¹.

Aleksandrning talabiga ko'ra, Sisimifr ikki o'g'lini harbiy xizmatga beradi. Keyin piyoda qo'shinni qoldirib, otliqlari bilan Aleksandr yana yurishda davom etadi.

Kursiy Ruf va Arrian ifoda etgan mana shu ikki tasvirda ma'lum darajada o'xhashliklar bor. Shu bilan birgalikda, bu ikki adib ijodida ma'lum darajada farqli tomonlarni ham ko'ramiz. Bunday o'xhash va farqli tomonlarni o'quvchining o'zi anglab olishi oson bo'lgani uchun -ularni birma-bir sharhslashga kirishmadik.

Aleksandr So'g'diyonadagi ishlarini tugatib, tog'ni zabit etib, paretaklarga qarshi yurish boshlaydi. Aytishlaricha, tog'liklar qo'lga kiritish mumkin bo'lgan Xorien deb nomlangan qoyani ushlab turishgan ekan. U yerga Xorien va boshqa aslzodalar yashiringandi. Tog'ning balandligi 20, eni 60 stadiya teng edi. Qoya juda tik bo'lib, unga faqatgina noqulay yolg'izoyoq yo'ldan chiqilardi. Qoyaga faqat bir odamgina hech narsa xalaqit bermasa chiq oladi. Qoyaning bir tomonidan chuqur jarlik bo'lib, kimki qo'shin bilan qoyaga chiqmoqchi bo'lsa, jarlikni ko'mib, o'ziga tekislik hosil qilishi kerak edi.

Aleksandr bu ish qanchalik qiyin bo'lmasin, jarlikni ko'mib, qoya cho'qqisini zabit etmoqchi bo'ladi. Uningcha, yer yuzida qo'lga kiritma olmagan hech bir joy yo'q edi. Aleksandr tog' yonbag'rida o'sib yotgan

archalarni kesib, zina yasab, jarlikka tushirishni buyuradi. Bu ishni kunduz kuni Aleksandrning o'zi boshqarardi. Tunda esa bu mushkul ishni shaxsiy soqchilari Perdik, Leonnat va Laganning o'g'li Ptolomey davom ettirishardi. Qo'shinni asosan to'rt qismga bo'lishgandi. Bir qism Aleksandr bilan kunduz kuni, qolgan uchtasi navbat bilan tunda ishlardi. Jarlikda ishslashinda qiyin bo'lib, kunduz kuni faqat 20 tirsak joygacha zina qurishardi. Tunda esa bundan kamroq bo'lardi.

Askarlar jarlikka tushib, temir tayoqlarni qoyaning qiya joyiga qoqishardi. Tayoqlar orasidagi masofa yukning og'irligiga moslab o'lchangandi. To'shaladigan shohlarni majnuntolning novdalari bilan bog'lardi. Bu to'shalma ko'priki eslatardi. Shoxlar bir-biri bilan biriktirilgandan so'ng bu yerga tuproq quyilardi-da, orqadan tekislanardi.

Qal'a himoyachilarini Aleksandrning bu urinishlarini foydasiz deb o'yldi. Chunki qoya tepasida ularni o'q-nayzalardan himoya qiluvchi osma boshpanalari bor edi. Biroq Aleksandr jangchilarining o'qlari u yerga bora boshlaganda, himoyachilar o'zlarining kuchsiz bo'lib qolishganini sezishadi. Xorien sarosimaga tushib, Aleksandr oldiga Oksiartni elchi qilib yuborishlarini iltimos qiladi. Aleksandr Oksiartning esli bo'lib u yerga borishiga ruxsat beradi. Oksiart Xorienga Aleksandring oljanob, adolatli shoh ekanligini, odamlarga ishonishini aytib, o'z ko'zi bilan ko'rib guvoh bo'ilgan voqealardan gapirib beradi. Nihoyat Xorienni taslim bo'lib, qal'ani topshirishga ko'ndiradi. Xorien Oksiartning gapiga qulop solib, qarindoshlari va do'stlari bilan Aleksandrning oldiga keladi. Aleksandr uni yaxshi kutib olib, Xorien bilan do'stlashishga ahd qiladi. Lekin uni qo'yib yubormaydi. Xoriennenning himoyachilarini oldiga borib, uni topshirishlari haqida buyruq berishini aytadi. Himoyachilar qoyani topshirishga rozi bo'lishadi. Aleksandr 500 askari bilan birinchi bo'lib qoyaga chiqadi. Xorienni esa qal'aga hokim qilib tayinlab, yaqin atrofidagi yerlarni ham uning ixtiyoriga beradi. Aleksandring qo'shini qishda qiynalda boshlaydi. Qor qalin yog'ib, oziq-ovqatning yetishmasligi sezilib turardi. Xorien shohning qo'shiniga 2 oyga yetgulik qal'ada yig'ilgan oziq-ovqatlar, non, vino va fil go'shti beradi. Shundan keyin u yanada Aleksandrning hurmatini qozonadi¹.

Aleksandrning Xorien qal'asiga qilgan hujumi voqeasini Arrian xuddi shunday tasvirlaydi. Xorien qal'asiga hujum Kursiy Ruf asarida sal

¹ Arrian. O'sha asar, 152- bet.

boshqacharoq tasvirlangan bo'lsa-da, har ikkala adib ham bir xil tarixiy manbalardan foydalanganiga guvoh bo'lamiz.

Bu ikki asarda ta'kidlangan qoyaning nomi Nautak bo'lib, uning hokimi Sisimifr ekaniga ishonch hosil qilamiz. Chunki Sisimifrnning nomi keyin ham tilga olinadi. Ya'ni Aleksandr Hindiston tomon yurishni boshlab, Baqtriya tog'laridan o'tayotganda qattiq bo'ron va qor-yomg'ir sovug'iga duch kelib, katta talafot ko'radi. Ko'pgina jangchilar, boshpana topolmay sovuqdan o'ladilar. Qoramol va qo'yalar qirilib ketadi. Ot va boshqa ulovlarning bir qismi ham nobud bo'ladi. Bu mudhish xabarni eshitib, Sisimifr do'sti Aleksandrga yordam berishga shoshiladi. O'shanda Sisimifr ko'plab qo'y va qoramollar, ot va ulovlar bilan birga 2000 tuyani Aleksandr jangchilariga bo'lib bergandi. So'ngra Aleksandr saklar yeridan katta boylik orttirib, 30000 bosh molni Sisimifrga sovg'a qilib beradi¹.

Mana shu fikrning o'ziyoq Nautak qal'asida Sisimifr bo'lganligini isbotlaydi. Tarixchilar Oks daryosining yuqori oqimida Xorien qal'asi ham bo'lganligini ta'kidlaydilar.

Ko'rib o'tganimizdek, yuqoridagi lavha tasvir jihatidan bir xillikka ega. Ya'ni, qoyani egallash qiyin bo'ladi. Bu o'rinda qoyaning joylashishi va unga chiqish yo'llarining murakkabligi haqida ham bir xil ma'lumot berilgan. Pastki jarlikni daraxt shoxlari bilan to'ldiribgina qoyaga chiqish mumkinligi ham har ikkala asarda bayon qilingan. Lekin qoyaning nomini Kursiy Ruf Nautak deb atasa, Arrian Xorien deb ko'rsatadi. Qal'aning birida Sisimifr hokimlik qilsa, ikkinchisida qal'a hokimi Xoriendir.

Ko'pgina olimlar Nautak qal'asi bilan Xorien qal'asini bir deb tushunishadi. Arxeologlar Nautak qal'asi Qarshi shahri yaqinida ekanligini aniqlashgan. Xorien qal'asi esa Oks daryosi bo'yalarida joylashgan bo'lib, o'sha davrlarda So'g'diyonaga qarar edi. Kursiy Ruf va Arrian ham Xorien qal'asi So'g'diyona yerlarida joylashganini aytadi. Hozirgi zamon tadqiqotchilar Xorien qal'asi Baqtriya o'lkasida joylashgan degan fikri aytadi. Boshqa bir tadqiqotchilar Xorien degan qal'aning bo'lmanagini, Xorien nomli hokimning bo'lganligini ta'kidlashadi. Agar haqiqatan ham Nautak Qarshi shahrining qadimiy nomi bo'lsa, unda bu qal'a Kursiy Ruf aytganidek Baqtriyada emas, balki So'g'diyonada bo'lib chiqadi.

Arrianning yozishicha, o'sha yili qish ancha og'ir kelib, Aleksandr Nautak shahrida qishlaydi.

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 319- bet.

Shahar ahli mehmonlarni izzat-hurmat bilan qarshi oladi. Ilgari Aleksandr bu shaharga kelgan, shahar hokimi bilan do'stlashgandi. Shuning uchun ham, shahar ahliga ziyon-zahmat yetkazmaslikni jangchilariga qattiq tayinlaydi.

Shaharga sig'magan jangchilarga esa, yaqin atrofdagi tog' etagidan har qanday sovuqlarni ham pisand qilmaydigan so'g'diyonaliklarning o'tovidan qurib beradi. O'zi esa go'zal xotini Roksana bilan qish o'tguncha ichkarida bo'ladi. Yangi kelin-kuyovni qutlab, bu yerga shahar kishilari tez-tez kelib turishardi.

Avvaliga shahar ahli Aleksandrdan qo'rqib, shohning ko'chadan o'tib qolganlarini ko'rishsa, eshiklarini berkitib, ichkariga yashirinib olishardi. Ular Aleksandr xalqning bor-budini talab, xonavayron qiladi, deb o'yldi. Shuning uchun ham, ko'p kishilar, uylarini berkitib, yashirinish uchun qo'shni viloyatlarga ketib qoladilar. Shaharliklar motam tutgandek g'am-g'ussaga botgan edi.

Biroq Aleksandr shahar ahliga ozor yetkazmaydi. Ba'zan yerli xalqdan bironta kishini uchratib qolsa, so'g'diyonaliklarga xos salomlashardi. Nautak shahri Baqtriyaga yaqin bo'lgani uchun bu yerda saklar ham ko'p edi. Shuning uchun ham, sak va so'g'dlar bir-birining tiliga bermalol tushuna olar, shahar ahli ikki tilda ham so'zlashaverardi. Aleksandr ikki tilda so'zlashishga harakat qilardi. Shahar ahli asta-sekin Aleksandrga ko'nikib qoladi. Hatto ular shohning oldiga hol-ahvol so'rab yoki arz qilib kelishga odatlanadilar. Aleksandr iloji boricha ularga yordam berishga harakat qilardi.

Nautakliklar Oksartning qizi bo'lgan Roksanani avvaldan yaxshi bilishardi. Roksana shaharga chiqishdan dastlab istihola qilgan bo'lsa, keyinchalik ko'nikib ketib, Aleksandr bilan bermalol shahar aylanadigan bo'ladi.

Shahar ahli o'z dardini ko'proq Roksanaga aytar, u bilan suhbat qurardi. Bir kuni bir xotin tovug'ini Aleksandring jangchilari o'g'irlab ketganini, tovuqni eng chekkadagi o'tovga olib kirganini o'z ko'zi bilan ko'rGANINI Roksananing qulog'iga yetkazadi. Roksana bu xabarni shohga aytadi. Aleksandr bu voqeadan darg'azab bo'lib, tovuq o'g'risini topib oladi. So'ngra shahar ahli oldida uni rosa kaltaklaydi. Hatto tovuqning egasi bo'lgan ayol, o'g'ri jangchining aybidan kechganligini aytса ham, shoh o'z hukmini bekor qilmay jangchini qattiq jazolaydi. Aleksandring qo'shnlari o'rtasida tartib-intizom shunday qattiq edi.

Xuddi shunga o'xhash voqea o'sha yili Baqtriyada ham ro'y beradi. Hindiston tomonga yo'l olayotgan Aleksandr Baqtriyaning eng chekka qishloqlariga qo'nadi. Shoh yaqin sarkardalari bilan qishloq oqsoqolining boshpanasida tunab, katta qo'shin mevalari g'arq pishgan bir bog'da qoladi. Bog'ning bor-budidan ayrildim, endi bog'da meva tugul daraxtning shohi ham qolmasa kerak, deb o'ylagan edi u. Ertalab borsaki, daraxtlarning hosili o'z joyida turibdi, bog'ga umuman ziyon yetkazilmagan. Bog'ning xo'jayini xursand bo'lganidan, jo'nayotgan lashkarlarga pishgan mevalardan ulashadi. O'shanda qishloq ahli Aleksandrning qo'shinida intizomning kuchliligiga qoyil qolishadi.

Haqiqatan ham, Aleksandr qo'shinida intizom juda kuchli bo'lgan. Aleksandr, ayniqsa, o'g'rilik qilgan kishilarni juda yomon ko'rghan. Agar qo'shinlari orasida o'g'irlilik qilgan kishilar borligini sezib qolsa, bunday o'g'rilarni butun lashkar oldida og'ir jazolarga tortgan. Burni yoki qulog'ini kesib tashlagan, oyog'ini osmonga qilib osib qo'ygan, hatto o'lim jazosiga mahkum etgan. Shuningdek, qaysi shahar yoki qal'aga borib qo'nsa ham tunash uchunmi yoki qishlash uchunmi, «Bo'ri o'z ovuliga teginmaydi» deb qo'yardi. Shu tufayli Aleksandr nautakliklarga ziyon-zahmat yetkazmaydi.

Qish davomida Aleksandr Nautakda aysh-ishrat surish bilan kifoyalanib qolmaydi. Balki u jangchilari bilan harbiy mashqlar o'tkazar, harbiy intizomga tayyorlar, chavandozlik o'yinlarini qilar, mahalliy xalq hofizlarini chaqirib kelib qo'shiqlar ayttirar edi. U ko'pincha yangi jang rejalarini tuzar, Makedoniya maktub yo'llar, karvonlarni jo'natib turardi. Makedoniya bilan O'rta Osiyo o'rtasida karvon to'xtovsiz qatnab turardi. Karvon yoki yangi kuch yetib kelgan kun Aleksandrning kayfiyatni ancha ko'tarilib, behad sevinardi. Tezda karvon boshlig'ini yoki sarkardani huzuriga chorlab, o'z yurti haqida so'rab-surishtirardi. Karvonni Makedoniya jo'natayotganda esa, biroz xomush bo'lib qolardi. Kelgan yoki ketgan karvonni, albatta, kutib olar yoki kuzatardi.

Bundan tashqari, Aleksandr Nautak shahrida qishlaganida bosib olgan o'lkalarning tarixi va jug'rofisiyasi bilan ham tanishadi. Qo'l ostidagi hokimliklarni qaytadan ko'rib chiqadi. Bu o'lkalarga yordamchi qo'shin yuboradi yoki qo'shin so'raydi. Ozgina qaltis yo'l tutgan sarkardalarni almashtiradi yoki jazolab, yangilarini tayinlaydi. Shu o'rinda Arrianning quyidagi fikrlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Ken Nautakka, Aleksandrning oldiga jo'naydi. Bundan tashqari bu yerga Krater odamlari bilan Fratafern, hokim Parfiy va Stasanar, arylarning hokimi kelishadi. Ular Aleksandrning buyrug'ini bajarib kelishgandi. Qish fasli bo'lgani uchun Aleksandr qo'shinlarini Nautak shahri yonida dam olish uchun joylashtiradi. Fratefernni mardlar va tapurlar oldiga bir necha marta chaqirilishiga qaramay, o'zini ko'rsatmay yurgan hokim Avtofradatni olib kelish uchun yuboradi. Stasanorni dranglarga hokim qilib yuboradi. Midiyaliklarga hokim qilib Atropatni tayinlaydi, chunki ilgarigi hokim Oksidat unga qarshi nimadir uyushtirayotganligi haqida eshitadi. Stamenni esa Bobil gi parxi Mazeyning o'limini eshitib, Bobilga yuboradi. Sopol, Epokill va Menidi Makedoniyaga qo'shin olib kelish uchun yuboradi¹.

Shunday qilib, qish davomida Nautak bilan Aleksandrning qo'li yetgan dunyoning barcha o'lkalari o'rtasida bordi-keldi, serqatnov yo'llar boshlanadi. Nautakka uzoq ellardan savdogarlar kelib qo'nadi. Karvonlar to'xtaydi. Ular bilan birga turli mamlakatlarning donishmand va fozillari ham kelib ketar, Baqtriya va So'g'diyonaning ilm-u donishlari bilan muloqotda bo'lar, uchrashuv kechalari uyushtirardi. Aleksandr davrida Nautak shahri karvonlar, savdogarlar, donishmandlar, ajnabiylar to'xtaydigan joyga aylanadi. Shahar hayoti iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha yuksaladi. Balki shu voqealar sababdir, Qarshi shahri o'tmishda O'rta Osiyodagi eng yirik shaharlardan biri bo'lib, iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha yuksak edi. Keyinchalik shu shahardan mo'g'ul istilochilariga ilk bor zarba beriladi. Erksevar sarbadorlar harakati paydo bo'ladi. Shu yerda Amir Temur tug'ilib, ulg'ayadi.

Shunday qilib, Aleksandr erta bahorda Nautak shahridan Baqtriyaga qarab yo'l oladi.

Janglarda Aleksandr o'zini hamisha xavf-xatarlar ostiga qo'yadi. Natijada, bir necha marta og'ir yaralanadi. Qo'shin esa iqlimning yomonligidan va oziq-ovqatning yetishmaganligidan qiynalari edi. Aleksandr o'z taqdirini qo'pollik bilan yengmoqchi bo'lsa, dushmanini mardlik bilan yengmoqchi bo'lardi. Uning aytishicha, mardlar uchun to'sqinlik, qo'rqaqlar uchun esa hech yerda tayanch bo'lmas ekan. Aytishlaricha, Aleksandr ancha vaqtgacha Sisimifr mudofaa qilgan qoyani qamal qilib turadi. Jangchilarining ruhi tushgandagina Aleksandr

¹ Arrian. O'sha asar, 151- bet.

Oksiartdan Sisimifr botir yoki qo'rroq odamligini so'raydi. Oksiart esa Sisimifrning eng qo'rroq odam ekanligini aytadi. Shunda Aleksandr: «Biz qoyani bosib olishimiz mumkin, chunki uning cho'qqisi mustahkam emas», - deydi. Aleksandr qoyani Sisimifrni qo'rqtib zabit etadi. Ikkinchı marta esa, Aleksandr qo'shini boshqa bir qoyani bosib olmoqchi bo'lganda oldinga yoshlarni yuboradi. Bular orasida Aleksandr ismli yigit ham bor edi. Aleksandr unga: «Sening isming seni mard bo'lishga undaydi», - deydi. Lekin shu yigitning jangda halok bo'lganini eshitib qattiq xafa bo'ldi.

SO'G'D TOG'I

Bu voqealarning So'g'diyonada bo'lib o'tganligini tarixchilar qayd qilishadi. So'g'd tog'idagi bu qal'aning So'g'diyonaning eng chekkasiga joylashganini va oxirgi qal'a bo'lib, qolgan qal'alarining hammasi qo'lga olinganini Arrian o'zining «Aleksandning yurishi» asarida keltirib o'tadi. Biroq qal'aning nomi tarixiy asarlarda tilga olinmaydi. Arrian qal'aning hokimi Oksiart edi desa, Kursiy Ruf Arimoz bo'lganligini tilga oladi. Muhimi shundaki, har ikkala qal'adagi hujum tasviri bir xil ifodaga ega. So'g'diyonalik Oksiart qal'a hokimlari Sisimifr va Xerionga Aleksandr tomonidan elchi qilib yuborilgan edi. Qal'ada esa, Arrianning ta'kidlashicha, Oksiartning xotini va qizlari yashiringan bo'ladi. Bundan bir anglashilmovchilik kelib chiqadi. Aleksandrning yaqin kishisi sifatida Nautak hokimiga elchi bo'lib borgan Oksiart nega xotini va qizlarini So'g'd tog'idagi qal'aga joylashtiradi? Ikkinchidan, bu narsa So'g'd tog'i Nautak qal'asiga yaqin ekanligidan ham dalolat beradi.

Bobokalonlarimizning ruhini yod etuvchi yana bir tarixiy joy So'g'd qal'asidir. Bu qal'aning qayerga joylashganini tadqiqotchilar aniq aytishmaydi. Ularning ayrimlari bu qal'ani Nautak bilan chalkashtiradi. Boshqa birlari bu qal'a Oks daryosi bo'ylaridagi baland tog'larida joylashgan edi deyishadi. Arrian qal'a So'g'd tog'iga ekanini aytadi. Muallifning bu o'rnida qaysi tog'ni nazarda tutayotgani aniq emas.

Aleksandr tog'ga yaqinlashganda, osma ko'prik va devorlarni ko'radi. Ular bu yo'l orqali oziq-ovqatlarini tashib kelishgandi, qalin qor yoqqandi. Bu qor makedoniyaliklarning yurishiga xalaqit berardi. Tog'liliklarni esa suv bosish xavfi bor edi. Shunga qaramay, Aleksandr bu yerni bosib

olishga qaror qiladi. Tog‘liklarning mag‘rur gapirgan so‘zlari Aleksandrga qattiq botib, jahlini chiqaradi. U so‘g‘diyonaliklarga muzokara o‘tkazishni taklif qiladi. Agar ular shu yerni topshirishsa uylariga sog‘ qaytishlarini va‘da beradi. Ular Aleksandrning ustidan kulib, bu tog‘ni zabit etish uchun qanotli askarlar qidirib topishni maslahat berishadi. Busiz esa qal‘ani egallahshi o‘ylamasliklarini aytishadi. Shunda Aleksandr kimki tog‘ga birinchi bo‘lib chiqsa, mukofotga 12 talant olishini, ikkinchi bo‘lib chiqqan odam ikkinchi mukofotni, uchinchisi - uchinchini va hokazo, oxirgi chiqqan odam esa oxirgi mukofotni - 300 draxmni olishi mumkinligini e‘lon qilishni buyuradi. Bu e‘lon jangga shaylanib turgan makedoniyaliklarni yanada ruhlantirib yuboradi.

Qurshov paytida tog‘ga chiqib o‘rgangan 300 ga yaqin askar yig‘iladi. Ular temir tayoqlar tayyorlashadi. Bu tayoqlar qordan muzga aylangan joylarda o‘tishga yordam berardi. Tayoqlarga mustahkam to‘qilgan, uzilmaydigan arqon bog‘lashadi. Kechga yaqin esa tog‘ning dushman qo‘riqlamagan tomoniga yetib kelishadi va tayoqlar yordamida birin- ketin tog‘ga chiqqa boshlashadi. Yo‘l-yo‘lakay 30 ga yaqin odam halok bo‘ldi. Qorga ko‘milib ketganliklari sababli, ularning jasadlarini ham topib bo‘lmaydi. Qolganlar erta tongda tog‘ cho‘qqisini zabit etishadi. Tog‘ tepasidan marra egallanganini bildirib, ro‘molchalarini silkita boshlashadi.

Aleksandr darrov jarchini chaqirib, dushman soqchilariga, qanotli askarlar topilganini va ular tog‘ cho‘qqisini zabit etishganini aytishini buyuradi. Jarchi bu gaplarni dushman soqchilariga yetkazadi va tog‘ ustida turgan odamlarni ko‘rsatadi.

Himoyachilar bunday bo‘lishini kutmagan edi. Ular tog‘ qurollangan odamlar bilan zabit etilgan deb o‘ylab, taslim bo‘lishadi. Farqi shundaki, Arrian bu qal‘ada asirga olinganlar orasida Roksana ham bor edi deydi. Arrian asaridagi So‘g‘d tog‘ining ishg‘ol etilishi haqidagi bu tasvir Kursiy Ruf asarida ham berilgan. Bu ikki tasvir bir-biriga ko‘p jihatdan o‘xshashdir. Kursiy Ruf shunday sharhlaydi:

Shoh qolgan viloyatlarni ham zabit etgan, faqatgina 30 000 jangchisi bo‘lgan so‘g‘diyonalik Arimaz egallab turgan bittagina qoya qolgan edi. Ular qoya tepasida 2 yilga yetadigan oziq-ovqat g‘amlab olishgandi.

Qoya hamma tomondan tik bo‘lib, faqatgina chiqish uchun bitta tor yo‘lakcha bor edi. Qoya yarmida qorong‘i g‘or bo‘lib, undan suv oqib turardi.

Shoh avvaliga bu joyni egallash qiyin deb o'ylab ketmoqchi bo'lgandi, lekin baribir tabiatni o'ziga bo'ysundirish niyatida qal'ani zabit etishga qaror qiladi.

Shoh Artabazning o'g'li Kofni Arimazga elchi qilib yuboradi. Kof Arimazga qal'ani topshirish kerakligini aytadi. Bunga javoban Arimaz shohning ustidan mazax qilib, Aleksandr uchishni bilsa, qal'ani qo'lga olishi mumkin deb kuladi. Bu so'zlarni eshitgan shoh darg'azab bo'lib, maslahatchilarini chaqiradi va kengashda makedoniyaliklar hamma narsaga, hatto uchishga ham qodirligini yaqin kunlarda Arimazga ko'rsatishini e'lon qiladi.

Shoh sarkardalarni yig'ib kengash o'tkazar ekan, ularga qarab shunday deydi: «Har qaysingiz 300 tadan eng chaqqon, epchil, qoyalarga chiqa oladigan yigitlardan olib kelng!»

Sizlar bilan yengilmas shaharlarni, o'tib bo'lmas tog' cho'qqilarini, Hindiston sovuqlarini yengdik. Men sizlarga o'rnak bo'ldim, sizlar esa jasorat ko'rsatdingiz.

Qarshingizda turgan qoyaga faqat bitta chiqish yo'li bor. Uning bir tomoni bosqinchilar tomonidan qo'riqlanib, qolgan tomoni qo'riqlanmaydi. Uni har tomonlama chuqur o'rganib chiqib, eng qulay chiqish yo'lini topasiz. Tabiatda yengib bo'lmas tepalik bo'lmaydi. O'zgalar zabit eta olmagan Osi pni ham zabit etdik.

Tepalikka chiqqanlar oq mato ko'tarib menga belgi berishsin. Men qolgan kuchim bilan qal'adagilarni chalg'itib turaman. Kim birinchi bo'lib qoyaga chiqsa, 10 talant, keyingisi 9 talant va qolganlar ham shunchadan mukofot oladi, ular faqat mukofot uchun emas, balki mening buyrug'imni bajarishlari shart».

Qoyaga chiquvchilar qal'ani egallaganday zavq bilan shohning hukmini eshitib, keyin temir ushlagichlar taqib tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Shoh ularga eng qulay chiqish joyini ko'rsatadi. Ikki kunlik ovqat olib qoyaga chiquvchilar qilich va nayza bilan qurollanib yuqoriga chiqa boshlaydilar.

Ular avvaliga hushyorlik bilan bir-biriga yordamlashib, arqonlar yordamida kun bo'yи yuqoriga qarab ko'tarila boshlaydi.

Noto'g'ri qadam qo'yanlar pastga tushib ketar, bunday dahshatli holat boshqalarni vahimaga solardi. Baribir og'ir to'siqlarni yengib tepaga chiqib borar, holdan toygan jangchilar uyquga ketardi. Ular ertalab dushman joylashgan qal'ani izlay boshlaydilar. Nihoyat, ular pastlikda g'ordan chiqayotgan tutunni ko'rishadi.

Ular kelishilgan signalni berib, o'z safdoshlarini sanab ko'rsalar, qoyaga chiqish jarayonida 32 kishi halok bo'libdi.

Shoh diqqat-e'tibor bilan ertalabdan kechgacha qoyani kuzatardi. Yigitlar taqdiri uni o'yantirardi. Ertasi kuni shohning o'zi birinchi bo'lib signalni ko'rib, Kofni zudlik bilan chaqirib, qal'adagilar huzuriga taslim bo'lishlarini aytish uchun yuboradi. Mabodo ular taslim bo'lmasa, qoyadagi yigitlarni ko'rsat deb tayinlaydi.

Shunda Kof unga qoyaga chiqib olgan yigitlarni ko'rsatadi va makedoniyaliklar ucha oladi, deb uning ustidan kuladi.

Makedoniyaliklar lageridan truba ovozlari, jangchilarning baqirishlari eshitiladi.

Qal'a himoyachilari sarosimaga tushib, qoyaga chiqqanlar oz ekanligini ham sezmay taslim bo'lishadi.

Shundan so'ng ular Kofni tezda orqaga qaytarib, o'zlarining 30 elchisini ham qoyani topshirish va bu yerdan talafot ko'rmay chiqib ketish uchun ruxsat so'rashga shohning oldiga yuboradilar.

Shoh qoyaga chiqqan yigitlari oz ekanligini bilsa ham, Arimazning birinchi javobidan g'azablanib, bunday shartnomaga rozi bo'lmay, ularning butunlay taslim bo'lishini talab qiladi. Buni eshitgan Arimaz o'zining eng yaqin odamlari bilan Aleksandrning oldiga tushib keladi. Aleksandr esa ularning hammasini bog'lab qoyaga osib qo'yadi. Qo'lga kiritilgan hamma o'lja sovg'a tariqasida yangi shaharlar aholisiga bo'lib beriladi. Shundan so'ng Artaboz qoyaga va viloyatga hokim qilib tayinlanadi¹.

O'rta Osiyoning antik davrlari tasvirlangan asarlarda aynan bir-birining takrori bo'lgan ko'plab lavhalarga duch kelamiz. Bu holat, ayniqsa, Kursiy Rufning «Aleksandr Makedonskiy tarixi», Arrianning «Aleksandrning yurishi» asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Kursiy Ruf asaridan yuqorida keltirilgan parchaga Arrian asarida keltirilgan lavha juda yaqin turadi. Bu o'rinda biz o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun ataylab har ikkala asardan bir xil tasvirni keltirdik.

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 293- bet.

ROKSANA

Donishmand adiblar Aleksandr Filipp o'g'li umrining oxirgi soniyasi haqida juda ta'sirli, o'quvchini hayajonga soluvchi, kishi vujudini larzaga keltiruvchi sahifalar bitishgan. Bu lavhalarni o'qib, bor-yo'g'i o'ttiz uch yil umr ko'rgan makedoniyalik Aleksandr bilan vidolashar ekanmiz, shu qisqa umri davomida qanchadan-qancha ishlarni qilib ulgurganiga hayrat bilan qaraymiz. Goh qirg'inbarot jang bilan, goh sulh tuzib, gohida esa do'stlik yo'li bilan qanchadan qancha o'lkalarni bosib olmadi, deysiz. U bizning o'rta osiyolik bobokalonlarimiz boshiga ne-ne kulfatlar, qanchadan-qancha qirg'inliklar keltirgan bo'lsa-da, navqiron yoshida olamdan ko'z yumganiga achinamiz. Zamona zayliga ko'ra bizning qadim yurtimizda u dastlab qirg'in urushlar qilgan bo'lsa-da, oxirgi damlarda ajdodlarimiz bilan do'stlashadi. Bu do'stlik ipini abadiy mustahkam bog'lash uchun u go'zal Roksanaga hukm yo'li bilan emas, ko'ngil yo'li bilan qonuniy uylanadi. Ammo ikki qit'a podshohini o'ziga asir etgan Roksananing ham umri qisqa bo'ldi. Undan farzand qolmadidi. Jahon donishmandlari Aleksandr haqida so'z yuritganda, albatta, Roksanani ham tilga olishadi. Aleksandrning onasi Olimpiada ham, saroy ahllari ham Roksanani hech kamsitmadi, osiyolik yovvoyi qiz deb uning sha'nini yerga urmadi. Butun Makedoniya, yunonlar, Aleksandr qo'shinida xizmat qilgan xalqlarning lashkarlari Roksanani ulug'lar, uning nomini e'zozlardi.

Xudo singari o'zini muqaddas bilgan Aleksandr Roksanaga xiyonat qilmadi. Osiyo shohlaridek o'nlab go'zallarni xotin qilib olish huquqiga ega bo'lgan Aleksandr yolg'iz qonuniy xotini Roksanaga sodiq qoladi. Aleksandr juda ko'plab ellarni, elatlarni o'ziga bo'ysundirgan bo'lsa-da, yolg'iz Roksananing ishqini bilan yashadi. Chunki Roksana dunyoda tengsiz go'zal edi. Shohning sadoqatli sarkardasi Loga o'g'li Ptolomey so'zi bilan aytganda, u butun Osiyonni kezib bunday go'zalni hali uchratmaganini aytgandi.

Roksanani go'zallik ma'budasi Afroditaga teng qo'yamiz. Dunyo xalqlari Afroditi qanchalik tanisalar, Roksana nomini ham shunchalik yaxshi biladilar. Darhaqiqat, Aleksandrni o'ylaganimizda, eng avvalo, Roksana ko'z o'ngimizga keladi.

So'g'd tog'ida asosan ayollar va bolalar asirga olingan bo'lib, ularning orasida Oksiertning xotini va bolalari bor edi. Oksiertning Roksana degan bo'yi yetgan qizi bor edi.

Jangchilar Doroning xotinidan keyin bunday go'zal qizni hech qayerda, hattoki butun Osiyoda ko'rmaganliklarini aytishadi. Aleksandr qizni ko'rib sevib qoladi. Unga o'z asiriga emas, balki xotiniga muomala qilganday gapira boshlaydi.

Oksiart bolalarining va xotinining asir tushib qolganini, ayniqsa, qizi Roksananing Aleksandrga yoqib qolganini eshitib, qo'rquvdan o'zini bosib olib, shohning huzuriga keladi, Aleksandr uning hurmatini joyiga qo'yib kutib oladi. Shundan so'ng shoh o'z qaynotasiga So'g'diyonaning hokimligini topshiradi. Shunday qilib, Yunoniston va Makedoniya bilan So'g'diyona o'rtasida yaqin qarindoshlik ipi bog'lanadi. Aleksandr boshlab bergen uylanish va nikoh qilish udumini uning boshqa ko'pgina jangchilari davom ettiradi. Aleksandr Hindistonga borganda ham uning ko'pgina jangchilari mahalliy qizlarga uylanib qolib ketadi. So'g'diyona, Girkaniya, Baqtriya o'g'lonlari esa uzoq Aleksandriyaga haydab ketilib, o'sha yurtlarda qolib ketadi. «Men bu yerda Aleksandrni ayblamayman, balki qo'llab-quvvatlayman, - deydi Arrian o'z asarida, - chunki u qanchadan-qancha mulozamat qilgan Doroning go'zal xotini oldida ham bosh egmagandi. Bu ayolga u hurmat va achinish bilan muomala qiladi. Bu bilan u yosh bo'lishiga qaramay, o'zini tuta olishini ko'rsatadi»¹.

Hikoya qilishlaricha, Doroning xotiniga qo'yilgan soqchi qochib ketib, Doroning huzuriga boradi. Sobiq sadoqatli jangchisini ko'rgan zahoti Doro xotini va bolalarining taqdiri haqida so'ray boshlaydi. Shunda soqchi hammalarining sog'-salomat ekanliklarini, ular o'zlarini xuddi uylaridagidek his qilayotganliklarini, xotini unga sodiq qolganini aytadi. Doro xotinining sodiq qolganini, Aleksandr ularga azob bermayotganligi, zulm o'tkazmayotganligini eshitgach ko'ngli joyiga tushadi. Shunda soqchi qasam ichib: «Shoh! Xotiningni sen qanday hurmat qilgan bo'lsang, Aleksandr ham shunday hurmat qilmoqda. Aleksandr juda oljanob, ayniqsa, xotinlar oldida o'zini tuta oladigan yaxshi odamdir»² deydi. Shunda Doro ikki qo'lini ko'kka ko'tarib, duo qila boshlaydi: «Zevs-

¹ Arrian. O'sha asar, 151- bet.

² Arrian. O'sha asar, 151- bet.

jahongir! Sen yerdagi shohlarning hayotini ko'rgansan. Menga fors va midiyaliklar ustidan hukmronlikni saqlab qolishga yordam ber! Agar meni Osiyo podshosi qilib qoldirging kelmasa, mening o'rnimni Aleksandrdan boshqa hech kimga bermagil!» shundan so'ng ko'p o'tmay, Doro o'zining eng yaqin sarkardasi Bess tomonidan xiyonatkorona o'ldiriladi. Uning yana qaytadan Osiyo podshosi bo'lish orzusi ro'yobga chiqmaydi.

Aleksandr Doroning xotin va bolalariga iltifot ko'rsatadi. O'zini esa, izzat-ikrom bilan dafn qiladi.

Plutarx Aleksandr Roksana qal'ani ishg'ol etish chog'ida asir olingenligi haqida hech narsa demay, balki bu go'zal qizni bir bazmda yaxshi ko'rib qolganligini aytadi.

Bir kuni bazmda Aleksandr go'zal qiz Roksanani ko'rib sevib qoladi. Roksan bilan tur mush qurishi esa, uni varvarlar bilan yanada yaqinlashtiradi. Varvarlar ham Aleksandrga ishonib, uni yanada hurmat qila boshlaydilar¹.

Kursiy Ruf ta'kidlashicha, Oksiart go'zal qizi Roksanani Aleksandrga o'zi in'om etadi².

Shoh taniqli hokim Oksiart boshqarayotgan viloyatga kelganda u darrov bo'ysunadi. Shunda shoh unga davlatini qaytarib berib, 2 o'g'lini harbiy xizmatga berishni talab qiladi. Oksiart xushomad qilib hatto uchinchi o'g'lini ham beradi. U dabdabali mayxo'rlik ziyofati uyushtirib unga shohni ham taklif qiladi.

Mayxo'rlik avjiga chiqqanida Oksiart 30 qizni olib kirishlarini buyuradi. Ular ichida Roksanai ismli qizi ham bor edi. Qizlar ichida eng go'zali Roksanai bo'lib, u hatto shohni ham o'ziga jalb qiladi. Aleksandr Roksanai past tabaqadan bo'lishiga qaramay, unga uylanmoqchi ekanligini, bu esa fors va makedoniyaliklar davlatini yanada mustahkamlashga yordam berishini aytadi. Axir, Aleksandrnинг ajdodi bo'lган Axilles ham go'zal asiriga uylangan-ku!

Bu so'zlarni Roksananing otasi xursand bo'lib eshitadi. Darhol shu yerdayoq non sindiradilar. Bu mahalliy xalq odati bo'lib, shunchaki, kichik bir narsaga qanoat qilish belgisi sanalib nikohdan o'tgan degan ma'noni anglatardi.

¹ Plutarx. O'sha asar, 430- bet.

² Kursiy Ruf. O'sha asar, 319- bet.

Shunday qilib, davlatni boshqaradigan merosxo^r o'g'il tug'ib berishi uchun Osiyo va Yevropa shohi bu qizga uylanadi. Oldiniga uning do'stlari bunday voqeadan uyalib yurishadi, lekin keyinchalik ko'nikib ketishadi.

Ayrim tarixchilar Aleksandrning Barsina ismli go'zali bo'lganligini, undan Gerkules ismli o'g'li ham borligini ta'kidlashadi. Bu haqda Yustinning «Pompey Trog epitomi» asarida kengroq ma'lumot berilgan¹.

Aytishlaricha, Aleksandr aysh-ishrat kunlarida Barsinani taklif qilar ekan. Biroq Barsina Aleksandrning qonunsiz xotini bo'lgan deyishadi. Ya'ni asirasi, xushtori bo'lgan ekan. Hatto atrofidagi yaqin kishilari shohning Barsinaga uylanishini taklif qilgan ekanlar. Barsina Aleksandrdan bir-ikki yosh katta bo'lgan. Boshqa manbalarda esa, Barsina dastlab Ptolomeyning xushtori bo'lganligi qayd qilinadi. Bir bazmi jamshidda shoh bu go'zal bilan pinhona uchrashib qolib, so'ngra uni o'zining asirasi qilib olgan ekan. Ptolomey esa Barsina bilan shoh o'rtasida sirli yaqinlik borligini sezgandan so'ng, bu go'zal bilan orani ochiq qildi.

Aleksandr esa yoshi o'zidan katta bo'lgani uchunmi, yoki ilgari kim bilandir aloqasi borligini sezgani uchunmi, Barsinaga uylanishni rad etadi. Shuning uchun ham, Barsina qonunsiz xotini bo'lganligi sababli shohning o'limidan so'ng Gerkules toj-taxt da'vogari bo'lolmaydi.

Ta'kidlashlaricha, Gerkules aslida Aleksandrdan bo'lmay, Barsinaning qandaydir bir o'ynashidan bo'lgan ekan. Bu sirni faqatgina Barsina bilar ekan. Hatto u bir bazmda ichkilikboshlik kuchayib ketib, yaqinlardan biriga bu sirni olib, og'zidan gullab qo'ygan. Aleksandr bilan oralarini mustahkamlash uchun Gerkules undan bo'lganligini aytib, shohni quvontirishga harakat qilgan. Biroq ko'pchilik bu sirdan xabardor bo'lib, Gerkules shohning o'g'li emasligi va Barsina uning noqonuniy xotini bo'lganligini hisobga olib, Aleksandrning o'limidan so'ng Gerkulesni hatto yo'qlashmaydi ham.

Nihoyat, qurollangan sarkarda va saroy oqsoqollari ma'lum bir tartib o'rnatish uchun sultanatga yig'iladilar Perdikka Aleksandrning Roksanadan yaqin orada tug'iladigan bolasini kutishni taklif qiladi. Agar o'g'il tug'ilsa, uni otasining vorisi qilib tayinlashni ma'lum qiladi. Meleagr esa bu muammoni hal qilishni kechiktirmaslikka, podshoning hozir hayot bo'lgan vorislaridan foydalanishni maslahat beradi. U Pergameda Aleksandrning Barsina degan xotinidan tug'ilgan Gerkules ismli o'g'li

¹ Yustin. Pompey Trog epitomi. Vestnik drevney istorii, 1954, № 3, str. 209.

borligini ta'kidlaydi. Lagerda esa Aleksandrning ukasi Arridey borligini, uning ko'ngilchanligini ta'kidlab, jon-jon deb o'z podshosi kabi qabul qilajagini eslatadi. Ptolomey Arrideyni podsho sifatida tan olmasdan, uning og'ir kasalligini eslatib o'tib, Aleksandrga eng yaqin amaldorlardan shoh saylashni taklif qiladi.

Perdikka taklifi ustun kelib, unga ko'pchilik qo'shiladi. Shunday qilib, Roksananing tug'ishini kutishga, agar o'g'il tug'ilsa, unga ustozlik qilishni Leonat, Perdikk, Krater va Antipartga topshirishga qaror qiladilar. Hamma ana shu ustozlarga so'zsiz bo'ysunishga qasam ichishadi¹.

Roksana o'g'il ko'radi. Lekin ko'p o'tmay Roksana ham, uning o'g'li ham jallodlar qo'lida nobud bo'ladi.

Boshqa bir manbada keltirilishicha, Roksana homilador bo'lib oy-kuni yaqinlashganda, Aleksandr o'lib qoladi. Roksana Aleksandrning jasadi oldiga kelib, o'zina tutolmay entikib-entikib yig'laydi-da, so'ngra erining jasadini quchib, sochlarini yoyib, yuzlarini tirnab, telbalarcha o'rnidan turadi. Aleksandr xuddi tirik odamdek, ko'zлari yarim ochiq holda yotardi. Osiyolik shohona kiyim Aleksandrga juda yarashib turardi. Oltin suvi yuritilgan kamariga oltin dastali xanjar taqib qo'yilgan edi. Roksana xanjarni shiddat bilan olib, ko'kragiga sanchadi-da, Aleksandrning ustiga qulab tushadi. Bu voqeа ko'z ilg'amas darajada tez ro'y bergandi. Hech kim Roksanaga yordam berishga ulgurmeydi. U allaqachon o'lган edi. Yig'ilganlar Roksananing o'limiga behad achinishadi. Muhabbatga sodiqlik faqat afsonalardagina bo'lганligini aytishadi.

«OSIYO SHOHI»NING ODATLARI

O'rta osiyoliklar Aleksandrni faqat nafrat bilan eslab qolmaydi, balki uning boshqa bosqinchilardan farqli ijobiy tomonlari ham bo'lганligini tan olishadi. Bu uning, eng avvalo, bizning eng qadimiy madaniyatimizni yo'q qilishga urinmaganligida, qadimiy урf-одатларимизни tiklab, uni qabul qilganida ko'rindi. Jumladan, o'rta osiyoliklarning урf-одатини o'rganib, uni qabul qiladi. Mahalliy xalq tilini o'rganadi va shu tilda so'zlashadi. Mahalliy xalq madaniyatiga katta e'tibor va hurmat bilan qaraydi. O'z

¹ Yustin. Pompey Trog epitomi. Vestnik drevney istorii. 1954, № 3, str. 223—224.

jangchilarini ham o'rtal osiyoliklarning tilini, urf-odatini, madaniyatini o'rganishga da'vat etadi. Buning uchun maxsus buyruq chiqaradi. Shuningdek, o'z tili va madaniyatini o'rganishni ham mahalliy xalqdan majburan talab qilmaydi.

Aleksandrga sharqona libos juda yarashardi. Makedonlarning kiyimida u xuddi yosh bolaga o'xshab qolardi. Osiyoliklar kiyimida esa yanada viqorli salobatli bo'lib ko'rindi. Shuning uchun u qishloq va shaharlarni aylanganda ham faqat makedoniyalik qo'riqchilar bilangina emas, balki yoniga mahalliy xalqning o'ziga sodiq o'g'onlardan ham olib yura boshlaydi. Aleksandrning yuz-ko'zлari ham osiyoliklarga o'xshardi. Ayniqsa, sharq libosini kiyganda uni osiyolik yigitlardan ajratib bo'lmadsi. Osiyolik shohlarga xos boshidagi toji uni farqlab turardi.

Aleksandr faqat sharq libosini kiyish bilan kifoyalanib qolmasdan, yerli xalqning mavsumiy bayramlarida, xudo yo'liga qurbanliklar keltirgan marosim kunlarida ham, hatto to'ylarda, shodiyona davralarda ham qatnashadi. Yerli xalqning tilini to'liq o'rganishga ulgurmasa ham, u kundalik muomalada qo'llaniladigan so'zlarni bilib olgandi.

Aleksandrda yana bir shunday ijobiy xarakter bor ediki, biron narsaga muhtoj bo'lib kelgan yerli xalq vakillariga, albatta, yordam berardi. Agar ayb ish qilib qo'ygan biror kishi shohning huzuriga keltirilganda, u o'z aybini bo'yniga olib, kechirim so'rasa, aybdorning gunohidan kechib yuborardi.

Mabodo biron ta grek yoki makedon yerli xalqning qizlariga uylanib qolsa, to'yni o'tkazib berar, to'y shodiyonasida o'zi ham qatnashardi.

Ko'pgina tadqiqotchilar, Aleksandrning osiyoliklar urf-odatini qabul qilganiga shubha bilan qaraydi. Aleksandrning faqat salbiy tomonlarini talqin qilishga, uni faqat qora qilib ko'rsatishga harakat qilishadi.

Osiyoga, jumladan, O'rtal Osiyoga bostirib kelgan hech bir bosqinchiligi Aleksandr kabi yerli xalqning madaniyatiga xayrixohlik bilan qarab, urf-odatini qabul qilishga kirishgan emas. Masalan, arab bosqinchiligi (VII asr) davrida, o'sha davrgacha bo'lgan madaniy boyligimiz oyoqosti qilingan edi. Jumladan, so'g'd yozuvi yo'qoladi, nodir kitoblar yoqib yuboriladi, eng qadimgi zardushtiylar dini taqiqlanadi. Urf-odatlarimiz unuttilradи. Arablar yerli xalqqa o'z madaniyatini singdiradi, o'z yozuvini joriy qiladi, dinini qabul qildiradi. O'zining urf-odatini o'rgatadi. Xalqimiz endi arab yozuvini o'rganib, dini va urf-odatini qabul qilib, ilm-fan rivojiana boshlaganda XIII asrga kelib, Chingizzon yana madaniyatimizning

noyob namunalarini yoqishga kirishadi. Donishmandlarimizni
vahshiyarcha o'ldiradi. Maktablarni yoqadi. Ilm-fanning rivojiga bolta uradi.
Barcha sohada vahshiylik avjiga chiqadi, xalqimiz boshiga ofat yog'iladi.

Arab istilosи esa so'g'd yozuvidagi barcha asarlarni, u qanday tomon-
ga, qaysi sohaga qaratilgan bo'lishiga qaramasdan, yoqishga hukm qildi.
Umuman, qadimgi so'g'd yozuvi tushirilgan buyumlar ham, idish va
tangalar ham yo'q qilinadi.

So'g'd yozuvini qo'llagan kishilar qattiq jazoga tortildi. Shu jihatdan
olib qaraganimizda, Aleksandr Makedonskiyning siyosatida bunday
vahshiyiklar bo'lman. Mahalliy xalq yozuvi, madaniyati, urf-odatiga
umuman daxl qilinmagan. Aksincha, yerli xalqning madaniyatini yanada
rivojlantirish ta'kidlangan. Shu ijobjiy tomoni bilan Aleksandr o'zidan
avval o'tgan yoki o'zidan keyingi bosqinchi shohlardan keskin farq qiladi.
Bu narsa, ayniqsa, bosib olingan o'lkalardagi yerli xalq madaniyatiga
munosabatda yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalaning mana shu tomonlarini
hisobga olib, garchi u bizning o'lcamizga bostirib kirgan bo'lsa ham,
butunlay qoralayverishimiz to'g'ri emas.

Kursiy Rufning ta'kidlashicha, Aleksandr Osiyo shohi bo'lib olgandan
so'ng Osiyo shohlariga xos dimog'dorlikka beriladi, ularni tiz cho'kishga
majbur etadi. Undagi bunday salbiy xislatlarni hazm etolmaymiz. Kursiy
Ruf ta'kidlaganidek, Aleksandr Parfiya yerlariga qaytib kelar ekan, o'zini
erkinroq his qila boshladi, shuning uchun har gal shohlarga xos
dimog'dorlik va takabburlik bilan ish tutadi.

Urf-odati, kiyimlari, endi o'zining buyukligiga mos bo'lmay
qolganligini o'ylab, Eron shohlari kiyimini kiyadi va xudo kabi o'zini
buyuk tutadi.

Hatto u yengilgan xalqlarni endi Eron shohlari kabi tiz cho'kishga
majbur qiladi. Forslarning urf-odatlarini qabul qilib, fors shohlari kabi
dimog'dorlik va viqorlik bilan taxtda o'tirishni o'rganadi¹.

Yevropaga yuboriladigan xatlarga o'z uzugi bilan, Osiyoga yuboriladigan
nomalarga esa Doroning uzugi bilan muhr bosar, ikki odam taqdirini
egallahsga urinardi.

So'ngra u o'z do'stlari va hatto sarkardalarini ham forslar kiyimini
kiyishga majbur eta boshlaydi. Uning saroyida Doronikiga o'xshash 360

¹ Kursif Ruf. O'sha asar, 209- bet.

ta yollangan ayollar bo'lib, ularni axtalangan xizmatkorlar qo'riqlab yurishardi.

Aleksandrdagi bunday keskin o'zgarish keksa jangchilarning noroziligini oshirib qattiq tashvishga solardi. Ayniqsa, Filiippning eski safdoshlari «g'alaba qilib qaytaga ko'p narsani yo'qotdik», deb kuyunib qo'yardi. Kekcha jangchilar bir-biriga «Yengilganlar urf-odatiga o'r ganib qolib, ular kiyimida qanday qilib uyimizga qaytamiz. Shoh esa buyuk makedon hukmdoridan Doroning bir hokimiga aylandi, u ko'proq yenggan emas, yengilgan odamga o'xshaydi», deb so'z otardi. Shoh ularni xafa qilib qo'yganini sezib, ko'ngillarini olish uchun qimmatbaho sovg'alar beradi, lekin bu narsa ularning ko'ngliga taskin berolmasdi. Jangchilarning xomush harakati, norozilik kayfiyati qo'zg'olonlar keltirib chiqarmasligi uchun ularni urush bilan chalg'itishni ma'qul deb biladi. Chunki Bess shohona tarzda o'zini Artakserks deb atab, zudlik bilan atrofiga skiflarni va Tanais daryosi bo'yicha yashovchi barcha elatlarni yig'a boshlagandi.

Plutarx ham Aleksandrning mahalliy xalq kiyimini kiyib, urf-odatini qabul qilganligini ta'riflaydi. Aleksandr Girkaniyadan qo'shini bilan Parsiyaga keladi. Bu yerda u birinchi marta, makedoniyaliklarni yangi urf-odatlarga o'r ganish uchun yerli xalqning kiyimini kiyadi. Lekin bu libos unga g'alati tuyuladi. Shuning uchun u shunday kiyim tanlaydiki, bu libos ham midiyaliklarni, ham eronliklarning kiyimini eslatardi. Aleksandr bu libosini mahalliy kishilar bilan uchrashganda yoki uyda do'stlari bilan suhbatlashganda kiyardi. Lekin keyinchalik uni bu kiyimda biron joyga borganda, elchilarni qabul qilganda ham ko'rish mumkin edi. Makedoniyaliklarga Aleksandrni bu kiyimda ko'rish azob edi. Lekin uning hamma narsaga odil ko'z bilan qarashi, ularni muruvvat qilib, muomala qilishga majbur etardi¹.

Shunday qilib, shoh mahalliy urf-odatlarga moslashib yashay boshlaydi. Uning fikricha, mahalliy aholi bilan yaqin aloqa qilibgina ular ustidan hukmronlikni o'rnatsa bo'ladi. Bu narsa unga uzoq safarga otlanganda ham kerak edi. Shu maqsadda u o'ttiz ming o'g'il bolani olib, ularga tarbiyachilarni biriktiradi. Ular bu bolalarga grek yozuvi va tilini hamda makedoniyaliklarning quollarini o'rgatishlari kerak edi².

¹ Plutarx. O'sha joyda, 429- bet.

² O'sha joyda.

Diodor ham Aleksandrning sharq urf-odatini qabul qilishini ta'kidlab yozadiki, Aleksandr eng kuchli raqibini ham eronliklar urf-odatiga ko'ra rozi qildim va endi menga teng keladigan hukmdor bo'lmasa kerak, deb o'laydi. Eron shohlariga xos bo'lgan shohona hayotni boshlaydi. Saroybon qilib ko'proq osiyoliklarni tanlaydi. Ular orasida Doroning akasi Oksafr ham bor edi.

Shunday qilib, Aleksandr forslarning ham urf-odatlarini qabul qila boshladi. Hatto otlarni ham forslarga o'xshab bezaydi. Bu esa ko'pgina makedonlik jangchilarga yoqmas edi. Shunda Aleksandr har xil sovg'alar berib, ularning ovozini o'chiradi¹.

Ayrim tadqiqotchilar Aleksandrning yerli xalq urf-odatini qabul qilishi egzulik maqsadida emas, balki yovuzlik va bosqinchilik yo'lidagi bir g'ilof edi, deb yozadilar. Bu yerli xalqni bo'ysundirish va jilovlab olishning qulay usuli edi.

Haqiqatan ham, Aleksandrda shunday maqsad bo'lgan, lekin yerli xalqning madaniyatini oyoqosti qilmay, uni e'tirof etishga intilishning o'zi muhimdir.

Yana bir muhim tomoni shundaki, Aleksandr bosib olgan viloyatlarga mahalliy xalq vakillaridan, masalan, So'g'diyona yerlariga Oksiart, Sisimifr, Xermanlarni hokim qilib tayinlangan. Bu odat ham o'zga bosqinchilarda bo'lмаган. Balki shuning uchundir, sharq xalqlari Aleksandr Makedonskiyni Iskandar Zulqarnayn qiyofasida tasavvur qilishgan.

Biz yaqinginagacha Aleksandr Makedonskiyni ijobjiy shaxs qiyofasida ko'rib kelardik. Uni Iskandar kabi adolatli va insofli shoh deb bilardik. Aleksandr bilan Iskandar qiyofasini bir deb bilardik. Ularning ichki va tashqi ko'rinishi bir-birining aksi deb o'ylardik. Aleksandr deganda Iskandarni, Iskandar deganda Aleksandrni tasavvur etardik.

Grek va Rim nasri bilan yaqindan tanishganimizdan so'ng Aleksandr haqidagi ijobjiy tasavvurlarimiz butunlay o'zgardi. Aleksandrni o'zları ulug'lagan va boshqalarning ham ulug'lashini bashorat qilgan Kursiy Ruf, Arrian, Plutarx, Diodor Tempiy Trog, Yustin kabi qadimgi dunyoning donishmand adiblari Aleksandrning salbiy qiyofasini, uning vahshiylig va yovuzlikdan iborat harakatlarini ham haqqoniy ko'rsatib

¹ Diodor. O'sha asar, 109- bet.

beradilar. Chunki bu ulug' yozuvchilar tarixni soxta tasvirlar bilan bo'yab ko'rsatishni gunoh deb bilganlar. Aleksandr har qancha ulug' bo'lmasin, uni faqat maqtab, ijobiy tomonlarinigina ko'rsatishni ma'qul ko'rmaganlar. Biz grek va Rim tarixiy nasrini o'qib, Aleksandr bilan Iskandar o'rtaida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan katta tarixiy haqiqat va badiiy talqin borligini ko'rdik. Chunki bu ulug' adiblar insoniyat oldidagi, kelajak oldidagi ijodkor burchini, mas'uliyatini chuqur his qilgandir. Biz ularni haqiqatni yozgani uchun ham ulug'laymiz. Antik dunyomizni bizga hayotiy tarzda, real holda qaytarib bergenliklari uchun ham grek va Rim adiblari qadrlidir. Grek va Rim tarixiy nasri esa xuddi sharq mumtoz adabiyoti kabi dilimizga yaqindir.

Grek va Rim tarixiy nasrini katta nahrga qiyos qilsak, ushbu yozganlarimiz uning mohiyatini anglash yo'lidagi ishlarining bir tomchisidir.

Qadimgi grek va Rim tarixiy nasrini o'rganib, O'rta Osiyoning antik davrlari haqida ko'plab yirik ilmiy tadqiqotlar yaratish mumkin.

BAQTRIYA TOMONLARDA

Arrian o'z asarida Girkaniya, Marg'iyyona, So'g'diyonada bo'lib o'tgan voqealarga alohida-alohida izoh beradi. Bu o'lkalarning tabiatini, u yerlarida yashovchi qabilalarning yashash sharoiti haqida qiziqarli lavhalar keltiradi. Ayniqsa, tarixiy voqealar tafsiloti ko'proq bayon etiladi. Baqtriyada bo'lib o'tgan voqealarga to'xtalar ekan, yana bir qator voqealarning tafsilotlarini so'zlab beradi. Bu o'rinda, ayniqsa, Baqtriya o'lkasida yuz bergen voqealar haqida hikoya qiluvchi ayrim faktlarni keltirib o'tish joizdir.

Kursiy Ruf Baqtriya tabiatini shunday tasvirlaydi:

«Baqtriyaning tabiatи boy va xilma-xil edi. Ba'zi joylarda yaxshi hosil beruvchi daraxtlar va uzumzorlar bo'lib, qolgan joylarda sug'orilib bug'doy ekilardi va yaylovlari ham bor edi.

Lekin ko'p qismi odamsiz, hosilsiz qumli joy edi. Pontadan esgan shamol qumlarni u yoqdan bu yoqqa to'zg'itib, kichik tepariklar hosil qilar va yo'llarni yopib qo'yardi.

Shuning uchun bu yerlardan o'tuvchilar o'z yo'lini yulduzlar orqali aniqlar edi. Kunduzdan ko'ra kechasi yurish osonroq edi. Hosildor yerlarda

odamlar zich bo‘lib, otlar ham ko‘p edi. Shuning uchun Baqtriyada 30000 otliq bor edi.

Bu viloyatning poytaxti Baqtr bo‘lib, u Parapamis yonbag‘rida joylashgan. Uning yaqinida Baqtr daryosi oqardi. Shu daryoning nomi viloyatga va uning poytaxtiga qo‘yilgandi¹.

Kursiy Rufning yozishicha, Baqtriyoning hokimligi Artabazga topshirilib, bu yerda katta qo‘shinni yuklari bilan qoldiriladi².

Arrian ham Baqtriyaning hokimi Artabaz bo‘lganligini ta’kidlaydi. Biroq keyinchalik Aleksandr Artabazni Baqtriyoning hokimligidan olib tashlaydi. Buni Artabazning o‘zi iltimos qilib, ancha qarib qolganini aytadi. Artabazning o‘rniga Baqtriyaga Nikolayning o‘g‘li Amintni hokim qilib tayinlaydi³.

Aleksandr Baqtriyaga qarab yuradi. Kraterning 600 askari bilan Poliperzont, Attal va Alketni Katan va Avetanga qarshi yuboradi. Ular Paretak yerida hech bosh egmagan mardonavor xalq edilar. Ikki o‘rtada qattiq jang bo‘ladi. Bu jangda Kraterning askarlari g‘olib chiqishadi. Katan jangda halok bo‘ladi. Asir tushgan Avstanni Aleksandrining oldiga olib kelishadi. Dushmanning 120 otliq askari va bir yarim ming piyoda askari halok bo‘ladi. Qo‘zg‘olonni bostirib, Krater qo‘shini bilan Baqtriyaga qarab yuradi. Baqtriyada esa Kallisfen va uning yigitlari bilan qattiq to‘qnashuv bo‘lib o‘tadi.

Bahorning oxirgi kunlarida Aleksandr katta qo‘shin bilan Baqtriyadan hindlarga qarshi yuradi. Baqtriyada u Amintani 3500 otliq askar va 10000 piyoda askari bilan qoldiradi. O’n kun deganda Kavkazdan o‘tib, o‘zi Baqtriyaga birinchi yurishida paramisadlar yerida barpo etgan Aleksandriya shahriga keldi.

Aleksandr Drapsakka yetib kelgach, qo‘shinlariga dam oldirib, so‘ngra uni Baqtriyadagi Aorn shahriga tomon boshlab ketadi. Baqtriyadagi eng katta shahar Aorn edi. Qolgan shaharlarni u yo‘l-yo‘lakay qo‘lga kirtgandi. Aornda, Krelalda Androklovning o‘g‘li Arxeley boshchiligidagi qo‘shinni qoldiradi. Hech qanday qarshiliksiz taslim bo‘lgan baqtriyaliklar ustidan Artabazni hokim qilib qo‘yadi.

¹ Kursiy Ruf. O‘scha asar, 263- bet.

² Kursiy Ruf. O‘scha asar, 263- bet.

³ Arrian. O‘scha asar, 148- bet.

Artabaz ancha keksayib qolgan nuroniy chol bo‘lgani uchun keyinchalik Aleksandr uni Baqtriya hokimligidan ozod qiladi. Biroq unga bo‘lgan hurmatini yo‘qotmaydi.

Arrianning yozishicha, Aleksandr Baqtriyaga birinchi bor yurishida Parapamisodlar yerida barpo etilgan Aleksandriya shahriga keladi. Aleksandriyahahrining hokimi bu payt Gipparx edi¹.

Mana shu fikrdan ham ko‘rinib turibdiki, Parapamisodlar Baqtriyaga yaqin joylashgandi. Arrian ham Parapamisodlarni Baqtriyaga chegaradosh edi, deydi. Arrian bergen tasvir o‘sha «Iskandar ko‘l» atrofidagi tabiat tasvirini esga soladi.

Kursiy Ruf ham Aleksandrning Parapamisodlar yeriga kelganligini, bu yerlar Baqtriyaga yaqin joylashgan bo‘lib, nihoyatda sovuq ekanligini ta’kidlaydi. Bu haqda adib shunday bir tasvirni beradi.

Aleksandr katta qo‘sishin bilan uncha rivojlanmagan va zaif parapamisodlar qabilasiga bostirib boradi. Ularning mamlakati shimol tomonda, sovuq o‘lkada joylashgan bo‘lib, g‘arbda Baqtriyaga bilan, janubda Hind dengizi bilan chegaradosh edi. Parapamisodlar uylarini asosan g‘ishtdan qurgan bo‘lib, u yerlarda, hatto tog‘da ham o‘rmon yo‘q edi. Uylar pastdan yuqoriga qarab torayib qurilar edi. Uzum va daraxtlar sovuqdan zo‘rg‘a saqlanardi. To‘xtovsiz sovuq bo‘lgani uchun qor erimasdi. Osmanni har doim qora ko‘lanka qoplab olgандай edi.

Bu yerga kirgan qo‘sishinlar albatta sovuqdan, ochlikdan, charchoqdan holdan ketardi. Ko‘plar sovuqdan o‘lar, oyoqlarini sovuq uchirar, ko‘zları kasal bo‘lardi. Sovuqda qotib qolganlarni o‘rtoqlari isitar, ularni harakatlanishga majbur qilishardi. Kim dushman hujrasiga kirishga ulgursa, darrov o‘ziga kelardi.

Hech qachon kelgindilarni ko‘rmagan yerli aholi qurollangan odamlarni ko‘rganida, qo‘rqanlardan ularga bor narsalarini bera boshlaydi, faqat o‘ldirmasalaring bo‘ldi deb aytishadi.

Shoh qo‘sinni piyoda aylanar, sovuqdan yotib qolganlarga yordam beredi. Nihoyat, yaxshiroq joyga yetib kelib, yetarlicha oziq-ovqat oldilar².

Diodor ham Parapamisodlar yerining nihoyatda sovuq bo‘lganligini, odamlarning asosan qishloqlarda yashashini ta’kidlab, Kursiy Rufning tasviriga yaqin ifodani beradi va shunday yozadi:

¹ Arrian. O’sha asar, 153- bet.

² Kursiy Ruf. O’sha asar, 259- bet.

«Aleksandr esa shu vaqtida Parapamisodlar qabilasi tomon yurish qiladi. Bu yerlar juda sovuq bo'lib, odamlarning asosiy qismi qishloqlarda yashar edilar. Ular uylarini o'zлari xom g'ishtdan qurban edilar. Sovuq juda qattiq bo'lgani uchun, bir necha oylik oziq-ovqatni yig'ib olib uylaridan chiqmay o'tirar edi. Mana shunday qiyinchilikka qaramasdan, Aleksandr bu yerlarni ham egallaydi, lekin sovuq tufayli ko'p odamini yo'qotadi¹.

Grek va Rim tarixiy nasrida Baqtriya va Parapamisodlarga yaqin bo'lgan Arimasplar o'lkasi haqida ham hikoya qilingan. Arimasplar o'lkasida yashovchi qabilalarni evergetlar deb ham atashgan. Bu o'lka bizning taxminimizcha, Issiqko'l atrofida, hozirgi Qirg'iziston yerlarida bo'lsa kerak. Arrian evergetlar haqida shunday yozadi:

«Bundan tashqari, u qo'shinini ikki qismga bo'ladi. Chunki juda katta bo'lgan otliq qo'shinga qo'mondonlik qilishni bir kishiga, hatto eng yaqin kishisi bo'lsa ham bergisi kelmasdi. Shuning uchun u qadimda arimasplar, endi esa everget deb nomlangan xalqning oldiga keladi. Ular Kambizning o'g'li Kirga, skiflar ustiga qilgan yurishida yordam berishgandi. Aleksandr Kirga yordam bergenlarga izzat-ehtirom bilan murojaat qiladi. Ularni Elladaning eng yaxshi odamlari bilan aloqada bo'lishlarini istaydi. Hayotlari endi badaviylar hayotiga o'xshamasligiga ishonch hosil qilgach, ularga xohlaganlaricha yer bo'lib beradi. Bu yerda u Apollonga qurbanlik keltiradi. Shaxsiy soqchisi Demetriyni esa Filotga qarshi uyuşhtirilgan fitna qatnashchisi deb, asirga oladi. So'ngra uning o'rniga Laganing o'g'li Ptolomeyni shaxsiy soqchi qilib tayinlaydi»².

Diodor ham Arrianning mana shu fikriga yaqin gapni aytib, Arimasplar yoki Everget deb atalgan qabila va ular joylashgan o'lka haqida shunday ta'rif beradi:

«Shundan keyin shoh Aleksandr Arimasp, tomon yurish qiladi. Arimasp ilgari Evergeta deb ham atalgan. Buning sababi quyidagicha: Eron shohi Kir o'z qo'shini bilan mana shu yerda ochlikka duchor bo'ladi. Arimaspliklar Kirni bu ochlikdan saqlab qoladi. Shunda Kir ularni Evergetlar deb ataydi. Shunday qilib Aleksandr o'z qo'shini bilan mana shu yerga yetib keladi va yaxshi kutib olinganligi uchun ularga juda

¹ Diodor. O'sha asar, 114- bet.

² Arrian. O'sha asar, 128- bet.

katta boylik va sovg‘alar beradi. Ular bilan qo‘snni bo‘lgan Gedrosanliklarni ham munosib taqdirlaydi. Shu ikki xalqqa Tiridatni boshliq qilib tayinlaydi»¹.

Arrian ham Baqtriya va Parapamisodlar o‘lkasiga yaqin chegaradosh yerlarda arimasplar o‘lkasida Everget qabilasining yashashini aytib, ularga yaqin joyda Aroxoziyalar degan mamlakat bo‘lganligini ma’lum qiladi. Ehtimol, bu o‘lka Afg‘onistonga yaqindir. Kursiy Rufning ta‘kidlashicha:

«Aleksandr ariylar o‘lkasiga hokim tayinlab, qolgan ishlarini tugatib, arimasplar mamlakatiga yurish boshlaydi. Ularning yangi nomi Evergetlar bo‘lib, ular bir paytlar Kir qo‘snniga oziq-ovqat va joy bergandi.

Bu viloyatga Aleksandr beshinchı kuni yetib keladi. Satibarzon Bess tomonidan o‘tganidan keyin yana ariylar yeriga bosib kirganini bilgan shoh u tomonga Karan, Erigiy, Artabaz va Androniklar bilan birga 6000 grek piyodasini va 600 otliqni yuboradi. Shohning o‘zi esa 60 kun ichida Evergetlar qabilasida tartib o‘rnatib, Kirga sodiq bo‘lgani uchun katta mukofot beradi.

Ularga Amedinani boshliq qilib qo‘yib, o‘zi esa Pontiy dengizigacha cho‘zilgan araxoziyalar mamlakatini ishg‘ol qiladi. U yerda bir vaqtlar Parmenion boshliq bo‘lgan qo‘snn bilan uchrashadi. Bular 6000 makedoniyalik, 200 yuqori tabaqali, 5000 grek, 600 otliq qo‘snn edi.

Araxoziyalarga shohning yordamchisi Menon hokim qilib tayinlanadi. Himoya uchun 4000 piyoda va 600 otliq askar qoldirildi.»²

HINDISTONGA YURISH

Aleksandr Osiyoning eng go‘zal o‘lkalarini bosib oladi. Bular Eron, Midiya, Parfiya, Marg‘iyona, Girkaniya, Kaspiy bo‘ylari, So‘g‘diyona, Baqtriya va hokazo. Aleksandr bu o‘lkalarga kelishni bolalikdanoq orzu qilardi. Ayniqsa, skiflar haqidagi rivoyatlar qattiq hayajonga soluvchi tafsilotlar, chuqur o‘yga toldiruvchi voqealar bo‘lg‘usi shohning qalbini o‘ziga sehrlab olgandi. Bu afsona va tasodiflarga

¹ Diodor. O’sha asar, 115- bet.

² Kursiy Ruf. O’sha asar, 257- bet.

boy o'lkalarni ko'rish orzusi haqiqatga aylanib, ne-ne mashaqqatlardan so'ng, yana bir boshqa orzu og'ushida uzoq o'yga tolardi. Bu Hind o'lkasini ishg'ol etish orzusi edi. Hind diyori o'zining qalin o'rmonlari, to'lqintirib oquvchi daryolari, ulkan ilonlari, shifobaxsh giyohlari, jangovar fillari-yu, beba ho zeb-u ziynatlari bilan dunyoga mashhur edi. O'zining afsonalardagidek go'zal tabiat bilan Aleksandr qalbini maftun etgandi. Ammo uzoq Hindistonga tuya, ot, xachir, eshak kabi ulovlar bilan yetish amrimahol edi. Buning ustiga, osmono'par tog'lardan, eshilib oquvchi daryolardan o'tish va dovul, bo'ron, shamol xatarlarini tahlika ostida yengib, manzilga yetish oson ish emas. Shunday bo'lsa-da Aleksandr Hindistonni qo'lga kiritish orzusidan voz kechmaydi. Axir, butun dunyoga hukmron bo'lish uning birdan bir orzusi. Axir, hali u hech kim yetolmagan shon-shuhrat egasi bo'lishni yoshligidan o'ylardi. Bunday orzuning so'nggisi hali Hindiston emas. Biroq, Hindiston ulkan mamlakat. Uni qo'lga kiritса, qolgan mayda o'lkalar o'z ixtiyorlari bilan taslim bo'lishi turgan gap. Biroq, hali bu uzoq o'lkaga yetish qiyin edi.

Hindiston tomon yurish davom etar ekan, bu yurishda ko'pgina o'rta osiyoliklar ham ishtirot etgandi. Ularning ko'pi mana shu og'ir yo'l mashaqqatlarini tortib, Hindistonga yetmasdanoq nobud bo'lgandi. Adiblar bu og'ir yo'l mashaqqatlari haqida qiziq-qiziq hikoyatlar bitishgan.

Kursiy Ruf asarida Hindiston tomon yurish shunday ta'riflanadi. Toshloq yo'l bo'lgani uchun otlar tuyog'i og'rib, bir-biridan orqada qola boshlaydi. Borgan sari otliqlar safi kamayib boradi.

Lekin shoh, otlarini almashtirib bo'lsa-da, qochoqlarni quvishda davom etadi. Hatto atoqli jangchilar orqada qoladi. Lisimaxning ukasi Filipp juda qobiliyatli edi. U og'ir qurollanganiga qaramay shohdan orqada qolmasdi. To'satdan o'rmonda ro'y bergan og'ir jangda Aleksandrni dushman hamlasidan o'z gavdasi bilan himoya qilib qoladi.

Shunda jang tugashi bilan Filipp darmonsizlanib, daraxtga suyanganicha hushidan ketadi.

Buni ko'rgan shoh unga yordamga yetib boradi. Shoh uni qo'liga olishi bilan Filipp jon beradi.

Bu voqeadan xafa bo'lib turganida yana bir noxush xabar yetib keladi, ya'ni eng jasur safdoshi Eriqiy ham o'lgandi. Shu yerda ikki

qahramonni ham izzat-ikrom bilan ko‘mishadi¹. Bu voqeа Hisor tog‘laridan o‘tayotganda ro‘y bergandi. Tog‘ orasi qalin o‘rmon edi. Tog‘liklar to‘satdan hujum qilib, ikki o‘rtada shiddatli jang boshlanadi. Aleksandr ham janga kirishib ketadi. Yon tomondan nayza ko‘tarib Aleksandrga tashlangan tog‘likni Fili pp chopib tashlaydi. Fili pp mahoratli jangchi bo‘lib, shoh uni yaxshi ko‘rardi. O‘shanda Aleksandr Fili ppning bir yo‘la to‘rtta tog‘lik bilan olishayotganini ko‘rgan bo‘lsa ham qaytishning mavridi emasdi. Chunki shoh tog‘liklarni ta’qib etib borardi. Nihoyat, sarkarda Eriqiy yetib kelib, shoh ta’qib etib borayotgan tog‘liklarni quvishda davom etadi. Aleksandr orqagaqaytib, Fili pp jang qilayotgan o‘rmon oralig‘iga keladi. Fili pp hali tirik edi. U entika-entikakelib daraxtga suyanadi. Buni ko‘rgan Aleksandr zudlik bilan u tomon yuradi. Fili ppning og‘zidan laxta-laxta qon oqardi. Shoh uning egilgan boshini ko‘taradi. U nimadir demoqchi bo‘ladi-yu jon beradi. Fili ppning qo‘lidagi qonli yoy yerga tushadi. Aleksandr sezadiki, bu yoy o‘qi jangchisining ko‘kragiga sanchilgan bo‘lib, aftidan uni o‘zi sug‘urib olgan. Shoh jangchisining jasadini ko‘tarib, yura boshlaydi. Bir zumda ularni jangchilar o‘rab olishadi. Fili ppning jasadini qo‘lma-qo‘l ko‘tarishib, o‘rmonning siyrak joyiga olib kelishadi. Halok bo‘lganlar anchagina edi. Ularning hammasini bir joyga yig‘ishadi. Shu mahal sarkarda Eriqiyning yaralangani haqida xabar keladi. Aleksandr o‘n besh chog‘lik jangchilar bilan Eriqiy tomon chopib ketadi. Biroq safdoshlari Eriqiyning ham jasadini o‘rmon ichidan ko‘tarib kelishadi. Eriqiyni Fili ppning yoniga qo‘yishadi. Vidolashuv marosimida Aleksandr ta’sirli va hayajonli nutq so‘zlaydi. Bu nutq jangchilarni sergaklikka va hushyorlikka chaqirardi. Vidolashuv marosimi shunday tantana bilan o‘tadiki, o‘lganlar nomi sharaflanib, ularning ruhini e’zozlab madhiyalar o‘g‘iladi. Bu ikki sarkardaning va boshqa fidoyilarning nomlarini «Efemerida»ga yozib qo‘yish muarrihlarga tayinlanadi. Bu marosim jangchilarning ruhini ancha ko‘taradi. Bunday ulug‘ yurish chog‘ida kimda kim fidoyi bo‘lsa, shunday izzat-ikrom bilan dafn qilinajagi ta’kidlanadi. Hatto Aleksandr o‘lganlarning ruhini shod qilish uchun mavridini topib, ularning yaqinlariga va oilalariga yordam berajagini va’da qiladi. Boshqa bir manbalarda esa Fili pp bu jangda

¹ Kursiy Ruf. O‘sha asar, 309- bet.

o'Imagani, yengil yaralangani qayd etiladi. Hatto u Hindistonda bo'lgan janglarda katta jasoratlar ko'rsatadi. Shuning uchun ham, Plutarxning ta'kidlashicha, Fili pp Hindistondagi eng kattaviloyatlarning biriga hokim qilib tayinlanadi¹.

Bu o'rinda Plutarxning fikriga qo'shilish o'rinnidir. Chunki u Aleksandrning o'z qo'shi bilan yozgan maktubdan foydalangan.

Shunday qilib, ulkan qo'shin tobora Hindiston tomon yaqinlashib borardi. Hisor tog'laringan baland cho'qqilari osha taqdir taqozosi bilan uzoq ellarga ketayotgan O'rtta Osiyoning marg'iyan, girkan, xarasp, massaget, sak, skif, shak qabilalarining bahodir o'g'lolnari orqalariga o'girilib qarab, o'z yurtlarining jamolini so'nggi bor ko'rayotgandek, firoq dardining og'irligidan o'rtanib, ko'zlariga beixtiyor yosh quyilib kelardi. Hisor tog'lardan o'tgach, tog' etagida katta bazm kechasi boshlanadi. Qo'shining ruhi baland edi.

Arrian asarida Aleksandrning Hindistonga jo'nash safari shunday ifodalanadi. Bu voqeя Baqtriya yerlarining oxirgi chegaralarida bo'lib o'tgandi.

Aleksandr qo'shiniga yon-atrofdan odamlar kelib qo'shiladi. Xizmatga yaroqsiz bo'lgan askarlami esa shu yerda qoldirib, do'stlaridan biri bo'lgan Nikonorga shaharni obodonlashtirishlari topshiriladi. Tiriyesni Kofeya daryosigacha bo'lgan yerga hokim qilib tayinlaydi. Nikeya shahrida katta tantana bilan Afinaga qurbanlik keltirgandan so'ng, Kofen daryosiga qarab yuradi. Bu yerda u Taksilga uni kutib olish uchun odam yuboradi. Taksil va boshqa aslzodalar uning oldiga chiqishadi. Bundan tashqari shohga fil sovg'a qilmoqchi ekanliklarini aytishadi. Ularda 25 taga yaqin fil bor edi.

Shunda u qo'shinini ikkiga bo'ladi: Gefestion va Perdikka Gorgiyaning qo'shinini berib, Indu daryosi bo'yida joylashgan pevkelaotlar yeriga jo'natadi. Kit va Mileagraka qolgan oqliq va yollanma oqliq askarlarni beradi. Aleksandr ularga yo'lida uchragan barcha yerkarni bosib olishni, Indu daryosiga yetganda daryodan o'tish uchun hamma narsani tayyorlashni buyurdi. Ular bilan birga Taksil ham o'z qo'shinini olib jo'nagandi².

Kursiy Ruf asarida Hindistonga yurish safari shunday tasvirlanadi.

Kursiy Ruf Aleksandrning o'z qo'shiniga nisbatan o'ta qattiqqo'l va ayni chog'da, mehribon bo'lganligini aytadi. Bir lavhada Aleksandr do'l

¹ Plutarx. O'sha asar, 440- bet.

² Arrian. O'sha asar, 232- bet.

va yomg‘ir bo‘lishiga qaramasdan, og‘ir yo‘l mashaqqatlarini yengib bo‘lsa ham matonat bilan olg‘a yurishga da‘vat etsa, boshqa bir sahifada shoh o‘z jangchilariga nihoyatda g‘amxo‘r bo‘lib, ularga yaxshiliklar qilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Hamma hokimliklarni joyiga qo‘yib, uch oylik qishdan chiqib, Aleksandr g‘abaza viloyatiga qarab yo‘l oladi. Birinchi kuni yurish osoyishta o‘tadi, keyingisi sal yomonroq bo‘lib, uchinchi kuni osmonda chaqmoq chaqib, jangchilarga xalaqit beradi. To‘xtovsiz momaqaldiroq va chaqmoq yurishni juda qiyinlashtirib yuboradi.

Birdaniga do‘l aralash kuchli yomg‘ir yog‘adi. Jangchilar oldiniga qo‘lidagi qurollari va asbob-anjomlari bilan o‘zlarini himoya qilishga kirishadi. Biroq kuchli bo‘ron boshlanib, ular katta talafot ko‘ra boshlaydilar. Holdan toygan jangchilar dara bo‘ylab tarqalib ketadi. Ko‘plari daraxt tagiga yashirinadi. Holsizlikdan ko‘plari halok bo‘ladi. Charchagan jangchilar vaqtincha bo‘lsa-da, biroz orom olish zarur edi. Bo‘ron yomg‘ir aralash tobora kuchayardi.

Faqat shoh bu kulfatni mardonavor yengib, jangchilarga yordam berar, yig‘ilganlarni turg‘izardi. U uzoqdan chiqayotgan tutunni ko‘rib, boshqalarga taskin beradi.

Shohdan qo‘rqanidan jangchilar bor kuchlarini yig‘ib yo‘lda davom etardilar. Nihoyat, ular sovuqdan saqlanish chorasini topadi. O‘rmondagи daraxtlarni kesib yoqa boshlaydi. Butun o‘rmon bo‘ylab gulxanlar yoqiladi. Jangchilar sovuqdan qotgan badanlarini isitar, ayrimlari o‘rmon chekkasidagi uylarga kirib sovuqdan saqlanishar, qolganlari ham nam yerga chodir qurardilar. Sovuq biroz pasayib, tabiiy ofatdan 200 jangchi halok bo‘lgandi. Ko‘plari daraxtlarga suyanib turgan joylarida qotib qolgandilar.

Tasodifan bir makedoniyalik jangchi qo‘lida quroli bilan oyog‘ida zo‘rg‘a turgan holda shoh qarorgohiga yetib keladi. Isinib o‘tirgan shoh, qaltirab hushidan ketayotgan jangchini o‘z joyiga o‘tqazadi.

U ancha vaqt o‘ziga kelolmay, qayerga va kim o‘tqazganini bilmay o‘tirardi. Hushiga kelganida birdan sapchib o‘midan turib, shohning joyida ekanligini bilib hijolat chekadi. Shunda shoh unga qarab: «endi anglayapsanmi, fors shohidan ko‘ra mening qo‘l ostimda yashash yaxshiroqligini. U yerda shoh o‘rniga o‘tirgan odam qatl etiladi». Shunda shoh ertasi kuni o‘z do‘stlarini, harbiy boshliqlarini chaqirib, hamma yo‘qotilgan narsalar tiklangan deb e’lon qilishlarini buyuradi. Shundan

so'ng shoh 6 kunlik oziq-ovqat tayyorlab olishlarini, saklarga qarshi yurishni mo'ljallab bu mamlakatni talon-taroj qiladi.

Kursiy Ruf o'z asarida Aleksandrning Hindiston safariga ham keng o'rin ajratgan¹. Parfiya, Midiya, Girkaniya, So'g'diyona, Baqtriya yerlarida bo'lib, o'zini ulkan Makedoniya va ulkan Ahmoniyalar davlatining shohi deb atagan Aleksandr ham adolat, ham jaholat yorlig'iغا ega bo'lib, Hindiston tomon ot soladi.

Shu orada shoh Hindistonga, undan keyin esa okeanga borishni mo'ljallaydi. Orqa tomoni xavf-xatarsiz bo'lishi uchun hamma viloyatlarni garovga qo'yib, jang qilishi uchun ularga 30000 yigitni olib kelishni buyurdi. Qo'shining orqa tomonida qolgan sarkardalar Gefeston va Katen bosqinchilik bilan shug'ullanib, katta boylik toplashga, o'zlarining kuchini mustahkamlashga kirishadi. Hatto Aleksandr tutgan siyosatga qarshi ish yuritadi. Bu xabarni eshitgan Aleksandr darg'azab bo'lib, Hindiston safariga ketayotganda bunday sotqinlarni yo'q qilish lozimligini o'yaldi. Kraterni katta qo'shin bilan sotqinlarni ushlab kelishga yuboradi. Gefeston qo'lga tushadi, Katen esa jangda halok bo'ladi.

Hamma narsani hal qilgan Aleksandr endi Hindiston bilan bo'ladigan urush haqida o'ylay boshlaydi. Bu mamlakat o'zining oltin va javohirlari bilan dunyoga mashhur edi. Odamlarning aytishicha, u yerda hamma narsa oltin va fil suyagi kabi yarqirar edi. Bunday boy o'lkaga Aleksandr jangchilarining ruhini ko'tarib borishni o'ylardi. Shunday qilib, ulardan qolishmaslik uchun Aleksandr ham qalkonlarini kumushdan, otlarining egar-jabduqlarini oltindan yasab urushga tayyorlanadi. Uning 12 000 qurollangan lashkari urushga otlangandi.

Ilgari o'ylab qo'ygan niyatini amalga oshirish uchun u o'zini xudolar safiga qo'shmaqchi bo'ldi.

Uni faqat Yupiterning o'g'li debgina qolmasdan, balki endi hamma ishonishi kerak deb aytadi. Shuning uchun ham, endi makedoniyaliklar forslar odatiga ko'ra unga egilib ta'zim qilishlarini buyuradi. Sababi, shoh xushomadgo'ylarni juda yoqtirar edi. Bu narsa shoh obro'sini yanada ko'tarish o'rniiga, unga putur yetkaza boshlaydi. Odamlar ikkiyuzlama bo'lib qolishgandi».

Bu narsada makedoniyaliklardan ko'ra ko'proq greklar aybdor edi. Qandaydir shoir Agis va o'ta yolg'onchi Kleon shohning eng yaqin

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 317- bet.

odami bo'lib olib, uni ko'klarga ko'tarib maqtab, hatto Gerkules, Liber, Kastorlardan ham yuqori qo'yib, shohnning boshini aylantirardi»¹.

Shunday qilib, bunday xushomadlardan boshi ko'kka yetgan Aleksandr dabdabali bayram tantanasini qilib, unga greklarni ham, hatto mashhur mahalliy kishilarni ham taklif qiladi. Bunday bayram kechalari katta dabdaba bilan o'tardi. Tashrif buyurganlar birin-ketin egilib kelib shohning etagini o'parida, lavozimiga munosib o'tnini egallardi. Bunday bayram tantanalarida shohning ra'yiga qarshi birontasi ham, hatto urug'lari ham gap aytolmasdi. Agar mabodo bironta qatnashchi zarracha nojo'ya ishga yo'l qo'ysa, yo keyingi tantanaga taklif etilmasdan yoyinki o'sha kuniyoq jazoga tortilardi. Shohga xushomad qilishni xohlamagan, unga egilib, etagidan o'pmaydigan kishilar tantanaga kelmasdi. Bunday kishilar shohning yangi odatiga qarshi deb hisoblanib, albatta, jazoga tortilardi. Ayniqsa, makedoniyaliklar bu yangi odatni avvaliga jirkanib qabul qilishadi. Keyinchalik ular ham xushomadgo'ylikni o'rganib olishadi. Xushomadgo'y va lagabardorlarning oshig'i olchi bo'lib chiqadi. Shunday qilib, shoh qarorgohida xushomadgo'ylik avjiga chiqadi. Bunday tantanali kechalarida shoir Agis bilan madhiyaboz notiq Kleon, albatta, ishtirok etardi. Bu ikki badihago'yning maqtov so'zları shohning qulog'iga yoqib tushardi. Ular o'zlarining balandparvoz so'zları bilan Aleksandrni ulug'lar, takror-takror egilib, qo'lidan, etagidan o'par, xudoga iltijo qilgandek oyog'iga bosh urib, ko'zida yosh ho'ng-ho'ng yig'lardi. Bu ikki badihago'yga qo'shilib, yig'ilganlar ham ko'zlariga yosh olib, iltijo qilar va sig'inardi. Bunday tantanalar ba'zan tonggacha davom etardi. Xushomad va maqtov so'zlardan boshi osmonga yetgan shoh o'ziga yoqqan kishilarni qarorgohida olib qolib, bir xonada tunardi. Bunday ishonchli kishilar ichida osiyoliklar ham bor edi. Aleksandr faqat makedoniyaliklar va greklargagina emas, balki qo'l ostidagi barcha xalqlardan ham ishonchli odamlar topib, ularga ham yaqin munosabatda bo'la boshlaydi. Ko'pincha eronliklar bilan forsiy tilda, so'g'diyonaliklar bilan esa so'g'd tilida gaplashadi. Qaysi o'lkaza borsa o'sha o'lkaning urf-odatini, tilini o'rganishga harakat qiladi. Zardushtiylik dini tug'i ostida yashayotgan osiyoliklarning

¹ Kursiy Ruf. O'sha asar, 319- bet.

tili va urf-odati bir-biriga juda yaqin edi. Osiyo podshosi bo'lgandan so'ng bu yerdag'i xalqlarning tili va urf-odatini o'rganishni zarur deb biladi. Hatto sarkardalari va mashhur kishilarini ham mahalliy xalqning tili va urf-odatini o'rganishga undaydi. Aleksandrga, ayniqsa, sharq muzikasi, osiyolik go'zallarning raqslari, hofizlarning qo'shiqlari juda yoqardi. Shuning uchun ham, bayram tantanalarida ko'proq osiyoliklarning kuy va raqslari ijro etilardi. So'g'diyonada boshlangan tantana Baqtriyadan tortib Hindistongacha deyarli har kecha davom etardi. Tantanaga tashrif buyurganlar qanday egilib kelib ko'rishgan bo'lsalar, tantana tugagach, yana shunday egilib shoh bilan xayrleshardi. Asta-sekin bunday Osiyo udumiga yevropaliklar ham ko'nikib qolishadi. Yo'lida ularga Afrikan ismli hind sarkardasi 20000 qo'shini va 15 ta fili bilan qarshi chiqadi. Aleksandr uni ham o'ziga bo'ysundiradi. Shunday qilib, shoh triankantorga yetib keladi va shu yerda o'z qo'shini bilan 30 kun dam oladi, xudo yo'liga qurbanlik qiladi. Bu yerlarda ilgarigi shoh Taksil o'rniga uning o'g'li Mofis hukmdorlik qilar edi. Aleksandr bilan uning orasida 30 stadiy masofa bor edi. Mofis Aleksandrga sezdirmsasdan va to'satdan hujum qilish uchun jangga tayyorlana boshlaydi.

Aleksandr uning bu ayyorligini, urushmayman deb aldaganini sezib qoladi va qo'shining bir qismini unga qarshi yuboradi. Vaziyatni tushungan Mofis hech qanday jangsiz Aleksandrga taslim bo'ladi. Aleksandr esa Mofisni hokimlik lavozimida qoldiradi va keyinchalik u bilan ishonchli ittifoqdosh bo'lib qoladi. Aleksandr Evmisarni ham o'ziga bo'ysundiradi va uning eng yaxshi hosildor yerlarini egallab oladi. Lekin bu yerlarda o'ta zaharli ilonlar ko'p bo'lib, ular chaqqan odam o'sha zahotiyoy o'lar edi. Shuning uchun makedoniyalik jangchilar kechasi bilan uxlolmay, o'zlarini ilonlardan qo'riqlab chiqar edi. Shundan keyin Aleksandr yana bir qancha shaharlarni ishg'ol qiladi va Kafara deb ataluvchi xalqlar yashaydigan joyga keladi. Bu xalq odatiga ko'ra, agar er o'lsa, xotinini ham unga qo'shib tiriklayin yoqib yuborishar edi.

Bu joydan Aleksandr Atsezina daryosigacha yetib kelib, Okean tomon suzib ketadi. Bu yerda yashovchi agensonlar va siblar ham taslim bo'ladi. U kemalarga tushib bu yerdan mandra va sudraklar tarafga yo'l oladi. Bu xalqlar unga qarshi 80 000 piyoda va 60 000 otliqdan iborat qo'shinini qarshi qo'yadilar. Jangda g'olib chiqqan Aleksandr o'z qo'shini bilan

shaharga yaqinlashadi. Shahar qal'asiga birinchi bo'lib ko'tarilganda u yerda hech kim ko'rinnmasdi. Shahar aholisi tashlab chiqib ketgan bo'lsa kerak, deb navkarlarsiz yolg'iz o'zi shahar maydoniga sakrab tushadi. Aleksandrning yakka o'zi kirganligini ko'rgan dushmanlar shovqin ko'tarib, har tarafdan uni o'rab ola boshlaydilar. Ular Aleksandrning kallasini tanasidan judo qilib, bir yo'la butun dunyoda urushga chek qo'yib, ko'plab xalqlar uchun qasos olishni ko'zda tutgan edi. Ammo Aleksandr bir o'zi dushman olomoniga qarshi qahramonlarcha kurashadi¹.

Aleksandr qo'shini bilan Nise shahriga yetib kelganda, qarshilik qilmay izzat-ikrom bilan kutib olgan shahar aholisiga shafqat qiladi. Keyin u o'z qo'shini bilan muqaddas tog'ni ko'rishga yo'l oladi. U yerdan Dedab tog'lariga, Kleofida podshohligiga tomon otlanadi. Kleofida butun sultanatini, boyliklarini o'z ixtiyori bilan in'om etadi. Bu bilan u o'z podshohligini saqlab qoladi. Hatto tug'ilgan o'g'liga Aleksandr deb ism qo'yadi. Shundan so'ng Aleksandr Hindiston podsholigini egallaydi.

Hindiston uzra yurish qilganda baland va o'tish qiyin bo'lgan qoyalarga duch keladi. Bu past-baland qoyalar orasida ko'plab qabilalar joylashgan edi. Hatto qattiq yer qimirlab, Gerkulesga bu qoyalarni egallahda xalaqit bergen.

Gerkulesdan ham ustun kelish maqsadida u barcha xavf va qiyinchiliklarni yengib, bu joydagи hamma qabilalarni bo'ysundiradi².

ALEKSANDRNING VAFOTI

Antik davrlarda (eramizdan oldingi 329-327- yillar) Aleksandr Makedonskiy O'rtta Osiyoga bostirib kelgan. Bizning hozirgi qutlug' zaminimizdan qachonlardir ot choptirib o'tgan. Bobokalonlarimiz bilan goh to'qnashib, qilich va nayza jangini boshlagan, gohida esa do'stlashib, ishonch nigohi bilan tikilishgan. Qonli janglar tafsilotini ham, do'stlik rishtasini ham tarix sahifasiga ko'chirishni buyurgan. Zamona zayli bilan O'rtta Osiyoga kelib qolgan Aleksandr ba'zan qonli va dahshatli urushlarni

¹ Yustin. O'sha asar, 218—222- betlar.

² Yustin. O'sha asar, 217- bet.

qo‘msab, ba’zan tinchlik va do‘stlikni istab, Hindiston tomon ot surib ketgan bo‘lsa-da, uning keyingi taqdiri bizning e’tiborimizni o‘ziga tortadi. Ayniqsa, Aleksandrning o‘limi voqeasi muhimdir.

Bor-yo‘g‘i o‘ttiz uch bahorni ko‘rib, ikki qit’a shohi degan ulug‘ yorliqqa tuyassar bo‘lgan navqiron yigitning o‘limiga, garchi u bosqinchi bo‘lsa-da, achinish bilan qaraymiz. Bu yoshda shunday ulug‘ yorliqqa dunyoda hech kim tuyassar bo‘lgan emas. Balki shuning uchun ham, uni Buyuk Aleksandr deb atashardi.

Insoniyat hamon Aleksandrdan buyuklikni qidirmoqda. Undagi buyuklikni bilihga intilmoqda. Ikki qit’aning shohi bo‘lishning «o‘zigina buyuklik belgisi bo‘lib qolmaydi. Bundan tashqari, unda yuksak aql ham mujassam edi.

Arrianning ta’kidlashicha, Aleksandrning sanoqli kunlari qolgan edi. Aristobul kelajakni aytib bergen.

Kunlardan bir kun Aleksandr Filoksen va Minandr dengizi bo‘ylaridan - Pevkestdan olib kelingan va makedoniyaliklar qo‘shinida xizmat qilayotgan fors jangchilarini qismlarga bo‘lish bilan band edi. Uning suv ichgisi kelib, taxtini bo‘sht qoldirib, tashqariga chiqadi.

Taxtning ikki tarafida Aleksandrning do‘stlari o‘tiradigan kumush lojalar joylashgandi. Qandaydir bir odam, taxt va lojaning bo‘shligini ko‘radi. U yevnuklardan boshqa hech kim yo‘qligiga ishonch hosil qilib, taxtga o‘tiradi. Evnuklar uni taxtdan tushirishmaydi, balki forslarning odati bo‘yicha, kiyimlarini yirtib, juda katta kulfat bo‘lganday, o‘zlarining ko‘kraklari va yuzlariga ura boshlashadi. Bu narsani Aleksadrga yetkazishganda, u o‘sha odamni qiy nab, kimligini, qaysi bir guruuhga mansub ekanligini bilishni buyuradi. Shunda u taxtga shunchaki o‘tirganini, hech qanday fitnalarda qatnashmaganini aytadi. Odamlar bu narsa yaxshilikka olib kelmasligini gapiradilar.

Bu voqeadean keyin bir-ikki kun o‘tgach, Aleksandr janglarda ko‘proq g‘alabaga erishish maqsadida xudolarga qurbanliklar keltiradi. Bu ishda xudolar madadkor bo‘lishlarini iltijo qiladi. Shundan so‘ng, u do‘stlari bilan dabdabali bazm boshlaydi. Bazm yarim kechagacha davom etadi. Uni kechasi bilan bezgak tutib chiqadi. Ertasi kuni ham yuvinib, qurbanlik keltiradi. Nearx va boshqa qo‘mondonlarga esa 3 kundan keyin suzib ketishga tayyor turish buyurilgandi. Uchunchi kuni yana yuvingga, noziri qurbanlik keltiradi. Lekin bezgak to‘xtamasdi. Shunga qaramay, qo‘mondonlarni chaqirib, ketishga tayyor bo‘lib turishlari haqida buyruq

beradi. Kechqurun u yuvingandan so'ng, o'zini yomon sezal boshlaydi. Shundan so'ng kuni uni hovuz yonida joylashgan xonaga olib o'tishadi. Bu yerda u yana qurbanliklar keltiradi. Aleksandrning ahvoli judayam og'irlashadi. Shuning uchun uni saroya olib o'tishadi. U oldiga kirgan qo'mondonlarni taniydi. Lekin ovozi chiqmasligi sababli ularga hech narsa deya olmaydi. Hikoya qilishlaricha, jangchilar uni ko'rmoqchi bo'lishadi. Ayrimlari uning tirikligini, ayrimlari esa Aleksandr o'lgani shaxsiy soqchilari jasadni yashirayotganliklarini eshitib, shunga ishonch hosil qilishmoqchi bo'lishadi. Aleksadr o'zini ko'rgani kirgan har bir jangchining qo'lini qisardi. Pifon, Attal, Demofont, Pevkest, Kleomon, Menad, Selevk Serapis ibodatxonasida tunab xudodan Aleksandrni ibodatxonaga olib o'tishsa, unga yaxshi bo'lish-bo'lmasligini bilmoxchi bo'lishadi. Xudodan kelgan ovoz Aleksandr joyida qolsa, unga yaxshi bo'lishini aytadi. Do'stlari Aleksandriga bu gaplarni yetkazishadi. Aleksandr, xuddi o'lim unga eng yaxshi narsa bo'lib tuyulayotganday vafot etadi.

◦ O'limi oldidan do'stlari Aleksandrdan «Podsholikni sen kimga qoldirasan» deb so'rashsa, u «Eng yaxshiga» deb javob beribdi. Yana: «Sezyapman, qabrim ustida qattiq tortishuv bo'ladi» - deb qo'shimcha qilibdi.

Aytishlariga qaraganda, Aleksandr Antipatr yuborgan zahardan o'lgan. Antipatrga bu zaharni jiyani Kallisfening fojiaviy qismatini eshitgan Aristotel tayyorlab bergen.

Aleksandriga zaharni Kasandrning kichik ukasi Iollay bergen. Iollay shohning vino quyuvchi soqchisi bo'lgan. Shohni zaharlashning boisi o'limidan oldin Aleksandr uni xafa qilgan ekan.

Boshqa birovlar bu ishga Iollayning do'sti Mediy ham aralashganini aytishadi. Mediy Aleksandrni shuning uchun bazmga taklif etadi. Aleksandr kilik vinosini ichib, biqinida sanchiq paydo bo'lganini sezadi va bazmdan ketadi. Kimdir, Aleksandr o'limini sezib, Evfratga o'zini tashlamoqchi bo'lganini, o'zini xudolar avlodidan chiqib, yana xudolarga qaytib bormoqchi bo'lganini aytadi. Xotini Roksana buni ko'rib, uni to'xtatadi. Aleksandr unga boshqa qaytib kelmaydigan sharaf, xudo bo'lish sharafidan mahrum qilganligini xafa bo'lib aytadi¹.

Shohning o'limi haqidagi quyidagi fikrlar ham e'tiborlidir.

¹ Arrian. O'sha asar, 235- bet.

Hamma vaqt biron-bir tashvishda yurgan Aleksandr xudoga ishonmay qoladi. Saroyda esa qurbanlik qiladigan odamlar ko'payib qolgan edi.

Gefestionga tegishli bo'lgan motamni Aleksandr bekor qiladi. Shundan so'ng u yana diniy marosimlarda qatnasha boshlaydi. Bir kuni Nearxni qabul qilganidan so'ng u yotish oldidan odatdagidek vanna qabul qilib, dam olmoqchi bo'lib turganda Midya kelib, bazmga taklif qiladi. Aleksandr u yerda kuni bilan, ertasiga ham kechgacha ichimlik ichadi. Kechga borib esa uni bezgak tutadi. Aytishlaricha, Aleksandr bazmda Gerakl qadahidan ichgan. Shundan so'ng orqasida nayza sanchilgandek og'riq sezgan.

Aristobulning aytishiga qaraganda, bezgak payti Aleksandr qattiq chanqab, ko'p vino ichib qo'ygan. Shundan so'ng u alahsiray boshlagan va Desiya oyining o'ttizinchi kuni vafot etgan.

Desiya oyining o'n sakkizinchi kuni hammomda u qattiq charchog'ni sezib, uxbab qoladi. Taksiark va Pentakosiarxlarga esa tunni yaqin o'rtada o'tkazishlarini aytadi. Yigirma beshinchi kuni esa uni saroyning boshqa xonasiga olib o'tishadi. Bezugak bezovta qilishiga qaramay, u biroz uxbab oladi. Oldiga qo'mondonlar kelishganda Aleksandr ularga bir so'z aytolmaydi. Bu hol yigirma oltinchi kuni ham takrorlanadi. Shu kuni Pinton bilan Selevk Serapis ibodatxonasiga yuborilgan edilar. Ular xudodan Aleksandrni ibodatxonaga olib kelish kerak yoki kerak emasligini so'rashadi. Xudo Aleksandrni joyida qoldirishni buyuradi. Yigirma sakkizinchi kuni kechqurun Aleksandr vafot etadi².

O'shanda Aleksandrni zaharlashgani hech kimning hayoliga ham kelmaydi. Aytishlaricha, besh yildan so'ng Olimpiada har xil mishmish gaplarga ishonib, ko'pgina sarkardalami o'ldirib yuboradi. Aleksandr zahar bergen deb, Iolaning qabrini qazdirib, uning qolgan suyaklarini sochib tashlashni buyuradi. Gagiotemidning aytishicha, zahar Anti patraning buyrug'i bilan berilgan. Anti patrani esa Aristotel yuborgan.

Zahar rolini Nopakr yaqinida joylashgan bir qoyadan oqib tushadigan muzday suv bajargan. Boshqalarning aytishlaricha, Aleksandr zaharlanmagan. U ko'p kun betob yotib, bu vaqt ichida zaharlanishning belgisi paydo bo'limgan. Bunga Aleksandrning tanasi isbot bo'lishi mumkin.

O'sha vaqtida Roksana homilador bo'lib, makedoniyaliklarning hurmatiga sazovor bo'lgan edi. Judayam rashkchi bo'lgani uchun u Statirni yomon ko'rardi. Roksana Statir va uning singlisini o'ziga jalb qilib, ikkalasini ham o'ldirib, jasadlarini quduqqa tashlaydi. Bu ishda

unga Perdik yordam beradi. Aleksandr o'lgandan so'ng, Perdik Arrideyni olib yurgani uchun katta mansabga ega bo'ladi. Arridey yoshligidan kalta fahmligi bilan ajralib turardi. U Fili ppning o'g'li bo'lib, onasi Filinnaedi. Aytishlaricha, bolaligida juda aqlli bo'lgan Arrideyni Olimpiya turli xil yo'llar bilan aqldan ozdirib qo'ygan.

Aleksandrning o'limi sabablari bilan birga, undan so'ng yuz bergen voqealar ham qiziqarlidir.

Tabiiyki, Aleksandrning o'limidan so'ng uning qo'l ostidagi hokimliklarda toj-taxt uchun kurash, jang-u jadallar, ichki urushlar kuchayib ketadi. Aleksandrning taxtiga ko'plab shohlar birin-ketin kelib o'tiradi. Lekin ularning birontasi ham Aleksandrning o'mini bosolmaydi.

Bunday jang-u jadallar, ichki nizolarning kuchayib ketganligi, toj-u taxt uchun talashishlar haqida Diodorning yozganlari haqiqatga yaqindir. Adibning ta'kidlashicha, Aleksandrning o'limidan keyin o'rniiga o'g'li bo'Imagani tufayli taxt uchun talashish boshlanadi. Piyoda askarlar Fili ppning o'g'li Arrideyni shoh qilib tayinlaydi. Perdikk esa uning yordamchisi etib tayinlanadi. Chunki Aleksandr Perdikka o'limi oldidan o'z uzugini bergen edi. Shunday qilib, Perdikk Arrideydan keyingi hukmdor bo'lib olib, hamma sarkardalarni yig'adi va bosib olgan butun yerlarni ularga bo'lib beradi: Misrni Ptolomeya, Suriyani Mitilenskiyga, Kilikiyani Filotga, Midiyani Pifonga, Paflagoniya va Kappadokiyani Evmenga, Pamfiliyani Antigenga, Kariyani Kasandraga, Lidiyani Meleonnatga, Frigiyani Leonnatga beradi. Qora dengiz bo'yłari bilan birga Frakiyaga Lisimaxni, Makedoniya va unga qo'shni hududlarga Anti patrni hukmdor qilib tayinlaydi. Kavkazdag'i Paraparnisadni Baqtriya shohi Oksiartga topshiradi. Bir vaqtleri Aleksandr Oksiartning qizi Roksanaga uylangan edi. Soliya, Ariya va Drangianni Stasanorga, Baqtriyava So'g'diyonani Filippa, Parfiyava Girkaniyani Fratafernga, Midiyani Atropatga, Bobilni Arxonha va nihoyat Mesopotamiyani Arkesilayga topshiradi.

Aleksandr jasadi ortilgan aravani bezashni Arrideyga topshiriladi. Bir vaqtleri Aleksandr Gefestion xotirasini abadiylashtirish uchun juda katta, mablag' ajratgan edi. Perdikk esa katta yig'ilishda makedoniyaliklar bilan kelishgan holda mana shu mablag'ning bir qismini Aleksandr xotirasini abadiylashtirishga qaror qiladi. Juda ko'p joylarda, jumladan, Afrikadan to Ispaniyagacha va undan Sitsiliyagacha bo'lgan masofada Aleksandrga atab juda ko'plab ibodatxonalar qudirradi.

Shunday qilib, Aleksandrdan bizga antik o'tmishimizni yorituvchi yorqin sahifalar qoldi. Biz bu sahifalarning ayrimlarini varaqlab, ularda bobokalonlarimizning qiyofasini ko'rdik, xolos. Hali bunday tirik sahifalarning qanchasi qadim o'tmishimiz haqida so'z ochuvchi hikoyatlarni o'z bag'riga olgan. Ularni yoritish esa keljakning ishidir.

XULOSA

Antik davrlarda atoqli sarkardalar, shoh va shahzodalar jang-u jadallarni, jahongirlikni buyuklik namunasi deb bilishgan. Qirg'inbarot urushlarda g'oliblik sarkarda va shohlar uchun ulug'lik keltirgan. Bu yo'lda behisob insonlarning qurbon bo'lishi bilan hech kim qiziqmagan, balki janglarda muzaffar bo'lish shon-u shavkat hisoblangan. Shuning uchun ham, o'tmishda qabilalar, ellar va elatlar, mamlakatlar o'rtasida juda ko'plab urushlar bo'lib turgan. Shohlar Iskandarday jahongir bo'lish orzusida bo'lishgan.

To'g'ri, Aleksandr Makedonskiy biz uchun bosqinchi. Chunki uning yurtimizga bostirib kelganligi tarixiy asarlarda izohlangan. Biz uchun Aleksandr shaxsi bilan birgalikda o'sha davrlar O'rta Osiyo tarixini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Bunday tahlil jarayonida bizga grek va Rim tarixiy asarlari yaqindan yordam beradi.

Aleksandr juda chiroyli, jamoatchi, epchil, haqiqatni sevadigan, mard kishi edi. U jang-u jadallarni sevar va xudolarga sig'inardi. Jismonan baquvvat, maqtovlarga hech qachon to'ymas edi. Voqealarni oldindan ko'ra bilish qobiliyatiga ega edi. Qanday yo'l tutish kerakligini juda yaxshi bilardi. U jangchilarни qanday qilib safga terish va qurollantirish hamda boshqa harbiy anjomlar bilan ta'minlashni besh qo'ldek bilar edi. Hech kim unchalik jangchilarning ruhini ko'tara olmasdi, o'zining botirligi bilan har qanday qo'rquvni yenga bilardi. U hammaning ko'z o'ngida qat'iyatlik bilan harakat qilardi. Hech kim unchalik dushmanni aylanib o'ta olmas, ularning harakatlarini oldindan ko'ra bilmas va unga xavf sola olmas edi. U hech qachon kelishuv va shartnomalarni buzmasdi. Uni hech kim alday olmas va laqillata olmasdi. O'zining boyligini hammaga saxiylik bilan in'om etardi.

Aristobulning aytishicha, u bazmlarni vino uchun emas, do'stlari uchun o'tkazardi. Aleksandrning o'zi esa kam ichardi.

Arrianning ushbu so‘zlarida Aleksandrni ijobiy baholashga anchagina moyillik bor bo‘lsa-da, o‘quvchini chuqur o‘ylashga, antik zamonamizga qadam qo‘yan bu ikki qit’ a shohi haqida mushohada yuritishga majbur etadi.

Bu o‘rinda Yustinning «Pompey Trog epitomi» asarida bayon qilingan Aleksandrning o‘limi va undan keyingi kuchayib ketgan ichki ziddiyatlar haqidagi mulohazalarni keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir. «Pompey Trog epitomi» asarida keltirib o‘tilgan ushbu episod «Aleksandrning yurishi» asarining so‘nggi sahifalariga ko‘p jihatdan o‘xshab ketsa-da, ayrim jihatlari bilan undan tamoman ajralib turadi. Bu o‘xshash va farqli tomonlarni o‘quvchining o‘zi anglab olishi oson bo‘lganligi uchun, unga ortiqcha izoh berishga hojat yo‘q.

O‘limidan to‘rt kun oldin Aleksandr umrining oxirgi soniyasi yaqinligini anglaydi. Zakidlar avlodining ko‘pchiligi o‘ttiz yoshgacha vafot etganligini eslaydi. Aleksandrni shahardagi eng baland joyga olib chiqadilar. U hamma jangchilariga o‘zini ko‘rishga ruxsat berib, o‘ng qo‘lini o‘pishga uzatadi. Atrofda hammaning yig‘lashiga qaramasdan, u bir tomchi ham ko‘z yoshi chiqarmaydi. Aksincha, ularni tinchlantirar, ba’zilariga maslahatlar berardi. Uning irodasi faqat dushmani oldidagina emas, hatto o‘lim oldida ham shunchalik qat’iy edi. Jangchilari bilan vidolashib, do‘sralidan o‘ziga o‘xshash shoh topa olishlarini aytadi. Hamma jim qoladi. U o‘z jasadini Ammon ibodatxonasiga dafn qilishni buyuradi. Uning olamdan ko‘z yumayotganligini sezgan do‘srlari, davlat vorisi qilib kimni tayinlash lozimligini so‘rashadi. U eng loyiq kishini deb javob qiladi. Oltinchi kuni Aleksandr tildan qoladi va uzugini yechib Perdikka beradi. Bu bilan u avjiga chiqayotgan o‘zaro nizoga chek qo‘yadi. Shunday qilib taxt vorisi saylanadi.

Aleksandr 33 yoshga to‘lib olamdan ko‘z yumdi. Bu o‘z ruhining ulkanligi tufayli odamzod tabiatidan yuqori turgan bir inson edi. Uning onasi Olimpiada qadimdan dong chiqargan zakidlar avlodidan edi. Aleksandr tug‘ilishhi arafasida uning buyukligini bildiruvchi belgilar paydo bo‘lgan. Chunki u tug‘ilganda, kun bo‘yi saroy tomida ikki burgut qo‘nib, ular ikki qit’ a - Yevropa va Osiyo hokimligiga ishora edi. Xuddi shu kuni uning otasi ikki g‘alaba - Illiriya urushi va Olimpiada o‘yinlari haqida xushxabarlar olgandi. Bu belgilar chaqaloqqa kelajakda barcha mamlakatlar ustidan g‘alaba qilishini oldindan aytib berardi. Bola fanlarni

tirishqoqlik bilan o'rganadi. 5 yil mobaynida yosh Aleksandrga buyuk faylasuf Aristotel ustozlik qiladi.

Hokimiyatni qo'lga olgach, Aleksandr o'zini butun dunyo podshosi deb e'lon qiladi. O'z qo'shini ichida shunchalik katta ishonch qozongan ediki, u bor joyda qo'shini hatto qurolsiz bo'lsa ham dushmanidan qo'rmasdi. Shuning uchun ham, jahonda u yengmagan na bir dushman, u olmagan na bir shahar, u bo'y sundirmagan na bir xalq yo'q edi. Nihoyat u o'z yaqinlarining sotqinligi tufayli vafot etadi.

Buyuk Aleksandrning bevaqt o'limidan keyin butun Vavilionda qayg'uli sukut hukm sura boshlaydi. Unga tobe bo'lgan qabilalar uni faqat yengilmas, qudratli kuch deb atab qolmasdan, balki o'lmas deb hisoblashar, boqiy umrga da'vogar deb o'ylashar, shuning uchun uning o'limiga hech ishonmasdi. Uning haqiqatan ham o'lganligini bilgan xalq uni ota sifatida eslay boshlashadi. Lekin eng dahshatlisi, sarkardalar podshohlikka talashib, toj-taxt uchun janglar avj oladi. Piyoda askarlar cheksiz boylik va oltinga huruj qilib, behisob qotilliklar boshlanadi.

Aleksandr vafotidan keyin, uning ayrim safdoshlari qanchalik xursand bo'lgan bo'lsalar ham o'zlarini ilgarigidek to'la xavfsizlikda sezmas edilar, chunki ularning hammasi bir narsaga, taxtga intilar edi. Ular jangchilarining qotillik qilib qo'yishidan, sotqinlik va xiyonatga qo'l urishlaridan xavfsiray boshlashadi.

Sharq xalqlarining tili, urf-odati, yashash tarzi, madaniyati bir-biriga juda yaqin va o'xshashdir. Bu yaqinlik va o'xshashlik, eng avvalo, din va tarixiy o'tmish bilan chambarchas bog'liq.

Geografik sharoiti bir-biri bilan bog'lanib ketgan sharq xalqlarining dini ham qadimdan bir bo'lgan. Bu narsa islom dini paydo bo'lgandan keyin vujudga kelgani yo'q. Musulmon dini yoyilmasdan o'n asrdan ko'proq vaqt ilgariyoq zardushtiylik diniga sig'inib kelgan. Jamshid, Axuramazda, Axriman, Goya Moretan, Naxit, Xubbi kabi eng qadimiy ilohiy kuchlarga sig'ingani sharq xalqlarining o'tmishda ham qismati bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganligidan dalolat beradi.

Sharq xalqlarining qadimiy o'tmishiga nazar tashlar ekanmiz, bu bepoyon o'lkada asosan ikki tilda, fors va turkiy tillarida so'zlashuvchi qabilalar yashaganiga guvoh bo'lamiz. Uzoq asrlar davomida bu ikki til o'rtasida ham shu darajada yaqinlik vujudga keldiki, bir til ikkinchi tildan kirib kelgan so'zlar hisobiga boyidi.

Sharq xalqlari o'rtasida irqiy yaqinlik ham mavjud. Bu irqiy yaqinlik Ahmoniylar davlati, Aleksandr Makedonskiy yurishi va arab istilochiligi davrida juda kuchayib ketdi.

Sharq adabiyotida uzoq asrlardan buyon davom etib kelayotgan bunday an'ana mavzu va sujet, tasvir va g'oyaviy yo'nalishlarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Iskandar, Yusuf, Zulayxo, Bahrom obrazlari bilan bog'liq bo'lган asarlarning mavzusi va sujetida, tasvir va g'oyaviy yo'nalishlarida ko'p jihatdan o'xshashlikni ko'ramiz. Bunday an'anaviy yo'nalish faqat mumtoz adabiyotga tegishli bo'lib qolmay, balki og'zaki adabiyotda ham o'ziga xos ravishda davom etib kelgan. Hatto Sharq og'zaki ijodiyotida shunday asarlar borki, bir xalq yaratgan asar ikkinchi xalq folkloridagi asarga ham tematik, ham sujet jihatidan va obrazlariga ko'ra bir-biriga juda o'xshash bo'ladi. Ayni chog'da, folkloridagi bunday an'anaviy yo'nalish mumtoz adabiyotga va aksincha o'z ta'sirini o'tkazib kelgan.

Sharq xalqlari folklori va mumtoz adabiyotidagi bunday an'anaviy yo'nalishning ahamiyati kattadir. Sharq xalqlari adabiyotiga xos bo'lган adabiy aloqa va adabiy ta'sir masalalarini o'rganishning ahamiyati haqida juda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari yuzaga kelgan. Bu tadqiqot ishlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, sharq madaniyati, tarixi va adabiyotini o'rganishga katta qiziqish ancha ilgariyoq paydo bo'lganligini ko'ramiz.

Qadimdan Eron, Gretsya, Makedoniya, Misr, Parfiya, Midiya, Girkaniya, So'g'diyona, Baqtriya, hatto Hind va Rim xalqlari o'rtasida mustahkam do'stlik aloqalari mavjud bo'lgan.

Uzoq yunon o'lkasi bilan O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida qadim-qadim zamonlardayoq aloqa bo'lganligini aniq faktlar orqali ham isbot etishimiz mumkin. Jumladan, fessaliyaliklarning qadimiylar yodnomasi bo'lgan «Ellada qahramonlari» asarida Amazonkalar haqida hikoya qilinadi¹, Muarrix adib Yustinning fikricha, Amazonkalar skif avlodlaridan bo'lgan ekan².

Ulug' yunon tragediyanavisi Esxilning (eramizdan avvalgi VI asrda yashab o'tgan) fikricha, inson zotiga olov hadya etmoqchi bo'lgan

¹ Ellada qahramonlari. Toshkent, «Yosh gvardiya» nashriyoti, 1976 y., 134—136- betlar.

² Yustin. Epitoma Pompeya Troga. Vestnik drevney istorii, 1964 g., № 2, 211- bet.

Prometey hukmdor Zevsning qahriga uchrab, skiflar o'lkasidagi qoyaga zanjirband qilinadi¹.

Eramizdan avvalgi VI-V asrdayoq bo'lib o'tgan Eron-Yunon urushi chog'ida uzoq yunon o'lkasidan baknalik butun bir elat Baqtriyaga, Milet o'lkasidagi branxidlar va everget qabilalari So'g'dyonaga Eron shohi Kir tomonidan badarg'a qilingan edi.

Bu haqda Kursiy Ruf o'zining «Aleksandr Makedonskiy tarixi» asarida So'g'dyonada yashayotgan greklarning branxid qabilasi haqida shunday bir qiziqarli lavhani berib o'tadi. Shundan so'ng Aleksandr branxidlar yashayotgan shaharga yetib boradi. Branxidlar shohni yaxshi kutib olib, darrov unga bo'ysunadi. Miletliklar ilgaridan branxidlarning sotqinligi uchun yomon ko'rishar edi. Shuning uchun shoh branxidlar taqdirini hal qilishni ularga topshirdi.

Ikkinci bosqich, Aleksandr Makedonskiy davri bilan izohlanadi. Bu davrda ko'plab yunon tarixchi adiblari O'rtta Osiyoga kelib, bu o'lordan olgan taassurotlari asosida «Kundalik»lar, memuar asarlar yoza boshlaydi. O'rtta Osiyoning antik davrlarini chuqur va mufassal o'rganishimizda Aleksandr Makedonskiy davri qimmatli ma'lumotlar beradi.

O'rtta Osyo bilan Yunonistonni qadim-qadimdan madaniy va iqtisodiy aloqa bog'lab kelgan. Grek tarixchilari Gerodot Ksenofont va Fukidid zamonlaridan ilgariyoq uzviy bog'lanish mavjud edi. Eron-Yunon urushida ko'pgina turkiy qabilalar farzandlari ham ishtirok etgan edi. Urush tufayli yurdoshlarimiz uzoq yunon o'lkasida qolib ketgan. Ularning ko'pchiligi yunon go'zallariga uylanib, taqdir taqozosiga ko'ra o'sha uzoq o'lkalarda umrgo'zaronlik qilgan.

Aleksandning ustozи Aristotel Arastu nomi bilan o'rtta osiyoliklarga yaqindan tanish. Bu allomani xalqimiz o'zining qadimiy faylasufi deb biladi. Bu haqda yozilgan Bertels E. E.², Miller G. A.³, Omerovich B. Ya.⁴ ishlari bilan yaqindan tanishsak, sharqning atoqli faylasuf

¹ Esxil. Zanjirband Prometey. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1978, 11- bet.

² Bertels E. E. Izbr. Trudi. «Sufizm i sufiyskaya literatura» M.; «Nauka», 1965, str. 523.

³ Miller G. A. Primechaniya v kn. Aristotel i antichnaya literatura.—M.; «Nauka» 1978, str. 99.

⁴ Omerovich B. Ya. Opit i tradisiy sozdaniya arabyazichniy filosofskoy terminologii.—6kn. Al Forobi, Logicheskiye traktati. Alma-Ata, 1975, str. 604.

donishmandi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Tarxon ibn O'zlag al-Forobiy at-turk (870-yil) yashab o'tgan davrlardayoq (Sir daryo bo'ylarida) Aristotel nomi sharqda ma'lum va mashhurligidan xabardor bo'lamiz.

Al-Forobiy Eron, Iroq, Bag'dod, Misr, Damashq kabi Yunonistonga yaqin mamlakatlarda bo'lib, grek donishmandlari Aristotel va Platon ta'limoti bilan yaqindan tanishadi. Forobiydan ilgariyoq arab donishmandlari ijodi orqali Aristotel ta'limoti bilan tanishish boshlangan edi. Aleksandr Makedonskiy yurishidan so'ng to arab istilosigacha Yunoniston bilan O'rta Osiyo o'rtasida har tomonlama aloqa rivojlangan edi. O'sha vaqtlardayoq Aristotelning nomi o'rta osiyoliklarga ma'lum bo'la boshlagan edi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganimizda, Gretsya bilan O'rta Osiyo tarixi o'rtasida ma'lum darajada umumiylilik bor. Bu tarixni o'rganish ko'p jihatdan ahamiyatlidir. Alisher Navoiy Iskandarga qarshi kurashgan Eron shohi Doro qo'shinlari orasida yurtdoshlarimiz borligini bejiz tilga olib o'timagan edi.

Borong'or anga xayli Mashriq zamin,
Samarqanddin toki sarhadi chin.
Yana yuz ming o'zbek mo'g'ul birla zam,
Yuz ellik ming ul sori qalmoq ham! .

Ahmoniyalar davlatining yirik elatlaridan bo'lgan o'zbeklar, turkmanlar, tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar va boshqa ko'plab qo'shni ellarning vakillari Aleksandr Makedonskiy qo'shinlariga qarshi shiddat bilan jangga kiradilar.

Uzoq tarixga to'xtalganda turli xil taxmin va tavakkal fikrlar yuritishdan ko'ra, har bir tarixchi adib ijodiga alohida-alohida to'xtalishga to'g'ri keldi. Bu o'rinda bir narsani aytib o'tish lozim. O'lkamizning antik hayotida bo'lib o'tgan ayrim voqealarga har bir adib alohida to'xtalib o'tgan. Ya'ni bir tarixiy voqealarni bir necha adib ijodida talqin etilgan. Masalan, Klit fojiasi, Aleksandrning xalq urf-odatini qabul qilishi va uning mahalliy kiyimda yurishi, Roksanaga uylanishi, Kiropil shahrini qo'lga kiritishi, Besning qo'lga olinishi, Spitamenga qarshi kurashiga o'xshash juda ko'plab tarixiy voqealarni bir necha adiblar ijodida uchratamiz. Bu voqealarning nechog'li haqiqatga yaqinligini bilish uchun ularga qayta-qayta va alohida to'xtalishga to'g'ri keldi.

¹ Navoiy. A. Saddi Iskandariy, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1986, 312- bet.

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Qadimgi Yodnomalar	
Gerodot	26
Skiflar	36
Kvint Kursiy Ruf	44
Aleksandr Makedonskiy tarixi	46
Plutark	62
Qo'shaloq hayotnomalar	65
Arrian	75
Aleksandrning yurishi	81
Diodor	99
Polien	110
Harbiy hiylalar	112
Strabon	127
Jug'rofiya	134
Pompey Trog va Yustin	150
Tarihiy kundaliklar	159
Xalq ijodi durdonasi	165
Avesto	180
II bob. Antik dunyo voqealari	
Amazonkalar	218
Oltin junli terilar o'lkasi	233
Girkaniya	238
Fitna	246
Oks	260
Ovda	263
Sotibarzon	264
Doroning halokati	268
Bessning o'limi	274
Maroqand	277
Yaksart bo'yidagi skiflar	291
Spitamen	325

Nautak	339
So‘g‘d tog‘i	346
Roksana	350
«Osiyo shohi»ning odatlari	354
Baqtriya tomonlarda	359
Hindistonga yurish	363
Aleksandrning vafoti	371
Xulosa	376

Fayzulla Boynazarov

QADIMGI DUNYO TARIXI

Muharrir
Sahifalovchi

H.Teshaboyev
D. Abdusattorov

Bosishga ruxsat etildi 27.10.2006. Qog'oz bichimi 60x84. 1/₁₆
Hisob - nashr tabog'i 24. b.t. Adadi - 3000 nusxa.
Buyurtma raqami № 82.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti,
700084, Toshkent, H. Asomov ko'chasi, 7-uy.

Hisob-shartnoma №39-2006

MCHJ «Toshkent Tezkor bosmaxonasi»da chop etildi.
700200, Toshkent, Radial tor ko'chasi, 10-uy.

QADIMGI DUNYO TARIXI

F. BOYNAZAROV



Fayzulla Boynazarov 1952-yilda G'allaorol tumanida, ziyoli oиласида туг'илган. Samarqandda олият ат'им олгандан соң О'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida nomzodlik (1979), M. V. Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti doktoranturasini o'tab, 1991-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Filologiya fanlari doktori, 1992-yildan Jizzax Davlat pedagogika instituti professori, kafedra mudiri. Xalqaro Antique world ilmiy akademiyasining akademigi, vitse-prezidenti, «Antik Dunyo», «O'rta Osiyoning antik davri», «Qadimgi dunyo tarixi», «Qadimgi davr tarixi» darsliklari, ko'pgina ilmiy maqolalar muallifi. Xorijda uchta monografiyasini chiq qilingan.

ISBN 978-9943-13-008-1

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-13-008-1.

9 789943 130081